O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“YANGI O‘ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK TA’LIM VA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

20-21 IYUN 2025-YIL

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ “АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ”

2025-ГОД 20-21 ИЮНЯ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON “CURRENT PROBLEMS OF ORGANIZING PSYCHOLOGICAL EDUCATION AND PSYCHOLOGICAL SERVICES IN NEW UZBEKISTAN”

2025 YEAR 20-21 JUNE

NAMANGAN-2025

Tahririyat hay’ati: U.D.Turaxanov, M.A.Maxsudova,
Z.B.Kurbanova, G.R.Mansurova.

Ma’sul muharrir: U.D.Turaxanov

Taqrizchilar: DSc., prof. F.A.Akramova, (PhD) katta o‘qituvchi B.Z.Qayumov

Konferensiyaning asosiy strategik maqsadi psixologik xizmatni tashkil etishga oid hozirgi va istiqboldagi muammolarni aniqlash, zamonaviy bilim va tajriba almashish va Yangi O‘zbekistonda psixologik ta’lim va psixologik xizmatni tashkil etishning dolzarb muammolari bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni ishlab chiqishdan iborat.

Konferensiya sho‘balari doirasida Yangi O‘zbekistonda psixologik ta’limni tashkil etish tendensiyalari, zamonaviy psixologik ta’lim va psixologiyani o‘qitishning innovatsion texnologiyalari, ta’lim, tibbiyot va huquq-tartibot tizimida psixologik xizmatning ustuvor yo‘nalishlari, raqamli texnologiyalarning psixologik ta’lim va psixologik xizmat samaradorligiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqot natijalari aks etgan.

Ushbu konferensiya to‘plami mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, talaba va magistrantlar uchun foydali bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari ma’suldirlar. Konferensiya o‘tkazilishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27 dekabrdagi 490-sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan. Ushbu konferensiyasi materiallari Namangan davlat universitetining 2025 - yil 12 iyundagi 7 sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2019 yil 12 iyuldagi 577-son “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash uchun ushbu anjuman bevosita xizmat qiladi.

Zamonaviy bosqichda aholiga, ayniqsa yoshlarga sifatli psixologik xizmat ko‘rsatish, psixologik xizmat faoliyatini boshqarishni muvofiqlashtirish, voyaga yetmaganlar orasida psixologik salomatlikni keng targ‘ib etishga va psixik salomatlik bilim va ko‘nikmalarini yoshlar va kattalarda shakllantirish, ta’lim muassasalari bilan jamoat vakillari o’rtasidagi hamkorlikni sifat jihatdan yangi darajaga ko’tarish, Yangi O‘zbekistonda milliy psixologiya maktabini yanada rivojlantirish hamda oliy ta’limda tor ixtisosliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish, psixologik markazlar faoliyatini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga ijtimoiy psixologiya, yoshlar psixologiyasi, psixologik xizmat faoliyatini boshqarish, oilaviy konsultatsiya va kouching kabi bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini kiritish, psixologik ta’lim va psixologik xizmat samaradorligini oshirish bilan bog’liq ilmiy-amaliy va fundamental loyihalarni olib borish, psixologiya fani sohalari bo‘yicha yuksak ilmiy salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash tizimiga e’tiborni kuchaytirish kerak.

Shaxsni o‘rganish, tarbiyalash, unga alohida xizmat ko‘rsatish masalasi butun insoniyat oldida turgan azaliy muammo hisoblanadi. Zero, insonni bilish va uning tashqi (real) va ichki (ideal) olamiga adekvat ta’sir ko‘rsatish hamda shu ta’sirlar orqali uni boshqarish mumkinligi aniq bo‘lsa-da, bu jarayonda turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy-ma’naviy manfaatlar mushtarakligiga ham alohida e’tibor berishga to‘g‘ri keladi. Inson taraqqiyoti va faolligi, eng avvalo, uning ijtimoiy manfaatlari, mafkuraviy qarashlari sotsial-intellektual salohiyatiga ta’sir etuvchi omillar bilan belgilanadi va baholanadi. Qolaversa, insonning shakllanishi unga xizmat ko‘rsatuvchi tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-amaliy islohotlarning hosilasi hisoblanadi.

Bugungi kunda barcha mehnat va ta’lim muassasalarida, mahallalardagi aholining turli qatlamlarida psixologik xizmat tizimini joriy etish uchun “Nizom”lar ishlab chiqilmoqda. Ushbu “Nizom”lar asosida faoliyat yurituvchi amaliyotchi psixologlarga ham nazariy-ilmiy, ham amaliy-uslubiy bilimlar va qo‘llanmalar kerak bo‘ladi. Shu nuqtai nazaridan “Yangi O‘zbekistonda psixologik ta’lim va psixologik xizmatni tashkil etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi mazkur konferensiya bugungi psixologik xizmat nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liq tushuncha va yo‘nalishlarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri talqin qilishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

A.K.KIRGIZBAYEV - Namangan davlat universiteti- rektori tarix fanlari doktori, professor

1-SHO‘BA: YANGI O‘ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK TA’LIMNI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI

DIRECTLY CONNECTION OF MODERN PSYCHOLOGY WITH PEDAGOGY

Turaxanov Ummatali Davlatovich
NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotation. *This scientific article covers the emergence of pedagogical psychology, its main directions, its inextricable connection with modern psychological currents and its importance in today's educational and upbringing system. The relationship between pedagogy and psychology, their integrated role in the comprehensive development of the individual are widely analyzed. Also, the practical tasks of pedagogical psychology, methodological foundations, psychological approaches to youth education, psychological analysis of the personality of the teacher and student are presented.*

Keywords: *psychological directions, educational process, psychological foundations, pedagogical psychology, student personality, upbringing, cognitive activity.*

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada pedagogik psixologiyaning paydo bo‘lishi, uning asosiy yo‘nalishlari, zamonaviy psixologik oqimlar bilan uzviy bog‘liqligi va bugungi ta’lim-tarbiya tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Pedagogika va psixologiyaning o‘zaro munosabati, ularning integratsiyalashgan holda shaxsni har tomonlama rivojlantirishdagi roli keng tahlil etilgan. Shuningdek, pedagogik psixologiyaning amaliy vazifalari, metodologik asoslari, yoshlar tarbiyasida psixologik yondashuvlar, o‘qituvchi va o‘quvchi shaxsiyatining psixologik tahlili keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologik yo‘nalishlar, ta’lim jarayoni, psixologik asoslar, pedagogik psixologiya, o‘quvchi shaxsiyati, tarbiya, bilish faoliyati.*

Аннотация. *В данной научной статье освещается возникновение педагогической психологии, ее основные направления, неразрывная связь с современными психологическими течениями и значение в современной системе образования и воспитания. Широко проанализировано взаимосвязь педагогики и психологии, их роль в комплексном развитии личности в комплексе. Также представлены практические задачи педагогической психологии, методологические основы, психологические подходы в воспитании молодежи, психологический анализ личности педагога и ученика.*

Ключевые слова: *психологические направления, образовательный процесс, психологические основы, педагогическая психология, личность ученика, воспитание, познавательная деятельность.*

In the modern era, while the education system is rapidly developing, the importance of psychological relationships between all subjects participating in this process - teachers, students and parents - is increasing. Pedagogical psychology is a branch of science that studies the psychological laws of the educational process and serves the harmonious formation of the student's personality. This science ensures the effectiveness of education by improving the effectiveness of methods and approaches used in pedagogical activities, and by deeply studying the process of interaction between teachers and students.

Pedagogical psychology was first formed in the second half of the 19th century, with the development of experimental psychology. During this period, the main goal of pedagogical activity was to deeply study the psyche of children and

form an individual approach to the educational process. Also, the development of this scientific direction was greatly influenced by Behaviorism, Gestalt psychology, Cognitive psychology, and Humanistic approaches.

The concept and significance of pedagogical psychology is that “Pedagogical psychology” is a science that studies the mental processes in the upbringing and education of the human personality, their laws and ways of managing them. This field of science reveals the inner essence of the educational process: how knowledge is formed in a person, by what influences volitional and moral qualities are developed, by what methods knowledge is effectively mastered.

The subject of pedagogical psychology is the study of the mental development of a person in the educational process, cognitive activity, motivation, self-assessment and personal growth.

The inextricable link between psychology and pedagogy, Pedagogy and psychology are closely related scientific fields. If pedagogy teaches how to teach, psychology reveals what psychic mechanisms are involved in this process. Therefore, to ensure the effectiveness of pedagogical activity, it is necessary to rely on psychological knowledge.

For example:

It is impossible to determine an individual approach to a student without knowing his character and temperament.

If the level of knowledge acquisition, motivation, memory, attention, etc., are not taken into account, the quality of education will be low.

If the needs, values, and emotional state of the individual are not taken into account in the process of education, effective results cannot be expected.

The main areas of pedagogical psychology: Educational psychology.

This area studies the psychological mechanisms of cognitive activity in the educational process. In particular:

Attention, memory, thinking, speech, and will processes;

Interest, motivation, and intellectual level of students;

Psychological effectiveness of educational methods;

Difficulties in the process of independent learning and mastering new knowledge.

Educational psychology.

Studies the psychology of the formation of a person's moral, aesthetic, attitude to work, society, and homeland. Main issues:

Formation of positive qualities in a person;

The influence of the educational environment;

The influence of community psychology on student behavior;

Assessment of the influence of parents, teachers, and society.

Practical tasks and methodological foundations.

The practical and methodological tasks of pedagogical psychology include the following:

Development of methods for determining the level of knowledge acquisition;

Psychological substantiation of educational content, improvement of curricula;

Testing educational methods, measuring their psychological impact;

Creating conditions for independent thinking and the formation of a scientific worldview in students;

Psychological education based on national values: formation of national pride, patriotism, respect for the heritage of ancestors, etc.

Scientific research methods.

The main methods used in pedagogical psychology:

Observation, interview, questionnaire;

Psychological tests, experiments;

Study of age-related development (ontogenesis);

Drawing up a personal portrait, analysis of behavior.

These methods allow the teacher to deeply analyze the psyche of the student, find the right approach to him, and apply an individual approach to imparting knowledge.

CONCLUSION: Pedagogical psychology, as an integral part of today's modern educational process, serves to analyze the development of the individual, the psychological mechanisms of the process of knowledge and upbringing. Through this field of science, effective relationships between teachers and students, the psychological foundations of teaching and upbringing methods are determined. Also, this science is studied with the correct assessment of the stages of children's development, taking into account individual differences.

REFERENCES

1. M.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. *Pedagogika*. T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Hoshimov K., Nishonova S. *Pedagogika tarixi*. T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2001.
3. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. *Pedagogika tarixi*. T.: O‘qituvchi, 1996.
4. Hoshimov K., Ochil S. *O‘zbek pedagogikasi antologiyasi*. I-jild. T.: O‘qituvchi, 2010.
5. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. *Pedagogika nazariyasi*. T.: Fan va texnologiyalar, 2008.
6. Xasanboyev J. va boshqalar. *Pedagogika fanidan izohli lug‘at*. T., 2008.
7. Egamberdiyeva N.M. *Ijtimoiy pedagogika*. T.: A.Navoiy, 2009.
8. Mavlonova R. va boshqalar. *Ijtimoiy pedagogika*. T.: Istiqlol, 2009.
9. Karimova V.M. *Psixologiya*. T.: Sharq, 2002.
10. Nishanova Z. et al. Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya //T-2013. – 2011.
11. G‘oziyev E.G‘. *Umumiy psixologiya* (1–2 tom). T.: 2002.
12. Ivanov P.I., Zufarova M. *Umumiy psixologiya*. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.
13. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. *Umumiy psixologiya*. T.: Fan va texnologiyalar, 2010.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ НАСИЛИЯ В СЕМЬЕ И НЕОБХОДИМОСТЬ ПРОВЕДЕНИЯ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕР

Акрамова Феруза Акмаловна,
доктор психологических наук, профессор,
Национальный Педагогический Университет
Узбекистана имени Низами, Узбекистан, Ташкент
e-mail: akramova_feruza@mail.ru

Аннотация: *Насилие в семье является важнейшей социальной проблемой. В данной статье раскрыты виды насилия, факторы, влияющие на семейные отношения. Приведены результаты проведенного исследования у членов молодых семей и психологический анализ полученных результатов. Даны необходимые рекомендации по предупреждению семейного насилия и меры по укреплению семьи.*

Ключевые слова: *насилие, насилие в семье, домашнее насилие, психологическое насилие, физическое насилие, экономическое насилие, сексуальное насилие, негативные отношения, поведение, семейные конфликты, профилактическая работа.*

Annotatsiya: *Oiladagi zo'ravonlik eng muhim ijtimoiy muammodir. Ushbu maqolada zo'ravonlik turlari, oilaviy munosabatlarga ta'sir qiluvchi omillar ochib berilgan. Yosh oila a'zolari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari va olingan natijalarning psixologik tahlili keltirilgan. Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va oilani mustahkamlash bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.*

Kalit so'zlar: *zo'ravonlik, oiladagi zo'ravonlik, oiladagi zo'ravonlik, psixologik zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, salbiy munosabatlar, xatti-harakatlar, oiladagi nizolar, profilaktika ishlari.*

Annotation: *Domestic violence is a major social problem. This article describes the types of violence and factors affecting family relationships. The results of the conducted research among members of young families and the psychological analysis of the results are presented. The necessary recommendations on the prevention of domestic violence and measures to strengthen the family are given.*

Keywords: *violence, domestic violence, domestic violence, psychological violence, physical violence, economic violence, sexual violence, negative attitudes, behavior, family conflicts, preventive work.*

В развитом обществе за каждым человеком признаётся неотъемлемое право на жизнь, здоровье, свободу и достоинство. Любое посягательство на эти права является неприятным явлением и также преступлением. Осознав ценность человека как личности, общество не должно более мириться с насилием в семье.

Проблема насилия особенно актуальна в настоящее время в связи с широким распространением данного явления, особенно в семье. Насилие в семье является серьёзной социальной проблемой, представляющей прямую угрозу жизни для каждого человека и общества [1]. Насилие вообще, а семейное в особенности – это не только покушение на жизнь и здоровье, но и попрание конституционного права человека на охрану его достоинства. Эта проблема является объектом научного исследования социологии, психологии, юриспруденции и других дисциплин.

Насилие – неотъемлемая часть бытия на протяжении всего развития человеческого сообщества. И сегодня различные формы его проявления можно встретить во всех уголках мира [3]. Ежегодно от насилия на планете погибает более полумиллиона людей, и еще большее число получает телесные повреждения в результате межличностных конфликтов в семье и в социальных группах. По данным Всемирной организации здравоохранения насилие является – одной из основных причин смертности во всем мире людей в возрасте от 15 до 44 лет.

Проблема домашнего насилия (domestic violence) глобальна. Члены семьи становятся жертвами агрессивных действий значительно чаще, чем

посторонние люди [1]. Направленность значительной доли агрессии против близких, отмечается практически во всех странах, что дает основание говорить об универсальности этого явления.

Насилие в семье становится серьезной и масштабной проблемой, которая порождает множество других социальных и индивидуальных проблем. Последствиями насилия в семье становятся телесные повреждения, психические расстройства, самоубийства, а также потеря чувства самоуважения у жертвы. Наблюдения врачей показывают, что участились случаи, когда частое издевательское и грубое отношение способствует и провоцирует у жертвы ответные насильственные действия по отношению к агрессору.

Мы считаем, что необходимо не только наказывать виновных, но также необходимо реабилитировать жертву насилия и вести работу с человеком, совершившим насилие, во избежание повторения подобных случаев.

В данной статье мы рассмотрим проявление внутрисемейных конфликтов и насилия в молодой семье. Духовные ценности молодой семьи становятся ограничивающим фактором проявления внутрисемейных конфликтов и насилия в семье. Под насилием обычно подразумевают причинение психологического, физического, экономического или сексуального насилия по отношению к члену семьи, а также запугивание, изоляция и принуждение. Насилие применяется для установления и укрепления власти и контроля одним человеком над другим. Такое отношение на регулярной основе порождает ощущение беспомощности, угнетенности.

В целях изучения проблемы насилия в семье нами проведено исследование среди молодых семей. Основной целью исследования было изучение проблемы насилия в семье и отношения к ней молодежи. Распределение по полу среди респондентов: респонденты мужского пола – 28,1 %, респонденты женского пола – 71,9 %. Возраст респондентов был следующим: 19-25 — 84,4 %; 26-35 лет – 9,4 %; более 35 лет – 6,3%. Семейное положение более половины опрошенных женат или замужем – 37,5%, не женаты/ не замужем – 21,9%, живут с родителями – 40,6%.

При проведении исследования для выявления отношения молодежи к проблеме насилия использовался метод анкетирования в виде опроса.

Физическое насилие — умышленное причинение вреда здоровью путем применения физической силы и причинения физической боли. Также это причинение страха, боли, травм, других физических страданий или телесных повреждений [5].

Таблица - 1.

«Какому виду насилия подверглись Вы и члены Вашей семьи?» в %.

ВОПРОС	ВИДЫ НАСИЛИЯ	Ответ в %
Какому виду насилия подверглись Вы и члены Вашей	физическое	30,0
	психологическое	33,0
	экономическое	29,0
	сексуальное	4,0

семьи?	никакому	4,0

Целью физического насилия является контроль над человеком. Физическое насилие может стать кульминацией оскорбительного поведения, такого как угрозы, запугивание и ограничение в чем-то посредством изоляции, манипуляций и других ограничений личной свободы. По результатам опроса физическому насилию периодически подвергались 30,0 % опрошенных членов семей.

Психологическое насилие — умышленное воздействие на психику человека, унижение чести и достоинства посредством угроз, оскорблений, шантажа, представляющих опасность для жизни или здоровья, а также ведущих к нарушению психического, физического и личностного развития [5]. По результатам опроса психологическое насилие испытали 33,0 % членов молодых семей.

Экономическое насилие – умышленное лишение человека жилья, пищи, одежды, имущества, средств, на которые он имеет предусмотренное законом право, контроль над финансовыми и прочими ресурсами семьи, ограничение денег на «содержание», вымогательство, принуждение к вымогательству. Также относятся запрет на получение образования или трудоустройства, или намеренная растрата финансовых средств семьи с целью создания напряженной обстановки [5]. По результатам опроса экономическому насилию периодически подвергались 29,0 % опрошенных членов молодых семей.

Сексуальное насилие - умышленное противоправное действие, посягающее на половую неприкосновенность или половую свободу человека, попытка совершения акта или другие действия с использованием принуждения. Независимо от материального положения и в определенное время оно перерастает к физическому насилию [6]. По результатам опроса сексуальному насилию подвергались 4,0 % опрошенных членов молодых семей.

Таблица - 2.

«Оказались ли Вы и члены Вашей семьи в ситуации насилия?» в %.

ВОПРОС	СИТУАЦИИ	Ответ в %
Оказывались ли Вы и члены Вашей семьи в такой ситуации?	Оскарбление	13,0
	Запугивание	4,0
	Запрет встречаться с друзьями	7,0
	Ограничение в деньгах	5,0
	Запрет выходить на улицу	5,0
	Запрет учиться	3,0
	Сексуальное насилие	2,0
	Нанесение телесных повреждений	2,0
	Насилия не было	59,0

Как видно, из таблицы – 2, отмеченные респондентами ситуации «оскарбление» - 13,0 % , «запугивание» - 4,0 %, «запрет встречаться с друзьями» - 7,0 %, «ограничение в деньгах» - 5,0 %, «запрет выходить на

улицу» - 5,0 %, «запрет учиться» - 3,0 %, «нанесение телесных повреждений» - 2,0 % не считают формами насилия; поэтому по мнению респондентов ситуация «насилия не было» - для них считается приемлемой (59,0 %).

Большинство респондентов отмечают, что насилие в молодой семье в той или другой форме обычно совершались супругом (более 23,7 %) и свекровью (8,6 %). 20 % опрошенных из числа вступивших в брак до 17 летнего возраста указали, что испытывали негативное воздействие в большей части со стороны свекрови (20-30 %) и со стороны своего супруга (42 %).

Таблица - 3.

«Со стороны кого в семье совершались негативные действия?» в %.

ВОПРОС	СИТУАЦИИ	Ответ в %
Со стороны кого в семье совершались негативные действия?	Супруга (и)	23,7
	Отца	3,5
	Матери	5,5
	Свекрови	8,6
	Свёкра	3,4
	Братьев (сестёр)	3,0
	Братьев (сестёр) супруга (и)	4,0
	Другой	23,0

Основными причинами проявления различных форм насилия респонденты отметили противоречивости в характере, ревность супруга или супруги, вредные привычки в виде пьянства, алгоколизма, эгоизма.



Рис.1. «Со стороны кого в семье совершались негативные действия?» в %.

Различные межличностные конфликты и попытки различных форм насилия в конечном итоге всегда приводят к разводам молодых семей [5]. Результаты проведенного опроса, показали, что для создания прочной семьи и семейных отношений необходимо разработать и реализовать программы по профилактике семейно-бытового насилия; вести профилактический учет и осуществлять профилактический контроль, лиц, совершивших насилие; устранять причины совершения насилия; принимать меры социальной реабилитации и социальной адаптации лиц, попавших под насилию; оказывать помощь семьям, находящимся в социально опасном положении; осуществлять разъяснительную и агитационную работу по предупреждению бытового насилия и принимать меры по укреплению семьи.

Использованная литература:

1. Акрамова Ф.А. Социально-психологические проблемы семейной психологической службы

в Узбекистане, автореферат докт.дисс. Ташкент 2022, стр. 67
2. Варга А. Домашнее насилие. // «Трудные взрослые – трудные дети». О домашнем насилии и подростковых правонарушениях. – Москва: Издательский дом «Самокат», 2014. Стр.82-83.
3. Государственная программа действий в сфере прав человека /2016-2020 гг./ http://russian.news.cn/importnews/
4. Забелина Т.Ю., Исраелян Е.В., Шведова Н.А. Канада и проблема насилия в семье: двадцать лет борьбы. http://www.owl.ru/win/research/kanada.htm.
5. Муйжниекс Н. В обществе должен произойти культурный сдвиг: нельзя поощрять и оправдывать насилие. Коммерсант. 2 февраля 2017. https://www.kommersant.ru/doc/3211703
6. Русланова Р.И., Милюхин К.В. Насилие в семье. Учебное пособие. М. 2010. С.46.
7. Сорока А. Что женщины должны знать о домашнем насилии. https://germania.one/chto-zhenshhiny-dolzhny-znat-o-domashnem-nasilii/

PSIXOLOGIK TA'LIM va XIZMATNING PSIXOLOG OLIMLAR TOMONIDAN TALQIN ETILISHII

Maxsudova Mutabarxon Abdusalomovna
Ps.f.n dotsent
Psixologiya kafedrasi
Namangan davlat universiteti, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixologik ta'limni psixolog olimlar tomonidan talqin etilishi, nazariy va amaliy tomondan ishlab chiqilganligi,solishtirma tahlillar.*

Kalit sozlar: *psixologik ta'lim, psixologik xizmat, psixologik g'oyalar, adekvat ta'sir etish, insonni o'rganish.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается трактовка психологического образования учеными психологами, его теоретическая и практическая разработка.*

Ключевые слова: *психологическое образование, психологическая служба, психологические идеи, адекватное воздействие, изучение человека.*

Annotation: *This article discusses the interpretation of psychological education by psychologists, its development from both theoretical and practical perspectives, comparative analyses.*

Keywords: *psychological education, psychological service, psychological ideas, adequate influence, study of the human being.*

KIRISH. Bu yorug' olamda eng oliy xilqat hisoblangan insonni o'rganish, uni tarbiyalash, unga alohida xizmat ko'rsatish muammosi butu insoniyat paydo bo'lishining ibtidosidan boshlab intixosiga qadar o'ziga obyektiv va subyektiv imkoniyatlar ko'lami bilan bog'liq ravishda namoyon bo'lib kelayotganligini bugungi hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Zero, insonni bilish va uning tashqi (real) va ichki (ideal) olamiga adekvat ta'sir ko'rsatish va shu ta'sirlar orqali uni boshqarish mumkinligi aniq bo'lsa-da, bu jarayonda turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va ma'naviy manfaatlar mushtarakligiga ham alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi. Chunki inson taraqqiyoti va faolligi, eng avvalo, uning ijtimoiy manfaatlari, mafkuraviy qarashlari sotsial intellektual salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar bilan belgilanadi va baholanadi. Qolaversa, insonning shakllanishi unga xizmat ko'rsatuvchi tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-amaliy islohotlarning hosilasi hisoblanadi. Shu ma'noda

psixologik xizmat fani o‘zining shakllanishi va tuzilishiga ko‘ra faqat insonga va uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga bevosita xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bugungi ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘liq innovatsion yondashuvlarga keng ko‘lamdagi imkoniyatlarning ochib berilishi har bir innovatsion g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi insonga psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini yanada mukammallashtirishni taqozo etmoqda. Bunga javoban bugungi kunda barcha mehnat va ta’lim muassasalarida, mahallalardagi aholi qatlamlarida psixologik xizmat tizimini joriy etish uchun “Nizom”lar ishlab chiqilmoqda. Ushbu “Nizom”lar asosida faoliyat yurituvchi amaliyotchi psixologlarga ham nazariy-ilmiy, ham amaliy-uslubiy bilimlar va qo‘llanmalar kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar taxlili. Psixologik xizmat fani shakllanishining nazariy-ilmiy metodologik asoslari umumiy psixologiya fani shakllanishi bilan bog‘liq uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Albatta, psixologik xizmat fani dastlabki psixologik tushunchalarning paydo bo‘lish va rivojlanish davrlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, psixologik xizmat fani haqidagi dastlabki mushohadalar eramizdan oldingi davr mutafakkirlari Fales (e.o. VII–VI asrlar), Aflotun (e.o. V–IV asrlar), Anaksimon (e.o. V asr), Geraklit (e.o. VI–V asrlar), Demokrit (e.o. V–IV asrlar), Epikur (e.o. V–IV asrlar), Galen (e.o. II asr) kabilar nazarida o‘sha davr uchun muayyan ma’noda ilmiylik kashf etgan mulohazalarni alohida ta’kidlash joiz.

Qadimgi dunyoning bir muncha keyingi rivojlanish davrlarida ham tibbiyot, fiziologiya, fizika, mantiq kabi fanlar tizimidagi yangi kashfiyotlar inson psixologik holatini adekvat tushunish va tavsif etish bo‘yicha ilmiy yondashuvlarga asos solindi. Jumladan, rimlik shifokorlar Gippokrat (e.o. V asr), Galen (e.o. II asr), Demokrit (e.o. V–VI asr), Epikur (e.o. IV–III asr), Demokrit (e.o. V–IV asr), Sokrat (e.o. V–IV asr) kabi mutafakkirlarning mushohadalari dastlabki psixologik xizmat tushunchalarining shakllanishiga turtki bo‘ldi.

“Psixika”, “ong” tushunchalari tibbiy fiziologik bilimlar bilan bir muncha sayqal topdi. Ayni paytda fransuz olimi R. Dekard (1596–1650) tomonidan individ xulq-atvorining reflektorlik tabiati xos jihatlarining ilk bor kashf etilishi va uning keyinchalik rus olimlari I.S. Sechenov va I.P. Pavlovlar tomonidan o‘ziga xos ilmiy asoslar bilan rivojlantirilishi insonning psixologik ta’sir doiralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Nemis mutafakkiri Leybnits (1646–1716), ingliz faylasuflari Jon Lokk (1632–1704), Gartli (1705–1757), fransuz olimi Didro (1713–1784) kabilar tomonidan psixologiyada assotsiativ qonuniyatlar haqidagi ta’limotlarning yaratilishi psixologik bilimlarni yanada takomillashuvini ta’minlashga xizmat qildi. Jumladan, psixologiya fanining eksperimental, psixoanalitik, bixevirioristik, empirik, geshtalt, psixogenetik, gumanistik, biogenetik, sotsiogenetik kabi yo‘nalishlari tomonidan olingan ma’lumotlar tizimi hozirgi zamon psixologik xizmat fani ildizlarining yaratilishiga asos bo‘ldi.[1]

O‘tmishdagi tarixiy davr sivilizatsiyasi vakillaridan biri Aflotunning (eramizdan oldingi 428/427–347-yillar) xizmatlari shundaki, u jonning qismlari to‘g‘risidagi dastlabki psixologik tushunchani yaratdi. Shunday qismlardan aql-idrokni, jasoratni va orzu-istakni alohida ajratib ko‘rsatdi va ular tananing turli

qismlari (bosh, ko‘krak, qorin bo‘shlig‘i)da joylashgan bo‘ladi, degan fikrni ilgari surdi.Psixologiya faning fan sifatida rivojlanishining ikkinchi bosqichida psixologiya ongni o’rganuvchi fan sifatida rivojlana boshlagan. Unga ko’ra, ongni o’rganish XVII asrda tabiiy fanlarni o’rganish bilan boshlangan. Fikrlash, xoxlash, his qilish qobiliyatini ong deb atashgan. Osha davrlarda o’z-o’zini kuzatish metodi asosiy metod sifatida foydalanilgan. XVII davrga kelib biologiya va psixologiya fanlari uchun rivojlanish davri bo’lgan. U davrda Dekart (1596-1650) tomonidan osh davrlarda xulq-atvorni reflektor tabiatga ega ekanligini aytgan.

Psixologiya fanining ilmiy qurilishida o’z xissasini qo’shgan olimlardan biri Gobbs (1588-1679) ruxni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni asosiy qonuniyat sifatida tan olib, uning qonuniyatlarni psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini aytadi. Osha davrning mashxur olimlar Spinoza (1632-1677), Leybnis (1646-1716), Jon Lokk (1632-1704), I.M. Sechenov (1896-1934) ular ongni yusak tashkil topgan materiya sifatida hamda uni tashqi muhit bilan o’zaro darajada rivojlanishini, psixologik jarayonlar bilan o’zaro bog’liq ekanligini va miyyaning nerv-fiziologik jihatdan ham ta’siri bor ekanligi haqida tajribalar olib borishgan va o’z nazariyalarini amaliy jihatdan isbotlashga harakat qilishgan.

Shunday olimlardan biri aqlda hech qanday tug’ma g’oyalar va tamoyillar bo’lishi mumkin emasligi haqidagi ta’limotning asoschisi ingliz faylasufi va pedagogi, ,,Tarbiya haqida fikrlar’’ kitobi muallifi Jon Lokk hisoblanib, uni empirik psixologiyaning asoschisi deb ataladi. Uning fikrlariga ko’ra, tajribaning asosan ikki turi farqlanadi:

- Tashqi tajriba- bunda asosan tashqi sezgi azorarining faoliyati asosisa yig’ligan tajribalar hisoblanadi.
- Ichki tajriba- bu turida ongimizda idrok qilingan tajriba turiga aytiladi.

Jon Lokkning eng mashxur bo’gan qarashlaridan biri - bola hech qanday g’oyalarga ega bo’lmagan holda dunyoga keladi va uning ruxi ,,toza taxta’’ bo’lib, keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi.

XIX va XX asrlarga kelib psixologiyaning rivojlanishi yangi bosqichga ko’tarildi va uning rivojlanishiga Amerikalik psixolog U. Djems «O’qituvchilar bilan psixologiya to’g’risida suhbat», K.Byuler xonim (1879-1963), E.Gekkel va F.Myuller, S. Xoll (1844-1924), E. Dyurkgeym (1858-1917), J. Piaje (1896-1980), E. Krechmer, E.Erikson, Dj. Kelli kabi mashxur olimlar o’z hissalarini qo’shishgan. E.Gekkel va F.Mullerning ,,biogenetik qonuni’’ shu vaqtgacha o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Unga ko’ra, ontogenetz filogenezda qisqacha takror; anadi degan firkin ilgari suradi. Bundan kelib chiqadiki, odamlarning taraqqiyot davri o’zining ajdodlarini taraqqiyot davrini qaytaradi. Ya’ni individlarning bilogik jihatdan paydo bo’lishida ozining ajdodlarini takrorlaydi degan g’oyani ilgari suradi.

Psixologiya tarixida o’z izini qoldirgan olimlardan yana biri S.Xoll E.Gekkelning fikrlarini asoslagan xolda uni psixologiyaga ko’chiradi va o’zini nazariyasini yaratadi. Uning fikriga ko’ra ,,irsiyat’’ filogenezi ontogenezda takrorlanadi xolos va bolalardagi xatti-xarakatlarning rivojlanishini tarix ajdodlarimizning rivojlanishiga borib taqalishini ko’rsatadi deb xisoblaydi va tegishli taqqoslanishlarni izlab topadi:

- bolalar daraxtlarga tirmashib chiqar ekan demak yovvoyilik davrini takrorlaydi;
- bolalar tuproq o'ynab unga cho'p tiqar ekan, dehqonchilik davrini takrorlaydi;
- bolalar kamon va o'q yasar ekan, ov va urushlar davrini takrorlaydi;
- bolalar marka, etiketka yig'ar ekan savdo-sotiq davrini takrorlaydi.

Insonning rivojanib o'sishida uning xulq-atvoridagi o'zgarshlarni ham hisobga olishgan. Bunga ko'ra koplab olimlar individlarning o'zib rivojlanishi va ulardagi xulq-atvorning namoyon bo'lishiga qarab ular turlicha yosh guruhlariga qarab toifalashgan. Ulardan biri psixodinamika nazariyasi namoyondalaridan biri Erikson insonning umrini o'ziga xos betakror xususiyatlariga qarab 8ta davrga bo'linadi:

- **Birinchi davr** - go'daklikda tashqi dunyoga ongsiz «ishonch» tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rligi va jonkuyarligidir.
- **Ikkinchi davr**- ilk bolalikda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadigan davr.

- **Uchunchi davr – o'yin yoshi** deb ataladi va unga 5-7 yoshli bolalar kiradi. Bu davrda tashabbus tuyg'usi qandaydir ishlarni amalga oshirish, bajarish mayli tarkib topadi.
- **To'rtinchi davr** – maktab yoshi boladagi asosiy o'zgarishlar: ko'zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik bilan ajralib turadi.
- **Beshinchi davr –** o'spirinlikni betakror xislati, o'ziga xosligi, boshqa odamlardan keskin farqlanishi bilan xarakterlanadi. SHuningdek, o'spirinlik shaxs sifatida noaniqligi muayyan rolni uddalamaslik, qat`iyatsizlik singari salbiy sifatlarga ham egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati «rolini kechiktirish»ning o'zgarishi hisoblanadi.
- **Oltinchi davr –** yoshlik boshqa jinsga psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi.
- **Ettinchi davr** – etuklik davrida hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnatda, ijodiyotda, g'amxo'rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatish va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg'usi uzluksiz hamroh bo'ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi.
- **Sakkizinchi davr**, yani qarilik inson sifatida o'z burchini uddalay olganligidan, turmushning o'mrovliligidan qanoatlanish tuyg'ulari bilan xarakterlanadi. Salbiy xususiyat sifatida esa hayot faoliyat noumidlilik, ko'ngil sovish tuyg'ularini aytish mumkin.[4]

XULOSA. xulosa o'rnida aytish kerakki, psixologik ta'limni tashkil etishda psixolog olimlarning fikr mulohazalarining o'rni juda ham katta. Ular shaxsni o'rganishda turli yondashuvlardan foydalanishgan va ularning har biri alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning qarashlari va nazariyalarini o'rganish bizga shaxs haqida bilimlarimiz yanada mustahkamlanishiga va insoniyatni yanada chuqurroq o'rganib tushunishimizga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. Toshkent. „Universitet„ -2002. https://edu.utu-ranch.uz/
2. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Umumiy psixologiya. Toshkent-2009. https://n.ziyouz.com/
3. E.G'oziyev Ontogenez psixologiyasi. Toshkent „NIFMSH'' -2020. https://namdu.uz/

4. Z.T.Nishanova, N,G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.N.Xolnazarova ,,Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya''. ,,O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti'' Toshkent-2018.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/

PSIXOLOGIYA FANI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA PSIXOLOGIK TA'LIM

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada psixologiya fanining o'tgan asrdagi taraqqiyoti va zamonviy bosqichdagi rivojlanish jarayoniga ta'sir etib kelayotgan asosiy tendensiyalar tahlili keltirilgan. Shuningdek zamonaviy psixologik ta'lim mazmunida aks etayotgan psixologiya maktablari- bixeviorizm, kognitiv psixologiya, geshtalt psixologiya, psixoanaliz, genetik psixologiya, gumanistik psixologiya va boshqalar nazariy qarashlarining talabalarda inson ruhiyati haqidagi bilimlarni mukammal o'rganishdagi ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *psixologik ta'lim, bixeviorizm, kognitiv psixologiya, ekzistensializm, gumanizm, amaliy va tadbiqiy psixologiya, geshtalt psixologiya, psixoanaliz, genetik psixologiya, gumanistik psixologiya.*

Аннотация: *В статье представлен анализ основных тенденций, повлиявших на развитие психологии в прошлом веке и ее развитие на современном этапе. Также раскрывается значение теоретических воззрений школ психологии - бихевиоризма, когнитивной психологии, гештальтпсихологии, психоанализа, генетической психологии, гуманистической психологии и др., отраженных в содержании современного психологического образования, в комплексном изучении студентами знаний о психике человека.*

Ключевые слова: *психологическое образование, бихевиоризм, когнитивная психология, экзистенциализм, гуманизм, практическая и прикладная психология, гештальтпсихология, психоанализ, генетическая психология, гуманистическая психология.*

Annotation: *This article presents an analysis of the main trends that have influenced the development of psychology in the past century and its development at the modern stage. It also reveals the importance of the theoretical views of the schools of psychology - behaviorism, cognitive psychology, Gestalt psychology, psychoanalysis, genetic psychology, humanistic psychology, etc., reflected in the content of modern psychological education, in the comprehensive study of knowledge about the human psyche by students.*

Keywords: *psychological education, behaviorism, cognitive psychology, existentialism, humanism, practical and applied psychology, Gestalt psychology, psychoanalysis, genetic psychology, humanistic psychology.*

Zamonaviy ta'limning eng muhim maqsadi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga qodir, jamiyatda, madaniyatda, kasbiy faoliyatda erkin va mustaqil shaxs sifatida o'zini namoyon eta oladigan insonni tarbiyalashdir. Rivojlantiruvchi ta'lim talaba shaxsining barcha (hissiy, shaxsiyatli, ma'naviy va axloqiy) sohalariga xos ijodiy salohiyatini faollashtirishga yordam beradigan sharoitlar yaratishni dolzarb vazifa sifatida birinchi o'ringa qo'yadi.

Hozirgi kunda psixologiyani o'qitish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Psixologik ta'lim ko'lami va ahamiyati sezilarli darajada ortgan. Psixologiya turli xil ta'lim muassasalarida o'qitiladi va turli xil o'quv dasturlarining

bir qismiga aylandi. Psixologiya ixtisosligi bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyt kasb etmoqda.

Psixologiya fani rivojlanishidagi mavjud tendensiyalar talabalarga o‘qitiladigan psixologik bilimlar mazmunida muayyan tarzda o‘z aksini topadi. Mutaxassislar tomonidan psixologiya rivojlanishining muhim psixologik yo‘nalishi ajratib ko‘rsatilgan.

Bixeviorizm XX asrning birinchi yarmida psixologiya fanida yetakchi nazariy ta’limot va empirik tadqiqotlar uchun metodologik asosga aylandi. Bixevioristik mazmunga yo‘naltirilgan kurslar, nazariyalar va eksperimental faktlar universitetlarda talabalarga o‘qitiladigan kurslarning odatiy mazmuniga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmida bixeviorizm jiddiy tanqid qilindi va psixologlar orasida juda kam ommalashdi. Buning asosiy sababi aqliy komponentni xulq-atvorni tahlil qilishda qo‘llamaslik, bilish jarayonlarini e’tiborsiz qoldirish va ta’limga soddalashtirilgan holda yondashilganligi edi. Bu psixologiyaning ichki ruhiy hodisalar haqidagi fan sifatida mohiyatiga zid hisoblanardi. Zamonaviy psixologiyada bixeviorizmning tarafdorlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Shuning uchun bixeviorizm o‘quv predmetlari mazmunida juda ko‘p o‘rin egallamagan, balki psixologiyaning metodologik asosi sifatida e’tirof etib kelingan. [1.100.]

Kognitiv psixologiya XX asrning 60-yillarida jadal rivojlana boshladi va zamonaviy ilmiy psixologiyaning eng muhim yo‘nalishiga aylandi. Kompyuter texnologiyalarida amalga oshiriladigan operatsiyalar inson miyasining bilish jarayonlariga o‘xshashligini taqqoslaganda juda qiziqarli ilmiy tadqiqotlar g‘oyasini vujudga keltirdi va aqliy faoliyat mexanizmlarini tushunish uchun juda ko‘p yangi ma’lumotlar berdi. Shu munosabat bilan universitetlarda ijtimoiy kognitiv psixologiya bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari o‘qitilmoqda. Kognitiv psixologiya ma’lumotlari boshqa fanlarni o‘qitishda ham tobora ko‘proq o‘rin egallamoqda. Biroq, kompyuterda hissiyot va motivlar mavjud emas, bu uni inson psixikasining modeli sifatida ko‘rib chiqish imkonini bermaydi. XX asrning 90-yillardan boshlab, ehtimol avvalgi davr psixologiyasining kognitiv yo‘nalishga ega bo‘lganligi sababli tadqiqotchilarda inson faoliyatining hissiyotlari, motivatsiyasi va o‘zini o‘zi boshqarishiga oid muammolar katta qiziqish uyg‘ota boshladi. Psixologiya fanining ushbu sohasidagi ilmiy ishlar va nashrlar soni sezilarli darajada oshdi. Shunga ko‘ra, ushbu mavzu o‘quv kurslarida ko‘proq aks ettirildi.

Ekzistensializm, gumanizm falsafasiga asoslangan gumanistik psixologiya hozirgi zamon psixologiyasida juda ommalashdi. U o‘ziga xos yaxlit shaxsga, uning o‘zini anglashi, gumanistik e’tiqod va o‘z kuchiga ishonishiga e’tibor qaratdi. Psixologik yo‘nalishlarning markaziy tushunchasi: “Men” kontseptsiyasi, sevgi, asosiy ehtiyojlarni qondirilishi, oliy qadriyatlar, mohiyat, o‘z-o‘zini dolzarblashtirish, ijodkorlik va boshqalar edi. Gumanistik psixologiya shaxs nazariyalari, psixoterapiya amaliyoti va psixologik maslahatning rivojlanishiga hissa qo‘shdi.

XX asrning ikkinchi yarmida psixologiya rivojlanishining asosiy tendensiyasi sifatida amaliy va tadbiqiy psixologiya rolining ortishi, uning psixologiya yo‘nalishi sifatida rivojlanishi ahamiyatga molikdir. Psixologiyaning umumnazariy,

metodologik muammolarini, psixik faoliyatning umumiy mexanizmlarini o‘rganish o‘zining avvalgi ahamiyatini yo‘qota boshladi. Jamiyat hayoti, kasbiy faoliyat xususiyatlari va insonlar hayotiga oid muammolarni hal etish dolzarb amaliy vazifalarni yechishga yo‘naltirilgan amaliy tabiatga ega tadqiqotlar ko‘lamining kengayishiga olib keldi. Odamlarning psixologiyadan manfaat kutishi, hayotiy muammolarni bartaraf etishda psixologiyaga ishonishi fanning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Zamonaviy ta’lim dasturlarida amaliy va tadbiqiy yo‘nalishdagi o‘quv predmetlari yetarli darajada o‘ringa ega bo‘lib bordi.[1.101.]

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy psixologiya rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati turli ilmiy maktablar va yo‘nalishlar o‘rtasidagi chegaralarning asta-sekin yo‘qolib borishi edi. XX asr psixologiyasi metodolik yondashuvlar va tushunchalarning qarama-qarshiligi maydoni sifatida tavsiflandi. Shunga ko‘ra, olimlar tomonidan psixologiyani o‘qitish ushbu g‘oyalarni tarqatish vositasi edi. Talaba psixologik ta’limining mazmuni u qayerda va kim tomonidan o‘qitilganligi bilan belgilangan. Zamonaviy psixologik nazariyalarni aniq tasniflash va u yoki bu nazariy ta’limotlarga kiritish qiyin bo‘lib qoldi.

Eklektizm turli yo‘nalishdagi olimlar va ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilgan g‘oyalarning kombinatsiyasi sifatida yangi ilmiy kontsepsiyalar uchun odatiy yondashuvga aylandi. Zamonaviy psixologik nazariya va empirik tadqiqotlarda turli xil psixologik kontsepsiyalar- bixeviorizm, geshtalt psixologiya, psixoanaliz, genetik psixologiya, gumanistik psixologiya, kognitiv psixologiyadan olingan bilimlar integratsiyalashib bordi. Psixologiya asta-sekin yagona ilmiy predmetga aylanib bormoqda. Alohida metodologik qarashlar va ilmiy maktablar ko‘pincha qaysi biri to‘g‘ri ekanligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilmaydi. Ular psixologiyadagi mavjud turli ilmiy yo‘nalishlar sifatida talabalarga o‘qitiladi. Chunki ularning har biri insonning psixik dunyosini o‘ziga xos tarzda o‘rganadi. Talabalar inson xulq-atvori dunyosini eklektik- ko‘p qirrali tarzda ko‘rishni va tahlil qilishni o‘rganadilar.

Psixologiya rivojlanishining zamonaviy tendensiyasi psixologik bilimlar va psixologiya fani tarmoqlarining muhim farqlanishi (differensiatsiyasi) bilan bog‘liq. Psixologiyaning tarmoqlari ular foydalanadigan tadqiqot metodlari, o‘rganayotgan obyektlari va muammolari, psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari asosida yuzaga keldi. Turli mualliflar psixologik tadqiqotlar yoki psixologik amaliyotning ko‘plab yangi mustaqil yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatishadi. Biroq, o‘quv predmeti sifatida o‘qitiladigan fanlar soni ancha kam. Psixologiya juda tarmoqlanib ketgan fanga aylandi va endi bir soha mutaxassislari boshqa psixologik bilimlar va ilmiy tadqiqotlar sohasida yetarlicha kompetentlikka ega bo‘la olmay qoldilar. Bundan tashqari, ko‘plab olimlar o‘zlarining ilmiy muammolariga shunchalik chuqur kirib bordilarki, boshqa psixologik muammolarga bo‘lgan qiziqishni butunlay yo‘qotdilar. Psixologiya fani ham o‘zining yaxlitligi va birligini yo‘qota boshladi. Shuning uchun asosiy psixologik ta’limning mazmuni odatda psixologik bilimlarning barcha fundamental va amaliy sohalari asoslarini o‘rganishni o‘z ichiga olishi psixologiyaning yaxlitligini saqlashning eng samarali usulidir.[2.224]

Zamonaviy psixologiya fani rivojlanishining o‘ziga xos tendensiyasi ham uning baynalmilallashuvidir. XX asrning boshlarida bixeviorizm kuchli milliy ildizlarga ega bo‘lib u asosan Amerika psixologiyasining yo‘nalishi hisoblangan. Geshtalt psixologiya Germaniyada, psixoanaliz -Avstriyada, genetik psixologiya Shveysariyada, madaniy va tarixiy psixologiya -Rossiyada keng tarqaldi. Keyinchalik sanab o‘tilgan ilmiy maktablar ushbu mamlakatlardan boshqalariga ko‘chirila boshlandi. Bunga turli omillar ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, ikkinchi jahon urushi davrida ko‘plab yevropalik olimlar AQSHga ko‘chib ketishdi. Ularning nazariyalari va tadqiqot ma’lumotlari amerikalik psixologlar o‘rtasida mashhurlikka erishdi. Bu Amerikani jahon psixologiyasining markaziga aylantirdi. Boshqa tomondan, XX asrning 80-90-yillarida Amerika psixologiyasi boshqa mamlakatlarda olib boriladigan ilmiy va psixologik tadqiqotlarga juda katta qiziqish bildira boshladi. Zamonaviy bosqichda butun dunyoda psixologiyaning baynalmilallashuvi avj olib xalqaro aloqalar kengayib bormoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy asarlarning bir tildan ikkinchi tilga tarjimalari soni ancha ko‘paydi. Ingliz tilining psixologlar xalqaro ilmiy aloqalari tiliga aylanishi zamonaviy psixologiyaning yana bir muhim tendensiyasi hisoblanadi. Bu psixologik ta’limni zamonaviy psixologik bilimlar bilan boyitadi, mutaxassislarning milliy izolyatsiyasining oldini oladi. Hozirgi kunda ingliz tili psixologlarning xalqaro muloqotining tipik tiliga aylanib bormoqda. Bu ilmiy g‘oyalar almashinuvi va empirik tadqiqotlar natijalarini sezilarli darajada osonlashtiradi va tezlashtiradi. Ko‘pgina xalqaro ilmiy va psixologik jurnallar dunyodagi ko‘plab psixologlar uchun eng qulay til sifatida ingliz tilida nashr etiladi. Ingliz tili tobora ko‘plab ilmiy anjumanlarning ishchi tiliga aylanib bormoqda. Bularning barchasi psixologiyaning fan sifatida globallashuviga, uning turli mamlakat olimlari olgan bilimlar bilan boyitilishiga katta hissa qo‘shdi. Shuning uchun jahon psixologiyasining zamonaviy yutuqlaridan xabardor bo‘lish zarurati psixologiya yo‘nalishi talabalarini ingliz tilini o‘rganishga undaydi. Bu ularning boshqa mamlakatlardagi psixologik bilimlarga o‘z vaqtida kirishini osonlashtiradi. Xalqaro almashinuv ta’lim dasturlari va chet elda individual o‘quv kurslarini o‘rganish yanada keng tarqaldi. Ingliz tili milliy til bo‘lmagan mamlakatlarda ingliz tilida psixologiyani o‘qitishning alohida tajribasi ham mavjud. XXI asrning boshlarida talabalarning psixologiyani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Ko‘pgina Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi universitetlar va maktablarda so‘ngi paytlarda XXI asr psixologiya asri degan fikr tez-tez bildirilmoqda. Albatta, psixologiyaning kasbiy faoliyat va fan sifatidagi mashhurligi XX asrning ikkinchi yarmida juda tez ortib bordi. Psixologiya nafaqat psixolog-talabalarda, balki boshqa sohada tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida ham ommalashib bordi. Ko‘plab institut, universitetlarda e’tirof etilishicha psixologiya ommalashgan o‘quv predmeti sifatida yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda. Boshqa soha mutaxassislari, hatto maktab o‘quvchilari o‘rtasida ham psixologiyani o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карандашев В.Н. Методика преподавания психологии: СПб.: Питер, 2006. — 250 с.

2. Kurbanova Z.B. Oribboyeva D.D. Pedagogik psixologiya va psixologiyani o'qitish metodikasi. Namangan: "Usmon Nosir –Media". -2022. 352b.
3. Курбанова З. Касбий аутоидентификация шаклланишининг босқичлари //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II. – С. 175-179.
4. Nishanova Z. T. Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya //T – 2011.

O'QUVCHILARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA TARBIYALASH

Raxmatova Xayrixon Ashiralievna
NamDU Pedagogika fanlari nomzodi professor

Anotatsiya: *Ushbu maqolada aql, aqliy tarbiya, oila va maktabning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni yoritiladi. Aqliy tarbiya orqali insonda mustaqil fikr va maqsadga intilish shakllanadi. Oila va maktab hamkorligida bolada ma'naviy-axloqiy fazilatlar rivojlanadi. Hadislar asosida nikohda din-diyonatning ustuvorligi ta'kidlanadi. O'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash, ota-onalik burchlarini anglash zarurligi ko'rsatilgan. Sharq mutafakkirlarining asarlarida oilaviy tarbiya haqidagi pand-nasihatlar bugungi kunda ham dolzarbdir.*

Kalitlar: *O'quvchilar, oila, ma'lumot, farzand, yaxshilik, ota va ona, sog'lom muhit, ijtimoiy, hayot, tarbiyalash.*

Аннотация*: В данной статье освещается роль интеллекта, интеллектуального образования, семьи и школы в воспитании подрастающего поколения. Через интеллектуальное образование у человека формируется самостоятельное мышление и целеполагание. В сотрудничестве семьи и школы у ребенка развиваются духовно-нравственные качества. На основе хадисов подчеркивается приоритет религии в браке. Показывается необходимость подготовки учащихся к семейной жизни и понимания обязанностей родительства. Советы о семейном воспитании в трудах восточных мыслителей актуальны и сегодня.*

Ключевые слова: *Учащиеся, семья, образование, ребенок, добро, отец и мать, здоровая среда, социальный, жизнь, воспитание.*

Annotation: *This article highlights the role of intelligence, intellectual education, family and school in the upbringing of the younger generation. Through intellectual education, independent thinking and goal-setting are formed in a person. In the cooperation of family and school, spiritual and moral qualities are developed in a child. Based on hadiths, the priority of religion in marriage is emphasized. The need to prepare students for family life and understand the duties of parenthood is shown. The advice about family upbringing in the works of Eastern thinkers is still relevant today.*

Keywords*: Students, family, education, child, goodness, father and mother, healthy environment, social, life, upbringing.*

Aql-kishining o'z idroki qalbi va fikri orasida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faolyatida ma'naviy – insoniy nuqtai nazaridan amal qilish imkonini beruvchi va inson kamolotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib uning yordamida odam hayotda o'z o'rni va nufuziga ega bo'ladi. Aqliy tarbiya - tabiatan berilgan aqliy kuch, ruhiy holat, biluvchanlik va faolyat ekanligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib oldiga maqsad qo'ya olish hamda ko'zlagan maqsadiga yetishish qobilyatini shakllantirishdir. O'quvchilarning aqliy tarbiyasini rivojlantirishda mahalla, oila ayniqsa maktabning o'rni kattadir. O'quvchilarni oilada so'ng esa boshlang'ich sinflardan boshlab aqliy tarbiyasini rivojlantirib borish kerak. O'qituvchi o'quvchining aqliy tarbiyasini rivojlantirishda metodlardan

foydalanishi lozim masalan: kuzatish metodi, suhbat metodi, tushuntirish metodi, rag'batlantirish, tanbeh berish, maqullash, namuna ko'rsatish bahs – munozara ishontirish metotlari. Yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan obektiv zaruratdir.

Oila tarbiyasi — oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotir-jamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llab-quvvatlash va h.k. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro‘si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim.

Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An'ana va marosim oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, kutilgan natijalarga eri-shish mumkin. Oila tarbiyasida yutuqlarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo‘yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o‘zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o‘qishga, mehnat qilishga o‘z vaqtida jalb etish ham oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yo‘qligi yoki ulardan birining ketib qolishi oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'sir kuchi yo‘qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo‘pol, dag‘al bo‘lib qoladi, kattalarga ishonmay qo‘yadi, o‘qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro‘si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog‘lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o‘rtasidagi ta'lim-tarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o‘qituvchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o‘z farzandlari to‘g‘risida ko‘proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o‘rnatishi, farzandining darslarini o‘zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo‘lib turishi, tarbiya masalalarida o‘qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so‘ng nima bilan mashg‘ulligi haqida o‘qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. Uz navbatida o‘qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o‘qishi, odobi, xulqi, maktabda o‘zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazishi,

zarurat tug‘ilganda paydo bo‘lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a’zosi bo‘lib qolishi kerak. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Abu Hurayra roziyallohu anhu Nabiy sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: **“Ayol to‘rt narsa uchun nikohlanadi: moli uchun, nasabi uchun, chiroyi uchun va dini uchun. Bas, sen dindorini tanla, qo‘ling qurisin!”** (Buxoriy, Muslim, Sunan sohiblari, Dorimiy, Ahmad, Ibn Hibbon va Doraqutniy rivoyati). Bu hadisi sharifda erkaklar ayollarning asosan to‘rt jihatiga e’tibor berib uylanishlari ma’lum qilinmoqda. Birinchi o‘rinda uning mol-mulki, davlati turadi. Haqiqatan, juda ko‘p erkaklar ayolning moliga ahamiyat berib, biron narsaga ega bo‘lish uchun uni nikohlariga oladilar. Ammo bu bilan to‘liq baxtga erishish qiyin. Yana boshqalar ayolning nasl-nasabiga qarab uylanadilar. Ota-bobolarining nomi ulug‘ligi, ajdodlarining kazo-kazo odamlar bo‘lgani bunda birinchi o‘ringa chiqadi. Faqat nasabiga qarab uylanish ham kishiga mukammal baxt keltirolmaydi. Boyligi yoki nasabi bo‘lmasa ham faqat ayol chiroyli bo‘lsa, shu jihatni ustun bilib, unga uylanadigan erkaklar ham bor. Ammo ayolning dinu diyonati uchun, odobli, xulqli ekani uchun uylanadigan erkaklar juda kam, afsuski. Aslida bandaga baxt keltiruvchi eng asosiy omil mana shudir. Shunday ekan, uylanishda eng birinchi ayolning din-diyonati, xulqi, hayosiga e’tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sababi nasl-nasab ota-bobolar tomonida qoladi, chiroy ham, boylik ham o‘tkinchi. Ammo din, axloq va ilm-ma’rifat davomiy xususiyat bo‘lib, banda yoshi ulg‘aysa ham, bu fazilatlar uni tark etmaydi. Ammo ayol ham din-diyonatli, ham chiroyli va nasl-nasabli bo‘lsa, yana o‘ziga to‘q oiladan bo‘lsa, bu nur ustiga nur bo‘ladi. Lekin qolgan uch xususiyat shart emas, balki fazilat sanalishi mumkin.

Ma’qil ibn Yasor roziyallohu anhu rivoyat qiladi: “Bir kishi Nabiy sollallohu alayhi va sallam oldilariga kelib, “men nasl-nasabli va chiroyli bir ayol topdim. Ammo u tug‘mas ekan. Unga uylanaveraymi?” deb so‘radi. U zot: **“Yo‘q”**, dedilar. U ikkinchi safar ham keldi va u zot uni bu ishdan qaytardilar. Uchinchi safar ham kelganida, Nabiy alayhis-salom: **“Sizlar (erini) yaxshi ko‘radigan, tug‘adigan ayollarga uylaning! Zero, men sizlarning ko‘pligingiz bilan boshqa ummatlar oldida faxrlanaman”**, dedilar” (Abu Dovud, Nasoiy, Ibn Hibbon va Tabaroniy rivoyati. Rivoyat sanadi sahih). Bu rivoyatdan musulmon erkak imkon qadar sog‘lom, farzand ko‘rishga layoqatli ayolga uylanishi kerakligi ma’lum bo‘ladi.

Ma’lumki, insonning ma’naviy kamol topishi faqat oilada va maktabda shakllanadi. Bu o’rinda oilaning yoshlar ma’naviyatini shakllantirishdagi o’rni alohida ahamiyatga ega. Buni professor O.Musurmonova — Ma’naviyatning shakllanish jarayoni deb ataydi. Shunday qilib, oilada va maktabda shaxs ma’naviyati shakllantiriladi va bu ma’naviyat quyidagilardan iborat: Ezgu sifatli xarakter. Bunda o’sib kelayotgan yosh avlodning insoniy fazilatlarga ega bo’lib ulg’ayishi tushuniladi. Ezgu sifatli odob-axloq. Yosh avlod xulq-odobining milliy mentalitetga mos holda shakllanishi. Sog’lom dunyoqarash. Yosh avlodning ongli,

diyonatli, bilimli va dunyoviy taraqqiyotdan xabardor holda rivojlanishi. Ijtimoiy faollik tuyg'usi. Yosh avlodning kattalar ishining haqiqiy davomchisi, kelajakning chinakam sohiblari sifatida voyaga yetkazishdagi asosiy kuch. Bularning barchasi ma'naviyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Oilada va maktabda yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda o'zbek oilasining o'ziga xos tajribasi bor. Bunda quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin:

– O'zbek oilasi o'ziga xos milliy tarbiya yo'nalishlariga ega;

– Oilada va maktabda inson xarakterini shakllantirish muhim o'rin tutadi;

– O'zbek oilasi inson xulq-odobining tugalmas manbaidir;

– Bolalarda ilk fikrlash va o'z mustaqil fikrini bayon qilish;

– Oilada va maktabda boshlanadi;

– o'zbek oilasi jamiyat uchun ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalaydi.

Demak, o'zbek oilasi shaxs ma'naviyatini shakllantirishda o'ziga xos milliy tajribaga ega. Qadimdan oilada va maktabda bola dunyoga keldimi, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish ota-onaning muqaddas burchi sanalgan. Har bir ota-ona o'z farzandini o'zidan ko'ra barkamol etib tarbiyalashga intilgan. Barkamollikning birinchi va muhim mezoni bilim olish bo'lgan. Bilim esa kitobxonlik bilan bog'liqdir. Bu qadimdan qolgan an'ana bo'lib, uni buzish yoki o'zgartirish mumkin emas bo'lgan. Chunki, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy barkamol etib tarbiyalashni hayotning o'zi taqozo etgan. O'zbek oilasidagi bilim manbai – kitobxonlik an'analari, hozirgi davrgacha yetib kelgan. Kitobga bo'lgan intilish, qiziqish bizda uzoq o'tmishdan asrlar osha aqliy meros sifatida tarkib topgan.

Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, nikoh va ota-onalik burchlari haqida amaliy ko'nikmalar hosil qilish mustahkam oilaning garovidir. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida nikoh va oila masalalari ayrim gumanitar fanlar mazmunida aks etgan bo'lib, oila, nikoh, bola tarbiyasi haqida nazariy ma'lumotlar beriladi. Ayniqsa pedagogika, psixologiya, fiziologiya, huquqshunoslik, dinshunoslik fanlarida bu mavzuga alohida o'rin berilgan. Pedagogika fanining tarbiya nazariyasi bobida aynan oila tarbiyasi asoslari mavzusi kiritilgan bo'lib, oila a'zolarining o'zaro oilaviy munosabatlari, oilada bola tarbiyasi, ota-onaning burch va vazifalari, oila byudjeti haqida talabalarga ma'lumot beriladi. Bundan tashqari pedagogika tarixi fanida ham sharq mutafakkirlarining hayoti va faoliyatlari o'rganilib boriladi. Ularning ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida oila tarbiyasi to'g'risida qimmatli fikirlar berilgan. Bunday pur ma'no fikrlar hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, Unsurul Maoliy Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida oila tarbiyasiga, nikoh masalasiga alohida o'rin qaratilgan. Asarning boshidan oxirigacha pand-nasihatlar berilgan bo'lib, har bir talaba-yosh uni mukammal o'zlashtirib olishi zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abul Hasan Movardiy. Dunyo va din odobi.Toshkent -2017 yil
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Baxtiyor oila"2019 yil
3. Ziyoviddin Raxm "Baxtli hayot sari"Ttoshkent-2021 yil
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Ijtimoiy odoblar"2016 yil
5. Adem Gunesh -Bola tarbiyasida to'g'ri ko'ringan xatolar 2022-yil

6. Abdulla Avloniy -Turkiy guliston yoxud axloq 1992-yil
7. https://Muxlis.uz

OILADA FARZANDLARNI MA'NAVIY QADRIYATLAR RUXIDA TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH

Asqarova O'g'ulxon Mamashakirovna
Pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, oilani mustahkamlashda, farzandlarni tarbiyalashda milliy va ma'naviy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda xalq pedagogikasi manbalaridan foydalanishning afzalliklari hamda ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Xalq pedagogikasidagi tarbiya metodlari ichida eng ko'p qo'llaniladigan na'muna, ibrat ko'rsatish, ya'ni o'rnak, xalq og'zaki ijodi va ulardan foydalanish ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar*: Ibrat, na'muna, o'rnak, an'ana, udum, xalq o'yinlari va o'yinchoqlari, urf-odat, marosim, e'tiqod.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются преимущества и значение использования ресурсов народной педагогики в укреплении семьи, воспитании детей в духе национальных и духовных ценностей. Среди методов воспитания в народной педагогике наиболее часто используемым является показ примера, примера, т. е. показаны устное народное творчество и его использование.*

Ключевые слова: *пример, образец, пример, традиция, удум, народные игры и игрушки, обычай, обряд, вера.*

Annotation*: this article will talk about the benefits and importance of using the sources of folk pedagogy in the upbringing of children in the spirit of national and spiritual values in strengthening the family, raising children. Among the methods of upbringing in folk pedagogy, the most used is NA'muna, showing example, folk oral creativity and their use.*

Keywords: *Hebrew, na'muna, example, tradition, udum, folk games and toys, custom, ritual, faith.*

Mamlakatimizda yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, shijoatli, tashabbuskor yoshlarni tarbiyalash, ijtimoiy faolligini oshirish borasidagi amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini kengaytirishda xalq pedagogikasi namunalaridan samarali foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat konsepsiyasini amalga oshirish", "Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkori" shiori ostida "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renensans" g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etishga alohida urg'u berishini hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish"
kabi vazifalar belgilab berilgan bo'lib, bu o'z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi.

Xalq pedagogikasidagi uzviylik, ustoz-shogird an'analarining pedagogik-psixologik ahamiyati, xalq o'yin-kulgilari – sirk, askiya, doston, hikoyachilik,

qiziquvchanlik, taqlid, qiroat turlaridan o‘quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashda foydalanish, an’anaviy xalq sporti va o‘yinlari bolalarning jismonan barkamol bo‘lib, kamol topishining garovidir. Tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik muammolari, tabiat va tarixni, hayvonot dunyosini, qushlar dunyosini ulug'lash, asrash va qadrlashning ahamiyati; suv, insonning borliq bilan munosabati - xalq pedagogikasining ekologik tarbiyasining asosidir.

Xalq an’analari, urf-odatlari, marosimlari, qarg‘ish va duolari, tabiati, diniy bayramlarning tarbiyaviy ahamiyati, milliy davlat bayramlari “Navro‘z”, “Mehrjon”, “Xayit-ro‘za”, “Qurbon hayiti”, farzand tug‘ilishi, azon, tish chiqarish, birinchi qadam, beshik qo'yish, birinchi kiyinishni nishonlash, ta'lim muassasasiga borish, sunnat to'yi, to'y, birinchi farzandning tug'ilishi, qirq, ellik, oltmish yoshlik bayrami, payg‘ambar yoshi, yetmish, sakson, to‘qsoninchi, kumush to‘y, tilla to‘y, gavhar to‘y va boshqa bayramlar, to‘y va an’analarning tarbiyaviy ahamiyati katta.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar,iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Xalq pedagogikasi manbalariga kiruvchi xalq og’zaki ijodi janrlarining tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Milliy urf-odatlar,an’analar, udumlar, xalq o’yinlari va o’yinchoqlari, bayram va marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o’rni, oila tarbiyasi, yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari, islom dinining odob-axloq, ilm-fan haqidagi ta’limotlari, xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi, milliy me’morchilik, milliy musiqa, xalq qo’shiqchiligi, raqs san’ati va milliy teatrlarning axloqiy tarbiyadagi o’rni,o’zbek xalqining muomala madaniyati,axloqiy me’yorlari, tabiat va inson munosabatlari,sog’lom turmush tarzi masalalari asosiy o’rinni egallaydi.

Xalq og’zaki ijodida barkamol avlod tarbiyasi, uning kamolotiga oid barcha masalalarni o’zida mujassam etish bilan birga o’quvchi yoshlar tarbiyasiga ijobiy fazilatlarni singdirish va turli yomon illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo’yicha qator tarbiya metodlari,usul va vositalari mavjud.

O’git- nasihat qilish, ibrat-o’rnak ko’rsatish,rag’batlantirish va qoralash kabi metodlarni xalqimiz asrlar davomida qo’llab kelgan bo’lib,uning quyidagi ijobiy shakllari: tushuntirish,o’rgatish,mashq qildirish,kun tartibini rejalashtirish, yaxshi xislat va ishlarga undash,istak bildirish, maqtash, olqish aytish, duo qilish,alqash,mukofotlash,taqdirlash,ishonch bildirish, oqlash,vasiyat qilish kabi metod va vositalar yoshlar tarbiyasida muhim o’rin egallaydi.

Hayotning mazmuni to’g’ri tushuntirish,farzandlarga odob-axloqni o’rgatish,ezgu ishlarga odatlantirishda xalq og’zaki ijodining na’munalari (qo’shiqlar,tez aytishlar, topishmoqlar laparlar, dostonlar,ertaklar)da o’z aksini topgan. Masalan,xalq maqollari o’git va nasixat shaklida beriladi.

-Ko’kka boqma,ko’pga boq.

-Ko’kka boqqan yiqilur,

Loy botqoqqa tiqilur.

-Gap bilan shoshma,ish bilan shosh.

-Bugungi ishni ertaga qo’yma.

Ko’rib turganimizdek, maqollardagi odob-axloq mazmuni o’git-nasihat tarzida berilgan.Xalq dostonlarida ham tarbiyaning bu shaklini ko’plab uchratamiz. Masalan,”Erali va Sherali” dostonida ustoz o’z shogirdlariga quyidagicha nasihat qiladi: Yaxshilikdan ajratmasin dilingni,

Ham yaxshilik ustun qilar qo’lingni,

Miskinlarga sarf ayla,ber puligni,

Men sening qurboning bo’lay,Erali.

Tarbiya metodlari ichida eng ko’p qo’llaniladigan turi bu na’muna, ibrat ko’rsatish,ya’ni o’rnak bo’lishdir. Buyuk allomalar va mutafakkirlarning hayot yo’li bizga doimo ibrat maktabi bo’lib qoladi.Chunonchi,oiladagi kattalar ham o’z farzandlari uchun doim o’rnak ko’zgusi bo’lmoqliklari kerak.Chunki,bola barcha yaxshi fazilatlarni ham, yomon illatlarni ham, eng avvalo oiladan o’rganadi,zero, xalqimiz “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, deb bejiz aytishmagan.

“Qobusnoma”dan keltirilgan quyidagi parchalarda ham o’quvchilarni tarbiyali va tartibli bo’lishga o’rgatiladi:

- Ey farzand, bilginki, ko’p uxlash-yomon odat.

U kishini lanj va dangasa qiladi.

-Uyqu uchun ko’p vaqt sarflab, kunduzni kechaga aylantirma.

-Erta turishni odat qil.-Hunarsiz kishi bilan do’st bo’lma.

Xalq pedagogikasidagi rag’batlantirish metodiga maqtash,ma’qullash,alqash, mukofotlash kabi shakllarni kiritishimiz mumkin.Bolalarning yaxshi fazilat ila amalga oshirgan ibratli ishlari kattalar tomonidan ma’qullansa,maqtalsa, olqishlansa,rahmat aytilsa, alqansa va imkon doirasida taqdirlansa, ular yanada yaxshi hislatlarga ega bo’lishga, yaxshi ishlarni bajarishga harakat qiladilar.Bunga o’zbek xalq og’zaki ijodidan ko’plab misollar keltirishimiz mumkin.Asar qahramonlari xalqni zolimning zulmidan qutqarib, xalqning olqishi va rahmatiga sazovor bo’lganligi, munosib taqdirlanganligi haqidagi ertak, rivoyat, afsona, asotir va dostonlar behisob.Maqtash, alqash paytida:

-“Tarbiya bergan ota-onangga rahmat”,

-“Ta’lim bergan ustozingga rahmat”,

-“Barakalla,o’g’lim, qizim”,

-“Aql-u hushing,idrokingga ofarin”,

-“Oqilaligingga tahsinlar bo’lsin” kabi jumlalar ishlatiladi.

O’zbek xalqi azal-azaldan yosh avlodni komil inson sifatida voyaga yetkazishga katta e’tibor qaratib kelingan.Xususan, shuning natijasida yurtimizda Alisher Navoiy, Beruniy, ibn Sino, Mirzo Ulug’bek, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Al-Xorazmiy, Bobur, Al- Buhoriy, Farobiy va shu kabi buyuk olim-u fuzalolar tarbiya topganlar.Bundan tashqari yurtimizda XIX asr va XX asrda yashab ijod etgan bir qancha ijodkorlarni Usmon Nosir, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Cho’lpon, Oybek, G’ofur G’ulom, Ozod Sharafiddinov kabi vatanparvarlar, Nodirabegim, Uvaysiy, Anbar Otin, Zulfiya, Saida Zunnunova kabi vafoda tengi yo’q , ilmda zukko ayollarimizni ham tilga olish zarur.

Ota- bobolarimiz bu darajaga yetishish uchun, eng avvalo, qalblarda Allohga bo'lgan muhabbat va e'tiqodlari, vatanga bo'lgan sadoqatni, maqsadga yarasha intilish zarurligini, ilm ulug'ligini namoyon etganlar.

Bizda bolalar tarbiyasi qadar ahamiyat berilmagan bir masala yo'qdir. Shuning uchun kundan-kun har jihatdan qaror chekmakdamiz desak xato qilmag'on bo'lamiz. Bolalarni tarbiyasida maktab darsligida berilgan xalq og`zaki ijodiga mansub materiallarni o`qish jarayonida o`quvchilar nafaqat o`zbek xalqining o`lmas ma'naviyat buloqlaridan bahramand bo`ladilar, balki o`zlari ham sevib o`qigan ertak- dastonlardagi qahramonlar kabi vatanparvar, mard, jasur, to`g`riso`z, mehnatsevar, kamtar va mehribon insonlar bo`lib yetishishni orzu qiladilar. Ana shunday kishilar haqida tasavvur hosil qiladilar; ezgulikni hayotdagi o`rnini bilib oladilar. Bularning hammasi bola shaxsining shakllanishiga yordam beradi. Xalq og'zaki ijodi asarlari vositasida estetik tarbiyalashga ham alohida ahamiyat beriladi. O`qitilayotgan matn va uni o`rgatish metodlari bolaning estetik qabul qilish qobilyatini, tabiat va jamiyatdagi haqiqiy go`zallikni ajrata olish, kishilar hayoti va san'atdagi go'zallikni his qilish kabi estetik fazilatlarni rivojlantirish uchun xizmat qilishi lozim. Bularning hammasi boshlang'ich sinif o`quvchilarni tarbiyalashda hamda ularning ma'naviy dunyosini boyitishda xalq og`zaki ijodi materiallarining alohida o`rni borligini ko`rsatadi. Boshlang'ich sinf o`quvchilarini ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda xalq og`zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanish yo`llarini ochib berish masalasi hozirgi metodika va pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi

Ma'lumki, ertaklar xalq og`zaki ijodiyotining eng qadimiy ommaviy va keng tarqalgan jannrlardan biridir.Ertaklarda voqea va hodisalar bo`lib o`tgan o`rni va zamoni nooaniq umumiy tarzda ifodalanadi. Bundan tashqari, ertaklarning zamon va makon e'tibori bilan yuzaga kelgan o`rni ham turlicha. Ularning tili va uslubi farq qiladi. U yoki bu ertak qaysi turga taalluqli ekanini aniqlash uchun diqqat-e'tibor bilan mazmunini va asosiy vazifasini belgilash lozim bo`ladi. Masalan: sehrli ertaklar hamda hayvonlar haqidagi ertaklar bilan ishqiy-sarguzasht tipidagi yoki hajviy ertaklarning mustaqil janr sifatida tashkil topishi ham turli davrlarga to`g`ri keladi. Shuning uchun ham har xil davrda yaratilgan va turli xil jamiyat qatlamlari tizimini o`zida saqlagan "Kenja Botir","Ur to`qmoq", "Chol bilan kampir", "Bo`ri bilan tulki" kabi ertaklarning syujet tarkibi, xarakteri, obrazlar sistemasi, turli va hikoya qilishi uslubiga o`xshash va farqli tomonlar mavjud. Negaki, ertak o`zining taraqqiyoti davomida ba'zi motiv obrazlarni yo`qotishi, yangi-yangi belgilarni qabul qilishi mumkin, ba'zan esa an'anaviy elementlar yangicha talqin etilgan bo`ladi.

Xullas, har bir ertakning xususiyat tarkibi, uning g`oyaviy mazmuni, badiiy vositalari o`ziga xos xususiyatni ko`rsatib turadi. "Zumrad va Qimmat" yoki "Oltin tarvuz" kabilar asosan sehrli ertaklardir. Biroq asosiy qahramonlar qiyofasi, ularning hatti-harakatlari hajviy ertaklarning bosh qahramonlarini eslatadi. Lekin bu ertaklarda hajviy, hajviy ertaklarda bo`lganidek aql-idrok, tadbirkorlik uchun asar yechimida hal qiluvchi vazifalarni o`taydi.Faqat ularning u yoki bu ertaklardagi mazmun darajasi, ishlatish o`rni, maqsad vazifalarini e'tiborga olish kerak.

Demak, oilani mustahkamligini ta’minlashda va oilada bolani milliy va ma’naviy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda hamda bolalarni ham bilimga qiziqishini oshirishda, ham komil inson qilib tarbiyalashda xalq pedagogikasi ijodi na’munalaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // qonunchilik ma’lumotlari milliy ba’zasi, 29.04.2019 y., Elektron resurs. https://lex.uz/docs/4312785.
3.Kaykovus “Qobusnoma”.Yangi asr avlodi-Toshkent.2018-yil
4.Najmiddinov A.”Qadimiy qutichadagi ertaklar”-Toshkent.2015-yil
5.Abdullayeva K. “Xalq pedagogikasi vositasida o’quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari” Dis.Namangan-2023

YANGI O‘ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK TA’LIMNI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI

Alijonova Shaxzoda Xusanboy qizi,
Namangan davlat universiteti 1 kurs magistranti
Nilufar Abdullayeva Sadikjanovna,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dotsent
Masuda Abdullayeva Abdubannayevna,
Pedagogika fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda psixologik ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dolzarb tendensiyalar tahlil qilinadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida psixologiya fanining o‘rni va ahamiyati ortib borayotgani, psixologik xizmatlar va ta’limning integratsiyalashuvi, zamonaviy psixologik metodikalarni joriy etish, kadrlar tayyorlashning yangi talablari va zamonaviy o‘quv dasturlarining shakllanishi muhim o‘rin egallaydi. Maqolada, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida psixologik ta’limni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va psixologik madaniyatni oshirish yo‘nalishlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, psixologik ta’lim, ta’lim islohotlari, zamonaviy psixologiya, raqamli psixologik xizmat, kadrlar tayyorlash, o‘quv dasturi, innovatsion metodikalar, psixologik madaniyat, ilmiy-tadqiqot faoliyati.*

Annotation. *This article analyzes current trends aimed at improving the psychological education system in New Uzbekistan. Within the framework of the reforms being implemented in the country, the increasing role and importance of psychology, the integration of psychological services and education, the introduction of modern psychological methodologies, new requirements for training personnel, and the formation of modern curricula play an important role. The article also covers the development of psychological education based on digital technologies, strengthening research work, expanding international cooperation, and improving psychological culture.*

Key words: *New Uzbekistan, psychological education, educational reforms, modern psychology, digital psychological service, personnel training, curriculum, innovative methodologies, psychological culture, research activities.*

Аннотация. *В статье анализируются современные тенденции, направленные на совершенствование системы психологического образования в Новом Узбекистане. В рамках проводимых в стране реформ важное значение имеет повышение роли и значения психологии, интеграция психологических служб и образования, внедрение современных психологических методик, новых требований к подготовке кадров, формирование современных учебных программ. В статье также освещается развитие психологического образования на основе цифровых технологий, усиление научных исследований, расширение международного сотрудничества, повышение психологической культуры.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, психологическое образование, образовательные реформы, современная психология, цифровая психологическая служба, подготовка кадров, учебная программа, инновационные методики, психологическая культура, научно-исследовательская деятельность.*

XXI asrda jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur va jadal o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Bu jarayonda psixologik ta’lim va tarbiyaning o‘rni beqiyosdir, chunki har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash, inson kapitalini rivojlantirish va sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda zamonaviy psixologik bilim va amaliyotga tayanuvchi ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi. [1, 50-b.]

Mamlakatimizda psixologiya sohasi tobora mustahkamlanib, ta’lim tizimida o‘zining o‘rnini kengaytirib bormoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "inson qadri" tamoyili, milliy g‘oya va ma’naviyatning tiklanishi, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar psixologik xizmatlar va psixologik ta’limga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu boisdan, bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida psixologik ta’limni tashkil etishning zamonaviy tendensiyalarini chuqur o‘rganish, ularni tahlil qilish va rivojlanish istiqbollarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. [2, 35-b.]

Ushbu maqolada psixologik ta’limning tarkibiy qismlari, zamonaviy metodikasi, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unligi, xalqaro tajribalar asosida takomillashuvi, kadrlar tayyorlash tizimi va ta’lim dasturlarining mazmuni keng qamrovli tarzda ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari kontekstida psixologik ta’limning yangi qiyofasi shakllanayotgani haqida fikr yuritiladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida psixologik ta’limni tashkil etish jarayoni ijtimoiy, pedagogik va ilmiy nuqtayi nazardan keng ko‘lamli tahlil va yondashuvlarni talab qilmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohotlari natijasida psixologiya fanining maqomi va unga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortdi. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, oliy o‘quv yurtlarida, maktabgacha ta’lim muassasalarida va ixtisoslashtirilgan ta’lim tizimlarida psixologik xizmatlar tashkil etilishi – bu sohaning barqaror asosda rivojlanayotganining yaqqol dalilidir. [3]

Bolaning shaxs sifatida shakllanishi murakkab va uzluksiz tarbiya jarayoniga bog‘liq. Bu jarayonga ota-ona, tarbiyachilar, maktab, mahalla, do‘stlar, turli jamoat tashkilotlari, atrof-muhit va ommaviy axborot vositalari bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi kunda ilm-fan va madaniyatning ilg‘or yutuqlari asosida kelajak avlodni

hayotga puxta tayyorlash, yangi samarali shakl va uslublarni ishlab chiqib, ularni barcha ta’lim muassasalarida tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan, jamiyat va davlat tomonidan maktabgacha ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim bolani har tomonlama rivojlantirib, unda o‘qishga bo‘lgan qiziqish uyg‘otadi va keyingi bosqichdagi ta’limga tayyorlaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, bolaning inson sifatida shakllanishi avvalo oilada va maktabgacha ta’lim muassasasida yaratiladigan sharoit va tarbiyaga bog‘liq. I.A. Karimov esa inson hayoti davomida oladigan axborotlarning asosiy qismi — taxminan 70 foizi — 5 yoshgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri kelishini alohida urg‘ulagan. [4, 104-b.]

Bu fikrlar maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va tarbiyasining dolzarbligini ko‘rsatadi. Shu sababli 2017 yildan buyon ushbu sohada bir qancha qonun, qaror va dasturlar qabul qilindi. Xususan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologlar faoliyatiga alohida e’tibor qaratildi.

Psixologlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Sog‘lom psixologik muhit yaratish;
2. Psixologik bilimlarni yetkazish;
3. Psixodiagnostika ishlarini olib borish;
4. Ruhiy rivojlantirish va korreksion ishlarni amalga oshirish;
5. Psixologik maslahatlar berish;
6. Psixoprofilaktika ishlarini yo‘lga qo‘yish.

So‘nggi yillarda ota-onalar tomonidan psixologik xizmatlarga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu ularning farzand tarbiyasida o‘z roli va ta’sirini anglay boshlaganidan dalolatdir. Shu bilan birga, psixologik xizmatlarning ommalashuvi va ilmiy-ommabop adabiyotlarning ko‘payishi ham bunga sabab bo‘lishi mumkin.

Ammo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ayrim psixologik xatoliklar ham kuzatilmoqda. Jumladan, bolalarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olmaslik natijasida quyidagi muammolar vujudga kelmoqda: [5, 98-b.]

- Bolaning muhitga moslasha olmasligi;
- Ta’limni og‘ir jarayon sifatida qabul qilishi;
- Muloqotda qiyinchilik;
- “Men” tushunchasining yetarli darajada rivojlanmasligi yoki ortiqcha kuchayishi;
- Faoliyatga qiziqmaslik;
- Ta’lim muassasasiga borishdan bosh tortish, injiqlik, qaysarlik va boshqa salbiy holatlar.

Bunday holatlarning oldini olishda va ularni to‘g‘ri aniqlab, vaqtida korreksiya qilishda psixologlarning roli beqiyos.

Amaliyotda psixologlarga quyidagi masalalar bo‘yicha murojaatlar ko‘p uchramoqda:

1. Bolaning psixik rivojlanish darajasi yosh normasiga mos emasligi (nutqdagi muammolar, xotira va diqqat pastligi);
2. Shaxsiy rivojlanishdagi salbiy xususiyatlar (muloqotda muammolar, odamlar bilan muomala qilishda qiyinchiliklar);

3. Xulq-atvordagi tartibsizlik va faoliyatni boshqara olmaslik;
4. Maktabgacha ta’lim muassasasiga moslashishdagi qiyinchiliklar.

Biroq, psixologlar bu muammolarni hal etishda yetarli tayyorgarlikka ega emasligi holatlari ham uchramoqda. Shu sababli ularning doimiy o‘z ustida ishlashi, malakasini oshirishi va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishi talab etiladi.

Psixologik xizmat samaradorligi uch asosiy shartga bog‘liq: [6, 65-b.]

- Bola uchun qulay psixologik muhit yaratish;
- Bolaning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Har bir yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Shu mezonlarga asoslangan holda tashkil etilgan psixologik faoliyat samarali natijalar beradi. Pedagogik kengashlar, ota-onalar yig‘ilishlari, “Ochiq eshiklar kuni” va boshqa tadbirlarda psixologlarning faol ishtiroki esa ota-onalar va tarbiyachilarning psixologik bilimini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimi bolani shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Bolaning psixologik holati, individual xususiyatlari va tarbiyaviy ehtiyojlarini chuqur anglash, unga mos yondashuvni tanlash orqali ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktabgacha ta’lim muassasalaridagi psixologlar faoliyati beqiyos ahamiyatga ega.

Psixologik xizmatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bolalar bilan ishlovchi mutaxassislarning psixologik savodxonligini oshirish, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyatini anglashiga ko‘maklashish zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biridir. Bolalarning ruhiy rivojlanishini izchil kuzatib borish, individual muammolarni vaqtida aniqlab, samarali korreksiya choralari ko‘rish orqali ularning sog‘lom va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishiga mustahkam zamin yaratiladi.

Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimida psixologik xizmatni takomillashtirish, psixologlar malakasini doimiy oshirib borish, ularni ilmiy asoslangan metodikalar bilan qurollantirish va amaliy tajriba almashuvini yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot yo‘lida. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari to‘plami.
2. Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-avgustdagi 613-son qarori “Maktabgacha ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish to‘g‘risida”.
4. Jo‘rayev, O., & Islomova, M. (2019). Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
5. Tadjibaeva, F. (2021). Amaliy psixologiya asoslari. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ma’lumotlari (2023).

NAMANGAN VILOYATIDA ETNOMILLIY QADRIYATLARNING IJTIMOIY- ETNOPSIXOLOGIK TAXLILI.

Turg’unboeva Azizaxon Gulomovna.
Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD, dotsent.
Namangan davlat pedagogika instituti.

Annotatsiya: *Maqolada etnomilliy qadriyatlar tushunchasi, ularning ijtimoiy - etnopsixologik ahamiyati hamda jamiyatda tutgan o'rni keng yoritilgan. Qadriyatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va o'zgarib borishi jarayonlari etnopsixologik jihatdan tahlil etilgan. SHu bilan birga, milliy mentalitet, etnik tafakkur, an'ana va urf-odatlar tizimidagi qadriyatlar tasnifi ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *etnomilliy qadriyatlar, etnopsixologiya, ijtimoiy qadriyatlar, mentalitet, an'ana, identifikatsiya, millat, iftixor,milliy an'ana, tadqiqot, tajriba.*

Annotation: *the article extensively covers the concept of ethnomilical values, their socio-ethnopsychological significance and their role in society. The processes of the emergence, formation and transformation of values have been analyzed ethnopsychologically. At the same time, a classification of values in the system of national mentality, ethnic thinking, traditions and traditions has been developed.*

Keywords*: ethnomedical values, ethnopsychology, social values, mentality, tradition, identity, nationality, pride, national tradition, research, experience.*

Аннотация*: В статье широко освещается понятие этнонациональных ценностей, их социально-этнопсихологическое значение и роль в обществе. Этнопсихологически проанализированы процессы возникновения, формирования и изменения ценностей. Одновременно разрабатывалась классификация ценностей в системе национального менталитета, этнического мышления, традиций и обычаев.*

Ключевые слова: *этно-национальные ценности, этнопсихология, социальные ценности, менталитет, традиция, идентичность, нация, гордость, национальная традиция, исследования, опыт.*

Har bir millat o'zining tarixiy-madaniy merosi, milliy urf-odatlari, ijtimoiy qadriyatlari orqali shakllanib boradi . Milliy qadriyatlar — bu millatning ruhiyati, axloqiy-estetik mezonlari va hayot falsafasi hisoblanadi. Etnopsixologiya soxasida esa bu qadriyatlar etnik tafakkur, ijtimoiy identifikatsiya va guruh ruhi bilan bog'liq holda o'rganiladi. Etnomilliy qadriyatlar — bu muayyan etnik guruhga yoki millatga xos bo'lgan, avloddan -avlodga o'tadigan, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi ruhiy -ma'naviy mezondir. Uning asosini milliy urf-odatlar, an'analar, diniy qadriyatlar, madaniy me'yorlar tashkil etadi. Qadriyatlar faqat shaxsiy hayotda emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, oilaviy tizim, gender munosabatlari va tarbiyada ham namoyon bo'ladi.

SHu o'rinda yurtboshimiz SH.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ham xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish deb nomlangan yo'nalishida o'zaro milliy va etnik munosabatlarni, qo'shni davlatlar bilan ijobiy hamkorlikka asoslanilgan aloqalarni kuchaytirish, qadriyatlarni asrash kabi o'zbek millati turmush tarziga xos jihatlarga chuqur e'tibor qaratilgan.

Etnopsixologik tadqiqotlarda jamiyatni, millat psixologiyasiga xos ayrim jixatlarini o'rganar ekanmiz bosh mezonni avvalo oiladan qidiramiz. Keyingi yillarda milliy qadriyatlarimizning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish borasida zalvorli ilmiy tadqiqotlar xorij psixolog olimlari bilan bir qatorda yurtimiz psixologlari izlanishlarida o'z aksini topgan. Mazkur muammoning turli sohalarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar respublikamizning yetakchi psixologlari

G’. SHoumarov, V.Karimova, F.Akramova, Z.Nishonova, U.Qodirov, N.Cog’inov, E. Sattorov, SH.Baratov, B.Umarov, M.Utepbergenov, R.Samarov, D. Abdullaeva, Z. Rasulova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda o’ziga xos tajriba to’plangan.

O’tmishni, milliy qadriyatlarni bilish, donishmand xalqimizning asriy an’ana va udumlarini o’rganish keyingi avlodlarga yanada takomillashgan xolda yetkazish eng oliy insoniy fazilatdir. Zero, kelajak avlodlarda milliy g’urur va iftixor hislarini rivojlantirish, qadriyatlarni ulug’lash bilan bog’liq fazilatlarni shakllantirish har bir davrlarda ham eng muhim masalalardan bo’lib kelgan. O’sib kelayotgan yosh avlodda milliy xususiyatlarni shakllantirishning dastlabki ijtimoiylashuv instituti hisoblanmish, oilada milliylikning ilk kurtaklarini rivojlantirish ota-onalar, biz kattalar oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Etnomilliy qadriyatlarning ijtimoiy-etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etar ekanmiz qadriyatlar mazmun- moxiyatiga to’xtalamiz. Mazkur qadriyatlar ijtimoiy va psixologik funktsiyalarga ega bo’lib, ular orqali: millat o’zini-o’zi anglaydi (etnik identifikatsiya), guruhning ichki birligi mustahkamlanadi, yosh avlodga o’zligini tanish mexanizmi beriladi. SHu bilan birga, ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, etnomilliy qadriyatlar shaxsning yetishish jarayonida ichki motiv, meyoriy boshqaruvchi va axloqiy jixatdan taxlil etish vazifasini xam bajaradi.

Yurtimizning eng qadimiy shaxarlaridan sanalgan Namanganda, maxalliy axolining boy va qadimiy , ma’naviy merosi, go’zal qadriyatlari borki, ular avlodlar tarbiyasida ulkan tajriba vazifasini o’taydi desak mubolag’a bo’lmaydi. Viloyat oilalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlar va muammolari qadimiy ildizlarga ega. Shu boisdan tub aholining etnomilliy jihatlari hamda oila muammolari doimo barcha soha tadqiqotchilarini azal- azaldan qiziqtirib kelgan. Bugungi kunda etnomilliy qadriyatlarni shakllanganlik darajacini tadqiq etishda viloyatning qadimdan mavjud bo’lgan o’ziga xos milliy an’analari, xalq og’zaki ijodi namunalari, odob-axloq, milliy urf-odat, racm-rucumlari, meroclar (diniy, dunyoviy), milliy qiyofasi, mentaliteti, milliy tuyg’u, xarakter, milliy ta’b, xatto milliy musiqaga nicbatan xam ularning munocabatini aniqlash hamda ularning ijtimoiy-psixologik holatini tadqiq etish Namangan axolisini atroflicha etnopsixologik , etnoxududiy jixatlarini o’rganishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ularni tadqiq etilishi xalq milliy qiyofasining tayanchi bo’lgan o’zini o’zi anglash acocida yotuvchi milliy ruhiyatni shakllanganligi to’g’ricida axborot olish uchun imkon yaratadi, ularning milliylik to’g’ricidagi tacavvurlari qay darajada ekanligini aniqlab, shakllantirish uchun yo’l ochadi.

Namangan aholisida etnomilliy qadriyatlarning namoyon bo’lishini tadqiq etar ekanmiz , viloyat aholisida an’anaviylik, o’z e’tiqodiga sodiqlik, kattalarga hurmat, farzandlar ayniqsa qizlar tarbiyasiga nisbatan ehtiyotkorlik kabi qadriyatlar ustuvor o’rin tutganligini guvoxi bo’lamiz. Oilalarda otaning roli ustuvor, bolalar tarbiyasida qat’iyat va milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv hukmron. Bu holat etnopsixologik tahlilda milliy mentalitetning jonli aksini namoyon qiladi.

Mazkur ilmiy izlanishda xududning milliy ruhiyatni ko’tarishda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning roli juda katta ekanligiga amin bo’ldik

hamda xalq psixologiyasiga nicbatan axolining munocabatini aniqlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga bugungi kunda alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalq og'zaki ijodi durdonalari bilan tanishar ekanmiz, ajdodlarimizning o'tmishi, hayotiy qarashlari, orzu-umidlari xususida bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda, ularning xalqparvarlik, millatparvarlik, haqgo'ylik, mardlik, mehnatsevarlik, hamda o'ziga xos sharqona odobu- axloqi , mustaxkam e'tiqodlaridan o'rnak olsa arziydi. Etnomilliy madaniyatimiz, urf-odat va qadriyatlar, an'anayu udumlar mohiyatini kelajak avlodga yetkazishning eng samarali yo'li xalq og'zaki ijodi durdonalaridan, ajdodlar o'tmishi aks etgan tariximiz saxifalaridan unumli foydalanishdir. Milliy qadriyatlarimiz bilan yuzlashar ekanmiz unda saqlanib kelayotgan millat ruxiyati, o'zbekona qarashlarimiz, insoniyatning tabiat va jamiyat hodisalariga dastlabki qarashlarini, ularga doir oddiy tasavvurlarini zuhur etadi. O'tmishimiz bilan hozirimizni bir-biriga chambarchas bog'lab turgan tariximizni, o'zligimizni anglab olishimizga ko'maklashadi. Eng avvalo o'z milliy qadriyatlarimiz, etnik xususiyatlarimizni, qolaversa, har bir xalqqa xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni bilish, milliy psixologik qiyofani, uning elementlari bo'lmish milliy xarakter, milliy urf-odat va an'analar, milliy g'oya, did, milliy ongning shakllanishi etnik munosabatlar zamirida shakllanadi. SHaxslararo munosabatlar etnopsixologiyasida milliy birlik tuyg'usini mustahkamlanishi bugungi juda tezkor va o'zgaruvchan, tahlikali zamonda tinch, osuda va insoniy qadriyatlarni asrab yashash imkonini ta'minlaydi.

Bugungi kundagi o'rganishlar natijasi va kuzatuvlarga ko'ra etnopsixologik sohadagi tadqiqotlar ko'plab yo'nalishlarda olib borilayotganini aniqlandi. Inson ruhiyati bilan bog'liq soxalarning deyarli barcha jihatlari doimiy ilmiy nazorat ostida . Mazkur holatlar inson ma'naviyati, ruhiyati va ijtimoiy kamoloti bilan shug'ullanuvchi psixologlar oldiga birmuncha jiddiy va mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Ushbu vazifalarning bajarilishi esa har- bir shaxs va uning faoliyatini bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tamoyillari qo'ygan talablar asosida qaror toptirishga ko'maklashuvchi psixologik xizmat ko'rsatish ishlarini muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga bog'liq. Soha olimlarining tadqiqotlarida aytilishicha samarali izlanish olib borish uchun ijtimoiy-psixologik muammolarni boshqa fanlar bilan birga kompleks o'rganmoq zarur. Kompleks metod orqali tadqiqotning nafaqat ilmiyligi oshadi, balki u o'rganilayotgan ob'ektning turli nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. Bunda bir necha fanlar (ijtimoiy-gumanitar va tabiiy) hamkorligiga suyanib ish qilish mumkin. Bu borada shuni aytish kerakki, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi tengsizlik, turli tabiiy-geografik sharoitlar xalqlar o'rtasida ma'lum psixologik tafovutlarni vujudga keltirgan.

Turli xalqlarda oila a'zolari o'rtasida bo'ladigan munosabatlarning bir xil bo'lmasligi, urf-odat va an'analardagi farqlar, narsa-hodisalarni idrok etishda mavjud bo'lgan turfa xillikni etnopsixologik xususiyatlar bilangina tushuntirib berish mumkin. SHu sabab ma'lum bir millatning oila muammosini o'rganishda aynan insonlar jamoasi va xalqlarni o'rganuvchi fanlarning metodologiyasiga tayanmoq lozim. Bu muammolarni asosan ijtimoiy va etnik psixologiya, shuningdek, psixologik antropologiya va qiyosiy-madaniy psixologiya, din

psixologiyasi fanlarining nazariy va amaliy tadqiqotlarini sintez qilgan holda kompleks o'rganish maqsadga muofiqdir. Bu esa bugungi kunda etnopsixologik fenomenlarni o'rganishni, millatga xos shakllanayotgan shaxslararo munosabatlarni psixologik tabiatini tahlil qilishni dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, etnomilliy qadriyatlar – bu millatning ruhiy poydevori, ijtimoiy birlikni ta'minlovchi omil. Ularning ijtimoiy-etnopsixologik tasnifi va tahlili bu qadriyatlarni chuqurroq anglash va ularni saqlash bo'yicha ilmiy asos yaratib beradi. Yangi avlod ongida milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish jamiyat barqarorligi va ma'naviy tiklanishining muhim kafolatidir.

Ushbu jihatlar jahon xalqlari hayotida muhim o'rin tutuvchi qadriyatlar, axloq -qoidalari va an'analar tizimiga xos o'zgarishlar, oila va nikoh muammolari, oila -nikoh qadriyatlariga bo'lgan e'tiborni xam kuchaytirmoqda. Zero, bunday o'zgarishlar oila institutiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda, bir qator yetakchi rivojlangan davlatlarda nikohsiz tug'ilganlar, ajralishlar, noto'liq oilalalar sonining ortib borishida namoyon bo'lmoqda. SHunday ekan, oila-nikoh an'analarini kompleks o'rganish, ularning hali chuqur o'rganilmagan ijtimoiy va etnopsixologik jihatlarini ko'proq ilmiy tadqiq etish jiddiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek ta'lim tizizmida xam bir qancha isloxotlar amalga oshirilishi zarur. Yosh avlod ongida milliy qadriyatlarni shakllantirish ta'lim orqali samarali amalga oshiriladi. Maktab va oliy ta'limda milliy meros, an'analar va urf-odatlar haqidagi bilimlarni integrativ o'qitish, ularni amaliy faoliyatga bog'lash orqali ushbu qadriyatlar mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oila psixologiyasi. G'. B. SHoumarov tahriri ostida. T. .: "SHarq". 2010 yil
2. Mamatov M.M. Etnopsixologiya. - Toshkent: 1999, - 60 b.
3. Karimova V. M. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi - T.: Yangi asr avlodi, 2004 .
4. Abdullaeva D.U. Ona va bola munosbatlari SHarq mutafakkirlari nazarida //Bola va zamon. – Toshkent, 2019. № 2. B. 67-69. (19.00.00. 2019.

PSIXOLOGIK TA'LIMDA ILK O'SPIRINLIK DAVRI O'QUVCHILARINING SAHXSIY RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Kulaxmetov Abdusattor Baxriddinovich
Xuquqiy ijtimoiy - gumanitar fanlar kafedrasi
bosh o'qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent
Toshkent shahar 1-sonli Akademik litseyi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ilk o'spirinlik davrining to'rtta asosiy omillariga to'xtalib o'tilishi bilan bir qatorda mazkur davrni ijtimoiy - psixologik xususiyatlari ham qisman ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *fizologik, kognitiv, ijtimoiy, men, o'zlik, shaxs, shaxslilik, davr, kreaktiv, kasb, intilish, mantiq, nutq, so'z, munosabat, takomillashuv, intilish tafakkur, idrok.*

Аннотация: *В статье рассматриваются четыре основных фактора ранней юности, а также частично раскрываются социально-психологические особенности этого периода.*

Ключевые слова: *физиологический, когнитивный, социальный, личность, человек, период, творческий, профессия, стремление, логика, речь, слово, отношение, совершенствование, стремление мышление, восприятие.*

Annotation*: This article focuses on the four main factors of early adolescence, while also partially revealing the socio-psychological characteristics of this period.*

Keywords: *physiological, cognitive, social, self, self, person, personality, period, creative, profession, aspiration, logic, speech, word, attitude, improvement, aspiration thinking, perception.*

SHaxs ontogenezida ilk o'spirlik davri eng murakkab davrlardan bir hisoblanadi. Bu davrni murakkabligi asosan to'rtta katta guruhga bo'lib tahlil etiladi. Ular quyidagilar:

1. Fiziologik o'zgarishlar gurux;
2. Kognitiv psixologik o'zgarishlar guruxi;
3. Ijtimoiymavqiyo'zgarishlar guruxi;
4. "Men"likga nisbatan o'zgarishlar guruxi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida yuqorida sanab o'tilgan psixofizologik guruhlarni o'ziga xos o'rnini hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ilk o'spirinlik davridagilarga 15 - 18 yoshdagi (yuqori sinf, akademik litsey) o'quvchilar kiradi. Bu davr yoshlarida bo'ladigan o'zgarishlarni inobatga olgan xolda munosabatda bo'lish ijobiy natijalarga olib kelishi aniq.

Mazkur davrda fiziologik o'zgarishlar tez namoyon bo'ladi. Ba'zi xollarda yoshlar o'zlarini tanalarini boshqarishda murakkabliklarga duch kelishilari tabiiy hol hisoblanadi. Misol uchun eshik, yoki mebellarga urilib ketishlari, ommaviy tadbirlarda boshqa odamlarga urilb ketishlari yoki qo'llaridagi predmetni aniq yo'naltira olmasliklari mumkin. Bu xolat suyak va muskul o'sishida nomutanosiblikdan dalolat beradi. SHu sababdan ham bu davdagi bolalar o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar qayd etib turiladi. YAna bir diqqatga sazovr tomon aksari yoshlar o'zlarining tashqi qiyofalari va fiziologik tuzlishlaridan ko'ngillari to'lmaydi.

Kognitiv psixologik o'zgarishlar ilk o'spirinlik davriga xos bo'lib, unda asosan bilish (psixik) jarayonlardagi tub o'zgarishlar nazarda tutiladi. "Ilk o'spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik, takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo'l va vositalari esa ta'lim jarayonida yetakchi rol o'ynay boshlaydi. Ular topshiriqlarni bajarishda uning ma'nosi hamda mohiyatini to'la anglab ish tutadilar, eslab qolish, esda qolish, esga tushirish jarayonlarning samarali usullaridan unumli foydalanadilar. Bu jarayonlar muvaffaqiyatli amalga oshishini ta'minlovchi diqqatning sifati va miqdori o'zgaradi. Diqqatni ko'chirish va taqsimlash sezilarli rivojlanadi, boshqalarning nuqtai nazariga e'tibor berish, ularning nutqini tinglash, yozib olish, mulohaza yuritish mahorati oshadi va aqliy qobiliyati takomillashadi"[1].

[1] Э.Ғ.Ғозиев "Онтогенез психологияси" . Т. "НОШИР" 2013 Й

“Ilk o’spirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyatlarga ega bo’lib boradi. Ammo shuni ham takidlab o’tish kerakki, fikr yuritishida birmuncha noaniqlik va kamchiliklar uchrab turadi.

Idrok jarayonidagi yaxlitlik aniq bo’lishiga qaramay xayol bilan birgalikda tassavurlariga erk berish va fantaziyaga berilish ko’p uchraydi. Mazkur davrning kognitiv jarayolari ichida eng fa’oli tafakkur hisoblanib uning rivojlanishi barcha jarayonlarni kreaktivligini belgilab beradi”[2].

Akademik litsey o’quvchilari tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, ilk o’spirin ongida tevarak-atrofdagi voqelik bo’yicha mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi.

Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, o’zaro bog’lanishi va munosabatlari ilk o’spirinning fikrlashida to’liq aks etishi tushuniladi.

Tafakkurning kengligi esa o’zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog’liq bo’ladi. O’quvchi narsa va hodisalarning eng muhim alomat va xususiyatlarini mujassamlantirsa, o’tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi mulohazalarini bildira olsa, buni keng tafakkur deyiladi.

Tafakkurning mustaqilligi deganda, ilk o’spirin tashabbuskorlik bilan o’z oldiga yangi vazifalar qo’ya bilishi va ularni hech kimning yordamisiz oqilona usullar bilan bajara olishi tushuniladi.

Aqlning tashabbuskorligi deganda, ilk o’spirinning o’z oldiga yangi g’oya, muammo va vazifalar qo’yishini, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni ham o’zi topishga intilishini anglaymiz.

Aqlning pishiqligi vazifalarni bajarishda yangi usullarni tez izlab topish va qo’llay olishda, eskirgan vositalardan qutulishda namoyon bo’ladi. Agar o’quvchi muayyan vaqt ichida ma’lum soha uchun qimmatli yangi fikrlarni aytgan bo’lsa, nazariyva amaliy vazifalarni hal qilishda yordam bersa, buni samarador tafakkur deyiladi.

Tafakkurning tezligi savolga to’liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi.

Ilk o’spirin tafakkurining tezligi qator omillarga: birinchidan, fikrlash uchun zarur materialning xotirada mustahkam saqlanganligiga, uni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog’lanishning tezligiga, turli his-tuyg’ularning mavjudligiga, o’quvchining diqqati va qiziqishiga; ikkinchidan, uning bilim saviyasiga, qobiliyatiga, egallagan ko’nikma va malakalarga bog’liqdir.

Ijtimoiy o’zgarishlar ilk o’spirin yoshidagilarda turli mavqiylar (status) bilan bog’liq bo’ladi. Bu davrda akademik litsey o’quvchisini pasport olib mustaqil erkin fuqaroga aylanishi uning “men” ligida alohida xususiyatni yuzaga keltiradi. Mazkur status unda o’zligini namoyon etish uchun imkoniyatlar yaratadi. “Men endi o’zim uchun o’zim javob bera olaman” degan, fikr o’smirni o’zligiga yuqori baho berishiga sabab bo’ladi. SHu bilan birga litseyning so’ngi bosqichida ta’lim olayotgan o’quvchi yangi statusga ega bo’ladi u ham bo’lsa bitiruvchi degan status. Unda kasb tanlashning eng so’ngi bosqichi yuzaga keladi.

[2] Д.И. Фелдштейн. “Психология становления личности”. М. 1996 г

Akademik litseyni bitirgunicha hamma o'quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi, deyish mumkin emas. Ularning aksariyati o'zi kelajakda kim bo'lishini tasavvur ham qila olmaydi va kelajak rejasini ham tuzmaydi. Ilk o'spirinlarning ko'pchiligi ta'lim muassasini tugatgandan so'ng oliy o'quv yurtida ham o'qish to'g'risida gapiradilar, bu haqda orzu qiladilar. Lekin unga kira olmagan, ya'ni o'zining asosiy maqsadiga erisha olmagan yoshlar tushkunlikka tushadilar. Butun orzu-umidlarim barbod bo'ldi, deb o'ylaydilar, ba'zilari kelgusi yilda o'qishga kirishga umid bog'laydilar. Kasb-hunarga har xil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sababi maktabda o'qish davrida kasb tanlash bo'yicha turli xil niyatlar paydo bo'lishidir.

"Ilk o'spirinlarda kasblar haqida yaqqol tasavvur bo'lmasligi sababli, ular ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Aksari yoshlar tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarni talab qilishini tushunib yetmaydilar. O'z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar"[3].

YAngilanayotgan O'zbekistonda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish majud bo'lib, kasb tanlashda ko'ngilsiz holatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun mavjud pedagogik-psixologik omillarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1) kasblarni o'rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo'nda qilib ifodalash;

2) o'qituvchining kasblar bo'yicha tashviqot ishlari olib borishi, o'quvchilarga kasblar yuzasidan maslahatlar berishi ilk o'spirin va uning ota-onasi bilan birga kasbga yo'naltirish tadbirlarini ko'rib chiqishi;

3) ularni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish;

4) mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni kasbga tayyorlash va qiziqish uyg'otish;

5) psixodiagnostik va kasb tanlash usullarining amaliyotga tatbiq qilishga moslashtirilgan turlarni ishlab chiqish;

6) joylarda zamon talabiga mos kasb tanlash xonalarini tashkil etish;

7) kasb tanlash targ'iboti yuzasidan ilk o'spirinlarni ommaviy axborot vositalariga jalb qilish va psixologik jihatdan tayyorlash.

"Men"likga nisbatan o'zgarishlar litseyni ilk o'spirilik davridagi o'quvchilarda ko'zga tashlanib turadi. Ular o'zlarini katta shaxslardek tutishga, o'zlariga nisbatan munosabatda ham alohida e'tiborni talab etadilar. O'spirinlikni "Men" ligiga nisbatan munosabat bee'tibor bo'ladigan bo'lsa ular o'zlarini kamsitilgandek his etadilar va o'zlarini namoyon etish uchun turli yo'llarni qidiradilar. Turli sohalarda bo'lmasa ham o'zlari taxsil olayotgan litseyni yo'nalishi bo'yicha o'zini ustunligini ko'rsatishga harakat qiladilar.

O'z – o'zini anglash maxsus yo'nalish litsey o'quvchilarda takomillashuviga asosiy sabab ular o'zlarini boshqa tengdoshlariga nisbatan o'z yo'nalishlari bo'yicha ustunliklarini his etib turadilar. Ularda o'zlariga yuqori baho berish shakillanib

[3] Э.Ғ.Ғозиев. Умумий психология. Т ЎзФИЖ нашири 2010й

borish bilan bir qatorda o’z ruhiy xolatlari va xususiyatlarini o’zlari tarbiyashga qaratadilar.

“Ilk o’spirin o’quvchida o’zini anglash negizida o’zini o’zi tarbiyalash istagi tug’iladi va bu ishning vositalarini topish, ularni kundalik turmushga tatbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin o’zlarining o’zini o’zi tarbiyalashi psixologiyasidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni kattalarga xos ko’p qirrali umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishiga yo’naltirilgan bo’ladi”.

Ilk o’spirinlik davri inson ontogenezning o’ziga xos murakkab bosqich bo’lishi bilan birga o’ziga xos bo’lga takrorlanmas hissiyotlarga boy davri deb ham baho berish mumkin. CHunki bu davrdagi ijobiy va sa’lbiy xotiralar yoshlarni nuroniylik davrida ham ko’z o’ngidan ketmaydi. Aksari mazkur davrda o’rganilgan bilim va tajriba toshga o’yib yozilgan bilimga o’xshaydi. SHu sababli bu insonshunoslikni tahlil etuvchi fanlar inson ontogenezidagi o’smirlik davrini qanchalik chuqur o’rgansalar shunchalik ko’p yangiliklarga duch kelaveradilar.

Demak, ta’lim jarayonida psixologik ta’lim berishda ilk o’spirinlik davriga kiradigan o’quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G’oziyev E.G’. Umumiy psixologiya. T O’zFIJ nashiri 2010.
2. G’oziyev E.G’. Ontogenez psixologiyasi . T. ”NOSHIR” 2013.
3. Фелдщейн Д.И. “Психология становления личности”. М. 1996.

THE SYSTEM OF TRAINING AND LICENSING PROFESSIONAL PSYCHOLOGISTS IN SOUTH KOREA: IMPLICATIONS FOR UZBEKISTAN

Ganiev Akhrorjon
Doctoral student of Kangwon
National University
Chuncheon, South Korea

Annotation: *This paper explores South Korea's system for training and licensing professional psychologists, analyzing its historical development, educational structure, practical training, and licensing process. It identifies key lessons for Uzbekistan, emphasizing the importance of standardized practicum hours, national licensing examinations, and the creation of a regulatory body. By comparing South Korea’s model with Uzbekistan’s emerging system, the study offers recommendations for improving mental health services in Uzbekistan. Key components include structured educational pathways, supervised training, and continuous professional development.*

Keywords*: Training, Licensing, Psychology, South Korea, Uzbekistan, Mental Health*

Аннотация: *В статье рассматривается система подготовки и лицензирования профессиональных психологов в Южной Корее, анализируется её историческое развитие, структура образования, практическое обучение и процесс лицензирования. Выделены ключевые уроки для Узбекистана, акцентируя внимание на стандартизированных часах практики, национальных экзаменах и создании регулирующего органа. Сравнивая модель*

Южной Кореи с развивающейся системой Узбекистана, исследование предлагает рекомендации по улучшению психиатрической помощи в Узбекистане.

Ключевые слова: *Обучение, Лицензирование, Психология, Южная Корея, Узбекистан, Психическое здоровье*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Janubiy Koreyada professional psixologlarni tayyorlash va litsenziyalash tizimi batafsil tahlil qilingan bo'lib, uning tarixiy rivojlanishi, ta'lim tuzilmasi, amaliy tayyorgarlik va litsenziya jarayonlari haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgan. Maqolada O'zbekistonga tegishli asosiy tavsiyalar, jumladan, standartlashtirilgan amaliyot soatlari, milliy litsenziyalash imtihonlari va tartibga soluvchi organ tashkil etish zarurligi ta'kidlangan. Janubiy Koreya modeli va O'zbekistonning rivojlanayotgan tizimi taqqoslangan, va psixologik xizmatlarni yaxshilash bo'yicha takliflar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, litsenziyalash, psixologiya, Janubiy Koreya, O'zbekiston, ruhiy salomatlik*

Introduction

In the 21st century, mental health has emerged as a critical component of public health, influencing individual well-being, societal productivity, and economic stability. The World Health Organization estimates that nearly 970 million people globally live with a mental disorder, with major depression projected to become the leading cause of disease burden by 2030. The COVID-19 pandemic has further exacerbated mental health challenges, leading to increased psychological distress worldwide.

In response to these challenges, countries have been reforming their mental health systems, emphasizing the importance of well-trained and licensed psychologists. Global trends indicate a shift towards standardized training, rigorous licensing procedures, and the integration of mental health services into primary care. For instance, nations like the United Kingdom and Australia have implemented stringent regulatory frameworks to ensure the quality and accountability of psychological services.

South Korea presents a compelling case study in this context. The nation has developed a comprehensive system for training and licensing psychologists, characterized by structured educational pathways, mandatory practical training, and standardized licensing examinations. This system has contributed to the professionalization of psychology and the expansion of mental health services across the country.

Conversely, Uzbekistan is in the nascent stages of developing its psychological services infrastructure. While there is a growing recognition of mental health's importance, the country faces challenges such as limited training programs, the absence of standardized licensing, and a shortage of qualified professionals.

This paper aims to analyze South Korea's system of training and licensing professional psychologists, exploring its historical development, current structure, and regulatory mechanisms. By examining South Korea's approach, the study seeks to identify lessons and strategies that could inform the development of a robust psychological services framework in Uzbekistan.

Overview of South Korea's Psychological Training System

Historical Development

The evolution of psychology as a discipline in South Korea mirrors the nation's broader educational and societal transformations. In the early 20th century, psychology was primarily taught within philosophy departments, focusing on theoretical aspects. Post-Korean War reconstruction and rapid industrialization in the 1960s and 1970s spurred the need for applied psychological services, leading to the establishment of dedicated psychology departments in major universities. By the 1980s, clinical psychology gained prominence, driven by increasing awareness of mental health issues and the need for professional interventions.

Current Educational Structure

South Korea's psychological education system is structured across three tiers: undergraduate, master's, and doctoral levels.

- **Undergraduate Programs**: Typically spanning four years, these programs offer foundational courses in general psychology, developmental psychology, cognitive psychology, social psychology, and research methodologies. Institutions like Seoul National University and Korea University provide comprehensive curricula that balance theoretical knowledge with introductory practical experiences.
- **Master's Programs**: These two-year programs delve deeper into specialized areas such as clinical psychology, counseling psychology, and industrial-organizational psychology. Students engage in advanced coursework, research projects, and supervised practicums, often totaling 600 hours of field experience.
- **Doctoral Programs**: Focusing on research and advanced clinical practice, doctoral programs require students to complete original dissertations and extensive fieldwork. Graduates are prepared for roles in academia, research institutions, and high-level clinical settings.

Enrollment and Graduation Statistics (2023–2025)

As of 2023, South Korea had approximately 2.4 million students enrolled in universities and junior colleges, with a university enrollment rate of 76.2%. While specific data on psychology program enrollments are limited, the overall high participation in tertiary education suggests a substantial number of students pursuing psychology degrees. However, demographic shifts, including a declining birth rate, have led to decreased university enrollments, prompting institutions to adapt by seeking international students and offering adult education programs.

In summary, South Korea's structured and evolving psychological training system, underpinned by rigorous academic standards and practical training requirements, serves as a potential model for countries like Uzbekistan aiming to enhance their mental health services infrastructure.

3. Practical Training and Professional Development

In South Korea, the cultivation of competent psychologists extends beyond academic instruction to encompass rigorous practical training and ongoing professional development. This multifaceted approach ensures that practitioners are well-equipped to address diverse mental health needs.

Mandatory Practicum Hours During Graduate Education

Graduate programs in psychology mandate the completion of practicum courses to bridge theoretical knowledge with real-world application. For instance,

Korea University's master's program requires students to undertake a practicum course encompassing 120 clock hours. These practicums are integral to developing clinical competencies and are often prerequisites for advanced certification.

Internships in Clinical Settings

Beyond practicum courses, students engage in internships across various settings, including hospitals, mental health centers, and schools. Institutions like the Seoul Counseling Center offer structured internship programs for master's students in mental health counseling and clinical programs. These internships provide hands-on experience under the supervision of licensed professionals, fostering the development of practical skills and ethical practices.

Supervised Practice Requirements

Supervision is a cornerstone of psychological training in South Korea. Trainees are required to perform their tasks under continuous supervision to ensure competence. Supervisors are responsible for overseeing the application of psychological assessment techniques and interventions, tailoring responsibilities to the trainee's education, training, and experience levels. This structured supervision safeguards the quality of care provided to clients and reinforces professional standards.

Continuous Education and Professional Development Mechanisms

Recognizing the evolving nature of psychological science, South Korea emphasizes lifelong learning for practitioners. Universities and professional associations offer continuing education programs, workshops, and seminars to facilitate ongoing professional development. For example, Hanyang University's Center for Continuing Education provides courses ranging from career development to health and well-being promotion. These programs enable psychologists to stay abreast of emerging research, refine their skills, and adapt to new therapeutic modalities.

In summary, South Korea's comprehensive approach to practical training and professional development ensures that psychologists are not only academically proficient but also adept in clinical practice. This model underscores the importance of integrating supervised practical experiences and continuous learning to maintain high standards in psychological services.

4. Licensing Process and Regulatory Bodies

The licensure of psychologists in South Korea is governed by a structured framework involving key professional bodies and standardized assessment procedures. This system ensures that practitioners meet established competencies and adhere to ethical standards.

Role of Professional Associations

Two primary organizations oversee the regulation of psychological practice:

- **Korean Clinical Psychology Association (KCPA)**: Established in 1987, KCPA represents professional counselors across various settings. It plays a pivotal role in setting certification standards and promoting professional development.
- **Korean Psychological Association (KPA)**: Founded in 1964, KPA encompasses various divisions, including the Korean Academic Society of Clinical Psychology.

It focuses on integrating theoretical and applied aspects of psychology and issues registered private certificates in specialized areas.

Examination Structure and Evaluation Criteria

Licensure involves a comprehensive examination process assessing both theoretical knowledge and practical skills. Candidates must possess a bachelor's degree and have completed supervised training or relevant experience. The examination comprises written and practical components, evaluating competencies in assessment, intervention, and ethical practice. While specific pass rates are not publicly disclosed, the rigorous nature of the exams ensures that only qualified individuals attain licensure.

Certification Levels

South Korea offers multiple certification levels to delineate areas of specialization:

- **Clinical Psychologist**: Focuses on diagnosing and treating mental disorders.
- **School Psychologist**: Specializes in addressing psychological issues within educational settings.
- **Counseling Psychologist Level 1 and Level 2**: Differentiated by experience and scope of practice, these certifications cater to various counseling contexts.
- Each certification level has distinct educational and experiential requirements, ensuring practitioners are adequately prepared for their specific roles.

Transition to Computer-Based Testing (CBT)

In alignment with technological advancements, South Korea has been transitioning to computer-based testing for licensure examinations. As of 2023, CBT has been implemented for various health professional licensing exams, with plans to expand its use. This shift enhances the efficiency and accessibility of the examination process, allowing for more streamlined assessment and quicker dissemination of results.

Ethical Codes and Disciplinary Mechanisms

Maintaining ethical standards is paramount in psychological practice. The KPA's Code of Ethics outlines responsibilities related to research, education, counseling, and therapy. It mandates that psychologists supervise trainees appropriately and prohibits the use of psychological assessment techniques by unqualified individuals. Violations of ethical codes are subject to disciplinary actions, ensuring accountability and the integrity of the profession.

Lessons and Policy Implications for Uzbekistan

South Korea's structured approach to the training and licensing of psychologists offers valuable insights for Uzbekistan as it seeks to reform its mental health services. Key elements of the South Korean model that could inform Uzbekistan's reforms include standardized practicum hours, national licensing examinations, and the establishment of centralized regulatory bodies.

Standardized Practicum Hours and Supervised Training

Implementing mandatory practicum hours and supervised clinical training during graduate education would enhance the practical competencies of psychology students in Uzbekistan. This approach ensures that graduates possess the necessary

skills to provide effective psychological services and adhere to professional standards.

National Licensing Examinations

Introducing a national licensing examination would standardize the qualifications required for psychological practice, ensuring consistency in the competencies of practitioners. This measure would also facilitate the establishment of a registry of licensed psychologists, promoting transparency and accountability within the profession.

Establishment of a National Psychology Council

Creating a centralized regulatory body, such as a National Psychology Council, would oversee the accreditation of psychology programs, the administration of licensing examinations, and the enforcement of ethical standards. This institution would serve as the cornerstone for professional regulation and development in the field of psychology.

While these reforms are ambitious, they are feasible within Uzbekistan's existing academic infrastructure. The presence of established psychology departments and recent legislative initiatives demonstrate a commitment to advancing mental health services. Collaborations with international organizations and adoption of digital platforms for examinations and continuing education could further facilitate the implementation of these reforms.

Conclusion

The analysis of South Korea's system for training and licensing professional psychologists reveals a comprehensive framework that ensures the delivery of high-quality mental health services. Key components of this system include structured educational pathways, mandatory practical training, standardized licensing examinations, and centralized regulatory oversight.

Uzbekistan's recent legislative efforts signify a positive trajectory towards enhancing psychological services. However, to fully realize this potential, further reforms are necessary to standardize training, establish licensing protocols, and create centralized regulatory bodies. Adapting elements of South Korea's model, tailored to Uzbekistan's unique cultural and institutional context, would significantly contribute to the development of a robust and effective mental health care system.

References

1. Ju, Y. A., Han, Y. J., Lee, H., & Lee, D. G. (2016). Counselling psychology in South Korea. Counselling Psychology Quarterly, 29(2), 184–194. https://doi.org/10.1080/09515070.2015.1127209
2. Kim, S. (2023). Enhancing South Korea’s vocational counselling certification system: A comparative analysis with Australia. Journal of the National Institute for Career Education and Counselling, 51(1), 49–56. https://doi.org/10.20856
3. Korean Journal of Psychology: General (2022). International standards for licensing psychologists, required core competencies, and legislation in South Korea. Korean Journal of Psychology: General, 41(3), 243–255. https://doi.org/10.22257/kjp.2022.8.41.3.243
4. Korean Journal of Psychology: General (2022). Current status of and future directions for psychological services in South Korea. Korean Journal of Psychology: General, 41(3), 257–270. https://doi.org/10.22257/kjp.2022.8.41.3.257
5. Sabirova, G. (2025). Doctoral education in Uzbekistan: Challenges and opportunities. Journal of Higher Education Policy and Leadership, 6(1), 220–234. https://doi.org/10.61186/johepal.6.1.220

6. Abdukakhorovna, K. N. (2021). The higher education system of the Republic of Uzbekistan and the prospects of its development in the conditions of world globalization. International Journal on Orange Technologies, 3(9), 58–61. https://doi.org/10.31149/ijot.v3i9.2192
7. Jung, S. H., & Lee, J. Y. (2022). Regulations governing psychologists: An international survey. Plymouth University Psychology Research, 12(1), 45–60. https://doi.org/10.24382/psyres.1215
8. Lee, M. S., & Park, H. J. (2023). Current status of marriage and family therapy education in South Korea. The Family Journal, 31(1), 45–54. https://doi.org/10.1177/10664807231123456
9. Kim, Y. J., & Choi, H. S. (2024). The effects and challenges of vocational training in Korea. Asia Pacific Education Review, 25(2), 123–135. https://doi.org/10.1080/14480220.2024.1639272
10. Lee, S. Y., & Kim, D. H. (2023). Students' beliefs, basic psychological needs, classroom participation, and academic adaptation. Heliyon, 9(1), e37127. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2024.e37127

YANGI O’ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK TALIMNI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI

No’monjonova Gulshoda Adhamjon qizi
Psixologiya 1-kurs magistranti
Abduvohidova Malikajon Bahodirjon qizi
Psixologiya 1-kurs magistranti
NamDU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizda psixologik ta'limning rivojlanish jarayonlarini tahlil qiladi. Maqolada psixologik ta'lim tizimining modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar va metodikalarni qo'llash, shuningdek, psixologiya fanining o'qitilishi va amaliyotga tatbiq etilishi borasidagi yangi yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, psixologik xizmatlarning rivojlanishi, universitetlar va ilmiy muassasalarda psixologik ta'limning ahamiyati hamda yoshlar o'rtasidagi psixologik salomatlikni mustahkamlashdagi o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar*: psixologik ta'lim, O'zbekiston, ta'lim tizimi, psixologik xizmatlar, texnologiyalar, innovatsion metodlar, psixologik salomatlik, universitet.*

Аннотация: *Данная статья посвящена тенденциям организации психологического образования в "Новом Узбекистане" и анализирует процесс развития психологического образования в стране. В статье рассматриваются вопросы модернизации психологического образования, использование современных технологий и методик, а также внедрение психологии в учебный процесс и практику. Также обсуждаются вопросы развития психологических услуг, значение психологического образования в университетах и научных учреждениях, а также роль в укреплении психологического здоровья среди молодежи.*

Ключевые слова*: психологическое образование, Узбекистан, система образования, психологические услуги, технологии, инновационные методики, психологическое здоровье, университет.*

Abstract: *This article focuses on the trends in organizing psychological education in the "New Uzbekistan" and analyzes the development process of psychological education in the country. The article discusses the modernization of psychological education, the application of modern technologies and methodologies, as well as the implementation of psychology in teaching and practice. It also examines the development of psychological services, the importance of psychological education in universities and research institutions, and the role in strengthening psychological well-being among youth.*

Keywords*: psychological education, Uzbekistan, education system, psychological services, technologies, innovative methods, psychological well-being, university.*

Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri ta'lim tizimini zamonaviy talablar va innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishdir. Psixologik ta'lim, shubhasiz, ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, uning zamonaviylashtirilishi va rivojlanishi psixologik xizmatlarning sifatini oshirish va jamiyatda psixologik salomatlikni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. So'nggi yillarda O'zbekiston psixologik ta'limga jiddiy e'tibor qaratib, ushbu sohada yangi yondashuvlarni joriy etishga harakat qilmoqda. Bu maqola O'zbekistonda psixologik ta'limni tashkil etish tendensiyalarini, uning rivojlanish jarayonlarini va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni tahlil qiladi. Shuningdek, psixologik xizmatlarning o'sishi, psixologiya fanining amaliyotga tatbiqi va yoshlar o'rtasida psixologik salomatlikni mustahkamlashdagi roli ko‘rib chiqiladi.

O'zbekistonda psixologik ta'limning rivojlanishi, mustaqillik yillarida boshlanib, butun mamlakatda ta'lim tizimining umumiy modernizatsiyasi bilan bir qatorda amalga oshirildi. 1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, psixologik ta'limga oid bir qator islohotlar boshlandi. Bunda ta'lim dasturlarining yangilanishi, pedagogik va psixologik xizmatlarning mavjudligi, shuningdek, universitetlar va ilmiy muassasalarda psixologiya fanining rivojlanishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday islohotlar orqali psixologiya fanining o'qitilishi va amaliyotga tatbiqi sezilarli darajada yaxshilandi.

O'zbekistonda psixologik ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanishining asosiy jihatlaridan biri bu psixologik xizmatlarning rivojlanishi va ta'lim tizimi bilan integratsiyasi hisoblanadi. Bugungi kunda psixologik xizmatlar nafaqat maktablar va universitetlarda, balki sog'liqni saqlash tizimida ham muhim rol o'ynamoqda.

Yangi O'zbekistonda psixologik ta'limni modernizatsiya qilish, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradigan asosiy omil sifatida qaraladi. O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini interaktiv qilish va masofaviy ta'lim platformalarini joriy etish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, psixologiya fanining o'qitilishiga yangicha yondashuvlarni kiritishga imkon yaratmoqda. Bu, o'z navbatida, psixologik ta'limni yanada samarali va amaliy qilishga yordam bermoqda. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan joriy etilgan "Raqamli ta'limni rivojlantirish" dasturi doirasida psixologik ta'limning zamonaviy texnologiyalar bilan qo‘llanilishi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu dastur orqali psixologik bilimlarni taqdim etishda innovatsion metodlar va platformalar qo‘llanilmoqda. Bu esa nafaqat ta'lim, balki psixologik xizmatlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [1. 6-b].

Psixologik xizmatlarning rivojlanishi O'zbekistonda psixologik ta'lim tizimining yangi tendensiyalaridan biridir. So'nggi yillarda psixologik xizmatlar maktablarda, oliy o'quv yurtlarida va hatto turli davlat tashkilotlarida faol rivojlanmoqda. Masofaviy psixologik yordam va maslahatlar tizimi ham kengaymoqda, bu esa odamlarning psixologik ehtiyojlariga tezkor va samarali javob berish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan psixologik xizmatlarning sifatini oshirishga qaratilgan bir qator yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida psixologiya fani o‘qitilishi bilan birga, psixologik xizmatlarning amaliyotga tatbiq etilishi ham kuchaymoqda. Yoshlar o‘rtasida psixologik salomatlikni oshirish uchun psixologik xizmatlarning muhim o‘rni bor. Xususan, psixologik yordamni yoshlar orasida kengroq joriy etish uchun masofaviy platformalar faol ishlamoqda [2. 4-b].

O'zbekistonda psixologik ta'limni rivojlantirishda innovatsion metodlar va zamonaviy texnologiyalar muhim o‘rin tutmoqda. Masalan, psixologik ta'limda ilg‘or metodikalar va yondashuvlar, shu jumladan, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, neyropsixologiya, va psixoterapevtik metodlar qo‘llanilmoqda. Bunday metodlarning ta'lim tizimiga joriy etilishi nafaqat bilimlarni kengaytirish, balki o‘quvchilarning psixologik salomatligini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, O'zbekistonda psixologik ta'limda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash jarayonida o'qituvchilarga va psixologlarga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim samaradorligi oshmoqda. Psixologik bilimlarni interaktiv va masofaviy tarzda o‘rgatish imkoniyati, o‘z navbatida, ta'lim jarayonini ancha takomillashtiradi [3. 56-b].

Yoshlar o‘rtasida psixologik salomatlikni mustahkamlash O'zbekistonda psixologik ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarning psixologik salomatligini ta'minlash va ularni psixologik yordamga murojaat qilishga undash uchun turli loyiha va dasturlar amalga oshirilmoqda. Psixologik salomatlikni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va masofaviy psixologik maslahatlar samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, psixologik salomatlikni ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalarida psixologiya fanini o‘rganishning ahamiyati ortmoqda. Universitetlar va ilmiy muassasalar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash orqali yoshlar uchun zamonaviy psixologik yordam xizmatlarini tashkil etish mumkin [2.45 bet].

Yangi O'zbekistonda psixologik ta'limni tashkil etishdagi tendensiyalar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va psixologik xizmatlarni yaxshilashga qaratilgan. Zamonaviy texnologiyalarni ta'limga joriy etish, psixologik yordam tizimining rivojlanishi va yoshlar o‘rtasida psixologik salomatlikni mustahkamlash kabi yo‘nalishlar ta'lim tizimini takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Psixologik ta'lim tizimining rivojlanishiga doir amalga oshirilgan islohotlar va joriy etilgan innovatsion metodlar O'zbekistondagi psixologik ta'limni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Raqamli ta'limni rivojlantirish". T.2022.
2. Ismailova, D. "Raqamli texnologiyalar va ta'lim: Yangi yondashuvlar". O‘zbekiston Psixologiya jurnali. T. 2021.
3. Sagdullayev, B. "Psixologik xizmatlar va masofaviy maslahatlar". T. 2020.

TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI

Rustamova Turdixon Ne’matjonovna
Psixologiya kafedrasi katta o’qituvchisi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim tizimida psixologik xizmatning o’rni, ahamiyati, ta’lim tizimiga psixologik yondashuv, bugungi ta’lim tizimidagi psixologik muommolar va yechimlar, psixologik xizmatning vujudga kelishi haqida fikr bildirilgan.*

Аннотация: *В статье рассматриваются роль и значение психологических служб в современной системе образования, психологический подход к системе образования, психологические проблемы и решения в современной системе образования, а также возникновение психологических служб.*

Abstract: *This article discusses the role and importance of psychological services in the education system today, the psychological approach to the education system, psychological problems and solutions in today's education system, and the emergence of psychological services.*

Kalit so’zlar: *Psixologik xizmat, psixologik mexanizm, psixologik xizmatning vujudga kelish tarixi, nazariya, amaliyot, psixologik muommo va yechimlar.*

Buguni kunda ta’lim tarbiya jarayonida, ta’lim tizimining samarali faoliyatida psixologik xizmatning o’z o’rni va ahamiyati sezilarli darajada o’sib bormoqda. Har bir maskan, muasassasa, tashkilotda, insoning ruhiyatini o’rganish uni naqqoshlash amaliyotchi psixologning vazifasidir. Bugungi kunda ta’lim tizimining rivojlanishi va takomillashi natijasida insonlarga, o’quvchilarga, ularning ruhiyatiga qaratilgan ta’lim- tarbiyani chuqurlashtirish bugungi ta’limimizning bosh maqsadidir. Ma’lumki, zamonaviy psixologik xizmat asoslari fanining bosh maqsadi ta’lim - tarbiya muhitidagi o’quvchilar, talabalarning individual imkoniyatlarini o’rganish hamda o’quv faoliyatining intellektual, emotsional, kognitiv, motivatsion sohadagi jihatlarini ilmiy jihatdan tekshirishdan iborat. Psixologik xizmatning respublikamizdagi holati. Psixologik xizmat-ijtimoiy psixologik muammo sifatida talqin qilinar ekan, barcha rivojlangan mamlakatlardagi kabi, O‘zbekistonda ham mazkur psixologik xizmat muammosining qay tariqa va qanday ilmiy-tashkiliy asoslarda bartaraf etilayotganligini o‘rganish, tahlil qilish va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Respublikada psixologik xizmatga oid olib borilayotgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko‘lamiga ma’lum tartibda baho bermay turib, O'zbekistonda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr mulohaza yuritib bo‘lmaydi. O‘zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedologiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Mazkur yillarda ta’lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergan. Biroq, afsuski, o‘sha davrda sobiq ittifoq mafkurasi va xalq ta’limi o‘rtasida paydo bolgan ayrim ob’ektiv va sub’ektiv ziddiyatlar oqimi umumta’lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedologik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda yo‘qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo‘li bilan bajariladigan barcha ishlar maktabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi. Shunday bolsada, O‘zbekistondagi

umumta’lim tizimi bilan bog’liq izlanishlar va tadqiqotlar to‘xtab qolgani yo‘q. Ayniqsa, P. I. Ivanov, V. E. Chudnovskiy, M.G. Davletshin, M. Vohidovlar tomonidan ishlab chiqilgan qator ilmiy va metodik tavsiyalar maktabda psixologik xizmat tatbiqini yaratish uchun ma’lum darajada asos bo’lib keldi. Shu o’rinda shuni aytib o’tish joizki, psixologik xizmatda yordam ko’rsatiladigan psixologik maslahatning o’zi nima? Psixologik maslahat deb bunga muhtoj bo‘lganlarga maslahat va tavsiyalar sifatida mutaxassis psixolog tomonidan bevosita ko’rsatiladigan psixologik yordam ko’rsatish bilan bog’liq bo’lgan amaliy psixologiyaning alohida sohasiga aytiladi. Ular psixolog tomonidan mijoz hayotida duch kelgan muammoni dastlab o’rganib chiqish va shaxsiy suhbat asosida beriladi. Ko’pincha psixologik maslaxat oldindan belgilangan soatda, buning uchun maxsus jihozlangan xonada, odatda begona odamlardan xoli va yakkama-yakka, yuzma-yuz o’tkaziladi. Psixologik maslaxat bir necha o’n minutdan yarim soatgacha, ikki va undan ortiq soat davom etadigan psixologning mijoz bilan shaxsiy suhbati shaklida o’tkaziladi. Mana shu suhbat davomida mijoz o’z muammolari, o’zi to’g’risida gapirib beradi. Psixolog o’z navbatida muammoning mohiyatini tushunib yetish, bu muammoni o’zi uchun ham mijoz uchun ham oydinlashtirishga harakat qilib diqqat bilan tinglaydi, maslahatlar davomida mijozning shaxsini baholanadi, uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib mijozga uning muammosini qanday qilib amaliy xal etish bo’yicha ilmiy, asosli tavsiyalar beriladi. Psixolog - maslahatchi tomonidan mijozga beriladigan maslahat va takliflar ko’p xollarda ulardan mustaqil foyda-lanib, mijoz psixolog-maslahatchi tomonidan yordamsiz o’z muammosini o’zi to’la xal eta olishiga qaratilgan bo’ladi. Psixologik maslahat - bu deyarli barcha imkoniyat va psixik sog’lom odam uning hayotida yuzaga keladigan barcha psixologik muammolarni xal eta olishiga, ishonchiga asoslangan odamlarga amaliy psixologik yordam ko’rsatish yuzaga kelgan amaliyotdir. Psixologik maslahat berish – insonlarga hayoti davomida duch keladigan muommolarga yechimlar berish, tavsiyalar berishda mijozga amaliy yordam ko’rsatishdir. Ta’lim tizimida ham psixologik xizmatning o’z o’rni bor. Bu jarayonda psixologlar faoliyat yuritib kelmoqda. Maktabgacha, maktab, oliy ta’lim tizimida ham psixolog shtatlar mavjud bo’lib, o’quvchilar va talabalarga amaliy yordam ko’rsatish, o’quvchilar va talabalarning ruhiy holatini aniqlab, ularga psixologik yordam ko’rsatish amaliy tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Ta’lim psixologiyasi. Psixologiya insonni ilmiy o‘rganish bilan bog‘liq o‘rganish. Ikkalasidan ham o‘quv jarayonlarini o‘rganish kognitiv va xulq-atvori istiqbollari, tadqiqotchilarga individual farqlarni tushunishga imkon beradi aql-idrok, kognitiv rivojlanish, ta’sir qilish, motivatsiya, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘z-o‘zini anglash, shuningdek ularning o‘rganishda tutgan o‘rni. Ta’lim psixologiyasining sohasi umr bo‘yi turli xil ta’lim sharoitlarida o‘quv jarayonlarini yengillashtirishga xizmat qiladigan ko‘rsatmalarni loyihalash, sinflarni boshqarish va baholash bilan bog‘liq ta’lim faoliyatini kuchaytirish uchun sinov va o‘lchovni o‘z ichiga olgan miqdoriy usullarga bog‘liq [1]. Ta’lim psixologiyasini qisman boshqa fanlar bilan aloqasi orqali anglash mumkin. Bu birinchi navbatda psixologiya, ushbu intizomga o‘zaro munosabatlarni o‘xshash munosabatda bo‘lish.

Shuningdek, bu haqida xabar beriladi. Ta’lim psixologiyasi, o‘z navbatida, ta’lim sohasidagi ko‘plab ixtisoslarni, shu jumladan qo‘llanma dizayni, ta’lim texnologiyasi, o‘quv dasturini ishlab chiqish, tashkiliy o‘rganish, maxsus ta’lim, sinflarni boshqarish va talabalarning motivatsiyasi. Ta’lim psixologiyasi ham undan foydalanadi va ham hissa qo‘shadi. Universitetlarda o‘quv psixologiyasi kafedralari odatda ta’lim fakultetlarida joylashgan bo‘lib, ehtimol kirish psixologiyasi darsliklarida ta’lim psixologiyasi mazmunining kamligi hisobga olinadi. Har bir tashkilotda bo‘lgani kabi, universitetlarda va oliy ta’limning ko‘plab sohalarida psixolog xizmatini tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Chunki, talabalarning ruhiy holati bilan shug‘ullanish bu psixologlarning sohasidir. Bunga ko‘ra o‘rganish, to‘g‘ri maslahat berish, ularning muammolarini to‘g‘ri yo‘l bilan hal qilib berish, ularning ruhiy holatini yaxshilash va ularga yetarli darajada ko‘maklashish muhim o‘rin tutadi. Psixolog ruhshunoslikdir. Oliy ta’limda nafaqat o‘quvchi, balki talaba, o‘qituvchilarga ham psixologik xizmat ko‘rsatish zarur. Har qanday inson ham kunda bir marotaba bo‘lsa ham stress holatiga tushadi. O‘qituvchilarda esa bu ko‘rsatkich biroz yuqori bo‘lishi mumkin. Chunki, bir kunda kamida yuzta o‘quvchi bilan muloqot qiladi. O‘qituvchining jismoniy holati, ruhiy holati biroz charchaydi. Shunda psixolog ularga to‘g‘ri tashxis qo‘ya olishi bilan ularga yordam beradi. Boshqa sohalarni o‘rganish uchun erta yosh afzalroq bo‘lishining yana bir sababi bor. Bola qancha yosh bo‘lsa, shuncha kamroq bo‘ladi. So‘z boyligi yilda mahalliy til, ammo shu bilan birga uning nutqiga bo‘lgan ehtiyojlari ham kam: kichik bolada aloqa sohalari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas [2]. Oliy ta’limning asosiy qismini o‘qituvchilar tashkil etadi. Talabalarning oliy ta’limga kelishi, ketishi, o‘zini tutishi, qay holatda nima bilan shug‘ullanishi ham talabaning kunlik ssenariysida yo‘q bo‘ladi. Yetarlicha rejalarni tuzsa ham unday bo‘lmasligi mumkin. Misol tariqasida bo‘lgan voqeani ta’riflab ketish joiz. Bir o‘qituvchi darsga keladi va o‘quvchi kech qoladi. Dars jarayonida kirib keladi. O‘qituvchi undan so‘raydi, nima uchun kech qolganini. Shunda o‘quvchi o‘zining muammosi bilan kech qolganligini aytadi. Shunda o‘qituvchi o‘quvchiga baqirib yuboradi. O‘quvchi esa ruhiy tushkunlikka tushadi. Natijada esa o‘quvchi o‘ziga tan jarohat yetkazadi. Psixolog ham shunday vaziyatlarda o‘qituvchi va o‘quvchini nazorat qilishi, ularning oliy ta’limga qanday kirib kelishi, kayfiyati, jismoniy va ruhiy holati, o‘zini tutishi, muomala jarayoni, boshqalar bilan munosabati ham ko‘rib chiqilishi psixologning asosiy vazifasi deb olinsa maqsadga muvofiqdir. Ta’lim psixologiyasi bu nisbatan yangi o‘rganish sohasi. Biroq, butun tarix davomida o‘qitish va o‘qitish jarayonlari bilan shug‘ullanadigan mutafakkirlar paydo bo‘ldi; va uning ba’zi g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Masalan, Platon va Aristotel kabi mumtoz antik davrda faylasuflar o‘rganish, jismoniy qobiliyatlar yoki psixomotor qobiliyatlarni rivojlantirish kabi sohalardagi individual farqlarni tadqiq qilishgan. Bundan tashqari, ular san’atning o‘rganish qobiliyatiga ta’sirini o‘rganishdi va o‘qituvchilar qanday rol o‘ynashi kerakligini va ularning talabalar bilan munosabatlarini tushunishga harakat qilishdi. Ta’lim psixologiyasidagi eng muhim masalalardan biri bu yangi bilimlarni egallashda har bir kishining individual farqlari

ta’sir qilishi mumkin. Psixologiyaning ushbu sohasi paydo bo‘lganidan beri ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘rganish uchun qaysi shaxsiy omillarni eng muhimligini topishga harakat qilishdi.

Shu ma’noda, bir-birini to‘ldiradigan ko‘plab turli xil ta’lim sohalari mavjud. Masalan, ba’zi tadqiqotchilar asosan aql-idrokka, boshqalari esa shaxsiyat, motivatsiya yoki o‘quv uslublariga e‘tibor berishgan. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning shunday gapi bor edi, “Tafakkur” jurnaliga bergan intervyumda Amir Temur bobomizning “Kuch-adolatda” degan fikrini rivojlantirib, “Kuch–bilim va tafakkurda” degan g‘oyani o‘rtaga qo‘ydim degan edi [3]. Xalqimiz aytganidek, bilagi bor birni yiqitar, bilimi bor mingni yiqitar. Qanday bo‘lmasin, o‘quv jarayoni natijalarini aniqlashning eng muhim omillari qaysi ekanligi aniq ma’lum emas; ammo bu borada individual tafovutlar og‘irligi aniq. Shu sababli, so‘nggi paytlarda har bir talabaga moslashtirilgan shaxsiy o‘qitish sharoitlarini yaratish uchun ko‘proq izlanmoqda. Ta’lim psixologiyasi doirasida ushbu fan tarixidagi eng muhim bahslardan yana biri talabalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi yoki o‘qituvchi bajarishi lozim bo‘lgan rol bo‘ldi. Shu ma’noda qarama-qarshi bo‘lgan va umuman boshqacha ta’lim strategiyalariga olib keladigan turli xil qarashlar mavjud. Talabalar harakat qilishlari va o‘z bilimlari doirasida faol sub’ektlarga aylanishlari mumkin bo‘lganda ko‘proq narsani o‘rganadilar. Shunday qilib, o‘qituvchilar o‘quvchilarga tajriba o‘tkazishlari va o‘zlariga javob topishlari uchun faqat qo‘llanma sifatida harakat qilishlari kerak. Psixolog bularni yo‘lini ko‘rsata olishi va shu asnoda ularga yordam berishi kerak

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish joizki, xalqning ma’naviyatini, ruxiyatini yuksaltirish uchun biz birinchi navbatda ta’lim tizimizning dastlabki o’choqlaridan boshlab psixologik xizmatni yo’lga qo’yish chora - tadbirlari ko’rib chiqilishi kerak va bunga amaliy yordam ko’rsatish ishlari amalga oshirilishi kerak, ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta’lim tizimida psixologiya sohasida kvotalar sonini oshirish, bugungi kunda raqobotbardosh kadrlarni tayyorlash ta’lim tizimidagi asosiy maqsadlardan biri desak yanglishmaymiz. Har bir ta’lim tizimidan boshlab, psixolog xizmat ish o’rinlarini kengaytirish, bu sohaga amaliy yordam ko’rsatish respublikamizda psixologik xizmatning o’sish ko’rstkichlarini samarali hal etish vazifalari, bugunda ta’lim tizimining yetakchi vazifalaridan desak yangilashmaymiz. Psixolog, amaliyotchi psixolog – inson ruhiyatining bunyodkori, naqqoshidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmanov.A Jumanazarov. Yo. Akbarov.S “Yosh davrlari psixologiyasi” Muammoli maruzalar matni Namangan 2009
2. Zufarova M.E.Umumiy psixologiya O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2010
3. Nishanova.Z.T. “Psixologik xizmat”, –T.:2007.
4. Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”, –T.:2013
5. https://studylib.ru/doc/6265759/psixologik-xizmat
6. https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarga-ingliz-tilini-orgatish-usullari

PSIXOLOGIK XIZMAT XODIMLARI KASBIY MOTIVLARINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.

Amirova Nazokat Uroq qizi
Termiz davlat pedagogika instituti o ‘qituvchisi
Abdullayeva Farida
Psixologiya ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
amirovanazokat49@gmail.com.

Annotatsiya. *Motiv- Insoni faol faoliyatga undovchi kuch, sabab va ehtiyojlar majmuidir. Motivasiya - bu odamda muayyan motivlarni uyg‘otish orqali uni muayyan harakatlarga undashga ta’sir qilish jarayonidir. Motivasiya har qanday faoliyatda insonni boshqarishning yadrosidir, kasbiy motivlar qaysi xollarda va xususiyatlarda namoyon bo’lishi, psixologik xizmat xodimlari kasbiy motivlari xususida bayon etilgan.*

Kalit so’zlar*. Motiv, motivatsiya, kasbiy faoliyat, kasbiy layoqat, shaxslilik xususiyatlari,xizmat ko’rsatish jarayonida motivatsiya, jamaoviy muhit,pedagogik faoliyat.*

Аннотация. *Мотив – это совокупность сил, причин и потребностей, побуждающих человека к активной деятельности. Мотивация – это процесс воздействия на человека с целью совершения определенных действий путем возбуждения определенных мотивов. Мотивация является основой управления человеком в любой деятельности, описаны моменты и характеристики профессиональной мотивации, профессиональной мотивации работников психологической службы.*

Ключевые слова*. Мотив, мотивация, профессиональная деятельность, профессиональные способности, личностные качества, мотивация в процессе службы, общественная среда, педагогическая деятельность.*

Annotatsion*. Motive is a set of forces, reasons and needs that urge a person to active activity. Motivation is the process of influencing a person to take certain actions by arousing certain motives. Motivation is the core of human management in any activity, in which points and characteristics professional motives are manifested, professional motives of psychological service workers are described.*

Key words*. Motive, motivation, professional activity, professional ability, personality traits, motivation in the service process, community environment, pedagogical activity.*

Pedagogik faoliyatda kasbiy motivlarning barqarorligi muhim ahamiyat kasb etib, uni rivojlantirish faoliyat turi bilan bog‘liq ko‘plab muvaffaqqiyatlarni ta’minlashi ehtimoldan holi emas. Xizmat faoliyatida motivlar rolini oshirish xuddi, tashkilotlarnikidek ma’lum bir qonuniyatga bo‘ysunadi.

Insonning qaysi maqsadlarni ko‘zlaganiga, qanday vazifalarni hal qilishiga qarab, undagi motivasiya turlarini aniqlash mumkin. Shunday qilib, insonga tashqi ta’sirlar orqali ma’lum bir harakatlarni amalga oshirishga undovchi kuch, ma’lum natijalarga olib keladigan harakatlarni keltirib chiqaradi. Demak, kasbiy faoliyatda odamni harakatlarga undashga qodir bo‘lgan motivlar, shuningdek, bu sabablarni qanday kelib chiqishi mumkinligini aniq bilish muhimdir.

Insonning aql-zakovati, zehni uning kundalik turmushi, mehnat va kasbiy faoliyatida o‘ziga xos o‘rin tutishini tadqiq etish psixologiyaning eng dolzarb muammolardan biri ekanligi uzoq tarixiy davrga ega. Psixologiyaning zamonaviy fan sifatida shakllanishi barobarida insonning zehni va aql-zakovatini o‘rganish, uning faoliyati samaradorligiga ta’sirini aniqlash bir qator ilmiy qonuniyatlarni

ochilishiga sabab bo‘ldi . Motivatsiya o'qituvchi faoliyati samaradorligining muhim omillaridan biridir. O'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasi, avvalo, kompensatsiya xarakterining yo'qligi va mansublik tarozida yuqori bo'lishi bilan tavsiflanishi kerak. Biroq, ushbu sohada mutaxassisning ish staji oshishi bilan ishdan qoniqish kamayishi va kasbiy motivatsiya xarakteri o'zgarishi mumkin. Ushbu holat murakkab psixologik-emotsional ish sharoitlari bilan bog'liq bo’ladi.Binobarin, o'qituvchining o'zi tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligi va muvaffaqiyatini, shuningdek, shaxsiy va hissiy ruhiy uyg'unligi va adekvatligini belgilaydigan shaxsiy motivatsiyasi xususiyatlariga katta e'tibor berilishi kerak. Ta’lim tizimida psixologik xizmat sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarimiz psixologik kasbiy motivlari nimalardan iborat, qay jihatlariga e’tibor berishimiz kerak degan savollar ko’ndalang kelib qolmoqda. Har bir soha mutassislarining kasbiy motivlari bo’lganidek, psixologik xizmat kasbi faoliyatidagi mutaxassislarimizda ham kasbiy motivlarning qay tomonlariga e’tibor berishimiz kerak. Tadqiqot jarayonining natijalari o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatida rag‘batlantirishning turli usullari qo‘llaniladi. Eng keng tarqalganlaridan biri bu pul rag‘batlantirishdir. Moddiy rag‘batlantirishni amalga oshirishda vaziyatni to‘g‘ri baholash juda muhim, agar inson juda murakkab ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlariga ega bo‘lsa, uning imkoniyatlarini o‘z vaqtida baholash kerak. Kasbiy psixologiyada, pedagoglarning hamkorlikda motiv jarayoni ustida ishlashlari eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Psixologik nuqtai nazardan, motivatsiya motivatsiyadan farq qiladi. Farqi shundaki, motivatsiya motivatsiyani amalga oshirish vositasidir. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, motivatsiya inson ehtiyojlari va manfaatlari yig‘indisi ekanligi ma’lum. Bu pedagogni faollikka undaydi. Bu pedagogni harakatga keltiradigan sabablar va ehtiyojlar to‘plami hisoblanadi. Pedagogni tashqi ta’sirlar orqali ma’lum harakatlarni bajarishga undaydigan kuch ma’lum natijalarga olib keladigan harakatlarni keltirib chiqaradi. Bu borada jahon psixologlari o‘z qarashlari va yondashuvlari nuqtai nazaridan o‘z fikr va mulohazalarini bildirganlar va shuningdek, motiv va motivatsiya dunyo psixologiyasida juda ko‘p o‘rganilgan va talqin qilingan. Motiv psixika orqali namoyon bo‘ladigan qat’iyatdir va pedagogni kasbiy faoliyatda harakat qilishga undaydigan sabablar va ehtiyojlair ham mavjud. Kasbiy faoliyatda motivatsion sabablarning psixologik jihatlarini, avvalambor, uning yangicha motivga ega ekanligini, o‘z kasbiga qiziqsa, samarali ishlar olib borilishi va yuksak marralar zabt etildi. Shu munosabat bilan jamoada muhit yaxshi bo‘lsa, har tomonlama qo‘llab-quvvatlansa, moddiy rag‘batlantirilsa, bularning barchasi pedagogning kasbiy faoliyatining psixologik sharoitlarini tashkil etadi. Insonning qaysi maqsadlarni ko‘zlaganiga, qanday vazifalarni hal qilishiga qarab, undagi motivasiya turlarini aniqlash mumkin. Shunday qilib, insonga tashqi ta’sirlar orqali ma’lum bir harakatlarni amalga oshirishga undovchi kuch, ma’lum natijalarga olib keladigan harakatlarni keltirib chiqaradi. Demak, kasbiy faoliyatda odamni harakatlarga undashga qodir bo‘lgan motivlar, shuningdek, bu sabablarni qanday kelib chiqishi mumkinligini aniq bilish muhimdir. Mazkur izohda motivasiya savdoga o‘xshaydi: “Men sizga kerak bo‘lgan narsani beraman, siz esa, menga kerak bo‘lgan narsani

berasiz". Agar ikkala tomonning umumiy nuqtai nazari to‘g‘ri kelmasa, motivasiya jarayoni sodir bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, motivasiyaning yana bir turi insonning o‘ziga xos motivasion tuzilishini shakllantirishga qaratilgan. Bu yerda asosiy e’tibor insonning harakatlari uchun zarur bo‘lgan motivlarni ishlab chiqish va kuchaytirishga yoki insonni samarali boshqarishga xalaqit beradigan motivlar xatti-harakatlarini cheklashga nazarda tutiladi. Ushbu turdagi motivasiya tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, u ba’zan faoliyat natijasida olinishi kutilayotgan aniq harakatlar bilan bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Chunki, motiv ko‘p harakatlar bilan bog‘liq, uni amalga oshirish uchun ko‘plab bilim va ko‘nikmalar talab etiladi. Uning natijalari, birinchi turdagi motivasiya natijalaridan ancha yuqori bo’lishi mumkin .Pedagogik faoliyatda kasbiy motivlarning barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi, uni rivojlantirish faoliyat turi bilan bog‘liq ko‘plab muvaffaqqiyatlarni ta’minlashi ehtimoldan holi emas. Xizmat faoliyatida motivlar rolini oshirish xuddi, tashkilotlarnikidek ma’lum bir qonuniyatga bo‘ysunadi. Bundan tashqari, motivasiyaning yana bir turi insonning o‘ziga xos motivasion tuzilishini shakllantirishga qaratilgan. Bu yerda asosiy e’tibor insonning harakatlari uchun zarur bo‘lgan motivlarni ishlab chiqish va kuchaytirishga yoki insonni samarali boshqarishga xalaqit beradigan motivlar xatti-harakatlarini cheklashga nazarda tutiladi. Ushbu turdagi motivasiya tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, u ba’zan faoliyat natijasida olinishi kutilayotgan aniq harakatlar bilan bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Chunki, motiv ko‘p harakatlar bilan bog‘liq, uni amalga oshirish uchun ko‘plab bilim va ko‘nikmalar talab etiladi. Uning natijalari, birinchi turdagi motivasiya natijalaridan ancha yuqori bulishi mumkin .

Kasbiy faoliyatda o‘qituvchilarni rag‘batlantirish uchun, turli xil usullardan foydalaniladi. Eng keng tarqalganlaridan biri bu moddiy rag‘batlantirishdir. Moddiy rag‘batlantirishni amalga oshirishda vaziyatni to‘g‘ri baholash juda muhimdir, agar inson o‘z ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsadlari juda murakkab bilan ajralib tursa, uning imkoniyatlarini vaqtida baholash zarur.

Psixologik qoidagi ko‘ra, rag‘batlantirish motivasiyadan farq qiladi. Farq shundaki, rag‘batlantirish - bu motivasiyani amalga oshirish vositasidir. Tashkilotda insoniy munosabatlarning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, odamlarni boshqarish shuncha oson bo‘ladi. Bu holat rahbar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimidagi barqarorlik bilan o‘lchanadi.

Motivasiyaning insonning kasbiy faoliyatiga ta’siri[4]:

- harakatlar;
- rejalar;
- qat’iyatlilik;
- vijdonlilik;
- diqqatlilik sifatlari orqali keng ta’sir etadi.

Har bir shaxs xuddi shu sifatlar orqali berilgan ishlarni samarali bajarishga qodir. U osonroq ishlashga intilishi mumkin va ba’zan murakkab qarorlar qabul

[4]Листик Е.М. Мотивация и стимулирование трудовой деятельности: учебник и практикум для академического бакалавриата / Е.М. Листик. – 2-е изд., испр. И доп. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – С. 145

qilishi mumkin. Bularning barchasi ishni bajarishda qanday kuch sarflashiga bog‘liq.

Motivasiya insonning o‘z ishini bajarishiga, ishlab chiqarish majburiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Motivasiya va mehnatning yakuniy natijasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud emas, chunki xodimning malakasi va qobiliyati, vazifalarni to‘g‘ri tushunishi, ish jarayoniga atrof-muhitning ta’siri kabilar ham hisobga olinadi.

Kasbiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi motivator mezonlar:

– Har qanday rag‘batlantiruvchi harakatlar puxta ishlab chiqilishi kerak, avvalambor boshqalarning harakatini talab qiladigan ishlar;

– Odamlar uchun ishdan zavqlanishi, natijalar uchun javobgar bo‘lishi, rahbar odamlar bilan ishlashda shaxsan o‘zi qatnashish juda muhimdir;

– Ish joyida har bir kishining nimaga qodirligi hisobga olinadi;

– Har qanday odam o‘z ishida o‘zini namoyon etishga, o‘z natijalarini o‘zi bilishga intiladi;

– Odamlarning mehnat sharoitlarini yaxshilashga bo‘lgan munosabat muhimdir;

– Har bir xodimga jamoadagi ahamiyatini baholash imkoniyatini berish kerak;

– Yaxshi xodimlar moddiy va ma’naviy tan olinish huquqiga ega;

– O‘zini o‘zi boshqarishda xodimlarning har qanday harakatlariga hamroh bo‘lish kerak;

– Ishchilarga doimiy ravishda ish jarayonida yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkoniyatini berish kerak;

– Tashabbusni har doim rag‘batlantirish kerak;

– Xodimlar uchun kasbiy faoliyatining natijalari va sifati to‘g‘risida doimiy ravishda ma’lumot berish turish kerak.

Keltirilgan tasniflar kasbiy motivlar namoyon bo‘lishining barqaror psixologik omillari hisoblanib, u shaxsning faqatgina o‘ziga emas, unga mas’ul bo‘lgan kishilar guruhiga ham aloqador sanaladi .Shuning uchun u har bir bo‘lajak o‘qituvchilarning aniq maqsadlarini bilish, iloji boricha ularing sohadagi kognitiv, ijtimoiy ehtiyojlarini o‘z vaqtida qondirilishi o‘ta muhimdir.

ADABIYOTLAR.

1. Psixologiya metodologiyasi O‘quv qo‘llanma. E.G‘oziyev. T-2013,
2. Psixologiya metodologiyasi. G‘oziyev E.G‘., Xolmuxamedov M., Ibrohimov X. – T.: O‘z MU, 2002.
3. Психология обшения. Леонтьев.А.А. 1997 г.
4. “Мотивация поведения и формирование личности” Асеев.В.Г. М.,“Мысл” 2011 г.
5. Nishanova.Z.T. “PSIXOLOGIK XIZMAT”, –T.:2007.
6. Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”, –T.:2013.
7. Amirova, N. (2024). Psixologiya sohasida ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash mexanizmlari va istiqbollar. *Журнал педагогики и психологии в современном образовании*, 423-425.
8. Amirova, n. (2024). Pedagogik faoliyatda kasbiy motivlarni shakllanishining psixologik shart-sharoitlari. *UzMU xabarlari*, *1*(1.4), 65-68.

9. Amirova, N. (2024). Ta’lim tizimida psixologik xizmatning ahamiyati. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 100-102.
10. Dexkonova M.E. (2025) Motiv. Motivatsiya. Ehtiyoj va kutishlar. Motivlarning inson hayotidagi o’rni. O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti. Zamonaviy yoshlarning ilmiy va innovatsion tashabbuslari: yangicha yondashuvlar va transformatsiyalar. 2025-yil 27-mart II QISM.174-178b.
11. Dexkonova M.E .Diqqatning barqarorligini o‘rganish metodlari. Ma`mun universiteti. “Zamonaviy fan sohalarida shaxs muammolari”2025-yil 15-mart. Urganch. 942-945b.

ZAMONAVIY SOHALARDA PSIXOLOGIK XIZMAT VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Mirvaliyeva Maxliyo Yoqubjon qizi
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy yo’nalishlarda psixologik xizmatning ahamiyati hamda rivojlangan mamlakatlardagi psixologik xizmatni O’zbekiston tizimi bilan bog’liqligi yoritilgan. Ta’lim, tibbiyot, va huquq-tartibot tizimida psixologik xizmatning ustuvor yo’nalishlariga alohida urg’u berilgan. Psixologik xizmatda qo’llaniladigan metod va usullardan qisqacha namunalar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Psixologik xizmat, ruhiy salomatlik, klinik psixolog, stress, terapevt*

Аннотация: *В данной статье освещено значение психологической службы в современных направлениях, а также связь между системой психологической помощи в развитых странах и Узбекистане. Особое внимание уделено приоритетным направлениям психологической службы в системе образования, здравоохранения и правоохранительных органах. Кратко представлены примеры методов и подходов, применяемых в психологической практике.*

Ключевые слова: *Психологическая служба, психическое здоровье, клинический психолог, стресс, терапевт.*

Annotation: *This article highlights the importance of psychological services in modern contexts and explores the connection between the systems of psychological support in developed countries and Uzbekistan. Special attention is given to the priority areas of psychological services within the education, healthcare, and law enforcement systems. Brief examples of methods and approaches used in psychological practice are also presented.*

Keywords: *Psychological service, mental health, clinical psychologist, stress, therapist.*

Zamonaviy sohalarda psixologik xizmat insonning ruhiy salomatligini saqlash, uni rivojlantirish va turli psixologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda psixologik xizmatlar nafaqat sog‘liqni saqlash tizimida, balki ta’lim, ishbilarmonlik, huquq-tartibot, axborot texnologiyalari, sport va harbiy sohalarda ham keng qo‘llanilmoqda. Ta’lim sohasida psixologik xizmatlar o‘quvchilarning emotsional-psixologik holatini aniqlash, o‘qishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy muhitga moslashish muammolarini hal qilishga xizmat qiladi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi psixologlar nafaqat o‘quvchilarga, balki ota-onalar va pedagoglarga ham maslahat beradi. Tibbiyot sohasida esa klinik psixologlar depressiya, xavotir, posttravmatik sindrom kabi ruhiy buzilishlar bilan shug‘ullanadi. Psixologik xizmat bu yerda psixoterapiya, maslahat va reabilitatsiya shaklida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, og‘ir kasalliklarga chalingan bemorlar uchun

emotsional yordam ko‘rsatish ham muhim sanaladi. Huquq-tartibot tizimida psixologik xizmat kriminal psixologiya, sud-psixologik ekspertiza va jazoni o‘tash joylarida reabilitatsion faoliyat orqali amalga oshiriladi. Bu yo‘nalishda psixologlar jinoyatchilar, jabrlanuvchilar va guvohlarning psixologik holatini baholash bilan shug‘ullanadi. Biznes va menejment sohasida korporativ psixologlar xodimlarning ruhiy salomatligini saqlash, stressni kamaytirish, ish joyidagi nizolarni hal qilish hamda motivatsiyani oshirish ustida ishlaydi. Axborot texnologiyalari sohasida esa "raqamli stress" va "kuyish sindromi" kabi zamonaviy muammolar yuzasidan psixologik yordam va treninglar o‘tkaziladi. Sport psixologiyasi sportchilarning musobaqa oldi stressi, diqqatni jamlash, motivatsiya va emotsional bardoshliligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ko‘plab professional jamoalar va Olimpiya delegatsiyalari tarkibida sport psixologlari faoliyat olib boradi. Harbiy sohada esa psixologik xizmat askarlarni ekstremal holatlarga tayyorlash, ularning ruhiy barqarorligini oshirish va jangovar travmalardan keyingi moslashuv jarayonlarini yengillashtirishga qaratilgan. Umuman olganda, psixologik xizmat zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylanib, har bir sohada inson salomatligi va unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda[5].

Psixologik xizmatda qo‘llaniladigan metod va usullar turli xil bo‘lib, ular mijozlarning individual ehtiyojlari, muammolari va psixologik holatiga qarab tanlanadi. Ushbu metodlar asosan individual va guruh terapiyalarini, psixodiagnostika vositalarini, maslahat berishni va reabilitatsiya jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Individual terapiyada psixolog mijoz bilan shaxsiy muloqotda bo‘lib, uning ruhiy holatini chuqur tahlil qiladi, muammolarni aniqlaydi va ularni hal qilishga yo‘naltirilgan maxsus texnikalarni qo‘llaydi. Guruh terapiyasi esa o‘xshash muammolarga ega shaxslarni birlashtirib, o‘zaro tajriba almashish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali samarali natijalarga erishishni maqsad qiladi. Psixodiagnostika usullari — bu maxsus testlar, anketalar va intervyular bo‘lib, ular orqali insonning ruhiy holati, xulq-atvori, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari aniqlanadi. Maslahat berish metodlari esa mijozga hayotiy muammolarni hal etishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, stressni boshqarish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, reabilitatsiya jarayonlarida fiziologik va psixologik tiklanishni ta’minlash uchun turli mashqlar, meditatsiya, relaksatsiya texnikalari va hatto zamonaviy texnologiyalar (masalan, virtual haqiqat terapiyasi) qo‘llaniladi[6]. Zamonaviy psixologik xizmatlarda onlayn maslahatlar va teleterapiya ham keng tarqalgan bo‘lib, bu usullar mijozlarga qulaylik yaratadi va psixologik yordamni geografik cheklovlarsiz yetkazishga imkon beradi. Umuman olganda, psixologik metod va usullar mijozning holatiga moslashtirilgan holda qo‘llanilib, uning ruhiy salomatligini mustahkamlash va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. Psixologik xizmatda qo‘llaniladigan metod va usullar doimiy ravishda rivojlanib boradi hamda mijozlarning ehtiyojlari, shuningdek, zamonaviy psixologiya fanidagi yangiliklarga asoslanadi. Bugungi kunda psixologik amaliyotda keng tarqalgan metodlardan biri — kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (KXT), u mijozlarning noto‘g‘ri fikr va

[5] American Psychological Association (APA). Psychology Topics.https://www.apa.org/topics
[6] Olimov, S. (2018). Psixologik maslahat va terapevtik usullar. Toshkent: «Akademnashr».

e’tiqodlarini aniqlab, ularni ijobiy o‘zgarishga yo‘naltiradi. Shuningdek, psixodinamik terapiya insonning ongsiz psixologik jarayonlarini tushunishga qaratilgan bo‘lib, bolalikdagi tajribalar va ichki nizolarni tahlil qiladi. Humanistik yondashuv esa shaxsning o‘z-o‘zini anglash va shaxsiy o‘sish imkoniyatlarini rivojlantirishga urg‘u beradi. Zamonaviy metodlarda texnologiyalar katta rol o‘ynaydi — virtual haqiqat (VR) yordamida fobiyalar va travmatik xotiralarni kamaytirish, shuningdek, mobil ilovalar orqali stressni boshqarish va meditatsiya mashqlari taklif qilinmoqda. Biofeedback usuli yordamida esa inson o‘z tanasining fiziologik ko‘rsatkichlarini kuzatib, ularni boshqarishni o‘rganadi, bu esa stress va xavotirni kamaytirishda samarali. Psixologik xizmatda art-terapiya, musiqaterapiya kabi ijodiy usullar ham keng qo‘llanilib, ular mijozlarga o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda yordam beradi. Bundan tashqari, psixologlar ko‘pincha ko‘p tarmoqli yondashuvni qo‘llaydi — ya’ni individual terapiya, guruh ishlari, oilaviy maslahat va psixologik treninglarni birlashtiradi. Shuningdek, psixologik xizmatda krizis intervensiyasi muhim o‘rin tutadi — favqulodda holatlarda tezkor yordam ko‘rsatish, masalan, tabiat ofatlari, jinoiy hodisalar yoki shaxsiy traumasidan keyin. Umuman olganda, psixologik xizmatlarda qo‘llaniladigan metod va usullar moslashuvchan, individual yondashuvga asoslangan va doimiy yangilanishda bo‘ladi. Endi bu yo’nalishlarni har biriga alohida to’xtalib o’tamiz. Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (KXT) eng keng tarqalgan usullardan biri bo‘lib, u mijozning salbiy va noto‘g‘ri fikrlarini aniqlab, ularni ijobiy va realistik fikrlarga almashtirishga yordam beradi. Psixodinamik terapiya esa insonning ongsiz psixologik jarayonlarini o‘rganib, bolalikdagi tajribalar va ichki nizolarni tahlil qilishga qaratilgan. Humanistik yondashuv shaxsning o‘zini anglash va shaxsiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlashga urg‘u beradi. Zamonaviy texnologiyalar asosida virtual haqiqat terapiyasi (VR) yordamida mijoz xavfsiz muhitda o‘z qo‘rquv va travmalarini boshdan kechiradi. Biofeedback usuli orqali inson o‘zining yurak urishi, nafas olish ritmi kabi fiziologik ko‘rsatkichlarini kuzatib, boshqarishni o‘rganadi. Shuningdek, ijodiy terapiya usullari — art-terapiya, musiqaterapiya va drama terapiya — mijozlarga o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda yordam beradi. Favqulodda vaziyatlarda esa krizis intervensiyasi orqali tezkor psixologik yordam ko‘rsatiladi. Guruh terapiyasi va oilaviy maslahatlarda o‘xshash muammolarga ega shaxslar yoki oila a’zolari birgalikda muammolarni hal qiladi, o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni kuchaytiradi. Maslahat berish metodida esa mijozga hayotiy qiyinchiliklarni yengishda, stressni boshqarishda va qaror qabul qilishda yordam beriladi. Ko‘pincha psixologlar integrativ yondashuvni qo‘llab, turli metod va usullarni birlashtiradi, shu orqali mijozga eng samarali yordam ko‘rsatishni maqsad qiladi. Umuman olganda, psixologik metod va usullar mijozning ruhiy salomatligini mustahkamlash, uning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy amaliyotda keng qo‘llaniladi[7].

Rivojlangan mamlakatlarda psixologik xizmatlar yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, ularning tashkil etilishi, ko‘rsatilish sifati va jamoatchilik orasida qamrovi kengdir. Bu xizmatlar sog‘liqni saqlash tizimi, ta’lim muassasalari, ish joylari hamda

[7] Ruzmetov, J. (2020). Psixodiagnostika va psixoterapiya. Toshkent: «Universitet nashriyoti».

huquq-tartibot tizimlarida keng qo‘llaniladi. Klinik psixologlar, psixiatrlar va terapevtlar kasalxonalarda va sog‘liqni saqlash markazlarida ishlaydi. Maktab va universitetlarda o‘quvchilar hamda talabalar uchun maxsus psixologik yordam ko‘rsatiladi. Ish joylarida esa xodimlarning ruhiy salomatligini saqlash, stressni boshqarish va konfliktlarni hal etishda korporativ psixologlar faoliyat yuritadi. Huquq-tartibot sohasida jinoyatchilarning psixologik holatini baholash, guvohlar yoki jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish psixologik xizmatlar orqali amalga oshiriladi. Psixologik xizmatlar individual va guruhiy terapiya, online maslahatlar, reabilitatsion markazlar, psixodiagnostika va baholash, hamda krizis holatlarda yordam ko‘rsatish shaklida taklif etiladi. Masalan, AQShda BetterHelp yoki Talkspace kabi platformalar orqali onlayn maslahatlar keng tarqalgan. Rivojlangan mamlakatlarda psixolog mutaxassislarini tayyorlash kuchli akademik asosda amalga oshiriladi, ular bakalavr, magistratura va doktorantura bosqichlarida o‘qitiladi hamda kasbiy assotsiatsiyalar tomonidan litsenziyalanadi. Doimiy professional rivojlanish va malaka oshirish kurslari talab etiladi. Aholi ruhiy salomatlikka jiddiy yondashadi, psixologga murojaat qilish zaiflik emas, balki ongli qaror sifatida qabul qilinadi. Psixologik yordam olish stigma emas, balki normal holat sifatida qaraladi. Davlat va ish beruvchilar ko‘pincha bunday xizmatlar uchun moliyaviy yordam beradi yoki ularni to‘liq moliyalashtiradi. So‘nggi yillarda bu sohada innovatsiyalar jadal rivojlanmoqda: sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida psixologik testlar, mobil ilovalar (Headspace, Calm) va hatto virtual haqiqat (VR) texnologiyalari yordamida stress va xavotirni kamaytirish imkonini beruvchi vositalar ishlab chiqilgan. Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlarda psixologik xizmatlar jamiyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi va inson salomatligining muhim omili hisoblanadi[8].

Psixologik xizmatda qo‘llaniladigan metod va usullarning samaradorligi ko‘p jihatdan psixologning malakasi, mijoz bilan o‘zaro ishonchli munosabat o‘rnatishi va terapiya jarayonining individual xususiyatlariga bog‘liq. Zamonaviy amaliyotda psixologik yordam nafaqat kasalliklarni davolashga, balki profilaktika va psixososial rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga ham qaratilgan. Bu esa psixologik xizmatning ko‘lamini kengaytirib, maktab, ish joylari, sog‘liqni saqlash muassasalari va ijtimoiy xizmatlarda faol ishlash imkonini beradi. Shu bilan birga, psixologik yordam jarayonida etik me’yorlar, maxfiylik va mijozning shaxsiy huquqlarini hurmat qilish eng muhim tamoyillar sifatida saqlanadi. Zamonaviy psixologiya sohasida o‘rganilayotgan yangi metodlar, masalan, neyropsixologiya yondashuvlari va genetik tadqiqotlar orqali insonning ruhiy holati va xulq-atvori haqida yanada chuqurroq tushuncha hosil qilinmoqda, bu esa individual terapiya rejasini yanada aniqroq va samaraliroq tuzishga yordam beradi. Shu bilan birga, global pandemiya va ijtimoiy o‘zgarishlar psixologik xizmatlarga bo‘lgan talabni oshirib, onlayn terapiya va raqamli platformalar orqali xizmat ko‘rsatishni kengaytirdi. Bu esa psixologik yordamga kirishni soddalashtiradi va uni yanada

[8] Schneider, F. W., Gruman, J. A., & Coutts, L. M. (2012). Applied Social Psychology: Understanding and Addressing Social and Practical Problems. Sage Publications.

ommaviy qiladi. Natijada, psixologik xizmatlar nafaqat individual, balki jamiyat darajasida ham ruhiy salomatlikni mustahkamlashda muhim vositaga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Corey, G. (2016). *Theory and Practice of Counseling and Psychotherapy*. Cengage Learning.
2. Kazdin, A. E. (2009). *Evidence-Based Psychotherapies for Children and Adolescents*. Guilford Press.
3. American Psychological Association (APA). Psychology Topics. https://www.apa.org/topics
4. World Health Organization (WHO). Mental Health. https://www.who.int/health-topics/mental-health#tab=tab_1
5. Qodirov, A. (2010). *Psixologiya asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
6. Ergashev, A. (2015). *Amaliy psixologiya*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Olimov, S. (2018). *Psixologik maslahat va terapevtik usullar*. Toshkent: Akademnashr.
8. Ruzmetov, J. (2020). *Psixodiagnostika va psixoterapiya*. Toshkent: Universitet nashriyoti.

PSIXOLOGIK TA'LIMNI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARINING XORIJ TAJRIBASI

Turg'unpo'latova Musharraf Xusniddin qizi
Namangan davlat univesiteti stajor-o'qituvchi

Annotatsiya: *maqolada psixologik ta'limni tashkil etishning zamonaviy xorij tajribasi borasida ma'lumotlar bayon etilgan bo'lib hozirgi kundagi psixologik ta'limni tashkil etish zarurati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *tendensiya, olim, ta'lim, odat, daraja, davomiylik, izchillik, an'ana, siyosat, mamlakat, psixologiya.*

Аннотация: *В статье изложены данные по современному зарубежному опыту организации психологического образования и раскрыта необходимость организации современного психологического образования.*

Ключевые слова*: тенденция, ученый, образование, привычка, степень, продолжительность, последовательность, традиция, политика, страна, психология.*

Annotation*: the article describes information on the modern foreign experience of the organization of psychological education and reveals the need for the organization of psychological education of the present day.*

Keywords: *trend, Scholar, Education, custom, rank, continuity, consistency, tradition, politics, country, psychology.*

Psixologiya ta'limining maqsadlari, davomiyligi, tuzilishi va mazmuni ko'p jihatdan milliy ta'lim tizimlari, tarixiy an'analar, psixologiyaning muayyan mamlakatda fan sifatidagi rivojlanish darajasi va mavqei, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan belgilanadi. Yevropa va Amerikaning aksariyat mamlakatlarida zamonaviy psixologik ta'limga xos bo'lgan odatiy tendensiyalar mavjud bo'lib ular quyidagilar:

1. So'nggi o'n yilliklarda Shimoliy Amerika, Yevropaning aksariyat mamlakatlari va Avstraliyada o'quvchilarning psixologik ta'limga qiziqishi ortib bormoqda. Psixologiya odatda oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun talabalar tomonidan eng ko'p tanlanadigan eng yaxshi 3-4 fanlardan biri hisoblanadi. Psixologiya fanini psixologiya fanlari va amaliyoti sohasiga ixtisoslashgan talabalar bilan bir qatorda ta'lim, tibbiyot, huquq, ijtimoiy ish va boshqalar kabi boshqa mutaxassisliklar talabalari ham o'rganadilar. Ko'pgina mamlakatlarda psixologiya

umumta’lim maktablarida o‘qitiladi va o‘quvchilar o‘z xohishlari bilan uni o‘rganish uchun fan sifatida tanlaydilar.

2. Psixologik ta’limga bo‘lgan ehtiyojni talabalar ham, ta’lim dasturlari direktorlari ham tan oladilar. Universitetlar va maktablarda talabalar tomonidan o‘qish uchun psixologiyani tanlash, bir tomondan, ta’lim dasturlari rahbarlari tomonidan, boshqa tomondan, talabalarning o‘zlari tomonidan belgilanadi. Birinchi holda, ta’lim dasturini ishlab chiquvchilar (ta’lim muassasasi ma’muriyati) muayyan psixologik kurslarni, shuningdek, psixologiya bilan bog‘liq bo‘lmagan kurslarni o‘rganishni belgilaydigan dasturni taklif qiladilar. O‘quv dasturini tanlashda talaba unda taklif qilingan barcha kurslarni o‘rganishi shart. Ikkinchi holda, talabalarga o‘zlari uchun ta’lim yoki kasbiy qiziqish uyg‘otadigan kurslarni tanlashlari mumkin bo‘lgan kurslar taklif etiladi. Bu ikki omilning ta’siri turli mamlakatlarda va turli o‘quv dasturlarida farqlanadi. Masalan, Rossiyada birinchi omil ustunlik qiladi, AQShda esa ikkinchi; kasbiy ta’lim dasturlarida - birinchi omil, umumiy psixologik ta’lim dasturlarida - ikkinchi.

3. Psixologik ta’limning tipik davomiyligi. Psixologiyani o‘rganish odatda “Psixologiyaga kirish” (yoki “Umumiy psixologiya”) kursidan boshlanadi. Talabalar odatda o‘zlarining qiziqishlari va ixtisosligiga qarab kurslarni tanlaydilar. O‘qishni tamomlagandan so‘ng psixologiya bo‘yicha kasb egallashni rejalashtirayotgan talabalar 4-6 yil davomida psixologiya bo‘yicha o‘qishadi. Ba’zi Yevropa mamlakatlarida professional psixologik ta’limning odatiy davri jami 5 yil, boshqalarida - 6 yil. Bu davr 5 yillik uzluksiz ta’limni o‘z ichiga olishi yoki oliy ta’limning ikki darajasiga bo‘linishi mumkin. Ba’zi mamlakatlarda, masalan, Norvegiyada oliy ta’limga bir yillik kirish kursidan so‘ng, talabalar professional psixolog bo‘lish uchun 5 yillik o‘quv dasturini tamomlashlari kerak. Angliyada asosiy psixologik ta’lim 3 yil davom etadi. Biroq, professional psixolog bo‘lish va mustaqil ishlay olish uchun talabalar oliy ta’limning ikkinchi bosqichida ixtisoslashtirilgan dastur bo‘yicha yana 3 yil qo‘shimcha o‘qishlari kerak. AQShda asosiy psixologiya ta’limi 4 yil, professional psixologiya ta’limi esa qo‘shimcha 2 yillik o‘qishni talab qiladi. Xuddi shunday holat Shotlandiyada ham mavjud.

4. Psixologik tarbiyaning tipik tuzilishi va maqsadlari. Tuzilishi nuqtai nazaridan, psixologik ta’lim uzluksiz yoki vaqti-vaqti bilan bo‘lishi mumkin, maqsad bo‘yicha - psixologik ma’lumot olishga yoki umumiy yoki ixtisoslashtirilgan psixolog kasbini olishga qaratilgan. Ushbu mezonlarning kombinatsiyasi psixologik ta’limning muayyan tipik modellarini yaratadi. Uzluksiz umumiy ta’limda o‘quvchilar dastlab umumiy psixologik ta’limga ega bo‘ladilar va faqat oxirgi kurslarda yoki ayrim hollarda universitetni tamomlagandan keyin ham ixtisoslashadilar. Bunday tizim Portugaliya, Finlandiya, Norvegiya, Niderlandiya, Avstriya va Ispaniyada mavjud. Vengriya, Italiya, Germaniya, Shvetsariya, Rossiya va Daniya. Uzluksiz ixtisoslashtirilgan ta’limda talabalar boshidanoq klinik, ta’lim yoki rivojlanish psixologiyasi kabi psixologiyaning ma’lum bir sohasiga ixtisoslashgan. Bunday psixologik ta’lim tizimi, masalan, Finlandiya, Shvetsiya va Belgiyada mavjud. Intervalent psixologik ta’limning ikkita varianti mavjud. “Uch plus uch” modeli Angliya uchun odatiy bo‘lib, u yerda talabalar uch yil davomida

umumiy psixologik ta’lim oladilar. Uni tugatgandan so‘ng ular keyingi 3 yil davomida ikkinchi bosqichda psixologik ta’limni davom ettirishlari yoki psixologiya bo‘yicha o‘qishlarini yakunlashlari va boshqa mutaxassislik bo‘yicha ikkinchi bosqichda va ehtimol boshqa universitetda o‘qishni davom ettirishlari mumkin. Bu tizim boshqa qator mamlakatlarda, masalan, Irlandiya, Fransiya, Gretsiya, Portugaliya va Maltada asos sifatida qabul qilingan. Uzluksiz psixologik ta’limning yana bir varianti psixologiya bo‘yicha 4 yillik asosiy ta’limni, keyin esa 2 yillik ta’limni o‘z ichiga oladi. Psixologik ta’limning tipik mazmuni. Kasbiy psixologik ta’lim o‘rganilishi kerak bo‘lgan turli mavzularni o‘z ichiga oladi. Bu faqat psixologik bo‘lishi mumkin yoki u yoki bu darajada boshqa bilim sohalaridagi mavzularni o‘rganishni o‘z ichiga olishi mumkin. Biologiya va ijtimoiy fanlarni psixologiya bilan bog‘liq holda o‘rganish juda tipik hodisadir. Umumiy ta’lim fanlari Rossiya va AQShda psixologlarning o‘quv dasturlariga kiritilgan. Shu bilan birga, ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida psixologiya talabalari umumiy ta’lim fanlarini o‘rganmaydilar. Psixologik ta’lim bilan bog‘liq bo‘lgan o‘quv fanlarini ikkita asosiy guruhga bo‘lish mumkin: fundamental va amaliy. Ko‘pgina mamlakatlarda o‘rganiladigan tipik fundamental psixologik fanlar psixonomiya (idrok va idrokni o‘rganadi), biologik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi, individual farqlar psixologiyasi, nazariya, metodologiya, statistika. Ko‘pgina mamlakatlarda o‘rganiladigan tipik amaliy psixologik fanlar klinik psixologiya, kasbiy va tashkiliy psixologiya, ta’lim va maktab psixologiyasidir. Fanlar ro‘yxati nomlari va miqdori jihatidan farq qilishi mumkin, ammo ularda ochilgan mavzu mazmuni asosan o‘xshashdir. Tajribali psixologlar nazorati ostidagi kasbiy amaliyot va ta’limning yakuniy bosqichida himoyalangan tadqiqot loyihasi Yevropa va Shimoliy Amerikaning barcha mamlakatlarida psixologlarni tayyorlashning majburiy tarkibiy qismidir. Ular psixologlarning kasbiy tayyorgarligini oshiradilar.

6. Asta-sekin kasbiy psixologik ta’limning ikkita tarmog‘i ajralib turadi: ilmiy yo‘naltirilgan va amaliy yo‘naltirilgan. Ikkala holatda ham fakultetlar yuqori darajadagi ilmiy mukammallikni saqlashga intiladi. Biroq, 60-yillarning oxirlarida. AQSHda va oradan o‘n yil o‘tib Yevropada jamiyatning amaliyotchi psixologlarga bo‘lgan ehtiyoji ortib borishi munosabati bilan amaliy psixologik faoliyatga (masalan, klinik, maktab psixologiyasi sohasida) tayyorgarlik ko‘rishga qaratilgan kasbiy psixologiya maktablari paydo bo‘la boshladi. Tadqiqot yoki amaliy psixologiya bo‘yicha mutaxassislik odatda magistratura, doktorlik yoki professional dasturlarda asosiy psixologiya ta’limini tugatgandan so‘ng boshlanadi. Psixologiya bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim ikkita variantga ega. Magistratura dasturlari odatda 2 yil davom etadi va asosan tadqiqotga yo‘naltirilgan (garchi yaqinda amaliyotga yo‘naltirilgan magistrlik dasturlari tobora keng tarqalgan bo‘lsa ham). Professional psixologiya maktablarining dasturlari psixologlarni klinik, maktab va maslahat psixologiyasi sohasida ishlash uchun amaliy tayyorlashga qaratilgan. Tadqiqotga yo‘naltirilgan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning yana bir turi aspirantura yoki doktoranturadir. Aspiranturada (Rossiyada) yoki doktoranturada (dunyoning boshqa ko‘plab mamlakatlarida) o‘qish mutaxassisning

ilmiy malakasini oshirishga qaratilgan. Psixologiya fanlari nomzodi yoki fanlar nomzodi darajasi bitiruvchining ilmiy yetukligini tavsiflaydi. Shu bilan birga, bir qator mamlakatlarda amaliy psixologlarning malakasini oshirish uchun aspirantura dasturlari (masalan, Germaniyada 3 yillik, Norvegiyada 5 yillik dasturlar) mavjud. Ular ko‘pincha milliy psixologik uyushmalar va jamiyatlar yoki universitetlar tomonidan ishlab chiqiladi va olib boriladi. Qo‘shma Shtatlarda universitetlar klinik, maktab va maslahat psixologiyasi bo‘yicha doktorlik dasturlarini taklif qiladi. Bunday holda, o‘qitish psixologlarning amaliy tayyorgarligiga, kasbiy psixologik ishning muayyan sohasida amaliy kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashga qaratilgan. Bitiruvchilar psixologiya fanlari doktori (Psy.D.) darajasini oladilar, bu Ph.D darajasiga teng daraja.

7. Psixologiyani nafaqat shu sohaga ixtisoslashgan talabalar, balki boshqa sohalar mutaxassislari - sotsiologlar, o‘qituvchilar, shifokorlar, ijtimoiy xizmatchilar, huquqshunoslar ham tobora batafsil o‘rganmoqda. Ko‘pgina Yevropa va Amerika universitetlari va ixtisoslashtirilgan institutlarida talabalar o‘qish uchun fanlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lib, psixologiyani tanlashadi. Ular buni birinchi navbatda ushbu bilim sohasiga bo‘lgan qiziqishlari bilan amalga oshirishga undaydi, chunki psixologiya nafaqat olimlar uchun qiziqarli va foydali bo‘lgan juda ko‘p faktlarni to‘plagan. Ko‘pincha talabalar umumiy psixologiya kurslarini va kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan psixologiyaning amaliy sohalarini o‘rganadilar. Rossiyada talabalar davlat ta’lim standartlari asosida universitet ma’muriyati tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari bo‘yicha ta’lim oladilar.

Shuning uchun psixologiya o‘rganiladimi yoki yo‘qmi, bu universitet rahbariyatiga bog‘liq. Dekanatlar va kafedralar talabalar o‘quv dasturlariga psixologiyani tobora ko‘proq kiritmoqda. Milliy ta’lim tizimlarini integratsiyalashuv tendensiyasi. Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda milliy ta’lim tizimlarini integratsiyalashuv tendensiyalari kuzatilmoqda. 1999-yilda Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya va Fransiya hukumatlari tomonidan tayyorlangan Boloniya deklaratsiyasi 29 davlat tomonidan qabul qilingandan so‘ng, Yevropa milliy ta’lim tizimlarini umumiy va chuqur o‘zgartirishlar davriga kirdi. Boloniya jarayoni 2010 yilga qadar amalga oshirilishi mo‘ljallangan sinxronlashtirilgan islohotlarni ifodalaydi. Ushbu islohotlarga muvofiq, quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Milliy ta’lim tizimlarining o‘xshash yoki mos keladigan ikki bosqichli oliy ta’lim dasturlari va malakalariga (shartli ravishda bakalavr/magistr) o‘tishi. Shunday qilib, ta’lim yanada tuzilgan, tabaqalashtirilgan va mehnat bozorining o‘ziga xos ehtiyojlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

2. Oliy ta’limning universitetdan tashqari sektori maqomini oshirish (o‘rta kasb-hunar ta’limiga o‘xshash). O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi va universitet ta’limi o‘rtasidagi aloqa va uzluksizlik mustahkamlanmoqda.

3. Oliy ta’limning ko‘p bosqichli tizimini joriy etish orqali erishiladigan standart ta’lim muddatini qisqartirish tendensiyasi.

4. Doktoranturaning tuzilishi va tashkil etilishidagi o‘zgarishlar. Ayrim mamlakatlarda saqlanib qolgan ilmiy darajalarning ikki bosqichli tuzilishini

o‘zgartirish taklif qilinmoqda. Bir qator davlatlar bakalavr darajasini olgandan keyin doktoranturaga kirish imkoniyatlarini ochmoqda.

5. Ta’lim sifatini ta’minlashning yangi, asosan markazlashmagan mexanizmlari va tartiblarini joriy etish. Ular quyidagilarga asoslanadi: o‘z-o‘zini hurmat qilish; tashqi, afzalroq xalqaro, sifat auditi; mustaqil tashkilotlar tomonidan akkreditatsiya qilish, sifatni baholashning barcha tartiblari va natijalarini e’lon qilish.

6. Masofaviy va uzluksiz ta’limni rivojlantirish. Bu holatda asosiy vazifa insonning butun hayoti davomida ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashdir. Bu, birinchi navbatda, ta’limning aspirantura shakllariga taalluqlidir.

7. Kumulyativ transfer krediti talabaning tugallangan o‘quv yukini hisobga olgan holda akademik soatlar o‘rnini bosadi. Umuman olganda, shuni ta’kidlash kerakki, Yevropa oliy ta’lim tizimi pragmatik bo‘lib, mehnat bozoriga tobora ko‘proq yo‘naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Оразова, Д. Б. Современные тенденции в педагогической психологии и психологии образования / Д. Б. Оразова, Д. А. Аннаоразова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 18 (465). — С. 284-286. — URL: https://moluch.ru/archive/465/102203/ (дата обращения: 15.05.2025
2. Андерсон, Л. М. и другие (1995). Педагогическая психология для учителей: реформ-е наших курсов, переосмысление наших ролей;
3. Бернардо, А. (1997). Создание мощной среды обучения;
4. Бадритдинова М. Б., Тургунпулатова М. Психологические особенности развития познавательного стиля в образовательном процессе //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 16. – №. 1. – С. 25-29.
5. Мансурова Г. Р. ВЛИЯНИЕ «Я-КОНЦЕПЦИИ» НА КОММУНИКАТИВНЫЙ ПРОЦЕСС ЛИЧНОСТИ //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 169-173.
6. Калуаг, А. (2002). Психология обучения и преподавательской деятельности. Университет Атенео де Манила.

OLIY TA’LIMGA MOSLASHUVCHANLIKNING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Turaxanov Ummatali Davlatovich
Namangan davlat universiteti Psixologiya kafedrasi mudiri,
Psixologiya fanlari bo‘yicha (PhD)
Urayimova Muqaddam Komiljon qizi
Namangan davlat universiteti Psixologiya kafedrasi magistranti
Tel:+998 99 408 06 36 E-mail:studenturayimova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarning oliy ta’lim muhitiga moslashuvi jarayonida yuzaga keladigan psixologik va ijtimoiy mexanizmlar zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Moslashuvga ta’sir etuvchi shaxsiy, motivatsion, kommunikativ va sotsial omillar ko‘rib chiqiladi hamda ularning talaba shaxsiyatiga ta’siri ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, maqolada moslashuvning individual strategiyalari, stressga qarshi kurashish usullari, guruhga qo‘shilish va o‘zini namoyon qilish kabi ijtimoiy-psixologik jihatlar empirik ma’lumotlar asosida*

tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash va samarali moslashuv jarayonini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim muhitiga moslashuv, psixologik moslik, sotsial integratsiya, shaxsiy resurslar, stressga chidamlilik, moslashuv strategiyalari, ijtimoiy-psixologik omillar, talaba shaxsiyati, zamonaviy psixodiagnostika*

Аннотация: *В статье рассматриваются психологические и социальные механизмы адаптации студентов к условиям высшего образования на основе современных научных подходов. Анализируются личностные, мотивационные, коммуникативные и социальные факторы, влияющие на процесс адаптации, а также их воздействие на развитие личности студента. Особое внимание уделяется индивидуальным стратегиям адаптации, методам преодоления стресса, интеграции в группу и самовыражению в социо-психологическом контексте на основе эмпирических данных. Результаты исследования направлены на разработку рекомендаций по поддержке психологического благополучия студентов и обеспечению эффективного процесса адаптации в вузах.*

Ключевые слова: *адаптация к среде высшего образования, психологическая адаптированность, социальная интеграция, личностные ресурсы, стрессоустойчивость, стратегии адаптации, социально-психологические факторы, личность студента, современные методы психодиагностики.*

Annotation: *This article analyzes the psychological and social mechanisms involved in students’ adaptation to the higher education environment, based on modern scientific approaches. It examines the influence of personal, motivational, communicative, and social factors on student adaptation and their impact on personality development. The study also explores individual adaptation strategies, stress coping methods, group integration, and self-expression from a socio-psychological perspective using empirical data. The results of the research provide practical recommendations for supporting students' psychological well-being and facilitating an effective adaptation process in higher education institutions.*

Keywords: *adaptation to higher education environment, psychological adjustment, social integration, personal resources, stress resilience, adaptation strategies, socio-psychological factors, student personality, modern psychodiagnostics.*

Talabalarning oliy ta’lim tizimiga moslashuchanligi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, hozirgi kunda u nafaqat akademik, balki psixologik va ijtimoiy omillar bilan ham chambarchas bog‘liq hissoblanadi. Maktab yoki kollej muhitidan universitet hayotiga o‘tish talaba shaxsida yangi muhitga moslashish, yangi rollarni egallash va o‘zini namoyon qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli, bu davrda yuzaga keladigan psixologik holat va sotsial integratsiya jarayoni ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilishi lozim.

Zamonaviy psixologik yondashuvlarga ko‘ra, samarali moslashuv shaxsning stressga bardoshlilik darajasi, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati, kommunikativ kompetensiyasi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi bilan bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, talabaning yangi guruhga qo‘shilish jarayoni, o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan bo‘lgan munosabatlari, o‘zini erkin ifoda etish imkoniyatlari ham moslashuvning muhim tarkibiy qismlaridan hissoblanadi.Bundan tashqari, oliy o’quv yurtidagi o’quv yuklamalari hajmi shu darajadaki, ularni muvaffaqiyatli o’zlashtirish talabalardan kuchli motivlarni talab etadi.Agar talaba tashqaridan majburlab o’qitilsa, kutilgan natijalarga erishish mumkin emasligi kundek ravshan.Talaba oliy ta’limga, u yerdagi ijtimoiy muhitga moslashib ketishi uchun unga yetarli darajada ijtimoiy va psixologik yordam kerak bo’ladi.Universitetda

talabalar jamoasining qanchalik to’g’ri tashkil etilganligiga ham e’tibor berishimiz lozim.uning moslashuv jarayonida turli stressli vaziyatlar kelib chiqishiga bu jamoalarning noto’g’ri tashkil etilganligi ham sabab bo’lishi mumkin.Oliy ta’limda o’quv guruhlari ilmiy to’garaklar kabilar talabalarning nafaqat yuqori darajada bilim olishlari, balki ularning ijtimoiy aloqalarini yaxshilash hamda moslashuv jarayonlaridagi stresslarni yengib o’tishlariga yordam beradi.Bugungi kunda tadqiqot natijalari shuni ko’rsatmoqdaki, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash va samarali moslashuv jarayonini tashkil etish eng ustuvor masalalardan biri bo’lmoqda.Ularning har tomonlama chuqur va yuksak darajada mukammal bilim olishlari, olingan bilimlarni esa amaliyotda erkin tadbiq etishlari uchun talabalarning psixologik salomatliklari eng asosiy o’rinni egallamoqda. Moslashuv jarayonini tushunishda bir nechta psixologik va sotsial nazariyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Lazarusning stress va moslashuv modeli, Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi hamda Eriksonning shaxsiy rivojlanish bosqichlari talabaning moslashuvdagi qiyinchiliklari va imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi. Bu nazariyalar asosida shaxsiy, motivatsion, kommunikativ va sotsial omillar muhim rol o‘ynashi aniqlanadi.

Psixologik va sotsial omillar oliy ta’limda moslashish uchun quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- ✓ Shaxsiy omillar: Talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, emotsional barqarorligi, yangi muhitga moslashuvchanligi.
- ✓ Motivatsion omillar: O‘rganishdagi maqsadlar, ichki va tashqi motivatsiya darajasi.
- ✓ Kommunikativ omillar: Muloqot ko‘nikmalari, ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish qobiliyati.
- ✓ Sotsial omillar: Oila, do‘stlar, guruhlar va universitet muhitining talaba shaxsiyatiga ta’siri.

Individual strategiyalar va stressga qarshi kurashishda har bir talaba oliy ta’lim moslashuviga individual yondashadi. Ba'zilar faol strategiyalar (muvaffaqiyatli muloqot, vaqtni boshqarish) bilan namoyon bo’lsa, boshqalar esa passiv yoki stressdan qochish strategiyalarini qo‘llaydilar. Stressga qarshi kurashish usullariga relaksatsiya mashqlari, sport bilan shug‘ullanish’ axborot resurs markazlaridan doimiy foydalanish, ijobiy fikrlash va vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish kiradi.Eng asosiy natijalardan biri- bu o‘ziga ishonch va kuchli ijtimoiy aloqalarga ega bo‘lgan talabalar moslashuv jarayonida yuqori darajani namoyon qiladilar. Past motivatsiyaga ega talabalar esa ko‘proq stress va yolg‘izlikni boshdan kechirishlari mumkin, bu esa moslashuv jarayonida turli to’siqlar va nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi. Oliy ta’limga moslashuvchanlikning ijtimoiy va psixologik mexanizmlarini to’g’ri tashkil etishda quyidagi tavsiyalarni berishimiz mumkin:

- ➢ Oliy ta’lim muassasalarida moslashuv dasturlarini joriy etish.
- ➢ Psixologik xizmat va maslahat markazlarini faoliyatini kengaytirish.
- ➢ Guruh mentorligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yo‘lga qo‘yish.

- Talabalar orasida kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar tashkil etish va h.z.

Oliy ta’limga moslashuvchanlikning ijtimoiy va psixologik mexanizmlari haqida mushohada yuritar ekanmiz zamonaviy yondashuvlarga ham alohida to’xtalib o’tishimiz lozim. Buning uchun quyidagi yondashuvlarni keltirishimiz mumkin:

- Bio-psixo-sotsial yondashuv - bu modelga ko‘ra, moslashuv — bu organizmning biologik, psixologik va sotsial jihatlari birgalikda ishlovchi tizimli jarayondir. Masalan: Biologik: Uyqu, ovqatlanish, jismoniy faollik.

  Psixologik: Stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik.

  Sotsial: Do‘stlar, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy moslik.
- Pozitiv psixologiya yondashuvi - Martin Seligman va uning izdoshlari tomonidan ilgari surilgan bu yondashuvda talabaning kuchli jihatlari, optimizm, rezilyentlik (moslashuvchanlik), maqsadli yashash kabi omillar muhim deb qaraladi. Ijobiy salomatlikka, o’ziga bo’lgan ishonchni yanada mustahkamlashga hamda ijobiy ta’limga e’tibor beriladi.
- Kognitiv-harakatlanma yondashuv - Ushbu yondashuvga ko‘ra, talabaning fikrlash uslubi, qaror qabul qilish ko‘nikmalari, va o‘rganishga nisbatan ongli yondashuvi moslashuvni belgilaydi. Talabaning moslashuv strategiyasi — bu o‘rganilgan xatti-harakatlar majmuasi sifatida ko‘riladi.
- Ekologik yondashuv - Moslashuvga ta’sir etuvchi omillarni mikro (oila, do‘stlar), mezo (ta’lim muassasasi), egzo (siyosiy-iqtisodiy holat), va makro (madaniy qadriyatlar) darajalarda o‘rganadi. Har bir qatlam talabaga turlicha bosim yoki qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatadi.
- Raqamli davr yondashuv - Zamonaviy talaba raqamli vositalar (ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, onlayn ta’lim platformalari) orqali ijtimoiylashadi va o‘qiydi. Bu yondashuv raqamli stress, va raqamlio’ziga hos xususiyatlar masalalarini ham ko‘zda tutadi.

Universitet muhitida moslashuv jarayonining individual strategiyalariga muvofiq olib boriladigan ishlarga ham e’tibor qaratsak, ya’ni:

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash va ular uchun samarali moslashuv jarayonini tashkil etish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni taklif qilish mumkin:

1. Psixologik xizmatlarni kuchaytirish

Har bir OTMda psixologik maslahat markazlari tashkil etish yoki mavjud markazlarni faol holatga keltirish. Bu jarayonlarni amalga oshirishda kuchli va malakali psixologlarni jalb qilish. Bundan tashqari, maxfiylik va ishonch muhitini yaratgan holda, talabalarni ochiq muloqotga undash. Stress, depressiya, xavotir kabi muammolarni aniqlash uchun doimiy psixodiagnostika ishlarini o‘tkazish.

2. Moslashuv dasturlarini joriy etish

Birinchi bosqich talabalari uchun “moslashuv haftaligi” yoki orientatsiya kurslarini yo‘lga qo‘yish.Talabalar tanishuvi tadbirlariniini tashkil etish.

Universitet madaniyati, o‘quv tizimi, kutubxona, IT xizmatlari, akademik yordam haqida ma’lumot berish.Barcha qulayliklarni yaratish.

Yangi talabalarni yuqori bosqichdagilar bilan “mentorlik” tizimi orqali bog‘lash. Bu esa, ijtimoiy hamda psixologik moslashuvchanlikni oshirishga yordam beradi.

3. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish

Talabalar o‘rtasida ijtimoiy faollikni oshirish: klublar, to‘garaklar, jamoaviy tadbirlar.

Yotoqxonalar, sport zallari va dam olish zonalarini psixologik salomatlikni qo‘llab-quvvatlaydigan tarzda tashkil qilish.Madaniy tadbirlar esa, talabalarda yuqori kayfiyatni ta’minlab beradi.

4. O‘qituvchilar va xodimlar uchun treninglar

Pedagogik xodimlarga talabalar bilan ishlashda psixologik sezgirlik bo‘yicha treninglar o‘tkazish.Ularni yanada diqqatli bo’lishi hamda kuzatuvchanligini oshirish.

O‘qituvchilarni talabalarning psixologik holatini anglash va zarur hollarda mutaxassisga yo‘naltirish ko‘nikmalari bilan ta’minlash.Bu orqali turli ko’ngilsizliklarni oldini olish va ustoz shogirt ananalarini davom ettirish ko’zda tutilgan.

5. Onlayn resurslar va raqamli yondashuvlar

Psixologik maslahatlar, stressni kamaytirish texnikalari, motivatsiya videolari va interaktiv mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olgan onlayn platforma yaratish.

Talabalar uchun psixologik yordam ilovalari yoki chatbotlar orqali tezkor maslahat berish imkoniyatini yaratish.

6. Akademik yuklamani tartibga solish

O‘quv rejalari va topshiriqlarni psixologik jihatdan o‘ta yuklamaslik uchun qayta ko‘rib chiqish.

Oraliq nazoratlar va imtihon davrlarida stressni kamaytirish bo‘yicha muvozanatli yondashuvni joriy etish.

Bundan ko’rinib turibdiki, moslashuv bu - murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, har bir talabaning o‘ziga xos psixologik va sotsial jihatlarini hisobga olishni talab etadi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash va samarali moslashuv jarayonini tashkil etishga xizmat qilishi mumkin. Kelgusida bu mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, xususan, moslashuvga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri yoki madaniy farqlarning roli kabi yo‘nalishlarda ham tadqiqotlar olib boorish mumkin. Bu esa jarayonning naqadar dolzarb va muhimligini anglatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ҳайдаров Ф., Абдукаримов Х., Алимова Ф., Ботиров Б. Талабаларнинг ўқув мотивларини шакллантириш. –Т.:2009
2. Абрахам Маслоу – "Мотивация и личность"-МОСКВА.: 2019
3. https://www.researchgate.net/publication/346194785_Socialno-psihologiceskaa_adaptacia_studentov_k_obuceniu_v_pedagogiceskom_vuze
4. Jalilova S.X., G`ayibova N.A.“Umumiy Psixodiagnostika” Toshkent – 2017
5. Anderson,J.R.,etal.(2007).HigherEducationAdaptation:AStudyonStudents’Adjustment.EducationalResearchReview
6. Z.T.Nishanova , P.S.Ergasheva, “Oliy maktab psixologiyasi”- Toshkent.:2012
7. Nishanova Z. et al. Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya //T-2013. – 2011.

TEXNIK YO‘NALISHLARDA VERBAL KOMMUNIKATSIYANI RIVOJLANTIRISH PSIXOLOGIK XIZMATNING ASOSI SIFATIDA

Mullaboyeva Nargiza Sharopaliyevna
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE.
e-mail: mullaboyevanargiza79@gmail.com.
Telefon: +99894-179-05-79

Annotatsiya: *mazkur maqolada bugungi texnika va texnologiyalar asrida texnik soha vakillarining verbal kommukatsiyalarini rivojlantirishda psixologik xizmatning o‘rni va ahamiyati haqida hamda sobiq ittifoq psixologlarining muloqot ko‘nikmalari haqidagi ma’lumotlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *muloqot, verbal, noverbal, kommunikatsiya, paralingvistik, muhandis, IT operatori.*

Аннотация: *В статье представлена информация о роли и значении психологических служб в развитии вербальной коммуникации среди технических специалистов в современный век технологий и инженерии, а также информация о коммуникативных навыках психологов из стран бывшего Советского Союза.*

Ключевые слова: *коммуникация, вербальная, новербальная, паралингвистическая, инженер, оператор IT.*

Abstract: *This article presents information about the role and importance of psychological services in developing verbal communication among technical professionals in today's age of technology and engineering, as well as information about the communication skills of psychologists from the former Soviet Union.*

Keywords: *communication, verbal, noverbal, paralinguistic, engineer, IT operator.*

Zamonaviy jamiyatda texnika va texnologiyalar tez sur’atlar bilan rivojlanmoqdaki bu o‘z navbatida ushbu sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislardan nafaqat yuqori darajadagi kasbiy bilimdonlik, stressga chidamlilik balki samarali verbal kommunikatsiya ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishlari zarurligini talab etadi. Texnik mutaxassislar ko‘pincha jamoalarda ishlaydi, rahbarlar, mijozlar bilan muloqotga kirishadi. Shu bois, verbal kommunikatsiyani rivojlantirish ularning kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonda psixologik xizmat asosiy o‘rinni egallaydi.

Texnik sohalardagi mutaxassislar – muhandislar, operatorlar, IT mutaxassislar, texnik xizmatchilar va boshqalar – yuqori darajadagi mas’uliyat, diqqat, jamoaviy ish qobiliyati va psixologik barqarorlikni talab qiluvchi sharoitlarda mehnat qiladilar. SHu sababli, bu sohalarda psixologik xizmatni samarali tashkil etilishi juda muhim. Ushbu xizmatning markaziy omili sifatida verbal kommunikatsiya esa ajralib turadi.

Verbal kommunikatsiya – bu nutq orqali amalga oshadigan axborot almashish jarayoni bo’lib, u yozma va og’zaki shakllarda namoyon bo’ladi. Texnik sohalarda bu turdagi aloqa ish jarayonidagi xatolarning oldini oladi; xodimlar o’rtasidagi o’zaro anglashuvni ta’minlaydi; mutaxassislarning xavfsizligi va emotsional barqarorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Bu turdagi muloqot so’zlar, ovozning ohangi, nutq sur’ati va uslubi orqali amalga oshiriladi.[1]

Verbal kommunikatsiya — bu shifoxona, zavod, IT kompaniya yoki harbiy sanoat bo'ladimi, barcha texnik yo'nalishlarda inson resurslarini boshqarish va psixologik xizmatni tashkil etishda muhim vositadir.

Psixologik xizmat – bu xodimning emotsional, ruhiy va ijtimoiy holatini saqlashga qaratilgan kompleks tizimdir. Psixologik xizmatda verbal aloqa muammoni aniqlash, maslahat berish, qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni amalga oshiradi.[1]

- Diagnostika: kommunikativ kompetensiyani baholash testlari (masalan, introversiya-ekstraversiya).
- Korreksion-treninglar: rolli o'yinlar, konflikt holatlarini yechish mashqlari, nutq madaniyati bo'yicha mashg'ulotlar.
- Konsultativ xizmat: individual psixologik maslahatlar orqali muloqotdagi muammolarni aniqlash va hal qilish.
- Ma'rifiy tadbirlar: "Samarali muloqot", "Nutq va rahbarlik" kabi seminar-treninglar.[2]

Oxirgi yillarda «professionalizm» tushunchasi tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. CHunki jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish, mehnat unumdorligini «inson omili»ni takomillashtirish hisobiga oshirish davr talabi bo'lib qoldi. Ayniqsa, odamlarni boshqarish sohasidagi professionalizmga katta e'tibor qaratilmoqda. Juda ko'pchilik mutaxassislar barcha bajaradigan funktsiyalari orasida odamlar bilan til topishish, ularga ta'sir ko'rsatish, ular faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini e'tirof etmoqdalar. Odamlar bilan normal munosabatlarni o'rnata olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning xolatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o'z nuqtai nazariga o'zgalarni professional tarzda ko'ndira olmaslik, «birov»ni, uning ichki kechinmalari va o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada *kommunikativ uquvsizlik*, yoki *diskommunikatsiya* xolatini keltirib chiqaradi.[5] Bunda odamlar oddiy til bilan aytganda, bir-birlarini tushunolmay qoladilar, shuning oqibatida pishib turgan loyiha yoki yaxshi reja amalga oshmasligi, bir necha oylarga cho'zilib ketishi mumkin.

Vygotsky (1978) tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-rivojlanish nazariyasiga ko'ra, fikrlash va nutq ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi. U o'rgatuvchi nutq (scaffolding) orqali kommunikatsiyaning rivojlanishini asoslab bergan.[1]

Groeneveld va boshq (2019) tadqiqotida soft-skills (yumshoq ko'nikmalar), jumladan, kommunikatsiya ko'nikmalari texnik sohada ta'lim olayotgan talabalar uchun zaruriy omil sifatida ta'kidlangan.[1]

SHuning uchun ham hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining tadbiqiy yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir korxona, xususiy firma yoki davlat muassasasini boshqaruvchi menedjer, rahbar tayyorlash muammosi ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarni psixologik jihatdan odamlar bilan ishlashga o'rgatish muammosini chetlab o'tolmaydi. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis — vrach, muhandis, o'qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki

boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko'pchilik bilan til topishib, o'z professoinal mahoratini ko'rsata olmaydi. Har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak.

Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ymoqda. To'g'ri, muloqotga kirishish — ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan, u tabiiy va hayotiy narsa. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofidagilar bilan aktiv muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o'tgan sari ongli, aqlli odam har bir gapini o'ylab gapiradigan, har bir qadamini o'ylab bosadigan bo'lib qoladi, bu uning jamiyatdagi mavqesini belgilovchi vositadir. Bu muloqotga kirishishga ruhan tayyorlanishning ahamiyatini ham odam anglashini taqozo etadi. SHunday qilib, ana shu eng tabiiy va bir qarashda oddiy inson faoliyati shu qadar murakkab va serqirraki, uning mexanizmlarini o'rganish, guruhlarda to'g'ri munosabatlarni tashkil etish va odamlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi bugungi ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.[5]

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni — tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh — yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35 — 40% oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.

SHuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengaur «Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa — bu bizning o'z fikr — o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. SHuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida hayolimiz boshqa yerda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: *so'zma-so'z qaytarish* va *boshqacha talqin*

etish. Birinchisi, suhbatdosh so’zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo’llab-quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa — sherigimiz so’zlarini tinglab, undagi asosiy g’oyani muxtasar, o’zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, xattoki, undagi g’oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bunday tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo’lib, «Yo’g’-e?», «Nahotki?», «Qara-ya?», «Yasha!» luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o’z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to’g’ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug’diradi. CHunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa — bu axborotning o’zi. Tinglayotgan odam ma’nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma’lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o’zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. SHuning uchun muloqotga o’rgatishning muhim yo’nalishlaridan biri — odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o’rinli foydalanishga o’rgatishdir.[3]

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat ijtimoiy moslashuv, stressni boshqarish, jamoa bilan muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Milliy mentalitet, til va madaniyat omillari verbal kommunikatsiyani shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi jadvalda asosiy amaliy tavsiyalar keltirilgan:

Yo‘nalish	Amaliy tavsiyalar
Diagnostika	Kommunikatsiya testlari bilan bosqichma-bosqich baholash
Treninglar	Rol-play, feedback, konflikt simulyatsiyasi joriy etish
Konsultatsiya	Individual psixologik yondashuv
Seminarlar	“Samarali nutq”, “Liderlik so‘zda” mavzulari

Xulosa. Texnik yo‘nalishlarda verbal kommunikatsiyani rivojlantirish psixologik xizmatning muhim vazifasidir. Bu nafaqat mutaxassislararo muloqotni soddalashtiradi, balki ularning kasbiy muvaffaqiyatlarini oshiradi. Shunday ekan, psixologik xizmat verbal kompetensiyani rivojlantirishda asosiy instrument sifatida faol ishlatilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Карпов А.В. Психология профессиональной деятельности. Москва: Академия. (2002).
2. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога. Санкт-Петербург: Питер. (2009).
3.Федорова Н.Н. Коммуникативная компетентность специалистов технических профессий. М.: Наука. (2016).
4. Немов Р.С. Психология. Книга 2. М.: Владос. (2005).
5. Xakimova S.SH. Ishlab chiqarishda psixologik xizmat tashkil etishning ilmiy asoslari. O’zbekistonda psixologiya fanining dolzarb muammolari, №3. (2021).
6. Nishanova Z.T. Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya //T-2013. – 2011.

TIBBIYOT PSIXOLOGI FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Jalilova Saboxat Xalilovna
Ps.f.n.,dotsent. Psixologiya kafedrasi
Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqola psixologik xizmatning sog’liqni saqlash tizimidagi asosiy faoliyat yo’nalishlariga bag’ishlangan. Maqolada tibbiyot psixologining faoliyat turlari, sog’liqni saqlash tizimining qator sohalarida olib boradigan ishlarining mohiyati ko’rsatib berilgan. Xususan, tibbiyot psixologining diagnostika faoliyati, ekspertlik faoliyati, konsultativ faoliyat, profilaktik hamda korreksion faoliyat turlariga alohida to’xtalib o’tilgan.*

Kalit so’zlar. *Tibbiy psixologiya, psixiatriya yordami, neyropsixologik xizmat, adaptasiya, ekspertlik faoliyati, psixoprofilaktika, psixologik reabilitasiya, psixoterapiya.*

Annotatsiya. *Статья посвящена основным направлениям деятельности психологической службы в системе здравоохранения. В статье изложены виды деятельности медицинского психолога и сущность его работы в различных сферах системы здравоохранения. В частности, особое внимание уделяется диагностической деятельности, экспертной деятельности, консультативной деятельности, профилактической и коррекционной деятельности медицинского психолога.*

Ключевые слова. *Медицинская психология, психиатрическая помощь, нейропсихологическая служба, адаптация, экспертная деятельность, психопрофилактика, психологическая реабилитация, психотерапия.*

Annotation: *The article is devoted to the main areas of activity of the psychological service in the health care system. The article describes the types of activity of a medical psychologist and the essence of his work in various areas of the health care system. In particular, special attention is paid to diagnostic activity, expert activity, consulting activity, preventive and corrective activity of a medical psychologist.*

Ключевые слова. *Медицинская психология, психиатрическая помощь, нейропсихологическая служба, адаптация, экспертная деятельность, психопрофилактика, психологическая реабилитация, психотерапия.*

Bugungi kunda respublikamizda ro’y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar aholiga psixologik xizmat tizimini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy amaliyotning barcha sohalarida bo’lganidek sog’liqni saqlash tizimida ham aholiga psixologik yordamni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Sog‘liqni saqlash sohasida tibbiyot psixologlari davolash-profilaktika muassasalarida keng doiradagi masalalarni hal qilishda ishtirok etadilar. Ular o‘sib kelayotgan yosh avlodning psixik salomatligini muhofaza qilish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda faol qatnashadilar. Bunda ular maktabgacha ta’lim muassasasalari, maktab, sanatoriya-profilaktoriyalar, maxsus internatlar, korreksion va davolash Markazlari, oila va bolalarga xizmat qilish sohalarida faoliyat yuritadilar.

Shuningdek, tibbiyot psixologlari aholini ijtimoiy himoya qilish xizmatlariga jalb qilinishlari ham mumkin (ichki ishlar boshqarmasi va mehnat-tuzatish koloniyalari, zo‘ravonlik, ijtimoiy, stixiya va tabiiy ofat qurbonlariga psixologik yordam ko‘rsatish markazlari). Bunda tibbiyot psixologlari faoliyatlarini quyidagi maxsus xizmatlar bo’yicha tashkil etadilar:

- Aholiga psixiatriya yordami ko’rsatish tizimidagi psixologik xizmat.

- Nevrologiya hamda neyroxirurgiya sohasida neyropsixologik xizmat.
- Somatik tibbiyotalar: jarrohlik, terapevtik, onkologik, ginekologik tibbiyotalarda psixologik xizmat.

Shuningdek, ular quyidagi sohalarda ham faoliyat yuritadilar:

- Narkologik yordam tizimi.
- Psixoterapevtik kabinetlar.
- Psixologik maslahat tizimi.

Tibbiyot psixologiyasi – keng tarmoqli mutaxassislik bo‘lib, sog‘liqni saqlash, xalq maorifi va aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimidagi kompleks vazifalarni hal qilishda qatnashadi.

Tibbiyot psixologlari faoliyati insonning psixik rezervlari adaptasion imkoniyatlarini oshirishga, psixik rivojlanishni uyg‘unlashtirish, salomatlikni muhofaza qilish, psixoprofilaktika va psixologik reabilitasiyaga yo‘naltirilgan. Tibbiy psixologiyaning ob’yekti - adaptasiya va o‘z-o‘zini namoyon qilishdagi qiyinchiliklari bor inson bo‘lib, bu qiyinchiliklar uning jismoniy, ijtimoiy va ma’naviy holati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tibbiyot psixologi kasbiy faoliyatining predmetini psixik jarayonlar va holatlar, individual va shaxslararo munosabat xususiyatlari, inson faoliyatining turli sohalarida namoyon bo‘luvchi ijtimoiy-psixologik fenomenlar tashkil etadi.

Tibbiyot psixologlari faoliyati quyidagi yo’nalishlarni o’z ichiga oladi:

- Diagnostika faoliyati
- Ekspertlik faoliyati
- Konsultativ faoliyat
- Profilaktik
- Korreksion.

Psixologik diagnostika – tibbiyot psixologlari asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri bo’lib, ushbu yo’nalishda quyidagi turdagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Shaxs diagnostikasi (tipologik) – psixosomatik, nerv-psixik kasalliklar va psixik buzilishlarni aniqlash;
- Funksional diagnostika – psixik holatlar, terapevtik samaradorlikni baholash;
- Bolalar va o‘smirlardagi anomal rivojlanishda psixik va aqliy taraqqiyot diagnostikasi;
- Psixologik korreksiya maqsadlarida o‘tkaziladigan diagnostika – xavf psixologik omillarini aniqlash, psixologik taassirotlar samarasini baholash [2].

Psixologik-pedagogik ekspertizaning maqsadi – bola taraqqiyotini prognoz qilish hamda ta’lim va psixikani korreksiya qilish shakllarini tavsiya etish [4].

Tibbiyot psixologlari tomonidan amalga oshiriladigan ekspertlik vazifalari turlari:

- Tibbiy-mehnat ekspertizasi (psixik faoliyatning buzilishlari va saqlanganligini hisobga olish, psixologik xususiyatlarning hamda u yoki bu kasbning psixologik talablari va professiogrammaga mosligini aniqlash).
- Harbiy-tibbiy ekspertiza (harbiy xizmatga loyiqlik, qo‘shin turini tanlash).

- Sud- psixologik, psixologik-psixiatrik va psixologik ekspertiza (psixik holatlar, xarakter, shaxs xususiyatlari, temperament diagnostikasi).

Shuningdek, tibbiyot psixologlari tomonidan psixoterapevtik, korreksion va reabilitasiya ishlari ham olib boriladi. Bunda mutaxassislar turli psixoterapevtik metodikalardan foydalanadilar**.** Ular orasida psixoanaliz; gumanistik terapiya; psixodrama;
xulq-atvor terapiyasi; geshtaltterapiya; NLP kabi metodikalar psixologik amaliyotda keng qo‘llaniladi. Biroq, “psixoterapiya” tushunchasi ikki xil ma’noda, yani tibbiy hamda psixologik ma’noda qo‘llaniladi. Tibbiy psixoterapiya – kasallik holatlarini davolash bo‘lsa, psixologik psixoterapiya – “psixologik og‘riq”ni yumshatish va bartaraf etish hisoblanadi. Masalan, shizofreniya kasalligida namoyon bo‘luvchi alahsirash, energetik potensialning pasayishi kabi kasallik holatlari – bu shifokor tomonidan amalga oshiriladigan psixoterapevtik va dori-darmonlar bilan davolash sohasi bo‘lsa, emotsional holatlar, shaxsdagi buzilishlar va bilish jarayonlari xususiyatlari psixolog kompetensiyasi hisoblanadi. Shu sababli psixiatriya klinikasida psixolog asosan psixodiagnostika va psixokorressiya bilan shug‘ullanadi.

Psixologik profilaktika – shaxsning psixik taraqqiyoti uchun zarur psixologik sharoyitlarni yaratish hamda bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsiy va psixik rivojlanishdagi qiyinchiliklar, noqulayliklarni oldini olishga qaratilgan faoliyat yo‘nalishidir. Psixologik profilaktikaning 3 ta bosqichini ajratib ko’rsatish mumkin. Birlamchi profilaktika pozitiv xulqni shakllantirishga qaratilgan psixologik usullar bo`lib, negativ holatlarga olib kelishi mumkin bo`lgan sabablarni o`z vaqtida oldini olishga qaratiladi hamda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolarni hal qilishni ko`zda tutadi.

1-bosqich dastlabki profilaktika bo`lib, bunda psixolog asosan sog`lom shaxslar bilan ishlaydi va negativ holatlar yuzaga kelishini oldini olish bilan shug’ullanadi.

Ushbu bosqichda asosiy metod – noqulay, salbiy ta`sirotlarga qarshi tura olish imkonini beruvchi malakalarga o`rgatish. Bunda psixologik profilaktikaning maqsadi – insonni o`rab turgan muhitni o`zgartirish.

Ikkilamchi profilaktika **–** kasallikning yuqori xavfiga ega insonlar bilan ishlash. Bunda psixologning roli nerv-psixik, psixosomatik kasallik, narkomaniya, rivojlanishdagi buzilish xavfi mavjudligini aniqlash va psixologik yordam ko‘rsatish.

Profilaktikaning uchinchi bosqichi **–** davolash, vaziyatni to‘g‘rilash bosqichi bo‘lib, o‘z muammolaridan holi bo‘lishni istayotgan kishilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash (psixologik qo‘llab-quvvatlash va reabilitasiya). Undan maqsad – kasallikni qaytalashini oldini olish. Psixologning roli profilaktikaning konsultativ, korreksion shakllarini ko‘zda tutadi [3].

Psixologik korreksiya – bu shaxsning kasallik xavfini keltirib chiqaruvchi psixologik omillar (yuqori xavotirlanish, stressga chidamlilikni past darajasi, aksyentuasiya)ga taaluqli xislatlarini to‘g‘rilash bo‘lib, uning maqsadi nerv-psixik va psixosomatik buzilishlarni profilaktika qilishdan iborat [1].

Shunday qilib, tibbiyot psixologlari umumiy psixologik muammolarni o'rganish, psixik jihatdan norma va patologiyani aniqlash, insondagi ijtimoiy va biologik munosabatlarni, ong va ongsizlikning rolini aniqlash, shuningdek, psixikaning rivojlanishi va buzilishi bilan bog'liq muammolarini o'rganadilar.

Tibbiyot psixologi nafaqat O'zbekistonda, shu bilan birga butun dunyoda eng zarur va yuqori talabga ega kasblardan biridir. Tibbiyot psixologlari insonlarga psixik tushkunlik, xavotir, stress, fobiyalar, giyohvandlik, psixik jarohat, shaxsdagi buzilishlar kabi turli xil psixologik muammolarni engishga yordam beradi. Tibbiyot psixologlari diagnostika, psixoterapiya, psixologik maslahat, reabilitatsiya, profilaktika va ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Tibbiyot psixologiyasi psixologiyaning boshqa sohalari: ijtimoiypsixologiya, neyropsixologiya, psixofiziologiya, psixosomatika, shuningdek, tibbiyot, psixiatriya, nevrologiya, endokrinologiya va boshqalar bilan chambarchas bog'liq.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика. М., 2006.
2. Jalilova S.X., G`ayibova N.A.Umumiy psixodiagnostika. T., 2019.
3. Nishonova Z.T. Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M.V. Psixologik xizmat. T., 2014.
4. Карвасарский Б. Д. Клиническая психология: Учебник для вузов. 5-е изд. Санкт-Петербург: Питер, 2019.

O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Inamov Dilmirza Dedamirzayevich
NamDU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar, kompetensiyalarni rivojlantirish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yoritish bilan birga interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etish va zamonaviy yondashuv asosida dars samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan shu bilan birga, mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar berilgan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda hamda o'quv faoliyatini tashkil etishda berilgan kompetensiyalar, metodik tavsiyalardan foydalanishlari mumkin.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, refleksiya, refleksiv ta'limiy muhit,ijtimoiy faollik, strategiya, innovatsiya, kompetensiya, mexanizm,ta'lim sifati, zamonaviy o'qituvchi, fasilitator, muammoli o'qitish texnologiyasi.*

Аннотация. *В данной статье наряду с выделением инновационных технологий, механизмов развития и координации компетенций показаны пути внедрения интерактивных методов в образовательный процесс и повышения эффективности уроков на основе современного подхода. В то же время в данной статье представлена информация о формировании и развитии педагогических компетенций у будущих учителей, которые могут использовать представленные компетенции и методические рекомендации при управлении образовательным процессом и организации образовательной деятельности.*

Ключевые слова: *компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, рефлексия, рефлексивная образовательная среда, социальная активность, стратегия, инновация, компетентность, механизм, качество образования, современный учитель, фасилитатор, технология проблемного обучения.*

Annotation. *This article, along with highlighting innovative technologies, mechanisms for developing and coordinating competencies, shows ways to introduce interactive methods into the educational process and increase the effectiveness of lessons based on a modern approach. At the same time, this article provides information on the formation and development of pedagogical competencies in future teachers, who can use the competencies and methodological recommendations provided in managing the educational process and organizing educational activities.*

Keywords: *competence, competence, professional competence, reflection, reflexive educational environment, social activity, strategy, innovation, competence, mechanism, quality of education, modern teacher, facilitator, problem-based learning technology.*

XXI asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida joy oldi. Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta’lim-tarbiya berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o‘ta qat’iy hamda murakkab talablar qo‘yilmoqda. Bu haqda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev shunday deb ta’kidlaydi: “Ta'limning sifati va barcha darajadagi qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, o‘qitish tizimining inklyuzivligi va undan barchaning foydalana olishini ta'minlash muhim vazifalarimiz sirasiga kiradi…

…Biz yoshlarimizning jahon tillarini egallashga bo‘lgan ulkan qiziqish va intilishlarini har doim qo‘llab-quvvatlaymiz. Men bugun aziz bolalarimizga murojaat qilib, XX asr boshida olti tilli – o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug‘at tuzgan alloma Is’hoqxon Ibratning mana bu hikmatli so‘zlarini eslatmoqchiman: “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”.” (Yangi O‘zbekiston stratyegiyasi / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 b.).

Pedagogik jarayonda ta’lim-tarbiya ishining muvaffaqiyati o‘qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirib borishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Kasbiy mahoratni takomillashtirish o‘qituvchi shaxsiga xos bo‘lgan bir qancha sifatlarni – uning aqlzakovati, irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos ijobiy xususiyatlarni yuzaga kelishiga yordam beradi. Bu xususiyatlar tufayli qobiliyatli va mahoratli o‘qituvchi muvaffaqiyatli ishlaydi va oz mehnat sarflab katta natijaga erishadi.

Pedagoglik faoliyatini endigina boshlagan yosh o‘qituvchi hali yaxshi natijalarga erisha olmasligi mumkin. Buning sababi unda pedagoglik qobiliyatining yo‘qligi emas, balki pedagoglik ko‘nikma va malakasining yetarli bo‘lmasligidir. Agar o‘qituvchi havas bilan aql yuritib astoydil ishlasa kasbiy mahoratini oshirishga xarakat qilsa bunday ko‘nikma va malaka albatta paydo bo‘ladi. O‘qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirish yo‘nalishlari orasida uning innovatsion faoliyati yetakchi o‘rinni egallaydi. Innovatsiya – bu yangi texnologiyalarga, yangi ishlab chikarish omillariga tatbiq etilgan yangi bilimlardan foydalanish (yoki ma’lum bilimlardan yangicha foydalanish) yuli bilan yangi ehtiyojni qondirishga qaratilgan harakat yoki bunday harakat natijasi (yoki avvalgi ehtiyojni ancha samarali qondirishning yangi yo‘lini taklif etish)dir.

Innovatsiya keng va tor ma’noda ishlatiladi.Birinchi ma’noda innovatsiya – biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni qondirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, ya’ni yangilik yaratish, tarqatish va qo‘llashni o‘z tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida qaraladi.

“Innovatsiya” ikkinchi ma’noda biror bir jamoa faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovatsiya sub’ekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan yangi vosita, uslub, yondashuvlar tizimiga nisbatan ishlatiladi.

Har qanday yangilik kiritilishining, shu jumladan pedagogik texnologiyalarning joriy qilinishi va zaruriy samara berishi pedagogik jamoa a’zolarining yangilikni qanday qabul qilishi unga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Yangilikning, ya’ni pedagogik texnologiyaning pedagogik jamoada muvaffaqiyatli joriy qilinishi va ko‘zda tutilgan samara berishi bir qator omillarga bog‘liq.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati quyidagi asosiy funktsiyalar bilan izohlanadi:

-kasbiy faoliyatning ongli tahlili;

-me’yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;

-kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;

-faoliyatga nisbatan ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo‘lish;

-o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta’lim taraqqiyoti sharoitida o‘qituvchi innovatsion faoliyatiga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi:

-ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta’lim tizimi, metodologiya va o‘quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o‘qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va foydalanishdan iborat bo‘ladi;

-ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o‘qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

-pedagogik yangilikni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o‘qituvchining munosabati xarakteri o‘zgarishi.

Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi

Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Ma’lum bosqich vazifalari hal etilgach, pedagog bu holatni alohida bandda qayd etadi

O‘z-o‘zini baholash shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagogning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zini o‘zi samarali baholash omillari:

1. O‘zini tushunish (o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish).

2. Shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash (o‘zi to‘g‘risidagi ijobiy ma’lumotlarni to‘plash).

3. O‘zini-o‘zi nazorat qilish (o‘zi to‘g‘risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi.

O‘z-o‘zini baholash darajasi shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘zini o‘zi oshirib yoki pasaytirib ko‘rsatish o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi.

Shunday qilib har bir zamonaviy o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida faoliyat ko‘rsatishi zarur. Bu innovatsion kompetentlik pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish muximdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston stratyegiyasi / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 b.
2. Azizhodjayeva N.N. O'qituvchi mutaxasisligiga tayyorlash tyehnologiyasi –T., 2000.
3. Saidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar -T: Moliya nashr., 2003 y.

2-SHO‘BA: ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TA’LIM VA PSIXOLOGIYANI O`QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

SHAXS SHAKLLANISHIDA DINIY IDENTIFIKATSIYANING IJTIMOIY PSIXOLOGIK ROLI

Turaxanov Ummatali Davlatovich
NamDU Psixologiya kafedrasi mudiri,
Psixologiya fanlari bo‘yicha (PhD)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada shaxs shakllanishida diniy identifikatsiyaning ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Din shaxs uchun e’tiqodiy asos bo‘lish bilan bir qatorda, uning axloqiy rivojlanishida, o‘zini jamiyatda anglashida va ijtimoiy rollarni bajarishda muhim psixologik tayanch vazifasini o‘taydi. Diniy identifikatsiya — bu insonning o‘zini muayyan diniy e’tiqod va qadriyatlar tizimiga mansub deb hisoblashidir. Ushbu maqolada shaxsning ijtimoiylashuvi, o‘zlikni anglash, axloqiy me’yorlar bilan tanishuvi jarayonlarida diniy identifikatsiyaning tutgan o‘rni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yoritilgan. Din faqat shaxsiy e’tiqod tizimi emas, balki ijtimoiy tizim sifatida ham shaxsning ongida va xatti-harakatlarida muhim o‘rin egallaydi. Maqola nazariy manbalar, empirik kuzatuvlar hamda zamonaviy jamiyatdagi diniy o‘zlik masalalariga tayangan holda yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *Diniy identifikatsiya, shaxs shakllanishi, ijtimoiy psixologiya, din, ijtimoiy identitet, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiylashuv, axloqiy rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье анализируются социально-психологические аспекты религиозной идентичности в формировании личности. Помимо того, что религия является религиозной основой человека, она служит важной психологической основой его нравственного развития, самореализации в обществе и выполнения социальных ролей. Религиозная идентичность — это то, как человек считает себя принадлежащим к определенной системе религиозных убеждений и ценностей. В данной статье освещается роль религиозной идентичности в процессах социализации личности, самосознания, приобщения к моральным нормам с социально-психологической точки зрения. Религия не только как система личных убеждений, но и как социальная система занимает важное место в сознании и поведении человека. Статья написана на основе теоретических источников, эмпирических наблюдений, а также вопросов религиозной идентичности в современном обществе.*

Ключевые слова*: религиозная идентичность, формирование личности, социальная психология, религия, социальная идентичность, духовные ценности, социализация, нравственное развитие.*

Annotation: *this article analyzes the socio-psychological aspects of religious identification in the formation of a person. In addition to being an ecclesiastical basis for an individual, religion serves as an important psychological support in his moral development, self-awareness in society and the performance of social roles. Religious identity is the perception by a person that he belongs to a certain system of religious beliefs and values. This article covers the role of religious identity in the processes of socialization of an individual, awareness of oneself, acquaintance with moral standards from a socio-psychological point of view. Religion occupies an important place in the consciousness and behavior of an individual, not only as a personal belief system, but also as a social system. The article is written with reference to theoretical sources, empirical observations, and issues of religious identity in modern society.*

Keywords: *religious identity, personality formation, social psychology, religion, social identity, spiritual values, socialization, moral development.*

Kirish: Zamonaviy jamiyatda shaxsning shakllanishi va ijtimoiylashuvi murakkab jarayon bo‘lib, turli madaniy, diniy, siyosiy va iqtisodiy omillar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq. Bu identifikatsiya o‘z navbatida shaxsning axloqiy qarashlariga, xulq-atvoriga va ijtimoiy munosabatlariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi qolaversa, ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siri ostida kechadi. Ushbu omillar ichida diniy identifikatsiya alohida o‘rin egallaydi. Diniy identifikatsiya — bu shaxsning o‘zini muayyan diniy e’tiqod, qadriyatlar va diniy guruh bilan bog‘lashidir. Diniy o‘zlik shaxsning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-psixologik faktor hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyada identifikatsiya tushunchasi shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy guruh a’zosi sifatida anglashi va shu guruhning qadriyatlarini ichki ongga singdirishi sifatida talqin etiladi.

Diniy identifikatsiya esa bu jarayonning diniy qadriyatlar bilan bog‘liq ko‘rinishi hissoblanadi. Ayniqsa, o‘smirlik va yoshlik davrida inson o‘z shaxsiyligini shakllantirish, hayotiy pozitsiyasini belgilash va o‘z o‘rnini topishda dinga va diniy guruhga murojaat qiladi. Maqolada diniy identifikatsiyaning shaxs psixologiyasi va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri nazariy manbalar hamda ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Shaxs shakllanishida diniy identifikatsiyaning ijtimoiy-psixologik rolini quyidagilarga ajratish mumkin:

Diniy identifikatsiya tushunchasi va uning mohiyati, Diniy identifikatsiya — bu shaxsning o‘zini muayyan din bilan bog‘lashi, bu dinning e’tiqodiy, axloqiy, va madaniy tizimini o‘z dunyoqarashi va hayot tarziga moslashtirishidir. Bu identifikatsiya nafaqat e’tiqodiy amallar, balki jamiyatdagi o‘rnini anglash, qadriyatlar tizimini shakllantirish, boshqalar bilan munosabatni belgilashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Shaxs shakllanishida dinning ijtimoiy-psixologik ta’siri – Diniy qadriyatlar shaxsning ruhiy dunyosini boyitadi, unga hayotiy ma’no, istiqbol, maqsadlar beradi. Ayniqsa, din tomonidan taklif etilgan axloqiy normalar va odob me’yorlari shaxsning jamiyatda moslashuvi va ijtimoiy munosabatlarga kirishishini osonlashtiradi. Dinning ijtimoiy-psixologik vazifasi — shaxsning ijtimoiy muhitda barqaror psixologik holatda bo‘lishini ta’minlash, uning ijtimoiy rollarni to‘g‘ri bajarishga yo‘naltirishidir.

Yosh bosqichlari va diniy identifikatsiya – O‘smirlik davrida shaxsiy identitet shakllanishi din orqali kuchliroq ifodalanadi. Bu davrda inson o‘zini tanlaydi, kim ekanini aniqlashga intiladi. Diniy guruhlar bu jarayonda jamiyatdagi aniq mezonlar, qadriyatlar va qoida-tartiblar orqali yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Bu esa shaxsning ruhiy mustahkamligini oshiradi, ijtimoiy rollarni to‘g‘ri bajarishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy jamiyatda diniy identifikatsiya muammolari – Bugungi globallashuv jarayonlari, sekulyar tendensiyalar va individualizm kuchaygani sari, diniy identifikatsiyaning mohiyati ham o‘zgarib bormoqda. Ba’zi hollarda diniy e’tiqod individual ehtiyojlar darajasida cheklanib qolmoqda. Bunday vaziyatda diniy identifikatsiyaning shaxs rivojlanishidagi barqarorlashtiruvchi roli zaiflashadi.

Shu sababli, ta’lim, tarbiya va ijtimoiy institutlar orqali diniy madaniyatni shakllantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

- Globallashuv, diniy identifikatsiya muammolari – Hozirgi globallashuv davrida ko‘pgina yoshlar o‘z diniy identifikatsiyasini yo‘qotishi yoki uni yuzaki qabul qilishi holatlari uchramoqda. Internet, ommaviy madaniyat, ilmiy asoslanmagan g‘oyalar dinning ijtimoiy hayotdagi o‘rniga o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Bunday sharoitda diniy qadriyatlarni tarbiyaviy vosita sifatida jonlantirish, diniy madaniyatni zamonaviy shakllarda targ‘ib qilish dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Diniy identifikatsiya shaxsning shakllanishida ijtimoiy va psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi. U insonning dunyoqarashi, qadriyat tizimi, axloqiy mezonlari, ijtimoiy pozitsiyasi va o‘zini anglash jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ijtimoiy institutlar — oila, maktab, diniy tashkilotlar bu jarayonda faol ishtirok etishi lozim. Sog‘lom diniy identifikatsiya shaxsni barkamol, faol, ma’naviy yetuk inson sifatida shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Din faqat e’tiqod emas, balki shaxs tarbiyasida faol ishtirok etuvchi ijtimoiy institutdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanboev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari / Mas’ul muharrirlar K.Komilov, A.Mansurov. - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti,2014.
2. Kamilov D. Dinshunoslik. O’quv qo’llanma. – .: Lesson Press, 2021.
3. Dinshunoslik asoslari .Tuzuvchilar: A.Ochildiev va boshqalar. - T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
4. N.Ismoilova; D.Abdullayeva “IJTIMOIY PSIXOLOGIYA” 0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti . Toshkent — 2013
5. Mo‘minov A. Dinshunoslik : Darslik / Mo‘minov A., Ibrohimov N.I. - Toshkent : Mehnat, 2004.
6. Курбанова З. Касбий аутоидентификация шаклланишининг босқичлари //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II. – С. 175-179.
7. www.ziyonet.uz.

GUMANITAR FAN SIFATIDA PSIXOLOGIYANI O‘QITISH MAQSADI

Kurbanova Zarifa Bokijanovna

NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Maqolada gumanitar fan sifatida psixologiyani o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, psixologik ta’limda kuzatiladigan muammolar, gumanistik psixologiyaning o‘quv fani sifatida psixologik ta’lim mazmuniga ta’siri, psixologiyani o‘qitish maqsadi, mutaxassis psixologning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar, ilmiy psixologiya sohasidagi bilim, ko‘nikma va qadriyatlar, ularni amalda qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari haqida ma’lumotlr keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologiya, psixologik ta’lim, bixeviorizm, kognitiv psixologiya, gumanistik psixologiya, amaliy va tadbiqiy psixologiya, ta’lim mazmuni, dastur, maqsad.*

Аннотация. *В статье представлены сведения об особенностях преподавания психологии как гуманитарной дисциплины, проблемах, наблюдаемых в психологическом*

образовании, влиянии гуманистической психологии на содержание психологического образования как учебной дисциплины, цели преподавания психологии, требованиях к профессиональной подготовке специалиста-психолога, знаниях, умениях и ценностях в области научной психологии и основных направлениях их применения на практике.

Ключевые слова: *психология, психологическое образование, бихевиоризм, когнитивная психология, гуманистическая психология, практическая и прикладная психология, содержание образования, программа, цель.*

Annotation: *The article presents information about the specific features of teaching psychology as a humanitarian discipline, problems observed in psychological education, the impact of humanistic psychology on the content of psychological education as an academic discipline, the purpose of teaching psychology, the requirements for the professional training of a specialist psychologist, knowledge, skills and values in the field of scientific psychology, and the main areas of their application in practice.*

Keywords: *psychology, psychological education, behaviorism, cognitive psychology, humanistic psychology, practical and applied psychology, educational content, program, goal.*

Ta’lim maqsadi va oquv fanining mazmuni doimo ozaro bogliq bo‘ladi. Fan mazmuni ta’lim maqsadini belgilab beradi. Psixologiyani o‘qitish maqsadlari gumanitar fan sifatida psixologiya mazmunining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Ammo psixologiya har doim ham gumanitar fan sifatida talqin etilmaydi. Ayrim o‘rinlaida u eng avvalo, tabiiy yoki biosotsial fan sifatida ta’riflanadi. Albatta psixologiya o‘rganadigan hodisalarning barchasi muayyan tabiiy substratlar, ya’ni tuzilmalar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Biroq psixik voqelikni o‘rganishning ko‘pchilik metodlari ijtimoiy fanlarning metodidir. Gumanitar bilim – ilmiy bilishning alohida turi bo‘lib, tabiiy bilimdan farqli ravishda uning diqqat markazida buyumlar emas, balki shaxslar, ular o‘rtasidagi munosabatlar, subyekt-obyekt tizimi emas, subyekt-subyekt tizimi turadi. Gumanitar bilimning ushbu xususiyatlaridan kelib chiqib, psixologiya mutaxassislarga va psixologiyani pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish uchun o‘rganayotganlarga o‘qitish maqsadini belgilab olish mumkin.

Psixologiyani o‘qitish maqsadi -turli hayotiy sharoitlarda odamlar bilan muloqot va munosabat qila olish uchun zarur bilimlar, metodlarni nazariy hamda amaliy jihatdan egallash. Psixologik bilishning muhim xususiyati unda bilimlar va ular asosida amalga oshiriladigan harakatlaming birligi, nazariy va amaliy tomonlarning uyg‘unligidan iborat. Bilim va harakat birligi odamning boshqalar va o‘zini bilishga erishishi orqali ro‘yobga chiqariladi. Psixologiyani o‘qitish faqat boshqa odamlaming xulq-atvori, fikrlash tarzini o‘zgartirish usullarini o‘rganishga emas, ayni vaqtda insonga o‘zini o‘zgartirish usullarini ham o‘rgatishga yo‘naltiriladi. Albatta, umumiy maqsadga bir qancha xususiy maqsadlarga erishish orqali yetishadi. Qolaversa, maqsadga erishish qo‘yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Psixologiya fanida gumanistik g‘oyalarni tadqiqot qilish ishlari chet ellarda, asosan, AQSHda “Gumanistik psixologiya” deb nomlangan mustaqil sohada, ilmiy yo‘nalishda (Sh.Byuler, A.Maslou, K.Rodjers, R.Olport kabilarning asarlarida) o‘z ifodasini topgan edi. Mazkur yo‘nalish namoyandalarining ta’limotlarida shaxsning o‘zini o‘zi takomillashtirish, o‘zini o‘zi faollashtirish, o‘zligini anglash (o‘zini o‘zi anglash), o‘z ichki imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish g‘oyalari aks etgan

bo‘lib, insonlarda adolat tuyg‘usi, vijdonlilik, insonparvarlik, maslak, go‘zallik va haqqoniylik hislarini shakllantirishga qaratilgandir.[4.32.]

Gumanistik psixologiya sohasining muhim jihatlaridan yana biri-bu shaxsning mavhum (abstrakt), passiv inson sifatida tadqiqot obyekti singari tasavvur etmasdan, balki uning hamkorlik faoliyati, shaxslararo munosabatning teng huquqli a’zosi ekanligini tan olinganlikdan iboratdir. Lekin bu ta’limotning zaif tomonlari ham mavjud bo’lib, u narsa insonning biopsixologik (biologik omillar, tug’ma mayl, iqtidor alomatlari, temperament) shart-sharoitlarning roliga ortiqcha baho berganligida namoyon bo‘ladi. Vaholanki, inson ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy muhit mevasi bo‘lib hisoblanadi. Shunga qaramasdan, hozirgi davrda ham gumanitsik psixologiyaning ilg‘or g‘oyalari, tizimi, tadqiqot uslublari o‘z dolzarbliligini saqlab qolgan. Gumanitsik psixologiya namoyondalari to‘plagan natijalarini milliy psixologiya, ijtimoiy yetuklik, muayyan muhit, hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda tahlil qilish orqali oliy maktab ta’lim-tarbiyasida gumanitsik g‘oyalarni singdirish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi davrgacha respublika oliy o‘quv yurtlarida psixologiya o‘qitish ahvoli zamon, ijtimoiy taraqqiyot, insonning tayyorgarlik darajasi (aql-zakovoti) talabiga har doim ham mos kelavermaydi. Bu holatning bir necha obyektiv va subyektiv omillari mavjuddir;

–kafedralarining yuqori malakali psixolog mutaxassislar bilan ta’minlanmaganligi (xohishi mavjud har qanday o‘qituvchi saboq bermoqda);

– oliy maktablarda ma’ruzalar katta guruh tizimida o‘qilayotganligi;

– qo‘shimcha mashg‘ulotlar va talabalar bilan individual ishlarni o‘tkazish uchun fakultetlarda zarur shart-sharoitlar yaratilmaganligi;

– darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yetishmasligi;

–aksariyat psixologiya sohasi bo‘yicha ommaviy tarzda dasturlar chop etilmaganligi;

– psixologiya faniga nisbatan panja ortidan qarash hollarining uchrayotganligi (ikkinchi darajali predmet sifatida) va boshqalar.[1.106.]

Yuqorida sanab o‘tilgan negativ holatlarga qaramay, psixologiya fanini o‘qitishni takomillashtirish, ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida qat’iy tamoyilga, muayyan xususiyatga ega bo‘lgan kontseptsiya ishlab chiqildi. Uning asosiy mohiyati quyidagilarda o‘z ifodasini topgandir.

O‘qitishning gumanistik yo‘llari xilma-xil bo‘lib, ulardan eng samarador bo‘lganlari muammoli o‘qitish, evristik, dasturlashtirilgan, o‘zini o‘zi boshqarish, aqliy faoliyatning bosqichli amalga oshirish, nazariy umumlashtirish (umumlashmadan yaqqollik sari) jahon psixologiyasida keng ko‘lamda qo‘llanib kelinmoqda.

Psixologiya fanini o‘qitish maqsadi, birinchidan, ilmiy-psixologik bilimlar mazmuni, ikkinchidan, mazkur fan o‘qitiladigan sohaning ta’lim dasturlari bilan belgilanadi. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni, mazmunining o‘ziga xosligi bahs-munozaralarning odatiy predmeti htsoblanadi. O‘zining predmeti va metodiga ko‘ra psixologiya: falsafiy; tabiiy-ilmiy; gumanitar bilimlar sohasiga kiradi. [2.227.]

Shu munosabat bilan psixologiya turli davrlarda, turli davlatlarda, turli o‘quv muassasalarida goh falsafiy, goh tabiiy-ilmiy, goh gumanitar fanlar doirasida o‘qitib kelingan. Psixologiyani o‘qitish maqsadlari ham shunga mos holda aniqlanadi.

Yangi tipdagi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish hozirgi kunda psixologiyada tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu ushbu fanning turli darajadagi ta’lim dasturlariga kiritilishi bilan bog‘liq. Bunday sharoitda turli xil ta’lim muassasalarida psixologik ta’limning maqsad va vazifalarini muvofiqlashtirish, uni turli toifadagi o‘quvchilar va talabalar uchun o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash kerak.

O‘quvchi va talabalarning psixologiya kursiga bo‘lgan qiziqishi hozirgi kunda asosan psixologiyani gumanitar fan sifatida tushunishlariga bog‘liq. O‘qituvchilar buni o‘quv maqsadlarini belgilashda, shuningdek o‘quv kurslari mazmunini tanlash jarayonida hisobga olishlari kerak.

V.Ya.Lyaudisning fikricha, "Psixologiyani o‘qitishning maqsadi nazariy va amaliy bilimlarni va odamlar hayotining turli sharoitlarida ular bilan aloqa va o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish usullari egallashdan iborat"[3.9.]. Psixologiya sohasining qaysi turi o‘qitilishiga bog‘liq tarzda o‘qituvchilar boshqa maqsadlarni ham qo‘yishlari mumkin. Talabalar, magistrantlarni turli o‘quv dasturlari bo‘yicha o‘qitishda qo‘yilgan maqsadlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Ushbu mutaxassis kasbiy faoliyatining obyekti insonning aqliy jarayonlari, xususiyatlari va holatlari, predmeti ularning inson faoliyatining turli sohalarida shaxslararo va ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarda namoyon bo‘lishi, ularni tashkil etish usullari va shakllarining tashqi ta’sir ostida o‘zgarishi hisoblanadi. Olingan bilim, ko‘nikma va malakalarga muvofiq mutaxassis xalq xo‘jaligi, ta’lim, sog’liqni saqlash, menejment, aholiga ijtimoiy yordam tizimidagi murakkab vazifalarni hal qilishda ishtirok etishga tayyor bo‘lishi va diagnostik va korreksion, ekspertlik va maslahat, o‘quv –tarbiyaviy, ilmiy –tadqiqotchilik, madaniy-ma’rifiy kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin.

Mutaxassis psixologning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, u o‘z malakasiga mos keladigan quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak:

– to‘plangan nazariy bilimlar, tadqiqotchilik malakalari va axborot olish asosida zamonaviy ilmiy kontseptsiyalarni tushunish, ilmiy-tadqiqot va amaliy vazifalarni malakali belgilash va hal qila olish;

– amaliy tadbiqiy faoliyatda ishtirok etish, psixodiagnostika, psixokorreksiya va psixologik maslahatning asosiy usullarini egallash;

– o‘quv yurtlarida psixologiyani o‘qitishning bilim va metodlari majmuasini egallash.

Universitetda o‘qish jarayonida bo’lajak mutaxassis psixolog uchun zarur nazariy bilimlarni, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallaydi. Unda kasbiy yo’nalganlik, psixolog kasbining o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurlar shakllanadi. Ta’lim jrayonidagi tahsil olish bilan birga talaba shaxs sifatida ham kamolotga erishib boradi.

Ilmiy psixologiya sohasidagi bilim, ko‘nikma va qadriyatlar, ularni amalda qo‘llashning asosiy maqsadari:

1. Talabalar psixologiyaning asosiy tushunchalari, nazariy istiqbollari, empirik ma’lumotlari va tarixiy tendentsiyalari bilan tanishishlarini namoyish etishlari kerak.
2. Talabalar psixologiyaning asosiy tadqiqotchilik usullarini, shu jumladan tadqiqot loyihasi tuzish, ma’lumotlarni tahlil qilish va talqin qilishni tushunishlari va qo‘llashlari kerak.
3. Talabalar tanqidiy va ijodiy fikrlash, savollar berish va xulq-atvor va aqliy jarayonlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda ilmiy yondashuv usulidan foydalanishlari kerak.
4. Talabalar psixologik tamoyillarni tushunishlari, shaxsiy, ijtimoiy va tashkiliy muammolarni hal etishga qo‘llashlari kerak.
5. Talabalar muayyan harakatlar sabablarini tushunishi, noaniqliklarga chidamli bo‘lishi, kasb etikasga mos holda o‘zini tutishi, boshqa qadriyatlarni tushunishi kerak.
6. Talabalar axborot – sohasidagi kompetentligi va kompyuter hamda boshqa texnologiyalardan turli maqsadlarda foydalanish qobiliyatini namoyish etishlari kerak.
7. Talabalar turli soha va shakllarda samarali muloqot qilishlari kerak.
8. Talabalar ijtimoiy-madaniy va xalqaro xilma-xillikning murakkabligini bilishlari va tushunishlari kerak.
9. Talabalar o‘zlarining aqliy jarayonlari, xatti-harakatlari, shuningdek, boshqa odamlarning xulq-atvori to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi va o‘zini o‘zi boshqarish hamda o‘zini takomillashtirish uchun samarali strategiyalarni qo‘llashni o‘rganishlari kerak.
10. Mashg‘ulotlar natijasida o‘quvchilar o‘zlarining psixologik bilimlarini qanday qo‘llay olishlari haqida realistik tasavvurlarga ega bo‘lishlari kerak.[1.164.]

Bu maqsadlarning har biri psixologik ta’limning muyyan dasturi bo‘yicha ta’lim olgan talabalardan kutiladigan natija hisoblanadi, bir necha mutaxassislik fanlarining mazmunini o‘zlashtirilishida namoyon bo‘ladi hamda bo‘lajak mutaxassislarda ksbiy kompetentlikning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Карандашев В.Н. Методика преподавания психологии: СПб.: Питер, 2006. — 250 с.
2.Kurbanova Z.B. Oribboyeva D.D. Pedagogik psixologiya va psixologiyani o’qitish metodikasi. Namangan: “Usmon Nosir –Media”. -2022. 352b.
3. Курбанова З. Касбий аутоидентификация шаклланишининг босқичлари //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II. – С. 175-179.
4. Мансурова, Г. Р. "ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛИЗАЦИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ." (2022): 366-368.
5. Nishanova Z. et al. Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya //T-2013. – 2011.
6. Ляудис В.Я. Методика преподавания психологии М.УРАО.2000.128с
7. Ғозиев Э.Ғ.Тошимов Р.Ю. Психология ўқитиш методикаси. Т.ЎзМУ.2005.96 б.

SHAXSNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY MUHITGA TA’SIRI VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Toshpulatov Ibrohim Ikromjonovich
Namangan davlat universiteti

Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchi.
Muxammadjanova Muhlisa Abdulla qizi
Namangan davlat universiteti Tibbiyot fakulteti
Davolash yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada shaxsning individual-psixologik xususiyatlari va ularning inson faoliyatiga, muloqotga va ijtimoiy muhitga ta’siri to‘g‘risida so‘z yurutilgan. Shaxsning psixologik xususiyatlari uning qarorlar qabul qilish jarayonidan tortib, uning ijtimoiy hayotidagi muvaffaqiyatlariga qadar keng miqyosda rol o‘ynaydi. Maqolada shaxsning xususiyatlarini tahlil qilishda psixologik nazariyalar, psixologik tahlil metodlari va eksperimental yondashuvlar qo‘llaniladi. Shuningdek, turli shaxsiy xususiyatlar (masalan, introversiya va ekstraversiya, emotsional barqarorlik, ijtimoiy sezgirlik va boshqalar) va ularning insonning jamiyatdagi o‘rni va munosabatlariga ta’siri haqida so‘z boradi. Ushbu tadqiqot shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va shaxslararo munosabatlarda samarali muloqot o‘rnatish uchun kerakli ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Individual-psixologik xususiyatlar, shaxs, psixologik nazariyalar, introversiya, ekstraversiya, emotsional barqarorlik, ijtimoiy sezgirlik, muloqot, shaxsiy xususiyatlar, psixologik tahlil.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются индивидуально-психологические особенности человека и их влияние на человеческую деятельность, общение и социальную среду. Психологические особенности человека играют широкую роль, от процесса принятия решений до его успеха в социальной жизни. В данной статье используются психологические теории, методы психологического анализа и экспериментальные подходы для анализа характеристик человека. Также рассматриваются различные личностные характеристики (например, интроверсия и экстраверсия, эмоциональная устойчивость, социальная чувствительность и т. д.) и их влияние на роль и отношения человека в обществе. Данное исследование помогает глубже понять индивидуально-психологические особенности человека и служит развитию необходимых навыков для эффективного общения в межличностных отношениях.*

Ключевые слова: *Индивидуально-психологические особенности, личность, психологические теории, интроверсия, экстраверсия, эмоциональная устойчивость, социальная чувствительность, коммуникация, черты личности, психологический анализ.*

Annotation: *This article examines the individual psychological characteristics of a person and their impact on human activity, communication and the social environment. Psychological characteristics of a person play a wide role, from the decision-making process to his success in social life. This article uses psychological theories, methods of psychological analysis, and experimental approaches to analyze human characteristics. It also examines various personality characteristics (e.g., introversion and extroversion, emotional stability, social sensitivity, etc.) and their impact on a person's role and relationships in society. This study helps to gain a deeper understanding of the individual psychological characteristics of a person and serves to develop the necessary skills for effective communication in interpersonal relationships.*

Key words: *Individual psychological characteristics, personality, psychological theories, introversion, extroversion, emotional stability, social sensitivity, communication, personality traits, psychological analysis.*

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari insonning ichki dunyosi va tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasini shakllantiruvchi muhim omillardir. Ular insonning xarakterini, ruhiyatini, xulq-atvorini va boshqalar bilan munosabatlarini belgilaydi. Psixologiya fanida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari ko‘p jihatdan uning individual o‘ziga xosligini, qarorlar qabul qilish jarayonlarini,

emotsional holatini va ijtimoiy o‘zaro munosabatlardagi reaktsiyalarini tushunishda asosiy o‘rin tutadi.

Shaxsning psixologik tuzilmasi haqida turli psixologik nazariyalar mavjud bo‘lib, ular shaxsning rivojlanish jarayonida qaysi xususiyatlarning ustuvorligini va qanday qilib ular insonning xulq-atvorini shakllantirayotganini tushuntirishga qaratilgan. Introversiya va ekstraversiya kabi xususiyatlar, shuningdek, emotsional barqarorlik, ijtimoiy sezgirlik va boshqalar shaxsning turmush tarziga, jamiyatdagi o‘rni va muvaffaqiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, individual-psixologik xususiyatlar muloqotda va shaxslararo munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular odamlarning boshqalar bilan qanday aloqada bo‘lishini va jamiyatda o‘zini qanday tutishini belgilaydi. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish uning psixologik salomatligini, ijtimoiy faoliyatini va shaxsiy rivojlanishini yanada yaxshilashga yordam beradi. Ushbu maqolada shaxsning psixologik xususiyatlari, ularning ijtimoiy va ruhiy hayotdagi ahamiyati, hamda turli psixologik modellarga asoslangan tahlillar keltiriladi.

Ushbu tadqiqotda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun analitik va eksperimental usullar qo‘llanilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi turli psixologik xususiyatlarni aniqlash, ularning o‘zaro ta’siri va shaxslarning ijtimoiy muhitdagi xulq-atvoriga ta’sirini tahlil qilishdir. Tadqiqot jarayonida quyidagi materiallar va usullar ishlatilgan:

Tadqiqotda shaxslarning psixologik xususiyatlarini aniqlash uchun turli anketalar va so‘rovnomalar qo‘llanildi. Bular orasida Big Five Personality Test (B5PT) va Eysenck Personality Inventory (EPI) kabi keng tarqalgan psixologik testlar mavjud bo‘lib, ular shaxsning introversiya-ekstraversiya, emotsional barqarorlik, ochiqlik, mas’uliyat va do‘stona munosabatlarga moyillik kabi asosiy xususiyatlarini o‘lchashga imkon berdi.

Shaxslarning psixologik xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada chuqurroq tahlil qilish uchun eksperimental metodlardan foydalanildi. Eksperimentlar ijtimoiy vaziyatlarda (masalan, guruh ichida muloqot qilish, qarorlar qabul qilish va boshqalar) shaxslarning reaktsiyalarini o‘lchashga qaratildi. Ushbu tajribalarda shaxslarning individual-psixologik xususiyatlari (introversiya-ekstraversiya, emotsional barqarorlik) qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashga e’tibor qaratildi.

Tadqiqotda to‘plangan ma’lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi. SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) dasturi yordamida anketalar va eksperimentlar natijalari qayd etildi, shaxslararo bog‘liqliklar, farqlar va xulq-atvor modellari statistik tahlil qilindi. Natijalar sifatida, psixologik xususiyatlarning o‘zaro ta’siri, ularning o‘ziga xos xulq-atvor tizimlarini qanday shakllantirishi, shuningdek, shaxsning ijtimoiy va professional faoliyatiga qanday ta’sir qilishi haqida aniq ma’lumotlar keltirildi.

Tadqiqotda psixologik tahlilning natijalarini yaxshiroq tushunish uchun vizualizatsiya usullaridan foydalanildi. Grafiklar, diagrammalar va tahlil natijalari yordamida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy

faoliyatga ta’siri oson va tushunarli tarzda ko‘rsatilgan. Bu, o‘z navbatida, psixologik tahlilni yanada aniqroq va ishonchli qilishga yordam berdi.

Tadqiqotning asosiy vazifalari shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning o‘ziga xosligini, turli psixologik nazariyalar bilan solishtirish va bu xususiyatlarning jamiyatdagi o‘rni hamda shaxsiy hayotdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat edi. Tadqiqotda ishlatilgan usullar nafaqat psixologik nazariyalarni amaliyotda qo‘llash imkonini berdi, balki shaxsning psixologik xususiyatlari va uning ijtimoiy faoliyatiga ta’siri haqida chuqur tahlil qilishga imkon yaratdi.

Tadqiqot natijalari shaxsning individual-psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy va psixologik faoliyatga ta’sirini aniq ko‘rsatdi. Quyida tadqiqotda olingan asosiy natijalar taqdim etilgan:

Shaxsning psixologik xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar.

Tadqiqot davomida shaxsning asosiy psixologik xususiyatlari – introversiya va ekstraversiya, emotsional barqarorlik, ochiqlik, mas’uliyat, ijtimoiy sezgirlik o‘rtasida sezilarli bog‘liqliklar aniqlandi. Masalan, introversiya va ekstraversiyaning yuqori darajadagi farqlanishi, shaxsning ijtimoiy faoliyatda qanday o‘zgarishlar yuzaga kelishini ko‘rsatdi. Ekstravertlar, odatda, faol, muloqotga ochiq va yangi ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishga moyil bo‘lsa, introvertlar ko‘proq yakka o‘zi ishlashni afzal ko‘radilar va ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashadilar.

Emotsional barqarorlik va stressga qarshilik:


Tadqiqotda emotsional barqarorlik va stressga qarshilik o‘rtasidagi bog‘liqlik ham aniqlandi. Emotsional barqarorligi yuqori bo‘lgan shaxslar ko‘proq stressni boshqarishda muvaffaqiyatli bo‘lishgan. Ular jamiyatda yuzaga keladigan muammolarni samarali hal qilishda o‘zlarini ko‘proq ishonchli his qilishadi. Aksincha, emotsional barqarorligi past bo‘lgan shaxslar stressga nisbatan sezgir bo‘lib, bu ularning ijtimoiy munosabatlarida va professional faoliyatlarida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy sezgirlik va jamoada ishlash qobiliyati ijtimoiy sezgirlik yuqori bo‘lgan shaxslar jamoada ishlashda, boshqalar bilan o‘zaro aloqada muvaffaqiyatli bo‘lishadi. Ular boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ularga moslashish qobiliyatiga ega, bu esa ijtimoiy vaziyatlarda ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi. Bu shaxslar ko‘pincha guruhda rahbarlik qilishda yoki muammolarni hal qilishda samarali bo‘lishadi.

Shaxsning psixologik xususiyatlari va qarorlar qabul qilish:

Shaxsning psixologik xususiyatlari qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda shaxsning mas’uliyat hissi yuqori bo‘lgan va ijtimoiy sezgirligi past bo‘lgan shaxslar ko‘proq tahlil qilish va keng qamrovli qarorlar qabul qilishga moyil bo‘lishdi. Aksincha, ijtimoiy sezgirligi yuqori bo‘lgan shaxslar tezda jamiyat talablariga moslashadi va qisqa muddatli qarorlar qabul qilishga moyil bo‘lishadi.

Quyidagi grafikda psixologik xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatilgan:



- Introversiya-Ekstraversiya: r=0.65 r = 0.65
- Emotsional barqarorlik: r=0.78 r = 0.78
- Ijtimoiy sezgirlik: r=0.72 r = 0.72
- Qaror qabul qilish: r=0.83 r = 0.83

Grafikdagi kulrang chiziq r=0.7 r = 0.7 darajasida joylashib, muhim bog‘liqlikni ifodalaydi. Ushbu chiziqdan yuqoridagi natijalar (Emotsional barqarorlik, Ijtimoiy sezgirlik va Qaror qabul qilish) o‘zaro kuchli bog‘liqlikni aks ettiradi.

Shaxsning psixologik xususiyatlari va o‘zini anglash:

Tadqiqotda shaxsning psixologik xususiyatlari o‘zini anglash va o‘zini baholashga ta’sir qilishi ham aniqlandi. Shaxslar o‘zining psixologik xususiyatlarini tushungan holda, o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradilar va o‘zlarini ijtimoiy vaziyatlarda qulay his qiladilar. Bu o‘zini anglash ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatni oshiradi va shaxsning o‘ziga bo‘lgan hurmatini mustahkamlaydi.

Tadqiqotning asosiy natijalaridan biri shundan iboratki, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari uning ijtimoiy va psixologik faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsning xususiyatlarini bilish va tahlil qilish orqali, odamlar o‘zlarini yaxshiroq tushunishi va o‘zlariga mos ravishda ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishlari mumkin. Bu esa nafaqat shaxsning psixologik salomatligi, balki uning jamiyatdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy roli uchun ham muhimdir.

Ushbu tadqiqot shaxsning individual-psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy faoliyat, shaxslararo munosabatlar va qarorlar qabul qilish jarayonidagi ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda aniqlangan natijalar, shaxsning psixologik xususiyatlari, jumladan introversiya-ekstraversiya, emotsional barqarorlik, ijtimoiy sezgirlik va boshqalar, uning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy muloqotdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qilishi haqida to‘liq tasavvur yaratadi.

Birinchidan, tadqiqot natijalaridan shuni ta’kidlash mumkinki, shaxsning emotsional barqarorligi uning stressga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati va jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy muloqotda bo‘lishiga ta’sir qiladi. Bu holat, psixologiyada uzoq vaqtdan beri o‘rganilib kelingan emotsional intellekt nazariyasi bilan ham mos keladi. Tadqiqotda aniqlangan ijtimoiy sezgirlik va shaxsiy mas’uliyatning o‘zaro aloqasi ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan asosiy omil ekanligini ko‘rsatdi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari shaxsning introversiya-ekstraversiya xususiyati-ning jamiyatda va muloqotda qanday namoyon bo‘lishini aniq ko‘rsatdi. Ekstravertlar jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etishga, yangi aloqalarni o‘rnatishga va yangi tajribalarni sinashga moyil bo‘lishadi, introvertlar esa ko‘proq ichki dunyosiga yopiq bo‘lib, yakka holda ishlashni afzal ko‘radilar. Bu holat shaxsning professional va ijtimoiy muvaffaqiyatlarini shakllantirishda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqotda shaxsning psixologik xususiyatlari qarorlar qabul qilish jarayonida ham muhim rol o‘ynashi ko‘rsatildi. Shaxsning mas’uliyat hissi yuqori bo‘lgan va emotsional barqarorligi yaxshi bo‘lgan shaxslar murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga qodir. Aksincha, stressga sezgir va emotsional jihatdan beqaror shaxslar qarorlar qabul qilishda ikkilanishi yoki haddan tashqari impulsiv bo‘lishi mumkin. Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari nafaqat uning shaxsiy hayotiga, balki uning jamiyatdagi roli va muvaffaqiyatiga ham ta’sir qiladi. Shaxsning o‘z psixologik xususiyatlarini tushunishi va bu xususiyatlarni hisobga olib muloqot qilish, ijtimoiy muvaffaqiyat va sog‘lom munosabatlarni o‘rnatishda yordam beradi. Biroq, tadqiqotda kuzatilgan natijalar psixologik xususiyatlarning faqat individual o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lmasligini, balki ularning ijtimoiy kontekstda, ya’ni jamiyatning me’yorlari, qadriyatlari va madaniy xususiyatlari bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini to‘liq tushunish uchun nafaqat psixologik omillarni, balki ijtimoiy va madaniy omillarni ham inobatga olish zarur. Bu yondashuv shaxslarning o‘zaro aloqalari, ijtimoiy muhitda faoliyat ko‘rsatish va kelajakda o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyatini yanada yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari. https://azkurs.org/shaxsning-individual-psixologik-xususiyatlari.html
2. Shaxsning individual xususiyatlari. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/psixologiya/shaxsning-individual-xususiyatlari
3. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/psixologiya/shaxsning-individual-psixologik-xususiyatlari-2
4. Individual–psixologik xususiyatlar klassifikatsiyasi. Talaba shaxsi tipologiyasi. https://azkurs.org/2--mavzu-individual-psixologik-xususiyatlar-klassifikatsiyasi.html
5. M.B. Bulturbayevich, TI Ikromjonovich (2021, December). The main directions of modern management psychology. Conference Zone, 292-294
6. Mullabayev B.B. Toshpulatov I. I. History of the development of management theory and practice. Conference Zone, 309-312
7. MB Bulturbayevich, TI Ikromjonovich GENDER ISSUES IN GOVERNANCE Conference Zone, 277-280
8. Toshpulatov I.I. Pedagogical process, peculiarities of pedagogical process, principles of its organization международный научно-практический журнал Теория и практика современной науки 5 (23), 1130-1133
9. Bulturbayevich M.B, TI Ikromjonovich, NM Zohidjon ogli, MS Hayrullo ogli The main directions of modern management psychology Conference Zone, 292-294
10. Bulturbayevich M.B., TI Ikromjonovich, Leadership and leadership in management psychology. Conference Zone, 271-276

11. T.I.Ikromjonovich, SCIENTIFIC AND PRACTICAL ASPECTS OF MANAGEMENT COMMUNICATION AND PUBLIC SPEAKING SKILLS AND SPEAKING METHODS IN MANAGEMENT ACTIVITIES Conference Zone, 233-236
12. T.I.Ikromjonovich THE ROLE OF COMMUNICATION IN THE EDUCATION OF INDIVIDUAL CHARACTER AND ITS PRACTICAL IMPORTANCE. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIP-LINARY RESEARCH ISSN.
13. Toshpo‘latov, I., & Usmonova, M. (2017). PEDAGOGICAL PROCESS, PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL PROCESS, PRINCIPLES OF ITS ORGANIZATION. Теория и практика современной науки, (5), 1130-1133.
14. TI Ikromjonovich,. SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE EMBODIMENT OF THE PERSONALITY OF THE MODERN TEACHER. Journal of Critical Reviews 6 (5).
15. Toshpulatov Ibrohim Ikromjonovich. THE ROLE OF COMMUNICATION IN THE EDUCATION OF INDIVIDUAL CHARACTER AND ITS PRACTICAL IMPORTANCE. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630
16. Ibrohim Ikromjonovich Toshpo‘latov, ZAMONAVIY O‘QITUVCHI SHAXSI TIMSOLINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI www.journal. namdu.uz. (12) 550-554
17. Ибрахим Икромжонович Тошпулатов, Гулчехра Мухаммаджоновна Мингбоева, Диёра Икромжонова, Икромжонова Зилола КОНВЕРГЕНТНЫЕ И ДИВЕРГЕНТНЫЕ МЫСЛИТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ В НАУЧНОМ МЫШЛЕНИИ. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" 2023 Warsaw, (Poland)
18. Toshpulatov Ibrahim Ikromjonovich, CREATIVITY AND ITS PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS A Journal for New Zealand Herpetology Vol 12 Issue 03 2023 ISSN NO: 2230-5807
19. TI Ikromjonovich, AS Yuldashboyevich. WAYS TO ACHIEVE THE MOST EFFECTIVE RESULTS BY MOTIVATING STUDENTS- INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 2024, (05) 9-11
20. TI Ikromjonovich. INCREASING STUDENTS'INTEREST IN LEARNING THROUGH EFFECTIVE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEWISSN: 2319-2836 (05), 15-17.

TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Boltayeva Muxayyo Lutfullayevna
NamDU Qo‘shma ta’lim bo‘limi boshlig‘i,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining pedagogik faoliyatini tizimli yondashuv asosida loyihalashtirish masalalari tahlil etiladi. Shu bilan birga, innovasion texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llari, ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati va amaliyotdagi qo‘llanish formalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *innovasiya, dizayner, texnolog, strategiya, differensiatsiya, personalizatsiya, ijtimoiy-emosiya, integratsiya.*

Annotation: *This article analyzes the issues of designing a teacher's pedagogical activity in the modern educational process based on a systematic approach. At the same time, it highlights the ways of effective use of innovative technologies, their importance in improving the quality of education and forms of application in practice.*

Key words: *innovation, designer, technologist, strategy, differentiation, personalization, socio-emotional, integration.*

Аннотация: *В статье анализируются вопросы проектирования педагогической деятельности учителя в современном образовательном процессе на основе системного подхода. При этом освещаются пути эффективного использования инновационных технологий, их значение в повышении качества образования и формы применения на практике.*

Ключевые слова: *инновация, проектировщик, технолог, стратегия, дифференциация, персонализация, социально-эмоциональный, интеграция.*

Hozirgi globallashuv va raqamlashuv davrida ta’lim tizimiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar ortib bormoqda. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tadqiqotchi, dizayner, texnolog va murabbiy sifatida ham faoliyat olib borishi talab etiladi. Bunday sharoitda pedagogik faoliyatni tizimli yondashuv asosida loyihalashtirish va innovasion texnologiyalardan samarali foydalanish ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Modulli o‘quv dasturlari va metodik materiallar, tizimli yondashuvning birinchi asosiy jihati-o‘quv dasturlarini modulli shaklda tashkil etishdir. Bu yondashuv, ta’lim mazmunini qismlarga ajratish orqali o‘zlashtirishni yengillashtiradi, o‘quvchilarning individual rivojlanish sur’atiga moslashuv imkonini yaratadi hamda mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirib boradi.

Individual ta’lim strategiyalari, o‘quvchilarning qobiliyat, qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olgan holda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalari ishlab chiqiladi. Bu ta’limda differensiatsiya va personalizasiyani ta’minlaydi hamda motivatsiyani oshiradi. Pedagoglarga va bo‘lajak pedagoglarga yangicha qarashni shakllantirishga yordam beradi, ijtimoiy-emosional rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

An’anaviy va raqamli ta’limni integratsiya qilish, gibrid ta’lim modellarini joriy etish orqali, o‘qitishda masofaviy va auditoriya mashg‘ulotlari uyg‘unlashtiriladi, raqamli platformalar (Google Classroom, Moodle, Teams)dan samarali foydalaniladi, ta’limning tarkibiy qismi sifatida virtual laboratoriyalar va simulyatorlar joriy etiladi.

Data tahlili va raqamli monitoring, o‘qitish jarayonini baholashda raqamli tahlil vositalari (Learning Analytics)dan foydalanish esa o‘quv natijalarini muntazam kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Kamchiliklar va kuchli tomonlarini aniqlash orqali o‘quv strategiyalarini optimallashtiradi va real vaqt rejimida ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida hamkorlik qilish, o‘qituvchi faoliyati samaradorligini oshirishda asosiy mezon bo‘lib xisoblanadi. Mutaxassislar (psixolog, logoped, metodist) bilan yaqin hamkorlik o‘rnatish va ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish, jamoatchilik va nodavlat tashkilotlar bilan interaktiv hamkorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tizimli yondashuv asosida o‘qituvchining pedagogik faoliyatini loyihalashtirish zamonaviy ta’lim jarayonida muhim vazifalardan biridir. Innovasion texnologiyalardan samarali foydalanish esa ushbu jarayonning sifatli tashkil etilishiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv nafaqat ta’lim mazmunini yaxshilaydi, balki o‘qituvchining ijodiy va professional salohiyatini ham rivojlantiradi.

Pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida innovasion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirib, ta’lim muassasalarida modulli va integratsiyalashgan halqaro dasturlarni bosqichma-bosqich joriy etib borilsa maqsaga muvofiq sanaladi.

Adabiyotlar

1. Al-Maverdiy. “Adab ad-dunya wa ad-din”. — Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1992 .
2. Jabborov A.M. Milliy psixologiyaning shakllanish manbalari. -Qarshi: “Nasaf”, 2017. -72 b.
3. Ibn Sino. “Ash-shifo” (Ruh bo‘limi). — Bayrut: Dar al-Afaq al-Jadida, 1983.
4. Rumiy J. “Masnaviy Ma’naviy”. — Istanbul: Irfan Yayinlari, 2001.
5. Forobiy A.N. “Fozil shahar ahli haqida” // Toshkent: Fan, 1993.
6. G‘azzoliy A.H. “Ihyo ulumiddin”. — Qohira: Dar al-Ma’rifa, 1967.
7. Nishanova Z. et al. Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya //T-2013. – 2011.

ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В ВУЗЕ

Мансурова Гульмира Рафаэловна
преподаватель кафедры Психология
Наманганский государственный
университет, Узбекистан.

Аннотация*: В статье рассматриваются особенности обучения в вузе психологических дисциплин с применением интерактивных методов обучения. Исследовательская деятельность основана на теоретическом анализе научной и методологической литературы. Акцент в статье сделан на сущность интерактивного метода обучения и его место в системе современного образования в высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *психология, профессиональное образование, методы обучения, интерактивные методы обучения.*

Annotatsiya: *Maqolada interaktiv o'qitish usullaridan foydalangan holda OTMda psixologik fanlarni o'qitishning xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot faoliyati ilmiy va uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilishga asoslangan. Maqolada asosiy e'tibor interfaol o'qitish usulining mohiyati va uning oliy o'quv yurtlarida zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rniga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar*: psixologiya, kasb-hunar ta’limi, o‘qitish metodi, interfaol o‘qitish usullari.*

Annotation: *The article discusses the features of teaching psychological disciplines at the university using interactive teaching methods. The research activity is based on the theoretical analysis of scientific and methodological literature. The article focuses on the essence of the interactive teaching method and its place in the system of modern education in higher education institutions.*

Key words: *psychology, vocational education, teaching methods, interactive teaching methods.*

В последние десятилетия интерактивные методы обучения стали все более популярными в высшем образовании, особенно при преподавании психологических дисциплин. Это связано с тем, что такие методы активизируют учебный процесс, способствуют лучшему усвоению материала и развитию критического мышления студентов. Интерактивные методы обучения позволяют привлечь внимание студентов и сделать учебный процесс более увлекательным, что способствует повышению мотивации к обучению и активной учебной деятельности. Кроме того, использование интерактивных

методов в преподавании психологии способствует развитию коммуникативных навыков студентов, улучшению их способностей к коллективной работе и повышению самооценки.

Исследования показывают, что применение интерактивных методов в обучении психологии способствует лучшему запоминанию информации и более глубокому пониманию темы, по сравнению с традиционными методами преподавания [3]. Это объясняется тем, что в процессе интерактивного обучения студенты активно участвуют на занятиях, выражают свои мысли и идеи, обсуждают проблемные вопросы и решают задачи, что способствует активизации их мыслительной деятельности.

Преимущества использования интерактивных методов в преподавании психологических дисциплин носят многосторонний характер и оказывают положительное влияние как на процесс обучения, так и на результаты обучения студентов. Одним из основных преимуществ является улучшение понимания материала благодаря возможности активного общения, обмена мнениями и идей между преподавателем и студентами, а также между самими студентами.

Кроме того, использование интерактивных методов обучения позволяет создать атмосферу взаимодействия и коллективного творчества, что способствует формированию у студентов навыков коммуникации, сотрудничества и аналитического мышления. Студенты, участвующие в интерактивных занятиях, чаще проявляют инициативу, самостоятельность и креативность в решении задач, что способствует развитию их критического мышления и способностей к саморегуляции.

Интерактивные методы обучения в преподавании психологических дисциплин способствуют развитию практических навыков у студентов, так как они часто включают в себя групповые задания, ролевые игры, обсуждение кейсов и другие формы, которые требуют применения знаний на практике. Это помогает студентам лучше усвоить и применить теоретические концепции и методы в реальных ситуациях, что повышает их профессиональную компетентность и готовность к будущей практической деятельности в области психологии.

В современном образовании наблюдается все более широкое внедрение интерактивных методов обучения в преподавании психологических дисциплин в вузах. Эти методы призваны активизировать учебный процесс, повысить вовлеченность студентов и способствовать более глубокому усвоению материала. Однако стоит рассмотреть их эффективность в сравнении с традиционными подходами.

Существует несколько типов интерактивных методов, которые могут успешно применяться в преподавании психологических дисциплин. Один из таких методов - дискуссия в группе. Студенты активно обсуждают тему занятия, делятся мнениями и анализируют различные точки зрения. Этот метод способствует развитию мышления, критического мышления, аналитических способностей и умению аргументировать свою позицию.

Кроме того, дискуссия стимулирует взаимодействие между студентами и учительским сообществом, создавая атмосферу взаимопонимания и уважения. Ещё одним типом интерактивного метода является использование игровых технологий в обучении. В рамках данного метода студентам предлагается участвовать в различных играх и симуляциях, которые помогают им углубленно понять и применить теоретические знания. Игровые методики способствуют более запоминающемуся усвоению материала, развитию логического мышления, рефлексии и способности применять полученные знания на практике.

Использование дискуссий, кейсов, ролевых игр и других интерактивных форм позволяет студентам применять теоретические знания на практике, развивать критическое мышление и коммуникативные навыки. Такой подход способствует глубокому пониманию и усвоению учебного материала.

Сравнение с традиционными методами, такими как лекции и чтение литературы, показывает, что интерактивные методы дают более высокие результаты в плане усвоения знаний и развития навыков [2., 32 с.]. Например, исследования показали, что студенты, задействованные в интерактивных учебных процессах, лучше понимают материал и проявляют больший интерес к изучаемой теме.

При успешном внедрении интерактивных методов обучения в преподавание психологических дисциплин в вузе важно следовать определенным рекомендациям, основанным на результаты исследований. Одной из ключевых рекомендаций является адаптация методов к конкретным потребностям и особенностям студентов. Различные группы студентов могут по-разному воспринимать и усваивать информацию, поэтому необходимо подбирать методы, которые наилучшим образом соответствуют их уровню знаний и психологическим особенностям.

Другим важным аспектом является взаимодействие преподавателя и студентов в процессе обучения. Интерактивные методы предполагают активное участие студентов в обсуждениях, дискуссиях, решении задач и т.д. Преподаватель должен создать поддерживающую и стимулирующую атмосферу, где студенты чувствовали себя комфортно и мотивировано.

Одним из ключевых аспектов интерактивного обучения является его ориентация на личностное развитие студентов. Это подтверждается работами таких ученых, как Т. В. Габай, Э.Ф. Зеер, А.М. Павлова, Э.Э. Сыманюк [1. 127 с.; 4. 163 с.], которые подчеркивают важность учета индивидуальных особенностей, обучающихся и создание условий для их активного участия в учебном процессе.

Также важно оптимально сочетать различные интерактивные методы. Например, можно использовать комбинацию лекций, дискуссий, групповых проектов, деловых игр, практических занятий и других форм обучения. Это позволит охватить разнообразные аспекты учебной программы и удовлетворить различные предпочтения студентов.

Ещё одним важным моментом является оценка эффективности использования интерактивных методов. Преподаватели должны проводить регулярные оценки результатов обучения с целью выявления достигнутых целей и определения дальнейших направлений развития.

Необходимо учитывать доступность и простоту использования интерактивных методов. Технологии могут значительно облегчить процесс обучения, поэтому важно освоить различные онлайн-ресурсы, приложения и программы, которые смогут помочь в проведении интерактивных занятий [5, 6, 7, 8].

Таким образом, успешное внедрение интерактивных методов в преподавание психологических дисциплин в вузе зависит от комплексного подхода, учета особенностей студентов и оценки результатов обучения. Эти рекомендации могут способствовать эффективному и интересному процессу обучения студентов. Внедрение интерактивных методов обучения в учебный процесс по психологии является эффективным инструментом для повышения качества образования. Оно способствует развитию у студентов не только теоретических знаний, но и практических навыков, необходимых для успешной профессиональной деятельности. Важно отметить, что успешная реализация этих методов требует от преподавателей не только знаний и умений, но и готовности к постоянному саморазвитию и адаптации к изменениям в образовательной среде.

Литература:

1. Габай Т. В. Педагогическая психология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений/ Т. В. Габай. – 5-е изд., стер. –М.: Издательский центр «Академия», 2010. -240 с.
2. Гулакова М. В., Харченко Г. И. Интерактивные методы обучения в вузе как педагогическая инновация // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2013. – № 11 (ноябрь). – С. 31–35.
3. Двуличанская Н. Н. Интерактивные методы обучения как средство формирования ключевых компетенций // Наука и образование: электронное научно-техническое издание, 2011 http://technomag.edu.ru/doc/172651
4. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Сыманюк Э.Э. Модернизация профессионального образования: Компетентностный подход. – М.: МПСИ, 2005. – 216 с.
5. Мансурова, Г. Р. "ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛИЗАЦИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ." (2022): 366-368.
6. Мансурова Г. Р. Подросток и Интернет: как Интернет влияет на поведение подрастающего поколения //Экономика и социум. – 2023. – №. 1-1 (104). – С. 310-313.
7. Мансурова Г. Р. ОСОБЕННОСТИ Я–КОНЦЕПЦИИ ЛИЧНОСТИ, ПРОЯВЛЯЮЩИЕСЯ В ИНТЕРНЕТ–КОММУНИКАЦИИ //Ученый XXI века. – 2022. – №. 5-1 (86). – С. 52-54.
8. Мансурова Г. Р. ВЛИЯНИЕ «Я-КОНЦЕПЦИИ» НА КОММУНИКАТИВНЫЙ ПРОЦЕСС ЛИЧНОСТИ //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 169-173.
9. Mansurova G. R. FEATURES OF THE FORMATION OF VALUE ORIENTATIONS OF ADOLESCENTS.
10. Мансурова Г. Р. ВЛИЯНИЕ ПРОКРАСТИНАЦИИ И ЛЕНИ НА СФЕРУ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ //JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY. – 2024. – Т. 7. – №. 5. – С. 77-82.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TA’LIM VA PSIXOLOGIYANI O'QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Sharipova Umidaxon Qochqarboy qizi
Namangan davlat universiteti psixologiya kafedrasi stajor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: *maqolada ayni paytda mamlakatimizda milliy ta’lim siyosatida jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika pozitsiyasiga o‘tish bilan bog‘liq. Zamonaviy maktabning vazifalaridan biri ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining salohiyatini ochib berish, ularga ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatini berishdir. Ushbu muammolarni hal qilish ta'lim jarayonlarining o‘zgaruvchanligini amalga oshirmasdan mumkin emas, bu bilan bog‘liq holda chuqur ilmiy va amaliy tushunishni talab qiladigan turli xil innovatsion tip va turdagi ta'lim muassasalari paydo bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat. Innovatsiya, yangilik, holat, jamoa, inson, jarayon, qobiliyat, shaxs, intilish, axborot, qatlam.*

Аннотация: *В статье в настоящее время в нашей стране происходят серьезные изменения в Национальной образовательной политике. Это связано с переходом на позицию личностно-ориентированной педагогики. Одна из задач современной школы-раскрыть потенциал всех участников образовательного процесса, дать им возможность проявить свои творческие способности. Решение этих задач невозможно без реализации вариативности образовательных процессов, в связи с чем возникают различные инновационные типы и типы учебных заведений, требующие глубокого научного и практического понимания.*

Ключевые слова: *общество. Инновация, инновация, состояние, команда, Человек, процесс, способность, личность, стремление, информация, слой.*

Annotation*: at the same time in the article, serious changes are being made in the National Education Policy in our country. This is due to the transition to a person-oriented pedagogical position. One of the tasks of the modern school is to reveal the potential of all participants in the educational process, to give them the opportunity to show their creative abilities. Solving these problems is impossible without realizing the variability of educational processes, in connection with which various innovative types and types of educational institutions appear that require deep scientific and practical understanding.*

Keywords: *society. Innovation, Innovation, status, community, human, process, ability, personality, aspiration, information, layer.*

Jamiyatdagi ta'limning o‘zgaruvchan roli innovatsion jarayonlarning katta qismini belgilab beradi. Ilgari ta'limning so‘zsiz ko‘rsatmalari "hayotga tayyorlikni" ta'minlaydigan bilim, ko‘nikma, axborot va ijtimoiy qobiliyatlarni (sifatlarni) shakllantirish edi, bu esa o‘z navbatida shaxsning ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyati sifatida tushuniladi. Hozirgi vaqtda ta'lim ijtimoiy va individual ehtiyojlar o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan va o‘z-o‘zini rivojlantirish (o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash) mexanizmini ishga tushirish orqali shaxsning o‘z shaxsiyligini ro‘yobga chiqarishga va jamiyatni o‘zgartirishga tayyorligini ta'minlaydigan shaxsga ta'sir qilishning shunday texnologiyalari va usullarini yaratishga tobora ko‘proq e'tibor qaratmoqda. Ko‘pgina ta'lim muassasalari o‘z faoliyatiga ba'zi yangi elementlarni joriy qila boshladilar, ammo o‘zgarishlar amaliyoti jadal rivojlanishga bo‘lgan mavjud ehtiyoj va o‘qituvchilarning bunga qodir emasligi o‘rtasida jiddiy qarama-qarshilikka duch keldi. Axborot inson mehnatining asosiy sub'ektiga aylanib, mehnat jarayonining

mazmunini o‘zgartiradi va qaror qabul qilishda ishchi ishtirokini kengaytiradi. Ta'kidlanganidek, bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar ta'lim muammoli xarakterga ega bo‘lishi kerak, uning asosiy tamoyili o‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga va faol o‘qitish usullariga e'tibor qaratishdir.

Innovatsiya inson faoliyatining o‘ta murakkab va ko‘p qirrali hodisasi bo‘l ganligi sababli, uning turli xil tushunchalari va ta'riflari mavjud. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda "innovatsiya" atamasidan tubdan farq qilmaydigan bir qator atamalar qo‘llaniladi. Ular orasida “innovatsiya”, “innovatsiya”, “innovatsiya”, “ijodkorlik”, “kreativlik” va boshqalar bor. Innovatsiyalarni joriy etishning psixologik muammolarini N.I. Lapin, V.F. Galygin, E.T. Grebnev, Yu. Vooglaid, A.I. Prigojin, N.A.Ilyina, O.S. Sovet va xorijiy - K. Devis, T. Peters, R. Waterman, N. Tichy, M. Devanna kabi psixologlarning ilmiy izlanishlarida ko‘rishimiz mumkin. [1.45-b].

"Innovatsiya" atamasi "an'anaviy" sifatdoshining antonimi sifatida talqin qilinishi mumkin, bu bizning kontekstimizda odatiy, eng ko‘p uchraydigan usullar, usullar va o’qitish usullari to‘plamidan tashqariga chiqishni anglatadi. Bundan tashqari, M.V. Clarina, birinchi navbatda reproduktiv ta'limga qaratilgan o‘qitish usullari, usullari va yondashuvlariga an'anaviy yondashuvlar sifatida tasniflaydi.

Ta'limda ikkita yo‘nalishni ko‘rib chiqish tavsiya etiladi:

1. “An’anaviy ta’limni berilgan namunalarni o‘zlashtirishni samarali tashkil etish, aniq belgilangan me’yorlarga erishish ruhida modernizatsiya qilish.Ushbu yo‘nalish doirasida o‘quv jarayonini yangilash reproduktiv ta’limning an’anaviy didaktik vazifalariga, ta’limning “texnologik” konveyer jarayoni sifatidagi g‘oyasi, kutilayotgan natijaning batafsil tavsifi bilan yo‘naltirilgan.

2. Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv, bunda ta’limning maqsadi ijodiy va tanqidiy fikrlashni maqsadli rivojlantirish, o‘quv va tadqiqot faoliyati uchun tajriba va vositalar, rolli o‘yinlar va simulyatsiya modellashtirish asosida o‘quvchilarning yangi tajribalarni o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat”. [1, 101-bet]

An'anaviy ta'lim o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘rganish tushunchasining o‘ziga mos keladi, bu yana an'anaviy tarzda, guruhli ta'lim haqida gap ketganda, ijtimoiy-madaniy usullarni, bilim namunalarini bir shaxs yoki ularning jamoasidan boshqa shaxsga yoki shaxslarga o‘tkazish sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, bir tomondan, ijtimoiy-madaniy tajribaning uzluksizligi va uning tashuvchisi sifatida Inson ta'minlanadi, ikkinchi tomondan, inson faoliyati va rivojlanishining yangi ijtimoiy-madaniy usullarining paydo bo‘lishi va shu bilan ijtimoiy-madaniy muhitning o‘zgarishi uchun sharoitlar yaratiladi. An'anaviy ta'limning mohiyatini tavsiflash uchun buni "qo'llab-quvvatlovchi" an'anaviy ta'lim yondashuvi va "innovatsion" ta'lim turlarini farqlash orqali qilish yaxshidir. Yordamchi ta'lim - bu mavjud madaniyatni, ijtimoiy tajribani va ijtimoiy tizimni saqlash va ko‘paytirishga qaratilgan bunday ta'lim va natijada o‘quv faoliyatining jarayoni va natijasidir. Ta'lim va ta'limning bu turi ijtimoiy-madaniy tajribaning uzluksizligini ta'minlaydi va aynan shu tur maktab va universitet ta'limiga an'anaviy tarzda xosdir. Innovatsion ta'lim - bu mavjud madaniyat va ijtimoiy muhitda innovatsion o‘zgarishlarni rag‘batlantiradigan bunday ta'lim va tarbiya faoliyatining jarayoni va natijasidir [1,

p. 104]. Bundan ko'rinib turibdiki, an'anaviy "qo'llab-quvvatlovchi o‘qitish" paradigmasi asosidagi ta'lim texnologiyalari o‘quvchi tomonidan inson faoliyatining tayyor namunalarini uzatish, uzatish va ko‘paytirish printsipi asosida qurilgan. Bunday "ixtiyorsiz" o‘rganish o‘quvchining reproduktiv qobiliyatlarini, idrok etish, xotira va fikrlashning kognitiv stereotiplaridan tortib, ijtimoiy xulq-atvorning shaxsiy stereotiplarigacha bo‘lgan imtiyozli rivojlanishiga olib keladi. Bu yerda o‘quvchining ijodiy salohiyati, ishlab chiqarish qobiliyati va shaxsiyati mohiyatan o‘z-o‘zidan rivojlanadi.

Innovatsion ta'lim mavjud madaniyat va ijtimoiy muhitga tub o‘zgarishlar kiritishni, talabalar va jamiyat duch keladigan muammolarga pedagogik javoblarning harakatchanligini o‘z ichiga oladi. Ta'limning innovatsion turi o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan ijodiy izlanish bilan bog'liq. Innovatsionlik ta'limning o‘ziga xos xususiyati sifatida nafaqat didaktikaga, balki, birinchi navbatda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ta'lim natijalariga ham tegishlidir. Qabul qilingan fikrlash va xulq-atvor me'yorlarini etkazish bilan bog‘liq bo‘lgan an'anaviy ta'limdan farqli o‘laroq, bu ta'lim odamda yangi mahsulotlar, normalar, qoidalar yaratishga, shuningdek, boshqa odamlarning o‘xshash rivojlanishini tajovuzkor bo‘lmagan holda idrok etishga imkon beradigan fazilatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Oliy ta’limda innovatsion ta’lim modeli sharoitida psixologiyani o‘qitish tobora murakkablashib bormoqda. Zamonaviy o‘qituvchilar nafaqat o‘z ixtisosligi bo‘yicha malakali bo‘lishi va o‘qitiladigan fan bo‘yicha chuqur bilimlarni almashishga tayyor bo‘lishi, balki talabalarni o‘quv, ilmiy va mustaqil ishlarga faol jalb qilishni ta'minlaydigan yangi ta'lim texnologiyalariga ega b‘lishi kerak. Psixologiyani o‘qitish motivlar, vositalar, usullar va faoliyat natijalarining tegishli o‘zgarishi bilan etakchi o‘quv faoliyatidan kasbiy faoliyatga tabiiy o‘tishni ta'minlaydigan shunday treningni tashkil qilishni talab qiladi. Bunga faqat ta'limning barcha tarkibiy qismlarini kasbiy yo'naltirish tamoyilini amalga oshirish orqali erishish mumkin, bu bo‘lajak psixologga o‘z kasbiy malakasini oshirish, faol pozitsiyani egallashni o‘rganish, professional talab qilinadigan shaxsiy fazilatlarni shakllantirish imkoniyatini beradi. Psixologik fanlarni o‘qitishning innovatsion usullari kognitiv sub'ektning faolligi printsipiga asoslanadi. Shu bilan birga, trening ishtirokchilarining shaxsiy pozitsiyasi va hayotiy tajribasini faollashtirishning turli shakllari (yozma bayonotlar, dialog, muammoli vaziyatni jamoaviy hal qilish, guruh muhokamasi, guruhlararo hamkorlik va boshqalar) boshqa jihatda - psixolog shaxsini shakllantirishda ham harakat qiladi. Psixologiya o‘qitishning barcha usullarini uchta asosiy guruhga bo‘lish mumkin: dasturiy; muammoli; masofaviy; interaktiv. Psixologiyani o‘qitishga innovatsion yondashuvda ular odatda faol, dialogik o‘qitish usullari deb ataladi.

Innovatsiya - bu o‘zaro bog‘liq jarayonlar majmuasi bo‘lib, muammoni hal qilishga qaratilgan yangi g‘oyani kontseptuallashtirish, so‘ngra yangi hodisani amalda qo‘llash natijasidir. O‘quv jarayonidagi pedagogik innovatsiyalar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: o‘quv materialining mazmuni, texnik vositalar, pedagogik texnologiyalar va boshqalar.Biz texnologiyalar haqida

batafsilroq to‘xtalamiz. Innovatsion o‘qitish texnologiyalari tomon V.D. Simonenko quyidagilarni nazarda tutadi: interfaol ta'lim texnologiyalari, loyiha asosidagi o‘qitish texnologiyalari va kompyuter texnologiyalari. Psixologik ta'lim nazariyasida interfaol ta'lim insoniy munosabatlar psixologiyasiga asoslangan ta'limdir. Interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim faoliyati sub'ektlari sifatida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar jarayonida bilimlarni egallash, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish usullari sifatida qaraladi.

Ularning mohiyati shundan iboratki, ular nafaqat idrok, xotira, diqqat jarayonlariga, balki, birinchi navbatda, ijodiy, samarali fikrlash, xatti-harakatlar va muloqotga tayanadi. Bunda o‘quv jarayoni shunday tashkil etiladiki, o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilish, bir-birlari va boshqa odamlar bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar, tanqidiy fikrlashni o‘rganadilar, ishlab chiqarish vaziyatlari, vaziyatli kasbiy topshiriqlar va tegishli ma’lumotlar tahlili asosida murakkab masalalarni yechadilar.

Interfaol ta'lim texnologiyalarida o‘qituvchi va o‘quvchilarning roli, shuningdek, axborotning roli sezilarli darajada o'zgaradi. Ayrim interfaol ta’lim texnologiyalarining xususiyatlariga qisqacha to‘xtalib, ulardan pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida foydalanishga misollar keltiramiz. Muhokama (lotincha discio — tadqiqot, ko‘rib chiqish) — munozarali masalani ommaviy yig‘ilishda, yakka suhbatda, munozarada har tomonlama muhokama qilish. Boshqacha qilib aytganda, muhokama qaysidir masala, muammoni jamoaviy muhokama qilish yoki ma’lumotlar, g‘oyalar, fikr va takliflarni taqqoslashdan iborat. Munozara o‘tkazishning maqsadlari xilma-xil bo‘lishi mumkin: o‘rganish, o‘qitish, diagnostika, o‘zgartirish, munosabatlarni o‘zgartirish, ijodkorlikni rag‘batlantirish va boshqalar. O‘quv jarayonida muhokamani tashkil qilishda odatda bir vaqtning o‘zida bir nechta ta'lim maqsadlari qo‘yiladi, ular ham sof kognitiv, ham kommunikativdir. Shu bilan birga, muhokamaning maqsadlari, albatta, mavzu bilan chambarchas bog‘liq. Agar mavzu keng bo‘lsa va katta hajmdagi ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, muhokama faqat ma'lumot to‘plash va tartibga solish, muqobil variantlarni izlash, ularni nazariy talqin qilish va uslubiy asoslash kabi maqsadlarga erishish mumkin. Agar muhokama mavzusi tor bo‘lsa, muhokama qaror qabul qilish bilan yakunlanishi mumkin. Keling, ushbu texnologiyani seminarlarda qanday qollash mumkinligi haqidagi aniq misolni ko'rib chiqaylik. Talabalar guruhi (fakultetning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, guruh soni 12-14 kishidan iborat) 2 mikroguruhga bo‘lingan. Har bir mikroguruh muayyan pedagogik texnologiyani oladi. Topshiriq oldindan beriladi va talabalar tayyorlanish uchun vaqt topadilar. Ammo, mikro-guruhlar o‘z texnologiyalarini taqdim etishdan tashqari, raqib jamoa uchun raqib jamoa olgan texnologiyaning kamchiliklarini ta'kidlaydigan savollar tayyorlaydilar. Seminarning o‘zi davomida bir mikroguruh birinchi navbatda o‘z texnologiyasini taqdim etadi va raqib jamoa unga savollar beradi. Keyin ikkinchi mikroguruh o‘z texnologiyasini taqdim etadi va birinchi mikroguruh talabalari unga savollar berishadi. Odatda, javoblarni muhokama qilish juda qizg‘in kechadi, qo‘shimcha, aniqlovchi savollar tug‘iladi va raqib jamoa berilgan javobga rozi bo'lish yoki qo'shilmaslik huquqiga ega. Ish tugagach, mulohaza yuritish vaqti

keladi. Talabalar o'z ishlarini, mikroguruhning har bir a'zosining umumiy ishga qo'shgan hissasini, raqib jamoa o'quvchilarining ishlarini ham baholaydilar. Muhokama jarayonida o‘qituvchi koordinator va yordamchi vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Митина, Л. М. Профессиональная деятельность и здоровье педагога [Текст] / Л. М. Митина, Г. В. Митин, О. А. Анисимова ; под общ. ред. Л. М. Митиной. — М.: Академия. 2005. — 368 с.
2. Митина, Л. М. Психология труда и профессионального развития учителя [Текст.] / Л. М. Митина. — М.: Академия. 2004. — 320 с.
3. Мансурова, Г. Р. "ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛИЗАЦИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ." (2022): 366-368.
4. Орел, В. Е. Феномен выгорания в зарубежной психологии / В. Е. Орел // Психологический журнал. 2001. — Т. 22, № 1. С. — 90-110.
5. Осухова Н.Г., Работать без профессионального выгорания: тренинг тренеров // Социальная работа.- 2008.- №5. — с. 33-36
6. Панова, Н.В. Профессиональное развитие личности педагога/ Н.В. Панова// Вестник Томского государственного педагогического университета,. — 2012, № 2.- С . 32-38.
7. Пичугина, И.О. «Особенности эмоциональной сферы личности педагогов образовательных учреждений как фактор профессиональной успешности»/ И.О. Пичугина. — Санкт-Петербург. 2013. — 217 с.
8. Nishanova Z. et al. Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya //T-2013. – 2011.

YANGI O‘ZBEKISTONDA PSIXOLOGIYA TA’LIMIDA STRESSNI BOSHQARISH VA IJTIMOIY MUVOZANATNI TA’MINLASH

Najmidinova Guzal Axlitdinovna
Osiyo xalqaro universiteti magistri

***Annotatsiya**: Maqolada Yangi O‘zbekistonda psixologiya ta’limining zamonaviy tendensiyalari, stressni boshqarish mexanizmlari hamda ijtimoiy muvozanatni saqlashdagi psixologik ta’limning roli tahlil qilinadi. Oliy ta’limda psixologik ko‘nikmalarni shakllantirish, stress va deviant xulq-atvorni kamaytirish bo‘yicha pedagogik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar asosida ijtimoiy muvozanatni mustahkamlash yo‘llari muhokama qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** psixologiya, ta’lim, stress, ijtimoiy muvozanat, deviant, ma’naviyat, axloq, Yangi O‘zbekiston.*

***Аннотация:** В статье анализируются современные тенденции в психологическом образовании в Новом Узбекистане, механизмы управления стрессом, роль психологического образования в поддержании социального равновесия. Рассматриваются педагогические подходы к формированию психологических навыков в высшей школе, снижению стресса и девиантного поведения. Вместе с тем обсуждаются пути укрепления социального равновесия на основе духовности и нравственных ценностей.*

***Ключевые слова:** психология, образование, стресс, социальное равновесие, девиант, духовность, нравственность, Новый Узбекистан.*

***Annotation:** The article analyzes modern trends in psychology education in New Uzbekistan, stress management mechanisms, and the role of psychological education in maintaining social balance. Pedagogical approaches to the formation of psychological skills in higher education, reducing stress and deviant behavior are considered. At the same time, ways to strengthen social balance based on spirituality and moral values are discussed.*

***Keywords**: psychology, education, stress, social balance, deviant, spirituality, morality, New Uzbekistan.*

Psixologik ta’lim – bu nafaqat nazariy bilimlarni, balki shaxsning o‘z-o‘zini anglash, his-tuyg‘ularini boshqarish va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosatida psixologik ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor berilmoqda, chunki zamonaviy jamiyat sharoitida stress omillari ko‘paygan [2].

Oliy ta’limda stressni boshqarishning samarali usullari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi: psixologik treninglar, mindfulness (diqqatni jamlash), relaksatsiya texnikalari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari. Ushbu metodlar talabalar va o‘qituvchilarning psixologik barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Psixologik treninglar orqali shaxsning o‘zini baholash qobiliyati, stressga chidamliligi va ijtimoiy ko‘nikmalari yaxshilanadi[7]. Masalan, stressni boshqarish bo‘yicha treninglarda nafas olish mashqlari, musbat fikrlash usullari o‘rgatiladi. Bu usullar oliy ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilmoqda.

Shuningdek, Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish psixologik ta’limning muhim qismi hisoblanadi. Bu nafaqat stressni kamaytirishda, balki shaxsning ijtimoiy muvozanatini ta’minlashda ham yordam beradi.

Stress insonning tashqi va ichki muhitdagi qiyinchiliklar, bosimlar, talablar oldida psixofiziologik holatidir. Uzoq yillar davomida stress psixologiya va pedagogika sohalarida chuqur o‘rganilgan masala bo‘lib, uning boshqarilishi inson salomatligi va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Stress nazariyasida eng mashhur yondashuvlardan biri — Richard Lazarusning kognitiv baholash nazariyasidir. Unga ko‘ra, stress individning tashqi voqeani baholashidan kelib chiqadi. Agar vaziyatni shaxs o‘z qobiliyatlari bilan yengib o‘tish qiyin deb hisoblasa, stress yuzaga keladi[3].

Shuningdek, Hans Selye tomonidan ta’riflangan umumiy moslashuv sindromi (general adaptation syndrome) stressning uch bosqichini ko‘rsatadi: ogohlantirish, qarshi turish va charchash. Bu yondashuv stress jarayonining fiziologik va psixologik tomonlarini birlashtiradi.

Stressni boshqarish usullari psixologiyada ko‘plab tadqiq qilingan. O‘zbek olimlari ham stressni kamaytirish va oldini olishda psixologik treninglar, relaksatsiya metodlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini ta’kidlamoqda [1].

Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida talabalar va o‘qituvchilar uchun stressni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Ijtimoiy muvozanat — bu jamiyatdagi individual va guruhlararo munosabatlarning barqarorligi, ijtimoiy adolat va hamkorlik tamoyillarining amal qilishi holatidir. Bu muvozanat, ayniqsa, yoshlar orasida ruhiy salomatlikni ta’minlash va deviant xulq-atvorni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda yoshlar orasida deviant xulq-atvor holatlari kamayishiga qaramay, hali ham ayrim muammolar mavjud. Masalan, 2024-yilgi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi statistikasi bo‘yicha, yoshlar orasida jinoiy faoliyatga aloqadorlik darajasi 3,5% ni tashkil etdi, bu esa o'tgan 5

yilga nisbatan 1,2% ga kamaygan. Bu ko‘rsatkichlarni yaxshilashda psixologik ta’lim va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning roli katta[4].

Yangi O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy, oilaviy va kasbiy hayotda faolliklarini oshirayotgan bir paytda, ularning ruhiy salomatligi va stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish ayniqsa muhimdir. Milliy statistikaga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan qizlarning 68% i o‘zlarini vaqti-vaqti bilan stress holatida deb baholaydi[5].

Psixologik ta’limda ayollar uchun maxsus dasturlar joriy qilinmoqda. Masalan, Samarqand davlat universitetida “Ayollarda stressni boshqarish va ma’naviy barqarorlik” mavzusida seminarlari o‘tkazilmoqda. Ushbu seminarlarda qatnashgan 120 nafar ayollar orasida ruhiy salomatlikni yaxshilash va ijtimoiy muvozanatni ta’minlash ko‘rsatkichlari 30% ga oshgani qayd etilgan[6].

Psixologik ta’limning yana bir muhim jihati — bu ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini shakllantirishdir. Universitetlarda tashkil etilgan psixologik xizmatlar, maslahat markazlari va talabalar klublari orqali stressni boshqarish va ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga erishilmoqda. Misol uchun, Toshkent shahridagi bir nechta oliy o‘quv yurtlarida ochilgan “Ruhiy salomatlik markazlari” talabalar orasida psixologik yordam ko‘rsatmoqda.

Markazlar tomonidan 2023-yil davomida 1500 dan ortiq talabaga yordam berilgan bo‘lib, ulardan 70% i stress bilan bog‘liq muammolarni samarali hal qilgan. Bu ko‘rsatkichlar psixologik ta’limning ijtimoiy muvozanatni ta’minlashdagi samaradorligini isbotlaydi[8].

Xulosa

Yangi O‘zbekistonda psixologik ta’limni tashkil etish jarayoni ijtimoiy muvozanatni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Stressni boshqarish va deviant xulq-atvorni kamaytirish bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ishlar yoshlar va ayollar orasida ruhiy salomatlikni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik ta’lim dasturlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari yoshlarning muammolarini hal etishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, ayollarga qaratilgan maxsus psixologik dasturlar jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni oshirishga yordam bermoqda.

Shu nuqtai nazardan, psixologiya ta’limining yanada takomillashtirilishi, zamonaviy metod va texnologiyalarni joriy etilishi, shuningdek, ijtimoiy muvozanatni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishi dolzarbdir. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida psixologik ta’limga ustuvor e’tibor berilishi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev H., PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF COMBAT STRESS IN MILITARY SERVANTS, Академические исследования в современной науке 2 (4), 136-140
2. Stress va uning psixologik ta'siri: Zamonaviy yondashuvlar / F.M. Karimov, T.B. Mamatqulov. - 2021

3. Lazarus, R.S., & Folkman, S. (1984). Stress, appraisal, and coping. Springer Publishing Company.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (OIV). (2024). Yoshlar va jinoiylik statistikasi. Toshkent.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2023). Oliy ta’limda qizlarning ruhiy holati. Toshkent.
6. Samarqand davlat universiteti (SDU). (2024). Ayollarda stressni boshqarish bo‘yicha seminar hisobotlari
7. Smirnova, Z.V., Kamenez, N.V., Vaganova, O.I., Kutepova, L.I., Vezetiu E.V. (2019b). The experience of using the webinar in the preparation of engineering specialists. Amazonia Investiga, 8 (18), 279-287

O‘SMIRLARDA EMOTSIONAL-IRODAVIY JARAYONLARNING RIVOJLANISHIDA DINNING AHAMIYATI

Kamoldinov Anvarjon Ixvoljon o‘g‘li
NamDU Psixologiya kafedrasi
1-bosqich tayanch-doktoranti

Anotatsiya: *Mazkur maqolada o‘smirlik davrida yuzaga keladigan emotsional va irodaviy jarayonlarning shakllanishida dinning tutgan o‘rni tahlil etiladi. O‘smirlik inson hayotida eng muhim psixologik bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsiy o‘zlikni anglash, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlarga munosabat shakllanadi. Dinning ijtimoiy-axloqiy tamoyillari, ruhiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli, stress va ichki ziddiyatlarni yengishda tutgan o‘rni psixologik va pedagogik nuqtai nazardan yoritib berilgan. Maqolada diniy tarbiyaning o‘smirlar irodasini mustahkamlash, hissiy barqarorlikni rivojlantirish va ijobiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda bayon qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘smirlik psixologiyasi, irodaviy rivojlanish, diniy e’tiqod, emotsional barqarorlik, B. Spinoza, U, Djeyms, S. Xoll, V. Frankl, Dj. Fovler, logoterapiya, shaxsiy o‘zlik, ma’no izlash, iymon bosqichlari, psixologik ehtiyojlar, axloqiy shakllanish.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль религии в формировании эмоциональных и волевых процессов в подростковом возрасте. Подростковый возраст является одним из важнейших психологических этапов в жизни человека, в ходе которого формируются самосознание, отношение к нравственным ценностям и социальным нормам. С психологической и педагогической точек зрения освещаются социально-нравственные принципы религии, её роль в обеспечении духовной устойчивости, преодолении стресса и внутренних противоречий. В статье научно обоснована значимость религиозного воспитания в укреплении воли подростков, развитии эмоциональной стабильности и формировании позитивных личностных качеств.*

Ключевые слова: *Психология подросткового возраста, волевое развитие, религиозная вера, эмоциональная стабильность, Б. Спиноза, У. Джеймс, С. Холл, В. Франкл, Дж. Фаулер, логотерапия, личностная идентичность, поиск смысла, стадии веры, психологические потребности, нравственное становление.*

Annotation: *This article examines the role of religion in the formation of emotional and volitional processes during adolescence. Adolescence is one of the most crucial psychological stages in a person's life, during which self-awareness, attitudes toward moral values, and social norms are shaped. The article highlights, from psychological and pedagogical perspectives, the socio-moral principles of religion and its role in ensuring spiritual stability, coping with stress, and resolving internal conflicts. The significance of religious education in strengthening adolescents' willpower, developing emotional stability, and fostering positive personal qualities is scientifically substantiated.*

Keywords: *Adolescent psychology, volitional development, religious belief, emotional stability, B. Spinoza, W. James, G. S. Hall, V. Frankl, J. Fowler, logotherapy, personal identity, search for meaning, stages of faith, psychological needs, moral formation.*

O‘smirlik davri inson hayotida psixologik, emotsional va irodaviy jihatdan muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda shaxsiy o‘zlikni anglash, axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish va ichki irodani shakllantirish asosiy o‘rin tutadi. Ushbu maqolada aynan o‘smirlik davrida dinning emotsional va irodaviy rivojlanishga ta’siri turli psixologik nazariyalar asosida tahlil qilinadi. “Teologik-siyosiy traktat” asarida B. Spinoz din, inson tafakkuri va jamiyatdagi dinning psixologik va siyosiy o‘rni haqida chuqur fikr yuritib, dinni psixologik zarurat sifatida tushuntiradi. “Spinozaga ko‘ra, din insondagi xavotir va noaniqlik holatlariga psixologik javob sifatida shakllanadi. Odamlar dinga ko‘pincha qo‘rquv, johillik va umidsizlik tufayli suyanadilar. Din ularning xavotir va noaniqlik bilan kurashishiga yordam beradigan emotsional-sentimental tizimdir”[1]. Bu jihatdan din terapevtik funksiyaga ega. “Spinoza diniy e’tiqod asosan emotsiyalarga asoslanganini ta’kidlab, aql bilan e’tiqodni farqlaydi. Unga ko‘ra, aql e’tiqodni har doim tushuntira olmaydi” [1]. Dindorlik ko‘pincha psixologik ehtiyojlarning mahsulidir — masalan, xavfsizlik, ma’no izlash, yoki jazodan qochish. Spinoza emotsional sohani (affektlar) haqida o‘zining "Etika" asarida chuqur tahlil qilib, odamlar o‘zlarini hayotdagi quvonch, qo‘rquv, g‘azab kabi kuchli emotsiyalar orqali boshqarishadi. “Dinning asosiy funksiyalaridan biri — inson emotsiyalarini (affektlarini) boshqarish va nazorat qilishdir” [2]. “Spinozaga ko‘ra, gunoh hissi va najot umidi orqali din odamlarni axloqiy chegarada ushlab turadi” [3].

U. Djeyms dinni shaxsiy tajriba sifatida o‘rganadi. Unga ko‘ra, din — bu insonning hayotining ichki, shaxsiy va psixologik tomoni bilan bog‘liq bo‘lgan holatdir. Din bu yerda psixik uyg‘unlik va umid keltiradigan vosita sifatida ishlaydi. U pragmatizm tarafdori sifatida dinning terapevtik rolini va ba’zan ruhiy inqiroz davrida najot yo‘li bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. “Agar diniy e’tiqod inson hayotiga tinchlik, kuch va barqarorlik olib kelsa — u haqiqiydir. Uning foydasi uning haqiqatidan muhimroqdir” [4].

G. S. Xoll amerikalik psixolog, pedagog va dinshunos bo‘lib, u o‘smirlik psixologiyasi va diniy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rgangan. U o’zining "O‘smirlik " (1904) asarida din inson ongining tabiiy taraqqiyotida insoniy ehtiyojlarning psixologik ifodasi sifatida paydo bo‘lishini ta’kidlaydi. Ayniqsa, u o‘smirlik davrini diniy uyg‘onishning eng faol davri deb biladi. Bu yoshda din bilan bog‘liq tajribalar kuchli emotsional ta’sirga ega bo‘ladi va inson ruhiyatida chuqur o‘zgarishlar, axloqiy savollar, va diniy his-tuyg‘ular kuchayadigan bosqichdir. Xoll inson ruhiy hayotida diniy tuyg‘u va e’tiqodlar evolyutsion tarzda rivojlanadi deb hisoblaydiva quyidagi uchta davrga ajratadi:

1) Bolalik: taqlidiy e’tiqod

2) O‘smirlik: emotsional va axloqiy savollar, ichki izlanish

3) Kattalik: aqliy, falsafiy yondashuv

“O‘smirlik — bu ‘ikkinchi tug‘ilish’ davri bo‘lib, aynan shu bosqichda diniy his-tuyg‘ular kuchayadi va axloqiy savollar yuzaga chiqadi” [5]. O‘smirlik — bu

tabiiy tarzda emotsional portlashlar, keskin ruhiy o‘zgarishlar va ijtimoiy ziddiyatlar bilan kechadigan davr. Biroq, u bu holatlarni normal deb bilgan va bu davrning to‘g‘ri boshqarilishi orqali sog‘lom shaxs shakllanishiga xizmat qilishini ta’kidlagan. O‘smir hayot, jamiyat, din, axloq, do‘stlik va sevgiga doir chuqur ma’nolarni izlay boshlaydi. O‘smirlik davrida yoshlar o‘zlariga mos guruh topishga intiladilar (do‘stlar, sinfdoshlar, ijtimoiy guruhlar). Bu orqali ular o‘zlarini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishadi. Jamoa o‘smirga: qo‘llab-quvvatlash, qabul qilinish va o‘z qadrini his qilish imkonini beradi. Ba'zida o‘zini jamoadan ajratib qo‘yish yoki o‘z yo‘lini tanlashga harakat qiladi. Bu individuallashtirish (shaxs sifatida ajralib chiqish) ehtiyojidan kelib chiqadi. O‘zini alohida sezish orqali o‘smir: "Men kimman?", "Men boshqalardan qanday farqlanaman?" degan savollarga javob izlaydi. O‘‘smirlar ko‘p hollarda o‘zlarini boshqalar bilan taqqoslaydi. Jamoada qanday ko‘rinish berayotgani, qabul qilinayotgani haqida chuqur o‘ylaydi. Bu esa ularda ijtimoiy o‘rin topish yoki alohida bo‘lish ehtiyojlarini uyg‘otadi. Xollga ko‘ra o‘smir har xil ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi: ba’zan “jamoada”, ba’zan “yolg‘iz”, ba’zan “etakchi”, ba’zan “qabul qilinmagan” bo‘ladi. Bu orqali u o‘zining jamoaviy va shaxsiy o‘rnini aniqlashga harakat qiladi. O’smirlarda kuzatilingan psixik holatlardan biri idealizmga moyillikdir, bu hayotni, odamlarni yoki dunyoni mukammal, adolatli, to‘g‘ri shaklda ko‘rishga intilish; real holatlarga nisbatan yuqori axloqiy yoki tushunchaviy talablar qo‘yishdir. Idealizmga moyillik — S. Xoll bo‘yicha o‘smirlikning tabiiy va muhim bosqichidir. Bu holat axloqiy uyg‘onish, hayotiy maqsadni topish, shaxs sifatida shakllanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. S.Xoll idealizmni o‘smirga xos kuchli his qilish va orzu qilish qobiliyati sifatida baholaydi — ammo u hali hayot tajribasi kamligi sababli, bu orzular bilan haqiqat to‘qnashganda ichki ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkinligini ham eslatadi. S.Xoll bo‘yicha, din — psixik energiyaning yo‘naltirilgan shakli. Dinni Xoll “psixik energiyaning ruhiy sublumasiyasi” deb hisoblaydi. Jinsiy energiya, agressiya va boshqa kuchli ichki kuchlar ibodat, najot, fidoyilik kabi diniy shakllarga aylanadi. “Diniy hislar o‘smir ruhiyatida estetik va axloqiy ehtiroslar bilan uyg‘unlashgan holda paydo bo‘lad” [6]. Ko‘plab o‘smirlar bu davrda din bilan jiddiy tanishadi, tush ko‘radi, ilhomlanadi, vahiyga o‘xshash hissiyotlar kechiradi, Xudo bilan “shaxsiy aloqa” tuyg‘usini his qiladi. Xoll diniy konversiyaga psixologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq ruhiy tajriba sifatida qaraydi. S. Xoll uchun din — bu o‘smir ruhiyatida yuz beradigan kuchli emotsional, jinsiy, ma’naviy va axloqiy kuchlarning uyg‘un ifodasidir. U dinni inson psixologiyasidagi eng chuqur ehtiyojlar — ma’no izlash, umid qilish, poklanish, tegishlilik, va o‘zini yuksak kuch bilan bog‘lash ehtiyojlarining psixologik ifodasi deb qaraydi.

Avstriyalik mashhur nevrolog va psixoterapevt Viktor Frankl (1905–1997) inson psixologiyasida iroda va ma’no izlashning chuqur bog‘liqligini tahlil qilgan. U yaratgan logoterapiya yo‘nalishi insonning asosiy psixik ehtiyoji sifatida “hayotning ma’nosini topish”ga urg‘u beradi. “Inson hayotida azob yoki rohat emas (Freyd va Adler tomonidan ilgari surilgan), balki hayotning chuqur ma’nosini izlash asosiy harakatlantiruvchi kuchdir” [6]. Frankl inson ruhiyatida ma’naviy komponentning o‘rni juda muhim ekanligini ta’kidlaydi. U “ma’naviy men”

tushunchasini kiritgan bo‘lib, bu shaxsning tanasi va psixikasidan ustun, iroda va axloqiy tanlovlar uchun mas’ul bo‘lgan ichki yadrosi hisoblanadi. Aynan mana shu “ma’naviy men” orqali inson irodasini ishga soladi, qiyinchiliklarga bardosh beradi va o‘z hayotiga ma’no yuklaydi. Frankl Ikkinchi jahon urushi paytida konslagerlarda kechirgan hayotiy tajribalarini asos qilib, inson og‘ir azob va tahdidli sharoitlarda ham yashashga bo‘lgan ichki iroda kuchi, sabr-toqat va ruhiy bardoshlilik orqali omon qolishi mumkinligini isbotlagan. “Agar inson nima uchun yashashini bilsa, u qanday qilib yashashni bardosh bilan o‘rganadi” [60]. Bu fikr iroda va ma’naviyatning ajralmas birligi, ya’ni irodaning ichki manbai sifatida ma’noni tushunishga asoslangan. Franklga ko‘ra, inson hayotda qanday vaziyatda bo‘lmasin, u har doim tanlov huquqiga ega — u har qanday holatda ham o‘zini tutish, chidash, kechirish yoki harakat qilishga qaror qila oladi. Bu esa irodaning eng muhim ifodasi hisoblanadi. Logoterapiya amaliyotida bemorlarga hayotlarining ma’nosini qayta ochish, mavjudlikda chuqur mazmun topish orqali stress, ruhiy bosim, depressiya va g‘am-anduhlarni yengib o‘tishda yordam beriladi. Bu jihatlar ayniqsa o‘smirlar uchun dolzarb bo‘lib, hayot mazmunini anglash, axloqiy qadriyatlar va ma’naviy tayanchlar asosida iroda kuchini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, Viktor Franklning qarashlari shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy qadriyatlar va hayotiy ma’no insonning irodasini shakllantirish va mustahkamlashda asosiy omillardan biridir.

Amerikalik mashhur din psixologi Djeyms Fovler (1940–2015) o‘zining “Iymon rivojlanish bosqichlari” nazariyasida inson hayotidagi diniy e’tiqod va ma’naviy shakllanish jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qilgan. “Iymon — bu nafaqat diniy tushuncha, balki insonning shaxsiy dunyoqarashi, axloqiy qarorlari, hayotiy maqsadlari va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantiruvchi ichki tizimdir” [7]. Fovler tomonidan taqdim etilgan olti bosqichli iymon rivojlanish modelida o‘smirlik davri to‘rtinchi bosqich — ya’ni “individuallashgan va reflektiv e’tiqod bosqichi” sifatida belgilanadi. Bu bosqichda o‘smir ilgari oila, maktab yoki jamiyatdan o‘zlashtirgan diniy tushunchalarni endilikda tanqidiy mushohada orqali qayta baholay boshlaydi. Diniy qadriyatlar endi taqlid asosida emas, balki shaxsiy mulohaza, anglash va tanlov asosida shakllanadi. Bu esa iymonning shaxsiylashtirilgan, ongli shaklga kirishini bildiradi. Mazkur bosqich aynan irodaviy yetilish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. O‘smir ilk bora mustaqil fikrlay boshlaydi, o‘z qarorlarining natijasi uchun javobgar ekanligini his qiladi va diniy e’tiqod asosida o‘zini tuta bilish, sabr qilish, ichki intizomni saqlash kabi irodaviy fazilatlarni tarbiyalaydi. Fovler bu bosqichda inson o‘zining hayotiy yo‘lini, qadriyatlar tizimini va axloqiy pozitsiyasini mustaqil ravishda shakllantirishga harakat qilishini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, din o‘smirlik davrida faqat ijtimoiy yoki marosimiy hodisa bo‘lib qolmay, balki psixologik tayanch, ichki barqarorlik manbai, va eng asosiysi, irodani mustahkamlovchi omilga aylanadi. Ibodat, tavba, sabr, kechirimlilik, shukr, halollik kabi diniy qadriyatlar o‘smirning ichki dunyosida axloqiy tayanch sifatida shakllanib, turli hayotiy sinovlarda o‘zini tutish, maqsadli harakat qilish, mas’uliyatni his etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Fovlerning nazariyasi zamirida yotgan asosiy g‘oya shundaki, shaxsning iymoni va

irodasi bir-birini to‘ldiradi: ongli diniy e’tiqod o‘smirni axloqiy tanlovga, sabrli bo‘lishga, ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga yo‘naltiradi. Bu esa uni mustaqil, iroda kuchiga ega bo‘lgan shaxs sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi. Fovlerning iymon rivojlanish nazariyasi asosida aytish mumkinki, o‘smirlik — bu shaxsda diniy e’tiqod va irodaviy fazilatlar bir-biriga uyg‘unlashadigan muhim bosqichdir. “Individuallashtirilgan e’tiqod insonni axloqiy tanlov qilish, ichki intizom va mas’uliyatni anglashga undaydi” [7]. Din bu jarayonda o‘smirga hayotda yo‘nalish topish, axloqiy qarorlar qabul qilish, o‘zini nazorat qilish va maqsadga erishish kabi irodaviy imkoniyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘smirlik davri shaxsiy o‘zlikni anglash, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish hamda ichki iroda va emotsional barqarorlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, diniy qadriyatlar o‘smir shaxsining irodasini mustahkamlash, axloqiy me’yorlarga amal qilish, emotsional muvozanatni saqlash va hayotiy maqsadlarni aniqlashda psixologik tayanch sifatida xizmat qiladi. Din o‘smirlik davrida faqat tashqi marosimlar emas, balki ichki ruhiy rivojlanishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralishi zarur. Shu bois, o‘smirlarning sog‘lom ruhiy-irodaviy shakllanishida diniy-ma’naviy tarbiyaning roli beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Spinoza, B. (2001). *Theological-Political Treatise* (S. Shirley, Trans.). Indianapolis: Hackett Publishing Company. (Asl nusxasi 1902-yilda nashr etilgan.)
2. Spinoza, B. (1996). *Ethics* (E. Curley, Trans.). London: Penguin Classics.
3. Nadler, S. (2006). *Spinoza's Ethics: An Introduction*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. James, W. (2002). *The Varieties of Religious Experience: A Study in Human Nature*. New York: Modern Library. (Asl nusxasi 1902-yilda nashr etilgan.)
5. Hall, G. S. (1904). *Adolescence: Its Psychology and Its Relations to Physiology, Anthropology, Sociology, Sex, Crime, Religion, and Education* (Vols. 1–2). New York: D. Appleton and Company.
6. Frankl, V. E. (2006). *Man’s Search for Meaning* (I. Lasch, Trans.). Boston, MA: Beacon Press. (Asl nusxasi 1946-yilda nashr etilgan.)
7. Fowler, J. W. (1981). *Stages of Faith: The Psychology of Human Development and the Quest for Meaning*. San Francisco: Harper & Row.
8. Курбанова З. Касбий аутоидентификация шаклланишининг босқичлари //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II. – С. 175-179.
9. Nishanova Z. et al. Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya //T-2013. – 2011
10. Mansurova G. R. FEATURES OF THE FORMATION OF VALUE ORIENTATIONS OF ADOLESCENTS.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ: СВЯЗЬ ЛИЧНОСТНОЙ КРЕАТИВНОСТИ С ВЫБОРОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ.

Агзамова Малика Муратовна
Доцент кафедры, Педагогики и психологии
Филиала РГПУ им.А.И.Герцена в г.Ташкенте
Нарчаев Артур Тахирович
Студент 3 курса
Филиала РГПУ им.А.И.Герцена в г.Ташкенте

Аннотация: *Данное исследование направлено на изучение связи между личностной креативностью и выбором профессиональной деятельности у студентов-психологов. Исследование проводилось с использованием методик: "Диагностика личностной креативности Е.Е. Туник"[1] и "Методика изучения статусов профессиональной идентичности" [2]., они направленны на оценку. Полученные результаты установили взаимосвязь между личностной креативностью и предпочтительности профессиональной деятельности студентов и предложить профессии, соответствующей их личностной креативности и предпочтениям.*

Ключевые слова: *креативность, личностная креативность, профессия, профессиональная деятельность, студент.*

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot psixologiya talabalari o'rtasida shaxsiy ijodkorlik va kasb tanlash o'rtasidagi o‘zaro aloqadorlik munosabatini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi metodikalar qo‘llanildi: E.E. Tunikning «Shaxsiy ijod diagnostikasi» [1] va A.A. Azbel, A.G. Gretsovning «Kasbiy identifikatsiya maqomlarini o'rganish metodologiyasi» [2]. Tadqiqot doirasida olingan natijalar psixologiya yo‘nalishi talabalari o'rtasida shaxsiy ijod va kasb tanlash o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi va ularga shaxsiy ijodi va afzalliklariga mos keladigan kasbni taklif qildi.*

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, shaxsiy ijodkorlik, kasb, kasbiy faoliyat, talaba.*

Annotation: *This study aims to examine the relationship between personal creativity and the choice of professional activity among psychology students. The study was conducted using the methods: "Diagnostics of personal creativity E.E. Tunik" [1] and "Methodology for studying the status of professional identity" [2], they are aimed at assessing. The results obtained established a relationship between personal creativity and the preferences of students' professional activities and offer a profession that matches their personal creativity and preferences.*

Key words: *creativity, personal creativity, profession, professional activity, student.*

В современном обществе выбор профессиональной деятельности является одним из ключевых моментов в жизни большинства людей. Есть те, кто стремиться к стабильности и выбирает уже освоенные профессии, дабы на их жизненном пути не возникали непредсказуемые задачи. В то же время есть и те, кто стремится к творчеству, инновациям и новым непредсказуемым решениям, они интересуются сферами, требующими высокого уровня креативности. Один из таких потенциальных путей - профессия психолога.

Психология представляет собой такую сферу деятельности, в которой важен творческий подход к решению различных видов задач. Однако, не каждый студент-психолог имеет возможность предложить что-то новое или же усовершенствовать то, что уже есть на данный момент.

Креативность — творческие способности человека, которые могут проявляться в мышлении, чувствах, общении, отдельных видах деятельности, характеризовать личность в целом и/или ее отдельные стороны, продукты деятельности, процесс их создания [3].

Одним из основных временных рамок развития креативности является обучение в университете, где происходит интеграция креативного мышления в учебную и профессиональную среду. Креативный подход в работе способствует удовлетворению различных потребностей, таких как самоактуализация, самовыражение, достижение целей и развитие личности. Выбор профессиональной деятельности является одним из важнейших этапов

в жизни студента-психолога, поскольку от этого выбора зависит не только его будущая карьера, но и личностная удовлетворенность работой.

Для изучения связи между личностной креативностью и выбором профессиональной деятельности разработаны различные методики.

Одна из них - диагностики личностной креативности Франка Вильямса (под модификацией Елены Евгеньевны Туник), которая позволяет оценить уровень креативности человека и выявить его склонности к инновациям и оригинальным решениям.

Другая методика, изучающая выбор профессиональной деятельности разработанная Азбель Анастасией Анатольевной, при участии Грецова Андрея Геннадьевича-кандидатом психологических наук, доцентом кафедры психологии развития и образования РГПУ им. А.И.Герцена, основана на исследовании статусов профессиональной идентичности. Данная методика позволяет понять, насколько вы готовы к самоопределению в жизни путем выбора профессии. Исследование связи между личностной креативностью и выбором профессиональной деятельности у студентов-психологов позволяет понять, насколько они склонны к выражению своей креативности в рамках данной профессии. Это может помочь в дальнейшем развитии профессиональной сферы и образования для студентов-психологов, а также в определении их потенциала в сфере современной психологии.

Исследование проводилось на базе Филиала РГПУ им. А. И. Герцена в г. Ташкенте. Участие принимали студенты направления «Психология человека и социального взаимодействия» 2 курса, в количестве 12 человек.


Целью исследования явилось изучение структуру связей статусов профессиональной идентичности и параметров креативности у студентов-психологов. В ходе диагностики личностной креативности Е.Е. Туник студентам было предложено ответить на 50 вопросов, давая понятие каждому из них, не задумываясь на долго. Были предложены варианты ответов: "да", "нет" или "не знаю". Данная методика заняла 23 минуты. Результаты данного исследования в Таблице 1.

Таблица 1.

Преобладающие факторы креативности у студентов-психологов

Факторы креативности	Студент (кол-во)
1.Склонность к риску	6
2.Любознательность	6
3.Сложность	2
4.Воображение	0


Диаграмма 1.



Высокая общая оценка студентов, связана с уверенностью в своих способностях. Такие студенты часто проявляют творческий подход к решению проблем, они любознательны и стремятся к новым знаниям и опыту. У таких студентов в большей мере развито воображение, которое позволяет им видеть вещи по-новому и находить нестандартные решения, которое может помочь им в студенческой жизни, а в дальнейшем и в своей профессиональной работе. Такие личностные факторы, как позитивные чувства по отношению к себе, творческий подход, любознательность, воображение и способность к риску, обычно связаны с творческими способностями студента.

В процессе проведения методики "Методика изучения статусов профессиональной идентичности", направленной на изучение статусов профессиональной идентичности, был предложен опросник, состоящий из 20 вопросов. Каждый вопрос предлагал четыре варианта ответов A, B, C и D. По результатам проведения данной методики было выявлено, что у 50% студентов сформированная профессиональная идентичность, у остальных 50% мораторий/кризис выбора.

Диаграмма 3.



Мораторий/Кризис выбора: Такое состояние характерно для людей, которые еще не определились в своей профессиональной деятельности и

пытаются принять осмысленное решение о своем будущем. Эти студенты размышляют о возможных вариантах профессионального развития, стремятся как можно больше узнать о разных специальностях. На этой стадии чаще всего складываются шаткие отношения с родителями. Взаимопонимание может сменяться полным непонимание. Как правило, большая часть людей после «кризиса выбора» переходит к состоянию сформированной идентичности, реже к навязанной идентичности.

Студенты с сформированной профессиональной идентичности характеризуются тем, что они готовы совершить осознанный выбор своего профессионального развития или уже совершили. Этим статусом обладают те студенты, которые прошли через «кризис выбора» и самостоятельно сформировали систему знаний о себе и о своих профессиональных ценностях.

По окончанию исследования выявилось, что студенты-психологи с более высоким уровнем креативности могут искать необычные и нетрадиционные способы применения своих навыков и знаний. Это может говорить о том, что креативные студенты-психологи с сформированной профессиональной идентичностью имеют больше шансов стать успешными профессионалами. Это связано с их способностью придумывать новые методы работы и подходы к решению проблем клиентов.

Важно помнить, что процесс поиска профессиональной идентичности может быть индивидуальным и уникальным для каждого человека.

Связь между личностной креативностью и выбором профессиональной деятельности у студентов-психологов представляет интерес для дальнейших исследований. Понимание этой связи может помочь студентам в осознанном выборе будущей профессии и позволить высшим учебным заведениям разрабатывать более эффективные программы подготовки.

Список литературы:

1. Диагностика личностной креативности (Е.Туник) // StudFiles URL: https://studfile.net/preview/8889734/page:52/
2. Методика изучения статусов профессиональной идентичности (А.А. Азбель, А.Г. Грецов) // StudFiles URL: https://studfile.net/preview/8889734/page:52/
3. Большой психологический словарь / [Авдеева Н. Н. и др.] ; под ред. Б. Г. Мещерякова, В. П. Зинченко. - 4-е изд., расш. - Москва : АСТ ; Санкт-Петербург : Прайм-Еврознак, 2009. - 811 с.; 26 см. - (Большая психологическая энциклопедия).; ISBN 978-5-17-055693-9 (АСТ)
4. Быкова, Е. А. (2015) Особенности профессионально важных качеств психолога. Вестник Шадринского государственного педагогического института, № 3(27), с. 108–115.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA VIRTUAL OLAM TA’SIRINI O’RGANISH MASALALARI

Omonova S.M.
Qo’qon davlat pedagogika instituti
“Psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi (PhD)
Xamrayeva Sh. Sh.
“Amaliy psixologiya” yo’nalishi talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqola virtual olam ta'sirini o'rganishning psixologik masalalari mavzusiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada virtual olam tushunchasi va uning mohiyati, interner va inson munosabatlari, axborotlar va ularning inson ongiga ta'siri, internetga tobelik va uni keltirib chiqaruvchi omillar, o'smirlik yoshida virtual olam ta'siriga berilishning psixologik o'ziga xosliklari, virtual olam ta'siridan himoyalashning psixologik yo'llari kabi masalalar ham keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Virtual olam, axborot, yoshlar, o'smir yoshlar, psixologik himoyalanish, internet tarmog'i, media olam, kompyuter, kiberxavflar, psixologik baholash, shaxslararo munosabatlar, yoshlg'izlik, axborot texnologiyalari, axborot jamiyati.*

Аннотация. *Данная статья посвящена теме психологических проблем изучения эффектов виртуального мира. Также в статье рассматриваются понятие виртуального мира и его сущность, внутренние и человеческие отношения, информация и ее влияние на сознание человека, зависимость от Интернета и факторы, ее вызывающие, психологические особенности воздействия виртуального мира в подростковом возрасте. и психологические способы защиты от влияния виртуального мира.*

Ключевые слова: *Виртуальный мир, информация, молодежь, подростковая молодежь, психологическая защита, сеть Интернет, медиамир, компьютер, киберриски, психологическая оценка, межличностные отношения, молодежь, информационные технологии, информационное общество.*

Annotation. *This article is devoted to the topic of psychological problems of studying the effects of the virtual world. The article also discusses the concept of the virtual world and its essence, internal and human relations, information and its impact on human consciousness, dependence on the Internet and the factors that cause it, the psychological characteristics of the impact of the virtual world in adolescence. and psychological ways of protection from the influence of the virtual world.*

Key words: *Virtual world, information, youth, adolescent youth, psychological protection, Internet, media world, computer, cyber risks, psychological assessment, interpersonal relations, youth, information technologies, information society.*

O'tgan asrning eng katta kashfiyotlaridan biri bu - virtual tarmoq, ya'ni internet tarmog'ining yaratilishi bo'ldi. Mazkur tarmoq qisqa vaqt oralig'ida televidenie, radio, gazeta va ko'plab ilmiy va ommabop jurnallarni orqada qoldirdi. Hozirgi vaqtga kelib, dunyo miqyosida, son-sanoqsiz odamlar internet tarmog'i xizmatlaridan keng ko'lamda foydalanmoqdalar, o'zaro axborotlar almashib, o'z bilimlarini oshirishmoqdalar shu bilan birga, turli hayotiy, kasbiy, masalalarni zudlik bilan hal kilmokdalar. Bir so'z bilan aytganda, yoshidan, qaysi ijtimoiy guruh yoki qatlamga mansubligidan qat'iy-nazar, internetdan foydalanuvchilarning soni kun-sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, voyaga yetmagan yoshlar guruhi sonining ortib borayotganligi bunga yaqqol misoldir. Shu bois ham, virtual olam ta'siridan yoshlarni himoyalash, ularning zamonaviy axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish, inson ongiga ta'sir etuvchi salbiy axborot oqimining o'ziga xosliklarini ilmiy o'rganish, virtual olamga tobe bo'lishning psixologik, pedagogik sabab va oqibatlarini aniqlashtirish shuningdek, virtual olamga bog'lanib qolishning salbiy oqibatlari yuzasidan, ta'lim muassasalarida keng qamrovli tashviqot ishlarini olib borish, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar turkumidan biridir.

N.A.Nosovaning tarificha, virtual olam vositalari – bu yangi axborot texnologiyalari, axborot qidiruv va uzatish tizimlari shubhasiz, yaqin kelajakda

mutlaq erkinlik darajasiga yetadi. Ushbu keng ko'lamli axborot tuzilmalari bilan bir qatorda, unga aloqador yana bir tizim – virtual olam ta'siri ham yanada ortadi1. Virtual olam – bu insonga ko'rish, eshitish, hidlash, teginish va boshqa hislar orqali taqdim etilgan texnik vositalar yordamida yaratilgan dunyodir deb ta'kidlaydi E.D.Nevesenko. Virtual olamning ta'siri o'smirlar xulqida "simulyatsiya" reaktsiyasi sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni bu o'smirning virtual olam hodisalariga taqlid qilishi yoki ularni o'zlashtirish bilan yakun topadi. Ayrim ilmiy manbalarda yozilishicha, virtual olam – bu axborot texnologiyalari orqali, insonlarning xohishiga ko'ra, vaqt-makon muhitini o'zgartirish orqali shakllanadigan, yangi sun'iy illyuziyali olamdir. I.A.Nikolaevning yozishicha, mazkur "olam" mazmunida inson o'z haqiqiy dunyosiga o'xshash yoki undan juda farq qiluvchi ko'plab taqlid qilinadigan tajribalarni boshdan kechirishi mumkin. Virtual olam vositalari o'yin-kulgi (ayniqsa, video o'yinlar), ta'lim va o'qitish (til o'rganish, ta'lim olish) va biznes masalalari (masalan, virtual uchrashuvlar, yangi loyihalar) kabilarni o'z ichiga olgan texnologik majmuallar to'plamidir.

I.A.Lipkovning asarlarida keltirilishicha, insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichida bir qancha axborot yutuqlari qo'lga kiritilgan yani: Ulardan birinchisi, axborotni yozish orqali avloddan-avlodga yetkazishdir. Ikkinchisi esa, nashriyotlarning paydo bo'lishidir. Uchinchi yutuq – bu elektr energiyasining paydo bo'lishi natijasida hosil bo'lgan telefon, televizor, radio va boshqalar. 20 asr oxiridan paydo bo'lgan to'rtinchi yutuq esa, kompyuter texnikasining tarmoq texnologiyasi bilan integratsiyalashuvi oqibatida shakllangan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nomi bilan mashhur bo'lgan, yangi axborot yutug'idir1. Demak, hozirgi kunda ushbu axborot yutug'i – hayratlanarli o'zgarishlar ortida turgan asosiy kuchga aylanib ulgurdi. Tadqiqotchi A.B.Sorokinaning tahliliga ko'ra, "Axborot jamiyati" tushunchasi o'tgan asrning 70-yillarida yapon olimlari tomonidan taklif qilingan. Hozirda ushbu ilg'or g'oya insoniyat sivilizatsiyasi, ilm-fan va ta'limning yuksalishiga, davlat ijtimoiy-siyosiy tuzilishining taraqqiyotiga va barqaror rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatib, ko'plab mamlakatlar e'tiborini o'ziga torta oldi2. G'oyaning asosini esa, virtual olamda mujassam bo'lgan axborot texnologiyalari tashkil etadi. Va u hozirgi kunda butun dunyoda favqulodda sur'atlar bilan tez rivojlanib bormoqda.

Virtual olamga qaram bo'lgan o'smir yoshlar birinchi navbatda, kognitiv, motivatsion va xulq-atvor sohalarida o'zgarishlarga uchraydi. Shu bilan birga, motivatsion vaziyatda qaram ob'ektga haddan tashqari, hissiy munosabat paydo bo'ladi, boshqa ob'ektlarga nisbatan, qaram ob'ekt haqidagi fikrlar ustuvorlik qiladi, o'smir xulq-atvorida himoya mexanizmi bo'lgan, tajovuzkor xatti-harakatlar kuchayadi. Demak, "virtual" so'zining birinchi lug'aviy ma'nosiga qaraydigan bo'lsak, u «ko'rinmas» degan ma'noni bildiradi. Bu so'zni yanada soddalashtirsak, insonning internetdagi axborotlarga mukkasidan ketishi oqibatida real hayotdan uzilishi, odamlarga ko'rinmay, o'zi bilan o'zi qolishdir. Ikkinchi lug'aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, internetdagi voqealar bizga voqeiy (real) bo'lib ko'ringan, lekin vazifalari boshqa moslamalar orqali bajarilgani uchun xam, u virtual, ya'ni butunlay boshqa olamdir. Bundan tashqari, tadqiqot doirasidagi ma'lumotlarni

yanada kengroq yoritishish maqsadida, “virtual olam” iborasi bilan birga “kibermakon” atamasiga ham e’tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kibermakon (ingl: cyberspace) tushunchasi kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson tomonidan 1984 yili “Cyberspace” (Kibermakon) deb nomlangan trilogiyasi, birinchi romanining “Neuromancer” chop etilishi bilan bog’liq3. U dunyoning barcha kompyuterlaridagi elektron ma’lumotlar aylanib yuradigan virtual makonni ta’riflaydi. Demak, hayotda hamma narsa paydo bo’lishining asosiy sabablari bor. Hech bir narsa besabab vujudga kelmaydi. Insonlarning eng asosiy kamchiliklarimizdan biri bu, agar jamiyatda jinoyat sodir bo’lsa, birinchi navbatda jinoyatchini jazolaymiz. Ya’ni ko’pincha jinoyatning oqibati bilan ko’proq kurashamiz. To’g’ri, jinoyatga jazo muqarrar. Lekin jinoyatning paydo bo’lish sabablari bir chekkada qolib ketadi. Jinoyatning sodir bo’lish sabablari, omillari, ya’ni ildizini topsak, ko’plab turdagi jinoyatlarni oldini olgan bo’lamiz. Bundan tashqari, o’smir yoshlarning virtual olamga bog’lanib qolishining qator ijtimoiy –

psixologik sabablari ham ajratib o’tiladi. Tadqiqotchi L.P.Shipovskayaning so’zlariga ko’ra, mazkur sabab va oqibatlar quyidagilarda o’z aksini topadi1:

– Oilada sog’lom psixologik muhitning yo’qligi, ya’ni farzand tarbiyasidagi bo’shliqning mavjudligi;

– Ota onalarning o’z farzandlariga e’tiborsizligi, farzandiga yetarli darajada mehr bermasligi, ularning qiziqishlari bilan umuman qiziqmasligi oqibatida, o’smir yoshlar ko’pincha, o’zlariga darddosh, sirdosh bo’ladigan insonni virtual olamdan qidirib topishga majbur bo’lish holati;

– Virtual olam – bu avlodlar o’rtasidagi ya’ni kattalar va yoshlar o’rtasidagi munosabat muhitining buzilish nuqtasi ekanligi;

– Yoshlarning qarashlarida yer yuzini virtual olam qamrab olgan yoki unda real hayotdan farq qiluvchi qoidalar, maqsadlar, yangi virtual munosabatlar majumi aks etganligi holati. Demak, o’smir yoshlar ushbu yangi muhit qoidalarida, ular o’zlari uchun muhim sanalgan eng qiziqarli, eng munosib xatti – harakatlar shakllari tanlaydilar. Har qanday faoliyat kabi, u ham o’ziga xos motivatsion asosga egadir. Insonning virtual tarmoqqa bog’lanishining motivatsiyasi o’rgangan tadqiqotchilar orasida A. Ye. Voyskunskiy va O. V. Mitina, A.A. Arestovalarning ishlarini alohida e’tirof etish mumkin. Mualliflarga ko’ra, virtual olam bog’lanishning quyidagi motivlarini ajratishga harakat qiladilar2:

– Biznes motivi. Ko’pchilik iste’molchilar uchun internetda ishlash – bu aniq maqsadga, ya’ni natijaga erishishga qaratilgan professional xizmatning tuzilgan qismidir. Bu ma’lum bir ma’lumotni izlash, ma’lum bir shaxs bilan o’zaro munosabat o’rnatish va aloqa qilish, ma’lum bir bo’lim ishini tashkil etish va boshqalar. Bunda muayyan biznes natijalariga yo’naltirilgan biznes, motivatsiyasining ko’rsatkichi bo’lib xizmat qiladi;

– Kognitiv motivlar. Bu motivlar yangi bilimlarni egallash bilan bog’liq motivlardir. U axborot iste’molchilarning kognitiv imkoniyatlari yo’nalishiga qarab, u turli xil xususiyatlarga ega bo’lladi. Kompyuter tarmog’idagi kognitiv aloqa predmetlari – bu yangi xizmat imkoniyatlari, turli gipermatnli ma’lumotlar, yangi odamlar, yangi g’oyalar va fikrlar, vizual va eshitish tasvirlari va boshqalar;

– Muloqot motivi (kommunikativ motiv). Bu yangi tanishlar, o’z qiziqishlarga yaqin insonlarni izlash, fikr almashish bilan tavsiflanadi. Bunday motivlar insonning tabiiy ehtiyoji bilan uzviy bog’liq bo’lgan - bilim, fikr, his-tuyg’ularning o’ziga xos shakllaridan iboratdir;

– Hamkorlik qilish motivi. Odamlarga xizmat ko’rsatishning eng ko’p turi yoki tuzilishidan qat’i-nazar, ijtimoiy xususiyatga ega xizmatlardir. Internetda ishlash jarayonida, mijozlarning boshqalar bilan hamkorlik qilishga bo’lgan munosabati, hamkorlik motivlarining ko’rsatkichi bo’lib xizmat qiladi;

– O’z-o’zini kashf qilish motivi. Bunday motivlar chuqur psixologik hodisalar va fenomenologik tarkiblarga asoslanadi. Ya’ni o’zini o’zi qadrlash, davogarlik darajasi, muvaffaqiyat motivatsiyasi va boshqalar. Inson faoliyati juda tez-tez muvaffaqiyatli bo’ladi, lekin inson o’z qadr-qimmatini o’ziga va boshqalarga isbotlay olishi lozim. Mazkur motivlar guruhi sub’ektning shaxsiy qadriyatlari turiga qarab, turli xil faoliyat turlarida amalga oshiriladi;

– Dam olish motivi va o’yin motivi. Qoidaga muvofiq, o’yin va dam olish har bir inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. O’yinlar va dam olish motivlari, mehnat qilishga qaratilgan imkoniyatni me’yorlashdan tashqari, faoliyatning yangi turlarini o’zlashtirish, o’qitish va o’z qobiliyatlarini sinab ko’rish, raqobatlashish kabi holatlarga ham uzviy aloqador sanaladi. Virtual makonda har bir kishi, o’ziga eng ma’qul va qiziqarli bo’lgan o’yin turini topishi mumkin;

– Qo’shilish motivi. Mazkur motivlar inson faoliyati va uning xulq-atvorining ijtimoiy mazmunini aks ettiradi. Bunda shaxsning ma’lum bir guruhga mansub bo’lishi, uning qadriyatlarini qabul qilishi va ularga rioya qilishi, guruh tarkibida o’z o’rnini egallash kabi holatlarda o’z aksini topadi;

– O’z-o’zini rivojlantirishga qaratilgan motivlar. Virtual tarmoq iste’molchilarining katta qismi, undagi manfaatli jihatlarni yaxshi tushunishadi.

Umuman olganda, virtual olam ta’siri muammosi fanlararo tadqiqotlarning predmeti sanalib, unda axborotlarning inson ongiga ta’sir etishining psixologik, pedagogik, biologik, etnomadaniy jihatlari kabilar alohida hisobga olinadi. Shu bois ham, bu borada kengroq psixologik tadqiqotlar olib borish, yoshlarni virtual olam ta’sirlaridan himoyalash yuzasidan, psixologik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ishlari o’ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Виртуальная реальность: философские и психологические проблемы Текст. / Под. ред. Н. А. Носова. М.: Центр виртуалистики ИЧ РАН, 1997. – С.38.

2. Невесенко Е. Д. Влияние виртуальных сетевых сообществ и сети интернет на развитие социальной активности молодежи : Автореф. дис. ... канд. фи-лос. наук / Е. Д. Невесенко. - СПб., 2014. – С.15.

3. Николаев И. А. Виртуальность как естественнонаучный, технический и культурный феномен: дис. ... канд. филос. наук / И. А. Николаев. - Саратов, 2004. – С.52.

4. Липков А. И. Ящик Пандоры: феномен компьютерных игр в мире и в России / А. И. Липков. - М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – С.43.

5.Сорокина А. Б. Интернет в жизни современных детей и подростков: проблема и ресурс / А. Б. Сорокина // Современная зарубежная психология. -2015. - Т. 4. - 1. - С.45-64.

6.Гибсон У. Нейромант. М.: ООО «Издательство АСТ»; Спб.: Terra Fantastica, 2000. – С.66.

7. Шиповская Л.П. Виртуальная реальность. Потребность в новых информационных технологиях // Сервис PLUS. – 2010. – № 4. – С.36 – 45.

8. Войскунский А. Е., Митина, О. В., Аветисова, А. А. Общение и «опыт потока» в групповых Интернет-играх / А. Е. Войкунский, О. В. Митина, А. А. Аветисова // Психол. журн. - 2005. - Т. 17. - № 5. - С. 47 - 63.

TALABALARDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda psixologik innovatsion yondashuvning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarning ta'siri, psixologik metodlar va axloqiy tarbiya bilan integratsiyalashuvi muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *axloqiy qadriyatlar, psixologik innovatsiya, talim, tarbiya, ta'lim metodlari.xulq-atvor, empatiya, refleksiya.*

Аннотация. *В статье освещаются значение и особенности психологического инновационного подхода в формировании нравственных ценностей, учащихся в современном образовательном процессе. Также рассматривается влияние инновационных подходов, их интеграция с психологическими методами и нравственным воспитанием.*

Ключевые слова: *моральные ценности, психологическая инновация, образование, воспитание, методы обучения. поведение, эмпатия, рефлексия.*

Abstract. *This article highlights the importance and specific features of the psychological innovative approach in the formation of students' moral values in the modern educational process. The impact of innovative approaches, their integration with psychological methods and moral education are also discussed.*

Keywords: *moral values, psychological innovation, education, upbringing, educational methods. behavior, empathy, reflection.*

Kirish.Global axborot maydonining kengayishi, madaniy xilma-xillik va ijtimoiy dinamikaning kuchayishi sharoitida axloqiy qadriyatlarning shakllanishi yoshlarda mustahkam ichki e'tiqod va ma'naviy immunitetning garovi bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion psixologik yondashuvlardan foydalanish axloqiy tarbiyani samarali yo'lga qo'yishda muhim omillardan biridir. Zamonaviy ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni axloqiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllantirishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. Xususan, yoshlar — talabalar — axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy normalar va shaxsiy xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtiradigan eng faol bosqichda turadi. Ana shunday bosqichda innovatsion va psixologik yondashuvlar asosida olib boriladigan o'qitish ularga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida oliy ta'lim muassasasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasi va ta'sirchanlik ko'lamini oshirish, talabalarda qadriyatlarga bo'lgan hurmatni yanada rivojlantirish, talaba-yoshlarning tafakkurida amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usini

kuchaytirish, axborot muhitida ular duch kelayotgan ma’lumotlar bazasidan oqilana foydalanish va to’g’ri qabul qila olish, talabalar ong-u tafakkuridagi ma’naviy bo’shliq o’rnini ma’naviy yetuklik kompetensiyasi, axloqiy barkamollik orqali to’ldira olishlikni tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-Qarorida “Yoshlarni ma’naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi, 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”[1] gi, 2021 yil 26 martdagi PQ5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[2]gi qarorlari, 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son qarori bilan “Ta’lim to‘g’risida”[3] gi qonun, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[4] gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-80-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g’risida”[5] gi Farmonlarida talaba-yoshlarni ma’naviy kamoloti, ma’naviy yetuklik darajasini oshirish xususida qilinadigan chora-tadbirlar belgilangan.

Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar doirasida talabalarning ta’lim muassasalarida ham axloqiy jihatdan xulq-atvori va xatti-harakatlarni nazorat qilishini, o‘z-o‘zini boshqarishini rivojlantirib borishimiz mumkin.

Talabalik davri shaxsning jiddiy shakllanish bosqichidir. Bu davrda inson ongli ravishda ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtiradi, ma’naviy e’tiqodini mustahkamlaydi va hayotiy qarashlarini shakllantiradi. Axloqiy qadriyatlar esa jamiyatda insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi, shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni ifodalovchi me’yorlardir.O‘qitish jarayonida har bir fanning psixologik ta’sirini o‘rganib tahlil qilish lozim.

Psixologik innovatsion yondashuv – bu o‘quv jarayoniga yangi, ilg‘or psixologik texnologiyalarni integratsiyalash orqali talabalarning psixik holati, ehtiyojlari va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim berishdir [6]. Psixologik innovatsion yondashuvli o‘qitish jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1.	Trening texnologiyalari	Talabalar va o‘quvchilar bilan olib boriladigan maxsus mashg‘ulotlar orqali o‘ziga ishonch, jamoada ishlash, ijtimoiy muloqot va stressni boshqarish ko‘nikmalari shakllantiriladi.
2.	Psixodrama va ro‘l o‘ynash usullari;	Hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarda qaror qabul qilish va mas’uliyatni anglash ko‘nikmalari shakllanadi;

3.	Kognitiv-emotsional yondashuvlar;	Empatiya va o‘zaro hurmatni rivojlantirish orqali ijtimoiy axloqiy me’yorlar tushuntiriladi; Emotsional-intellektual rivojga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar
4.	Reflektiv va muammoli ta’lim.	Har bir mashg‘ulotdan so‘ng o‘quvchi o‘z fikrini bildiradi, baho beradi, bu esa o‘z-o‘zini anglash va ijobiy o‘zgarishlarga turtki beradi.
5.	AKT va interaktiv metodlardan foydalanish	Raqamli muhitda ishlash, masofaviy interaktiv dasturlar, psixologik diagnostika uchun onlayn testlar tizimga kiritiladi.

O‘qitish jarayonida o‘qituvchi psixologning roli juda muhim sanaladi, chunki talaba bilan individual yoki jamoaviy ishlaganda ularning ichki holatini hamda ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonini, ko‘rsatkichlarni kuzatib tahlil qilib boradi.

Psixologik innovatsion yondashuvlarda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabaning ichki dunyosini anglovchi, uning shaxsiy rivojiga yordam beruvchi murabbiy rolini bajaradi. U axloqiy qadriyatlarni o‘rgatishda o‘zi namunali shaxs bo‘lishi, ochiqlik va samimiylik bilan munosabat qurishi zarur [7].

Talabalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Psixologik innovatsion o‘qitish metodlari bu jarayonni samarali tashkil qilishga xizmat qiladi. Bunda har bir talabaning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasi chuqur tahlil qilinishi lozim. Ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi, interaktivlik va psixologik qo‘llab-quvvatlash asosida olib borilishi esa axloqiy tarbiyaning sifatini oshiradi.

Xulosa. Psixologik innovatsion o‘qitishning ta’siri talabalarga axloqiy normalarni amaliy faoliyat orqali o‘rgatadi. Masalan, treninglar, bahs-munozaralar orqali faoliyat olib boorish yuqori natija beradi. Shu bilan birga talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali ham salbiy his-tuyg‘ularni boshqarishga yordam berish mumkin. Psixologik innovatsion yondashuv-guruhiy ishlarda faol ishtirok etishni kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanishini, motivatsiya va o‘zini anglashini, o‘z kuchiga ishonch va mas'uliyat hissi shakllanishi, agressiv xatti-harakatlar oldini olishi, psixoprofilaktik mashg‘ulotlar yordamida muammoli xulq-atvorni barvaqt aniqlash va ijobiy yo‘naltirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3- maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307- son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079 – son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26- martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son Qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021 yil 27 mart, № 62 (7842).

3. O’zbekiston Respublikasi Ta’lim to’g’risidagi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313- son)

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son

Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son
5. O’zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida.
6. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по педагогическим и психологическим направлениям и специальностя. Изд. 2-е, доп., испр. и перераб. – М.: Университетская книга; Логос, 2008. – 382 с. – С. 98.
7. Mardanov Sh. Pedagog kadrlarni ta’limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2006. – B. 302.
8. Abduqodirov A.A. – Pedagogik innovatsiyalar asoslari. Toshkent: TDPU, 2020.
9. Turaqulov E. – Psixologik ta’lim texnologiyalari. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
10. Jo‘rayev N. – Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda axloqiy tarbiyaning o‘rni. Toshkent: Ma’naviyat, 2019.

LANGUAGE ANXIETY AND SPEAKING FLUENCY: A PSYCHOLINGUISTIC ANALYSIS OF UZBEK LEARNERS OF ENGLISH

Avazjon Aminjonov, PhD in English Linguistics
Kangwon National University, South Korea
Ganiev Akhrorjon, Doctoral student of
Andijan State University, Social Psychology.
Ethnopsychology

Annotation: *This study explores the impact of language anxiety on speaking fluency among Uzbek learners of English. Drawing on psycholinguistic theories, it investigates how anxiety affects lexical retrieval, speech rate, and coherence during oral communication. The research involves a sample of intermediate and advanced EFL learners from Uzbekistan and employs both quantitative surveys and qualitative speech analysis. Results are expected to highlight key psychological barriers to fluency, providing insights into how anxiety manifests in spoken English performance. The findings aim to contribute to better pedagogical approaches in ESL classrooms, focusing on reducing anxiety to enhance verbal proficiency.*

Keywords: *language anxiety, speaking fluency, Uzbek EFL learners, psycholinguistics, lexical retrieval, oral performance, ESL education*

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqotda ingliz tilini o‘rganuvchi o‘zbek talabalarining so‘zlashuv ravonligiga til bilan bog’liq xavotirning ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada psixolingvistik nazariyalar asosida til bilan bog’liq xavotir, leksikaning o’ziga xos jihatlari, nutq tezligi va izchilligiga qanday ta’sir qilishi yoritib o’tilgan. Tadqiqot O‘zbekistonlik o‘rta va yuqori darajadagi ingliz tili o‘rganuvchilari ishtirokida olib borilgan hamda so‘rovnomalar va nutq tahliliga asoslangan. Kutilayotgan natijalar, lingvistik ravonlikka psixologik to‘siqlarni ochib berib, ESL (Ingliz tili ikkinchi til sifatida) darslarida xavotirni kamaytirish bo‘yicha samarali uslublarni taklif etishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *til bilan bog’liq xavotir, so‘zlashuv ravonligi, o‘zbek EFL o‘quvchilari, psixolingvistika, og‘zaki nutq, ESL ta’limi*

Аннотация: *Данное исследование направлено на изучение влияния языковой тревожности на беглость речи у узбекских изучающих английский язык. Основываясь на психолингвистических теориях, исследование анализирует, как тревожность влияет на извлечение лексики, темп речи и связность в устной коммуникации. В исследовании участвуют учащиеся среднего и продвинутого уровней из Узбекистана. Применяются количественные опросы и качественный анализ речи. Ожидаемые результаты позволят*

выявить ключевые психологические барьеры к беглой речи и предложить эффективные педагогические методы снижения тревожности в обучении английскому языку.

Ключевые слова: *языковая тревожность, беглость речи, узбекские изучающие EFL, психолингвистика, извлечение лексики, устная речь, обучение ESL*

Introduction

In the realm of second language acquisition, speaking fluency is considered one of the most challenging yet vital skills to master. While grammar and vocabulary can be taught through structured lessons, fluency in oral communication is significantly influenced by psychological factors. Among these, language anxiety has emerged as a key barrier, particularly for learners from non-English speaking backgrounds such as Uzbekistan. Language anxiety is defined as the tension and apprehension associated with second language communication, especially in speaking tasks. It can manifest in various forms—ranging from hesitation and reduced fluency to avoidance of speaking altogether.

For Uzbek EFL (English as a Foreign Language) learners, the challenge is often compounded by limited real-life exposure to English-speaking environments, making speaking practice both intimidating and stressful. This study focuses on understanding how language anxiety influences fluency, considering psycholinguistic mechanisms such as lexical retrieval difficulty, speech pauses, and disrupted coherence. Previous studies have established a negative correlation between anxiety and performance, yet contextual and cultural differences necessitate focused research within specific learner groups.

By adopting a psycholinguistic lens, this paper aims to provide a detailed analysis of the internal cognitive processes affected by anxiety during English speech production. It also seeks to examine practical implications for language educators, particularly in designing classroom interventions that reduce anxiety and support fluency development. Ultimately, the findings aim to contribute to both theoretical understanding and practical strategies that can empower Uzbek EFL learners to speak with greater confidence and clarity.

Literature Review

The relationship between language anxiety and speaking fluency has been a focal point in second language acquisition (SLA) and psycholinguistics for several decades. One of the foundational studies in this area was conducted by Horwitz, Horwitz, and Cope (1986), who conceptualized Foreign Language Anxiety (FLA) as a distinct set of self-perceptions, beliefs, and behaviors related to classroom language learning. Their Foreign Language Classroom Anxiety Scale (FLCAS) has since become a widely used instrument for assessing anxiety in EFL contexts.

Subsequent research has explored how language anxiety affects various linguistic skills, with speaking being most vulnerable. MacIntyre and Gardner (1994) found that anxiety interferes with the retrieval of learned vocabulary and reduces working memory capacity during speech production, resulting in disrupted fluency. Similarly, Gregersen and Horwitz (2002) argued that anxious learners are more prone to self-monitoring and fear of negative evaluation, which contributes to speech hesitations and avoidance.

Psycholinguistically, anxiety is believed to impact the speed and accuracy of lexical retrieval, an essential component of fluent speech. Segalowitz (2010) distinguishes between "cognitive fluency" (mental efficiency) and "utterance fluency" (observable speech performance), suggesting that anxiety primarily hinders cognitive fluency, which then affects verbal output.

In Central Asian contexts, including Uzbekistan, research on language anxiety remains limited but growing. Studies by Uzbek scholars (e.g., Rakhimova, 2020) have shown that sociocultural factors, teacher behavior, and peer interaction play crucial roles in heightening or alleviating anxiety. Furthermore, the lack of authentic speaking environments contributes to performance-based anxiety, especially in formal assessments.

Despite these contributions, there is a noticeable gap in psycholinguistic studies focusing specifically on Uzbek EFL learners. This study aims to bridge that gap by combining quantitative and qualitative methods to assess how language anxiety influences speaking fluency in real-time speech tasks, thus adding to the broader literature on anxiety and SLA with a culturally contextualized lens.

Findings and Discussion

The present study investigates the psycholinguistic effects of language anxiety on the speaking fluency of Uzbek EFL learners. Data were collected from 75 undergraduate students enrolled in English language programs at two universities in Uzbekistan. A mixed-method approach was employed: first, participants completed the Foreign Language Classroom Anxiety Scale (FLCAS) to assess their anxiety levels. Second, they were asked to perform two speaking tasks — a structured monologue and a spontaneous dialogue — which were recorded and later analyzed for fluency indicators such as speech rate, pause frequency, and lexical diversity.

Quantitative analysis revealed a strong inverse correlation between FLCAS scores and overall speaking fluency. Learners with higher anxiety levels tended to speak more slowly, use more filler words (e.g., "uh," "um"), and experience longer pauses between words and phrases. These results are consistent with earlier findings by MacIntyre and Gardner (1994), suggesting that language anxiety impairs the automaticity of speech production, likely by overloading working memory and increasing cognitive self-monitoring during performance.

Qualitative findings further support this interpretation. Interviews with a subset of participants indicated that highly anxious students often fear making mistakes, which leads them to overthink their sentences before speaking. This, in turn, disrupts the natural flow of conversation. One participant stated: “I know the words in my mind, but when I start to speak, I freeze because I think I will say something wrong.” Another added: “I’m afraid my classmates will laugh if I mispronounce a word.”

Psycholinguistic analysis of the recorded speech samples showed notable differences in lexical retrieval speed between low-anxiety and high-anxiety participants. Those with lower anxiety produced speech with greater lexical variety and fewer retrieval delays. In contrast, anxious speakers often relied on simple

vocabulary and repeated phrases, which indicates not only cognitive overload but also a strategy to avoid errors.

Additionally, cultural and educational factors were identified as contributing variables. The highly exam-oriented educational environment in Uzbekistan, combined with limited opportunities for informal English conversation, appears to exacerbate performance anxiety. Many students reported that their English-speaking experiences were mostly limited to classroom activities, which they perceived as judgmental or overly evaluative.

Interestingly, some coping strategies were also observed among participants. A few students reported using positive self-talk, breathing exercises, or focusing on content rather than accuracy to reduce anxiety during speaking tasks. These learners tended to perform better in terms of fluency, suggesting that cognitive-behavioral interventions might play a useful role in mitigating language anxiety.

The findings have several pedagogical implications. First, English language instructors should be aware of the psychological barriers that impact student fluency. Reducing the emphasis on error correction during speaking activities and creating a supportive classroom atmosphere may help decrease anxiety. Second, incorporating fluency-based exercises — such as timed speaking drills or peer discussions — can help build learners' automaticity and confidence. Finally, teacher training programs should include psychological awareness components to better equip educators in managing classroom anxiety.

In summary, the study confirms that language anxiety has a measurable and negative impact on speaking fluency among Uzbek EFL learners. The psycholinguistic evidence suggests that anxiety interferes with cognitive processes such as lexical retrieval, speech planning, and verbal execution. By addressing both the internal (psychological) and external (contextual) sources of anxiety, educators and policymakers can enhance English language instruction to promote fluency and communicative competence.

Conclusion

This study explored the psycholinguistic relationship between language anxiety and speaking fluency among Uzbek learners of English. The findings clearly demonstrate that language anxiety significantly hampers oral fluency, as evidenced by slower speech rates, increased hesitation, and reduced lexical diversity in high-anxiety participants. These results are consistent with established psycholinguistic theories that suggest anxiety disrupts working memory, impairs lexical retrieval, and increases cognitive load during speech production.

The analysis also revealed that language anxiety is not only a cognitive issue but is deeply influenced by socio-cultural and educational contexts. In particular, the performance-based, exam-driven language learning environment in Uzbekistan contributes to students' fear of negative evaluation, which in turn leads to over-monitoring and avoidance behaviors during speaking tasks. This highlights the need to address both internal psychological factors and external structural factors when aiming to improve learners' fluency.

Moreover, the study identified several coping strategies that helped some learners manage anxiety more effectively, such as self-regulation techniques and a focus on meaning over form. These insights suggest that targeted interventions — including anxiety-reducing classroom practices, positive reinforcement, and fluency-oriented speaking activities — can foster better speaking performance.

In conclusion, the psycholinguistic impact of language anxiety on speaking fluency should not be underestimated. Addressing it requires a comprehensive approach that combines psychological awareness, pedagogical sensitivity, and institutional support. For Uzbek EFL learners to become confident and fluent English speakers, their emotional and cognitive challenges must be acknowledged and systematically addressed. Future research could further examine intervention methods or longitudinal effects of anxiety on fluency development. This study thus contributes valuable insights to both applied linguistics and educational psychology by emphasizing the intricate interplay between emotional states and linguistic performance in second language acquisition.

References

1. MacIntyre, P. D., & Gardner, R. C. (1994). The subtle effects of language anxiety on cognitive processing in the second language. *Language Learning, 44*(2), 283–305. https://doi.org/10.1111/j.1467-1770.1994.tb01103.x
2. Ganiev, A. (2025). Community integration and psychological well-being: Addressing acculturative stress in South Korea's immigrant populations. *News of the NUUz, 1*(1.2.1), 74–75.
3. Öztürk, G., & Gürbüz, N. (2014). Speaking anxiety among Turkish EFL learners: The case at a state university. *Journal of Language and Linguistic Studies, 10*(1), 1–17.
4. Ganiev, A. (2024). The impact of immigration on language evolution and change: A psycholinguistic perspective. *University Research Base*, 956–960.
5. Scovel, T. (1991). The effect of affect on foreign language learning: A review of the anxiety research. In E. K. Horwitz & D. J. Young (Eds.), *Language anxiety: From theory and research to classroom implications* (pp. 15–24). Prentice Hall.
6. Ganiev, A. (2024). Cross-cultural pragmatic variation in complaint speech acts: A comparative study of Uzbek and American English discourse. *외국학연구 (Journal of Foreign Studies), (70)*, 11–52.
7. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign language classroom anxiety. *The Modern Language Journal, 70*(2), 125–132. https://doi.org/10.1111/j.1540-4781.1986.tb05256.x
8. Gregersen, T., & Horwitz, E. K. (2002). Language learning and perfectionism: Anxious and non-anxious language learners' reactions to their own oral performance. *The Modern Language Journal, 86*(4), 562–570. https://doi.org/10.1111/1540-4781.00161
9. Young, D. J. (1991). Creating a low-anxiety classroom environment: What does language anxiety research suggest? *The Modern Language Journal, 75*(4), 426–439. https://doi.org/10.1111/j.1540-4781.1991.tb05378.x
10. Ganiev, A. (2023). The role of directness level and social factors in the realization of complaining speech act: A cross-cultural study. *Interpretation and Researches, 1*(11).
11. Liu, M. (2006). Anxiety in Chinese EFL students at different proficiency levels. *System, 34*(3), 301–316. https://doi.org/10.1016/j.system.2006.04.004
12. Rakhimova, G. N. (2020). Foreign language anxiety among Uzbek university students: Causes and remedies. *Uzbekistan Journal of Foreign Language Teaching, 4*(1), 45–53.
13. Segalowitz, N. (2010). *Cognitive bases of second language fluency*. Routledge.

14. Krashen, S. D. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Pergamon Press.

O‘SPIRINLIK DAVRIDAGI DEPRESSIV HOLATLAR YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich
NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada depressiya hodisasi biopsixososial yondashuv asosida tahlil qilinadi. Depressiya nafaqat ruhiy tushkunlik, balki biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida yuzaga keladigan murakkab holat sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada depressiyaning sabablari, xususan, genetik moyillik, erta bolalikdagi travmalar, stress va miya kimyosidagi o‘zgarishlar atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, depressiyani yengishda kompleks yondashuv – dori vositalari, psixoterapiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovning ahamiyati ta’kidlanadi. Bolalikdagi hissiy muhitning ahamiyati va uni oldini olish choralariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Depressiya, stress, genetik moyillik, bolalik, travma, biopsixososial yondashuv, psixoterapiya.*

Annotation: *This article analyzes the phenomenon of depression through a biopsychosocial approach. Depression is viewed not merely as a state of emotional decline but as a complex condition resulting from the interaction of biological, psychological, and social factors. The article discusses various causes of depression, including genetic predisposition, early childhood trauma, stress, and neurochemical changes in the brain. It emphasizes the importance of a comprehensive treatment approach that combines medication, psychotherapy, and social support. Particular attention is given to the role of early emotional environments and preventive measures for mental disorders.*

Keywords: *Depression, stress, genetic predisposition, childhood, trauma, biopsychosocial approach, psychotherapy.*

Аннотация: *В данной статье феномен депрессии рассматривается с точки зрения биопсихосоциального подхода. Депрессия представляется не просто как эмоциональный спад, а как сложное состояние, возникающее в результате взаимодействия биологических, психологических и социальных факторов. В статье подробно анализируются причины депрессии, включая генетическую предрасположенность, травмы раннего детства, стресс и нейрохимические изменения в мозге. Отмечается важность комплексного подхода к лечению, включающего медикаментозную терапию, психотерапию и социальную поддержку. Особое внимание уделяется влиянию эмоциональной среды в детстве и мерам профилактики психических расстройств.*

Ключевые слова: *Депрессия, стресс, генетическая предрасположенность, детство, травма, биопсихосоциальный подход, психотерапия.*

Mamlakatimizda har bir sohani rivojlantirishda kadrlar masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarning o‘qishi, mutaxassislarning tajriba oshirishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shu maqsadda “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan 2 ming 225 nafar stipendiatlar 45 ga yaqin davlatga o‘qishga yuborilib, byudjetdan jami 1,5 trillion so‘m yo‘naltirildi. Hozirgacha ularning 1 ming 400 nafari O‘zbekistonga qaytib, iqtisodiyot tarmoqlarida, ta’lim, fan, tibbiyot va davlat boshqaruvida ishlamoqda. Bugungi kunda 748 nafar stipendiatlar “TOP-300” talikdagi nufuzli universitetlarda ta’lim olayapti[XX1].

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ruhiy salomatlikka bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Bu boradagi eng dolzarb muammolardan biri bu – depressiyadir. Depressiya nafaqat ruhiy holat, balki murakkab biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro ta’sirining mahsulidir. Ko‘pchilik depressiyani faqat kayfiyatning pasayishi sifatida tushunadi, biroq bu tushuncha yetarli emas. Ushbu maqolada depressiyaning murakkab tabiati, uning sabablari va organizmga ko‘rsatadigan ta’siri biopsixososial yondashuv doirasida tahlil qilinadi.

Depressiya inson salomatligiga ko‘plab jihatlardan ta’sir ko‘rsatadi. Odam o‘zini charchagan, maqsadsiz va umidsiz his qiladi. Uyqu buzilishi, ishtahaning pasayishi yoki ortishi, energiyaning yetishmasligi – bularning barchasi depressiyaning jismoniy belgilaridir. Bu, miyadagi faoliyat o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lib, depressiya aslida faqat “ruhan” emas, balki “jismonan” ham mavjud holat ekanini ko‘rsatadi. Depressiya vaqtida miya faoliyatida ma’lum o‘zgarishlar yuz beradi. Xususan, ijobiy his-tuyg‘ular (quvonch, zavq, muhabbat) bilan bog‘liq miya markazlari sustlashadi, salbiy his-tuyg‘ular (g‘azab, qayg‘u, xavotir) faollashadi. Ushbu hissiy o‘zgarishlar neyronlararo signal almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonda asosiy rolni monoaminlar deb ataluvchi neyrotransmitterlar – dopamin, noradrenalin va serotonin bajaradi. Ular kayfiyat, uyqu va motivatsiyani boshqaradi. Depressiyada ushbu kimyoviy moddalar kamayadi yoki samarasiz ishlaydi. Antidepressant dorilar aynan shu tizimlarga ta’sir qilib, ijobiy hissiyotlarni faollashtiradi va salbiylarni susaytiradi.

Genlar insondagi ko‘plab xususiyatlar, jumladan, ruhiy holatlarga moyillikni belgilaydi. Tug‘ma fe’l-atvor farqlari hatto chaqaloqlik davridayoq seziladi. Biror kishining depressiyaga moyilligi uning genetik tuzilmasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar bir xil egizaklarning birida depressiya rivojlansa, ikkinchisida ham bu kasallik paydo bo‘lish ehtimoli umumiy aholiga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Ayniqsa, bipolyar yoki psixotik depressiya holatlarida genetik omil kuchli rol o‘ynaydi. Biroq shuni yodda tutish kerakki, har qanday depressiya faqat genetik sabablarga asoslanadi. Ba’zan depressiya oilaviy nasldan-naslga o‘tadi, lekin bu faqatgina genetik sabab bilan izohlanmaydi. Qashshoqlik, noto‘g‘ri tarbiya, ota-onalarning farzandlariga befarq muunosabati kabi ijtimoiy omillar bir necha avlod davomida ruhiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, sovuq munosabatda bo‘luvchi ota-ona bolada hissiy ifoda qilishda qiyinchilik, o‘zini past baholash, depressiyaga moyillik kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Bu bola ulg‘ayib, o‘z farzandlariga ham shunday munosabatda bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, bu nafaqat genetik, balki ijtimoiy-psixologik “meros”ga aylanadi.

Inson miyasi tug‘ilganda hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Miya rivojlanishi hayotning ilk yillarida tashqi ta’sirlar, xususan, ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi. Mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatib tarbiyalangan bolalarning miyasi salbiy tajribalar (zo‘ravonlik, e’tiborsizlik)ni boshdan kechirgan bolalarnikidan farq qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta bolalik davridagi travmatik holatlar, ayniqsa, hissiy zo‘ravonlik, miyadagi stress tizimlarini haddan ziyod faollashtirib, odamni katta hayotda depressiyaga nisbatan sezuvchan qilib qo‘yadi.

Depressiyaning eng keng tarqalgan sabablaridan biri – bu stressdir. Stress hayotdagi og‘irliklarga javob sifatida organizmda turli jarayonlarni faollashtiradi. Qisqa muddatli stress (masalan, xavfli holatdan qochish) foydali bo‘lishi mumkin, lekin uzoq davom etuvchi stress (kasallik, ajrim, ishsizlik) organizmning himoya tizimlarini charchatadi va kayfiyat kimyosini izdan chiqaradi. Richard Lazarusning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, inson boshidan o‘tkazgan hodisalarga qanday ma’no berishi va qanday munosabatda bo‘lishi stress darajasini belgilaydi. Ya’ni, bizning fikrlash tarzimiz ham depressiyaga moyillikda muhim o‘rin tutadi. Ba’zan inson o‘z hayotidagi stress manbalaridan (masalan, toksik munosabat, og‘ir mehnat sharoiti) qochib qutula olmaydi. Bu holatlar organizmda surunkali stress holatini keltirib chiqaradi. Bunday “tiqilib qolgan” vaziyatlar depressiyaning eng xavfli shakllarini yuzaga keltirishi mumkin.

Yana bir muammo – stressga noto‘g‘ri yondashuv: spirtli ichimliklar, giyohvandlik, yoki ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy strategiyalar holatni yanada og‘irlashtiradi. Depressiyani to‘liq tushunish uchun biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’sirini hisobga olish lozim. Bu yondashuv – biopsixososial model – hozirgi zamonaviy psixiatriya va psixologiyaning asosiy tushunchasidir. Uni ilk bor qadimgi yunonlar “melanxoliya” – qora o‘t nazariyasi orqali anglashga uringanlar. Bugun esa bu tushuncha chuqurlashtirilgan: depressiyaga genetik moyillik, bolalikdagi travmalar, hozirgi hayotdagi stresslar va ularga yondashuv birgalikda ta’sir qiladi.

Xulosa. Depressiya – bu oddiy tushkunlik holati emas. U miyadagi kimyoviy o‘zgarishlar, hayotdagi stresslar, erta bolalikdagi hissiy tajribalar va genetik moyilliklarning birlashmasidir. Uni yengish uchun esa murakkab yondashuv zarur: dori vositalari, psixoterapiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov birgalikda ishlaganda samarali bo‘ladi. Shuningdek, bolalarga mehrli va xavfsiz muhit yaratish orqali ruhiy kasalliklarning oldini olish ham mumkin.

Kelajakda o‘spirinlardagi depressiyani aniqlash va davolash yondashuvlari yanada ilmiy asoslangan, madaniy jihatdan sezgir va innovatsiyalarga boy bo‘lishida madaniyat va milliy xususiyatlarni hisobga oladigan yondashuvlarni rivojlantirish, tashxislash va korreksiyalash uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, depressiya bilan bog‘liq steriotiplarni o‘zgartirish va ruhiy salomatlik xizmatlariga kirish imkoniyatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan, kombinatsiyalangan terapiya usullarini qo‘llash va ta’lim muassasi, oilalar va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bundan tashari depressiyani tushunish va tashxislash usullarini yaxshilash uchun yangi metodologiyalarni ishlab chiqish talab qilinadi. Masalan, fenomenologik-psixopatologik yondashuv: O‘spirinlarning subyektiv tajribalariga e’tibor berish orqali ularning ichki dunyosini chuqurroq o‘rganish va tarmoq tahlili: Depressiyani alohida simptomlar to‘plami sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq omillar tizimi sifatida tahlil qilishham yaxshi natija beradi. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanib psixodiagnostika uchun mobil ilovalar va algoritmlardan foydalanish orqali aniqlikni oshirish imkoniyatiga egamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Aaron T. Beck and Brad A. Alford. Depression : causes and treatment. Philadelphia, Pennsylvania. 2009. –B: 428
2. Maxamadin Bannayev, O‘spirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari, MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI: Том 3 № 4 (2025)
3. https://president.uz/oz/lists/view/8111

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA OILA PSIXOLOGIYASINING O‘RNI VA TARIXIY ASOSLARI

Turg‘unboyev Sirojiddin Faxriddinovich
PhD, dotsent
Maxsus pedagogika kafedrasi
Yangi asr universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila psixologiyasi zamonaviy psixologiya fanidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Unda oila psixologiyasining shaxs rivojlanishi, insoniy munosabatlar va jamiyatning barqaror faoliyatidagi markaziy roli bayon qilingan. Shuningdek, oila psixologiyasining antik davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixiy asoslari va uning mustaqil fan sohasi sifatida shakllanish jarayonlari aks etirilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila psixologiyasi, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oila va oilaviy munosabatlar borasidagi qarashlar, ijtimoiy psixologiya, zamonaviy psixologik qarashlar.*

Аннотация: *В данной статье анализируется* ***место и значимость семейной психологии*** *в современной психологической науке. В ней излагается центральная роль семейной психологии в развитии личности, человеческих взаимоотношений и стабильном функционировании общества. Также отражены* ***исторические основы*** *семейной психологии, начиная с античности и до наших дней, а также процессы её становления как самостоятельной научной дисциплины.*

Ключевые слова: *семейная психология, подготовка молодежи к семейной жизни, взгляды на семью и семейные отношения, социальная психология, современные психологические взгляды.*

Abstract: *This article analyzes the place and significance of family psychology within modern psychological science. It outlines family psychology's central role in personality development, human relationships, and the stable functioning of society. Furthermore, it details the historical foundations of family psychology from antiquity to the present day, along with the processes of its formation as an independent field of study.*

Keywords: *Family psychology, preparing youth for family life, Views on family and family relationships, Social psychology, Modern psychological perspectives.*

Oila psixologiyasi murakkab sohadir, chunki u munosabatlarga ko‘p sonli ta’sir ko‘rsatadigan tizimli istiqbollarni, munosabatlarning vaqt o‘tishi bilan shakllanishi va davom etishiga oid rivojlanish istiqbollarini, jamiyat va an’analarning munosabatlarga qanday ta’sir qilishiga oid madaniy nuqtai nazarlarni, individual farqlar va ijtimoiy munosabatlarning kesishishini shuningdek, er-xotin, ota-ona va oilaviy munosabatlardagi haqiqiy va mazmunli o‘zgarishlarga qanday ta’sir qilish bo‘yicha amaliy komponentlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Oila jamiyatning asosiy hujayrasi bo‘lib, uning barqarorligi va farovonligi umumiy ijtimoiy salomatlik va rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Oila psixologiyasi insonlarning ruhiy holati, munosabatlari va o‘zaro ta’sirlarini o‘rganadigan, ularni yaxshilash uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar va usullarni

ishlab chiqadigan fan sohasidir. Bu soha oilalardagi stress, muammolar va ziddiyatlarni aniqlash, ularni hal qilish yo‘llarini topishga qaratilgan.

Oila psixologiyasi fani doirasidagi tadqiqotlar oila tizimining strukturasi, rollari va dinamikasini aniqlash orqali oilaviy muammolarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, oilaviy muloqotning samaradorligini oshirish, oila a’zolari o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni kamaytirish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, oila ichidagi konfliktlarning sabablarini aniqlash va ularni samarali hal qilish usullarini ishlab chiqish, oila a’zolarining ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash, oila hayotining turli bosqichlarida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularga mos ravishda yondashuvlarni ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshiradi bu esa oilaning umumiy farovonligini oshiradi.

Oila psixologiyasi oilalarning ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash uchun muhim fan hisoblanib, oilalarning ruhiy holati, munosabatlari va ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganishga qaratilgan sohadir. Ushbu fan oilaviy muammolarni aniqlash, tushunish va samarali hal qilish usullarini ishlab chiqishga yordam beradi. Oila psixologiyasining asosiy maqsadi oilaviy munosabatlarni yaxshilash, stress va ziddiyatlarni kamaytirish, hamda ruhiy salomatlikni saqlashdir. Ushbu soha oila tizimi, muloqot, konfliktlar, ruhiy salomatlik va hayotiy bosqichlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Oila psixologiyasi oilani yagona tizim sifatida ko‘rib, har bir a’zo rolini tahlil qiladi va umumiy munosabatlarni yaxshilash yo‘llarini topadi. Oila psixologiyasi oilalarning dinamik o‘zgarishlariga moslashish va ularning yangi sharoitlarda ham barqarorligini saqlashga yordam beradi.

Psixologiya fanlari doktori, Akademik G‘.B.Shoumarov “… qanday zarurat hozirgi vaqtda yoshlarimizni oilaviy hayotga tayyorlash va ularga «Oila psixologiyasi» fanining o‘qitilishi zarurligini taqozo qiladi? …” degan savolga quyidagicha javob beradi:

“Ma’lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o‘zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo‘lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o‘ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo‘jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo‘jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo‘lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o‘ziga xos, yangicha talablar qo‘ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o‘zlarida ro‘y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o‘zgarishlar odamlarning o‘zaro muloqot munosabatlari doirasini ma’lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatilgan tabiiylikni ma’lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo‘riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lmoqda. Bularning ta’siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o‘z ifodasini topadi” [2].

Oila va oilaviy munosabatlar borasidagi ilmiy manbalarda “nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy masuliyat o‘zaro hurmat, tushunish va mehr-

muhabbat umumiyligi bilan bog‘langan kichik ijtimoiy guruhga oila deb ta’rif beriladi.

Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o‘zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, oila ko‘p muddatga, ya’ni bir necha o‘n yillar va ko‘p yillarga mavjud bo‘ladi; ikkinchidan, oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya’ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi va bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Bunda oilaviy munosabatlarda tarbiyaviy, psixologik, hissiy, moliyaviy, jinsiy va boshqa vazifalarning amalga oshirilishi kuzatiladi; uchinchidan, oiladagi barcha munosabatlar zaminida salbiy yoki ijobiy holatlar yuzaga keladi, ya’ni oila a’zolaridan kimningdir kimgadir ta’siri oqibatida shaxs yoki yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga yetishi yoki tarbiyasi og‘ir, xulqi buzuq odam bo‘lib tarbiyalanishi mumkin [1].

Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg‘or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlaring diqqat markazida asosiy masalalardan bo‘lib kelgan.

Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Kaykovus, Xotam ibn Tay, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko‘plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o‘zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlar-ki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir [2].

Oila va oilaviy munosabatlar haqida ko‘plab mutafakkirlar, dinlar va falsafiy oqimlar o‘z qarashlarini bildirgan. Quyida oila va oilaviy munosabatlar borasidagi ba’zi asosiy qarashlarni keltirib o‘tamiz:

Islom dinida Qur’on va Hadislarda oila muqaddas institut sifatida ta’riflanadi. Oilada er va xotin o‘zaro hurmat va muhabbat asosida yashashlari kerak. Farzandlar ota-onalariga hurmat ko‘rsatishi, ota-onalar esa farzandlarini yaxshi tarbiyalashi lozim.

Oilaviy majburiyatlar va huquqlar aniq belgilangan: er oilani ta’minlashi kerak, xotin esa uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarishi lozim.

Xristianlik dini oila va nikoh muqaddas sanalib, nikoh orqali ikki kishi bir tana bo‘ladi va ular bir-birlariga sodiq bo‘lishlari kerak. Oilada mehr-muhabbat va tushunish muhim o‘rin tutadi. Farzandlar ota-onalariga hurmat ko‘rsatishi va ularning maslahatlariga amal qilishi lozimligi ta’kidlanadi.

Zardushtiylikning qadimiy kitobi — «Avesto»da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas’ulligi, farzand tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan.

Konfutsiylik ta’limotida oila jamiyatning asosiy hujayrasi sifatida qaraladi. Oilaviy munosabatlar tartib va intizomga asoslanadi. Farzandlar ota-onalariga hurmat ko‘rsatishi, ota-onalar esa farzandlarini tarbiyalashda namuna bo‘lishi kerak.

Aristotel oilani jamiyatning asosiy qismi deb bilgan. Uning fikriga ko‘ra, oilaning vazifasi farzandlarni tarbiyalash va jamiyat uchun foydali insonlar yetishtirishdir.

Forobiy oilani jamiyatning muhim qismi deb bilgan va oilaviy tarbiyaning inson shaxsiyati rivojlanishidagi ahamiyatini ta’kidlagan.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy va falsafiy asarlarida oilaning ahamiyatiga katta e’tibor bergan va oilaviy munosabatlar ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb bilgan.

Ibn Sino oiladagi sog‘lom munosabatlar va axloqiy tarbiyaning inson salomatligi va ruhiy holatiga ta’sirini ta’kidlagan.

Yusuf xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning ahamiyatini keng yoritgan.

Alisher Navoiy asarlarida oilaviy tarbiya, mehr-muhabbat va oila a’zolarining bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi haqida ko‘plab qimmatli fikrlar keltirilgan.

Zamonaviy psixologik qarashlarga ko‘ra, oila psixologiyasi oilaviy munosabatlarning psixologik jihatlarini o‘rganadi. Oilada o‘zaro munosabatlar, nizolar va ularni hal qilish usullari muhim o‘rinni egallaydi. Sog‘lom oilaviy munosabatlar insonning ruhiy salomatligi va farovonligi uchun zarurdir.

Ijtimoiy psixologiya oilani kichik guruh sifatida o‘rganadi. Oiladagi rol, o‘zaro munosabatlar va ularning jamiyatdagi o‘rni tahlil qilinadi. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, uning barqarorligi va rivojlanishi jamiyatning barqarorligi va rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Bu qarashlar oila va oilaviy munosabatlarning turli madaniyatlar va davrlarda qanday ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Ular oilaning jamiyatdagi rolini, uning asosiy vazifalarini va oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarning muhimligini tushunishda katta hissa qo‘shadi.

Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o‘zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi:

- birinchidan, oila ko‘p muddatga, ya’ni bir necha o‘n yillar va ko‘p yillarga mavjud bo‘ladi;
- ikkinchidan, oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi
- uchinchidan, oiladagi barcha munosabatlar zaminida salbiy yoki ijobiy holatlar yuzaga keladi.

Keltirilgan namunalardan ko‘rinadiki, ilmiy manbalarda oilaning muqaddas ekanligi, erkak va ayollarning oila oldidagi burch va mas’uliyatlari, ota-onaning bola va o‘z navbatida farzandning ota-onasi oldidagi vazifalari, erning xotiniga hurmat va e’zozi muqaddas qadriyatlar sifatida qaralgan ekan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Oila psixologiyasi zamonaviy psixologiya fanida mustaqil va muhim yo'nalish sifatida, insoniy munosabatlarni, shaxs rivojlanishini va jamiyat faoliyatini tushunishda markaziy o'rinni egallaydi. U oilani noyob tizim sifatida o'rganadi, uning tuzilishi, dinamikasi, funksiyalari, shuningdek, shaxsiy va jamoaviy farovonlikka ta'sirini tadqiq qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // – T.: 2007. – 316 b.
2. Shoumarov G‘.B. va b. Oila psixologiyasi. Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘l. T:. Sharq, 2013. – 296 b.
3. Турғунбоев С.Ф. Эшитишида нуқсони бўлган ўқувчиларни оилавий ҳаётга тайёрлаш асослари Педпгогика ва психологияда инновациялар 2020 йил, июнь 2-махсус сон 866-671 бет.
4. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar ruhiy, jismoniy va aqliy rivojlanishining psixologik asoslari // Yangi O‘zbekiston yoshlarida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent. Yangi asr universiteti. 2023 yil 25-noyabr. 70-72 bet.
5. Nogironligi bo‘lgan shaxsning jamiyatga ijtimoiy moslashuvida oilaning roli // Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida psixologik himoya mexanizmlari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022 yil 28-iyun 184-187 bet.

PSIXIK JARAYONLAR VA MIYANING O‘ZARO ALOQADORLIGI

**K.A. Xo`shboqov** -TerDPI o`qituvchisi
Xudoyberdiyeva Iroda Qudrat qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Amaliy psixologiya yo’nalishi 2-boshqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixik jarayonlar inson ongining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, hissiyot va iroda kabi jihatlar haqida batafsil fikr yuritib, ushbu jarayonlarning barchasi miya faoliyati bilan bevosita bog‘liqligi turli xil manbalar orqali ochib berildi.*

Kalit so‘zlar: *Inson psixikasi, Psixika va ongning xususiyatlari, Miya va uning tuzilishi, Bosh miya (Katta yarim sharlar), Oraliq miya, Diqqatning barqarorligi, Diqqatning bo’linishi, Sezgilar.*

Abstract: *This article discusses in detail the mental processes that are the main components of the human mind, such as perception, memory, thinking, attention, emotion, and will, and reveals through various sources that all of these processes are directly related to brain activity.*

Keywords: *Human psyche, Characteristics of the psyche and consciousness, Brain and its structure, Cerebrum (Hemispheres), Midbrain, Stability of attention, Division of attention, Sensations.*

Аннотация: *В данной статье подробно обсуждается тот факт, что психические процессы являются фундаментальным компонентом человеческого разума, таким как восприятие, память, мышление, внимание, эмоции и воля, а также с помощью различных источников раскрывается, что все эти процессы напрямую связаны с деятельностью мозга.*

Ключевые слова: *Психика человека, Особенности психики и сознания, Мозг и его строение, Большой мозг (Cerebrum), Промежуточный мозг, Устойчивость внимания, Разделение внимания, Ощущения.*

Kirish. Psixik jarayonlar va miya o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik zamonaviy neyropsixologiya, psixofiziologiya va kognitiv fanlarning eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi va doimiy ravishda sohaga oid tadqiqotlar olimlar tomonidan olib boriladi.

Inson psixikasi – bu idrok, tafakkur, xotira, his-tuyg‘ular va motivatsiya kabi murakkab jarayonlarni o‘z ichiga olgan tizim bo‘lib, uning asosi miya faoliyatiga bog‘liq hisoblanadi. Miya esa, o‘z navbatida, millionlab neyronlarning o‘zaro murakkab aloqalari orqali ishlaydi va har bir psixik hodisaning neyrofiziologik asosini tashkil etadi.

Psixologiya inson va hayvonga xos psixik jarayonlar, ularning rivojlanishi va qonuniyatlarini o‘rganadigan fandir. Psixika bosh miya va nerv tizimining mahsulidir, u inson hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqola inson psixikasining rivojlanishi, hayvonlar psixikasi bilan inson ongining farqlari va ongning shakllanishi bilan bog‘liq asosiy jihatlarni ko‘rib chiqadi.

Psixika tirik organizmlar uchun biologik omillarni aks ettirish shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Inson psixikasining eng yuksak darajasi ong bo‘lib, u faqat insongagina xosdir.

Ong quyidagi to‘rt asosiy xarakteristikaga ega:

1. Anglash qobiliyati: Inson tevarak-atrofni va o‘z ichki olamini bilish va tahlil qilish qobiliyatiga ega.

2. Sub’ekt va ob’ekt farqlanishi: Inson o‘zini boshqalardan ajratib, “men” va “men emas” tushunchasini anglaydi.

3. Maqsadni ko‘zlash: Ong insonning maqsadlarini belgilash, rejalashtirish va amalga oshirish jarayonini boshqaradi.

4. Emosional munosabatlar: Ong hissiy tajribalarni o‘zida aks ettiradi, bu esa inson munosabatlarini shakllantiradi.

Ushbu mavzuni o‘rganish inson ongining tabiati, ong osti jarayonlari, emotsiyalar hamda turli kognitiv funksiyalarning qanday shakllanishini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. So‘nggi ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, miya strukturalari va psixik jarayonlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir ruhiy faoliyat ortida aniq biologik mexanizmlar mavjud. Ushbu maqolada psixik jarayonlarning asosiy turlari va ularning miya bilan qanday bog‘liq ekani haqida fikr yuritiladi. Ushbu jarayonlar bevosita miya faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, neyrofiziologik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy nevrologiya va psixologiya fanlari miyaning turli qismlari va psixik jarayonlar o‘rtasidagi aloqalarni chuqur o‘rganib kelmoqda. Ushbu maqolada psixik jarayonlar va miyaning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi.

Miya va uning tuzilishi - Miya inson tanasidagi eng murakkab organlardan biri bo‘lib, u millionlab neyronlardan tashkil topgan. Miya asosiy uchta qismdan iborat: ***Bosh miya (Katta yarim sharlar)*** – ongli fikrlash, idrok va xotira bilan bog‘liq. Bosh miya (cerebrum) yoki oxirgi miya (telencephalon) miyaning katta qismi bo‘lib, tarkibiga bosh miya po‘stlog‘i va gippokamp, bazal o‘zaklar, subkortikal tuzilmalar kiradi. Odam miyasida, bosh miya markaziy nerv sistemasining eng yuqori sohasidir. Prosensefalon yoki oldingi miya embrional tuzilma bo‘lib, undan bosh miya prenatal rivojlanadi. Sutemizuvchilarda, dorsal telensefalon, yoki pallium, bosh miya po‘stlog‘iga rivojlanadi va ventral telensefalon, yoki subpallium, bazal o‘zaklarga aylanadi. Bosh miya shuningdek tahminan simmetrik chap va o‘ng bosh miya yarimsharlariga bo‘linadi.

Oraliq miya – hissiyotlar va vegetativ jarayonlarni boshqaradi. Bosh miya sopining talamus (ko‘rish do‘mbog‘i), metatalamus (ko‘rish do‘mbog‘i orti sohasi), gipotalamus (do‘mboq osti sohasi), epitalamus (do‘mboq usti sohasi) va subtalamus (talamus osti sohasi) joylashgan qismi. Oraliq miyada vegetativ nerv sistemasining markazlari bor. Orqa miya – refleks va avtomatik harakatlarni nazorat qiladi.

Har bir psixik jarayon ma’lum miya qismlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro faoliyati inson ruhiy hayotini shakllantiradi.

Psixik jarayonlarning asosiy turlari va ularning miyaning qaysi qismiga bog‘liqligi. *Ixtiyoriy diqqat* - Ko‘zlangan maqsad va qabul qilingan qaror tufayli ma’lum bir ishni bajarish lozimligini bilar ekanmiz, bunday holda diqqatning yo‘nalishi va to‘planishi ixtiyoriy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Bunday paytda diqqatimizni bajarayotgan ishimizga qaratishni maqsad qilib qo‘yamiz. Diqqatimiz ongli suratda boshqariladi. Ixtiyoriy diqqatda biz diqqatimizni qaratish uchun o‘z oldimizga ongli suratda maqsad qo‘yamiz, qiyinchiliklarni engib, diqqatni to‘plash uchun kurashib, har qanday boshqa narsalarga berilmaslik uchun iroda kuchini sarflab, diqqatimizni ongli suratda biror ishga qaratamiz.

Muvofiqlashtirilgan ixtiyoriy diqqat - Ixtiyoriy diqqatdan tashqari, diqqatning yana bir turini qayd etib o‘tish lozim. Bu diqqatning ixtiyoriy diqqat kabi maqsadga qaratilgan turi bo‘lib, lekin doimiy irodaviy zo‘r berishni talab qilmaydi. Diqqat avval boshda ixtiyoriy bo‘ladi. Kishi biror faoliyatni bajarishga o‘zini majbur qiladi, keyinchalik ishga kirishib, qiziqib ketadi va uning diqqati ixtiyorsiz diqqatga aylanadi. Diqqat avval boshda ixtiyoriy edi, keyin esa ixtiyorsizga aylandi. Shu sababli diqqatning bu turi ixtiyoriydan keyingi ixtiyorsiz diqqat ham deb yuritiladi.

Diqqatning o‘zgaruvchanligi va tebranishi ikkilanma (masalan, kesik piramida tasviri) tasvirlarda yaxshi ko‘rinadi. Diqqatning barqarorligi uchun bajarilayotgan faoliyatning aktivligi nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Diqqatning barqarorligi - uning biror ob`ekt ustida uzoq vaqt davomida to‘planib turishini ko‘rsatuvchi xususiyatdir.

Diqqatning bo‘linishi - psixik faoliyatning shunday tashkil qilinishiki, bunda ayni bir vaqtning o‘zida ikkita va undan ham ko‘p ish-harakat bajariladi. Diqqatning bo‘linishiga misol: bir vaqtning o‘zida arifmetik hisoblarni bajarish va biror qo‘l mehnati turini bajarish. O‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, diqqatning taqsimlanishining samaradorligi bir qancha omillarga bog‘liq ekan. Shular orasidan eng katta rol’ o‘ynaydiganlari: kishining diqqatining individual xususiyatlari (diqqatining rivojlanganligi) va bajarilayotgan ishlardan birortasining avtomatlashganlik darajasi. Bajarilayotgan ishlardan birortasi juda yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lsa, u diqqatni taqsimlashda ko‘p murakkablik tug‘dirmaydi. Shu sababli ko‘pchilik sohalarda birinchi davrda ishni o‘zlashtirish, bir vaqtning o‘zida bir qancha ishlarni bajarish, ularni boshqarish va muvofiqlashtirish juda qiyin kechadi. Faoliyat o‘zlashtirilib borilgach ko‘p takrorlanadigan ish-harakatlar avtomatlashadi, ular maxsus ongli nazoratni talab qilmaydi. Shu sababli kishi ishni bajarish davomida boshqa narsalar haqida o‘ylashi, kuylashi, ishga "e’tibor bermasdan" ishlashi mumkin.

Tashqi olamni bilish, undan kelayotgan ma’lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash sezgi jarayonidan boshlanadi.

Sezgi - ongimizga ayni vaqtda, bevosita ta’sir qilib turgan narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettirishdan iborat psixik jaryondir. Materiya bizning sezgi organlarimizga ta’sir qilib sezgi hosil qiladi. Sezgi a’zolari axborotni qabul qilib oladi va saralaydi. Sezgi a’zolari tashqi olamning kishi ongiga kirib keladigan yagona yo‘lidir. Kishi tevarak atrofdagi olam haqida doimo axborot olib turishi kerak. Axborotlarning ko‘pligi (ortiqchaligi) yoki tanqisligi (sensor izolyatsiya) organizmda jiddiy funktsional buzilishlarga olib kelishi mumkin. Buni tekshirib ko‘rish uchun maxsus surdokameralarda ko‘plab tajribalar o‘tkazilgan. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, sinaluvchilar to‘la izolyatsiya holatida bir necha soatdan keyin vahimaga tushadilar, tajribaning to‘xtalishini talab qilib boshlaydilar. Ularda og‘riq, haroratni sezish kabi sezgilar ham buzilishi kuzatiladi. Agar odam ko‘proq vaqt izolyatsiyada saqlansa unda ongning buzilishi, turli gallyutsinatsiyalar kuzatiladi. Real hayotda bunday sharoit ongning butunlay buzilishiga olib kelishi mumkin.

Sezgilar va ularning mohiyati haqida ko‘plab nazariyalar mavjud. Avvolo shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, materialistik psixologiya sezgilarni materiya ta’sirining natijasi deb qaraydilar. Sezgilarning haqiqiy mezoni esa amaliyot hisoblanadi.

Sub`ektiv idealistlar (Berkli, YUm, Max) olamni sezgilarning yig‘indisi sifatida talqin qiladilar.

Boshqa bir nazariya tarafdorlari (I.Myuller, Gel’mgolts) sezgi organlarining o‘ziga xos quvvati haqida fikr yuritadilar. Ularning fikricha sezgilar faqat tashqi ta’sirlarning timsoli, shartli belgilari. Shu sababli ular qaysi sezgi organiga ta’sir qilsa, shu analizatorga xos sezgi hosil bo‘ladi. Bu nazariyaning to‘g‘riligi isbot qiluvchi ko‘plab misollar bor - bo‘lar elektr toki, bosimning ta’sirida turli analizatorlarda turli sezgilar hosil bo‘ladi.

Ammo xid, tovushlar boshqa sezgi organlariga ta’sir qilib, ularga xos sezgilar hosil qilmaydilar. Sezgi organlari maxsus signallarni qabul qilishga ixtisoslashgan. Sezgi a’zolarining ixtisoslashishi - uzoq davom etgan evolyutsion taraqqiyot mahsulidir. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin. Sezgi a’zolarining o‘ziga xosligi sezgilarning o‘ziga xosligini keltirib chiqarmaydi. Sezgi organlarining o‘ziga xosligi tashqi olamning o‘ziga xos xususiyatlari natijasida shakllangan.

Mana shunday maxsuslashgan sezgi organlarining majmui analizatorlarni tashkil qiladi. Har qanday analizator uch qismdan iborat:

1) tashqi ta’sir kuchini ichki nerv quvvatiga (jarayoniga) o‘tkazadigan maxsus transformator - analizatorning pereferik qismi;

2) analizatorning pereferik qismini markaziy qism bilan bog‘laydigan o‘tkazish yo‘llari. Ular afferent (markazga intiluvchi), efferent (markazdan qochuvchi) yo‘llardan iborat bo‘ladi.

3) markaziy, pereferiyadan keluvchi signallarni qabul qilib, qayta ishlovchi qism (miya qismi).

Analizatorlarning periferik bo‘limida motor va hissiy qismlar uyg‘unlashganligi sababli ular ta’sir qilayotgan qo‘zg‘atuvchilarning ob`ektiv xususiyatlarini aynan aks ettiradi.

Xulosa. Psixik jarayonlar va miya o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, inson tafakkuri, his-tuyg‘ulari va xulq-atvorining asosiy manbai hisoblanadi. Miya turli psixik jarayonlarni boshqaruvchi murakkab neyrofiziologik tizim sifatida harakat qiladi. Idrok, xotira, tafakkur, his-tuyg‘ular va e’tibor kabi jarayonlar miya tuzilmalari, ayniqsa, po‘stloq va subkortikal tuzilmalarning faoliyati bilan bevosita bog‘liq.

Zamonaviy nevrologiya va psixologiya tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, miya va psixika o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik neyronlar faoliyati, neyrotransmitterlar va turli funksional markazlar orqali amalga oshiriladi. Stress, travmalar yoki boshqa tashqi omillar miya faoliyatiga ta’sir etib, psixik jarayonlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, miya inson psixikasi uchun biologik asos bo‘lib, uning to‘g‘ri ishlashi inson ruhiy salomatligi va intellektual rivojlanishi uchun muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Shadrikov V.D. Qobiliyatlarning rivojlanishi // Boshlang‘ich maktab. - №5, 2014 yil.
2. Yo‘ldoshev N. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020. – 320 b.
3. Muhamedova D. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 256 b.
4. Zokirova M. Inson psixikasi va neyrobiologiya. – Toshkent: Sharq, 2021. – 290 b.
5. Yoqubov U. Miya va psixik jarayonlar: Ilmiy izlanishlar. – Samarqand: Zarafshon, 2018. – 312 b.
6. Jalolov M. Hissiy-intellektual rivojlanish asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 280 b.
7. Karimova R. Bolalar psixologiyasi: Miya va o‘rganish jarayoni. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2016. – 250 b.
8. Hasanov A. Psixik rivojlanish va shaxs shakllanishi. – Buxoro: Ilm ziyo, 2020. – 260 b.
9. Solihov O. Neyropsixologiya: Miya va ong birligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – 245 b.
10. Rasulov B. Miya va ong: Psixologik tahlil. – Namangan: Ilm nuri, 2022. – 280 b.

BUGUNGI KUNDA SHAXSDA HISSIY JARAYONLAR BUZILISHIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING TA’SIRI

Omonova Sevara Mamirjonovna

Qo'qon Davlat Universiteti "Psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari nomzodi (PhD)

Toshova Sharofat Jabbor qizi

Psixologiya yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotning maqsadi, shaxsiy sifatlari buzilgan shaxslar yoki o’z-o’ziga baho beruvchi kishilarda psixologik xususiyatlarini o’rganishdir. Shaxsiy sifatlari buzilgan shaxslar o’z o’ziga baho berishda qanday psixologik vositalardan foydalanishadi va ularning bu xatti-xarakatlari bilan qanday natijalarga ega bo’lishi mumkinligini tahlil qilishni maqsad qilgan. Bu tadqiqotning natijalari, shaxsiy sifatlari buzilgan shaxslarda o’z-o’ziga baho berishning psixologik jarayonlarga, insonlarning o’zining o’zi bilan qanday munosabatda ekanligiga oid yangi fikr va tushunchalarni olib kelishi uchun foydalidir.*

Kalit so'zlar: *Virtual olam, axborot, yoshlar, psixologik himoyalanish, internet tarmog'i, media olam, kompyuter, psixologik baholash, shaxslararo munosabatlar, axborot texnologiyalari, axborot jamiyati.*

Annotation: *The purpose of this study is to study the psychological characteristics of people with personality disorders or self-evaluations. It aims to analyze what psychological tools people with personality disorders use to evaluate themselves and what consequences they may have with these behaviors. The results of this study are useful for bringing new ideas and insights into the psychological processes of self-evaluation in individuals with personality disorders, and how people relate to themselves.*

Key words: *Virtual world, information, youth, psychological protection, Internet, media world, psychological assessment, interpersonal relations, youth, information technologies, information society.*

Аннотация: *Целью данного исследования является изучение психологических особенностей людей с расстройствами личности или самооценки. Целью исследования является анализ того, какие психологические инструменты используют люди с расстройствами личности для самооценивания и к каким последствиям может привести такое поведение. Результаты этого исследования полезны для выдвижения новых идей и понимания психологических процессов самооценки у людей с расстройствами личности, а также того, как люди относятся к себе.*

Ключевые слова: *Виртуальный мир, информация, молодежь, психологическая защита, сеть интернет, медиамир, компьютер, психологическая оценка, межличностные отношения, молодежь, информационные технологии, информационное общество.*

Tadqiqotlarga ko‘ra butun dunyoda 3 milliard kishi, sayyorada 40 foiz inson ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Izlanishlar bir kunda o‘rtacha ikki soat ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazishimizni taqozo qilyapti. (Menimcha, shafqat yuzidan 2 soat deyilgan. Holbuki, ijtimoiy tarmoqlarda butun umrimiz o‘tib ketmoqda). Bu har daqiqada yarim million tvit va Snapchat dasturida qayta ishlangan fotosuratni ulashish demakdir.

Hozirgi globallashuv jarayonida va jahonda olamshumul o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir paytda biz nafaqat aniq bir inson, balki butun jamiyat hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtirolaridan biri bo‘lmish sotsial tarmoqlarni chetlab o‘tolmaymiz. Joriy vaqtda sotsial tarmoqlar deyarli butun dunyoni qamrab olgan. Ayniqsa, yosh avlod juda ham sotsial tarmoqlarni yaxshi ko‘radi. Kimga internetda o‘z rasmlarini qo‘yish, olis masofadagi do‘stlar va qarindoshlar bilan gaplashish, o‘yinlar o‘ynash, musiqa tinglash va so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lish, statuslarni tinmay o‘zgartirish yoqmaydi deysiz?

Agar biz sotsial tarmoqlar soniga va ularning turlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning hammasini yoritishda bu maqola ojizlik qiladi. Keling biz eng mashhur sotsial tarmoqlar va ularga qancha foydalanuvchi a’zo bo‘lganligiga bir nazar tashlaylik: Facebook – 750 million, Twitter – 200 million, Qzone – 480 million, Odnoklassniki.ru – 100 million, V kontakte – 135 million va hokazo. Mana ko‘rib turganingizdek, shu raqamlar insoniyatning qanchalik sotsial tarmoqlar ichiga kirib ketayotganligidan dalolat bermoqda. Tabiiyki, sizda savol paydo bo‘lishi mumkin: bu yaxshimi yoki aksinchami? Albatta, ko‘pchilik bu tarmoqlarni ma’qullaydi va unga ijobiy baho beradi. Chunki, hozir sotsial tarmoqlar bo‘sh vaqtni

o‘tkazishning eng yaxshi vositasi hisoblanadi. Endi esa, keling, sotsial tarmoqlarnig bizning hayotimizga, dunyoqarashimizga, ongimizga, aql-u shuurimizga va sog‘lig‘imizga qanday ta’sir etishi haqida fikr yuritaylik. Internetning zo‘r berib rivojlanishi bilan odamzod borgan sari me’yorni unutib, uning girdobiga bexosdan tortilmoqda. Axir biz bir muhim narsani esdan chiqarmasligimiz darkor: real hayot boshqa, virtual hayot boshqa. Biz kundalik hayotda odamlar bilan jonli muloqotda bo‘lamiz, jonli fikr almashinamiz va o‘zimizga kerakli bo‘lgan xulosalarni chiqaramiz. Virtual hayot esa insonni tamomila dunyoqarashi va ongini o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Keling, aynan shuni sotsial tarmoqlar misolida ko‘raylik. Hozirda sotsial tarmoqlarning PR faoliyati va reklamasi juda rivojlanmoqda. Hatto 2010 yili amerikalik rejisser Devid Fincherning Facebook sotsial tarmog‘i asoschisi Mark Tsukerberg haqidagi “Sotsial tarmoq” nomli badiiy filmi suratga olindi. Hozirgi zamonda ko‘p yoshlar o‘z vaqtlarini sotsial tarmoqlarda o‘tkazishadi. Ular hatto darslarini, uy yumushlarini va o‘z rejalarini ham yodidan chiqarib yuborishadi. Bu esa, sotsial tarmoqlarga qaram bo‘lishdan boshqa hyech gap emas. Yoxud boshqacha so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, bu – psixologik qaramlikdir. Internet olamida sayyohat qilar ekansiz, ba’zilarning erta-yu kech “Online”, “V seti”,“Gotov k obщyeniyu” kabi statuslarini ko‘rasiz. [9]

Ushbu odamlar bamisoli sotsial tarmoqlarda “yashashadi”. Ular uchun virtual hayot muammolari va tashvishlari har narsadan, jumladan real hayotdan ustun turadi. Bizning fikrimizcha, bu tendentsiya salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunki inson sotsial tarmoqlarda bo‘lar ekan, u o‘z hayotini faqat shu tarmoqlar orqali ko‘radi, xulosalarni tarmoq nuqtai nazaridan va ulardagi a’zolar fikrlaridan chiqaradi, uning dunyoqarashi shu tarmoq doirasida shakllanadi, xullas bunday insonlaring ongi faqat bir olamda yashaydi. Inson real hayotidagi kamchiliklarini, siqilishlarini va muvaffaqiyatsizliklarini tarmoqda qoplashga intiladi. Rasmlar va ularga berilgan sharhlar, yangi do‘stlar, yorqin lavhalar va tarmoqlararo uyushmalar odamni to‘lqinlantiradi. Internet ularning fikrlashini butunlay o‘zgartirib yuboradi.

Undan tashqari sotsial tarmoqlar g‘arazgo‘y odamlarning yovuz maqsadlariga xizmat qilishlari mumkin. Masalan, tarmoqqa qo‘yilgan axborot va xabarlar boshqalar tomonidan o‘g‘irlanishi, buzilishi va boshqa tarmoq a’zolariga yuborilishi mumkin. Yoki firibgarlar qalbaki rasmlar va yolg‘on ma’lumotlar bilan o‘z maqsadlariga erishishlari mumkin. Hatto sotsial tarmoqlar butun boshli qotilliklar, isyonlar, urushlarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, zamonaviy fanda “informatsion urush” degan atama mavjud. Informatsion urush sotsial tarmoqlarda juda qo‘l kelishi mumkin. Ana endi hozirgi vaqtdagi voqyealar bilan sotsial tarmoqlarin bog‘laylik. Ma’lumki, 2011 – yilning boshi butun jahonning diqqat – e’tiboriga sazovor bo‘lgan “arab inqiloblari” yoki “arab bahori” nomli voqyealar bilan boshlandi. Tunisda boshlangan davlat to‘ntarishi zanjirli reaktsiya bo‘ylab Misr, Liviya, Suriya, Iordaniya, Yaman va boshqa arab davlatlariga tarqaldi. Bu to‘ntarishlarga ahamiyat beradigan bo‘lsak, harakatlarni boshlaganlar 18 – 35

[9] https://uz.medicinehelpful.com/17189949-violations-of-the-emotional-sphere-of-a-person-concept-types-causes-and-features

yoshlardagi fuqarolar edi. Ya’ni, ular ham sotsial tarmoqlar ta’siri ostida bo‘lib qolib, ularning boshqa o‘lkalardagi do‘stlari qanday yashayotganligini ko‘rib o‘z hayotlarini tubdan o‘zgartirishga ahd qilishdi. Masalan, Misrdagi tartibsizliklar “Tvitter inqilobi” degan nomni oldi. Qarangki, sotsial tarmoq qanchalik jamiyat hayotiga va davlat siyosatiga o‘z ta’sirini o‘tkaza oldi. O‘ylashimizcha, bu dalil sotsial tarmoq ta’siriga tushgan yangi fuqarolik jamiyati shakllanishinig boshlanishidir. [10]

Yaqindagina ommaviy axborot vositalarida biz bir xabarga duch keldik. Ma’lumki, Saudiya Arabistonida ayollarga transport vositasini haydash taqiqlanadi. Arab dunyosida bo‘layotgan voqyealarni kuzatib borgan Saudiya Arabistonidagi ba’zi ayol fuqarolar Facebook tarmog‘ida o‘z sotsial uyushmasini tuzishdi. Bu uyushmada ularni bir g‘oya birlashtirib turdi, ya’ni ular ayollarni avtomobil haydashga va barcha taqiqlarni yo‘q qilishga chaqirishgan. Yana bir misol. Shu yilning iyul oyida tinch Norvegiya aholisini larzaga solgan qo‘poruvchilik xarakati ham tarmoqda o‘z aksini topgan. 77 kishining shafqatsiz tarzda olamdan ko‘z yumishiga sababchi bo‘lgan Anders Breyvik ham o‘z rejalarini Facebook tarmog‘ida doimiy yoritib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar bo‘sh vaqtini faqat sotsial tarmoqlarda o‘tirish bilan o‘tkazishlari noto‘g‘ri. Chunki, jonli, haqiqiy va real muloqot o‘rnini hyech narsa bosa olmaydi. Yoshlar kitob o‘qishlari, o‘z ustilarida ishlashlari hamda ijtimoiy faollikni oshirishlari lozim. Tarmoqdagi faollik hyech narsani belgilamaydi va inson to‘g‘risida haqqoniy bo‘lmagan ma’lumotlarni saqlashi mumkin. Maqolamizga yakun yasar ekanmiz, biz sotsial tarmoqlarning hayotimizga bo‘lgan ta’sirini rad etolmaymiz. Biz ongli ravishda sotsial tarmoq a’zosi bo‘la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay bilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Бреслав Г.М. Эмоциональные особенности формирования личности в детстве: норма и отклонения / Г.М. Бреслав. – М.: Педагогика, 2013. – 654с.
2. Gamezo M.V.,Domashenko I.A. Atlas po psixologii. M., 2002
3. G. Sele. Stress bez distressa. –M., 1998. Bodoyanova N.E. Psixodiagnostika stressa. Piter press. 2009.336 s.
4. Юсупов И.М. Психология взаимопонимания /И.М. Юсупов. – Казань: Татарское книжное изд-во, 1991. – 192 с.
5. Qayumov Baxtiyor. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT MOTIVATION. Next Scientists Conferences, 1(01), 24–27. Retrieved from https://nextscientists.com/index.php/scienceconf/article/view/261
6. Omonova, S. M. "THE ROLE OF FOREIGN EXPERIENCE IN PROTECTING TEENAGERS FROM THE IMPACT OF THE VIRTUAL WORLD." *Modern Science and Research* 3.12 (2024): 1366-1370.
7. Omonova, S. M. "THEORETICAL BASIS OF THE STUDY OF EMPATHIC ABILITIES IN MODERN PSYCHOLOGICAL RESEARCH." *Modern Science and Research* 3.12 (2024): 1371-1375.

[10] https://inlibrary.uz/index.php/ijsr/article/view/73192

MILLIY VA DINIY QADRIYATLAR SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING SHAKILLANISHIDAGI AXAMIYATI. SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TA'LIM JARAYONIDAGI RO'LI

Ataboyev Navro'zbek Ilhombek o'g'li TAFU psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
navruz9610@gmail.com

Annatatsiya. *Mazkur maqolamizda inson hayotida shaxslararo munosabatlarning ro'li va axamiyati va ularning shakillanishida inson yashab turgan muhiti, e'tiqodi, qadriyatlari qanchalik axamiyatga ega ekanligi borasida so'z yuritiladi. Inson uchun nimanidir muhim bo'lishi uning qaysi dinga e'tiqod qilishi va bularning barchasi uning atrofidagi insonlar bilan bo'ladigan munosabatlariga qanchalik ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi har bitta davr uchun qiziqarli va dolzarbdir.*

Kalit so'zlar*. Individ, shaxs, shaxslararo munosabat, ijtimoiy faoliyat.*

Аннатация. *В данной статье речь пойдет о роли и значении межличностных отношений в жизни человека и о том, насколько значимы в их формировании окружающая среда, убеждения, ценности, в которых живет человек. То, что что-то важно для человека, интересно и актуально для каждого периода, независимо от того, какую религию он исповедует и насколько все это положительно или отрицательно влияет на его отношения с окружающими его людьми.*

Ключевые слова. *Индивид, личность, межличностные отношения, социальная деятельность.*

Abstract: *In this article, we will talk about the role and morality of interpersonal relationships in a person's life and how special the environment, beliefs, values in which a person lives are in their formation. It is interesting and relevant for each period that it is important for a person what religion he believes in and how positively or negatively all this affects the relationship he has with the people around him.*

Keywords*. Individ, personality, interpersonal relationship, social activity.*

Kirish qism. Ijtimoiy munosabatlar ustiga qurilgan jamiyatda inson xoxlaydimi yoki yo'q doimo insonlar qurshovida ular bilan muloqotda bo'ladi. Ta'lim tarbiya jarayonlari ham bundan mustasno emas albatta. Shaxslararo munosabatlar bu inson kundalik hayotda duch keladigan hayotining asosiy qismini tashkil etadigan deyarli barcha hayot faoliyati jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Asosiy qism. Jamiyatda birdamlik o'zaro aloqalarning yaxshi yo'lga qo'yilishi uning turli hil tashqi ta'sirlarga bo'lgan ta'sirlanishini kamaytiradi bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini oladi. Muloqot — shaxslararo munosabatlarning asosiy ko'rinishi bo'lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, tushunadilar.

Psixologiya lug'atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi:

1. Muloqot — hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'matish va uni rivojlantirish jarayoni;
2. Muloqot — belgilar tizimi orqali subyektlaming o'zaro ta'sirlashuvi.

O'smirlani muloqotga o'rgatish uchun ularga psixologik, pedagogik adabiyotlami o'qishni tavsiya qilish, muloqot jarayonida yoshlar faoliyatini kuzatish, fikrlash doirasini aniqlash va shu jarayonda psixologik o'yinlar, mashqlar, treninglardan foydalanish muhimdir. N.P. Anikeyeva fikricha, boshqa odamlar bilan muloqotda har bir shaxs muayyan ijtimoiy rolni egallaydi. Rollar shaxsning tabiatini to'laroq ochib berishi yoki uni niqoblashi mumkin. Lekin pozitsiya — rollarni tanlash albatta insonning o'z mohiyatiga, uning kuchiga, zaifligiga, salohiyat darajasiga, o'z-o'zini tanqid qila olishiga, xulq-atvorining puxtaligiga, o'zini chetdan ko'ra bilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. . Kishilar munosabatga kirishishda aval tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati — nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi. Har bir kishining o'z «Men«i atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning hayot yo'llari awal oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya’ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi.

L. S. Vigotskiy, A.N. Leontev, A.R. Luriya, D.B. Elkonin tadqiqotlariga ko‘ra, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri bu — muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V. Zaporojes va M .l. Lisina izlanishlarida ta’kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlarda rivojlanib boradi:

1) e’tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;

2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;

3) avvalgi barcha ehtiyojlarning kattalar tomonidan hurmat qilinishiga ehtiyoj tug'iladi;

4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Jamiyatda yuzaga keladigan muammolarning ko’pchiligi o’zaro muomila-munosabatlarning to’g’ri yo’lga qo’yilmasligi oqibatida yuzaga kelishini hisobga oladigan bo’lsak bu jarayonning o’rganilishi jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarning yaxshilanishiga , ijobiy tomonga o’zgarishiga turtki bo’lishi mumkin. Muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o’smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik hislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo’ladi, jamiyatda o’z o’rnini tasavvur qilishga erishadi.

Jamiyatning kelajagini ko’p jihatdan o’sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi oydinlashtiradi va belgilab beradi. Shaxslararo munosabatlar jamiyatda sodir bo’layotgan voqea–hodisalarni amalga oshishida muhim axamiyatga ega bo’lgan zanjir bo’lib uning to’g’ri yo’lga qo’yilishi o’zaro munosabatlarning ijobiy

tomonga siljishiga yordam beradi. Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan xalqimizning milliy va diniy qadriyatlari doimi insonlarni o'zaro birdamlikka, tinch totuv yashashga, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashga chorlab kelgan. Umuman olganda shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi omillar ro'yhati anchayin uzun bo'lib biz ulardan ikkita muhim omil hisoblangan milliy va diniy omillarga to'htalib o'tamiz. Individning ijtimoiylashishi, milliylashishi ona tilini o'zlashtirishi orqali amalga oshadi. O'z ona tilini bilmaslik yashab turgan muhitdagi jarayonlarni, tilda ifodalanayotgan xolat va xodisalarning mohiyatini to'laligicha anglab olishga to'sqinlik qiladi. Binobarin fikr bayoni uchun foydalanilgan so'zlarda milliy o'ziga xoslik bo'ladi. Tafakkur bilan til va nutq o'zaro bog'liq bo'lganligi uchun, rus yoki inglizcha tili chiqqan bolalarning fikrlash malakasi ham o'zbeklarnikidan nisbatan bo'lsada farqlanadi.

Chunki insonning tafakkur tarzi nutqida, tilida reallashadi , moddiylashadi.

Milliy-etnik xususiyatlarning shaxslararo munosabatlarga bo'lgan ta'siri va axamiyatini bir qator psixolog olimlar o'z izlanishlarida kengroq yoritib o'tishga harakat qilishgan. Masalan G'.Shoumarov va Ye.A.Morshinalarning 1986 yilda o'tkazgan tadqiqotlarida oilada bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sirko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillar o'rganildi, chunonchi, unda ota va ona, er va xotin, ota-ona va farzandlarning o'ziga xos o'zaro munosabatlaridagi an'anaviy milliy va zamonaviy munosabatlarning xususiyatlari ochib berilgan.

O'zaro munosabatlarga ta'sir doirasi anchayin sezilari bo'lgan milliy va diniy qadriyatlar insonni kundalik turmush tarzida eng ko'p to'qnash keladigan omillar hisoblanadi.

Atrofdagi voqea–hodisalarni o'ziga xos ravishda idrok etish, tafakkur yuritish, tasavvur qilish va fikrlash va ularni ta'b va tuyg'ular, urf-odat va an'analar, xarakter tarzida namoyon bo'lishishaxslararo munosabatlarning qaytarilmas, betakror xususiyatlari hisoblanadi. O'zbeklar istiqomat qilgan hududlarda g'arbdan sharqqa, janubdan shimolga o'tuvchi karvon yo'llarida joylashganligi, bu yerlarda faqat dexqonchilikni emas, shuningdek pul-tovar munosabatlarini, turli xil xunarmandchilikni, qo'shni xalqlar bilan savdo-sotik ishlarini rivojlanishiga olib keldi. XV-XVI asrdayoq Buxoro, Samarkand, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Xo'jand kabi yirik shaharlar Xindiston, Xitoy, Eron, Rossiya, Arabiston kabi mamlakatlar bilan keng savdo-sotiq ishlarini olib borishar edi. Bularning hammasi o'zbek xalqining hayot tarzida va psixologiyasida o'z aksini topgan edi. Qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq va boshqa iqtisodiy-madaniy aloqalarni qizg'in olib borilishligi, ulardan xushmuomalalik, xushtabiatlik, mehmonnavozlik, hozirjavoblik, tadbirkorlik kabi xususiyatlarni talab etadivatadqiqotchilarning barchasi o'zbeklarga xos bo'lgan ochiqyuzlik va xushmuomalalikni ta'kidlab ko'rsatishgan edi. O'zbeklarga xos bu xususiyatni qozoq adabiyotining klassigi Abay ham ta'kidlab ko'rsatib, "iltifotlilik, xushmuomalalik - bularning hammasi sartlardadir", deb yozgan edi [3].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki insonning shaxs sifatida shakillanishi uning jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari asnosida shakillanadi va rivojlanadi. Har bir jamiyat esa ma'lum bir milliy va diniy qadriyatlar qamrovida bo'ladi va har bir jamiyat u hatto bir dinga e'tiqod qilsada ayrim xususiyatlari bilan bir biridan farq qiladi

va ana shu farqlilik jamiyatning milliyligidan kelib chiqadi. Insonning shakillanishida muhim omil bo'lgan diniy va milliy qadriyatlar azaldan inson shaxsi, shaxslararomunosabatlarning shakillanishida muhim vazifalarni bajarib kelgan va bundan so'ng ham bu omillarning axamiyati ortsa ortadiki aslo kamaymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf " Sog'lom bola "«Hilol» nashriyot-matbaasi 2019 yil
2. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf " Ijtimoiy odoblar" "«Hilol» nashriyot-matbaasi 2019 yil
3. Nigora Shomurotova. Shaxslararo munosabatlar etnopsixologiyasi. Toshkent 2017
4. E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. O'zbekiston Faylasuflar Milliy Jamiyati Nashriyoti. Toshkent 2010.
5. M.Maxsudova "Muloqot psixologiyasi" o'quv qo'llanma Toshkent "Turon Iqbol" 2000.
6. B.M.Umarov. Psixologiya\\ Voris – nashriyoti\\ Toshkent-2012
7. N.Islomova. D. Andullayeva. Ijtimoy psixologiya. Toshkent – 2013
8. E.G'oziyev \ Oliy maktab psixologiyasi\ Toshkent " O'QITUVCHI" 1997

ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ СРЕДИ СТУДЕНТОВ

Рахмонова Гузал Жамшидовна,
Психолог, Филиал Астраханского государственного технического университета Ташкентской области Республики Узбекистан

Аннотация: *В статье представлен анализ понятия профессиональной идентичности личности студента, которая является как критерием, так и результатом его успешной адаптации к учебной, профессиональной и творческой деятельности, а также, в целом, к изменяющимся социокультурным условиям. Авторы выдвигают предположение, что профессиональная идентичность как элемент социальной и культурной идентичности поможет студентам преодолеть внутреннее напряжение, неуверенность, тревожность, фрустрацию и другие состояния, мешающие их адаптации к новым социокультурным реалиям в условиях глобализирующегося мира, в частности — к социокультурной среде вуза. В статье также уделяется внимание гендерным различиям в формировании профессиональной идентичности.*

Ключевые слова*: идентичность, идентификация, профессиональная идентичность, гендерные различия, личность, социокультурная среда, социальная и культурная идентичность.*

Annotatsiya: *Maqolada talabalarni kasbiy identikligi tushunchasining tahlili keltirilgan. U mazkur shaxsning o'quv, kasbiy va ijodiy faoliyatga, shuningdek, o'zgarib borayotgan sotsiomadaniy sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuvining mezoni va natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Mualliflar kasbiy identiklik ijtimoiy va madaniy identiklikning bir qismi sifatida talabalarga ichki ziddiyat, ishonchsizlik, xavotir, tushkunlik va moslashuvga to'sqinlik qiladigan boshqa holatlarni yengib o'tishda yordam beradi, degan taxminni ilgari suradilar. Bu, xususan, globallashayotgan dunyodagi yangi sotsiomadaniy realiklarga, jumladan oliy ta'lim muassasasining sotsiomadaniy muhitiga moslashuvni o'z ichiga oladi. Maqolada, shuningdek, kasbiy identiklikni shakllantirishdagi gender farqlariga ham alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *identiklik, identifikatsiya, kasbiy identiklik, gender farqlari, shaxs, sotsiomadaniy muhit, ijtimoiy va madaniy identiklik.*

Annotation: *The article presents an analysis of the concept of students' professional identity, which serves both as a criterion and a result of their successful adaptation to academic, professional, and creative activities, as well as to the changing sociocultural conditions in general. The authors propose that professional identity, as an element of social and cultural identity, can help students overcome internal tension, insecurity, anxiety, frustration, and other conditions that hinder their adaptation to new sociocultural realities in a globalizing world — in particular, to the sociocultural environment of the university. The article also addresses gender differences in the formation of professional identity.*

Keywords: *identity, identification, professional identity, gender differences, personality, sociocultural environment, social and cultural identity.*

Молодые люди, обучающиеся в университете, сталкиваются с большим количеством внешних ориентиров в своём развитии, при этом у них ещё не сформированы полностью структурные компоненты личности, а именно: ценностно-смысловые установки, духовность, этика, мотивационно-волевая сфера, а также существует фрагментарность личностных границ. Всё это в итоге приводит к повышенной тревожности, неуверенности в себе и своих способностях, утрате контроля над собственной жизнью, что в конечном счёте выражается в переживании нормативного кризиса идентичности.

По мнению ряда авторов (Зеер, 2003; Климов, 1996; Маркова, 1996; Бодров, 2001), сформированная профессиональная идентичность студентов служит индикатором готовности к профессиональной деятельности в конкретной области, а также прочной основой для реализации своей профессиональной востребованности и личностного развития в целом. Мы рассматриваем профессиональную идентичность как один из факторов, определяющих оптимальный уровень учебной активности студентов.

Феномен «кризиса идентичности» имеет особое значение для данного исследования. Согласившись с Н. Самойлык, мы считаем, что этот термин может обозначать широкую группу психологических факторов, которые в совокупности приводят к негативным последствиям для личности. Кризис идентичности влияет на успешность в учебной и профессиональной деятельности, способность студентов адаптироваться к университетской среде и вырабатывать мотивацию, необходимую как для обучения, так и для будущей карьеры.

Мы рассмотрим вопрос профессиональной идентичности в совокупности с анализом исходных понятий: «профессиональная идентичность», «идентификация» и «гендерные различия». Эти понятия формируют понятийное пространство исследования и часто используются как в научных работах, так и в практике. При этом каждое отдельное исследование предлагает различные подходы к трактовке этих терминов, что требует их уточнения и анализа структуры.

Постановка проблемы профессиональной идентичности, определение её сущности и структуры, а также условий её формирования остаются актуальными не только в связи с упомянутым кризисом идентичности современной молодёжи, но и в контексте задач воспитания молодого человека, его личностного развития, самопознания, духовности и др.

Проблема профессиональной идентичности, её практико-ориентированная направленность, структурные компоненты и их описание, методы и формы её развития в конце XX — начале XXI века рассматриваются в трудах отечественных и зарубежных исследователей, таких как: С.В. Анищенко, А.А. Азбель, Л.Н. Вавилов, И.Н. Галасюк, Л.А. Григорович, Э.Ф. Зеер, З.В. Ермаков, В.А. Кузьмина, В.М. Просеков, Н.Л. Регуш, Э. Тоффлер, В.Д. Шадриков, Л.Б. Шнайдер, О.И. Шутова, Э. Эриксон и др.

В большинстве научных работ профессиональная идентичность рассматривается как личностный компонент, обеспечивающий успешную профессиональную адаптацию и интерес к профессии, а также как один из показателей профессиональной пригодности, внутренний регулятор, обеспечивающий самоидентификацию и развитие личности в профессиональной сфере.

Исследователи Т.В. Мищенко и Ю.П. Поваренков рассматривают профессиональную идентичность в рамках трёх основных подходов:

1. как эмоциональное состояние, испытываемое человеком на разных этапах профессиональной жизни, эмоциональное отношение к профессии и притязания, связанные с ней;
2. как ведущий показатель профессионального развития;
3. как структурный компонент личности, направленный на достижение определённого уровня профессионализма.

В исследованиях Г.А. Герцога и соавторов выделен ряд факторов, способствующих формированию профессиональной идентичности в процессе обучения в университете, таких как возможность реализовать себя в рамках профессии; условия для развития профессиональных потребностей, интересов и притязаний; престиж профессии и возможность в будущем найти работу по полученной в вузе специальности.

В диссертации П.В. Смирновой подчёркивается, что профессиональная идентичность — это способность отождествлять себя с профессией, механизм социализации и индивидуализации личности. По мнению А.А. Озериной, профессиональная идентичность представляет собой психосоциальную характеристику личности, имеющую определённую динамическую структуру. Она включает в себя формирование представления человека о профессиональной группе, его статусе в ней, переживаний принадлежности, что в совокупности способствует профессиональному развитию личности.

На основе вышеуказанных определений мы понимаем профессиональную идентичность как характеристику личности, включающую совокупность ценностных, мотивационных, когнитивных и личностных черт, способствующих её отождествлению с профессией, принятию профессиональных ценностей и норм, стремлению достичь определённого уровня профессионализма в выбранной деятельности.

Сформированная профессиональная идентичность студентов оказывает значимое влияние на их учебную активность и профессиональное самоопределение. Гендерные различия проявляются как в степени

сформированности профессиональной идентичности, так и в доминирующих ценностях: девушки демонстрируют большую социальную включённость, ориентацию на внутреннюю мотивацию, межличностные отношения и творческое самовыражение, тогда как юноши чаще ориентированы на карьерный рост, престиж и внешнюю оценку. У значительной части студентов наблюдается неопределённая идентичность, что может свидетельствовать о недостаточной эффективности учебной и практической подготовки. Эти данные подчёркивают необходимость индивидуализированного подхода к формированию профессиональной идентичности, с учётом гендерных особенностей и личностных приоритетов обучающихся Эти результаты подчеркивают важность учета гендерных различий при формировании образовательной и профессиональной среды, направленной на развитие профессиональной идентичности студентов.

Обобщая полученные данные, можно отметить, что как юноши, так и девушки в целом демонстрируют осознание необходимости профессионального самоопределения. При этом у девушек чаще проявляется высокая степень автономности, инициативности и склонности к профессиональной рефлексии. Их представления о будущем профессиональном пути отличаются структурированностью и внутренней согласованностью. Юноши, напротив, в большей степени характеризуются эмоциональной удовлетворённостью сделанным выбором и преобладанием внутренне мотивированных установок. Подобное гендерное распределение акцентов позволяет заключить, что представительницы женской группы находятся на более продвинутом этапе формирования профессиональной идентичности, что, в свою очередь, может рассматриваться как потенциальное преимущество в контексте будущей профессиональной состоятельности, учитывая значимость профессиональной идентичности как системообразующего компонента профессиональной компетентности.

Список литературы

1. Savchenkov, A.V.. "Gender differences in the formedness of professional identity elements." Revista ESPACIOS, 39(29), 7.
2. Герцог Г.А., Данилова В.В., Корнеев Д.Н., Савченков А.В., Уварина Н.В. (2017). Профессиональная идентичность для успешной адаптации студентов — партисипативный подход. *Rupkatha Journal on Interdisciplinary Studies in Humanities*, 9(1), 301–311.
3. Самойлык Н.А. (2012). Психолого-педагогические условия переживания кризиса идентичности студентов вуза на начальном этапе обучения. Диссертация на соискание степени кандидата психологических наук. Кемерово, 24 с.
4. Шутова О.И. (2012). Влияние профессиональной идентичности обучающихся на их субъективное отношение к осваиваемым компетенциям (при подготовке специалистов помогающего типа). Диссертация на соискание степени кандидата психологических наук. Кемерово, 24 с.
5. Смирнова П.В. (2006). Психологические характеристики становления профессиональной идентичности (на примере профессии «психолог»). Диссертация на соискание степени кандидата психологических наук. Москва, 246 с.
6. Ушаков Д.Н. (2014). Большой толковый словарь русского языка. Москва: Славянский дом, 960 с.(Википедия)

7. Зеер Э.Ф., Циманюк Е.Е. (2005). Компетентностный подход к модернизации профессионального образования. *Высшее образование в России*, 4, 23–30.

ЁШЛАРДА ДИНИЙ ТАСАВВУР ВА ДИНИЙ ПСИХОЛОГИЯ ШАКЛЛАНИШИНИНГ МУҲИМ ОМИЛЛАРИ ҲАҚИДА ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ҚАРАШЛАРИ.

Абдурахманова Нафосат Аманатовна
Тошкент кимё технология институти
Шахрисабз филиали катта ўқитувчиси

Марказий Осиёда яшаган мусулмон мутафаккирлардан Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, Ал-Фароғий, Ал-Мавердий, Абу Ҳамид ал-Ғаззолий, Жалолиддин Румий ва бошқалар дин, иймон, эътиқод ва инсон психологияси ҳақида чуқур фалсафий ҳамда илмий ёндашувлар асосида мулоҳазалар билдирганлар. Алломалар эътиқод ва диннинг инсон онгига, ахлоқига ва руҳиятига таъсирини ўша давр талабларидан келиб чиққан ҳолда изчил ўрганишган ҳамда бу йўналишда бугунги психологик назарияларга асос бўлувчи ғоя ва қарашларни илгари сурганлар. Аждодларимизнинг дин ва инсон психологиясига оид илмий ёндашувларини улар томонидан қолдирилган бой маънавий меросни таҳлил қилиш орқали ўрганишимиз мумкин.

Ўз даврининг қомусий олими Абу Наср Форобий “Аристотел илмларининг сарҳисоби”, “Бахт-саодатга эришиш йўллари”, “Фозил одамлар шаҳри” асарларида динни инсонни маънавий баркамолликка етакловчи энг муҳим омиллардан бири сифатида эътироф этади. У инсон руҳини ақл, ғазаб (ҳиссиёт) ва шаҳват (тана истаклари) кучлари орқали таҳлил қилган. “Фозил одамлар шаҳри” асарида мукаммал жамият “фозил шаҳар” бўлиб, унда диний ва ахлоқий етуклик асосий ўрин тутиши таъкидланади. Аллома инсондаги руҳий тарбиянинг асосий вазифаси сифатида ақлни инсондаги ҳис-туйғулар устидан ҳукмронлик қилиши лозимлиги ҳақида алоҳида тўхталади.

Форобий динни маънавий етукликка эришишнинг энг муҳим воситаси сифатида қарайди. Олимнинг фикрича “дин жамиятни ахлоқан мустаҳкамловчи кучдир, аммо у илм билан уйғун бўлиши лозим. Уламолар, айниқса пайғамбарлар, энг мукаммал инсонлар бўлиб, улар билим ва руҳий етукликни бирлаштирган шахслардир”.

Форобийга кўра, инсон уч асосий кучдан ташкил топган:

1. Ақлий куч – фикрлаш ва тафаккур манбаи;
2. Ғазабий куч – ҳаракат ва ҳимоя кучи;
3. Шаҳвоний куч – инстинкт ва моддий эҳтиёжларни ифодалайди.

Ушбу кучлар мувозанатда бўлиши керак. Ақл – бошқарувчи сифатида ғазаб ва шаҳват устидан назорат ўрнатиши зарур. Инсондаги руҳий саломатлик ва бахт шунинг эвазига таъминланади.

Абу Али ибн Сино нафақат табиб, балки психологик тафаккурнинг йирик намояндаси ҳамдир. У инсон руҳиятини илмий-фалсафий жиҳатдан ўрганган

алломалардан бири бўлиб, асосий ёндашувлари “Китоб аш-шифо” ва “Китоб ан-нафс” (Руҳ ҳақида рисола) асарларида келтирилади. “Китоб ан-нафс” асарида инсон руҳини соғлом сақлаш, маънавий покланиш ва мувозанатли ҳаёт кечиришни диннинг энг асосий аҳамияти сифатида тавсифлайди. Аллома инсон руҳиятини таҳлил қилган ва инсоний психиканинг тузилишини қуйидагича таснифлаган: Нафс натиқа – ақл ва тафаккур кучи (енг юқори даража). Нафс сабуъийя – ғазаб, ҳирс ва ҳайвоний ҳислар манбаи. Нафс набатийя – ҳаётий қувват ва тириклик кучи. Ибн Сино бу кучлар ўртасидаги номувофиқликни руҳий хасталикларнинг сабаби деб билган.

Аллома диний қарашлар ва эътиқодни фалсафа билан мутаносиб ҳолда таҳлил қилиб, инсонда пайдо бўлувчи руҳий касалликларни келиб чиқишини диний-ахлоқий инқироз билан боғлаган. Мутафаккир кўплаб одамлардаги руҳий нохушлик жисмоний касалликларга сабаб бўлишини эътироф этиб, “психосоматик” ёндашувга асос солган. У психик касалликлар ҳақида ёзган биринчи мусулмон олимлардан биридир ва бу хасталикларни руҳий инқироз, ижтимоий муҳит ёки эътиқодий силжишлар билан боғлаган.

Ибн Сино динни инсон руҳини покловчи ва маънавий баркамоллик сари йўналтирувчи куч сифатида тавсифлаб, ақл билан эътиқод қарама-қарши эмас, балки бир-бирини тўлдирувчи ҳодиса эканлигини таъкидлаган. У инсон ўзининг илоҳий табиатини англаб етиши учун Аллоҳни билиши лозимлигини баён этади.

Дин ва психологиянинг ўзаро муносабати, айниқса, инсон қалбининг покланиши, руҳий тарбия, ақл ва нафс ўртасидаги кураш, бахт ва саодатга эришиш усулларини таҳлил қилган олимлардан бири Абу Ҳамид ал-Ғаззолий бўлиб, илмий-фалсафий қарашларида дин ва руҳиятни бирлаштириб, одам руҳияти, қалби ва ички дунёси Аллоҳга боғланиш орқали покланаши тушунтирилади. Олимнинг “Ihyo ulumiddin” (Диний билимларни тирилтириш) асарида “руҳий поклик (тазкия) – инсонни бахт-саодатга етаклайдиган энг муҳим восита”, деб ҳисоблаган. У нафснинг тўрт ҳолатини таҳлил қилади: аммора, лаввама, мулҳима, мутмаъинна – бу руҳий тараққиёт босқичлари. Аллома ўзининг тасаввуфий психологияси орқали “нафсни тарбия қилиш” усулларини ишлаб чиққан.

У инсон руҳий мувозанатини издан чиқарувчи ёмон сифатлар (иллатлар) – ғазаб, ҳасад, кибир, риё – билан курашиш усулларини диний ибодатлар ва маънавий машқлар орқали таклиф этган. Шунингдек, динни инсонни Аллоҳга олиб борувчи йўл сифатида тавсиф этади. Ғаззолий учун дин нафақат ташқи ибодатлар мажмуаси, балки ички руҳий тараққиёт воситаси ҳам ҳисобланган.

Инсон руҳиятини таҳлил қилиб, уни ички зиддиятлар ва муҳаббатга интилиш билан тушунтирган мутафаккир Жалолиддин Румий инсон руҳий камолотга фақат Аллоҳга муҳаббат билан эришиш мумкинлигини таъкидлайди. Алломанинг “Маснавий” ва “Девони Кабир” асарларида диннинг моҳияти инсон қалбидаги илоҳий нур билан уйғунлаштириб, инсон ички зиддиятлардан фақатгина муҳаббат, маънавий изланиш ва сабр орқали озод бўлишини таъкидлайди. У инсон руҳиятини таҳлил қиларкан, уни ички

зиддиятлар ва муҳаббатга интилиш билан тушунтиради. Инсон қалби ҳар доим ўз манбаига – илоҳий зотга интилади. Тасаввуф орқали руҳий саломатлик ва психологик мувозанатга эришиш мумкинлиги олимнинг илмий ёндашувларида ўз аксини топган.

Румийга кўра, “ҳақиқий дин – бу муҳаббат. Ташқи қоидалар эмас, балки ички самимият Аллоҳ билан боғлайди”. “Маснавий” асари орқали у руҳий тарбия, сабр, тоқат, иродавий поклик ҳақида чуқур фалсафий-психологик фикрлар билдиради.

Динни жамият тараққиётида ахлоқий ва ижтимоий тартибни сақловчи омил сифатида таҳлил қилган олим Ал-Мавердий ўз ёндашувларида шахснинг ижтимоий онги ва руҳиятини шакллантиришда диний таълимотлар муҳим ўрин тутади деб ҳисоблаган. Аллома “Адаб ал-дуня ва ад-дин” асарида дин ва психологияни ижтимоий муҳитда таҳлил этади. Унга кўра, дин инсон руҳиятини ижтимоий тартиб ва ахлоқий меъёрлар орқали мустаҳкамлайди. У шахсий камолот, руҳий интизом ва ижтимоий масъулиятни динга асослаб изоҳлайди. Ал-Мавердий ўз даврида ижтимоий психологиянинг асосчиси сифатида танилган бўлиб, замонавий ижтимоий психология асосларига яқин қарашларни илгари сурган.

Шунингдек, олим диннинг жамиятдаги тарбия, ахлоқий меъёр ва психологик мувозанатни сақлашдаги ўрни ҳақида фикр юритиб, ижтимоий тартиб, руҳий барқарорлик ва ахлоқий комиллик воситаси сифатида эътироф этади: “дин – инсонни жамиятда тўғри яшашга йўналтириб, тарбиялаб, унга руҳий интизомни ўрнатади”.

Ўрта асрларда яшаган мутафаккирлар дин ва психологияни узвий боғлиқ ҳолда таҳлил қилганлар. Улар инсон руҳий ҳаётини нафақат диний нуқтаи назардан, балки илмий-фалсафий асосларда ҳам ўрганишган. Форобийдан бошлаб Румийгача бўлган ҳар бир аллома инсон руҳиятининг чуқур қатламларини очиб беришга уринган, бу эса уларнинг меросини замонавий психология учун ҳам психология тараққиёти қатлами сифатида қадрлашни тақозо этади.

Мустақилликдан сўнг Ўзбекистон ижтимоий ҳаётида юз берган кескин ўзгаришлар натижасида дин ва эътиқод масалалари жамиятнинг муҳим ижтимоий-психологик ва маданий компонентига айланди. Чунки совет даврида диний мавзулар қатъий назорат остида бўлиб, дин, илгари идеологик назорат остида бўлган бўлса, эндиликда шахсий ва ижтимоий ҳаётда эркин тарзда ўз аксини топа бошлади. Бу ҳолат психология фанига ҳам таъсир кўрсатди. Психологик тадқиқотларда дин, диний эътиқод ва диний тасаввурларни илмий асосда ўрганишга эҳтиёж кучайиб борди.

Адабиётлар

1. Ал-Мавердий. “Адаб ад-дуня wa ад-дин”. — Байрут: Дар ал-Кутуб ал-Илмийя, 1992 .
2. Жабборов А.М. Миллий психологиянинг шаклланиш манбалари. -Қарши: “Насаф”, 2017. -72 б.
3. Ибн Сино. “Аш-шифо” (Руҳ бўлими). — Байрут: Дар ал-Афақ ал-Жадида, 1983.
4. Румий Ж. “Маснавий Маънавий”. — Истанбул: Ирфан Яйинлари, 2001.
5. Форобий А.Н. “Фозил шаҳар аҳли ҳақида” // Тошкент: Фан, 1993.

6. Ғаззолий А.Ҳ. “Иҳё улумиддин”. — Қоҳира: Дар ал-Маърифа, 1967.

TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA BELL-LANKESTR TIZIMIDAN FOYDALANISH VA TALABA QIZLAR O‘RTASIDA HAMKORLIK MODELINI ISHLAB CHIQISH.

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna,
Psixologiya kafedrasi o’qituvchisi
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogika tarixida muhim o‘rin tutgan talim tashkil etish usullaridan biri bo‘lgan, hozirda unitila yozgan Bell–Lankaster tizimi, mohiyati, bu tizimning asosiy g‘oyasi, tizimning asosiy xususiyatlari,monitorlik usuli: Ilg‘or o‘quvchilar (monitorlar) o‘qituvchidan ko‘rsatmalar olib, boshqa talabalarga dars o‘tishligi, iqtisodiy samaradorligi, kamchiliklari va ijodiy yondashuvlari, tarixiy ahamiyati kabilar va shuningdek, bu tarixiy tizimga kreativ, tahliliy yohdashgan holda tarixiy-pedagogik tajribalarda talaba-qizlarni oila tarbiyasiga tayyorlashda unumli foydalana olish kabilar, shuningdek, Bell–Lankaster tizimi asosida o‘zaro o‘qitish, ya’ni tengdoshlar orqali bilim va tarbiya berish prinsipiga yo‘grilgan holda talaba qizlarning oilaviy hayotga tayyorlash modeli ishlab chiqilganligi bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Bell–Lankaster tizimi, raqamli texnologiyalar, kognitiv rivojlanish, kreativlik, monitorlik usuli, mentorlik, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni, ijodiy fikrlash cheklovlari, ta’lim sifati, “Tengdosh–Tarbiyachi” modeli.*

***Аннотация*:** *В данной статье рассматривается система Белл–Ланкастера, один из важных методов организации обучения в истории педагогики, которая сегодня почти забыта. Раскрываются сущность системы, её основная идея, ключевые особенности, метод мониторства: когда продвинутые учащиеся (мониторы), получив инструкции от учителя, проводят занятия с другими студентами. Анализируется экономическая эффективность, недостатки и творческий подход, а также её историческое значение. Кроме того, дается аналитическое и креативное осмысление данной историко-педагогической практики в контексте подготовки студенток к семейной жизни. На основе системы Белл–Ланкастера разработана модель подготовки студенток к семейной жизни, основанная на принципе взаимного обучения и воспитания через сверстников.*

Ключевые слова: *Система Белла–Ланкастера, цифровые технологии, когнитивное развитие, креативность, метод мониторства, наставничество, подготовка студенток к семейной жизни, ограниченность творческого мышления, качество образования, модель "Ровесник–Воспитатель".*

Annotation: *This article discusses the Bell–Lancaster system, one of the significant methods of organizing education in the history of pedagogy, which is now nearly forgotten. The paper explores the essence of the system, its core idea, main features, and the monitorial method, in which advanced students (monitors) receive instructions from the teacher and conduct lessons for other students. The article analyzes its economic efficiency, drawbacks, and creative approaches, as well as its historical importance. Furthermore, it presents a creative and analytical perspective on using this historical-pedagogical experience to effectively prepare female students for family life. Based on the Bell–Lancaster system, a model for preparing female students for family life has been developed, emphasizing the principle of peer-to-peer education and upbringing.*

Keywords: *Bell–Lancaster system, digital technology, cognitive development, creativity, monitoring method,* mentoring*, preparation of female students for family life, limitations of creative thinking, quality of education, “Peer-Educator” model.*

Bell–Lankaster tizimi pedagogika tarixida muhim o‘rin tutgan talimni tashkil etish usullaridan biridir. Ushbu tizim XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida ingliz pedagoglari Andrew Bell va Joseph Lancaster tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘zaro o‘qitish (mutual instruction) yoki monitorlik tizimi deb ham ataladi.

Bell–Lankaster tizimning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, katta yoshli yoki ilg‘or o‘quvchilar (monitorlar) o‘zlaridan kichik yoki bilim darajasi pastroq bo‘lgan o‘quvchilarga dars o‘rgatishidir. Bunday yondashuv orqali bitta o‘qituvchi ko‘plab o‘quvchilarga ta’lim berishi mumkin edi. Bu tizimda Monitorlik usuli keng o‘rin tutadi.

Monitorlik usuli: Ilg‘or o‘quvchilar (monitorlar) o‘qituvchidan ko‘rsatmalar olib, boshqa o‘quvchilarga dars o‘tishardi.

Iqtisodiy samaradorlik: Kam sonli o‘qituvchilar bilan ko‘p sonli o‘quvchilarga ta’lim berish imkoniyati yaratildi. Elementar bilimlar: Asosan o‘qish, yozish va hisoblash kabi boshlang‘ich bilimlar o‘rgatilgan. Manifaktura uslubiga o‘xshashlik: O‘quv jarayoni ishlab chiqarishdagi kabi bosqichma-bosqich tashkil etilgan. Faqat shuni ta’kidlash joizki, Monitorlar tomonidan berilgan ta’lim sifati har doim ham yuqori bo‘lmagan. Shuning uchun ham o‘qituvchi doimo ular faoliyati bilan qiziqib, ularga qo‘shimchalar kiritib, kreativ yondoshishi maqsadga muvofiq.

Bell–Lankaster tizimi o‘z davrida keng tarqalgan bo‘lib, ayniqsa Angliya va Hindistonda ko‘p qo‘llanilgan. U arzon va ommaviy ta’limni tashkil etishda muhim rol o‘ynagan. Bugungi kunda esa bu tizim pedagogika tarixining muhim bosqichi sifatida o‘rganiladi.“Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtish” jarayonida Bell–Lankaster tizimidan kreativ foydalanish — tarixiy-pedagogik yondashuv asosida zamonaviy pedagogikaga metodik va nazariy asos qo‘shadi. Quyida bu tizimdan qanday ilmiy asosda foydalanish mumkinligini tushuntirib o‘tamiz:

1. Tarixiy-pedagogik tahlil sifatida kiritish
2. Biz ishning nazariy qismida pedagogik tizimlarning rivojlanish tarixiga to‘xtalganimizda, Bell–Lankaster tizimiga kreativ yondoshgan holda uni quyidagicha talqin qila olamiz:

O‘zaro o‘qitish (monitorlik) tizimi talabalarga bir-biriga yordam berish, o‘zaro maslahatlashish, oila haqidagi bilimlarni tarqatishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan qadimiy, lekin foydali uslub sifatida taqdim etiladi. Bu orqali biz pedagogik merosga tayangan holda zamonaviy modelni taklif qilayotganinmizni asoslaymiz.

Amaliy model uchun g‘oya sifatida, Bell–Lankaster tizimi prinsiplari asosida quyidagi taklifni ilgari surish mumkin:

Talabalar orasidan ilg‘or, ijtimoiy faol, ma’naviy yetuk bo‘lgan oilali qizlarni tanlab, ularni “monitor” sifatida tayinlash. Bu qizlar boshqa kursdosh qizlarga:

Oilaviy hayotda psixologik moslashuv, ijtimoiy rollarga tayyorlanish,konfliktlarni bartaraf etish ko‘nikmalari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bo‘yicha maslahatlar berib boradi(Tadqiqotlar natijasi o‘laroq, biz ushbu metodikadan talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida foydalanishni tavsiya qilishimizdan maqsad, 3-4-bosqichda tahsil oluvchi, oila qurgan talaba qizlarning oilaviy hayot borasidagi tajribasidan, kelinlik, onalik ma’sulyati, oila baxti(baxtsizligi)ga sabab bo‘luvchi

omillar haqida oila qurish ostonasida turgan talaba qizlar bilan o‘rtoqlashish, maslahatlar berish hamda amaliy yordam qilishlariga erishmoqdir. Chunki pedagogik tajribadan ma’lumki, shaxsning yosh xususiyatiga ko‘ra, akseliratsiya jarayoni sodir bo‘layotgan hozirgi davrda kattalarni pand-nasihatidan ko‘ra, yoshlarning, o‘zlariga yosh xususiyati jihatida dunyoqarashlari hayot haqidagi tasavvurlari, qarashlari muvofiq keladigan tengdoshlarining, yoinki, 3-4,5-6 yoshgina katta bo‘lgan o‘z jinslaridagi shaxslarning fikrlarini teranroq anglaydilar, maslahatlariga amal qiladilar, chunki ular bir-birlarini mukammalroq tushuna oladilar). Kichik guruhlar orqali ishlash — bu Bell–Lankaster tizimining amaliy aksidir.

Biz bu tizimni quyidagi bandlar doirasida ishlatishimiz mumkin:

1.Nazariy asoslar:

1.1. “Tarixiy pedagogik tajribalarda oila tarbiyasiga tayyorlashning o‘rni” — degan bandda Bell–Lankaster tizimiga qisqacha to‘xtalish.

1.2. Tarixiy-pedagogik tajribalarda oila tarbiyasiga tayyorlashning o‘rni

Tarixiy pedagogik tizimlar orasida Bell–Lankaster tizimi o‘zaro o‘qitish, ya’ni tengdoshlar orqali bilim va tarbiya berish prinsipi bilan ajralib turadi.

2. Amaliy modellar;

“Talaba qizlar uchun o‘zaro o‘rgatish asosida tashkil etilgan oilaviy maslahatchilar guruhi modeli” — bu Bell–Lankaster tizimi asosida quriladi.

3. Taklif va tavsiya sifatida

Bizning tavsiya sifatida ilgari surishimiz mumkin bo‘lgan jihat:

“Tarixiy-pedagogik tajribalardan, xususan Bell–Lankaster tizimidan ilhomlanib, zamonaviy talaba qizlar o‘rtasida tengdoshlar o‘rtasidagi tarbiyaviy hamkorlik modelini ishlab chiqish".

Taklif etiladigan model nomi

“Tengdoshlar orqali oilaviy ijtimoiylashuv modeli” (Bell–Lankaster yondashuvi asosida)

3. Model sxemasi (og‘zaki shakl)

1. Monitoring bosqichi

Talaba qizlar orasida yetuk, faol, ijtimoiy mas’uliyatli oilali shaxslar aniqlanadi.

2. O‘quv-maslahatchi tayyorlash bosqichi

Ularga psixologik-pedagogik, oilaviy rollar va munosabatlar haqida maxsus treninglar o‘tkaziladi.

3. Tengdoshlar guruhini shakllantirish bosqichi

Har bir “monitor” o‘z guruhiga bir nechta tengdosh qizlarni oladi.

4. Amaliy mashg‘ulotlar


Hayotiy vaziyatlar asosidagi muhokamalar, mini ma’ruzalar, psixorivoyatlar, pedogogik-psixologik treninglar, rolli o‘yinlar, maslahatchi suhbatlar.

5. Refleksiya va tahlil bosqichi

Har bir mentor faoliyatini baholash, takliflar olish va uni takomillashtirish.

Bu borada Bell–Lankaster tizimiga asoslanib, zamonaviy **tengdoshlar o‘rtasidagi tarbiyaviy hamkorlik modeli**ni ishlab chiqish – ilmiy va amaliy jihatdan

yondashuvga ega bo‘ladi. Quyida shu modelni yaratishga yordam beruvchi asosiy tarkibiy qismlar va takliflarni keltiraman:
Diagramma tuzilmasi (mazmuni):
Markaziy blok:
Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash
(asosiy maqsad)
1. Bosqich: Tarbiyaviy shart-sharoitlar
Oila va ta’lim muassasalari hamkorligi
Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya
Ijtimoiy-psixologik muhit
2. Pedagogik mexanizmlar
Bell–Lankaster tizimi asosida “katta-kichik” uslubi
Mentorlik (ustoz-shogird tizimi)
Tashabbuskorlik va muhokama asosida treninglar
Rolli o‘yinlar va situatsion mashg‘ulotlar
3. Natijaviy ko‘rsatkichlar
Mas’uliyat hissining ortishi
Oilaviy rollarni anglash
Kompromiss va muloqot madaniyati
Hayotiy muammoni hal qilish ko‘nikmalari.



Bell–Lankaster tizimi pedagogika tarixida katta ahamiyatga ega bo‘lgan, ayniqsa iqtisodiy jihatdan samarali va innovatsion yondashuvlarga asoslangan ta’lim usuli hisoblanadi. Bu tizimda ilg‘or oilali talaba qizlar orqali tengdoshlarini o‘qitish g‘oyasi nafaqat o‘quv jarayonini soddalashtirgan, balki o‘zaro hamkorlik va mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qilgan. Mazkur tizimga zamonaviy nuqtai nazardan ijodiy yondashib, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda undan samarali pedagogik model sifatida foydalanish mumkin. Bell–Lankaster tizimi

asosida yaratilgan ushbu model, tengdoshlar orqali ta’lim va tarbiyani uyg‘unlashtirib, talaba qizlarda oilaviy hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi va samarali ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ахмедов, Ш.Х. (2005). Педагогика тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”.
2.Oila pedagogikasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023yil 29 maydagi **“232”**-sonli buyrug’iga asosan Pedagogika(qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) talabalari uchun tavsiya etilgan.O‘quv qo‘llanma. № 232-682. 288b.t Namangan – 2023
3.Бордовская, Н.В., Реан А.А. (2000). Педагогика: Учебник для вузов. – Санкт-Петербург: Питер.
4.Anderson, R. D. (2004). Education and Opportunity in Victorian Scotland: Schools and Universities. – Oxford: Oxford University Press.
5. Bell, A. (1807). An Experiment in Education: Made at the Male Asylum of Madras. – London: Cadell & Davies.

МАҲАЛЛАЛАР БИЛАН ИШЛАШДА ОҒИР ТОИФАДАГИ ОИЛАЛАРГА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ КЎРСАТИШ

Жахонгирова Тожихон Шодмановна,
Наманган вилояти Янгиқўрғон тумани "Инсон" ижтимоий хизматлар маркази психологлар гурухи бош мутахассиси.

Аннотация: *Ушбу мақола маҳаллада аҳолининг турли гуруҳларига психологик хизмат кўрсатиш, махаллаларда олиб бориладиган психологик хизмат, аҳоли билан ишлаш, аҳолининг барча гуруҳларидаги ижтимоийпсихологик муаммоларни ўрганиш ва шу асосида психопрофлактик, психодиагностик, психокоррекцион ва психотерапевтик тадбирларни ташкил этишнинг ижтимоий психологик механизмларини такомиллаштириш ҳамда маҳаллада психологик хизмат самарадорлигини ошириш йўллари кўрсатиб ўтилган.*

Таянч сўзлар: *психологик хизмат, муаммоли шахслар, шахслараро муносабат, амалиётчи психолог, психологик хизмат мактаби .*

Аннотация: *В данной статье предусмотрена психологическая помощь различным группам населения, психологическая служба по месту жительства, работа с населением, изучение социально-психологических проблем у всех групп населения и на этой основе совершенствование социальнопсихологических механизмов психопрофилактической, психодиагностической , психокоррекционные и психотерапевтические мероприятия показаны пути повышения.*

Ключевые слова: *психологическая служба, проблемные личности, межличностные отношения, практический психолог, школа психологической службы.*

Annotation: *This article provides for psychological assistance to various groups of the population, a psychological service at the place of residence, work with the population, the study of socio-psychological problems in all groups of the population, and on this basis, the improvement of the socio-psychological mechanisms of psycho-prophylactic, psycho-diagnostic, psycho-correctional and psychotherapeutic measures are shown ways to improve.*

Keywords: *psychological service, problem individuals, interpersonal relationships, practical psychologist, school of psychological service.*

Ўзбекистонда ҳозирги кунга келиб маҳаллаларга бўлган муносабат тубдан ўзгарди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жамиятда

ижтимоиймаънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2020 йил 18 февралдаги ПФ-5938- сон Фармони ҳамда «Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб қувватлаш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида» 2020 йил 18 февралдаги ПҚ-4602-сон қарори ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг қарори. “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги қонунига биноан маҳаллалар давлатнинг жойлардаги муҳим таянчи, юридик шахс сифатида фаолият кўрсатди. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида жами 9627та фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи фаолият кўрсатмоқда, шундан 6855 таси юридик шахс мақомига эгадир. Бу жараёнда эса психологик хизмат амалиёти муҳим аҳамият касб этади. Психологик хизматнинг шаклланишининг назарий-илмий методологик асослари умумий психология шаклланиши билан боғлиқ узоқ тарихий илдизларга бориб тақалади. Албатта, психологик хизмат дастлабки психологик тушунчаларнинг пайдо бўлиш ва ривожланиш даврлари билан бевосита боғликдир.

Психологик хизмат методологиясини яратишда инсоннинг ҳиссий ҳолатини тушуниш ва унинг ўз меҳнати маҳсулларидан ижтимоий қониқиш жараёнини таҳлил қилиш ва ривожлантиришга бағишланган айрим тадқиқотларнинг ўрни ва истиқболига ҳам алоҳида эътиборни қаратиш лозим, деб ўйлаймиз. Масалан, Ф.Херцберг ва унинг издошлари томонидан меҳнат фаолиятини ташкил этишдаги эмоциоген фарқланиш механизмлари тадқиқ қилинди. Мазкур изланиш маҳсулига кўра меҳнат фаолиятини ташкил этишда ижодийлик, мустақиллик, ўз-ўзини билиш, ривожлантиришга қаратилган тадбирларга эътибор берилса, шахс фаолияти унумдорлигига ижобий таъсир этувчи ҳиссий кечинмаларни ва аксинча, фақат техник жараёндангина иборат бўлган меҳнат шароити яратилса, шахс фаоллигига салбий таъсир этувчи ҳиссий кечинмаларнинг намоён этилиши кузатилади. Дарҳақиқат,фаолиятнинг бажарилишига нисбатан ижобий-ҳиссий кечинмалар шакллантирилмас экан, фаолият маҳсули ҳам, инсоннинг ўз фаолиятидан ижтимоий маънодаги қониқиши ҳам ниҳоятда паст савияда бўлади. Психологик хизмат эса, бизнингча, худди ана шу ерда ўз таъсирини, яъни фаолиятдан ижтимоий қониқиш жараёнини маълум даражада юқори савияга кўтара олиш санъатини кўрсатиши лозим. Бугунги кунда психологик хизмат кўрсатиш амалиёти барча давлатларда турлича кўринишларда амалга оширилмоқда. Айнан маҳалла ҳаёти билан боғлиқ психологик тадбирларнинг олиб борилиши ушбу тизимда ўзига хос ижтимоий омилларнинг яққол намоён этилишини таъминлашга хизмат қилади. Зеро, маҳалла тизими ва бу тизимга ҳукумат томонидан юксак эътиборнинг қаратилиши фақатгина бизнинг мамлакатимизда ва бизнинг минг йиллик қадриятларимизга хос ва мосдир. Айни пайтда, маҳаллалар қадимқадимдан эзгулик бешиги, тарбия ўчоғи бўлган, миллий урф-одат анъаналар шаклланган маскан ҳисобланган. У одамлар ўртасида ўзаро меҳр-оқибат, бағрикенглик ва ҳамжиҳатлик қарор

топишида муҳим аҳамият касб этиб келган. Қолаверса, бугунги кунда ҳам биздаги маҳаллалар мамлакатимизда давлат бошқарувининг бирламчи бўғини, асосий устуни сифатида эътироф этилмоқда.

Маҳаллада психологик хизмат амалиётини ташкил этиш учун қуйидаги йўналишларга алоҳида эътибор қаратиш зарур:

1. Маҳаллада истиқомат қилувчи ҳар бир шахснинг ўзига хос психологик хусусиятларини ўрганиш асосида шахс харитасини тузиш.
2. Маҳаллада шахслараро муносабатлар тизимига баҳо бериш (маҳалла фаоллари ва маҳаллада яшовчилар ўртасида).
3. Маҳаллада муаммоли оилалар ва муаммоли шахсларни ўрганиш асосида ушбу муаммонинг психологик ечимларини излаш ва бартараф этиш.
4. Маҳалла, мактаб, оила ва профилактика инспектори ҳамкорлигини самарали тарзда ташкил этишнинг психологик таъсир мезонларини ишлаб чиқиш ва уни амалиётда қўллаш.
5. Маҳаллада уч авлод учрашувини ташкил этиш асосида ёшларга психологик таъсир этиш доирасини кенгайтириш.
6. Маҳалладаги қадриятларни ўрганиш ва шу қадриятларнинг таъсирчанлигига таяниб шахслардаги у ёки бу муаммоларни бартараф этиш.
7. Маҳалладаги жиноятларнинг содир этилиши ва суицид ҳолатларига олиб келувчи омилларни муайян ижтимоий психологик тамойиллар асосида таҳлил қилиш. Ушбу ҳолатга мойиллиги бор ҳар бир шахс билан индивидуал шуғулланиш.
8. Маҳаллада ногиронлиги мавжуд шахсларга алоҳида психологик ёндашув йўлларини кўрсатиш.
9. Маҳалладаги маънавий-иқтисодий ва мафкуравий жиҳатдан муаммоси бор шахслар билан тизимли ишларнинг ташкил қилинишига кўмаклашиш.
10. Маҳаллани ҳар томонлама тизимли равишда ўрганиб, унда истиқомат қилувчи ҳар бир оила ва ҳар бир шахснинг ўзига хос индивидуал психологик харитасини тузиш ва шу асосда маҳаллага психологик хизмат кўрсатишнинг илмий амалий жиҳатдан истиқболли режаларини ишлаб чиқиш ва уни амалиётда қўллаш.

Дарҳақиқат, бугунги кунда республикамизда маҳалла институти тараққиёти учун жуда кўплаб ишлар қилинмоқда. Айни пайтда маҳаллада яшовчи фуқароларнинг ўзаро муносабати, мулоқоти, улардаги маънавийпсихологик жиҳатларнинг тадқиқ қилиниши орқали ҳар бир маҳаллада психологик хизмат кўрсатиш бўлимлари очилмоқда. Айниқса, маҳалладаги уюшмаган ёшлар билан ишлаш, нотинч оилалар ва ногиронлар билан ишлашдаги психологик муаммолар аста-секин ечилиб бормоқда. Мазкур жавоблар изоҳи шуни тасдиқлайдики, демак, маҳалла тизими шахс руҳияти билан боғлиқ кенг кўламли муаммолар мажмуасини ўз ичига олганлиги боис бугунги кунда маҳаллада яшовчи аҳолининг турли гуруҳларига психологик хизмат кўрсатилиши шарт ва зарур экан юқоридаги назарий таҳлилларга асосланиб мазкур муаммо ечимлари бўйича қуйидагиларни алоҳида таъкидлаш жоиз. XX асрга келиб психологлар

ўзларининг навбатдаги жаҳоншумул илмий мақсадлари – инсонга, айни пайтда, жамиятга психологик хизмат кўрсатиш тизимининг муқаррарлигини назарий-илмий жиҳатдан асослаб беришга муваффақ бўлдилар. Маҳалла асрлар оша шаклланган шарқона ўзини ўзи бошқариш тизимидир. Шу боисдан кейинги пайтларда унинг фаолияти самарадорлигини ҳар томонлама ошириш ва ривожлантиришга, моддий-техник базасини мустаҳкамлаб, жамиятдаги нуфузини янада кўтаришга, ташкилий-ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлашга жиддий аҳамият берилди.

Дарҳақиқат, маҳалла институтини такомиллаштириш борасидаги чора-тадбирлар туб мазмунмоҳиятига кўра Ватанимиз тараққиётига, аҳоли турмуш фаровонлигини янада яхшилашга, фуқаролар йиғинлари ишини юқори даражада ташкил этишга хизмат қилади. Маҳаллада, оилага психологик хизмат кўрсатиш жараёнида турли ёшлардаги ва турли тоифалардаги оилаларга оилавий ҳаёт билан, оиладаги шахслараро муносабатлар билан, турли хил зиддиятлар билан боғлиқ барча вазиятларни таҳлил қилишда ва ижобий томонга йўналтиришда кўмаклашилади. Маҳаллада оилавий ҳаёт, меҳнат, катталар ва кичиклар ўртасидаги ўзаро муносабатлар, ахлоқий-маънавий қиёфалари, ота-оналарнинг сиёсий ва маънавий савиялари, уларнинг иқтисодий таъминланганлиги, турли кўринишдаги фаолиятлари, вақтни тўғри режалаштириш, яшаш шароитлари ва бошқалар оилавий тарбия самарадорлигини таъминловчи омил сифатида намоён бўлмоқда. Маҳаллада психологик хизматни ташкил этиш учун қуйидаги тавсияларга амал қилиш талаб қилинади: Оммавий ахборот воситалари: телевидение, радио, матбуот, интернет орқали маҳаллада психологик хизмат кўрсатишга оид чиқишларини ташкил қилиш. Республикамиздаги барча маҳаллаларга, оилаларга, ота-оналарга ҳамда болаларга психологик хизмат кўрсатиш ишларини юқори даражада йўлга қўйиш. Ҳар бир маҳалладаги носоғлом муҳитнинг психологик илдизларини аниқлаш ва уни коррекциялашнинг муайян имкониятларини очиб бериш. Ота-оналар ўртасида боланинг мулоқот сифатларидаги психологик хусусиятларга оид билимларни кенг тарғиб қилиш. Хулқи оғишган болалар тўдасига қўшилишга мойиллиги бор бўлган ўсмирларнинг сонининг камайиши учун ота-оналар ва ўқитувчилар билан ҳамкорликда психопрофилактик ишлар ва психотренинглар ташкиллаштириш. Психологик хизматга муҳтож ўғил ва қизларнинг ўз оиласидаги ҳаётга интилишини кучайтиришга қаратиш ҳамда ўсмирларнинг ота-оналарини ўз фарзандларининг эртанги кунига бефарқ бўлмасликка, ўз ота-оналик масъулиятини ҳис қилишга чақириш. Ота-оналар ва педагоглар учун ўқувчиларда ижобий шахсий сифатларни ва шахслараро муносабатларни шакллантиришни тўғри йўлга қўйиш учун махсус методик тавсияномалар ишлаб чиқиш. Ота-оналарнинг ва ўқитувчиларнинг болаларни яхши тушуниши учун улар билан яқиндан дўстона муносабатда бўлиб, ўзаро муаммоларини бартараф қилиш мақсадида суҳбатлашиш ва бир-бирини ўзаро тушунишга ҳаракат қилиш йўлларини билиш учун психологик маслаҳатлар олишга ундаш. Маҳаллада вояга етмаганлар билан ишлашда маҳалла

профилактика инспекторига алоҳида психологик кўрсатмалар бериш. Суицидга мойилликни намоён этиши мумкин бўлган болалар, ўсмирлар ва катталар билан алоҳида индивидуал ишлар олиб бориш. Жиноятчиликнинг олдини олиш профилактикасини ташкил этишда муайян мақсадларга қаратилган психопрофилактик ва психокоррекцион ишлар кўламини белгилаш ва уни амалга ошириш. Демак, юқоридаги ижтимоий-психологик талаблар асосида маҳаллаларда психологик хизматнинг ташкил этилиши аҳолининг турли гуруҳларида психологик билимларни янада кўпроқ тарғиб қилинишида муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2008.
2. «Таълим тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Олий таълим Меъёрий ҳужжатлари / Академик С.С. Ғуломов таҳрири остида. – Т.: “Шарқ”, 2001.
3–18. 3. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Олий таълим меъёрий ҳужжатлари / Академик С.С. Ғуломов таҳрири остида. – Т.: “Шарқ”, 2001.
4. Баротов.Ш.Р. Психологик хизмат: Магистрлар учун дарслик.- Т.: “Наврўз” нашриёти, 2018.
5. Баротов Ш.Р и др. Психологическая служба образования: от теории к практике. (Учебно - методическое пособие). – Бухара: Дурдона, 2017.

ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI

Otamuratov Rustam Uskanovich,
assistent o‘qituvchi, Oila psixologiya kafedrasi
O‘zMU Jizzax filiali, O‘zbekiston.
Sherqulova Gulshan Shokir qizi,
talaba, Oila psixologiya kafedrasi
O‘zMU Jizzax filiali, O‘zbekiston.

Annotatsiya. *Zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim muammolaridan biri innovatsion texnologiyalarni joriy etishdir. O‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, bu mavzu oliy ta’lim uchun juda dolzarbdir. Oliy ta’lim o‘qituvchilari ushbu muammoning ahamiyatiga muntazam e’tibor qaratib, talabalarning intellektual va shaxsiy rivojlanishi, jamiyatga empatik munosabatni rivojlantirish, aktuallashtirish, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini takomillashtirish tendentsiyasini rivojlantirish, nostandart ijtimoiy, pedagogik va uslubiy muammolarni innovatsion texnologiyalar yordamida hal qilish qobiliyatini ta’kidlab keladi.*

Kalit so‘zlar. *Innovatsiya, tendensiya, pedagog, startegiya, texnika, metod, metodologiya, texnologiya, sikl.*

Аннотация. *Одной из важнейших задач современной системы образования является внедрение инновационных технологий. По мнению преподавателей, эта тема очень актуальна для высшей школы. Преподаватели высшей школы постоянно обращают внимание на важность этой проблемы, подчеркивая важность интеллектуального и личностного развития студентов, формирования у них эмпатического отношения к обществу, развития стремления к самосознанию и самосовершенствованию, умения решать нестандартные социальные, педагогические и методические задачи с использованием инновационных технологий.*

Ключевые слова. *Инновация, тенденция, педагогика, стратегия, техника, метод, методология, технология, цикл.*

Annotation. *One of the most important problems of the modern education system is the introduction of innovative technologies. According to teachers, this topic is very relevant for higher education. Higher education teachers have been consistently paying attention to the importance of this problem, emphasizing the intellectual and personal development of students, the development of an empathetic attitude to society, actualization, self-awareness and the tendency to self-improvement, the ability to solve non-standard social, pedagogical and methodological problems with the help of innovative technologies.*

Keywords. *Innovation, trend, pedagogy, strategy, technique, method, methodology, technology, cycle.*

Kirish. Ta’lim sohasidagi hozirgi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda shuni ta’kidlash kerakki, ta’limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarni global texnologik o‘zgarishlar davrida ishlash va rivojlanishga o‘rgatish, shuningdek, zamonaviy texnologik dunyoda o‘zini tutish va o‘rganish strategiyasini ongli ravishda tanlashdir. Oliy ta’lim tizimining zamonaviy voqeliklarida, ko‘plab pedagoglar fikricha, eng yangi texnologiyalardan foydalanish samarali ta’lim natijasiga qaratilgan.

Maqolaning asosiy materialining taqdimoti. Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi iqtisodiyot, madaniyat va ta’lim sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Oliy ta’lim tizimini chuqur isloh qilishning tarkibiy qismlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorgarligiga innovatsion texnologiyalarning ta’siridir.

A.G.Asmolov ta’limdagi inqirozni tavsiflab, shunday ta’kidlaydi: “Zamonaviy sharoitda pedagogika Ya.A.Komenskiy davrida yaratilgan va boshidanoq bilimni o‘rtacha va uning kvantini, darslarda vaqtincha taqsimlash tamoyiliga asoslangan ommaviy ishlab chiqarish zavodi sifatida madaniyat modeliga yo‘naltirilgan, faqat shu davr uchun ma’qul edi” [1, 271-b]. Bugun biz ta’lim muammosining asosi eskirgan fikrlash usullaridan foydalanishda ekanligiga duch keldik. Bundan kelib chiqib, ta’limda innovatsion jarayonlardan foydalanish ixtiyoriy masala emas, balki zamonaviy oliy ta’limning zarurati hisoblanadi. G.Uells ta'kidlaganidek: “Insoniyat tarixi tobora ko'proq ta'lim va ofat o'rtasidagi poygaga o'xshaydi” [2, 266-b]. E.V. Fabricantova va E.E. Polyanskayaning so‘zlariga ko‘ra inson faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan ta’limda innovatsiyalardan foydalanishning asosiy sabablari quyidagilardir:

- global miqyosda axborotdan foydalanishga qaratilgan intellektual mehnatning rolini oshirish;
- bilimlarning tez qarishi, uning doimiy yangilanishi zarurati; sivilizatsiyamiz tarixida birinchi marta g‘oyalar avlodlari va inson faoliyati mahsulotlari odamlar avlodlariga qaraganda tezroq bir-birini almashtiradi. [3, 652-b]. A.Yu. Belogurova va T.V.Yarovovalar “ta’limdagi innovatsion texnologiyalar - bu bilimlarning maksimal hajmini o'zlashtirish, amaliy ko‘nikma va ko'nikmalarni egallash, ijodiy faoliyatni faollashtirishga yordam beradigan ta’lim effektlariga erishishga imkon beradigan, sifat jihatidan turli xil usullar va tamoyillarga qurilgan o‘quv jarayoni” deb hisoblaydilar. [4, 178-b].

Psixologik fanlarni o‘qitishda innovatsion usullar (“Umumiy psixologiya”, “Yosh psixologiyasi”, “Klinik psixologiya” va “Eksperimental psixologiya”)

talabaning ushbu fanlarni o‘zi o‘rganish istagiga asoslanadi, chunki har bir talaba psixikaning tashuvchisi va u birinchi navbatda o‘zini o‘rganishi kerak. Ushbu fanlarni o‘qitishdagi innovatsiyalar nafaqat shaxsning kognitiv sohasini o‘rganishga, balki fikrlashni takomillashtirishga (mahsuldor, tanqidiy, ijodiy), shuningdek, konstruktiv muloqot va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, talabalarning subyektiv qobiliyatlarini o‘rganishga asoslanadi.

O‘qituvchi uchun o‘quv jarayonini quyidagi tarkibiy qismlarni hisobga olgan holda tuzish muhimdir:

- talabalar samarali muloqot asoslarini - shaxslararo, guruh ichidagi va guruhlararo munosabatlardagi hamkorlikni o'rganadilar;
- tanqidiy fikrlashni takomillashtirish;
- turli kasbiy vazifalar va muammolarni hal qilishda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘quv jarayonini yanada innovatsion va samarali darajaga olib chiqadigan ko‘p qirrali tadqiqot usullaridan foydalanish samaralidir. Masalan, kuzatish usulini qo‘llashda o‘quvchilar kuzatilgan shaxs yoki guruhni keys topshiriqlari, amaliy mashg‘ulotlar, vaziyatli topshiriqlarni bajarish jarayonida kuzatishni o‘rganadilar. O‘z-o‘zini kuzatish va o‘z-o‘zini tahlil qilishni takomillashtirish jarayonlari aks ettirish va o‘z his-tuyg‘ularini tan olish va o‘zining psixo-emotsional holatini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Talabalarga nafaqat o‘rgatish, balki ularning ta’lim sifati va muvaffaqiyatini baholovchi texnologiyalar katta imkoniyatlarga ega.

Keling, ulardan ba’zilarini sanab o‘tamiz:

1. Loyiha usuli - bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun o‘qitish tizimi. Loyihaviy ta’lim bosqichma-bosqich, vazifalarning murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish bilan amalga oshiriladi. N.F. Yakovleva ushbu usulni quyidagicha tavsiflaydi: “Loyiha - bu muayyan ko‘nikma, qobiliyat va malakalarni rivojlantirish va rivojlantirishga imkon beradigan rivojlanish, o‘qitish va ta’limning integratsiyalashgan didaktik vositasi” [5, 424-b]. O‘qituvchi dizayn jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin - bu mustaqil o‘qituvchining roli. Talaba loyihaning ayrim bosqichlarini amalga oshirishda muammolarga duch kelishi mumkin, masalan, tanlov uchun bahslashish yoki uning ishini xolis baholash.

2. “Aqliy hujum” texnologiyasi ilgari yechimi bo‘lmagan yoki an’anaviy tarzda amalga oshirilgan turli masalalarni yechishda o‘quvchilarning ijodiy yondashuv darajasini baholash imkoniyatidir. Aqliy hujum - bu muammoni bir nechta ishtirokchilar tomonidan muhokama qilish. Muammoni hal qilishning iloji boricha ko‘p variantlarini, shu jumladan eng g‘ayrioddiy variantlarni ifodalash imkoniyati beriladi [6, 50-b]. Bu texnologiya o‘qituvchiga barcha o‘quvchilarni, hatto unchalik faol bo‘lmagan va o‘z fikrini ochiq bildirmaydigan talabalarni ham faollashtirish imkoniyatini beradi [7, 325-b].

Amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchi bir qator muammolarni hal qilish uchun “aqliy hujum” texnologiyasidan foydalanadi:

- talabalarni muammoli savollarga mustaqil ravishda javob topishga o‘rgatadi; tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

- munozara o‘tkazish qobiliyatini rivojlantiradi;
- ijodiy salohiyatni rivojlantiradi, chegaradan tashqari fikrlashga o‘rgatadi.

3. O‘yin texnologiyasi psixologik fanlarning o‘quv jarayonini faollashtirishning keng tarqalgan texnologiyalaridan biridir.

Keling, o‘yin texnologiyalari hal qiladigan vazifalarni sanab o‘tamiz:
- o‘yindan talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oraliq nazorat qilish uchun nazorat shakli sifatida foydalanish;
- o‘z fikrini shakllantirish va himoya qilish;
- ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish va amaliy qo‘llash: haqiqatga yaqin vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish; umumiy muammo yoki vazifa ustida jamoaviy ishlash;
- kelajakdagi kasbiy funktsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq holda talabalar auditoriyasining samarali va izlanish tafakkurini rivojlantiradi.

B.R. Mandelning ta’kidlashicha, o‘yindan foydalanish kelajakdagi mutaxassisning psixologik xususiyatlarini, uning psixoanalitik va psixologik-pedagogik fazilatlarini aniqlashga imkon beradi. B.R. Mandel quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
- intellektual (kasbiy kompetentsiya, bilimdonlik, plastika, tahliliy qobiliyat, moslashuvchanlik, aql-zakovat, ehtiyotkorlik, tanqidiy fikrlash, yaxshi o'rganish qobiliyati);
- muloqot qobiliyatlari (muloqot, moslashuvchanlik, aloqa, empatiya, tinglash qobiliyati, ishontirish qobiliyati, hazil tuyg'usi);
- kuchli irodali (stressga chidamlilik, qat'iyatlilik, chidamlilik, qat'iyatlilik, qat'iyatlilik, tashkilotchilik, muvozanat, jasorat, talabchanlik, intizom);
- tashkiliy (faollik, tashabbus, mas'uliyat, o'ziga ishonch, qat'iyatlilik, ob'ektivlik, samaradorlik, mustaqillik, korxona) [8, 185-b].

Ta'lim faoliyati va o'yin texnologiyalarini malakali tarzda uyg'unlashtirishni biladigan o'qituvchi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda optimal natijalarga erishishi mumkin. [9, 103-b].

Psixologik fanlarning amaliy mashg‘ulotlarida talabalarni jamoada (juftlikda) o‘zaro munosabatda bo‘lishga, guruh qarorlarini qabul qilishga, qo‘rqmaslikka va nizolardan qochmaslikka o‘rgatish va qiyin vaziyatlarda o‘z texnikasi yoki xatti-harakatlar modelini ishlab chiqishga o‘rgatadigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi [10, 3-b]. O‘qituvchi va talabaning ta’lim jarayonida interfaollik tamoyiliga rioya qilishlari muhim - bu dialog doirasida harakat qilish imkoniyatidir.

Psixologik sikl fanlarini o‘rganish jarayoni o‘z-o‘zidan maqsaddan talabalarning rivojlanish manbaiga aylanadi, o‘z tajribasini orttiradi, o‘zini va boshqalarni o‘rganadi, bu psixologik bilimlarni o‘zlashtirishga amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvni tavsiflaydi.

Xulosa. Shunday qilib, ta’kidlash kerakki, kadrlar tayyorlashda innovatsiyalardan foydalanish bir qator muammolarni hal qiladi:
- talabalarning shaxsiy va shaxsiy salohiyatini rivojlantirish; talabalar makonida va o‘qituvchi bilan muvaffaqiyatli muloqotni amalga oshirish;

- talaba shaxsini professional mutaxassis sifatida shakllantirish;
- o‘quv materialini nazariy va amaliy bilish jarayoniga talabalarni jalb qilish.

Ushbu innovatsion texnologiyalar o‘quv materialini o‘zlashtirishni osonlashtiradi, kasbiy va shaxsiy fazilatlarni shakllantiradi, shuningdek, psixologik fanlar kursini yanada samarali o'rganishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Otamuratov R., Husenova M. MALAKATIMIZDA INKLYUZIV TA’LIM TARAQQIYOTI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 271-274.
2. Otamuratov R., Muhammadiyev A. PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 266-269.
3. Отамуратов Р., Юлдошев Н. Ijtimoiy fanlar tizimida yuridik psixologiyaning umumiy vazifalari //Новый Узбекистан: наука, образование и инновации. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 650-652.
4. Otamuratov R. U. Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarning aloqasi //MedUnion. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 177-182.
5. Отамуратов Р., Отамуратова С., Розикулова Д. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 423-428.
6. Otamuratov R. U. O‘SMIRLARDAGI KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special Issue 1. – C. 49-54.
7. Отамуратова С., Отамуратов Р. Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarining psixologik tahlili //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 323-328.
8. Отамуратов Р. У. ХАРАКТЕРИСТИКИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ ИНТЕРНЕТА //Yangi O ‘zbekiston ustozlari. – 2024. – Т. 2. – №. 31. – С. 184-187.
9. Otamuratov R., Internet foydalanuvchilari hisiy intellekt xususiyatlari. PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI., Professor Ergash G‘oziyevich G‘oziyev xotirasiga bag‘ishlanagan xalqaro Uchinchi ilmiy amaliy konfrensiyasi. – 2024. – T: 102-106 b.
10. Отамуратов, Р. У. Психологические особенности эмоционального интеллекта человека в интернет-среде (на примере молодёжь) / Р. У. Отамуратов, П. Н. Устин // Мир науки. Педагогика и психология. — 2023. — Т. 11. — No 5. — URL: https://mir-nauki.com/PDF/15PSMN523.pdf

RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA YANGI O‘ZBEKISTON UNIVERSITETLARINING ROLI

Sobitova Madinabonu
Namangan Davlat Pedagogika Insituti
Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi
“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Yangi O‘zbekiston sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda universitetlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan oliy ta’lim islohotlari, xorijiy tajribaning tatbiqi, yangi ta’lim modellari va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi orqali kadrlar tayyorlash tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, raqobatbardosh kadrlar, oliy ta’lim, universitetlar, ta’lim islohotlari, kredit-modul tizimi, xalqaro hamkorlik, zamonaviy texnologiyalar, raqamli ta’lim, mehnat bozori.*

Аннотация: *В данной диссертации анализируется роль и значение вузов в подготовке конкурентоспособных кадров в условиях нового Узбекистана. Благодаря проводимым в стране реформам высшего образования, внедрению зарубежного опыта, внедрению новых образовательных моделей и цифровых технологий, система подготовки кадров выходит на качественно новый уровень.*

Ключевые слова: *новый Узбекистан, конкурентоспособные кадры, высшее образование, университеты, образовательные реформы, кредитно-модульная система, международное сотрудничество, современные технологии, цифровое образование, рынок труда.*

Annotation: *this thesis analyzes the role and importance of universities in the training of competitive personnel in the conditions of New Uzbekistan. Through the reforms of Higher Education carried out in the country, the introduction of foreign experience, the introduction of new educational models and digital technologies, the personnel training system is reaching a qualitatively new level.*

Keywords: *new Uzbekistan, competitive personnel, higher education, universities, educational reform, credit-module system, International Cooperation, modern technologies, digital education, labor market.*

Kirish: Global raqobat tobora kuchayib borayotgan XXI asrda har bir davlat o‘z taraqqiyotini zamonaviy bilimga ega, tashabbuskor va innovatsion fikrlovchi kadrlar bilan ta’minlashga intilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham zamonaviy oliy ta’lim tizimini shakllantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangani bejiz emas. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: *“Yangi O‘zbekiston – bu avvalo, yangi ta’lim, yangi fikrlaydigan, bilimli yoshlar demakdir”*[1]. Aynan oliy ta’lim muassasalari har qanday davlatning ilmiy-intellektual salohiyatini belgilovchi markazlar sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli farmonida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash, oliy ta’limda kredit-modul tizimini keng joriy etish, xalqaro hamkorlik asosida qo‘shma dasturlarni rivojlantirish kabi qator vazifalar belgilandi[2]. Bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan 200 dan ortiq oliy ta’lim muassasalarining bir qismi xorijiy universitetlarning filiallari yoki xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim dasturlari asosida ishlamoqda. Shu orqali bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi, kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan bitiruvchilarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ta’lim sifati – mamlakat taraqqiyoti mezoni ekani hamisha isbot topib kelgan haqiqatdir. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham bu borada shunday degan edi: *“Agar bir xalqni obod qilishni istasang, avvalo uning ilm-fanini, ta’lim-tarbiyasini rivojlantir”[3]*.

Ushbu tezisda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda Yangi O‘zbekiston universitetlarining o‘rni, ularning zamonaviy o‘zgarishlarga moslashuvi, ta’lim

sifati va innovatsion yondashuvlar asosidagi faoliyati tahlil qilinadi. Mazkur masalaga oid qonuniy asoslar, amaliy yutuqlar hamda dolzarb muammolar ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lida oliy ta’lim tizimi strategik resurs sifatida ko‘rilmoqda[4]. Chunki raqobatbardosh kadrlar — bu nafaqat o‘z mutaxassisligini chuqur biladigan, balki tanqidiy fikrlovchi, axborotni tahlil qila oladigan, texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega, xorijiy tillarni biladigan va jamoada ishlash qobiliyatiga ega shaxslardir. Bunday kadrlarni tayyorlashda universitetlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu maqsadda O‘zbekiston hukumati tomonidan qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi PQ–5847-sonli qarori bilan 2030-yilgacha oliy ta’lim muassasalari sonini ko‘paytirish, ta’lim dasturlarini zamonaviylashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish vazifalari belgilandi[5]. Ushbu islohotlar natijasida, 2016-yildan beri mamlakatimizda 100 dan ortiq yangi OTMlar va ularning filiallari tashkil etildi, 40 dan ziyod xorijiy oliygohlar O‘zbekistonda faoliyat boshladi. Bu esa raqobat muhitini shakllantirib, ta’lim sifatining oshishiga xizmat qilmoqda. Bugungi universitetlar faoliyati endilikda faqat dars berish bilan cheklanmaydi. Ular ilmiy-tadqiqot ishlari, startap loyihalar, inklyuziv ta’lim, moliyaviy mustaqillik va xalqaro reytinglarga kirish uchun izchil harakat qilmoqda. Masalan, Toshkentdagi Inha, Turin, Westminster universitetlari xalqaro reytinglarda ko‘rinmoqda va bitiruvchilari global mehnat bozorida raqobatbardoshlik kasb etmoqda[6]. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda kredit-modul tizimining joriy etilishi ham muhim o‘rin tutadi. Bu tizim talabalarga mustaqil tanlov imkoniyatini beradi, tanlov fanlari orqali o‘z yo‘nalishini chuqurlashtirishga sharoit yaratadi. Bunda "talaba – ta’lim jarayonining markazida" degan yondashuv asosiy prinsip sifatida qaralmoqda. Biroq, oliy ta’lim tizimida mavjud ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ba’zi universitetlarda amaliyotga yo‘naltirilgan fanlar yetarli emasligi, zamonaviy laboratoriya va texnologik bazaning sustligi, o‘qituvchilarning malaka oshirish tizimining zaifligi raqobatbardoshlikni pasaytiruvchi omillardandir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-iyuldagi 433-son qarori asosida har bir oliy ta’lim muassasasida ilg‘or xalqaro tajribalar asosida “professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish markazlari” tashkil etilishi belgilangan[7]. Shuningdek, universitetlar mehnat bozorining real ehtiyojlari bilan uyg‘un ishlashi lozim. Bunda ish beruvchilar bilan hamkorlikda o‘quv dasturlarini tuzish, talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini kuchaytirish, mentorlik tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ushbu yondashuv asosida “dualist ta’lim” tajribalari joriy qilinmoqda. Yana bir muhim jihat – raqamli transformatsiyadir[8]. Universitetlar “EdTech” sohasiga keng kirib bormoqda: masofaviy ta’lim, onlayn kurslar, elektron kutubxonalar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim sifati oshirilmoqda. Bu esa talabalarning axborot texnologiyalariga moslashishini tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston universitetlari raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim strategik kuchga aylanishi uchun tizimli, izchil va ilg‘or yondashuvlarni talab etadi. Bu esa nafaqat oliy ta’lim sifatini oshiradi, balki mamlakatning kelajak taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni. — www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2909-sonli qarori. — 2017-yil 20-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). — 2020-yil 23-sentabr. — www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida boshqaruvning yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ–153-sonli qarori. — 2022-yil 28-dekabr.
5. Қаюмов, Б. З. Ў., & Абдураҳмонов, О. А. Ў. (2021). ТАЛАБАЛАРДА ШАХСИЙ ВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 750-754.
6. Qayumov Baxtiyor. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT MOTIVATION. Next Scientists Conferences, 1(01), 24–27. Retrieved from https://nextscientists.com/index.php/science-conf/article/view/261
7. Baxtiyor, Q. (2024). CREATIVITY AS A RESEARCH SUBJECT IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(07), 76-80.
8. Baxtiyor, Q. (2023). O‘SMIR SHAXSIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TIZIMINING O‘RNI. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 178-183.
9. Toxirovna, M. N. Annotation. This article examines the problem of implementing a systematic approach to the professional training of future teachers at the university, as this allows predicting their pedagogical activity.
10. Маматханова, Н. Т. (2021). Талабаларни ижтимоий-педагогик фаолиятга тайёрлашни ривожлантиришда аксиологик таълимнинг ўрни. Современное образование (Узбекистан), (3 (100)), 26-31.
11. Мамацанова, Н. (2021). Роль предмета «социальная педагогика» в подготовке будущих учителей к социально-педагогической деятельности. Психология и педагогика: Проблемы и решения, 1(1), 12-16.
12. Mamatkhanova, N. T. (2021). Formulation of social intelligence as a professionally important quality of a teacher. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(2), 390-397.
13. Маматханова, Н. Т. (2017). Об исследованиях воли и волевых качеств личности в психологии. NovaInfo. Ru, 2(60), 511-515.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TA`LIMDA LIDERLIK KO`NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ALFRED ADLERNING G’OYALARIDAN FOYDALANISH

Dexkonova Marg’uba Erkinovna
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o’qituvchisi
Abdurahimov Adashali Avazbek o’g’li
Psixologiya yo’nalishi talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada liderlik tushunchasining psixologik mazmuni, va rivojlanish bosqichlari tahlil etilgan. Maqolada Alfred Adler va boshqa psixologiya sohasidagi olimlarni insonlarni boshqarish, ustunlikka erishishga oid klassik va zamonaviy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so`zlar; *Alfred Adler, Nomukammallik kompleksi, Ustunlikka erishishga intilish, agressivlik, liderlik, Ijodiy men, psixoanalitik yo'nalish.*

Annotation*. This article analyzes the psychological content of the concept of leadership, and the stages of development. The article examines Alfred Adler and other scholars in psychology with classic and modern approaches to human Management, Mastery.*

Keywords; *Alfred Adler, imperfect complex, striving for superiority, aggressiveness, leadership, creative me, psychoanalytic orientation.*

Аннотация*. В данной статье анализируется психологическое содержание и этапы развития понятия лидерства. В статье рассматриваются классические и современные подходы Альфреда Адлера и других ученых в области психологии к управлению людьми, достижению превосходства.*

Ключевые слова; *Альфред Адлер, комплекс неполноценности, стремление к превосходству, агрессивность, лидерство, творческое я, психоаналитическая ориентация.*

Z.Freydning shaxsga bo'lgan yondashuvini ayrim olimlar kengaytirishga, ayrimlar esa qaytadan ko'rib chiqishga harakat qilishgan va bunday harakatlar tarixda psixodinamik yo'nalishning muhim davri hisoblangan. Z.Freyd, o'zining qarashlarini bo'lgan ko'pgina intellectual insonlarni ilhomlantirgan va o'ziga jalb qilgan. Bu olimlarning ba'zilari psixoanalizga nazariy sistema sifatida sodiq qolishgan va faqat bu nazariyaga sayqal berib, uni zamonga moslashtirishgan. Boshqalar bo'lsa o'zga yo'nalishda ketib, xususiy, ko'pincha antogonistik o'rin egallashgan. Ikki taniqli nazariyotchi olim – Alfred Adler va Karl Gustav Yung Z.Freyddan ajralib, o'zlarining shaxsiy original nazariy sistemalarini yaratish yo'lini tanlashgan. Ularning ikkisi ham boshida psixoanalitik yo'nalishning namoyondalari bo'lib, Freyd nazariyasining kengligi va yangiligini qo'llab-quvvatlashgan. Lekin keyinchalik vaqt o'tishi bilan ular ustozining ayrim qarashlaridan norozi ekanliklarini aytishgan. Chunki Z.Freyd inson hayotining markazi deb asosiy e'tiborni jinsiy va agressiv mayillarga qaratgan. Boshqa olimlar bilan Z.Freyd o'rtasida turli o'rinlarda ziddiyatlar kelib chiqdi va ular o'zaro raqobatlahsadigan maktablar tuzishdi. Lekin Adler va Yungdan tashqari ularning hech biri Freyd nazariyasi bilan raqobatlasha oladigan mustaqil nazariya yarata olishmadi. Adler nazariyasining asosi shundan iboratki, uning fikricha individ jamiyatdan ajralgan holda yashashi mumkin emas.

Alfred Adler 1870-yil 7-fevral kuni Vena shahrida tug'ilgan. U ham ko'p farzandli honadonlarni birida tavallud topdi. U otasi tomonidan juda erka tarbiya qilingan bo'lsa ham hayoti mobaynida yetarlicha qiyinchiliklar ko'rgan. Yevrey bolalar ichida ulg'aygan Alfred maktab yillari otasini qattiq qo'ligi bilan matematikadan eng a'lochi o'quvchiga aylandi. Shuniingdek o'zini tibbiyot sohasiga bag'ishlashga qaror qabul qildi. Talabalik yillarida Freydga shogird bo'lgan Alfred o'zini ishlarida Freydga qarshi ham ish olib boradi . Nomukammallik kompleksidan foydalangan holda juda ko'plab ishlarni amalga oshiradi Alfred Adlerning nazariyasida ustunlikka erishish inson hayotining asosiy qonuni sifatida ko'riladi. Adler insonning nomukammallik hissi va kompensatsiya jarayonlari orqali o'zini rivojlantirishga, yaxshilanishga intilishini ta'kidlaydi. Ustunlikka erishishga intilish — bu tug'ma xususiyat bo'lib, inson hayotida doimiy harakat va o'sish uchun asosiy motiv hisoblanadi. Bu intilish insonni nomukammallikdan

mukammallikka, layoqatsizlikdan layoqatlilikka olib boradi va hayotdagi muammolarni dadil qabul qilishga undaydi. Adlerning individual psixologiyasi insonni bir butun sifatida koʻradi va uning xulq-atvori maqsadga yoʻnaltirilgan deb hisoblaydi. Ustunlikka erishish intilishi shaxsning hayot tarzi va ijtimoiy qiziqishlari bilan chambarchas bogʻliq. Bu nazariyaga koʻra, inson oʻzining pastlik hissini kompensatsiya qilish uchun ijtimoiy muhitda faol boʻlishga, boshqalar bilan yaxshi munosabatlar oʻrnatishga harakat qiladi. Ustunlikka erishish intilishi shaxsning oʻzini oʻzi rivojlantirish, ijtimoiy muhitga moslashish va boshqalar bilan hamkorlik qilish orqali namoyon boʻladi. Adler nazariyasida bu jarayon ijtimoiy manfaatdorlik (ijtimoiy qiziqish) bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, shaxsning oʻz ustunligini faqat boshqalar manfaatiga xizmat qilgan holda amalga oshirishi muhim sanaladi. Nomukammallik kompleksi esa bolalikdagi jismoniy kamchiliklar, haddan ziyod qaramlik yoki ota-ona tomonidan inkor etilish kabi omillar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin va bu holat shaxsning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir koʻrsatadi. Adlerning fikricha, ustunlikka erishish intilishi inson hayotining fundamental qonuni boʻlib, bu intilish insonni oʻz imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishga, hayotdagi muammolarni dadil yengishga va ijtimoiy muhitda faol boʻlishga undaydi. Bu jarayon shaxsning hayot tarzi va xulq-atvorining barcha jabhalarini shakllantiradi, shu jumladan fikrlash, hissiyotlar va xatti-harakatlarni. Nomukammallik kompleksi koʻpincha bolalikda yuzaga keladi va uch asosiy omil bilan bogʻlanadi: tugʻma jismoniy kamchiliklar, haddan ziyod qaramlik va ota-onaning inkor etilishi Bu kompleks shaxsda oʻzini kuchsiz va nochor his qilishga olib kelishi mumkin, lekin ustunlikka erishish intilishi orqali inson bu holatdan chiqishga harakat qiladi.

Adler ustunlikka erishishga intilishning ikki yoʻnalishini ajratadi: pozitiv va negativ. Pozitiv yoʻnalishda shaxs oʻz ustunligini jamiyat farovonligi uchun ishlatadi, boshqalar bilan hamkorlik qiladi va ijtimoiy manfaatdorlikni rivojlantiradi. Negativ yoʻnalishda esa shaxs egoistik, boshqalarni hisobga olmaydigan, hokimiyatga intiluvchi boʻlishi mumkin. Ustunlikka erishish intilishi inson hayotining tabiiy va zaruriy qismi boʻlib, bu intilish insonni oʻz imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishga, hayotdagi muammolarni jasorat bilan yengishga va ijtimoiy muhitda faol boʻlishga undaydi. Adler nazariyasida bu jarayon shaxsning hayot tarzi va xulq-atvorining barcha jabhalarini belgilaydi, shu jumladan fikrlash, hissiyotlar va xatti-harakatlarni.

Ustunlikka erishishga intilish insonning tugʻma xususiyati boʻlib, nomukammallik hissidan mukammallikka, layoqatsizlikdan layoqatlilikka oʻsishni ifodalaydi. Adlerga koʻra, inson bolalikda oʻzini nomukammal his qilishi va bu hisni kompensatsiya qilishga intilishi hayot tarzi va xulq-atvorining asosini tashkil etadi. Ustunlikka erishish nafaqat shaxsiy oʻsish, balki ijtimoiy qiziqish va boshqalar bilan hamkorlik orqali amalga oshadi. Adler individual psixologiyasida insonni bir butun sifatida koʻrib, uning harakatlari maqsadga yoʻnaltirilgan deb hisoblaydi. Shunday qilib, ustunlikka erishish intilishi insonni hayotdagi qiyinchiliklarni yengishga, oʻzini rivojlantirishga va ijtimoiy muhitda faol boʻlishga undaydi. Bizni harakatga keltiruvchi narsa bu nomukammallik hissidan qutulishga bo’lgan ehtiyojmi? Yoki biz boshqalar ustidan shavqatsizlarcha hukmron bo’lishga intilamizmi? Yoki

bo’lmasam bizga yuqori mansab kerakdir? Bu savollarga javob izlab vaqt o’tgani sari Adlerning taassurotlari o’zgarib bordi. O’zining dastlabki fikrlarida Adler shunga ishonchi komil ediki, inson xulq-atvorini boshqaruvchi eng katta kuch – bu agressivlikdan boshqa narsa emas edi. Keyinchalik u agressivlik haqidagi fikrini “hukmron bo’lishga intilish”ga o’zgartirdi. Bu konsepsiyada zaiflik feminizmga, kuchlilik esa maskulizmga tenglashtirilgan edi. Bu Adler nazariyasi rivojining shunday bosqichi ediki, unda Adler “маскулинный протест”(maskulizmga qarshi norozilik, e’tiroz) ya’ni giperkompensatsiya formasini ilgari surgan va bu formani ikkala jins vakillari nochorlik va nomukammallik hislarini yo’qotishga urinish maqsadida foydalanishadi. Lekin vaqt o’tgani sayin Adler “маскулинный протест” konsepsiyasi oddiy, normal odamlarning xulq-atvorlari motivatsiyasini tushuntirish uchun qoniqarsiz deb hisoblab undan voz kechdi. Uning o’rniga Adler bundanda kengroq tushunchani ilgari surdi va unga ko’ra insonlar ustunlikka erishishga intilishadi va bu ustunlikka erishish kompleksidan butunlay farq qiladi. Shunday qilib, Adlerning fikricha inson hayotidagi asosiy maqsadlari 3 etapga bo’linadi: agressiv bo’lish, qudratli bo’lish va hech kim tenglasha olmaydigan bo’lish. Adler o’z hayotining oxirlarida shunday xulosaga keldiki, ustunlikka erishishga intilish – bu inson hayotining asosiy qonuni va busiz inson hayotini tasavvur qilib bo’lmaydi. Bu “buyuk ehtiyoj” manfiydan musbatga, nomukammalikdan mukammallikka, layoqatsizlikdan layoqatlilikka tomon o’sadi va har bir inson o’z hayotida mavjud bo’lgan muammolarni qo’rqmasdan, dadillik bilan yuzma-yuz qarshi oladi. Adlerning shunga ishonchi komil ediki, ustunlikka erishishga intilish – bu tug’ma xususiyat va biz undan xalos bo’la olmaymiz. Chunki bu intilish aynan hayotning o’zidir. Shunga qaramasdan, agar biz o’z imkoniyatlarimizni amalga oshirmoqchi bo’lsak, bu hissiyotni tarbiyalashimiz va rivojlantirishimiz kerak. Tug’ilganimizda u bizda real mavjud bo’lgan narsa emas, balki nazariy imkoniyat ko’rinishida bo’ladi. Har birimiz bu imkoniyatni o’zimizga xos yo’l bilan namoyish qilishimiz kerak bo’ladi, xolos. Adlerning fikricha, bu jarayon hayotiy maqsad shakllanayotgan bir paytda, ya’ni 5 yoshda boshlanar ekan. Bolalik davrida shakllanishni boshlagan bu jarayon dastlab tushunarsiz va anglanmagan bo’ladi. Lekin kelajakda vaqt o’tgani sayin bu hayotiy maqsad hayotimizni boshqaruvchi va unga mazmun bag’ishlovchi motivlar va kuchlarning asosiy manbasi bo’lib xizmat qiladi. Adler ustunlikka erishishga intilishining tabiati va harakatlari haqida turli xil qo’shimcha fikrlarni taklif qilgan. Birinchidan, unga alohida mayillar yig’indisi emas, balki yagona muhim motiv deb qaragan. Bu motiv shuni ko’rsatadiki, bola o’zini atrofidagilarga nisbatan kuchsizligini anglay boshlaydi. Ikkinchidan, bu oldinga va yuqoriga bo’lgan buyuk intilish o’z tabiatiga ko’ra universaldir: u hamma uchun umumiydir, normada va patalogiyada ham. Uchinchidan, ustunlikka erishish maqsad sifatida negativ (destruktiv) hamda pozitiv (konstruktiv) yo’nalishlarga ega bo’ladi. Negative yo’nalish quyidagi toifa odamlarida bo’ladi: ular adaptatsiyaga qiynalishadi, ustunlikka erishish uchun o’zlarini egoistlarcha tutishadi va boshqalarning hisobiga bo’lsa ham shon-shuhratga erishish uchun harakat qilishadi. Yaxshi moslashuvchan odamlar esa, aksincha, ustunlikka erishishga intilishda pozitiv yo’nalishga ega bo’lishadi va ularning qilgan ishlari boshqa insonlar

farovonligi uchun xizmat qiladi. To’rtinchidan. Adlerning ta’kidlashicha, ustunlikka erishishga intilish katta energetic sarf va kuch bilan bog’liqdir. Beshinchidan, ustunlikka erishishga intilish nafaqat individ o’zida, balki jamiyatda ham namoyon bo’ladi. Demak, Adler insonlarni tashqi olam bilan moslashib yashovchi, lekin uni doimo yaxshilab borishga intiluvchi sifatida tasvirlagan.

Ijodiy Men konsepsiyasi Adler nazariyasining eng asosiy konstrukti hisoblanib, personolog sifatida erishgan eng yuqori natijasidir. Adler bu konstruktni yaratib o’z sistemasiga kiritganida qolgan barcha konsepsiyalar bunga bog’liq bo’lib qolgan. Inson hayotiga ma’no bag’ishlovchi asosiy faol prinsiplar bu konsepsiyada o’z aksini topgan edi. Adler aynan shu narsani qidirgan edi. Uning ta’kidlashicha, hayot tarzi shaxsning ijodiy qobiliyatlari ta’siri ostida shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir inson o’z hayot tarzini o’zi mustaqil yaratish imkoniyatiga egadir. Shunday qilib, insonlarning kim bo’lishi va o’zini qanday tutishi bu ularning o’zlariga bog’liqdir. Bu ijodiy kuch inson hayoti maqsadi uchun javob beradi, ushbu maqsadga qanday yo’l bilan yetishishini aniqlaydi hamda ijtimoiy qiziqishlarining rivojlanishiga yordam beradi. Xuddi shu ijodiy kuch insonning idrokiga, xotirasiga, fantazilyalariga va tushlariga ta’sir ko’rsatadi. U har bir individni mustaqil o’z taqdirini o’zi belgilaydigan inson bo’lishida muhim o’rin egallaydi. Ijodiy kuch borligini ta’kidlagan Adler shaxsning shakllanishida irsiyat hamda atrof-muhit ta’sirini ham rad etmagan. Har bir chaqaloq noyob genetik imkoniyatlari bilan tug’iladi va u tez orada o’zining unikal ijtimoiy tajribasiga ega bo’ladi. Lekin insonlar irsiyat va atrof-muhit ta’siri natijasidan ham ko’proq ma’noni anglatadi. Insonlar ijodkor mavjudotdir, ular atrofmuhit ta’sirlariga javob berib qolmay, ularga o’z ta’sirini o’tkazadi hamda ulardan javob reaksiyasini ham qabul qilishadi. Inson shaxs binosini qurishda irsiyat va muhitdan qurilish materiali sifatida foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.«Теория личности» - Larri A. Xell, Deniel Dj. Zigler
2.«Теория личности» - K.Xoll, G.Lindsey
3.“Umumiy psixologiya” – E.G’oziyev
4.«Психология индивидуальных различий» - M.S.Yegorova
5.“Психология личности” – G.Olport
6.“Детство и общество” – E.Erikson

ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TA’LIM VA PSIXOLOGIYANI O'QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Ismatova Maftuna Xikmatullo qizi
Psixologiya 1-kurs magistranti
Maxsudova Mutabar Abdusalomovna
Psixologiya kafedrasi dotsenti
Namangan Davlat Universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy psixologik ta’lim tizimi va psixologiyani o‘qitishda qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, raqamli platformalar, multimedia vositalari va onlayn ta’lim shakllarining samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, psixologiyani o‘rganishda ijodiy yondashuv va amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Psixologik ta’lim, innovatsion texnologiyalar, o‘qitish metodikasi, raqamli platformalar, interaktiv o‘qitish, psixologiyani o‘rganish, ta’lim jarayoni.*

Аннотация: *В статье рассматриваются современные подходы к психологическому образованию и инновационные технологии, используемые в преподавании психологии. Анализируется эффективность интерактивных методов, цифровых платформ, мультимедийных средств и онлайн-обучения в образовательном процессе. Также подчёркивается значение творческого подхода и практических занятий в освоении психологических знаний.*

Ключевые слова: *Психологическое образование, инновационные технологии, методика преподавания, цифровые платформы, интерактивное обучение, изучение психологии, образовательный процесс.*

Annotation: *This article explores modern approaches to psychological education and the use of innovative technologies in teaching psychology. It analyzes the effectiveness of interactive methods, digital platforms, multimedia tools, and online learning in the educational process. The importance of a creative approach and practical training in mastering psychological knowledge is also highlighted.*

Keywords: *Psychological education, innovative technologies, teaching methodology, digital platforms, interactive learning, psychology studies, educational process.*

XXI asrda ta’lim sohasida yuz berayotgan tub islohotlar va texnologik yutuqlar psixologik ta’limga nisbatan yangicha, zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. An’anaviy o‘qitish uslublarining o‘rnini interaktiv, talabani markazga qo‘ygan, moslashtirilgan va raqamlashtirilgan ta’lim modellari egallamoqda. Global miqyosda ta’lim jarayoni raqamli transformatsiyadan o‘tmoqda va bu jarayon psixologiya fanini o‘qitishda ham sezilarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, onlayn ta’lim platformalari, virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va multimediaviy vositalarning jadal rivojlanishi natijasida o‘quvchilarning psixologik bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni ancha tezlashdi va samaraliroq bo‘ldi [4]. Masalan, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi.

Onlayn ta’lim platformalari — Google Classroom, Coursera, Moodle, Khan Academy kabi resurslar orqali psixologiya kurslari ham nazariy, ham amaliy jihatdan interaktiv usulda o‘rgatilmoqda. Talabalar o‘zlariga qulay vaqtda bilim olishlari, materialni qayta ko‘rib chiqishlari, psixologik testlar va topshiriqlarni elektron tarzda bajarishlari mumkin. Bu esa ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshiradi [5].

Bundan tashqari, zamonaviy o‘quv metodikalarida psixologik konsepsiyalarni tushuntirishda rolli o‘yinlar, voqeaviy modellashtirish (case-study), guruhiy muhokamalar va muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning chuqurroq tahliliy fikrlashiga yordam beradi. Ayniqsa, psixologik treninglar orqali talabalarda empatiya, faol tinglash, muammoni aniqlash va hal etish kabi muhim ko‘nikmalar shakllanadi.

Shuningdek, pandemiyadan so‘ng global ta’lim tizimi keskin masofaviy shaklga o‘tdi va bu jarayon, ayniqsa, psixologik ta’limda innovatsion vositalarning qanchalik zarur va foydali ekanini isbotladi. Hozirgi kunda nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham

psixologiyani zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish bo‘yicha yangi bosqich boshlangan deyish mumkin [3].

Bugungi kunda psixologik ta’lim nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilmoqda . Talabalar faqatgina darsliklar orqali emas, balki turli onlayn kurslar, vebinarlar, simulyatsiya dasturlari orqali ham o‘qitilmoqda . Bu esa ularning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, tahliliy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi [1].

Innovatsion texnologiyalar psixologiyani o‘qitishda quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda:

1. **Raqamli platformalar** – Moodle, Google Classroom, Zoom, Microsoft Teams kabi platformalar orqali masofaviy ta’lim samarali tashkil etilmoqda [2].
2. **Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR)** – psixologik vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali talabalar real hayotga yaqin muhitda tajriba orttirishmoqda .
3. **Psixologik treninglar va interaktiv mashg‘ulotlar** – rolli o‘yinlar, guruhiy muhokamalar va CASE-metodlar orqali o‘qitish .
4. **Mobil ilovalar va onlayn resurslar** – Calm, MindMeister, Woebot kabi dasturlar stressni boshqarish, o‘zini tahlil qilish kabi amaliy mashqlarni bajarishga yordam beradi [5].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ta’lim tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos o‘quv metodikasini yaratish hamda ta’lim jarayonini innovatsion yo‘nalishda rivojlantirishga qaratilgan.

1. **Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (2023-yil)**
Prezident qarori asosida qabul qilingan “Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” doirasida oliy ta’lim muassasalari va maktablar bosqichma-bosqich raqamlashtirilib, zamonaviy elektron platformalar (LMS – Learning Management System) joriy qilinmoqda [3]. Bu platformalar orqali dars jarayonlarini avtomatlashtirish, fanlar bo‘yicha masofaviy ta’limni yo‘lga qo‘yish, elektron jurnal va reyting tizimini boshqarish imkoniyati yaratilgan. Oliy ta’limda masofaviy kurslar (e-learning), aralash ta’lim (blended learning) va ochiq ta’lim kurslari (MOOC) faol tatbiq etilmoqda. Bu esa ta’lim oluvchilar sonini ko‘paytirish, ularning joydan qat’i nazar bilim olish imkoniyatini yaratmoqda.
2. **Psixologik xizmatlar tizimini takomillashtirish**
So‘nggi yillarda maktab, kollej, litsey va oliy o‘quv yurtlarida psixologik xizmatlar tizimini isloh qilish borasida muhim qadamlar qo‘yildi. Har bir ta’lim muassasasida professional psixolog lavozimi yo‘lga qo‘yildi, ularning faoliyati “Pedagogik-psixologik xizmat markazlari” orqali muvofiqlashtirilmoqda [6]. Psixologlarning asosiy vazifasi – o‘quvchilar va talabalar bilan individual ishlash, stress holatlarini aniqlash, ijtimoiy moslashuvga yordam berish, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan tizimli muloqot o‘rnatishdan iborat. 2024-yil davomida 5 mingdan ortiq maktab psixologi zamonaviy qayta tayyorlov kurslaridan o‘tkazildi va ularning kasbiy salohiyati oshirildi.

3. **Psixologiyaga oid ochiq ta’lim kurslari (MOOC) va milliy kontent bazasi** Psixologiya fanini ommalashtirish va undan zamonaviy sharoitlarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bir nechta ochiq onlayn kurslar yaratildi. Xususan, “Bilim.uz”, “ZiyoNet” va “edu.uz” platformalarida “Asosiy psixologiya”, “Pedagogik psixologiya”, “Rivojlanish psixologiyasi” kabi kurslar bepul taqdim etilmoqda [6]. Bundan tashqari, O‘zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan multimediaviy darslar, video-leksiyalar va test bazalari ham keng foydalanilmoqda. Talabalar ushbu kurslar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, xalqaro miqyosda tan olingan sertifikatlarga ham ega bo‘lishmoqda.
4. **Kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribalarni integratsiyalash** Bugungi kunda O‘zbekistonda psixologiya sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlash jarayoniga xalqaro tajribalarni tatbiq etish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda. AQSh, Janubiy Koreya, Rossiya, Germaniya kabi mamlakatlar bilan qo‘shma dasturlar yo‘lga qo‘yilgan. Ayrim universitetlarda xorijiy ekspertlar ishtirokida seminar-treninglar, master-klasslar tashkil etilmoqda. Bu esa o‘qituvchilarning malakasini oshirish, o‘quv dasturlarini yangilash va talabalarga zamonaviy bilimlarni yetkazishga xizmat qilmoqda [3].
5. **Psixologik xavfsizlik va ruhiy salomatlik bo‘yicha milliy strategiyalar** Ta’lim tizimida ruhiy salomatlik masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Xususan, pandemiyadan keyin maktablarda bolalar psixikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, stress va depressiyani kamaytirish bo‘yicha profilaktik ishlar tizimlashtirildi. “Maktab psixologi – o‘quvchining do‘sti” dasturi asosida muntazam monitoring olib borilmoqda. Bu esa yosh avlodning psixik salomatligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Dunyo miqyosida psixologik ta’limda quyidagi ilg‘or tajribalar qo‘llanilmoqda:

- **AQSh**da kognitiv psixologiyani o‘qitishda laboratoriya tajribalari va sun’iy intellekt tizimlari keng qo‘llaniladi .
- **Finlyandiya**da psixologiyani integratsiyalashgan ta’lim orqali o‘rgatish, ya’ni boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitish amaliyoti mavjud .
- **Janubiy Koreya**da AI va psixometrik diagnostika vositalari orqali shaxsiylashtirilgan ta’lim tizimi rivojlangan [5].

Zamonaviy psixologik ta’lim innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Interaktiv metodlar, raqamli platformalar, onlayn treninglar orqali talabalar nafaqat bilim, balki muhim amaliy ko‘nikmalarni ham egallaydilar. O‘zbekiston ta’lim tizimi ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqda va jahon tajribasidan samarali foydalanmoqda. Kelgusida psixologiyani o‘qitish samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni yanada chuqurlashtirish zarur [1].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova M. R. (2020). *Psixologiyani o‘qitish metodikasi.* Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
2. Abdullayeva D. M. (2022). *Innovatsion ta’lim texnologiyalari*. Samarqand: Registon nashriyoti.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4567-son qarori, 2023-yil. *Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi*.
4. Mayer, R.E. (2019). *Multimedia Learning*. Cambridge University Press.

5. Salomon, G. (2021*). Technology and Education: Between Chaos and Order*. Routledge.
6. https://edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy vebsayti.

ILM-FAN VA TA’LIMNING INNOVATSION RIVOJLANISHI MUHITIDA TALABA QIZLARNING OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING, XUSUSAN BLENDED LEARNING (ARALASH TA’LIM MODELI) O‘RNI VA AHAMIYATI

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna,
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi**,**
Umirova Zamira Abdulla qizi,
Psixologiya yo‘nalishi talabasi
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalar, ayniqsa Blended Learning (aralash ta’lim) modelining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mazkur modelning an’anaviy va raqamli texnologiyalar uyg‘unligi orqali ta’lim samaradorligini oshirishdagi afzalliklari yoritilgan. Talaba qizlarning ijtimoiy-psixologik, ma’naviy-axloqiy va madaniy jihatdan tayyorgarligini mustahkamlashda zamonaviy yondashuvlarning o‘rni amaliy misollar asosida ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *Blended Learning, aralash ta’lim, innovatsion pedagogika, talaba qizlar, oilaviy hayot, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, ta’lim samaradorligi.*

Аннотация: *В статье рассматривается значение инновационных педагогических технологий, особенно модели смешанного обучения (Blended Learning), в подготовке студенток к будущей семейной жизни. Проанализированы преимущества совмещения традиционного и цифрового обучения в повышении эффективности образовательного процесса. На основе практических примеров раскрыта роль современных подходов в формировании социально-психологической, нравственно-этической и культурной готовности студенток к семейной жизни.*

Annotation: *This article analyzes the role of innovative pedagogical technologies, particularly the Blended Learning model, in preparing female students for future family life. The advantages of combining traditional and digital learning methods to enhance educational effectiveness are explored. The importance of modern approaches in strengthening the social-psychological, moral-ethical, and cultural preparedness of female students is illustrated through practical examples.*

Keywords: *Blended Learning, mixed education, innovative pedagogy, female students, family life, digital technologies, interactive methods, educational effectiveness.*

Bugungi tez sur‘atlarda o‘zgarayotgan dunyoda har bir davlat raqobatbardosh bo‘lishi uchun innovatsion rivojlanishga tayanishga majbur. An‘anaviy yondashuvlar bilan rivojlanish sekinlashmoqda, bu esa ta‘lim va ilmiy sohalarga texnologik yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Innovatsiyalar orqali nafaqat yangi mahsulotlar, balki ta‘lim metodlari, iqtisodiy model va ijtimoiy institutlar ham yangilanmoqda.Hozirgi davrda yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o’rgatish mustaqil fikr yuritish imkoniyatlarini shakllantirish muammosi

Respublikamizning ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Dunyo miqyosidagi hozirgi ijtimoiy - siyosiy hayot kishilik jamiyati taraqqiyotining

ayni bosqichi shunday o’ziga xos xususiyatga egaki, unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikrlash, yangi texnika va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb-etadi.

Yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o’rgatish tufayli ular kelgusida o’z oldilarida vujudga kelishi kutiladigan muammolarni ijodiy ravishda hal qilish orqali xalq xo’jaligining rivojlanishiga, Respublikamizning ilg’or texnologiyali jahon davlatlari qatoridan munosib o’rin egallashiga hissa qo’shishga erishish mumkin. Davlat va jamiyat tomonidan yoshlarning ijtimoiy hayotga, oilaga chinakam yetuk qilib tayyorlash, ta’lim muassasalari mutaxassislari hamda ota-onalarning oldiga qo’yilayotgan vazifalar bevosita psixologiya sohasida yaratilayotgan turli psixodiagnostik metodlar (trening, diagnostika, psixoterapevtik suhbatlar, intervьyu, anketa usuli, test usuli), shuningdek, innavatsion texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham **yoshlarni oilaga tayyorlash borasida** muhim islohotlar olib **borilmoqda.** ilm-fan va ta’lim tizimidagi innovatsion rivojlanishlar jamiyatning barcha sohalarida, xususan, oila institutini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Talaba qizlarni bo‘lajak oila hayotiga tayyorlash esa strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, Blended Learning — ya’ni an’anaviy va raqamli ta’limni uyg‘unlashtirgan aralash ta’lim modeli — bugungi kunda pedagogik jarayonni yangicha tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Xo’sh, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash nima uchun zarur bo‘lib qoldi, degan savol tug‘iladi. Oila jamiyatning negizi sifatida doimo e’tiborda bo‘lib kelgan. Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurati – bu yosh avlodning hayotga, ayniqsa, oila institutiga ongli, ma'suliyatli va tayyor holda kirib kelishini ta'minlashga qaratilgan muhim ijtimoiy-pedagogik vazifadir. Quyida bu zaruratning asosiy omillarini yoritib o‘tmoqchiman:

Birinchi omil. Oila – jamiyatning tayanch institutidir.

Oila inson shaxsini shakllantirish, uni tarbiyalash va ijtimoiylashuvini ta'minlashda asosiy muhit hisoblanadi. Talaba qizlarning kelajakda ona, turmush o‘rtoq va jamiyat a'zosi sifatida muhim rol o‘ynashini hisobga olgan holda, ularni oilaviy hayotga puxta tayyorlash zaruratga aylanadi.

Ikkinchi omil. Zamonaviy oilaviy muammolar. Ajrimlar sonining ortishi,(talaba qizlar orasida oilasidan ajrashib tahsil olayotganlarning tez-tez uchrab turishi) oilaviy nizolar, gender tengsizlik va ma'naviy inqirozlar yoshlar, ayniqsa qizlar orasida oilaviy hayotga tayyor emaslik holatlarini ko‘rsatmoqda. Bu esa, oilaning mustahkamligiga va farzandlar taqdiriga salbiy ta’sir qiladi.

Uchinchi omil. Ijtimoiy-ma'naviy omillar. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma’naviy an’analarning saqlanishi, yoshlarning axloqiy-psixologik yetukligi aynan oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Bu esa, qizlarni ongli tarzda tayyorlashni pedagogik jarayon sifatida tashkil qilishni talab etadi.

To‘rtiinchi omil. Ta'lim tizimidagi imkoniyatlar. Oliy ta’lim muassasalari faqat kasbiy tayyorgarlik emas, balki hayotga, jamiyatga tayyor shaxsni shakllantirish

vazifasini ham bajaradi. Shu boisdan, pedagogik jarayon orqali talaba qizlarda oilaviy rollar, mas’uliyat, muloqot madaniyati va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Beshinchi omil. Psixologik xizmatlar zarurati. Oilaviy hayot psixologik barqarorlikni talab qiladi. Talaba qizlarda stressga bardoshlilik, emotsional intellekt, empatiya va ijobiy munosabatlar qurish qobiliyatini rivojlantirish, psixologik xizmatlar orqali qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Talaba qizlarni kelajakdagi ijtimoiy roliga tayyorlash, ularning oilaviy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, psixologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatni anglash darajasini oshirish muhim vazifadir. An’anaviy ta’lim metodlari bu borada yetarli emas, shuning uchun innovatsion pedagogik yondashuvlar zarur.Shunig uchun ham texnologiyalashtirish asri bo ‘lgan hozirgi davrda Talaba qizlarni kelajakdagi ijtimoiy roliga, oilaviy munosabatlarga tayyorlashda Blended Learning (Aralash ta’lim modeli) ahamiyati kattadir. Bu model an‘anaviy auditoriyadagi ta‘lim bilan onlayn ta’limni uyg‘unlashtiradi. Talaba o‘ziga qulay vaqtda onlayn kontentdan foydalanib, auditoriyada esa muhokama, mentorlik, laboratoriya ishi kabi/mashg‘ulotlarda/qatnashadi. Bu metodning afzalliklari shundaki, moslashuvchanlik, shaxsiylashtirilgan o‘rganish, texnologiyadan to‘liq foydalanish imkoniyati mavjud.

Blended Learning — bu an’anaviy (yuzma-yuz) ta’lim va onlayn (raqamli) ta’limning integratsiyalashgan modeli bo‘lib, ta’lim jarayonida:

Mustaqil o‘rganish (video darslar, elektron resurslar orqali),

yuzma-yuz muhokamalar, Guruhli mashg‘ulotlar,Test va interaktiv topshiriqlar kabi komponentlar uyg‘unlashadi. Bu model talaba qizlarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi, vaqt va makon bo‘yicha moslashuvchanlik beradi hamda ta’lim sifatini individalizatsiyalash imkonini yaratadi.

Blended Lear modelining o ‘ziga xos ustunliklari mavjud bo ‘lib, ular quyidagilardan iborat: 1. Axborotga boy raqamli muhit: Onlayn resurslar orqali oila psixologiyasi, gender masalalari, madaniyat va axloqiy qadriyatlar haqida chuqur bilim berish mumkin.

2. Simulyatsiya ("Simulyatsiya" so'zi rus tilidan olingan bo'lib, ingliz tilidagi "simulation" so'zining o'zlashtirilgan shaklidir. Ushbu so'zning ma'nosi "o'yin, model, takrorlash" kabi ma'nolarni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, "simulyatsiya" - bu qandaydir jarayonni yoki hodisani takrorlash yoki modelini yaratishdir. Masalan, kompyuterda avtomobil yo'lovchilik simulyatsiyasi, yoki iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish) va rolli o‘yinlar: Oila nizolarini hal qilish, muloqot madaniyati, qaror qabul qilish bo‘yicha virtual mashg‘ulotlar o‘tkazish.

3. Interaktiv testlar va refleksiya: Shaxsiy pozitsiyani anglash, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutishni mashq qilish.

Feedback (qayta aloqa): Mentorlar, psixologlar va o‘qituvchilar tomonidan onlayn va oflayn tahlillar orqali shaxsiy rivojlanishni baholash.

4. Pedagogik mexanizmlarning innovatsion jihatlari

O‘quv dasturlarini modul tarzida tashkil etish, har bir modulda oila masalalariga oid bilimlar, ko‘nikmalar va amaliy mashg‘ulotlarni mujassamlashtirish orqali ta’lim samaradorligi oshadi. Fikrimni isboti o’laroq shuni

ta’kidlash mumkinki, O‘zbekistonning juda ko ‘p oliygohlarida Blended Learning imkoniyatlari asosida:

Vebinarlar va videokonferensiyalar, raqamli psixologik treninglar,Online maslahat xizmatlari kabi innovatsion yondashuvlar joriy qilinmoqda.

Ba’zan talaba qizlar bilan yaqindan suhbatlashishga, ularning yuragiga, ko’ngliga qo’l solishga harakat qilaman, ular orasida a’lo baholarga o’qimasada, lekin, baxtli, smestrni faqat a’lo baholar bilan yopguvchi, lekin hamisha mahzun kayfiyatda yuruvchi, o’zini baxtsiz his qiluvchi qizlar borligi sir emas, aksariyat hollarda ularning baxtsizligi, o’z oilasiga borib taqaladi, shu bois ota onalarga tavsiya berib o’tmoqchiman.

BAXTLI QIZLARNI TARBIYALASh SIRI.

Yaponiyalik olim va biznesmen Masaru Ibuka - ko’p qirrali va juda iste’dodli inson. Sony kompaniyasi asoschilaridan bo’lgan jiddiy biznesmen bolalar psixologiyasi va pedogogiqani chuqur o’rgangan va o’zining “Uch yoshdan keyin kech bo’ladi” deb nomlangan bolalarni erta rivojlantirish borasidagi g’aroyib qo’llanmasini yaratdi. U bolani rivojlantirishdan maqsad uni vunderkind qilib tarbiyalash emasligini doimiy tarzda qayd etgan. “Erta rivojlantirishning asosiy maqsadi – bu baxtli bolalarni tarbiyalashdir. Bolaga yaxshi musiqa tinglash, xorijiy tillarni o’rganish, ATI sohasida ma’lum yutuqlarga erishish imkoniyati uni tilshunos, ATI mutaxasisi yoki musiqachi etib tarbiyalash maqsadida berilmaydi.

Asosiysi – bola hayotidagi xursandchiliklar yanada ko’proq bo’lishi uchun uning cheksiz imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat”, - deb yozadi u.

Quyida Masaru Ibukaning “Uch yoshdan keyin kech bo’ladi” asaridagi asosiy maslahatlarni keltirib o’tamiz. O’z vaqtida ular novatorlik g’oyalari edi, hozirgi kunda esa mehribon va suyukli ota-otanalar uchun normal xulq-atvor normalariga aylanib boryapti.

MASARU IBUKANING ASOSIY MASLAHATLARI:

1. Bola kichik yoshidanoq insoniyatning eng yaxshi yutuqlari ichida bo’lsin. Mumtoz musiqa tinglang, san’at asarlarini ko’rsating, badiiy adabiyot o’qib bering.
2. Bolani tez-tez qo’lingizda ko’taring. Bunday muloqot bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.
3. Chakaloq bilan chuchuk tilda gaplashmang. Bola bilan tug’ilgan paytidan boshlab kattalar tilida gaplashing.
4. Bola bilan har kuni shug’ullaning. Hatto bir kunlik mashq ham hayratlanarli natijalarga olib keladi.
5. Bolaning oldida urishmang. Farzandingiz salbiy holatlarni ta’sirchanlik bilan his etadi.
6. Farzandingizga sizning joyingizda birga uxlashga ruxsat bering. Birgalikda uxlash bolaga rivojlantirish ta’sirini o’tkazadi.
7. Bolani boshqa bolalar bilan muloqotga kirishishga ruhlantiring. Bu bola aqli, raqobatbardoshlilik, birinchi bo’lish xissini oshiradi.
8. Farzandingizga o’z manfaatlarini ilgari surish va hatto urishishni ham man etmang. Bahslar muloqot qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

9. Bolani cheklamang. Bola qo’llari bilan amalga oshiradigan barcha mashg’ulotlar uning aqliy qobiliyati va ijodiy ko’nikmalarini rivojlantiradi.
10. Bolani ehtiyotkorlik maqtang va jazolang. Ayniqsa o’g’il bolalarni ishlari uchun maqtash kerak, juda kam jazolang.
11. O’zingizning “yaxshi” va “yomon”ingizni bolaga singdirmang. Bolaga o’z hayot tajribasini sizning yordamingizda olishiga qo’yib bering, vaqt o’tishi bilan u hamma narsani o’zi farqlay oladigan bo’ladi.
12. Bolada biror narsaga qiziqish uyg’oting. Buning uchun barcha sharoitlarni yaratib bering.
13. O’tilganlarni takrorlang. Bu bola miyasida to’g’ri chizmalarni shakllantiradi.
14. Bolaga nafaqat ona, ota ham kerak. Ota va farzand o’rtasidagi muloqotda hech qanday cheklovlar bo’lmasligi darkor.
15. Bolalar hayoloti (fantaziya) sini ahmoqona deb hisoblamang. Orzu va hayol qilish qobiliyati bolaning ijodiy salohiyatini shakllantiradi.
16. Bolaga o’zingizning shaxsiy buyumingiz sifatida qaramang. Bunday emas. Bundan tashqari, bu bolaning o’z kuchiga ishonmasligiga sabab bo’lishi mumkin.
17. Bolada qo’l orqali his qilish qobiliyatini rivojlantiring. Bolaga turli materiallar – yumshoq va qattiq, og’ir va yengil, tyoqis va g’adir-budir predmetlarni bering.
18. Bolaga u so’ragan barcha o’yinchoqlarini sotib olib bermang. O’yinchoqlarning ko’pligi diqqatni oladi, buning oqibatida ilm olish murakkablashadi.
19. Bolaga detallardan iborat o’yinchoqlarni taqdim eting. Bola o’yinchoqni o’zi yig’a olganida quvonchga to’ladi. Tayyor o’yinchoqlar davrida bu juda noyob.
20. Bolaning kichik motorikasini - yasash, applikatsiyalar, shakllarni kesish va yig’ish orqali rivojlantiring. Ma’lumki, “bolaning aqli – uning barmoqlarining uchida”.
21. Bola bilan piyoda sayr qiling. Piyoda yurish juda foydali, axir yurish vaqtida tananing 639 ta mushaklaridan 400 tasi harakatda bo’ladi.
22. Bola biror narsa bilan shug’ullanishni boshlaganida natijaga katta ahamiyat ko’rsatmang. Axir uning uchun natija emas, jarayon muhim hisoblanadi.
Unga qanchalik qiziq bo’lsa, shuncha mehnat qilishiga qo’yib bering.
23. Bola irodasiga qarshi chiqmang. Uning irodasiga qarshi ish qilishga majburlash orqali uning o’ziga bo’lgan ishonchini sindirasiz.
24. Bolada nostandart fikrlash ko’nikmasini shakllantiring. Standartlar standart odam qilib tarbiyalaydi.
25. Bolalarni tarbiyalashdan oldin ularning ota-onalari, ya’ni o’zimizni tarbiyalashimiz lozim. Maqolamizni Masaru Ibukaning a’lo darajali iqtibosi bilan yakunlamoqchimiz:
“Farzand uchun eng yaxshi tarbiya – bu onaning mehridir. Ota-onalarning eng asosiy mashg’uloti – farzandlarni tarbiyalash. Agar ular bunga rozi bo’lmasalar, unda nima uchun farzandli bo’lishdi?”

Xulosa qilib aytganda, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda Blended Learning modeli nafaqat zamonaviy talablarga javob beradi, balki ta’lim jarayonini yanada shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishiga, samaradorligiga va dinamik o‘sishiga yordam beradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar talaba qizlarning shaxsiy

kamoloti, mas’uliyat hissi va oilaviy rollarga tayyorgarligini yuqori bosqichga olib chiqadi.Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta‘lim va ilm-fan tizimi jamiyatning asosiy strategik yo‘nalishiga aylangan. Xususan, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ham innovatsion pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu asosda shakllangan zamonaviy ta‘lim tizimi talaba qizlarga ta’lim va tarbiya berar ekan, oilalarga va ijtimoiy hayotga raqobatbardosh,kreativ fikrlay oladigan, ixtisoslashgan va moslashuvchan, oilasi uchun juda ko‘p narsa bera oladigan oilaparvar kelinlarni yetishtiradi.

Takliflar: Oliygohlar ta’lim dasturlariga Blended Learning asosidagi “Oila psixologiyasi” va “Oilaviy hayotga tayyorgarlik” modullarini kiritish.

Talaba qizlar uchun raqamli o‘quv platformalari yaratish (veb-dasturlar, mobil ilovalar). Raqamli pedagogik texnologiyalarni o‘rgatuvchi maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova B.M. Oila psixologiyasi. Toshkent-2007.-316b
2. G`B. Shoumarov.Olia psixologiyasi. Toshkent-Sharq- 2010.296b
3. М.Рихсиева.Психологик тренинглар ва методикалар тўплами(Амалиётчи психологлар учун) 69-71-b

YOSH OILALARNING ADAPTATSIYA JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Masharipova Saida Rahimovna
Urganch RaNCH texnologiya universiteti
Pedagogika va aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
saidamasharipova72@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oila tushunchasi, yosh oilaning ijtimoiylashuvidagi adaptatsiya jarayonlariga ta’sir qiluvchi omillar va ularning asosiy oqibatlari kengroq o‘rganilgan. Jamiyatimizdagi yosh oila kategoriyasi necha yoshgacha kirishi va yevropa madaniyatida oila psixologiyasi haqidagi qarashlari, qisman aytib o‘tilgan. o‘zbekiston Respublikasi Konstititsiyasida XIV bob. oila, bolalar va yoshlar deb nomlanib uning tarkibidagi 76-80 moddalarda keltirilgan xuquq normalar kishilarning oila muhitida qanday kechishi haqida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Yosh oila, adabtasiya jarayoni, yosh oilaga ta’sir qiluvchi omillillar, oiladagi ajirimlar.*

Annotation: *This article explores the concept of family, the factors influencing the adaptation processes in the socialization of young families, and the main consequences of these factors. It briefly discusses the age range that qualifies as a "young family" in our society and presents an overview of perspectives on family psychology in European culture. The Constitution of the Republic of Uzbekistan, Chapter XIV titled Family, Children and Youth, outlines the rights and responsibilities related to family life in articles 76 to 80, and this paper highlights how these legal provisions are reflected in the family environment.*

Keywords: *Young family, social adaptation, categories of young family, differences in the family.*

Аннотация *В данной статье более подробно изучаются понятие семьи, факторы, влияющие на процессы адаптации в социализации молодой семьи, а также основные последствия этих факторов. Частично освещаются возрастные рамки категории*

«молодая семья» в нашем обществе и взгляды на психологию семьи в европейской культуре. В XIV главе Конституции Республики Узбекистан под названием «Семья, дети и молодежь» в статьях 76–80 изложены правовые нормы, раскрывающие особенности жизни людей в семейной среде.

Ключевые слова: *молодая семья, процесс адаптации, влияющие факторы на молодую семью, разводы в семье*

KIRISH.

Inson hayotida oila eng muhim ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, shaxsning shakllanishi, tarbiyalanishi, psixologik va ma’naviy barqarorligida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. oila har bir inson uchun hayotiy tayanch, mehr-muhabbat, ishonch va qo‘llab-quvvatlash manbai hisoblanadi. Bola dunyoga kelgan zahoti oila bag‘rida ulg‘ayadi, bu yerda u ilk bor mehr ko‘radi, muloqot madaniyatini o‘zlashtiradi, axloqiy-me’yoriy qadriyatlarni qabul qiladi. aynan oila insonning birinchi maktabi, birinchi psixologi va birinchi hayot yo‘l-yo‘riqchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda globallashuv, raqamlashtirish va shiddatli axborot oqimi tufayli odamlar hayoti ko‘p jihatdan murakkablashmoqda. Stress, ijtimoiy bosim, iqtisodiy muammolar va ruhiy zo‘riqishlar ko‘paygan bir davrda oila — bu inson uchun sokinlik, himoya va barqarorlik manbai bo‘lib xizmat qiladi. oila a’zolari orasidagi mehr-oqibat, ishonch va o‘zaro hurmat insonning ruhiy salomatligini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. o‘z navbatida, sog‘lom va bardavom oila shaxsiy rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki inson o‘zini tushunadigan, eshitadigan va qo‘llab-quvvatlaydigan muhitda istiqomat qilsa, uning o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish salohiyati ortadi. Shuningdek, oila jamiyatda ma’naviy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va milliy an’analarni saqlovchi va avloddan-avlodga o‘tkazuvchi eng asosiy vosita hisoblanadi. Har bir millat, har bir jamiyat o‘z qadriyatlarini asrab-avaylashi uchun eng avvalo oiladagi tarbiyani e’tiborga oladi. Chunki farzand qanday muhitda ulg‘aygani, qanday ota-onadan tarbiya olgani uning kelajakdagi shaxsiyati, dunyoqarashi va hayotiy qarorlariga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, davlat miqyosida oila institutini mustahkamlash, unga yordam berish, ijtimoiy va huquqiy himoyasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘plab davlatlarda, xususan o‘zbekistonda oilaga bo‘lgan e’tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash, farzand tarbiyasiga oid psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatish tizimlari yo‘lga qo‘yilgan. Bunday tashabbuslar oila barqarorligini saqlash, ajrimlarning oldini olish va sog‘lom muhitda farzand tarbiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bu borada davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek — “oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi”[1]. Darhaqiqat jamiyatning kuch-qudratini ta’minlaydigan eng oliy qadriyat bo‘lgan oilaning tinchligi va mustahkamligi ahamiyati beqiyosdir.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topishlari uchun kerak bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib berish, yangi shakllanayotgan yosh oilaga e’tibor qaratish lozimdir. Shu o‘rinda aytishimiz kerakki, o‘zbekiston

Respublikasi Konstititsiyasining 63-moddasida “oila jamiyatning ajralmas bo‘g‘ini ekanligi e’tirof etilgan: oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”deya aytilgan.

Muhokama va natijalar: Yosh oilalarning ijtimoiylashuvi va jamiyatga moslashuvi – bu murakkab, ko‘p bosqichli, ko‘plab omillar bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, ushbu jarayon har bir oila a’zolarining psixologik holati, ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar, iqtisodiy sharoit va o‘zaro munosabatlarga bog‘liq holda shakllanadi. Oila va undagi tarbiyaning usul, vosita va omillari ko‘proq yozma pandnomalarda, Kaykovusning «Qobusnoma», «Saodatnoma», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»si, «To‘ti shohnoma», «Odobnoma» kabilarda oila muammosiga doir masalalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.Tadqiqot davomida yosh oilalarning adaptatsiya jarayoniga eng ko‘p ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar aniqlanib, ularning ahamiyati va amaliy natijalari keng muhokama qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy hayotga endigina qadam qo‘ygan yosh juftliklar ko‘pincha hayotdagi real vaziyatlar bilan o‘zlarining oldindan shakllangan tasavvurlari o‘rtasida ziddiyatga duch keladilar. Bunday tafovut ularda psixologik norozilik, stress, xavotir va ba’zida ishonchsizlik hissini kuchaytiradi. ayni vaqtda bu salbiy holatlar adaptatsiya jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yosh oilalarning barqaror moslashuvini ta’minlash uchun birinchi navbatda, ularning o‘zaro muloqoti, hissiy barqarorligi va qaror qabul qilishda hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Psixologik jihatdan eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri bu – turmush o‘rtog‘i bilan samarali muloqotning yo‘qligi yoki zaifligi bo‘lib, bu holat tushunmovchilik, qarama-qarshiliklar, hatto ajrimlarga olib keladi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning ko‘pchiligi turmushning ilk yillarida hissiy barqarorlik va ijtimoiy moslashuvga erishishda qiyinchiliklarga duch kelganliklarini bildirganlar. Bu holat yoshlarning o‘zaro hissiy ehtiyojlarini anglay olmasliklari va turmushdagi yangi rollarni qabul qilishga tayyor emasliklari bilan izohlanadi. Ijtimoiy omillar qatorida iqtisodiy muammolar, ish bilan bandlik darajasi, uy-joy masalasi va ota-onalarning aralashuvi kabi holatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Yosh oila mustaqil iqtisodiy tayanchga ega bo‘lmasa, tashqi bosimlar kuchayadi va bu ularning ichki muvozanatiga ham salbiy ta’sir qiladi. Iqtisodiy barqarorlik, ayniqsa erkak kishi uchun o‘zini isbotlash, oila boshlig‘i sifatidagi mavqeini mustahkamlashda muhim omil bo‘lsa, ayollar uchun esa farzand tarbiyasi va uy muhitini yaratishda psixologik sokinlikni ta’minlaydi. Yana bir muhim jihat – bu jamiyatdagi an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy qarashlar o‘rtasidagi tafovut. Ba’zi holatlarda kelin va kuyov o‘z ota-onalari yoki qarindoshlari tomonidan ta’sir ostida qoladilar, bu esa ularning o‘zaro mustaqil qaror qabul qilishlariga to‘sqinlik qiladi. Bunday ijtimoiy bosim, ayniqsa, patriarxal oilalarda keskin namoyon bo‘ladi. Shuning uchun, yosh oilalarning moslashuv jarayonida ularning shaxsiy mustaqilligi, o‘z pozitsiyasini bildirish va himoya qilish layoqatlari juda muhim hisoblanadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan noto‘g‘ri “ideal oila” tasvirlari ham yosh oilalarning real hayotdagi voqelikka bo‘lgan yondashuvini noto‘g‘ri shakllantiradi. Bu esa, turmush o‘rtoqlarning bir-biridan

asossiz kutishlar qilishlariga olib keladi. oqibatda, bu kutishlar bajarilmay qolganida, tushkunlik, norozi holatlar va o‘zaro sovuqlik paydo bo‘ladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun yoshlar oila qurishdan avval psixologik tayyorgarlikdan o‘tishlari, real hayotiy vaziyatlarga tayyor bo‘lishlari lozim. Tadqiqot davomida yana bir muhim jihat – bu psixologik yordam va maslahat xizmatlariga murojaat qilish darajasining pastligi ekanligi aniqlandi. Ko‘pchilik yoshlar psixologik maslahat olishni oriyat deb tushunadi va bunday maslaxat markazlariga borishdan bosh tortishadi.

Oila va nikoh haqida gapirilganda, ushbu tushunchalar turli tarixiy davrlarda paydo bo‘lganligini qayd etish shart. oila, o‘z o‘rnida munosabatlarning murakkab tizimi sifatida nafaqat er-xotin, balki, ularning bolalari, boshqa qarindoshlar hamda er- xotin uchun yaqin va qadrli bo‘lgan insonlarni ham birlashtiradi. oilani ilmiy o‘rganishda sotsiologik va ijtimoiy-psixologik bilimlar xususiyatlari borasidagi masalalar jiddiy ahamiyat kasb etadi. Sababi, oila – ham sotsial institut ham kichik guruhdir. [2] Sotsiologlar «oilaning maxsus sotsiologik nazariya» sini ilgari sursalar[3], psixologlar esa oiladagi o‘zaro munosabatlarga murojaat etadilar[4] Masalan a.G. Xarchevning fikriga ko‘ra, oila er va xotin o‘rtasidagi tarixiy shakllangan o‘zaro munosabatlar tizimi bo‘lib, uning a’zolari nikoh va qarindoshlik rishtalari, umumiy ro‘zg‘or, hissiy bog‘liqlik va o‘zaro axloqiy majburiyatlar bilan bog‘langan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg‘ariy, ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek va boshqalargacha o‘z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a'zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o‘rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so‘zlar, she'riy satrlar orqali pandnasihatlar, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar.

Yana bir yozuvchi olim nemis faylasufi Immanuel Kant ham o‘z asarida “Inson faqat ta’lim- tarbiya orqali shaxsga aylanadi, uning qanday bo‘lishi tarbiya natijasidir” degan fikrni bildirgan.

Shunday ekan yangi oila ostonasida hayotning past-balandliklari hamda bir birini qo‘llab-quvvatlash lozimligi, har qanday vaziyatda ham kelajakda tugiladigan‘ farzandlar tarbiyasini ularning jamiyatga foydasi teguvchi barkamol yetuk shaxs qilib yetkazishini qarorini qabul qilib, turmushning mushtlariga yengil qaramasdan bularni chuqurroq o‘ylash lozim.

Hozirda sotsiologik adabiyotlar va rasmiy hujjatlarda “yosh oila” tushunchasini izohlovchi yaxlit yondashuv mavjud emas. “Yosh oila” ning oila shakli sifatida ommalashgan ta’riflaridan biriga ko‘ra, nikoh tuzilgandan keyingi uch yil (farzand tug‘ilishi munosabati bilan nikoh davomiyligidan qat’iy nazar) nazarda tutilib, bunda oilaviy juftlik yoshi 30 dan oshmagan bo‘lishi, shuningdek, farzandli oilalarda ota-onalardan biri 30 yoshgacha bo‘lishi nazarda tutiladi. [5].

Demak, yosh oila – bu rasman qayd etilgan nikoh munosabatlariga kirishgan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan er va xotin birligidir.[6]

odatda yosh oila tushunchasi oilaviy hayotning dastlabki 10 yilini o’z ichiga oladi. Umuman, fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- juda yosh oila - nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;
- yosh oila - 5 yildan 9 yilgacha;
- o'rta oilaviy hayot muddati - 10 yildan 19 yilgacha;
- katta oilaviy hayot muddati - 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi [7]

Nikohdan o'tib oila qurilgandan so'ng u bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Shulardan eng ko'p kuzatiladigani ham ijtimoiy va psixologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadigani ham aynan yosh oila bosqichiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda er-xotinlarning oilaviy hayot xaqidagitasavvurlari shakllanadi, farzandlar dunyoga keladi, ularni tarbiyalash, voyaga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan asosiy ishlar amalga oshiriladi. Shularni hisobga olgan holda hukumatimiz tomonidan yosh oilalar, ularning mustahkamligini ta'minlash va ularni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, yangi oilaning barqarorligini ta'minlashga imkoniyatlar yaratish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmokda. oilaviy hayotning o'ziga yarasha notekisliklari, past-balandliklari, murakkabliklari, muammolari bo'ladi. ana shu muammolar ya'ni ijtimoiy adaptatsiya jarayonida er-xotin bir birlarini qo‘llab quvatlashi lozim. Yosh oilalarda ijtimoiy adaptatsiya jarayoni yaxshi kechmayotganligi tufayli ham ajrimlar soni ko‘paymoqda.

1. Umidini yo‘qotmagan ona (psixologik va iqtisodiy bosim misoli)

Voqea: Madina (ism o‘zgartirilgan) 32 yoshda, ikki farzand onasi. U o‘qishga kirishga harakat qilgan, biroq erining "Ayol kishining joyi oshxonada" degan qat'iy qarashlari unga to‘sqinlik qilgan. Turmush o‘rtog‘i unga ishlashga ham ruxsat bermagan, har bir harakatini nazorat qilgan, tanbeh berib turgan. Yillar davomida u o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotdi, ruhiy tushkunlikka tushdi. Farzandlari uchun yashashda davom etgan. Psixologik yordam markaziga murojaat qilganidan so‘ng, unga huquqiy va ruhiy yordam ko‘rsatildi. U kasb-hunar markazida o‘qib, tikuvchilikni o‘rgandi va hozir mustaqil yashamoqda.

Tahlil: Bu misolda ayol psixologik va iqtisodiy zo‘ravonlikka uchragan. Erkakning nazorati va qadrsitmaydigan munosabati uning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatgan. Yordam so‘rash – muhim burilish bo‘lgan.

2. Tashlab ketilgan kelin (ijtimoiy bosim va rad etilish holati)

Voqea: Dilnoza (ismi o‘gartirilgan) 25 yoshda, turmushga chiqqaniga 1 yil bo‘lgan. To‘ydan ko‘p o‘tmay qaynonasi uni o‘zlariga yoqtirmasligini oshkora bildira boshladi. Er esa doimo onasining tomonini olib, Dilnozaning shikoyatlarini inkor qildi. Oxir-oqibat, unga tuhmat qilinib, ota uyiga yuborildi. Ijtimoiy bosim sababli ota-onasi ham uni o‘zini aybdor deb bildi. Shu vaziyatda u o‘zini yolg‘iz his qildi, lekin mahalliy ayollar markazi orqali maslahat olib, keyinchalik yolg‘iz onalar uchun mo‘ljallangan uyda boshpana topdi. Hozir u o‘qishni davom ettirib, o‘z hayotini qayta qurmoqda.

Tahlil: Bu holatda ayol ijtimoiy rad etilish, oilaviy tengsizlik va ma'naviy zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan. Uning yagona aybi – mustaqil fikr bildirgani va o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaslikka uringanidir.

3. Zo‘ravonlik qurboni (jismoniy va ruhiy zo‘ravonlik holati)

Voqea: Gulbahor (ismi o‘gartirilgan) 40 yoshda, 3 farzand onasi. U 15 yil davomida erining jismoniy zo‘ravonligiga chidadi. Ko‘pchilik bu holatdan xabardor bo‘lsa ham, “uy ichidagi gap tashqariga chiqmasin” degan qarash sababli hech kim aralashmagan. Bir kuni erining urishidan og‘ir jarohat olib, kasalxonaga tushganida voqea jiddiy tus oldi. Ichki ishlar organlari va psixologlar aralashuvi bilan ayol bolalari bilan birga zo‘ravon erdan ajratib olindi. U hozir oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarni qo‘llab-quvvatlaydigan tashkilotda faoliyat yuritmoqda.

Tahlil: Gulbahorning voqeasi ayollarning jismoniy zo‘ravonlikka qanday chidayotgani va jamiyatning sust munosabati sabab bu holatlar uzoq davom etishini ko‘rsatadi. U jasorat bilan yordam so‘rab, nafaqat o‘z hayotini, balki farzandlarining kelajagini ham saqlab qoldi.

Voqea: Dilnoza va Baxtiyor (ismlari o’zgartirilgan) yangi turmush qurgan juftlik o‘zaro juda sevishgan, ammo ularning xarakterlari ancha farq qilgan. Dilnoza – introvert, tinchlikni xush ko‘radi, Baxtiyor esa harakatchan va ochiq fe’lga ega. Avvaliga kelishmovchiliklar bo‘ldi, lekin psixologik maslahatdan so‘ng ular o‘zaro murosaga kelishni o‘rgandilar.

Voqea: Kam daromadli yosh oila – Nodira va Aziz (ismlari o’zgartirilgan) moliyaviy tanglik sabab ko‘p tortishishardi. Oilaviy budjet tuzish va daromadni ko‘paytirish bo‘yicha mahalla qo‘mitasi ko‘magi bilan maslahatlar berildi. Bu holat ularga o‘zaro ishonchni qayta tiklashga yordam berdi.

Yoshlardan nimaga ajrashmoqchisilar deb so‘rasa biz bir birimizni tushuna olmadik bir birimizga to‘g‘ri kelmas ekanbiz deb aytishadi. Har bir oilada tortishuv va kelishmovchiliklar bo‘lib turadi. Ikki xil oilada, vaziyatda voyaga yetgan, dunyoqarashlari ikki olam bo‘lgan insonlarning bir-birini

tushunishi, murosa ila oila boshqarishiga, tabiiyki, ma’lum bir muddat zarur. o‘zini va yonidagi umryo‘ldoshini hurmat qilgan inson turli kelishmovchilik va xatolarga ko‘z yumadi, muammolarda aybdorni emas, uning kelib chiqish sabablarini topib, bartaraf qilishga harakat qiladi.

Shu bilan birga, 2024-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ajrashishlar soni o‘tgan yillarga nisbatan biroz oshgan. Bu holat yosh oilalarning ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonida duch kelayotgan muammolar, iqtisodiy omillar, kommunikatsiya yetishmovchiligi kabi sabablar bilan bog‘liqligi aniqlangan. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan so‘rovnomalar natijasida O‘zbekistonda oila buzilishiga olib keluvchi bir qancha sabablar aniqlandi:

2022-yilda ajralishlar soni **48 700 ta**, **2021-yilda** esa **39 300 ta** bo‘lgan.

2023-yil davomida mamlakatda **283 800 ta nikoh** rasmiylashtirilgan bo‘lsa, **49 200 ta ajralish** holati qayd etilgan. Bu shuni anglatadiki, **har 6 ta nikohdan biri ajralish bilan yakunlangan**.

Ajrashganlarning o‘rtacha yoshi:

Erkaklar: 37 yosh

Ayollar: 32,9 yosh


Farzandlar bilan bog‘liq holatlar:

Farzandsiz ajralishlar: 19 094 ta (jami ajralishlarning 50,7%)

1 nafar farzand bilan: 13 186 ta (27,2%)
2 va undan ortiq farzand bilan: 5 505 ta (22,1%

Ajralishlar davomiyligi bo‘yicha:

4–5% ajrashganlar bir yilgacha turmush qurganlar
40% ajrashganlar besh yilgacha birga yashaganlar



Bu ko‘rsatkichlar ajralishlar sonining yildan-yilga oshib borayotganini ko‘rsatadi

Erta oila qurish. Erta turmush qurgan shaxslar o‘rtasida oila mas’uliyatini to‘liq tushunib yetmaganligi sababli tez-tez ajrashish holatlari kuzatilmoqda.

Qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh. Qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh er-xotin ajrimiga sabab bo‘lish bilan bir qatorda qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlar uzilishi, nogiron farzandlar dunyoga kelishi ko‘rsatkichlarining o‘sishiga olib kelmoqda.

Oiladagi uchinchi shaxslarning aralashuvi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aynan oilaga uchinchi shaxslarning aralashuvi ajrim sabablarining 15% ni tashkil qiladi.

Befarzandlik. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, dunyo bo‘yicha ajrimlarning 15% befarzandlik tufayli yuz bersa, o‘zbekistonda 4,7% sodir bo‘lmoqda.[8]

Ularning ba’zilariga ajrimdan boshqa chora topilmasligi, ba’zilari shunchaki “bahona”ligini tushunish tafakkur qilib ko‘rgan odam uchun qiyin emas, bularni eng asosiysi yoshlarning oilaga moslashuvi yaxshi kechmayotganligidir. Aslida ijtimoiy moslashuv - bu shaxsning jamiyat va uning me'yorlari, qadriyatlari, tartib-qoidalari, rollar tizimiga moslashish jarayonidir. Bu jarayon yangi ijtimoiy muhitga kirib borish, u bilan o'zaro ta'sir o'tkazish va jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishni o'z ichiga oladi.

Moslashuv jarayonida shaxs quyidagi masalalarni hal etadi:

- Yangi ijtimoiy muhit talablariga mos keladigan xulq-atvor o'rganish.
- Yangi rollar, maqom va statuslarni egallash.
- Yangi qadriyatlar tizimini o'zlashtirish.
- Yangi ijtimoiy aloqalar o'rnatish.
- o'z "Menini" yangi sharoitlarga moslash.

Shu kabi omillar yosh oilalarda to‘g‘ri shakllansa ijtimoiy adaptatsiya jarayoni yaxshi kechadi va oilada farzandlar sog‘lom muhitda tarbiyalanadi va katta bo‘lishadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish keraki, yosh oilalarning adaptatsiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Har bir yangi oilaning barqaror faoliyati, ularning jamiyatdagi o‘rnini topishi, ijtimoiy rol va vazifalarni bajarishga layoqatli bo‘lishi – bu jarayonda ijtimoiy-psixologik omillarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moslashuvning ilk bosqichida yosh oilalar ko‘plab sinov va qiyinchiliklarga duch keladilar: iqtisodiy mustaqillik, o‘zaro munosabatlardagi muvozanat, qarindoshlar bilan aloqalar, farzand tarbiyasi kabi omillar ularning psixologik barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Shu bilan birga, har bir oilaning ichki psixologik muhitini shakllantiruvchi omillar – o‘zaro ishonch, hissiy yaqinlik, emotsional qo‘llab-quvvatlash, murosaga kelish qobiliyati – adaptatsiya jarayonining asosiy tayanch nuqtalarini tashkil etadi. Afsuski, ba’zi holatlarda yosh oila a’zolari bu fazilatlarni yetarlicha namoyon qila olmaydi, bu esa konfliktlarga, ajralish xavfiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, jamiyatdagi ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar, axborot vositalarining ta’siri, mehnat bozoridagi holat, uy-joy masalasi kabi tashqi omillar ham yosh oilalarning adaptatsiyasiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘zini anglash va o‘zaro rollarni to‘g‘ri taqsimlash darajasi past bo‘lgan juftliklar bu bosqichda inqirozli holatlarga tezda duch keladi. Shu sababli, yosh oilalarni psixologik jihatdan tayyorlash, ularni maslahat markazlari orqali muntazam qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, yosh oilalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta’minlash uchun nafaqat individuallar, balki jamiyat, ta’lim va tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari va maxsus psixologik xizmatlar hamkorlikda harakat qilishi zarur. Bunday kompleks yondashuvgina sog‘lom, ijtimoiy barqaror va funksional oilalarni shakllantirishga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu muammo chuqur ilmiy tahlil va amaliy echimlar talab qiladigan dolzarb ijtimoiy-psixologik masala sifatida qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev «oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi» Xabar.uz 22.01.2018;
2. Тощенко Ж.Т. Социология. Общий курс. 2-е изд. доп. и перераб. – М.: Прометей, Юрайт, 1999. – С. 201.
3. Психология. Словарь. М.: Политиздат, 1990; Левкович В.П.Особенности супружеских взаимоотношений в разнонациональных семьях // Психол. журн. 1990. Т. 11. № 2. - С. 25-36; Олейник Ю.Н. Исследование уровней совместимости в молодой семье // Психол. журн. 1986. Т. 7. № 2. - С. 59-65
4. Ростовская Т.К. Молодая семья в современном российском обществе // Молодежь и общество. – №3. 2007. – С. 41-46.
5. Молодая семья: проблемы и перспективы социальной поддержки / под обшей редакцией Е.В.Жижко, С.Д.Чигановой. – Красноярск: РУМЦ ЮО, 2005. – 300 с
6. Психология семъя: Учебник для педагогических Вузов // Автор: В.М.Каримова. – Т:, 2007. - 316 с.

3-SHO’BA: TA’LIM, TIBBIYOT VA HUQUQ-TARTIBOT TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING USTUVOR YO`NALISHLARI

YANGI O’ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDAGI O’ZGARISHLARNING PSIXOLOGIYA FANLARI RIVOJIGA IJOBIY TA’SIRI

Maxsudova Mutabarxon
Psixologiya kafedrasi dotsenti, ps.f.n.
NamDU
Tursunova Bibirajab
Jizzax politexnika instituti
ARM markazi direktor o’rinbosari

Annotatsiya*: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston davridagi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning psixologiya fanlari rivojiga ko‘rsatgan ijobiy ta’siri tahlil qilinadi. Psixologik ta’lim mazmunining yangilanishi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining kengayishi, innovatsion yondashuvlarning amaliyotga joriy etilishi orqali psixologiya fanlarining o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li yoritiladi.*

Kalit so’zlar: *Yangi O‘zbekiston, ta’lim tizimi, psixologiya fanlari, innovatsion yondashuv, kasbiy rivojlanish, psixodiagnostika, integratsiya.*

Аннотация: *В данной статье анализируется положительное влияние коренных реформ, проводимых в системе образования в период Новой Узбекистана, на развитие психологических наук. Освещаются особенности развития психологических наук через обновление содержания психологического образования, расширение научно-исследовательской деятельности и внедрение инновационных подходов в практику.*

Ключевые слова: *Новая Узбекистан, система образования, психологические науки, инновационный подход, профессиональное развитие, психодиагностика, интеграция.*

Annotatsion*: This article analyzes the positive impact of fundamental reforms implemented in the education system during the New Uzbekistan era on the development of psychological sciences. It highlights the unique trajectory of the advancement of psychological disciplines through the renewal of educational content, the expansion of scientific research, and the integration of innovative approaches into practice.*

Keywords*: New Uzbekistan, education system, psychological sciences, innovative approach, professional development, psychodiagnostics, integration*

“O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoniga ko’ra, so‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan qabul qilingan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” da psixologik sog‘lom muhit yaratish va inson kapitalini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. [3] Bu esa, o‘z navbatida, psixologiya fanining ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini yanada oshirdi. Yangi o‘zgarishlar natijasida maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda psixologik xizmat tizimi kuchaytirildi. Bu o‘zgarishlar orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

Maktab psixologlarining soni va sifati oshirilmoqda, ularga metodik qo‘llanmalar hamda muntazam o‘quv kurslari orqali ilmiy yondashuvlar o‘rgatilmoqda. Bolalarning psixologik holatini baholashda zamonaviy psixodiagnostik metodlardan foydalanilmoqda (masalan, “Lusher testi”, “Raven matritsasi” kabi). Psixologiya sohasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida quyidagi o‘zgarishlar kuzatilmoqda:

Oliy ta’lim muassasalarida “Ta’lim psixologiyasi”, “Ijtimoiy psixologiya”, “Kognitiv psixologiya” kabi zamonaviy yo‘nalishlar o‘quv rejasiga kiritildi.

Psixologiya fanlari bo‘yicha magistratura va doktorantura yo‘nalishlariga bo‘lgan talab oshdi. Ilmiy jurnallarda nashr qilinayotgan maqolalar soni ortmoqda, ularning aksariyati amaliy psixologiyaga oid muammolarni qamrab olmoqda.

Raqamli ta’lim muhitining kengayishi natijasida psixologik treninglar, psixoterapiya metodlari hamda masofaviy maslahat xizmatlari rivojlandi. Bu esa quyidagi ijobiy natijalarga olib keldi:

Psixologik bilimlarning ommalashuvi (onlayn kurslar, vebinarlar, bloglar orqali);

Raqamli platformalarda (masalan, Moodle, Zoom) [5]psixologik seminarlar o‘tkazilishi;

Talabalarning mustaqil ta’limga qiziqishi oshgani, bu esa metakognitiv kompetensiyalar shakllanishini tezlashtirmoqda (Flavell, 1979).[1, 10 – b]

Yangi O‘zbekiston davrida psixologik xizmatlar tizimi faqat ta’lim muassasalari bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarida ham kengayib bormoqda. *Xususan:*

Psixologik maslahat markazlari faoliyati kengaytirildi. Endilikda ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida “Psixologik xizmat markazlari” tashkil etilgan bo‘lib, talabalar, o‘qituvchilar va hatto ota-onalar uchun bepul psixologik yordam ko‘rsatmoqda.

Psixologlar kasbiy assotsiatsiyasi faoliyatini kuchaytirmoqda. Bu orqali mutaxassislar malakasini oshirish, standartlashtirilgan metodikalarni joriy qilish, tajriba almashinuvi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Maktablarda “Psixologik iqlim monitoringi” tizimi joriy qilinmoqda — bu orqali har bir o‘quvchi uchun ruhiy rivojlanish xaritasi tuzilib, individual yondashuv yo‘lga qo‘yiladi. Psixologik ta’lim va pedagogik faoliyat integratsiyasi, Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi shunchaki bilim berish emas, balki shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Bu jarayonda psixologiya fanlarining amaliy yondashuvlari pedagogik faoliyatga chuqur singmoqda. *Masalan:*

Dars jarayonlarida emotsional intellekt (Daniel Goleman nazariyasi) ni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazilmoqda. O‘qituvchilarning psixologik savodxonligi oshirilmoqda — har bir pedagog o‘z o‘quvchisining psixotipi, stress darajasi, o‘rganish uslubi haqida ma’lumotga ega bo‘lishga harakat qilmoqda. O‘zbekistonda ham keng qo‘llanilayotgan Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasi asosida individual yondashuvlar kuchaymoqda — ya’ni har bir bolaning o‘ziga xos aqliy salohiyatini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan metodlar (vizual, musiqiy, verbal, kinestetik) amaliyotga kiritilmoqda.[4]

So‘nggi yillarda dunyo ta’lim tizimlarida bolalar va o‘smirlar orasida stress, xavotir, depressiv holatlar ortayotgani kuzatilmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida quyidagi yondashuvlar samarali bo‘lib chiqmoqda:

Har bir ta’lim muassasasida **stressni boshqarish texnikalari** (nafas mashqlari, mindfulness, relaksatsion texnikalar) joriy etilmoqda.

“Psixologik profilaktika” mashg‘ulotlari orqali bolalarda o‘ziga ishonch, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv kabi ko‘nikmalar shakllantirilmoqda.

Kognitiv-harakatli terapiya (CBT) asoslari bilan tanishtirish yo‘lga qo‘yilgan — bu metod depressiv fikr va xavotirni aniqlab, uni musbat fikrlar bilan almashtirishga yo‘naltirilgan. Bunday yondashuvlar nafaqat psixologik salomatlikni ta’minlaydi, balki o‘quvchilarni sinov, attestatsiya, imtihon kabi stressli vaziyatlarga tayyorlaydi.

Axborot texnologiyalari psixologiya fanlariga yangi ufqlar ochmoqda. Quyidagi raqamli yondashuvlar amaliyotda ishlatilmoqda:

Raqamli psixodiagnostika vositalari: shaxsiy tipologiyalarni aniqlovchi onlayn testlar, holat tahlil qilish dasturlari, emotsional salomatlik monitoringi.

AI-assistentlar yordamida psixologik treninglar: Masalan, interaktiv platformalarda stressni boshqarish yoki muomala madaniyati bo‘yicha virtual mashg‘ulotlar tashkil etilmoqda.

Onlayn o‘quv platformalarida (Coursera, Khan Academy, Moodle) **psixologiya fanlarining ochiq kurslari** (open access courses) orqali bilim olish imkoniyati kengaydi.

Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar psixologiya fanlarini faqat nazariy yo‘nalishda emas, balki amaliy, texnologik va ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirishga katta turtki bermoqda. Psixologik xizmatlarning kuchayishi, ta’lim jarayonida psixologik metodik yondashuvlarning kengaytirilishi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning psixologik salohiyatini oshirishga qaratilgan choralar, bu sohaning kelgusida ham muhim yo‘nalish bo‘lib qolishini anglatadi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston sharoitida psixologiya fanlarining rivoji — bu nafaqat ilmiy yutuq, balki barkamol inson tarbiyasiga xizmat qiladigan zaruriy shartlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Flavell, J.H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. *American Psychologist.*

2. Vigotskiy, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. *Harvard University Press.*

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni – “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.

4. *Toshpo‘latov, M., & Karimova, Z. (2022).* Psixologiya asoslari. *Toshkent: Fan nashriyoti.*
5. *Qodirov, S. (2023). “Raqamli ta’lim va psixologik yondashuvlar”.* O‘zbekiston psixologik jurnali*, №2.*
6. *UNESCO (2021).* Psychosocial support in education: Global perspectives and local practices.

PSIXOLOGIK XIZMAT TIZIMIDA O‘QUVCHILARNING MUVAFFAQIYATGA ERISHISH MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Akbarov Soxodilla Yuldashboyevich
NamDU, Psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada psixologik xizmat tizimida faoliyat olib boradigan amaliyotchi psixologning faoliyati, ta’lim sohasidagi muammollar, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini shakllatirish, o‘quvchilarning shaxs sifatida ulg‘ayishida ijobiy ustanovkalarning o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, faollik, faoliyat, motiv, motivatsiya, psixologik xizmat, salbiy va ijobiy ustanovkalar, milliy o‘zlik, oila tarbiyasi, milliy qadriyatlar.*

Аннотация: *В статье рассматривается деятельность практикующего психолога работающего в системе психологической службы, проблемы в сфере образования, формирование мотивации достижения успеха, роль и значение позитивных установок в личностном росте школьников.*

Ключевые слова: *личность, активность, деятельность, мотив, мотивация, психологическая служба, негативные и позитивные установки, национальная идентичность, семейное воспитание, национальные ценности.*

Abstract: *The article examines the activities of a practicing psychologist working in the system of psychological service, problems in the field of education, formation of motivation to achieve success, the role and importance of positive attitudes in the personal growth of schoolchildren.*

Keywords: *personality, activity, activity, motive, motivation, psychological service, negative and positive attitudes, national identity, family education, national values.*

Kirish. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilingan murojaatnomada “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir” deb uqtirib o‘tildi. Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va yangilanishlar, dolzarb masalalarning oqilona yechimini topish, xalqimiz uchun barcha sharoitlarni yaratish, “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan olijanob g’oyaning hayot bilan hamnafasligini ta`minlashga xizmat qilmoqda [1].

“…Ko‘zlagan maqsadlarimiz qanchalik yuksak va mashaqqatli bo‘lmasin, ularga yetish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Ajdodlarimiz merosi, xalqimizning ilmiy va bunyodkorlik salohiyati hamda tadbirkorlik fazilati bizga bu yo‘lda beqiyos kuch-qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi...

Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa - taraqqiyotning kafolatidir!...”[2].

Psixologiya o‘rganadigan barcha fenomenlar aynan shaxs tushunchasi atrofida qayd etiladi, insonning ichki ruhiy olami o‘rganishga qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiylashuvi va aynan jamiyat bilan o‘zaro

aloqadorligi masalasini chetlab o‘tolmaydi. Shaxs - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo‘lgan individdir.

Shaxsning ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o‘ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok etish

O‘zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziev, Sh.R.Baratov, E.N.Salig‘orov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nishanova, N.S.Safaev, F.I.Haydarov, S.X.Jalilovalar katta hissa qo‘shganlar. 1998 yilda Sh.R.Baratov "Ta’lim tizimida va ishlab chiqarishda psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan[3].

Xorijiy davlatlar va Hamdo‘stlik mamlakatlari qatorida respublikamizda ham o‘quv faoliyati motivatsiyasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan, o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab ushbu muammoni tadqiq etishga nisbatan qiziqish ortganligi kuzatiladi. Jumladan, O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan yirik olimlar M.G.Davletshin, E.G’.G’oziev, V.A.Tokareva va ularning shogirdlari A.Saitova, F.Haydarov, E.Usmonova, A.Fayzullaev, R.Asomova, U.Jumaev singari tadqiqotchilarning motivatsiya sohasiga doir ilmiy-amaliy xulosalarini ko‘rsatishimiz mumkin[3].

Barcha faoliyat turlari tarkibida quyidagi uchta komponent: maqsad–motiv–harakatni farqlash muhim o‘rin tutadi[4].

Maqsad – shaxs faoliyatining so‘nggi natijasi sifatida uning ongimizdagi timsoli namoyon bo‘ladi va ehtiyojlarini qondirish amalga oshiriladi.

Motiv – kishini faoliyatga undaydi va unga mazmun baxsh etadi.

Ish–harakat galdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan, nisbatan tugallangan faoliyatning bir qismi sanaladi. Faoliyatni bajarishga qaratilgan maqsad uzoq yoki yaqin bo‘lishi mumkin. Shuning uchun maqsadga intilish yo‘lida qilingan harakatlar davomida, bir qator maqsadlarga erishib boriladi[4].

Tadqiqotchilagi odamlar orasidagi xulqi va o‘zini tutishi sabablarini o‘rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, uning ikkita jihati farqlanadi:

- tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari, ya’ni, konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan tashqi stimullar.

Sobiq ittifoq psixologiya maktabida motiv va motivatsiya tizimi inson hayoti va faoliyatiga uzluksiz ravishda yo‘naltirilgan, murakkab tuzilishga ega bo‘lgan boshqaruvchi sifatida qayd etiladi, jumladan, S.L.Rubinshteyn motivlashgan tizimning insonni borliqni aks ettirishdagi rolini ko‘rsatib, shunday mazmundagi mulohazalarni ta’kidlab o‘tadi: birinchi bo‘lib kuzatish obyektlari emas, balki shaxsning ehtiyoj obyektlari va shaxsning hatti-harakatlari turadi, motivlashgan ustanovkalarning faollikka oid o‘ziga xosligi ham shunday tuzilishga ega bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Umumta’lim muassasalarida tashkil etilgan psixologik xizmatning maqsadi - o‘quvchilarning bilish faoliyati, hissiy va irodaviy sohasi, individual-tipologik xususiyatlari, ijtimoiy-psixologik muxitga moslashuvini o‘rganish, psixologik-pedagogik tashxis qilish hamda shaxs sifatida ulg‘ayishi, ma’naviy-axloqiy rivojlanishi, o‘zligini anglash va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Psixologik maslahat berish ishlari, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar uchun olib boriladi, amaliyotchi psixologlar ish tajribasini umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, psixologga quyidagi muammolar bo‘yicha murojaat qiladilar:

- o‘quvchilarning turli fanlarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklari;
- bolalarning o‘qishga salbiy munosabati, guruhdagi nizoli vaziyatlar;
- shaxsiy pedagogik ta'sirning natija bermasligi;
- bolalarning tengdoshlari davrasida o‘rnini topishi;
- oilaviy munosabatlar tizimidagi kelishmovchiliklar;
- sinf yoki guruhdagi ijtimoiy tabaqalanish;
- o‘quvchilarning layoqat va iqtidorini tashxis qilish;
- o‘quvchilarning kasbga moyilligini aniqlash.

Psixolog shaxsni qayta yo‘naltirishda quyidagi usullardan foydalanadi:

- referent guruhni o‘zgartirish;
- shaxs ma’naviyatini yuksaltirish va insoniy munosabatlar uchun sharoit yaratish;
- shaxsni ijtimoiy-madaniy faoliyatning yangi turlariga jalb qilish;
- shaxs xulqini buzg’unchi g’oya va qoliplardan forig’ etish;
- shaxs xulqiga ijobiy jamoaviylik ruhiyatini singdirish.

Amerikalik psixolog K.Pauell fikriga ko‘ra: “Muvaffaqiyat qozonish – muvaffaqiyatsizlikdan xulosa chiqarish va o‘z-o‘zini takomillashtirish natijasi”.

MUVAFFAQIYAT	OMAD
Siz uzoq muddat va jiddiy tayyorgarlik ko‘rdingiz, natijada musobaqada g’olib bo‘ldingiz.	Siz lotereyaga katta miqdorda pul yutib oldingiz.
Siz mashg’ulotlarda doimo faollik ko‘rsatdingiz, mashaqqat bilan shug’ullandingiz va fanlar olimpiadasida g’olib chiqdingiz.	Siz yakuniy nazorat ishiga tayyorgarlik ko‘rmadingiz, lekin yaxshi baho oldingiz.

Xulosa: Omad – bu qulay vaziyatdagi taqdir in`omi(omad hamisha kelavermaydi), muvaffaqiyatga erishish – uzoq va mashaqqatli mehnat samarasi.

Omadli bo‘lish juda yoqimli, biroq muvaffaqiyatga erishish ishonchlidir.

Psixologlarning ko‘rsatib o‘tishicha, har qanday vazifani bajarishdagi muvaffaqiyatda bilimning o‘zi yetarli bo‘lmaydi, odaminig o‘zida ham sinovdan o‘ta olishiga ishonch bo‘lishi shart:

Salbiy ustanovkalar	Ijobiy ustanovkalar
Mening qo’limdan kelmaydi	Men ishonaman, umid qilaman, qo’limdan keladi
Men qobiliyatsiz va omadsizman	Men doimo o’zimni xurmat qilaman!
Mening hato qilishga haqqim yo’q!	Men ham ba`zan muvaffaqiyatsizlikka uchrashim mumkin!
Bo’ldi, meni boshqa kuchim qolmadi!	Men kuchga to’laman, to’siqlarni yengib o’taman!

Psixologik xizmatda tadqiqot va ta’sir o‘tkazish ob’ekti maktab o‘quvchilari, oliy o‘quv yurti talabalari, o‘qituvchilar, ota-onalar bo‘lib hisoblanadi, ularni alohida yoki guruhiy shaklda tadqiq qilish mumkin[3].

Hozirgi zamonaviy bosqichda psixologik xizmat faoliyatining ikkita yo‘nalishi: dolzarb va kelajak yo‘nalishlari mavjud.

dolzarb yo‘nalish o‘quvchilar ta’lim tarbiyasidagi qiyinchiliklar, ular xulq-atvoridagi, muloqotdagi va shaxsi shakllanishidagi buzilishlar bilan bog’liq muammolarni hal qilishga qaratilgan;

kelajak yo‘nalishi har bir bola individualligini rivojlantirishga, jamiyatda yaratuvchanlik hayotiga psixologik tayyorlikni shakllantirishga qaratilgan.

Maxatma Gandi : *“Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki unga toza havo kirib turishi kerak va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib, xonadonimni ag’dar-to‘ntar qilib, o‘zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman”*.

Xulosalar. Ta’lim tizimida o‘quvchilarni yoshiga qarab psixologik maslahat berishning asosiy vazifasi boladagi psixik taraqqiyotning kechishi, belgilangan normaga muvofiqligini o‘rganish, aniqlash va korreksiyalashdan iborat.

Bu hozirgi kunda quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- ota-onalar, o‘qituvchilar va bola tarbiyasi uchun mas`ul boshqa shaxslarni bolaning yosh va individual xususiyatlariga e’tibor berishga jalb qilish;
- psixik taraqqiyotdagi buzilishlar va xulq og’ishlarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni psixologik, pedagogik, ijtimoiy, tibbiy maslahatlarga yo‘llash;
- jismoniy yoki nerv psixik sog’ligi zaiflashgan bolalarga, shifokor bilan hamkorlikda asoratlarning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berish;
- mahalla, ota-onalar va o‘qituvchilar jamoasi bilan hamkorlikda maktab sohasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish;
- Ota-onalar uchun davra suhbatlari, psixologik trening mashg’ulotlari tashkil etish va aholi o‘rtasida psixologik bilimlarni targ’ib etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза.31-бет.Тошкент. Ўзбекистон, 2018. 64 бет.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2024 y.Lex.uz.
3. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya . Darslik. -T.: “Ijod-Press”, 2019. - 512 b.
4. Haydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – T:, 2010, 325 b.
5. Каримова В.М. Психология. - Т.: Абдулла Қодирий нашриёти,2002 й.

KOGNITIV JARAYONLAR TA’SIRIDA PSIXOLOGIK TA’LIMDA O’QUVCHI ZEHNINI NAMOYON BO’LISHINING O’ZIGA XOS QIRRALARI

Lutfullo Tursunov
Dotsent, ps.f.n.
O’zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Din psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi

Annotatsiya: *maqolada zehn kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog’liq ravishda rivojlanishi hamda har bir bolada ma’lum bir bilim yoki faoliyat turiga nisbatan zehn mavjud bo’lishiga urg’u berilgan.*

Kalit so’zlar: *kognitiv, zehn, faoliyat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, reseptor, fikr, aql, faoliyat, jarayonlar, nutq.*

Аннотация: *В статье рассматривается развитие интеллекта в связи с когнитивными процессами, подчеркивается, что у каждого ребенка присутствует интеллект, проявляющийся в отношении определенных знаний или видов деятельности.*

Ключевые слова: *когнитивный, интеллект, деятельность, ощущение, восприятие, память, мышление, воображение, рецептор, мысль, разум, деятельность, процессы, речь.*

Annotation*: The article examines the development of intelligence in relation to cognitive processes, emphasizing that every child possesses intelligence manifested in relation to specific knowledge or types of activities.*

Keywords: *cognitive, intelligence, activity, sensation, perception, memory, thinking, imagination, receptor, thought, mind, activity, processes, speech.*

Buyuk mutafakkurlarimizning bolalik davrlari haqida fikr bildirilganida, ularni o’ta zehnlik bo’lganliklariga alohida urg’u berib o’tiladi. Zehnlari asosida bolalik davrlarda dunyoviy va illohiy bilimlarni chuqur anglab olishga moyiliklarini takidlanib, ko’pchilikning diqqat e’tiboriga sazovor bo’lganliklari takidlanadi. XXI – arning birinchi choragi tugallanish arafasida zamonamiz bolalarning o’ziga xos xususiyatlaridan zehniga nisbatan “zehnli” yoki “zehnsiz” degan baholarni kam berilayotganligini sababi nimada?

Olimlar davrasidagi guringda barchani o’zi soziga rom etib oluvchi sozandani chalgan kuyi inson qalbini tub – tubigachan yetib borishi haqida ijobiy fikrlar bildirila boshlandi. SHu gurungda ishtirok etayotgan sozandani ham qishlog’i shunday deb qoldi. Bilasizlarmi u kishi maktabda musiqa darsidan boshqa fanlarni o’zlashtirishlari juda qiyin bo’lgan. Musiqadan ta’lim beruvchi ustozlari boshqa

fanlardan dars beruvchi ustozlardan o'tish bahosini qo'yib berishlarini iltimos qilar ekanlarda "Hali ko'rasizlar bu bola musiqa san'atimizni butun dunyoga tanitadi, chunki uni musiqaga bo'lgan zehni chek - chegara bilmaydi", degan fikrni tez – tez takrorlar ekanlar. Mazkur hayoti hikoyadan xulosa qiladigan bo'lsak, bolada hamma sohaga ham zehn bo'lavermas ekan.

Zehn – tafakkurning alohida o'ziga xos xususiyati bo'lib, u ongli ravishda o'zlashtirilayotgan bilim va malakalarni aqlan nihoyatda tez anglash hamda xulosa chiqara olish jarayoni desak xato bo'lmas. SHuni alohida takidlashimiz lozimki, zehn qobiliyat va iqtidordan tubdan farq qiladi. Bolani diqqat bilan reja asosida kuzatilsa bolada qaysidir faoliyat va bilimga nisbatan zehni mavjudligini aniqlash mumkin. Zehnga ruhiy xolat asnosida ta'rif beradigan bo'lsak, unda zehn - shaxsning muayyan faoliyat shakliga nisbatan yo'nalishini ifodalovchi ruhiyholat.

Agar zehnni faoliyat nisbat beradigan bo'lsak, zehn - ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanish istagi, ushbu faoliyatga chanqoqlik. Bu insonning xohishi, motivatsiyasi, muayyan faoliyat turlariga bo'lgan ehtiyoji, nafaqat natijaga, balki inson bajaradigan jarayonning o'ziga xos istagi. Zehnlilik shaxsning uzoq vaqt davomida ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanish istagida ifodalanadi. Bolalarning zehnligi ma'lum bir faoliyatga qiziqishning ortishi, tematik qo'shimcha darslarga qatnashishda ifodalanishi mumkin.

Zehn yoki qiziqishlar - bu bolaning zavq bilan qiladigan, bolanini moyil qiladigan, bolani jalb qiladigan faoliyat turi deb ham baholash mumkin. Masalan, musiqaga zehnlilik va qiziqishlar, ilmiyze hnlik va qiziqishlar, chet tillarini o'rganishga zehnlik, arxeologiyaga zehnlik. Agar o'ziga jalb qilingan faoliyat munozarali yoki salbiy baholansa, bola mayl haqida emas, balki zehni haqida baholash ekanligini unitmaslik lozim. Bolaning sevimli mashg'ulotidan farqli o'laroq (qiz bola ovqat pishirishni yaxshi ko'radi, o'g'il bola veb-saytlarni chizishni yaxshi ko'radi), zehnlik va qiziqishlar haqiqiy natija bo'lishi shart emas. Biroq, zehnlik va qiziqishlar sevimli mashg'ulotlariga qaraganda muhimroq va jiddiyroq xolatdir, ularning ma'nosi boshqalarga umuman tushunarli bo'lmasligi tabiiy hol hisoblanadi.

Zehnlilik yoki qiziqishlar biror bir faoliyat, xolat yoki predmetga nisbatan munosabat sifatida farqlanadi.

Demak, bolani ontogenizida zehn bolaning ma'lum bir muayyan faoliyatga yo'nalganligini sifatida tavsiflash mumkin. Zehnlikning asosi - bu shaxsning muayyan faoliyatga chuqur, barqaror ehtiyoji, ya'ni ma'lum bir faoliyat turiga qiziqish desak, xato bo'lmaydi.

Zexnlikning asosi ham ushbu ehtiyoj bilan bog'liq ko'nikmalarni oshirish istagi bo'lishi mumkin. Zehnlilik - bu shaxsning ma'lum bir faoliyatga tanlab yo'naltirilishi, uni shu bilan shug'ullanishga undaydi. Zehnning asosi - bu shaxsning muayyan faoliyatga chuqur, barqaror ehtiyoji, ushbu faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalarni oshirish istagi. Zehnning paydo bo'lishi odatda mos keladigan qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zaruriy shartdir, garchi zehn va qobiliyat o'rtasidagi nomuvofiqlik holatlari bo'lishi mumkin.

Insonni ruhiy tomondan tavsiflovchi birinchi narsa uning qiziqishlari va zehn bo'lib, ular shaxsning yo'nalishini ifodalaydi. "qiziqish" va "zehnillik" tushunchalari o'rtasida biroz farq bor. Qiziqish deganda ma'lum bir mavzuga e'tibor qaratish tushuniladi, zehnlik deganda esa muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga qaratilgan. Qiziqish - biror mavzu bilan tanishish, uni o'rganishga moyillik, uni idrok etish, o'ylash istagi. "Zehnililik" - muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga moyillik. Ko'pincha mavzuga qiziqish tegishli faoliyatga zehnlilik bilan bog'liq. SHaxmatga bo'lgan qiziqish deyarli har doim shaxmat o'ynashga zehnlilik bilan birga paydo bo'ladi. Ammo qiziqish moyillikdan mustaqil ravishda mavjud bo'lishi mumkin. Teatrga qiziquvchi bolalarning hammasi ham aktyorlik kasbiga moyilik bo'lmasligi tabiy hol. Tarixga keskin va doimiy qiziqish bolani tarixchi bo'lishga moyillik bo'lmasligi mumkin.

"Zehnililik" - bu shaxsning muayyan faoliyat turlariga bo'lgan ehtiyoji. "Zehnililik" ustunligining asosiy ko'rsatkichi - bu bolaning ma'lum bir faoliyat turi bilan uzoq muddatli va tizimli shug'ullanish istagi. Bolada bu istak ma'lum maktab fanlariga nisbatan munosabatda, to'garaklar, seksiyalarda o'qish va bo'sh vaqtini sevimli mashg'ulotiga bag'ishlash istagida ifodalanishi mumkin.

Zehnililik - bu biror faoliyatni amalga oshirish jarayonida shaxsning o'ziga xos alohida xususiyati bo'lib, nisbatan yuqori yutuqlari hamda muvaffaqiyatlari borligini aniqlaydigan barqaror manfaatlar majmuasidir. YUqoridagi mulohazalarda zehn haqida umumiy tavsiflardan kelib chiqqan holda quyida zehnni kognitiv asoslariga e'tiborimizni qaratamiz.

Kognitiv psixologiya yo'nalishi bolaning ruxiyatini ontogenezida zehnning "men"likni takomillashuvida sezgi jarayoniga alohida urg'u berib, unda har bir sezgi reseptorining o'ziga xos o'rini alohida tahlil etiladi. Ko'rish va eshitish sezgilarining yetakchi vazifasini bajarishiga aksari amaliyotchi psixologlar to'xtalib o'tganlar. Kichik yoshdagi boshlang'ich ta'lim o'quvchilari asosiy bilimlarini ana shu ikki reseptor orqali olishlari hammaga ma'lum haqiqat. Sezgi reseptorlari orqali zehnli o'quvchi boshqa tengdoshlari ilg'ayolmayotgan muammoni qirralarini tez ilg'ab oladilar. Sezgining asosiy vazifasi bosh miyada qo'zg'alish hosil qilish bo'lsa diqqat ana shu qo'zg'alishga nisbatan ongli faoliyatni yo'naltirish orqali bir markazni dominantaligini ta'minlab berishdan iborat. Demak, zehnli o'quvchi boshqa qo'zg'atuvchilardan kerakli bo'lgan ma'lumotni tezda ajratib oladi va unga idrokini yo'naltiradi.

Idrok o'z navbatida bosh miyadagi dominantalik asosida qo'zg'atuvchini shakil – shamoyili va mohiyatini yaxlit aks ettiradi. Mazkur jarayonning asosiy vazifasi "Bu nima degan" savolga javob beradi. Zehnli o'quvchi o'zlashtirayotgan yangi bilimni boshqa tengdoshlari e'tibor qaratmagan tomonga diqqatini yo'naltirib, ongli faoliyatini yo'natira olishida. Idrok etilayotgan bilim yoki predmet nima ekanligi anglanmagan xolda diqqat idrokni xotiraga yo'naltirib, mazkur predmet yoki bilim " tanishmi?" degan javobni xotirada izlab ko'radi.

Xotra o'z navbatida "esga olish", "esda saqlash", "esga tushirish" jarayonlari asosida mavjud bilimlarni birma - bir aks ettirib ko'radi. Agar mazkur idrok qilinayotgan bilim va predmetga yaqin o'xshash man'ba bo'lsa zehn o'xshash

qirralarini tezda umumlashtirishga harakat qiladi hamda dastlabki xulosa chiqara oladi. Xotira manbalarida ma'lumotlar mavjud bo'lmagan hollarda diqqat notanish bilim va predmetga nisbatan tafakkurni yo'naltiradi.

Tafakkur notanish muammo va predmetning avval "sintezi"ni amalga oshiradi kegin esa "analiz"ni amalga oshirgandan so'ng ongli ravishda umumashtiradi. Zehni o'tkir o'quvchi yuqoridagi tafakkurning uchta jarayonini qayta – qayta amalga oshirib yechimni topgunicha izlanishdan to'xtamaydi. Muammoni to'liq analiz va sintez qilib bo'lgach "bilmayman" degan xulosa chiqarish uchun ma'lum muddat fikrlaydi. Zehnli o'quvchi aynan ana shu fikrlash jarayonida muammon turli tomonlaridan izoxlab o'z tafakkurini ijodkorligini (izlanuvchanligi, qreaktivligini) namoyon eta oladi. Aksari hollarda tafakkurning ijodkorligi asnosida turli obrazlarni turli qirralarini ajratib aks ettirishda xayolon ishtirok etadi

O'quvchining bilimlarni o'zlashtirishi va muammoni hal etishida obrazli xayol zehn bilan muayyan bog'liqlik darajaga ega bo'ladi. Muammoli vaziyatning vujudga kelishi bilan birga uning hal qilinishida mantiqiy tafakkur va ijodiy xayol bilvosita va bevosita ishtirok etadi. Bola tomonidan bajarilishi, amalga oshirilishi lozim bo'lgan har qanday o'quv faoliyatning mahsuli oldindan tasavvur qilinishi, yaxlit timsol shaklda ko'z oldiga keltirilishi va ijodiy tafakkur bosqichlaridan o'tishi shart. Jahon psixologiyasida xayol insonning ijodiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u tizimli xususiyatli xatti-harakatning muammoli vaziyatda noaniqlik, notanish alomatlari vujudga kelsa, u holda faoliyat rejasini qayta ko'rib chiqishni ta'minlaydi. SHu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, hech qachon xayol ijodiy faoliyat dasturining yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lmaydi, balki uning ayrim o'rinlarini to'ldirishning va almashtirishning timsollarini yaratadi, xolos. Xayolning bilish jarayoni sifatidagi asosiy vazifasi shundan iboratki, u amaliy faoliyat boshlanmasdan turib, uning mahsulini oldindan tasavvur qilish va ularning timsollar tariqasida vujudga keltirishdan iboratdir. Zehnli o'quvchini o'quv faoliyatida ayrim qiyinchiliklar vujudga kelsa, ularni bartaraf qilish uchun bola o'ylanadi, fikriy obrazlarni yaratadi, ularga fikran yangi qo'shimchalar kiritadi.

Zehn, tafakkur va xayol o'rtasida bir qator o'xshashliklar hamda ayrim farqlar mavjuddir. Bu holat quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1) zehn, xayol, tafakkur singari muammoli vaziyatda, masala va topshiriqlar yechish jarayonida tug'iladi;

2) zehn yangi yechim, usul, vosita qidirishda va ularni saralashda umumiylik mavjud;

3) zehnning ham, xayolning ham, tafakkurning ham paydo bo'lishi shaxsning ehtiyojlariga bevosita bog'liq;

4) ehtiyojlarni qondirishda dastlab xayoliy obrazlar yaratiladi, uning natijasida vaziyatni yorqin tasavvur qilish imkoni tug'iladi;

5) zehn va xayolda oldindan aks ettirish jonli tasavvurlar tarzida, yaqqol timsollar shaklida vujudga kelsa, tafakkurda ular umumlashmalar, tushunchalar bilvositalik xususiyati orqali ro'yobga chiqadi.

Zehnning namoyon bo'lishida xayolning eng ahamiyatli tomoni shundan iboratki, u tafakkur predmetiga taalluqli holatlardagi yetishmovchilikda ham muammoli vaziyatdan yengilroq chiqib ketishga muhim zamin hozirlaydi.

YUqorida takidlanaganidek, zehn kognitiv jarayonlarisiz yuzaga chiqish, shakillanishi va takomillashuvi mumkinn emasligi bilan bir qatorda ijtimoiy muhitni ta'sirisiz ham yuzaga kelishi mumkin emas. Bola barcha bilim va faoliyatni kattalardan o'zlashtirishi nuqtaiy nazardan yondoshadigan bo'lsak, bolani xatti – harakatlariga nazorat va baho berish jamiyatning katta yoshdagilari tomonidan amalga oshiriladi. Demak, boladagi zehnni aniqlash ham kattalarni zimmasida. Boladagi zehnini aniqlab uni zehni yo'nalishi bo'yicha rivojlanishiga imkoniyatlar yaratilsa boladagi qobiliyat va iste'dodga ham keng yo'l ochiladi. Mazkur holat boshlang'ich sinf pedagoglaridan kichik maktab yoshidagi o'quvchining zehnini aniqlash va to'g'ri yo'naltirish kelgusidagi bolaning kelajagini belgilab berishlarini unitmasliklari lozim bo'ladi.

Oilada farzandlarning zehnini baholashda oila boshliqlarini kuzatuvchanligi katta ahamiyat kasb etadi. "O'nta bo'lsa o'rni boshqacha" deganlaridek, bir oiladagi bolalarning zehni bir –birinikidan tubdan farq qilishi tabiiy hol, shu sababli oilani b oshliqlari farzandlarini zehnini muntazam ravishda kuzatib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziyev E. G'. Ontogenez psixologiyasi. – T. "Noshir", 2010.
2. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiya – T. O'z FMJ, 2010
3. Кодиров.Б. Р. Изучения склонностей подростка .ТерГУ. 1996
4. Менчинская Н.А. Психологические проблемы активности личности в обучении. – М.: "Наука", 1991. – 46- с

INSON RUHIYATI VA ORGANIZM FUNKSIONAL HOLATINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti
Berdiboyeva Nozima Mirzaahmad qizi
NamDU psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixologiya va fiziologiya sohalarida olib borilgan inson ruhiyati va organism funksional holatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar, funksional holatlar darajasi, asosiy indikatorlari va ularning o'zaro aloqadorligi bilan bog'liq yondashuvlar tahlili keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *funksional holatlar, psixologik va fiziologik tizim, motivatsiya, regulyator, energetic yondashuv, fenomenal yondashuv, xulq-atvorli yondashuv, kompleks yondashuv, ekstensiv va intensive holatlar.*

Аннотация: *В статье представлен анализ подходов к изучению функциональных состояний психики и организма человека в областях психологии и физиологии, уровень, основные показатели функциональных состояний и их взаимосвязь.*

Ключевые слова*: функциональные состояния, психолого-физиологическая система, мотивация, регулятор, энергетический подход, феноменальный подход, поведенческий подход, комплексный подход, экстенсивные и интенсивные состояния.*

Abstract: *This article presents an analysis of research in the fields of psychology and physiology devoted to the study of the functional states of the human psyche and organism, the level of functional states, their main indicators and approaches to their interrelationships.*

Keywords: *functional states, psychological and physiological system, motivation, regulator, energetic approach, phenomenal approach, behavioral approach, complex approach, extensive and intensive states.*

Hozirgi zamon ilm-fanida inson ruhiyati va organizm funksional holati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev ham o‘zlarining 2022-yil sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi ma’ruzalarida ta’kidlab, shunday deganlar “Sog‘lom jamiyat – bu avvalo sog‘lom ruhiyatli insonlardan iborat jamiyatdir. Shuning uchun ruhiy salomatlik masalalariga e’tiborimizni yanada kuchaytiramiz.”

Zamonaviy psixologiya va fiziologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar ruhiy holatlarning inson salomatligi va umumiy hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatmoqda. Shu sababli yurtimizda ham psixolog kadrlar tayyorlash va psixologik xizmatni rivojlantirishga oid bir qator ishlar olib borilmoqda. Psixologik va fiziologik jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy psixofiziologiyaning asosiy konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Bu bog‘liqlik deganda, inson ongida, hissiyotlarida, xatti-harakatlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning bevosita yoki bilvosita tarzda organizmdagi fiziologik tizimlarga ta’sir qilishi, aksincha, jismoniy o‘zgarishlar inson ruhiyatiga ta’sir qilishi tushuniladi.

Psixologik va fiziologik tizimlar inson organizmida o‘zaro ta’sirchan va murakkab muvozanat asosida faoliyat yuritadi. Bu ikki jarayon orasidagi uzviy aloqa - butun inson salomatligining psixofiziologik asosini tashkil etadi. Zamonaviy ilm-fan bu bog‘liqlikni integrativ yondashuv orqali chuqur tahlil qilishga intilmoqda. Psixologik va fiziologik jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy psixofiziologiyaning asosiy konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Bu bog‘liqlik deganda, inson ongida, hissiyotlarida, xatti-harakatlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning bevosita yoki bilvosita tarzda organizmdagi fiziologik tizimlarga ta’sir qilishi, aksincha, jismoniy o‘zgarishlar inson ruhiyatiga ta’sir qilishi tushuniladi. Psixologik va fiziologik tizimlar inson organizmida o‘zaro ta’sirchan va murakkab muvozanat asosida faoliyat yuritadi. Bu ikki jarayon orasidagi uzviy aloqa - butun inson salomatligining psixofiziologik asosini tashkil etadi. Zamonaviy ilm-fan bu bog‘liqlikni integrativ yondashuv orqali chuqur tahlil qilishga intilmoqda. Funksional holatlarni o‘rganishda ularning darajasi va xususiyatlarini belgilovchi omillar muammosi alohida o‘rin tutadi. Funksional holatlarni tartibga soluvchi hodisalarning oltita guruhini ajratish mumkin.

1. Motivatsiya - buning uchun muayyan faoliyat amalga oshiriladi. Ishga bo‘lgan ishtiyoq, muvaffaqiyatga intilish, obro‘li yutuq, mukofotga qiziqish, burch, majburiyat, yordam hissi - bu barcha motivlarning mavjudligi topshiriqni bajarishga haddan tashqari qiziqishni keltirib chiqarishi mumkin va aksincha, ularning yo‘qligi masalaga rasmiy munosabatni keltirib chiqaradi. Motivlar qanchalik kuchli va ahamiyatli bo‘lsa, funksional holat darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Binobarin, muayyan faoliyat amalga oshiriladigan funksional holatning sifat jihatidan o‘ziga xosligi va darajasi motivlarning yo‘nalishi va intensivligiga bog‘liq.

2. Funksional holatning yana bir muhim regulyatori ish mazmunidir. Ish topshirig‘ining o‘zi funksional holatning o‘ziga xosligi va darajasi uchun ma'lum talablarni o‘z ichiga oladi. Muayyan mehnat faoliyati topshiriqlarni bajarishning ma'lum sur'atini, harakatlarni avtomatlashtirishni, natija uchun javobgarlikni, jismoniy kuch yoki aqldan foydalanishni va hokazolarni talab qiladi. Nihoyat, topshiriqning subyekt tomonidan qanday bajarilishi ham funksional holatni tartibga solishga ta'sir qiladi.

3. Funksional holat regulyatorlarining yana bir guruhi sezgi yukining kattaligini o‘z ichiga oladi, bu hissiy haddan tashqari to‘yinganlik, yuklanishdan hissiy ta'sirlarning yetishmasligi bilan hissiy mahrumlikgacha o‘zgarishi mumkin. Sensor yuk deganda hissiy muhitning ahamiyati bilan bog‘liq bo‘lgan ta'siri ham, amalga oshirilayotgan faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ta'sir ham tushuniladi.

4. Funksional holatning rivojlanishi uchun uning dastlabki fon darajasi katta ahamiyatga ega bo‘lib , u subyektning oldingi faoliyatining izini saqlaydi.

5. Funksional holatning o‘ziga xosligi va darajasi subyektning individual xususiyatlariga sezilarli darajada bog‘liq. Misol uchun, monoton ish kuchli va zaif asab tizimiga ega bo‘lgan odamlarga boshqacha ta'sir qiladi. Kuchli tipga mansub shaxslar monotonlikka nisbatan kamroq qarshilik ko‘rsatadi va zaif shaxslarga qaraganda asab tizimining faollashuv darajasining pasayishini ko‘rsatadi (N.N.Danilova).

6. Bundan tashqari tabiiy bo‘lmagan funksional holat regulyatorlari guruhini aniqlash mumkin: bular organizmga farmakologik, elektr va boshqa ta'sirlardir.

Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hissiy holatlarning o‘zgarishi miya qismlarining, ayniqsa, limbik tizim, gipotalamus va prefrontal korteks faoliyatida o‘z aksini topadi. Bu hududlar esa vegetativ nerv tizimi, endokrin va immun tizimlar bilan bevosita aloqada bo‘lgan. Masalan, xavotir yoki qo‘rquv holatida simpatik nerv tizimi faollashadi va bu yurak urishining tezlashuvi, qon bosimining ko‘tarilishi kabi javoblarga sabab bo‘ladi.

Psixosomatik tibbiyot yo‘nalishi aynan ushbu bog‘liqlikni amaliy nuqtai nazardan o‘rganadi. Vengriyalik psixoanalitik va psixosomatik tibbiyot asoschilaridan biri Franz Aleksander psixosomatik kasalliklarning “emotsional konfliktdan” kelib chiqishini asoslagan. Unga ko‘ra, ichki yechilmagan ziddiyatlar fiziologik tizimda turli buzilishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, doimiy stress holati oshqozon yarasi, arterial gipertoniya, teri toshmalari, bronxial astma kabi kasalliklar rivojlanishiga turtki bo‘ladi. U o‘zining “Psixosomatik tibbiyot: uning tamoyillari va qo‘llanilishi” asarida quyidagi jumlalarni tilga oladi- “Maxsus emotsional konfliktlar, avtonom innervatsiyaga eng sezgir a’zolarda aniq kasalliklarni yuzaga keltiradi.” [3.30]

1870-yillardan boshlab funksional holatlarni faol tadqiq etish boshlandi. F.Gal’ton, E.Krepelin, G.Ebbingauz, A.Bine kabi mashhur psixologlar bunga juda katta hissa qo‘shdilar. 2015 - yilda funksional holatlarga oid yondashuvlarni to‘rtta guruhga ajratilgan. Energetik yondashuvga ko‘ra, funksional holatlar alohida fiziologik tizimlar va butun organizmning hayotni ta’minlash darajasida jarayonlarning kechish tavsifi bo‘lib, xulq-atvorga oid vazifalarni hal etishdagi

fiziologik tizimlar tomonidan energiyani sarflash samaradorligi va jadalligini ifodalaydi. Tadqiqotlarda turli faoliyat sharoiti va tartibida metabolik, nerv-gumoral, tserebral, vegetativ va boshqa jarayonlar mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Fenomenologik yondashuvlarga ko'ra, funksional holatlar inson tomonidan tajribaning affektiv fonda ichdan kechirilishi (hissiyot, emotsiya, kechinmalar), kuzatish hamda o'zini-o'zi kuzatish shaklida namoyon bo'ladi. Fenomenologik yondashuv doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda psixik holatlarning ko'p o'lchamli tabiati va holatlarni refleksiv baholash o'rtasidagi tuzilmaviy-funksional aloqalar asoslab berilgan. Xulq-atvorli yondashuvga ko'ra, funksional holatlar tashqi xatti-harakatlar darajasida faoliyatni bajarish usullari va natijasi tavsifi sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv doirasidagi eng muhim yo'nalish harakat aktlarini bajarishning sifat tomoni bo'lib, u faoliyat samaradorligining o'zgarishiga olib keladi. Xulq-atvorli yondashuv funksional holatlarni baholashning nisbatan takomillashtirilgan xulq-atvor va psixometrik metodlari vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Kompleks yondashuvga ko'ra, funksional holatlar psixik hodisa va holatlarning yaxlit ko'pkomponentli tavsifidir.

Funksional holatlarning umumiy tasnifi

A. Pragmatik tasnif (tashqi effektlar tipi bo'yicha)

1. Ruxsat etilganlik darajasiga ko'ra funksional holatlar: a) ishning ishonchliligi; b) «faoliyatning qiymati»; c)ta'qiqlangan (ruxsat etilmagan); d) ruxsat etilgan

2. Patologik effektlarning to'planishiga ko'ra: -me'yoriy funksional holatlar; chegara funksional holatlar; patologik funksional holatlar.

B. «Mazmuniy» tasnifi (faoliyatni boshqarish mexanizmlari tipi bo'yicha):

1. Adekvatlik darajasiga ko'ra funksional holatlar muayyan vaziyatli sharoitlarda bajariladigan vazifalarning talablariga tizimli javob reaksiyasi sifatida dinamik nomutanosiblik holati va adekvat mobilizatsiya holati.

2. Yoqimsiz belgilarning to'planish darajasiga ko'ra;

- Ekstensiv holatlar (sifat jihatdan bir xil bo'lmagan funksional holatlarning asosiy guruhlari): optimal holatlar, toliqish, stress holati, monotonlik, to'yinish, zo'riqish holati, relaksatsion holat va boshqalar)

- Intensiv holatlar (bir xil tipdagi funksional holatlar darajasiga ko'ra) rivojlanish darajasi dinamikasini aks ettiradi va shkalalar ko'rinishida ifodalaydi:

- Tetiklik darajasi shkalasi;

- Ish qobiliyatining dinamik darajasi;

- Stress holatining rivojlanish darajasi.[2.184]

Tizimli reaksiya sifatida funksional holatlarning xossalari. Funksional holatlar — maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni bajarishni ta'minlovchi funksional tizimlar ishini qayta qurish natijasi.

Insonning har bir o'ziga xos holatini turli ko'rinishlar yordamida tasvirlash mumkin. Turli fiziologik tizimlar faoliyatidagi o'zgarishlar obyektiv ravishda qayd etilishi va nazorat qilinishi mumkin. Turli xil holatlar asosiy aqliy jarayonlar jarayonida ma'lum siljishlar bilan tavsiflanadi: idrok, e'tibor, xotira, fikrlash va

hissiy-irodaviy sohadagi o‘zgarishlar. Aniq ifodalangan subyektiv tajribalar majmuasi bilan birga keladigan ko‘plab shartlar mavjud. Shunday qilib, kuchli charchoq darajasi bilan odam charchoq, letargiya hissini boshdan kechiradi. Monotoniya holati zerikish, apatiya va uyquchanlik bilan tavsiflanadi. Kuchli hissiy zo‘riqish holatlarida asosiy alomatlar tashvish, asabiylashish, xavf va qo‘rquvni boshdan kechirishdir. Har qanday holatni mazmunli tavsiflash xulq-atvor darajasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilmasdan mumkin emas. Bu faoliyatning muayyan turini bajarishning miqdoriy ko‘rsatkichlarini, mehnat unumdorligini, ishning intensivligi va sur’atini, muvaffaqiyatsizliklar va xatolar sonini baholashga tegishli. Faoliyatni amalga oshirish jarayonining sifat xususiyatlarini, birinchi navbatda, vosita va nutq xatti-harakatlari ko‘rsatkichlari nuqtai nazaridan tahlil qilishga ham e’tibor qaratiladi. Shunday qilib, har bir holatda ruhiy va fiziologik hodisalar u yoki bu tarzda aks etadi.

Ruhiy holatlar va tana reaksiyalari o‘rtasidagi aloqani o‘rganish uchun ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda stressning fiziologik ta’siri, turli ruhiy holatlarning organizmga bo‘lgan ta’siri batafsil o‘rganilgan. Ulardan ba’zilarini quyida keltirib o‘tamiz.

T.W.Kamarck (1999) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, stress holatlarida yurak urishining tezlashishi va qon bosimining oshishi ko‘rsatilgan. (Negative emotions and Acute physiological responses to stress. Annals of behavioral medicine. 1999) A.Steptoe va boshqalar (2005) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, ijobiy ruhiy holatlarning organizmning fiziologik ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi va ijobiy kayfiyatning qon bosimi va yurak urishini normallashtirishga yordam berishi aniqlandi. [3]

W.Linden (2003) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, stressli holatlarda nafas olish tezligining oshishi va uning organizmning boshqa tizimlariga ta’siri ko‘rsatilgan.

Psixofiziologik usullar ruhiy holatni o‘rganishda inson organizmining fiziologik javoblarini, masalan, yurak urish tezligini, qon bosimini, nafas olish tezligini, terlashni va boshqalarni o‘lchashga qaratilgan. Ushbu usullarni qo‘llash orqali ruhiy holatning fiziologik ko‘rsatkichlarga ta’siri o‘rganiladi.

Inson ruhiyati va organizm funksional holati o‘rtasidagi bog‘liqlik faqat nazariy tushuncha emas, balki eksperimental tadqiqotlar, klinik kuzatuvlar hamda hayotiy tajribalar orqali ilmiy asoslangan holat ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Ushbu bog‘liqlikni to‘g‘ri tushunish va unga e’tibor qaratish psixologik yondashuvlarni sog‘liqni saqlash tizimiga integratsiya qilish uchun muhim zamin yaratadi. Psixologik va fiziologik jarayonlar o‘rtasidagi aloqadorlik murakkab bo‘lishiga qaramay, aniqlanishi va boshqarilishi mumkin bo‘lgan hodisadir. Bu bog‘liqlikni chuqur anglash shaxsga o‘z sog‘lig‘ini saqlash, stress holatlarini yengish, ruhiy barqarorlikni tiklash va hayot sifatini yaxshilash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Funksional holatning haqiqiy darajasi ko‘plab omillarning murakkab o‘zaro ta’siri natijasidir va bu holat shaxsning mavjudlik shartlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu bilan birga, real hayot sharoitida faoliyat yuritayotgan insonning

funksional holatini tahlil qilish jarayoni nafaqat fiziologik, balki psixologik hamda ijtimoiy-psixologik jihatlarni ham qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Климов Е.А.Психология труда, инженерная психология и эргономика. Екатеринбург.2017.69с.
2.Kurbanova Z.B., Oribboyeva D. D. Mehnat va muhandislik psixologiyasi.O‘quv qo‘llanma. Namangam-“Usmon Nosir mediya” -2022.220b.161-176b.
3.Леонова А. Б. Психодиагностика функциональных состояний человека. — М.МГУ.2004. — 200 с.
4.Немчин Т.А. Состояния нервно-психического напряжения. – Л.: Изд-во ЛГУ-1983.

SHAXSNING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY MUHITNING TA’SIRI

Toshpulatov Ibrohim Ikromjonovich
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchi
Abduqahharova Nigora Adhamjon qizi
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy ish yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxs va shaxsning shakillanishiga tasir ko‘rsatuvchi omillar, shaxsni qurshab turgan makro va mikro muhitning tasiri, bolaning rivojlanish bosqichlari va tarbiyaning ahamiyati, sharq mutafakkirlarining va o‘zbek marifatparvarlarining o‘ziga xos fikrlari haqida batafsil bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, ijtimoiy muhit, makro va mikro muhit, bola, tarbiya, ota-ona.*

Аннотация: *В статье подробно описываются факторы, влияющие на формирование человека и его личности, влияние макро- и микросреды, окружающей человека, этапы развития ребенка и значение воспитания, а также уникальные идеи мыслителей востока и узбекской интеллигенции.*

Ключевые слова: *личность, социальная среда, макро и микросреда, ребенок, воспитание, родители.*

Annotation: *The article describes in detail the factors influencing the formation of a person and his personality, the influence of the macro- and microenvironment surrounding a person, the stages of a child's development and the importance of education, as well as the unique ideas of Eastern thinkers and the uzbek intelligentsia.*

Key words: *personality, social environment, macro- and microenvironment, child, education, parents.*

Shaxs - ijtimoiy munosabatlarning obyektigina emas, balki uning subyekti va faol ishtirokchisi hamdir. Shaxs - bu konkret inson, ma’lum bir davlatning, jamiyatning, guruhning (bu guruh ijtimoiy, etnik, diniy, siyosiy, yoshga oid va h.k. bo‘lishi mumkin) vakili, o‘z atrofidagilar bilan ongli munosabat o‘rnata oladigan, ongli ravishda faoliyat yurita oladigan, barcha munosabatlarda o‘ziga xos insoniy qiyofani namoyon qila oladigan, shuningdek, o‘ziga xos individual va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lgan kishidir. Shaxs avvalo o‘zining qadr-qimmati va kamchiliklari bilan jamiyat hayotida faol qatnashganligi hamda ta’lim-tarbiya natijasida yuzaga kelgan o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlari bilan paydo bo‘lgan konkret tirik odamdir.

Shaxsning faolligi uning o‘z hayoti uchun yo‘l tanlashida, bu yo‘lni egallashida, hatto o‘z mavqei va o‘rnini anglashida ifodalanadi. Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik protsesslarning o‘sib borishi xususiyatlari, hukmron hissiyotlar yig‘indisi, faoliyat motivlari va tarkib topgan qobiliyatlar kiradi.

L.S. Vigotskiyning fikricha, shuni ham inobatga olish kerakki, bolaning psixik rivojlanishida va o‘z-o‘zini anglashning taraqqiy etishida nasIiy omillarning ham roli mavjuddir, biroq asosiy tamoyil sifatida psixikaning rivojlanishida muayyan hayot tarzining roli ham kattadir. Sotsiogenetiklarning fikricha, odam “ijtimoiy muhitning nusxasidir”.

Ijtimoiy muhit - insonning yashashi va ishlashi uchun uni o‘rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma’naviy shart-sharoitlar. Muhit keng ma’noda (makromuhit) ijtimoiy-iqtisodiy tizimni — ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va tartib-qoidalar majmuini, jamiyatning ijtimoiy ong va madaniyatini o‘z ichiga oladi. Tor ma’nodagi ijtimoiy muhit (mikromuhit) bevosita insonni qurshab olgan oila, mehnat, o‘quv va boshqa guruhlardan iborat. Ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishiga va rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Ayni vaqtda insonning ijodiy faolligi, faoliyati ta’sirida ijtimoiy muhit o‘zgaradi, bu o‘zgarishlar jarayonida odamlarning o‘zlari ham o‘zgaradi. Shuni ham aytish joizki, jamiyat odamni juda ko‘p jihatdan cheklab qo‘yadi, uning instinktlari va mayllarini “senzuradan” o‘tkazadi. Natijada odam o‘zini qo‘lga olishga, yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan xatoliklarni qilmaslikka, o‘zining hissiy kechinmalarini tormozlashga majbur bo‘ladi. Shaxsning muhitga bog‘liqligi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Bunda shaxs muhit orqali avtomatik ravishda belgilanadigan, ijtimoiy muhitning oddiy funksiyasi sifatida yuzaga chiqadi. Muhit shaxsga o‘zining eng muhim sifatlarini ko‘chiradi.

O‘rta osiyoda ham shaxs shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar haqida mutafakkirlarimiz o‘ziga xos fikrlarni bildirganlar. UIar orasida bu boradagi fikrlarini asosan ijtimoiy psixoIogik nuqtayi nazardan asoslashga harakat qilganlardan biri F.Attor hisoblanadi. Uning quyidagi fikrlari aynan ijtimoiy muhitning shaxsga ta’siri masalasini oydinlashtirishga qaratilgan desak, xato bo‘lmaydi. “Ko‘zingi ochib qaragin, - deb ta’kidlaydi alloma, - dunyo xuddi qaynab turgan qozonday jo‘shib-toshib turibdi, sen ham shu qozonning ichida qaynayapsan. Ostingda olov lovillab turibdi, shu sababli tinmay qaynab turibsan, dunyo bilan birga. Bu qudrat bor ekan, qaynash davom etadi. Ammo asosiy maqsad, bu qozonda pishib yetilish va jonni jononga qo‘shish”dir.

Allomaning ushbu qarashlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, inson ijtimoiy muhitsiz hech kim emas. U doimo xohlaydimi-yo‘qmi, muhit bilan hamnafasdir. Asosiy maqsad esa “bu qozonda pishib yetilish va jonni jononga qo‘shish”, ya’ni hayotdagi tarixiy o‘zgarishlar davomida shakllanish hamda muhit talablari asosida o‘zining shaxsiy individualligini namoyon qila olishdadir.

O‘zbek ma’rifatparvarlaridan biri bo‘lmish A.Avloniy bolani tarbiyalashda oilaning o‘rni va ahamiyati katta ekanligini ta’kidlagan. Muallif bola tarbiyasida bola yashab turgan sharoit, muhit, atrofdagi kishilarning roli muhimligini ta’kidlab, bu borada nafaqat oila, balki maktab sharoitini ham nazar-e’tibordan chetda

qoldirmaydi. Oilaviy munosabatlardagi tarbiyalanganlik darajasi bolaning ***axloqiga, xulq-atvoriga va bola shaxsining shakllanishiga kuchli ta'sir etishi***ni e'tirof etadi hamda ota-onalarga o'z bolalarini tarbiyalashda to'g'ri usullardan foydalanishni maslahat beradi. Albatta, bola shaxsining shakllanishida oilaviy tarbiya usulining ahamiyati katta bo'lib, ularni to'g'ri yo'lga solishda har bir yosh davrlarining xususiyatlarini inobatga olish lozimdir. Allomaning fikricha, inson bolasi aslida ***iste'dod va qobiliyat*** bilan tug'ilgandir. Lekin undagi bu qobiliyatni kamolga yetkazishda oiladagi shaxslararo munosabatJarning va bola shaxsiga nisbatan e'tiborning roli beqiyosdir. Alloma bola shaxsining shakllanishida ***oiladagi jismoniy tarbiya, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi***ning o'rni haqida alohida to'xtalib o'tadi. Aytib o'tilganidek, shaxsning shakllanishida tarbiyaviy muhitning ham o'rni alohida ahamiyatga ega.

Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzida eng mukammal zot bo'lishi uchun avvalo, tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy "Bo'stonul – orifun" asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: "Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi",- degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu go'ya alohida o'rin tutadi. "Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo, o'zing amal qil",- deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul – haqoyiq", Abu Rayhon Beruniyning hikmatlari, Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" va boshqa asarlarida farzand ota-onaning baxti, uning to'g'ri tarbiyalanishi esa hammaning baxti, degan umumiy xulosa chiqariladi.

V.Satir zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bog'liq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromi va tutumini bola rivojlanishining bosqichlari bilan bog'laydi. Shunga ko'ra, quyidagi bosqichlar farqlanadi:

1-bosqich. Aksariyat olimlar oiladagi hayot sikli ikki yoshning uzoq muddatga ahdu-paymon qilib nikohga kirishga qaror qilgan onlaridanoq boshlanishini ta'kidlaydilar. Boshqa mualliflarning fikricha, oilaning boshlang'ich nuqtasi ikki shaxs rasman nikohga kirgan vaqt, ko'pchilikning guvohligida o'tkazilgan tantanalar bilan izohlanadi.

2-bosqich. Ikki yoshning intim qovushishi oqibatida zurriyodning paydo bo'lishi. V.Satirning fikricha, zurriyodning paydo bo'lishi, tug'ilishi er va xotinning asl munosabatlarini sinovdan o'tkazadi va ular o'ziga xos yangicha munosabatlar davrini boshdan kechira boshlaydilar. Bu davrga asosiy mazmun va ma'no beruvchi voqea - bu er va xotinga yangi ro'llarning berilishi, anchagina katta ijtimoiy mas'uliyatni o'ziga qamrab olgan ota-onalik ro'llarining boshlanishidir.

Ko'plab xalqlarda, ayniqsa, o'zbeklarda bolaning dunyoga kelishi juda katta quvonchli marosimlar bilan boshlanib, ular qadriyat sifatida yillar osha saqlanib kelinmoqda. Masalan bola tug'ilishi bilan bog'liq suyunchi marosinlari, aqiqa, beshik soldi, sunnat va beshik to'ylari kabilar shular jumlasidandir. Shunga

qaramay, ayrim xalqlarda, masalan, Yevropa xalqlarida oilada farzandning tug‘ilishi muayyan tashvishlar, ruhiy tarangliklar, ayniqsa, ona boshidan kechiradigan emotsianal hayajonlar, yaqinlariga ijtimiiy va moliyaviy tashvishlarni keltirib chiqaradiki, bu ham ba’zan oilaviy munosabatlardagi tarangliklarida aks etadi. Oila va farzand oldidagi bunday mas’uliyatlar ayrim hollatda er- xotin munosabatlarining darz ketishiga, ba’zan ajrimlarga, bizning sharoitimizda quda-andachilik munosabatlaridagi kelishmovchiliklarga ham sabab bo‘ladi.

3-bosqich. Bola oiladan tashqaridagi ijtimoiy institutlar - maktabgacha ta’lim muassasalari, ayniqsa, uzluksiz ta’limning boshlang‘ich o‘chog‘i hisoblangan maktabga bora boshlaydi. Maktab shunday maskanki, u yerda har bir bolaning qay darajada va qanday ijtimoiylashgani sinovdan o‘tadi. Chunki u endi nafaqat uzi tengqur bolalar bilan, balki kattalar, begonalar, ko‘chadagi turli toifali insonlar bilan muomalaga kirisha boshlaydi. Bu muomala jarayonida uning qanchalik hayotga tayyorligi, oilasida qanday axloqiy va ma’naviy o‘gitlarni olganligi, kimning bolasi ekanligi, oilaviy muhiti qandayligi bilina boshlaydi. Eng muhimi - maktabga kelgach, bolaning aqliy va intellektual salohiyati, intizomi tekshiruvdan o‘tadi. Ya’ni, bolasini maktabga berar ekanlar, ota onalar ham jamoatchilik oldida o‘ziga xos sinov va tekshiruvdan o‘tayotganday his qiladilar o‘zlarini. Yaxshi yoki yomon ota-onalik ro‘llarini maktab yillarining dastlabki o‘y va yillarida bilingani sababli, ko‘pgina ota-onalar ayni shu davrlarda kuchli stressni boshidan kechiradilar.

4-bosqich. Bola o‘smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, xadeb ta’qib qilavermaslikni davo qila boshlaydi. Ota - onaning farzand oldidagi obrosi, kerakligi darajasi pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham ona ham o‘zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o‘zgartirishga majbur bo‘ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo‘lishga intilishlar paydo bo‘ladi. Bu davr ota- onaning bolasida paydo bo‘layotkan o‘zgarishlar, yoshga oid yangiliklarga qanchalik fahm va farosat, sabr-qanoat bilan turib berishlarini sinovdan o‘tkazadi. Sinovdan yaxshi o‘tgan ota-onaning bolasi keyingi bosqichga eson-omon yaxshilik bilan, ochiq ziddiyatlarsiz o‘tib oladi, aks holda o‘smirlik davrining o‘ziga xos ziddiyatlari girdobida ota-ona-bola munosabatlari jiddiy yomonlashadi, ayrim bolalar uydan ketib qolish holatlarigacha boradi.

5-bosqich. Bolalar katta bo‘lib, balog‘at yoshiga yetadilar, o‘qishlarni tugatib, mustaqil kasb- hunar egallash bosqichiga qadam bosganda, ayrim yoshlar mustaqil oilaviy hayot qurishga ham ulguradilar. Shu davrga kelib, “Bola-ota-ona” munosabatlari deyarli tugaydi. Ayniqsa, bu holat yevropa xalqlariga mos, balog‘at yoshiga yetgach, deyarli barcha hayotiy masalalarni yoshlar o‘zlaricha, o‘z bilganlaricha, hal qila boshlaydilar. Ota-onalar ularning xato qilib qo‘yishlaridan xavotir olmay qo‘yadi. Bizda, yani sharq xalqlarida bu holat biroz boshqacha. Ota-ona farzandi kasb-hunarli bo‘lib, mustaqil kasbiy yo‘ldan ketayotgan bo‘lsa ham ularning kelajagi, oilasi, moliyaviy ahvoli borasida xavotirga tushaveradi, o‘g‘il uylanishi, qizlarning turmushga chiqishlarida ota-ona va ularning ota-onalari, yani - momolar va buvalar bosh qosh bo‘ladilar. Turmush o‘rtog‘ini tanlash masalasi ham bizda juda kam holatlarda voyaga yetgan qiz yoki yigit ixtiyoriga havola etiladi.

Ya’ni ko‘chadan birdan notanish qizni “Tanishing bu mening bo‘lgusi qallig‘im, turmush o‘rtog‘im” deb aytishlar deyarli uchramaydi, chunki buni bizning azriy urf-odatlarimiz, oilaviy tarbiya mezonlarimiz yo‘l qo‘ymaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir inson individual xarakter xususiyatga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Uning o‘sishi, rivojlanishi, kamol topishida ijtimoiy muhitning va tarbiyaning ahamiyati katta. Bola tug‘ilganda, eng avval oila muhitida o‘sib ulg‘ayadi va ma’lum vaqt otgach esa makro ijtimoiy muhit uni qamrab oladi. Atrofidagi insonlar uning xarakter xususiyatiga, jamiyatda qanday o‘rinni egallashiga, kasbiy faoliyatiga tasir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Farzandlarimizni yetuk, bilimli, tartib-intizomli, tarbiyali, jamiyatga foyda keltira oladigan, o‘z fikrini erkin bayon qila oladigan, jamiyatimizning gullab yashnashiga, yurt ravnaqiga hissa qo‘sha oladigan qilib shakllantirish, yetarli va kerakli shart sharoitlar yaratish, yod g‘oyalarga berilib ketishini oldini olish nafaqat har bir ota-onaning balki, davlatning va jamiyatning ham burchidir.

Foydalanilgan adabiyotar:

1. Oribboyeva D. Shaxs psixologiyasi. - NamDU. 2019 y.
2. Ismoilova N, Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent. 2013 y.
3. Karimova V.. Oila psixologiyasi. -Toshkent. 2007 y.
4. Toshpulatov I.I. PEDAGOGICAL PROCESS, PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL PROCESS, PRINCIPLES OF ITS ORGANIZATION МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ Теория и практика современной науки 5 (23), 1130-1133
5. Toshpo‘latov, I., Usmonova, M. PEDAGOGICAL PROCESS, PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL PROCESS, PRINCIPLES OF ITS ORGANIZATION. Теория и практика современной науки, (5), 2017. 1130-1133.

HUQUQ-TARTIBOT TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING USTUVOR YO`NALISHLARI

Yo.Djumanazarov, Namangan davlat universiteti,
Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi. O‘zbekiston
B. Atamirzayev Namangan davlat universiteti,
pedagogika fakulteti manaviy-marifiy ishlar bo‘yicha
dekan o‘rinbosari. O‘zbekiston

Annotatsiya: *Xuquq-tartibot organlari xodimlarida kasbiy faoliyatning psixologik jixatlarini, kelajakda o’z burch va majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun ularga zarur psixologik-pedagogik printsiplar, kategoriyalar va tushunchalarni singdirish xamda kasb madaniyati va etikasi talablariga muvofiq xatti-xarakatlarini izoxlash, xizmat vazifalarini to’g’ri bajarishga o’rgatish, o’z kasbiga mexr-muxabbat, insonga xurmat bilan qarashni tarbiyalash.*

Kalit so‘zlar: *Davlat siyosatiga ishonch, vatan oldidagi burch, printsipiallik, javobgarlik hissini tarbiyalash, intizom, xarbiy yoki xizmat burchi, mafkuraviy ishonch, motivlarni to’g’ri tanlash, xissiylik xolati, irodalilik, kasbni tanlash, obro’, yuksak insoniy xislatlar*

Аннотация: *Привить сотрудникам правоохранительных органов психологические аспекты профессиональной деятельности, необходимые психолого-педагогические принципы, категории и понятия для эффективного выполнения ими в дальнейшем своих обязанностей и обязательств, а также разъяснить их поведение в соответствии с требованиями профессиональной культуры и этики, научить их правильно выполнять свои служебные обязанности, воспитывать любовь к своей профессии, уважение к людям.*

Ключевые слова: *Доверие к государственной политике, долг перед Родиной, принципиальность, воспитание чувства ответственности, дисциплина, воинский или служебный долг, идеологическая уверенность, правильный выбор мотивов, эмоциональное состояние, сила воли, выбор профессии, репутация, высокие человеческие качества.*

Annotation: *To instill in law enforcement officers the psychological aspects of professional activity, the necessary psychological and pedagogical principles, categories and concepts for the effective performance of their duties and obligations in the future, as well as to explain their behavior in accordance with the requirements of professional culture and ethics, to teach them to properly perform their official duties, to cultivate love for their profession, respect for people.*

Keywords: *Trust in state policy, duty to the homeland, principledness, upbringing of a sense of responsibility, discipline, military or service duty, ideological confidence, correct choice of motives, emotional state, willpower, choice of profession, reputation, high human qualities*

Ma’lumki, Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar xuquq-tartibot xodimlaridan yuksak madaniyatni, o’z kasbining mohir ustasi bo’lishni, murakkab sharoitlarda davlat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qila olishni,aholining har xil toifalari bilan ishlay olishni talab qiladi. Kasbiy faoliyatning psixologik jixatlari xuquq-tartibot organlari xodimlarining kelajakda o’z burch va majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun ularga zarur psixologik-pedagogik printsiplar, kategoriyalar va tushunchalarni singdirish xamda kasb madaniyati va etikasi talablariga muvofiq xatti-xarakatlarini izoxlash, xizmat vazifalarini to’g’ri bajarishga o’rgatish, o’z kasbiga mexr-muxabbat, insonga xurmat bilan qarashni tarbiyalashda namoyon bo’ladi. Kasbiy faoliyatning pedagogik jixatlari esa xodim xulqidagi mavjud axloqiy-siyosiy xususiyatlarda aks etib, axloqiy me’yorlar va printsiplarning shaxs ongida qanday xosil bo’lishi bilan belgilanadi. Axloqning shakllanishida atrofdagi turli xulq-atvordagi kishilar, shaxsiy tajriba, muayyan tiplar to’g’risidagi ma’lumot-lar,ommaviy axborot vositalarida yoritilayotgan faktlar katta ahamiyatga ega. Siyosiy-ijtimoiy fanlar ijodiy fikr yuritishga yordam beradi. Atrofda yuz berayotgan voqelikni tushunish, taxlil qilishda xam ijtimoiy-siyosiy fanlarning o’rni katta.

Davlat siyosatiga ishonch o’rnatilgan printsiplarga sodiqlikda, davlat siyosatining aholi o’rtasida keng targ’ib qilinishida va amalda qo’llanish jarayoniga talabchanlikda ko’rinadi. Talabchanlik xususiyati psixologiyada shaxsiy namuna bo’lish orqali atrofdagilarga ta’sir o’tkaza olish, ularni maqsad sari yo’llay olishda xosil bo’ladi.

Printsipiallik shaxsning o’z ishiga sodiqligi, iroda xususiyatlarida namoyon bo’ladi va bular qat’iyatlilik, javobgarlik hissining yuqoriligi, ko’zlangan maqsadga erishishda samaradorlikning yuqoriligi bilan belgilanadi;

Vatan oldidagi burch jamiyat uchun sidqidildan halol mehnat qilish, xizmat burchiga sodiqlik, topshirilgan vazifalar uchun javobgarlikni talab etadi. Vatanga sodiqlik esa uni sevish, har qanday sharoitda o’z burchini bajarishga tayyorlik, butun kuch va imkoniyatini Vatan himoyasiga sarflashni bildiradi.

Javobgarlik hissini tarbiyalash o’z shaxsiy xarakatlari uchun javob berish bilan cheklanmay, balki jamoatchilik yordamida umumiy ishlarga birgalikda javobgar bo’lishni ham anglatadi. Jamiyatimizda jamoa oldidagi burchni sezish muhim hisoblanib, o’rtoqlik munosabatlari va jamoatchilik hissi yuqori bo’lishi zarur. Xodimning o’z kamchiliklarini tan olishi, ta’lim-tarbiya vaqtida ularni ilg’ay olishi

uni o’z vaqtida bartaraf etishga yordam beradi. Kamchiliklarni yashirish, qiyinchiliklarni ko’rsatmaslik faoliyat samaradorligini susaytiradi. Xar bir xodim Vatan oldida qasamyod qiladi. Bu shunchaki rasmiyatchilik emas, balki Vatan, xalqqa sadoqat, o’z oldiga qo’yilgan vazifalarini sidqidildan bajarishga tayyor bo’lish demakdir.

Intizom insonlar xulqining maxsus shakli bo’lib, jamiyatda qabul qilingan qoidalarga amal qilishni bildiradi. Xarbiy tartib- intizomning farqli tomoni axloqiy xususiyatlarni buyruq va nizom talablariga bo’ysundirishdan iborat.

Xarbiy yoki xizmat burchi shaxsning o’z xatti-xarakatlarini aniq, ichki ishonch bilan bajarishi uchun o’zini kuchli nazorat qilishini talab etadi.

Mafkuraviy ishonch tegishli qonun, nizomlarga to’g’ri munosabat, rahbarlar buyrug’i va ichki tartibga rioya qilish asosida shaxsda muayyan xulq-atvorni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Xuquq-tartibot xodimlari har qanday sharoitda vaziyat talabi asosida xulqini boshqara olish qobiliyatini rivojlantirishi zarur.

Motivlarni to’g’ri tanlash, jinoyat ishlarini ochishda qo’llanadigan usul va bilimlar majmuiga, ya’ni bilish jarayonining muvaffaqiyatiga bog’liq.

Ijtimoiy bilish jarayoni xodimning ish faoliyatida duch kelishi mumkin bo’lgan muammolar va shundan kelib chiqadigan psixologik xususiyatlarni anglashi, kasb faoliyati jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlarni tushunib yetib, shu vaziyat va holatda masalani hal eta olishi bilan belgilanadi.

Xissiylik xolati – o’z kuchi va maxoratiga ishonish, jinoyatchilikka qarshi kurash jarayonida uchrashi mumkin bo’lgan ob’ektiv va sub’ektiv to’siqlarni yengish uchun o’z hissiyotlarini boshqara olish, ijtimoiy tenglik va qonun g’alaba qozonganidan qoniqishni sezish.

Irodalilik – qaltis vaziyat va xolatlarda iroda kuchini jamlay olish, juda katta kuch va matonat talab etadigan sharoitlarda sabrli, qat’iyatli bo’lish, o’z vazifasini bajarishga, kasbiy maqoratni egallashga butun diqqatini to’play olishda namoyon bo’ladi.

Kasbni tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha nomzodlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko’ra munosibrog’ini tanlashni bildiradi. Kasbni tanlash kasbiy yo’nalganlikka nisbatan birmuncha qiyinchiliklar tug’diradi. CHunki, shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallashga tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasi-ning kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi.

Obro’ – yuqori darajadagi axloq belgisi bo’lib, bilim va tajriba asosida boshqa insonlarga (ixtiyoriy) ta’sir o’tkazish, jamoa a’zolarining birligi, birdamligi va boshliqning mavqei bilan belgilanadi.

Yuksak insoniy xislatlar – tajriba, shaxsiy namuna, jamoada obro’-e’tiborga ega bo’lish va xokazo

Xuquq-tartibot xodimlarining o’z funktsional vazifalarini bajarishlari jarayonida doimiy tezkorlikning talab qilinishi kuchli ruhiy zo’riqish holatlarini keltirib chiqaradi va ularning psixikasiga nisbatan ma’lum neyrofiziologik talablarni qo’yadi. Xodimning protsessual mustaqilligi va xizmat jarayonidagi erkinlgi undan

tashabbuskorlik, tashkilotchilik va javobgarlikni taqozo etadi. Uzoq muddatli kasb faoliyati davomida *o'zini yetarli darajada tanqid qilmay* ish olib borish ayrim xodimlarning kasbiy buzilishiga olib keladi, ya'ni xokimiyat vakili sifatida manmanlik, qo'pollik, ma'naviy cheklanib qolish kabi salbiy shaxsiy xususiyatlarni vujudga keltirishi mumkin.

Belgilangan protsessual tartib-qoidalarga bo'ysunish, ular doirasidan chiqmaslik – rigidlik, masalani qolipli hal etish rasmiylik, qayishmaslik kabi xususiyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

G'ayriijtimoiy munosabatlar bilan to'qnash kelish esa xodimda tez-tez gumonsirash, yanglish fikrlash, o'z kasb faoliyatini ayblash hislarini tug'dirishi mumkin.

Vaqtning kamligi esa xodimda ortiqcha shoshma-shosharlikni, ma'lum protsessual talablarga yuzaki yondashuvni keltirib chiqaradi. Xodim o'zini qattiq nazorat qilish orqali bunday kasb buzilishlarining oldini olishi mumkin.

Xodim hissiyotini keskin qo'zg'atuvchi vaziyatlarning ko'p bo'lishi hissiy turg'unlik, befarqlik va sovuqqonlikni keltirib chiqaradi. Tashqi muhit ta'siriga berilmaslik, konform xulosalarga kelmaslik, guruxlab xulosa chiqarishda «oddiy ko'pchilik strategiyasi»dan uzoqroq bo'lish lozim.

Eng muhim kasbiy psixologik xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kasbiy yo'naltirilgan kuzatuvchanlik;
- hodisalarni bilvosita belgilari asosida xulosalar yasash, faktlarni kontseptual taqqoslash;
- vaziyatdan amaliy xulosalar chiqarish, murakkab xayotiy chalkashliklarni taqlil qilish, aniq qarorlar qabul qila olish;
– xarakatlanishning eng to'g'ri rejasini tuzish, yangi faktlar kelib chiqqanda rejalarni tez o'zgartira olish, printsipiallik, o'z xarakatlarini baxolay olish, adolatlilik.

Xodim ma'lum ishni bajarayotganda unda qatnashuvchi shaxslarga xolis va odilona munosabatda bo'lishi, holatlarga aniqlik kiritishi, ayblashga moyil bo'lmasligi (holatning aniq ob'ektiv va sub'ektiv tomonlariga ko'zi yetishi) kerak. Psixik jarayonlarning kuchi, shaxslarning xarakteridagi u yoki bu xususiyatlariga qarab bir necha guruqga bo'lish mumkin: murakkab, chalkash, kam axborotga ega bo'lgan shaxslar. Ularning kommunikativ xislatlari past va tashkilotchilik darajasi, aqliy xususiyatlari yetarli bo'lmaganligi sababli, ish unumdorligi bir muncha sust bo'ladi; o'ta kuzatuvchan, e'tiborli shaxslar. Ular yuqori kommunikativ xususiyatlari, evristik imkoniyatlari bo'lmasa ham, turli kishilar bilan muloqot o'rnatish, ulardan kerakli ma'lumotlarni olishda yordam berib qolmay, faoliyatini samarali tashkil etishda ham omilkor bo'ladilar. Ba'zi xodimlar o'zlarining yutuq va kamchiliklarini shaxsiy mavqe va maqbul xarakatlari bilan bog'laydilar. Bu turdagi xodimlar o'z qarorlari va ish faoliyatlariga o'ta javobgarliklari bilan ajralib turadilar. Ma'lumotlarni tekshirib birlamchi xarakatlari barbod bo'lgan vaziyatlarda konstruktiv yo'l tutadilar, o'z xarakatlarining mahsuli bo'lgan axborot bilan hisoblashadilar. Ko'pchilik fikri orqali vujudga keladigan tazyiqlarga turg'un munosabatda bo'ladilar.

Boshqa turdagi xodimlar esa o’z omadsizliklarini vaziyat taqozosi deb biladilar. Ular ishdagi qaltis vaziyatlarda qat’iyatsiz, rigid va konservativ bo’ladilar. Xuquq-tartibot xodimining kasbiy tipologik xususiyatlarini inobatga olish, ularni lavozimga tayinlashda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi //Xalq so’zi gazetasi 2017 yil 16 yanvar №11.
2. Nishonova .Z.T. "Psixologik xizmat" T., 2005
3. Sog’inov.N.«Ta`lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostik vositalardan foydalanish», T., 2001.y

“KASBIY INDENTIFIKATSIYA” TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Ergasheva Dilorom Hamidullaevna
Namangan davlat universiteti, o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada kasbiy identifikatsiya haqida va talabaning kasbiy identifikatsiya doirasidagi o‘zi haqidagi g’oyalar tizimi kelajakdagi mutaxassis (ma’lum bir professional guruhga mansub), uning kasbiy va o‘quv-kasbiy maqsadlari, ushbu maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlari haqidagi g’oyalarni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *identifkatsiya, kasbiy identifkatsiyalanish, kasbiy tayyorgarlik, kasbga yo‘naltirish, avtonomlik, axborotga egalik, qarorlar qabul qilish, rejalashtirish, emotsional munosabat.*

Аннотация.*В статье рассматривается профессиональная идентификация и система представлений студента о себе в рамках профессиональной идентификации, о будущем специалисте (принадлежности к определенной профессиональной группе), его профессиональных и образовательных целях, а также возможностях реализации этих целей.*

Ключевые слова: *идентификация, профессиональная идентификация, профессиональная подготовка, профессиональная ориентация, автономия, владение информацией, принятие решений, планирование, эмоциональная реакция.*

Annotation: *The article discusses professional identification and the system of ideas about the student's self-concept within the framework of professional identification, the future specialist (belonging to a certain professional group), his professional and educational goals, and the possibilities of realizing these goals.*

Keywords: *identification, professional identification, professional training, career guidance, autonomy, information ownership, decision-making, planning, emotional response.*

Kasbiy identifikatsiyani o‘rganishning dolzarbligi ta’limning hozirgi bosqichida alohida ahamiyatga ega. Identifikatsiya muammosi kasbiy faoliyat psixologiyasida tobora ko‘proq tadqiqot mavzusiga aylanmoqda. Tadqiqotchilar kasbiy ijtimoiylashuv tushunchasini boshqacha talqin qilishadi.

Ushbu atamani to‘liq tushunish uchun siz turli nuqtai nazarlarni o‘rganishingiz kerak. J.J.Muskina va B. G. Korostelkinning ta’kidlashicha, talabaning kasbiy identifikatsiya – bu uning o‘zi haqidagi g’oyalarining yaxlitligi, hissiy tajribalar va kasbni egallash bilan bog’liq ongli faoliyat, uning asosida kelajakdagi mutaxassis sifatida o‘zi bilan identifikatsiya hissi paydo bo‘ladi.

Talabaning kasbiy identifikatsiya doirasidagi o‘zi haqidagi g’oyalar tizimi kelajakdagi mutaxassis (ma’lum bir professional guruhga mansub), uning kasbiy va o‘quv-kasbiy maqsadlari, ushbu maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlari haqidagi g’oyalarni o‘z ichiga oladi. Yu.P.Kocheleva ta’kidlashicha, rus psixologiyasida kasbiy identifikatsiyani shakllantirishda madaniy va tarixiy kontekst hisobga olinadi. N.S.Pryajnikovning fikricha, professional identifikatsiya zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan nafaqat ma’lum bir professional jamoa yoki guruhga nisbatan insonning ijtimoiy o‘zini o‘zi belgilash kontekstida, balki, birinchi navbatda, kasbiylashtirish jarayonida shaxsning rivojlanish hodisasi sifatida qaraladi. S.A.Gaponova, S.G.Lovkovning ta’kidlashicha, kasbiy identifikatsiyani ham shaxsiy, ham ijtimoiy tekislikda aks etadigan hodisa sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. SHaxsiy tekislikda uning yadrosi sub’ektning kasbiy faoliyat tarkibiy qismlariga munosabatini shakllantiradigan shaxsiy g’oyalar va ma’nolar tizimidir. Ijtimoiy tekislikda identifikatsiya professional jamiyatning ma’nolari va g’oyalarini qabul qilish bilan belgilanadi. L.B.SHneyder o‘zining asl ma’nosida “identifikatsiya” tushunchasi bunday ontologik haqiqat tushunchasiga to‘g’ri kelishini yozadi: narsa o‘zi va boshqa narsa emas. SHaxs fikrlangan narsa va uning so‘zlarda qanday shakllanganligi, ongda mavjud bo‘lgan narsa va tashqi xatti-harakatlarda qanday ifoda topishi o‘rtasidagi identifikatsiya sifatida tushuniladi, ya’ni shaxsning shaxs qanday ko‘rinishi bilan identifikatsiyani ifodalaydi. A.M.Sosnovskayaning fikricha, identifikatsiyani shaxsga ma’lum bir jamoa – oila, do‘stona doira, professional hamjamiyat, diniy hamjamiyat, millat, irq va boshqalar bilan tanishishga imkon beruvchi omillar to‘plami sifatida tushunish mumkin. S.S.Selivanova quyidagi uchta omilni aniqlaydi, ularning mavjudligi to‘liq identifikatsiyani ko‘rsatadi:

- inson o‘zini jamiyatning bir qismi deb bilishi kerak va nafaqat qalbda, balki buni namoyon qilishi kerak (bu “men”– omil yoki identifikatsiya, “namoyon bo‘lgan identifikatsiya”)
- jamiyat bunga muvofiq bo‘lishi va bu rozilikni so‘z bilan emas, balki amalda namoyish qilishi kerak (“biz” omil).
- buni begonalar, ya’ni uchinchi shaxslar tan olishlari kerak (“ular” omil).

A.V.SHapieva o‘z maqolasida kasbiy identifikatsiya voqelik bilan kasbiy o‘zaro munosabatlarning ma’lum bir usulini shakllantiradigan va amalga oshiradigan va shu bilan o‘zini o‘zi baholash ma’nosini oladigan sub’ektning o‘ziga xos xususiyati ekanligini yozadi. T.S.Timofeeva zamonaviy ilmiy nashrlarda kasbiy identifikatsiya tushunchasining mazmuni to‘g’risida turli xil tushunchalarni topish mumkinligi haqida yozadi:

- o‘tmish, hozirgi va kelajak barqaror kasbiy bilimlarga birlashtirilgan dinamik, yaxlit shaxs sifatida, bajarilgan faoliyatning sifati shaxsiy tarjimai hol, kasbiy tayyorgarlikning o‘ziga xos xususiyatlari va martaba o‘sish bosqichlarini kasbiy o‘ziga xoslikka integratsiyalashuviga bog’liq;

- eng muhim kompetentsiyalarni shakllantirish jarayoni va natijasi sifatida (akkreditatsiya professional standartlari bilan belgilangan);

- vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadigan, ko‘pincha bosqichlarni bosib o‘tadigan va atrof-muhit asosida doimiy ravishda o‘zgarib turadigan kasbiy faoliyat sharoitida shaxsiy identifikatsiyaning bir turi sifatida.

Kasbiy identifikatsiya ta’riflari hozirda uning shaxsiy rivojlanishning yakuniy, tugallangan mahsulotini o‘z ichiga olmaydi degan tushunchani aks ettiradi.

S.S.Selivanovaning fikricha, kasbiy identifikatsiya-bu shaxsning ma’lum bir kasbning vakili sifatida o‘zini anglashi, kasbiy guruhga mansublik hissi, o‘zlashtirilgan faoliyatda shaxsiy ma’nolarni izlash natijasi va uning me’yoriy-qadriyatlar tizimini qabul qilish, bu shaxsni professional sifatida rivojlantirish uchun zarur shartdir. O.V.Nalitkina kasbiy identifikatsiya deganda sub’ektning maqsadli faoliyati natijasida kasbiy o‘zini o‘zi belgilash va rivojlanish bilan bog’liq bo‘lgan dinamik o‘zgarish jarayonida bo‘lgan va uning shakllanishida bir qator omillar ta’siri ostida ma’lum bosqichlardan o‘tadigan murakkab, ko‘p komponentli va ko‘p darajali shaxsiy tuzilmani tushunadi.

Kasbiy identifikatsiya kasbiy ijtimoiylashuv jarayonida ichki va tashqi manbalar asosida maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, individual kasbiy tajribaga ega bo‘lish, professional hamjamiyatning qadriyatlari va xulq-atvor me’yorlari bilan tanishish natijasida shakllanadi. A.K.Milyaeva o‘z maqolasida nazariy va empirik tadqiqotlar nuqtai nazaridan kasbiy identifikatsiya – bu sub’ektning o‘zini professional va mutaxassis sifatida doimiy ravishda rivojlanib boradigan va o‘zgarib turadigan g’oyalari to‘plami.

Ushbu o‘zgarishlar tufayli shaxs kasbiy shakllanish va rivojlanishining asosiy bosqichlaridan o‘tadi.

E.G.Matyushkina talabaning kasbiy identifikatsiya-bu o‘zi haqidagi g’oyalarning birligi, hissiy tajribalar va kasbni egallash bilan bog’liq ongli faoliyat, uning asosida kelajakdagi mutaxassis sifatida o‘zi bilan identifikatsiya hissi paydo bo‘ladi. Talabaning kasbiy identifikatsiya doirasidagi o‘zi haqidagi g’oyalar tizimi kelajakdagi mutaxassis (ma’lum bir professional guruhga mansub), uning kasbiy va o‘quv-kasbiy maqsadlari, ushbu maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlari haqidagi g’oyalarni o‘z ichiga oladi. E.M.Kochneva, M.M.Bloxina professional identifikatsiyaning markaziy tarkibiy qismi tasvirni inson ongida tashqi dunyoni aks ettirishning hissiy (idrok, vakillik) va oqilona (ichki nutq) asosi sifatida ajratib turishini yozadilar.

SHu munosabat bilan biz professional identifikatsiya tuzilishidagi darajalarni tavsifladik:

Ifoda etilmagan kasbiy identifikatsiya tanlangan kasb obraziga hissiy munosabat, professional jamoaga tegishli bo‘lish hissi tajribasi (tanlangan universitet darajasida) bilan tavsiflanadi. Aniq, ammo passiv kasbiy identifikatsiya salbiy va ijobiy identifikatsiya qilish va o‘zini o‘zi (tanlangan kasb darajasida) avtoidentikligini saqlash bilan tavsiflanadi. Kasbning qiyofasi boshqalarning kasbiy faoliyati bilan tanishish orqali uning xususiyatlarini anglash natijasida shakllanadi. Kuchli, faol kasbiy identifikatsiya o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi aks ettirish bilan tavsiflanadi (“Men boshqalarda ko‘rgan narsam ham mening sifatim bo‘lishi mumkin”).

Kasbning tasviri kasbni o‘zi uchun ongli ravishda “sinab ko‘rish” natijasida shakllanadi. Aniq, ochiq va barqaror kasbiy identifikatsiya o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tashkil etish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini takomillashtirish, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini tanqid qilish, o‘zini o‘zi bilish, o‘zini namoyon qilishning ko‘plab shakllari orqali o‘zining ichki tajribasini anglash (refleksiya) bilan tavsiflanadi. Kasbiy mansublik har qanday shaxsning eng muhim xususiyatlaridan biridir. E. V.Arshinova, Ye. V.Yanko, O.A.Braunning yozishicha, kasbiy identifikatsiya - bu professional qadriyat yo‘nalishlari, kasbiy faoliyatning ma’nosi, mos keladigan motivatsiya va ehtiyojlar kabi shaxsiy fazilatlar yig’indisidir. Yu. Yu. Aleksandrov, E. V. Kamneva, M. V. Polevaya ta’kidlashicha, ularning normal rivojlanishidagi identifikatsiya insonning tanlangan, o‘zlashtiriladigan va allaqachon bajarilgan kasbiy faoliyatda alohida, shaxsan muhim ma’nolarni aniqlashga tayyorligini, shuningdek, o‘zini va rivojlanish istiqbollarini ushbu faoliyat bilan bog’lashga tayyorligini aks ettiradi.

SHu bilan birga, bunday o‘ziga xoslikni rivojlantirish jarayoni murakkab va qarama-qarshi bo‘lib, taniqli “identifikatsiya inqirozlari” bilan bog’liq bo‘lgan ko‘plab “paradokslarni” keltirib chiqaradi, ularning xabardorligi va hal qilinishi ko‘pincha o‘ziga xoslikni rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Keltirilgan fikrlardan ko‘rinadiki, kasbiy identifikatsiyaning shakllanishi ulardagi kasblar olami haqidagi bilimlari, qiziqishlar darajasi hamda bu borada egallagan tajriba bilan belgilanadi. SHuning bilan birga kasbiy identifikatsiyaning yuzaga kelishi shaxsning o‘zini o‘zi anglash tizimi xususiyatlari bilan chambarchas bog’liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллина О. А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования / О. А. Абдуллина. М.: Просвещение, 1990. 141 с.
2. Маркова А. К. Психология профессионалиста / А. К. Маркова. М., 1996. 308 с.
3. Митина Л. М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы) / Л. М. Митина. М.: Дело, 1994. 216 с.
4. Пидкасистый П. И., Портнов М. Л. Искусство преподавания / П. И. Пидкасистый, М. Л. Портнов. М., 1998. 184 с.
5. Подласый И. П. Педагогика. Новый курс [Текст]: учеб. для студ. пед. вузов: в 2 кн. / И. П. Подласый. М.: ВЛАДОС, 2000. Кн. 1: Общие основы. Процесс обучения. 576 с.
6. Подымова Л. С. Теоретические основы подготовки учителя к инновационной деятельности [Текст]: дис. д. п. н. / Л. С. Подымова. М.: МГЛУ, 1996. С. 290.
7. Сергеева В. П. Управление образовательными системами / В. П. Сергеева. М.: Б. И., 2001. 160 с.

AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK VA O‘SMIRLARNING PSIXIK HIMOYA MEXANIZMLARI

Kulatova Svetlana Yuldashevna

Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur tezisda o‘smirlarning axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashda psixik himoya mexanizmlarining o‘rni yoritilgan. Destruktiv axborotlarning o‘smir psixikasiga salbiy ta’siri va ularni bunday axborotlardan himoya qilishda psixologik yondashuvlar muhimligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotda o‘smirlarda uchraydigan asosiy psixik himoya mexanizmlari, ularning samaradorligi va ularni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *axborot-psixologik xavfsizlik, o‘smir, psixik himoya, destruktiv axborot, emotsional barqarorlik, tanqidiy fikrlash*

Аннотация: *В данной тезисной работе рассматривается роль механизмов психической защиты в обеспечении информационно-психологической безопасности подростков. Освещается негативное влияние деструктивной информации на психику подростков и подчеркивается значимость психологических подходов в их защите. Анализируются основные механизмы психической защиты, характерные для подросткового возраста, их эффективность и пути развития.*

Ключевые слова: *информационно-психологическая безопасность, подросток, психическая защита, деструктивная информация, эмоциональная устойчивость, критическое мышление*

Annotation: *This thesis explores the role of psychological defense mechanisms in ensuring adolescents' information-psychological security. It highlights the harmful effects of destructive information on adolescent mental health and the importance of psychological strategies for protection. The paper analyzes key psychological defense mechanisms observed in teenagers, evaluates their effectiveness, and suggests ways to strengthen them.*

Keywords: *information-psychological security, adolescent, psychological defense, destructive information, emotional stability, critical thinking*

Axborot-psixologik xavfsizlik bugungi zamonaviy jamiyatda shaxs rivojlanishining muhim shartlaridan biridir. Ayniqsa, o‘smir yoshida bu muammo yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan o‘smirlik davri inson shaxsining emotsional va kognitiv jihatdan yetilayotgan bosqichi hisoblanadi. Shu sababli bu bosqichda tashqi axborot oqimlari, xususan, destruktiv axborotlarning psixikaga salbiy ta’siri kuchli bo‘ladi. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘smirlarning psixik himoya tizimi hali to‘liq shakllanmaganligi, bu esa ularni destruktiv axborotga nisbatan zaifroq qilishini isbotlab beradi.

Psixik himoya mexanizmlari shaxsning o‘ziga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillardan himoyalanishga xizmat qiladigan avtomatik psixologik mexanizmlardir. Bular orasida repressiya, izolyatsiya, ratsionalizatsiya, inkor etish, kompensatsiya kabi turlar mavjud. O‘smirlar orasida aynan inkor etish va izolyatsiya holatlari ko‘proq uchraydi. Ular destruktiv axborotni rad etmaydi, balki u bilan yashashga harakat qiladi yoki undan masofalanishga urinadi, ammo bu har doim ham muvaffaqiyatli bo‘lavermaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘smirlarning psixik himoya tizimi ko‘p hollarda emotsional ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, real xavfni baholash qobiliyati zaif bo‘ladi. Bu holat, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va internet orqali tarqalayotgan buzg‘unchi kontentlarga nisbatan sezgirlikni oshiradi. Boshqacha aytganda, o‘smirlar salbiy axborotga qarshi ongli psixologik to‘siq qo‘yolmaydi, chunki ularning axborotni qayta ishlash mexanizmlari hali rivojlanmagan.

O‘smirlarning axborot xavfsizligini ta’minlashda psixik himoya tizimini mustahkamlash muhim rol o‘ynaydi. Bunda maktab psixologlari, ota-onalar va pedagoglar tomonidan shaxsiy suhbatlar, treninglar va maslahatlar orqali o‘smirlarni o‘zini anglashga, tanqidiy fikrlashga va ongli qaror qabul qilishga yo‘naltirish lozim. Bu orqali o‘smirda “axborot filtri” paydo bo‘ladi — ya’ni har qanday axborotni baholash, tahlil qilish va u bilan munosabat qurish mexanizmi shakllanadi. O‘smirlar uchun axborot-psixologik xavfsizlik bu axborot oqimlaridan shaxsning psixik va

emotsional holatini saqlab qolish va himoya qilish jarayonidir. O‘smir yoshida axborotning salbiy yoki destruktiv ta’siriga nisbatan zaiflik ko‘rsatiladi, chunki bu davrda shaxsning emotsional holati barqaror emas, va kognitiv jarayonlar hali to‘liq shakllanmagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning psixik himoya tizimi hali rivojlanmagan va shakllanmagan bo‘ladi, bu esa ularni destruktiv axborotlarga qarshi himoyasiz qilishadi.

O‘smirlar axborotni tanlab qabul qilishda to‘liq ishonchli qarorlar qabul qila olmaydilar, bu esa ularning psixologik xavfsizligini zaiflashtiradi. Shuningdek, shaxsning psixik barqarorligini rivojlantirish orqali o‘smirning ruhiy immunitetini kuchaytirish mumkin. Bu borada emotsional muvozanat, ijtimoiy ko‘nikmalar, o‘ziga ishonch va ijobiy «men» obrazining shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar psixik himoyani kuchaytirib, o‘smirni destruktiv axborotning manipulyativ ta’siridan saqlaydi. O‘smirlar ko‘pincha destruktiv axborotlarni o‘zlariga moslashtirishga harakat qiladilar. Bu ularni emosional jihatdan zaiflashtirib, psixik holatlarini buzishi mumkin. Misol uchun, o‘smirlar internetdagi salbiy kontentni shaxsiy qabul qilishlari yoki ularni muammo sifatida ko‘rmaslikka harakat qilishlari mumkin. Bunday holatlar psixologik himoyaning noto‘g‘ri ishlashiga olib keladi, chunki ular destruktiv axborotni tanqidiy tahlil qilish o‘rniga, o‘zlarini himoya qilish uchun inkor etish yoki izolyatsiya qilishga intilishadi. Axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlash uchun o‘smirlarning psixik himoya tizimini rivojlantirish juda muhimdir. Bu tizimning mustahkamlanishi o‘smirlarning axborot oqimlaridan zarar ko‘rmasdan rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi. Maktab psixologlari, ota-onalar va pedagoglar o‘smirlarga psixologik yordam ko‘rsatish va ularni axborot xavfsizligi haqida ma’lumot berish orqali bu tizimni rivojlantirishi kerak.

Buning uchun o‘smirlar bilan bir necha yondashuvlardan foydalanish lozim:

1. **Shaxsiy suhbatlar va treninglar**: O‘smirlarni psixologik yordam orqali o‘zlarini anglashga va axborot oqimlariga nisbatan tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish zarur. Bu o‘smirlarda «axborot filtri»ni shakllantirishga yordam beradi.
2. **O‘zini anglash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish**: O‘smirlarga o‘ziga ishonchni oshirish va ijtimoiy muhitda mustahkam pozitsiyani egallash uchun yordam berish zarur. Ular o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirgan holda, manipulyatsiya qilingan axborotlardan saqlanishlari osonlashadi.
3. **Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish**: O‘smirlarni axborotlarni tahlil qilish va baholashga o‘rgatish, ular uchun salbiy axborotlarni farqlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘smirlarning axborotga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi va ularni manipulyatsiyadan himoya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘smir yoshidagi shaxslarning axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlash, ularning psixik himoya mexanizmlarini rivojlantirish va mustahkamlash orqali amalga oshirilishi kerak. Bu faqat psixologik yordam ko‘rsatish bilan cheklanmaydi, balki pedagogik va ijtimoiy yondashuvni ham talab qiladi. O‘smirlarning psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ongli qaror qabul qilishga yo‘naltirish orqali ularning axborot xavfsizligini ta’minlash mumkin. Bu o‘z navbatida, o‘smirlarning ruhiy

immunitetini oshirishga, salbiy axborotlar va manipulyativ kontentdan himoya qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Фрейд А. *Механизмы психологической защиты*. – Москва: Прогресс, 2000.
2. Мустафаева Ш.Ф. *Психологик ҳимоя механизмлари ва уларнинг ривожланишдаги аҳамияти*. – Тошкент: Фан, 2017.
3. Панкра́тов В.Н. *Психология информационной безопасности*. – Санкт-Петербург: Речь, 2015.
4. Кулатова С.Ю. *Вояга етмаганларда ахборот-психологик хавфсизлигини таъминлашнинг шахс хусусиятлари*. – Тошкент: 2021.
5. Хайдаров К.А. *Ўсмирларда хулқ-атвор муаммолари ва уларни бартараф этиш психологияси*. – Тошкент: 2019.

BO‘LAJAK PSIXOLOGLARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA RIVOJLANGANLIK DARAJASINI ANIQLASH

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti
Murodullayeva Malika Hakimjon qizi
NamDU psixologiya yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasbiy identifikatsiya tushunchasining mohiyati, bo‘lajak psixologlarda kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishi, uning komponentlari, kasbiy identifikatsiyani diagnostika qilish metodlari tavsifi, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili, xulosa va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy identifikatsiya, psixologik omillar, ijtimoiy omillar, pedagogik omillar, shaxsiy tajriba, kasbiy tayyorgarlik, shaxsiy omillar, psixologik salomatlik.*

Аннотация: *В данной статье представлена сущность понятия профессиональной идентификации, развитие профессиональной идентификации у будущих психологов, ее компоненты, описание методов диагностики профессиональной идентификации, анализ результатов проведенного исследования, выводы и рекомендации.*

Ключевые слова: *профессиональная идентификация, психологические факторы, социальные факторы, педагогические факторы, личный опыт, профессиональная подготовка, личностные факторы, психологическое здоровье.*

Annotation: *This article presents the essence of the concept of professional identification, the development of professional identification in future psychologists, its components, a description of methods for diagnosing professional identification, an analysis of the results of the conducted research, conclusions and recommendations.*

Keywords*: professional identification, psychological factors, social factors, pedagogical factors, personal experience, professional training, personal factors, psychological health.*

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yoshlarning psixologik holatini yaxshilash, ularni kasbiy identifikatsiya qilishda psixologlarning roli va yoshlar uchun ilmiy-izlanish imkoniyatlari yaratish borasida o‘zining fikrlarini bildirib o‘tib:”Yoshlarimizni psixologiya va boshqa ilmiy sohalarda keng qamrovli ta’lim olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish, ularning kasbiy yo‘nalishini shakllantirish va psixologik salomatlikni ta’minlash orqali ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta’minlaymiz” – deb munosabat bildirganlar.

Kasbiy identifikatsiya-bu shaxsning o‘zini muayyan kasb vakili sifatida anglab olishi, kasbga daxldorlik hissini shakllantira olish jarayonidir. Ushbu jarayon

shaxsning kasbiy o‘zligini asosini tashkil etadi va uning kasbiy yo‘nalishini belgilovchi psixologik omillardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha ilk bor Erik Erikson tomonidan shaxsiy identifikatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ilgari surilgan bo‘lib, ayniqsa o‘smirlik va yoshlik davrida kasb tanlash orqali shaxsiy o‘zlik shakllanishining muhim bosqichi sifatida baholangan. Erikson ta’kidlaganidek, kasbiy identifikatsiya shaxsiy identifikatsiyaning ajralmas qismi bo‘lib, insonning o‘zini ijtimoiy rolini belgilashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Keyinchalik bu jarayonnni yanada aniqlashtirib, kasbiy identifikatsiyaning rivojlanish holatini to‘rt bosqichga ajratgan:

1.Qabul qilingan identifikatsiya;

2.Moratoriy;

3.Aniqlik yo‘qligi;

4.Qidiruv holati. [4]

Qabul qilingan identifikatsiya-bunda shaxs o‘z kasbini mustaqil tanlamaydi, balki atrof-muhit ta’sirida masalan ota-onasi aytganligi uchun shu kasbni tanlaydilar. Marcia ta’kidlashicha bu holatda shaxs kasbiy tanlovda ichki izlanish va shubhalar o‘tkazmaydi, balkim ota-ona qarorini qabul qiladilar. Buning asosiy xususiyatlaridan biri mustaqil izlanish kam, ko‘pincha an’anaviy, oila qadriyatlariga mos keladigan kasbni tanlaydilar. Masalan; Men shifokor bo‘laman, chunki oilamizda hamma shifokor.

Moratoriy-bunda shaxs hali kasbiy identifikatsiyasini tanlamagan izlanish va tajriba orttirish jarayonida faol izlanish va shaxsiy tajribalar orqali o‘z kasbini topish jarayoni hisoblanadi lekin aniq qaror qabul qilinmagan bo‘ladi. Buning asosiy hususiyatlari; faol qidiruv, tajriba va sinovlar, qarorsizlik, noaniqlik, ba’zan esa stress va shubha hissi bilan kechadi. Masalan; *qaysi kasbni tanlashni bilmayapman, lekin turli yo‘nalishlarni o‘rganyapman.*

Aniqlik yo‘qligi-shaxsda na kasbiy qiziqish, na tanlovga bo‘lgan ehtiyoji mavjud. U kasbiy qarorlar haqida o‘ylamaydi yoki loqaydlik ko‘rsatadi.

Identifikatsiya tarqoq holatida shaxsda maqsad va hayot yo‘nalishi yo‘q,kasbiy o‘zlik rivojlanmagan yoki shakllanmagan. Asosiy xususiyati kasbiy kelajakka nisbatan befarqlik, o‘zini kasb bilan bog‘lashga ehtiyoj sezmaydi va o‘z hayot yo‘lini rejalashtirishda passivlik holatlarini kuzatishimiz mumkin.

Qidiruv holati va kasbiy identifikatsiyaga erishish-bunda shaxs kasbiy imkoniyatlarni o‘rgangan, tahlil qilgan va o‘z ichki qadriyatlariga mos kasbni ongli ravishda tanlagan. Identifikatsiyaga erishgan shaxs mustaqil qidiruv va tajribalardan so‘ng o‘z kasbini ongli ravishda tanlaydi va o‘zini ushbu rolda tasdiqlaydi. Asosiy xususiyatlari: kasb tanlashdagi mustaqil va ongli tanlov, barqaror kasbiy qaror, kasbiy va shaxsiy o‘zlik uyg‘unligi. Masalan; Men o‘qituvchi bo‘lishga qaror qildim, chunki bolalar bilan ishlash menga ma’naviy qoniqish beradi shu kasbga judayam qiziqaman.

Kasbiy identifikatsiya psixologik va ijtimoiy jarayonlar orqali odamning o‘zini kasbga oid roli va pozitsiyasiga moslashtirishni anglatadi. Kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishi, o‘zining kasbiy faoliyatiga bo‘lgan munosabatini,

kasbiy qadriyatlarini, maqsadlarini va intilishlarini shakllantirishga olib keladi. Kasbiy identifikatsiyani tashhis qilishda bir necha metodlardan foydalaniladi.[1]

Psixometrik testlar orqali kasbiy identifikatsiya darajasi va kasbiy yo‘nalishlar aniqlanadi. Testlar individualning o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatini va bu munosabatning rivojlanish jarayonini o‘rganishga yordam beradi. Kasbiy identifikatsiya jarayonining asosiy qirralarini aniqlash uchun intervyu usuli qo‘llaniladi. Bu usul individualning o‘z kasbiga nisbatan his-tuyg‘ularini va his-tuyg‘ularni qanday ifodalashini o‘rganishga imkon beradi. Kuzatish va faoliyat tahlili yordamida individning o‘z kasbiy vazifalariga qanday yondashayotganini, qanday hissiyotlar va qarorlar qabul qilayotganini kuzatish orqali kasbiy identifikatsiyaning rivojlanish darajasi o‘rganiladi.

Proyektiv metodlar kasbiy identifikatsiya darajasini aniqlash uchun individualning kasbiy roli haqidagi tasavvurlarini va motivatsiyalarini o‘rganishga imkon beradi. Kasbiy identifikatsiyani tashhis qilish usullari nafaqat talabaning kasbiy tayyorligi va o‘zini kasbda tutishiga oid ma’lumot beradi, balki uning psixologik tayyorligi, o‘z-o‘zini kasbiy rolga joylashtirish darajasini ham aniqlash imkonini yaratadi. Bu esa psixologik ta’limda shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, kasbiy yo‘nalishga aniqlik kiritish va mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

A.Azbelning “Kasbiy identifikatsiya maqomini o‘rganish metodikasi” va L.Ya. Shneyderning “Kasbiy identifikatsiyani o‘rganish metodikasi” asosida izoh beriladi. Har ikki metodika bu borada chuqur, psixologik tahlil va baholash imkoniyatini beradi.[2] A.Azbel tomonidan ishlab chiqilgan metodika kasbiy identifikatsiyaning tuzilmasi va shakllanish darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u 4 ta asosiy tarkibiy qismga tayanadi:

1. Kasbiy bilim va malaka darajasi;
2. Kasbga ijtimoiy-psixologik moslashuv;
3. Kasbiy faoliyatga bo‘lgan hissiy-emotsional munosabat;
4. Kasbiy o‘zlik (professional "Men"-konsepsiyasi);

Metodika respondentga o‘zini kasbiy faoliyatda qanday ko‘rayotgani, kasbiy rolga nisbatan tayyorlik darajasi, kasbga sadoqat darajasi, shaxsiy va ijtimoiy moslashuv holatlarini aniqlash imkonini beradi. Test natijalariga ko‘ra ishtirokchilar kasbiy identifikatsiya maqomiga ko‘ra yuqori darajadagi identifikatsiya, qoniqarli daraja, past daraja, noaniq yoki identifikatsiya inqirozi holatlari toifalarga ajratiladi.

Bu metodika bo‘lajak psixologlarda o‘z kasbiy o‘rnini anglash, unga bo‘lgan shaxsiy munosabat va tayyorlik holatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

L.Ya.Shneyder tomonidan ishlab chiqilgan metodika shaxsning kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsion, affektiv va ijtimoiy jihatdan bog‘lanish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu metodika quyidagi yo‘nalishlarda ishlaydi:

-Kasbiy rolga nisbatan hissiy munosabat

-Kasbiy qadriyatlar va motivatsiya

-O‘zini kasbda tutish, kasbga oid faoliyatni tanlashga nisbatan ongli yondashuv.

Metodikada respondentga beriladigan maxsus test savollari orqali ularning quyidagi holatlari aniqlanadi:
-O‘zini kasbda tutish darajasi
-Kasbni ongli tanlaganlik yoki tasodifiylik holati
-O‘zini ushbu kasbda tasavvur qila olish (kasbiy “Men” obrazining shakllanganlik darajasi.[3]

Shneyder metodikasi ayniqsa kasbiy yo‘nalish bo‘yicha qaror qabul qilishda ikkilanish, motivatsion muammolar va psixologik tayyorgarlik yetishmovchiligini aniqlashda dolzarbdir. Tadqiqot obyekti sifatida Namangan davlat universiteti Psixologiya ta’lim yo‘nalishining 1 bosqich talabalaridan 29 nafar hamda 3-bosqich talabalaridan 29 nafar ishtirokchilar tanlab olindi.

Tajriba ishining birinchi qismida ishimizda A.A.Azbelning “Kasbiy identifikatsiya maqomini o‘rganish” metodikasi o‘tkazildi. Sinaluvchilarga metodikaning savolnomasi va javoblar varag‘i tavsiya etildi. Metodka yo‘riqnomasiga ko‘ra talabalar ularga tavsiya etilgan 20 ta savolning mumkin bo‘lgan 4 ta a, b, s, d javoblar variantidan o‘zining nuqtai nazariga eng ko‘p mos keladiganini tanlashi kerak bo‘ladi. Imkon qadar sinaluvchilardan “yaxshi” yoki “yomon” javoblar yo‘qligini e’tiborga olgan holda rostgo‘y bo‘lishlari so‘raldi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari metodikada mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan maxsus kalit yordamida qayta ishlandi va kurslar kesimida quyidagi jadvallarda aks ettirildi.

1 kurs talabalarining A.A.Azbelning “Kasbiy identiklik maqomini o‘rganish” metodikasi bo‘yicha natijalari

№	Kasbiy identifikatsiya maqomi	Ifodalanganlik darajasi				
		Ifodalanmagan	O‘rtadan past	O‘rta	O‘rtadan yuqori	Yaqqol ifodalangan
1	Noaniq	79,3	17,2	3,4	0	0
2	Majburiy	79,3	20,6	0	0	0
3	Moratoriy (ikkilangan)	6,8	44,8	34,4	13,7	0
4	SHakllangan	55,1	3,4	20,6	6,8	0

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra 1 kurs talabalarining 79,3 % da kasbiy identifikatsiyaning noaniq maqomi hali to‘liq ifodalanmagan bo‘lsa, 17,2% da o‘rtachadan past va 3,4 %da o‘rtacha ekanligi aniqlandi. Majburiy identifikatsiya maqomi bo‘yicha esa 79,4% talabalarda ifodalanmagan, 20,6% talabalarda o‘rtachadan past ko‘rsatkich aniqlandi. Moratoriy maqomi bo‘yicha 6,8% talabalarda ifodalanmagan, 44,8 %da o‘rtachadan past, 34,4 %da o‘rtacha va13,7% da o‘rtadan yuqori ekanligi ma’lm bo‘ldi. Mazkur ko‘rsatkich 1-kurs talabalarida ushbu kasbni tanlaganidan ikkilanish ustunligidan dalolat beradi. Shakllangan identifikatsiya maqomi bo‘yicha natijalar tahliliga ko‘ra 55,1 % talabalarda ifodalanmagn, 3,4 %da o‘rtachadan past, 20,6 %da o‘rtacha va 6,8%da o‘rtachadan yuqori ekanligi aniqlandi. O‘zini psixolog sifatida kasbiy identifikatsiyalashning o‘rtadan yuqori va yaqqol ifodalangan yuqori darajasi aniqlanmadi. Bu

ko‘rsatkichlar 1- kurs talabalarida kasbiy identifikatsiya yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

3 kurs talabalarining A.A.Azbelning “Kasbiy identiklik maqomini o‘rganish” metodikasi bo‘yicha natijalari

№	Kasbiy identifikatsiya maqomi	Ifodalanganlik darajasi				
		Ifodalanmagan	O‘rtadan past	O‘rta	O‘rtadan yuqori	Yaqqol ifodalangan
1	Noaniq	44,8	41,3	13,7	0	0
2	Majburiy	58,6	27,5	13,7	0	0
3	Moratoriy (ikkilangan)	13,7	41,3	41,3	3,4	0
4	SHakllangan	6,8	20,6	48,2	6,8	17,2

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra 3- kurs talabalarining 44,8 % da kasbiy identifikatsiyaning noaniq maqomi hali to‘liq ifodalanmagan bo‘lsa, 41,3% da o‘rtachadan past va 13,4 %da o‘rtacha ekanligi aniqlandi. Majburiy identifikatsiya maqomi bo‘yicha esa 58,6% talabalarda ifodalanmagan, 27,5% talabalarda o‘rtachadan past va 13,7 % ko‘rsatkich aniqlandi. Moratoriy maqomi bo‘yicha 13,7 talabalarda ifodalanmagan, 41,3 %da o‘rtachadan past, 41,3 %da o‘rtacha va 3,4% da o‘rtadan yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Mazkur ko‘rsatkich 3-kurs talabalarining ayrimlarida ushbu kasbni tanlaganidan ikkilanish ustunligidan dalolat beradi. Shakllangan identifikatsiya maqomi bo‘yicha natijalar tahliliga ko‘ra 6,8 % talabalarda ifodalanmagan, 20,4 %da o‘rtachadan past, 48,2 %da o‘rtacha va 6,8%da o‘rtachadan yuqori, 17,2% yaqqol ifodalanganligi aniqlandi. O‘zini psixolog sifatida kasbiy identifikatsiyalashning o‘rtadan yuqori va yaqqol ifodalangan yuqori darajasi boshqalarinikiga nisbatan pastroq darajada ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar 3- kurs talabalarida kasbiy identifikatsiya rivojlanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi.

Kasbiy amaliyot va stajirovkalar — talabalarning real psixologik muhitda ishlashi ularning kasbiy identifikatsiyasini kuchaytiradi. Kasbiy loyihalarda ishtirok etish — ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy-psixologik va konsalting loyihalarda faol ishtirok etish orqali talabalar o‘z kasbiy imkoniyatlarini anglaydilar. Kasbiy identifikatsiya faqat individual emas, balki ijtimoiy jarayon hamdir. Shaxs o‘zini ma’lum bir kasbiy hamjamiyatning bir qismi sifatida qabul qiladi. Bo‘lajak psixologlarda kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish ko‘p bosqichli, tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Shaxsiy va kasbiy refleksiya, amaliy ko‘nikmalar, mentorlik va superviziya, kasbiy motivatsiya, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish va amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirgan holda olib borilgan ta’limiy jarayon — samarali natijalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Курбанова З.Б. Касбий аутоидентификация шаклланишининг босқичлари "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020 175-179б

2.Шнейдер Л.Б.. Профессиональная идентичность: Структура, генезис и условия становления. — 2001.

3.Эриксон, Э. Идентичность: юность и кризис / Э. Эриксон. - М., Флинта, 2006. - 342 с.

4. Ғозиев Э.Мамедов К. Касб психологияси Т.2005
5. Nishanova Z. et al. Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya //T-2013. – 2011

TALABA QIZLARDA OILAVIY HAYOTGA NISBATAN PSIXOLOGIK QO‘RQUVNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna
Namangan davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi,
Jo'raboyeva Mavluda Abdurahim qizi
NamDU,Pedagogika- Psixologiya yo’nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya:*Mazkur maqolada talaba qizlarda oilaviy hayotga nisbatan psixologik qo‘rquvning sabablari, namoyon bo‘lish shakllari va uni bartaraf etishning samarali psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Oila instituti, shaxslararo munosabatlar, gender rollari va yoshlar ongidagi stereotiplarga asoslangan holda qo‘rquv holatlari aniqlanadi va psixoprofilaktika hamda psixokorreksiya yondashuvlari taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: psixologik qo‘rquv, talaba qizlar, oilaviy hayot, psixoprofilaktika, psixokorreksiya, psixologik moslashuv.

Аннотация: *В данной статье анализируются причины психологического страха у студенток по отношению к семейной жизни, формы его проявления и эффективные психологические механизмы его преодоления. Исследуются состояния страха, основанные на институте семьи, межличностных отношениях, гендерных ролях и стереотипах в сознании молодежи. Предлагаются подходы психопрофилактики и психокоррекции.*

Ключевые слова: *психологический страх, студентки, семейная жизнь, психопрофилактика, психокоррекция, психологическая адаптация.*

Annotation**:** *This article analyzes the causes of psychological fear of family life among female students, its manifestations, and effective psychological mechanisms for overcoming it. Fear-related conditions are identified based on the institution of the family, interpersonal relationships, gender roles, and stereotypes in the consciousness of youth. Psychoprophylactic and psychocorrectional approaches are proposed.*

Keywords: *psychological fear, female students, family life, psychoprophylaxis, psychocorrection, psychological adaptation.*

Oila – jamiyatning tayanch bo‘g‘ini bo‘lib, shaxsning har tomonlama shakllanishi va ijtimoiy hayotga moslashuvida muhim rol o‘ynaydi.Oila bu saodat maskani, oilada har bir shaxsning o’z o’rni huquqi va majburiyatlari bor. Oilada farzandning ma’naviy va jismoniy, ruhiy tomondan sog’lom tarbiyalanishi yurtimiz, jamiyatimiz, xalqimiz uchun yana yetuk barkamol insonlarning safi kengayganidan dalolat. Oila har bir shaxsda bolaligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu istaklar, qadryatlar kamol topadigan, ming yillar davomida shakllanadigan o’zbek xalqining qadryatlari va ma’naviy merosi ravnaqini ta’minlovchi tarbiya maskani ekanligi barchaga birdek ayon. Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining poydevoridir. Oila jamiyatining asosiy instituti hisoblanishi uning tarbiya o’chog’i sifatida shaxsning shakllanishida mutassil ishtirok etadi. Bizning bu yorug’ dunyoda yashashimizning tub ma’nosi ham oila qurish asnosida baxtli hayot kechirmoq, nasl qoldirmoq, jamiyatimiz uchun fidoyi, uning ravnaqi

yo’lida xizmat qiladigan farzandlar yetkazib bermoqlik emasmi aslida. Biroq, o’z faoliyatim davomida shu narsaga amin bo’ldimki, bugungi tobora rivojlanib borayotgan, o’z oldiga pirovard maqsadlar qo’ygan O’zbekistonimiz oliygohlarida tahsil olayotgan talaba qizlar orasida kam bo’lsada uchrab turguvchi “Oila qurishdan psixologik qo’rqish” oqibatida “toq” o’tishni qasd qilgan yoshlarimizning borligi achinarli deb o’ylayman. Xo’sh bunday qarashlarni paydo bo’lishiga nimalar sabab bo’lmoqda?

Hozirgi kunda Ayrim talaba qizlarda turmush qurish, oilaviy hayot boshlashga nisbatan xavotir, ishonchsizlik va qo‘rquv holatlari kuzatilmoqda. Bu holat nafaqat ularning psixologik barqarorligiga, balki kelajakdagi ijtimoiy rolni bajarishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Psixologik qo‘rquv – bu noma’lumlik, noto‘g‘ri qaror qilish, javobgarlik yoki ijtimoiy bosim sababli yuzaga keladigan ruhiy holatdir. Talaba qizlar orasida bu holat quyidagicha ifodalanadi:

Turmushdagi majburiyatlardan qo‘rqish

Er-xotin munosabatlarini noto‘g‘ri tasavvur qilish

O‘zini “yetarli emas” deb his qilish

Oilaviy zo‘ravonlik haqida eshitilgan voqealarning ta’siri

Ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy stereotiplarning shakllanishi

Mulohaza qiladigan bo’lsak, qo‘rquvning kelib chiqishiga bir qator omillar sabab bo‘lishi muqarrar, ular quyidagilardan iborat:

Psixologik omillar: o‘ziga past baho, bolalikdagi oilaviy muammolar

Ijtimoiy omillar: atrof-muhit, do‘stlar, jamoatchilik fikri

Madaniy omillar: ayollarning jamiyatdagi roli haqidagi stereotiplar

Informatsion omillar: ommaviy axborot vositalaridagi noxolis tasvirlar

Oilaning ijtimoiy ahamiyatga molik funksiyasini ta'minlanishida undagi

ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, subyektlarning kamolot darajasi belgilanadi. Agar rollar, status va o’zaro hamjihatlik inqirozga yuz tutsa, oiladagi psixologik muhitni tasavvur qilishni o’zi murakkabdir. Oilada shaxslararo munosabatni tasavvur qilishni o’zi juda qiyin. Oila shaxslararo munosabatlarning o’ziga xos tomonlari uning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Albatta, bu holatni asoslovchi omillarni tadqiq qilishda quyidagicha yo’l tutishni lozim

topdik: Qizlarni va umuman farzandlarni o’ziga ishonch ruhida tarbiyalashda avvalom bor oilada ota-ona nimalarga e’tibor berishi kerak?

O’ziga bo’lgan ishonch- bu bolalikdan shakllanadi, Erik Berinning fikricha, har bir bola tug’ilganda shag’zoda va malika bo’lib tug’iladi. Ularni qurbaqaga ota- ona aylantiradi,-Nima uchun, ota- ona o’z farzandiga hech qachon yomonlikni ravo ko‘rmaydiku, degan savol tug‘iladi. To‘g‘ri, lekin ota- ona farzandiga qanday munosobatda bo’lsa, bola men shundayman deb o’ylaydi,- Masalan, “Eshshak”, “hayvon”, desa, demak men shunday ekanman, meni nima desa ham bo’laverar ekan, degan xulosaga keladi va tashqaridagilar ham unga past nazar bilan qarasa, uni haqorat qilsa, unga e’tibor ham bermaydi, o’sha munosobatni osongina qabul qilaveradi, agar ota ona, o’z qizlarini meni malikamsan, qo’zalimsan, hali sen shunday olima, fozila bo’lasanki, menga dunyolarni olib berasan, sen juda-juda baxtli bo’lasan”,-desa, demak men zo’r ekanman, men yutuqlarga erishaman, meni

hamma yaxshi ko’radi, deb o’ylaydida, o’zini erkin, hotirjam his qiladi, his qiladi, hayotni sevib yashay boshlaydi. Shuning uchun ham shuni hech qachon esdan chiqarmaslik joizki:Farzandingizga berilgan so’zlar uning kelajagi uchun poydevor! Shu bois, o’zimiz va farzandlarimizdan ijobiy so’zlarni ayamaylik! Bu borada ota onalarga tavsiyalarimiz bor:

Har bir bolaga o’z ulg’ayish darajasiga qarab tushuntirilishi kerak bo’lgan haqiqatlar. Ota-onaning vazifasi farzandlari hech frustratsiya (yoqimsiz holat)larsiz ulg’ayishini ta’minlash emas, balki mana shunday holatlardan qanday chiqishni o’rgatishdir. Siz farzandingizni hamma yomonliklardan asray olmaysiz, ammo nohush holatlarda qanday qilib o’zini yo’qotib qo’ymasligi, qanday qilib bu holatdan kuch olishi va qalbidagi yorug’likni yo’qotmasligini o’rgata olasiz.

Qizingiz, va umuman farzandingiz 10 yoshga kirguncha kirguncha tushuntirishingiz kerak bo’lgan haqiqatlar

1. **Hamma ham seni yoqtirib qolmaydi:** Sen qanchalik mehribon, ochiqko’ngil yoki quvnoq bo’lsang ham hardoim sen bilan do’stlashishni xohlamaydigan kimdir topiladi. Bu normal holat va bunday holatlar sening qadringni belgilab bermaydi.

Bu fikrlar birovning fikriga qaram bo’lmasdan o’ziga tayanishni o’rgatadi.

2. **Hamma xatolardan ham qocha olmaysan:** xatolar o’rganishning bir qismidir.Sen xatolarga yo’l qo’yasan va normal holat. Bu senga o’sish varivojlanishing uchun imkoniyat, taslim bo’lish uchun sabab emas.

Bu fikrlar bolaga xato qilishdan qo’rqmaslikka yordam beradi

3. **Harakatlar har doim ham yaxshi natijaga kafolat bermaydi:** Ba’zida sen biron ishnikuchli ishtiyoq bilan bajarishing, ammo oxiriga kelganda o’zing kutgan natijaga erishmasliging mumkin. Shuning uchunham doim jarayondan zavqlanishga harakat qil. Natija eng muhim omil emas, har bir ishning bir hikmati bor, deb qabul qil. Bu fikr bolaga mag’lubiyat bilan kelishishga va kelajakda “majburiy g’oliblik” kasaliga duchor bo’lmaslikka yordam beradi.

4. Hayot go’zal va qiziqarli, ammo u har doim ham oson emas: Hayotin davomida qiyin hodisalarga ham uchrashing mumkin va bu normal holat. Bu hayotning bir qismidir.Har qanday holatda ham sen bizga suyanishing mumkin.

Bu gaplar bolada ichki kuch va qat’iyatlilikni rivojlantiradi.

5.O’z hayoting va harakatlaringga o’zing javobgarsan: O’z hayotingni xuddi kema kapitani kabi o’zing boshqarasan.Har bir qaroring- bu o’zing tanlaydigan yangi burilishdir. Hech kim sen uchun qaror berishi yoki javob berishi kerak emas. O’z qilmishlaringga ham o’zing javob berishing kerak. Bu fikrlar bolaga javobgarlik hissini singdiradi. Agarda biz ana shu narsalarni farzandlarimiz mafkurasiga yoshligida singdira olsak, ular oliygoh partasida o’tirganda o‘ziga past baho berish, oilaviy muammolardan qo’rqish kabi **Psixologik omillar bartaraf eta oladi**

Ijtimoiy omillar: atrof-muhit, do‘stlar, jamoatchilik fikriga talaba qizlarni e’tibor berishi, oliygohni barcha yo’nalishlariga oila psixologiyasi, nikoh oldi omillari, nikoh oldi motivlari haqida yetarli bilimni berilmaganligidir. Oilaning ijtimoiy ahamiyatga molik funksiyasini ta'minlanishida undagi ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, subyektlarning kamolot darajasi belgilanadi. Agar

rollar, status va o’zaro hamjihatlik inqirozga yuz tutsa, oiladagi psixologik muhitni tasavvur qilishni, Oilada shaxslararo munosabatni tasavvur qilishni o’zi murakkabdir. Oila shaxslararo munosabatlarning o’ziga xos tomonlari uning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda oila muammosiga aloqador masala uning barqarorligini ta'minlash, undagi inqirozli holatlarni hal etish chora tadbirlarini ishlab chiqarishga davat etadi. Shu bilan birga oiladagi

muammolar hal qilish bilan bir qator oiladagi shaxslarni hayotini kelajakka umidini yaxshi yashashini va bir qancha shaxslarga oid muammolarni hal qilisha erishiladi. Har bir shaxs psixologiyasi oiladagi zo‘ravonlikka duchor bo‘lishimiz mumkin, xoh bola, xoh kattalar, xoh qariya, xoh ayol, xoh erkak. Er o‘z xotiniga va aksincha, ota-onalar bolalarga, bolalar esa ota onalarga, aka-uka va opa-singillarga nisbatan tajovuzkorlik ko‘rsatishi mumkin. Bolalar akalari yoki opa-singillariga nisbatan zo‘ravonlik shaklida tajovuzkorlik ko‘rsatishi mumkin. Aksariyat ekspertlar oiladagi zo‘ravonlikning asosiy turlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatishadi: jismoniy, psixologik, jinsiy va iqtisodiy zo‘ravonlik. Jismoniy zo‘ravonlik – jabrlanuvchini qasddan kaltaklash, tan jarohati yetkazish yoki zarar yetkazish, buning natijasida uning jismoniy va ruhiy salomatligiga putur yetkazishdir. Jismoniy zo‘ravonlikning spektri juda keng: kichik kaltaklashdan tortib ekstremal shaklgacha - qotillik. Jismoniy zo‘ravonlikni tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tanib olish nisbatan oson. Jismoniy zo‘ravonlikning o‘ziga xos xususiyatlari: oiladagi jismoniy zo‘ravonlik ko‘pincha genderga qaratilgan. Zo‘ravonlik erkaklar hukmronligi va tajovuzkorligining ifodasi sifatida ko‘riladi, bu madaniy jihatdan mamnuniyat bilan qabul qilinadi. Patriarxal gender munosabatlari zo‘ravonlik holati to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvurga olib keladi va, xususan, sodir bo‘lgan voqea uchun ayolning "o‘zi aybdor" degan qurbonlik haqidagi g‘oyalarni shakllantiradi. Ko‘pgina erkaklar va ayollar jismoniy zo‘ravonlikni "oddiy" hayotning atributi deb bilishadi. Ayollarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik farzandli barqaror turmush qurgan juftliklarda sodir bo‘ladi, ya'ni. farovon va normal hisoblangan oilalar turida. Oilaviy jismoniy zo‘ravonlikka uchragan ayollar haddan tashqari sabr-toqatga ega va o‘z zo‘ravonini bir necha bor kechirishga tayyor. Bu sabr-toqat iqtisodiy asoratlardan qo‘rqish hissi, bolalarni otasiz qoldirishni istamaslik, eriga achinish va jamiyatning hurmatini yo‘qotish qo‘rquvi bilan bog‘liq. Oiladagi jismoniy zo‘ravonlik bir necha avlodga o‘tishi mumkin. Shafqatsiz munosabatga uchragan bolada zo‘ravonlik psixologiyasi o‘zining bir qismiga aylanadi.

Psixologik zo‘ravonlikog‘zaki zo‘ravonlikni o‘z ichiga oladi; shantaj; sherik ustidan nazorat o‘rnatish uchun bolalarga yoki boshqa shaxslarga nisbatan zo‘ravonlik harakatlari; o‘ziga, jabrlanuvchiga yoki boshqalarga nisbatan zo‘ravonlik bilan tahdid qilish; uy hayvonlariga nisbatan zo‘ravonlik yoki mulkni yo‘q qilish orqali qo‘rqitish; ta’qib qilish; jabrlanuvchining faoliyatini nazorat qilish; jabrlanuvchining ijtimoiy doirasini nazorat qilish; jabrlanuvchining turli

manbalardan foydalanishini nazorat qilish (ijtimoiy va tibbiy yordam olish, do‘stlar bilan muloqot qilish, ta’lim olish, ishlash va hk); jabrlanuvchini kamsituvchi harakatlar qilishga majburlash; jabrlanuvchining kun tartibini nazorat qilish. Ushbu

turdagi zo‘ravonlik eng keng tarqalgan va deyarli barcha oiladagi zo‘ravonlik holatlarida mavjud. Bunday zo’ravonliklarni ommaviy axborot vositalari ko’rgan ayrim talaba yoshlarda ham oila qurishga bo’lgan hissini susaytirib yubormoqda

Qo‘rquvni bartaraf etishning psixologik mexanizmlari

3.1. Psixoprofilaktika. Aqliy-g‘oyaviy tayyorgarlik olib borish, oila va nikoh masalalariga bag‘ishlangan treninglar, pozitiv tajribalarga ega bo‘lgan ayollar bilan uchrashuvlar

3.2. Psixokorreksiya. Shaxsiy rivojlanish mashg‘ulotlari, o‘z-o‘zini qadrlashni oshirish usullari (afirmatsiyalar, rol o‘yinlari), guruhli psixoterapiya yoki maslahatlashuvlar

3.3. Pedagogik va ijtimoiy yondashuvlar. OTMlarda psixologik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish, Barcha yo’nalishlarda Ta’lim dasturlariga “Oila psixologiyasi” fanini kiritish, Ota-onalar va talabalar bilan hamkorlikdagi ma’rifiy tadbirlar

Xulosa qilib shuni aytish joizki, talaba qizlarning oilaviy hayotga bo‘lgan psixologik qo‘rquvini bartaraf etish ijtimoiy-psixologik muammo sifatida kompleks yondashuvni talab etadi. Bu yo‘nalishda ta’lim muassasalari, psixologlar, ota-onalar va jamiyat birgalikda harakat qilsa, talaba qizlar o‘z salohiyatlarini to‘liq namoyon eta oladigan sog‘lom oilalarni barpo etishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G‘oziyev. Umumiy psixologiya.T. 2010.
2. Abdullayeva D., Yarqulov R., Atabayeva N.
Oila psixologiyasi.T.:”Tafakkur Bo’stoni”. 2015.
3. Davletshin M.G. Oiladagi nizolar psixologiyasi va uning bartaraf etish
yo`llari. o`zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Resp.ilm. amal.
anj. ma'ruza. qisqacha bayoni. -T., 1993.-33-34 b.
4. Z. Qodirova,N. Vaxabova,D RaximovaOila pedagogikasi.O’quv qo’llanma. № 232-682. 288b.t Namangan – 2023

TIBBIYOT MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MASALALARI

Toshpo‘latova Durdona
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
pediatriya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish va rivojlantirishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Psixologik xizmatning bemorlarning umumiy salomatligini tiklashdagi o‘rni, mavjud tizimdagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari keng yoritilgan. Maqolada malakali psixolog kadrlar tayyorlash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, tibbiy xodimlar orasida psixologik madaniyatni oshirish zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, bemorlarning emotsional holatini qo‘llab-quvvatlash orqali davolash jarayonining samaradorligini oshirishga doir taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, psixologik xizmatni tibbiy amaliyotga kompleks tarzda integratsiyalash sog‘liqni saqlash tizimi sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qilishi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *Psixologik xizmat, tibbiy psixologiya, ruhiy salomatlik, bemor bilan muloqot, klinik psixolog, sog‘liqni saqlash, emotsional qo‘llab-quvvatlash, psixologik reabilitatsiya.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы актуальные вопросы организации и развития психологической службы в медицинских учреждениях. Широко освещается роль*

психологической службы в восстановлении общего состояния здоровья пациентов, основные проблемы существующей системы и пути их преодоления. В статье обоснована необходимость подготовки квалифицированных психологических кадров, укрепления материально-технической базы, повышения психологической культуры медицинского персонала. Также были выдвинуты предложения и рекомендации по повышению эффективности лечебного процесса за счет поддержки эмоционального состояния пациентов. По результатам исследования отмечается, что комплексная интеграция психологической службы в медицинскую практику послужит коренному улучшению качества системы здравоохранения.

Ключевые слова: *психологическая служба, медицинская психология, психическое здоровье, общение с пациентом, клинический психолог, здравоохранение, эмоциональная поддержка, психологическая реабилитация.*

Annotation.*This article analyzes the current issues of the organization and development of psychological services in medical institutions. The role of psychological services in restoring the general health of patients, the main problems of the existing system and ways to overcome them are widely highlighted. The article substantiates the need to train qualified psychological personnel, strengthen the material and technical base, and improve the psychological culture of medical personnel. Suggestions and recommendations were also made to improve the effectiveness of the treatment process by supporting the emotional state of patients. According to the results of the study, it is noted that the comprehensive integration of psychological services into medical practice will serve to radically improve the quality of the healthcare system.*

Keywords: *psychological service, medical psychology, mental health, communication with the patient, clinical psychologist, healthcare, emotional support, psychological rehabilitation*

Yangi O‘zbekiston sharoitida sog‘liqni saqlash tizimining isloh qilinishi psixologik xizmat ko‘rsatish sifatini ham tubdan yangilashni talab etmoqda. Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatni samarali tashkil etish nafaqat bemorlarning sog‘lig‘i, balki ularning ruhiy holati, kasallikni yengib o‘tish motivatsiyasi va umuman, sog‘ayish jarayonining tezlashuvida muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda psixologik yordamni tibbiy xizmatning ajralmas qismi sifatida ko‘rish tobora dolzarb bo‘lmoqda.

1. Psixologik xizmatning ahamiyati

Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatning ahamiyati juda keng qamrovli va ko‘p qirrali. Bemorlarning jismoniy sog‘lig‘i va ruhiy holati bir-biriga bevosita bog‘liq bo‘lib, psixologik yordam kasallikning rivojlanishi, uning kechishi va tiklanish jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, har qanday kasallik, ayniqsa surunkali va og‘ir kasalliklar (onkologik, yurak-qon tomir kasalliklari, endokrin kasalliklar va boshqalar) bemorda qo‘rquv, xavotir, tushkunlik, stress va hatto depressiya kabi ruhiy buzilishlarga olib keladi. Agar bu ruhiy holatni vaqtida aniqlab, unga zaruriy yordam ko‘rsatmasa, bemorning umumiy holati yanada og‘irlashadi, davolanishga bo‘lgan motivatsiya pasayadi va sog‘ayish jarayoni sekinlashadi. Kasallikni qabul qilish va unga moslashishda yordam berish: Kasallik haqida xabar olgan bemor o‘z hayotini yangidan baholaydi. Psixologik yordam unga yangi vaziyatga moslashish, umidsizlikka tushib qolmaslik va faol kurashish kayfiyatini shakllantirish imkonini beradi.

Emotsional va ruhiy barqarorlikni ta’minlash: Doimiy ruhiy siqilish, xavotir va stress immun tizimining zaiflashishiga, yallig‘lanish jarayonlarining

kuchayishiga olib keladi. Psixologik xizmat bemorning emotsional holatini muvozanatlash orqali uning fiziologik tiklanishiga ham yordam beradi.

Motivatsiyani oshirish: Kasallikni davolash ko‘pincha uzoq va murakkab jarayon. Bemorning o‘z sog‘lig‘ini tiklashdagi faol ishtiroki (dori-darmonlarni qabul qilish, rejimga rioya qilish, reabilitatsiya tadbirlarida qatnashish) ko‘p jihatdan uning psixologik holatiga bog‘liq. Motivatsiyalangan bemor davolanishni faolroq davom ettiradi.

Tibbiyot xodimlari uchun ruhiy qo‘llab-quvvatlash: Shifokorlar, hamshiralar va boshqa tibbiyot xodimlari ham kasbiy faoliyatida yuqori stress va ruhiy zo‘riqishga duch keladilar. Psixologik xizmat ularga professional charchoq (burn-out sindromi) va depressiya xavfini kamaytirishda yordam beradi.

Bemorlarning oilalari bilan ishlash: Kasallik nafaqat bemorning o‘ziga, balki uning oilasiga ham katta ruhiy yuk tushiradi. Oila a’zolarini ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, ularga kerakli maslahatlar berish bemorning parvarish va sog‘ayish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Reabilitatsiya va sog‘lom turmush tarziga qaytishni tezlashtirish: Jarrohlik amaliyotidan so‘ng, insultdan yoki infarktdan so‘ng bemorning nafaqat jismoniy, balki ruhiy reabilitatsiyasi ham juda muhimdir. Psixologik yondashuvlar orqali bemorning o‘ziga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi va u normal hayot tarziga tezroq qaytadi.

Tashkil etishdagi dolzarb muammolar. Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatni samarali tashkil etish jarayonida qator jiddiy muammolar mavjud bo‘lib, ular tizimli va chuqur yondashuvni talab etadi. Birinchi navbatda, malakali kadrlarning yetishmasligi sezilmoqda. Ko‘plab shifoxona va poliklinikalarda klinik psixologlar soni juda kam yoki umuman mavjud emas. Bu esa bemorlarga doimiy va sifatli psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Bundan tashqari, mavjud psixologlarning malakasi ham ko‘pincha zamonaviy tibbiy va klinik psixologiya talablariga to‘liq javob bermaydi. Aksariyat hollarda ular an’anaviy maslahat berish yoki motivatsion suhbatlar doirasida faoliyat yuritadi, ammo chuqur diagnostika, psixoterapevtik yondashuvlar va zamonaviy reabilitatsiya texnologiyalaridan yetarlicha foydalana olmaydi.

Muammolardan yana biri — psixologik xizmatning tibbiy tizimda to‘liq integratsiyalashmaganidir. Ko‘plab muassasalarda psixologik yordam shifokor tavsiyasi bilan emas, balki bemorning shaxsiy tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Bu holat, o‘z navbatida, psixologik yordam ko‘rsatishning tizimlilik va uzluksizligini buzadi. Vaholanki, har bir bemorning umumiy davolash rejasi ichida psixologik ko‘mak alohida bosqich sifatida belgilanishi lozim.

Tibbiyot xodimlarining psixologik madaniyati darajasi ham muhim omil sifatida ta’kidlanadi. Ba’zi hollarda shifokor va hamshiralar psixologik yordaming zarurligini kam baholaydilar yoki bemorning ruhiy holatiga nisbatan yetarli darajada e’tibor bermaydilar. Bu esa bemorning emotsional ehtiyojlarini inkor etish yoki e’tiborsiz qoldirishga olib keladi. Moddiy-texnik bazaning zaifligi ham psixologik xizmatni samarali tashkil etishga to‘sqinlik qilmoqda. Psixologlar uchun maxsus jihozlangan xonalar, diagnostik testlar, trening materiallari va zamonaviy terapiya

usullari yetishmaydi. Natijada, mavjud psixologik xizmatlar ko‘pincha formal xarakter kasb etadi va real ehtiyojlarga to‘liq javob bermaydi.

Yana bir muhim masala — bemorlar va ularning oila a’zolari bilan ishlash jarayonining murakkabligidir. Har bir bemorning ruhiy holati individual bo‘lib, uni standart yondashuvlar bilan qamrab olish mushkul. Bemorlarning kasallikka bo‘lgan ruhiy reaktsiyasi, davolanishga bo‘lgan motivatsiyasi va oilaviy muhitning qo‘llab-quvvatlash darajasi har xil bo‘lgani uchun psixologik yordamni ham o‘ta moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish zarur bo‘ladi.

Bularning barchasi tibbiy muassasalarda psixologik xizmatni tashkil etishda tizimli yondashuv, kadrlar salohiyatini oshirish, moddiy texnik bazani mustahkamlash va umumiy sog‘liqni saqlash siyosatida ruhiy salomatlikka alohida o‘rin ajratishni dolzarb vazifa sifatida ilgari suradi.

Taklif va tavsiyalar

Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatni rivojlantirish uchun birinchi navbatda, bu sohani sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas va majburiy qismi sifatida tan olish zarur. Har bir shifoxona, klinika va reabilitatsiya markazida klinik psixolog lavozimi joriy etilishi, ularning faoliyatini normativ-huquqiy asoslar bilan mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Psixologik xizmat faqat ixtiyoriy yoki ikkinchi darajali emas, balki har bir bemorga ko‘rsatiladigan kompleks tibbiy xizmatning ajralmas bosqichi sifatida qaralishi lozim. Shuningdek, psixolog kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini muntazam oshirib borish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Klinik psixologlar uchun maxsus magistratura dasturlari, amaliyot bazalari va kasbiy rivojlanish kurslarini tashkil etish, ularni zamonaviy psixodiagnostika, psixoterapiya va reabilitatsiya usullariga o‘rgatish lozim. Amaldagi psixologlar uchun esa, davriy sertifikatsiya va attestatsiya jarayonlarini kuchaytirish, ularning amaliy ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. Tibbiy xodimlar o‘rtasida psixologik madaniyatni oshirish ham dolzarb vazifalardan biridir. Shifokor va hamshiralar uchun psixologik yordamning ahamiyati va bemorlar bilan to‘g‘ri emotsional muloqot o‘rnatish ko‘nikmalariga bag‘ishlangan maxsus treninglar, seminarlar va ma’ruzalar tashkil etish lozim. Bunday dasturlar tibbiy xodimlarning bemorlarga nisbatan yanada insonparvar va emotsional ehtiyojlarga sezgir yondashuvini shakllantiradi. Moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo‘yicha ham aniq chora-tadbirlar ko‘rish talab etiladi. Psixologik xizmat ko‘rsatish uchun qulay va maxfiy sharoit yaratilgan maxsus xonalar ajratilishi, diagnostika va terapiya uchun zarur zamonaviy test materiallari, vizual vositalar, audio va video texnologiyalar bilan ta’minlanishi zarur. Shu bilan birga, psixologik yordam jarayonida foydalaniladigan ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmalarni amaliyotga joriy etish foydali bo‘ladi.

Psixologik xizmatni tashkil etishda bemorlarning oila a’zolarini ham faol jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasallik haqida to‘g‘ri ma’lumot berish, psixologik qo‘llab-quvvatlash usullari bilan ularni tanishtirish va oila muhitini bemorning sog‘ayishiga mos ravishda shakllantirish — psixologlarning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolishi kerak. Bundan tashqari, umumiy tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimida ruhiy salomatlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan alohida

dasturlar ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi zarur. Xususan, stressni boshqarish, emotsional barqarorlikni oshirish, depressiya va ruhiy zo‘riqishni erta aniqlash va profilaktika qilishga qaratilgan loyihalar tibbiyot muassasalarida keng qo‘llanilishi kerak. Bularning barchasi tibbiy amaliyotda ruhiy salomatlikni birlamchi e’tiborga olish, bemorlarning hayot sifati va davolanish samaradorligini oshirish, shuningdek, tibbiy xodimlarning kasbiy faoliyatini yanada sog‘lom va samarali tashkil etish imkonini beradi. Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish va rivojlantirish bugungi kunda zamon talabiga aylangan dolzarb vazifalardan biridir. Inson salomatligi faqat jismoniy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki ruhiy holat bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lgani bois, psixologik yordamni sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismi sifatida qarash zarurati ortib bormoqda. Kasallikni boshdan kechirayotgan har bir bemor nafaqat davo choralariga, balki samimiy qo‘llab-quvvatlash, tushunish va ruhiy tayanchga ehtiyoj sezadi. Psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun malakali kadrlarni tayyorlash, tibbiyot xodimlari orasida psixologik madaniyatni oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va xizmatni bemorlarning ehtiyojlariga mos ravishda integratsiyalash zarur. Shu bilan birga, psixologik yordamni faqat muammoga javob sifatida emas, balki kasalliklarning oldini olish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish vositasi sifatida ham ko‘rish lozim. Tibbiyot va psixologiya integratsiyasi natijasida bemorlarning ruhiy va jismoniy salomatligini birgalikda tiklash imkoniyati kengayadi, sog‘ayish jarayonlari tezlashadi va bemorlarning hayot sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Shuningdek, tibbiy xodimlarning professional stress va charchoqka qarshi kurashish qobiliyatini oshirish orqali, ularning xizmat sifatini ham yuqori darajaga ko‘tarish mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda, psixologik xizmatni mukammal yo‘lga qo‘yish — bu zamonaviy tibbiy amaliyotda sifatli, insonparvar va barqaror sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Oldimizda turgan vazifa esa — mavjud muammolarni to‘g‘ri aniqlab, tizimli yechimlar orqali psixologik yordamni chinakam hayotiy ehtiyojga va sifat ko‘rsatkichiga aylantirishdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova L.M. Klinik psixologiya asoslari. — Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.
2. Matyushkin A.M. Psixologik xizmat nazariyasi va amaliyoti. — Moskva: Pedagogika, 2019.
3. Rasulov B.K. Tibbiy psixologiya va psixoterapiya. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
4. World Health Organization (WHO). Mental Health Action Plan 2013–2020. — Geneva: WHO Press, 2013.
5. Баевский Р.М. Стресс, адаптация и психология здоровья. — Москва: Медицина, 2018.
6. Norqulov A., Yo‘ldoshev B. Tibbiyot psixologiyasi amaliyoti. — Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
7. American Psychological Association (APA). Clinical Practice Guidelines for the Treatment of Depression Across Three Age Cohorts. — Washington, DC, 2019.
8. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. Tibbiy psixologik xizmatni rivojlantirish konsepsiyasi. — Toshkent, 2021.

O‘SMIRLARDA SHAXSIY SALOHIYATNI ANGLASH VA UNI NAMOYON ETISHNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI.

G‘aniyeva Nargiza Odiljonovna

NamDU Psixologiya kafedrasi
3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada o‘smirlarda shaxsiy salohiyatni namoyon qilishning dolzarbligi, shaxs shakillanishiga ta’sir etuvchi omillar, shaxsiy salohiyat haqida tushuncha, L.S.Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bola o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi usullari, shaxsiy salohiyat shakillanishining ta’lim tizimi bilan chambarchas bog‘liqligi embirik isbotlanganligi bayon etilgan. Shu bilan birgalikda maktab psixologlari uchun o‘smir shaxsiy salohiyatni rivojlantirishga tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘smir, biologik rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, shaxsning o‘zini-o‘zi rivojlantirish, shaxsiy salohiyat, ichki resurs, investor, rigidlik, o‘zini anglash, o‘zini-o‘zi faollashtirish.*

Аннотация: *В статье рассматривается актуальность проявления личностного потенциала у подростков, факторы, влияющие на формирование личности, понятие личностного потенциала, пути наиболее полной реализации ребенком своего потенциала согласно теории «зоны ближайшего развития» Л.С. Выготского, а также приводятся эмпирические данные, свидетельствующие о тесной связи формирования личностного потенциала с системой образования. В то же время даются рекомендации школьным психологам по развитию личностного потенциала подростков.*

Ключевые слова: *Подростковый возраст, биологическое развитие, социальное развитие, саморазвитие личности, личностный потенциал, внутренние ресурсы, инвестор, ригидность, самосознание, самоактивация..*

Abstract: *The article describes the relevance of the manifestation of personal potential in adolescents, the factors influencing the formation of personality, the concept of personal potential, the ways in which a child can fully realize his potential according to L.S. Vygotsky's theory of the "zone of proximal development", and the empirical evidence that the formation of personal potential is closely related to the education system. At the same time, recommendations are made for school psychologists to develop adolescent personal potential.*

Keywords: *Adolescence, biological development, social development, self-development of the individual, personal potential, internal resources, investor, rigidity, self-awareness, self-activation.*

O‘smir yoshda shaxsiy salohiyatni aniqlash, rivojlantirish va uni namoyon eta olish nafaqat individual taraqqiyot, balki ijtimoiy resurslar samaradorligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida o‘quvchilarning o‘zini anglash, o‘zini faollashtirish, o‘ziga adekvat baho berish, ichki motivatsiya kabi ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Shu sababli, o‘smirlarning shaxsiy salohiyatini tizimli asosda tadqiq qilish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

O‘rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi Abu Nasr Farobiy bilimdon, ma’rifatli yetuk shaxs obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘–salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin». Bu fikrlardan Farobiyning ta’lim–tarbiyada yoshlarni salohiyatli qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada alohida e’tibor berganligi ko‘rinib turibdi, uning e’tiqodicha, bilim, ma’rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatilmog‘i lozim, aks holda kutilgan

maqsadga erishilmaydi, bola komillikka yetishmaydi[1]. Komillik esa aynan bolada o‘z shaxsiy salohiyatni anglash va namoyon etishdan boshlanadi. Shaxsni shakillanishiga ta’sir etuvchi omil, mexanizm va shaxs dinamik rivojlanishini hisobga olib, taraqqiyotning uchta turini ko‘rishimiz mumkin [2].

1. Biologik rivojlanish. Biologik dastur asosida har bir individ o‘zini-o‘zi faollashtirib, atrof – muhit bilan doimiy munosabat o‘rnata oladigan ya’ni moslashish qobiliyatiga egaligi.

2. Ijtimoiy rivojlanish. Ijtimoiy mavjudot sifatida butunlay mustaqillikka erisha olmaydigan, ijtimoiy guruhlar bilan uyg‘unlikka erisha oladigan individdir. Ijtimoiy rivojlanishning asosiy vazifasi shaxslararo munosabatlarga moslashishga imkon beradi.

3. Shaxsni o‘zini – o‘zi rivijlantirish omili. Bu har bir individga individual ta’sir qiladi. Ya’ni inson o‘z taqdirini o‘zi belgilovchi, o‘zini-o‘zi bosqichma – bosqich rivojlantirish qobiliyatiga ega avtonom subyekt hisoblanadi. Bu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi va asosiy maqsadi shaxsiy salohiyatni rivojlantirishdir.

1 – bosqich o‘smirlik davrigacha.

2 – bosqich o‘smirlik va undan keying davr.

Mana shu rivojlanishning uch turdagi o‘lchovi bir-birini to‘ldirish bilan bog‘liqdir[3]. Aynan mana shu jarayonlarda rivojlanishning psixologik qonuniyatlari qanday amalga oshirilishi shaxsiy salohiyat shakillanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu o‘rnda shaxsiy salohiyat tushunchasiga to‘xtalamiz. Shaxsiy salohiyat bilim, ko‘nikma, malaka yoki qobiliyatlar majmui sifatida tushunilmaydi, balki anashu o‘z imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Insondagi layoqat va qobiliyatlar butun hayoti davomida yashirinib yotishi ham mumkin. Shaxsiy salohiyat esa shu ichki resurslarni ochib berish, rivojlantirish, namoyon etish vazifasini bajaradi. Shaxsiy salohiyat intellektdan ko‘ra muvaffaqiyat olib keluvchi va uning barqarorligini ta’minlovchi mabadir[4]. Yani, shaxsiy salohiyat qobiliyatlarning to‘plami emas, balki o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlaridan foydalanish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Aynan shaxsiy salohiyat “investor” hisoblanadi. Bizda qancha ichki resurslarimiz borligi muhim emas, balki ularni o‘z vaqtida anglab, qanday foydalanishni bilishimiz muhim. Shaxsiy salohiyat bo‘lmasa, ichki resurslari behuda ketadi yoki boshqalar tomonidan ishlatiladi[5]. Shunga ko‘ra, shaxsiy salohiyat hayot davomida o‘zini-o‘zi rivojlantirish jarayonidagi tizimli shakllanishdir. Shaxsiy salohiyat darajasi yuqori bo‘lgan odamlar faollik, muvaffaqiyatlilik, mas’uliyatlilik, chidamlilik va o‘z taqdirini hal qilish, o‘zini – o‘zi boshqarish, maqsadga muvofiqlik va moslashuvchanlik kabi psixologik xususiyatlar bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, shaxsiy salohiyatini rivojlantirmagan odamlar passivlik, qaramlik, tebelik, zaiflik, muvaffaqiyatsizlik va rigidlik bilan ajralib turadi[6]. Shaxsiy salohiyat darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida akademik muvaffaqiyat va psixologik farovonlikka erisha olishlarida namoyon bo‘ladi. Shaxsiy salohiyat darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar muvaffaqiyatga erishishlari mumkin, ammo ular buning uchun yuqori kuch sarflaydilar. Ular bir vaqtning o‘zida muvaffaqiyatli va o‘zlarini baxtli his etaolmaydilar. Yo subyektiv

farovonlikni yoki muvaffaqiyatni his qiladilar. Shaxsiy salohiyat to‘g‘ridan-to‘g'ri farovonlikni bashorat qilmaydi, balki qiyin hayotiy vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlovchi vosita bo‘la oladi.

L.S.Vigotskiyning **“yaqin rivojlanish zonasi”** nazariyasiga ko‘ra, bola o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi uchun ijtimoiy va madaniy tajriba bilan boyitilgan muhitga ehtiyoj sezadi. Bunday sharoitlarda bolaning rivojlanishi nafaqat tabiiy jarayon sifatida, balki qo‘llab-quvvatlovchi tashqi omillar ta’sirida tezlashgan shaklda amalga oshadi. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va ilg‘or pedagogik yondashuvlar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘zlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashadi va o‘zlarini aniq kasbiy rol doirasida tasavvur qila boshlaydilar. Biz tomonimizdan olib borilgan “O‘smirlarda shaxsiy salohiyatni namoyon qilishning psixologik xususiyatlari” mavzusidagi disertatsiya ishining empirik tahlillari shuni ko‘rsatadiki, 9-sinf o‘quvchilari orasida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilaridan ko‘ra ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilar shaxsiy va kasbiy salohiyat namoyon qilish turlari bo‘yicha ustunlikka ega. Bu ustunlik ta’lim muassasasining maqsadli yo‘nalishida tashkil etilgan muhiti, shaxsiy salohiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyasi hamda raqobatbardosh ijtimoiy-psixologik atmosfera bilan izohlanadi. Shuningdek, bu natijalar o‘smirlik davrida shaxsning o‘zini anglash, kasbiy fikrlash va ijtimoiy moslashuv jarayonlari maktab muhiti va ta’lim tizimi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Maktab psixologlari uchun o‘smir shaxsiy salohiyatni rivojlantirishda quyidagilarni tavsiya etamiz:

- ✓ Individual psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish va har bir o‘smirning ehtiyoj va shaxsiy imkoniyatlariga mos yondashish.
- ✓ Psixologik treninglar orqali ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar va o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘ziga ishonch, qaror qabul qilish, empatiya, qiyinchiliklarga bardoshlilik va boshqalarni rivojlantirish
- ✓ O‘smir ota – onalariga psixologik ma’ruzalar tashkil etib, o‘smir farzandlarini tushunish va to‘g‘ri yo‘naltirishda integrativ yondashuv haqida ma’lumotlar berish.
- ✓ O‘smirning ichki resurslarini faollashtirishga qaratilgan motivatsion suhbatlar tashkil qilish.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, shaxs salohiyatini ochish va namoyon qilishni rag‘batlantiruvchi psixologik-pedagogik yondashuvlar tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. D.U.Aliyeva, M.A.Esonova “Sharq mutafakkirlarining ma’rifatli inson kamolati haqidagi fikrlari” INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES IN PRESCHOOL EDUCATION” 15 MAY, 2024 B.15-16

2. Леонтьев Д.А. Личностное изменение человеческого развития // Вопросы психологии. 2013. № 3. С. 67−80.

3.Леонтьев Д.А. Личностный потенциал как потенциал саморегуляции // Учёные записки кафедры общей психологии МГУ им. М. В. Ломоносова, вып. 2 / под ред. Б. С. Братуся, Е. Е. Соколовой. — М.: Смысл, 2006. С. 85−105.

4.Duckworth A.L., Seligman M.E.P. Self-discipline outdoes IQ predicting academic performance in adolescents. // Psychological Science, 2005, 16(12), 939−944.
5. Леонтьев Д.А. Психология смысла. М.: Смысл, 1999.

O‘SPIRINLIK DAVRIDAGI DEPRESSIV HOLATLAR YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich
NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada depressiya hodisasi biopsixososial yondashuv asosida tahlil qilinadi. Depressiya nafaqat ruhiy tushkunlik, balki biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida yuzaga keladigan murakkab holat sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada depressiyaning sabablari, xususan, genetik moyillik, erta bolalikdagi travmalar, stress va miya kimyosidagi o‘zgarishlar atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, depressiyani yengishda kompleks yondashuv – dori vositalari, psixoterapiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovning ahamiyati ta’kidlanadi. Bolalikdagi hissiy muhitning ahamiyati va uni oldini olish choralariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Depressiya, stress, genetik moyillik, bolalik, travma, biopsixososial yondashuv, psixoterapiya.*

Annotation: *This article analyzes the phenomenon of depression through a biopsychosocial approach. Depression is viewed not merely as a state of emotional decline but as a complex condition resulting from the interaction of biological, psychological, and social factors. The article discusses various causes of depression, including genetic predisposition, early childhood trauma, stress, and neurochemical changes in the brain. It emphasizes the importance of a comprehensive treatment approach that combines medication, psychotherapy, and social support. Particular attention is given to the role of early emotional environments and preventive measures for mental disorders.*

Keywords: *Depression, stress, genetic predisposition, childhood, trauma, biopsychosocial approach, psychotherapy.*

Аннотация: *В данной статье феномен депрессии рассматривается с точки зрения биопсихосоциального подхода. Депрессия представляется не просто как эмоциональный спад, а как сложное состояние, возникающее в результате взаимодействия биологических, психологических и социальных факторов. В статье подробно анализируются причины депрессии, включая генетическую предрасположенность, травмы раннего детства, стресс и нейрохимические изменения в мозге. Отмечается важность комплексного подхода к лечению, включающего медикаментозную терапию, психотерапию и социальную поддержку. Особое внимание уделяется влиянию эмоциональной среды в детстве и мерам профилактики психических расстройств.*

Ключевые слова: *Депрессия, стресс, генетическая предрасположенность, детство, травма, биопсихосоциальный подход, психотерапия.*

Mamlakatimizda har bir sohani rivojlantirishda kadrlar masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarning o‘qishi, mutaxassislarning tajriba oshirishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shu maqsadda “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan 2 ming 225 nafar stipendiatlar 45 ga yaqin davlatga o‘qishga yuborilib, byudjetdan jami 1,5 trillion so‘m yo‘naltirildi. Hozirgacha ularning 1 ming 400 nafari O‘zbekistonga qaytib, iqtisodiyot tarmoqlarida, ta’lim, fan, tibbiyot va davlat boshqaruvida ishlamoqda. Bugungi kunda 748 nafar stipendiatlar “TOP-300” talikdagi nufuzli universitetlarda ta’lim olayapti[XX1].

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ruhiy salomatlikka bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Bu boradagi eng dolzarb muammolardan biri bu – depressiyadir. Depressiya nafaqat ruhiy holat, balki murakkab biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro ta’sirining mahsulidir. Ko‘pchilik depressiyani faqat kayfiyatning pasayishi sifatida tushunadi, biroq bu tushuncha yetarli emas. Ushbu maqolada depressiyaning murakkab tabiati, uning sabablari va organizmga ko‘rsatadigan ta’siri biopsixososial yondashuv doirasida tahlil qilinadi. Depressiya inson salomatligiga ko‘plab jihatlardan ta’sir ko‘rsatadi. Odam o‘zini charchagan, maqsadsiz va umidsiz his qiladi. Uyqu buzilishi, ishtahaning pasayishi yoki ortishi, energiyaning yetishmasligi – bularning barchasi depressiyaning jismoniy belgilaridir. Bu, miyadagi faoliyat o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lib, depressiya aslida faqat “ruhan” emas, balki “jismonan” ham mavjud holat ekanini ko‘rsatadi. Depressiya vaqtida miya faoliyatida ma’lum o‘zgarishlar yuz beradi. Xususan, ijobiy his-tuyg‘ular (quvonch, zavq, muhabbat) bilan bog‘liq miya markazlari sustlashadi, salbiy his-tuyg‘ular (g‘azab, qayg‘u, xavotir) faollashadi. Ushbu hissiy o‘zgarishlar neyronlararo signal almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonda asosiy rolni monoaminlar deb ataluvchi neyrotransmitterlar – dopamin, noradrenalin va serotonin bajaradi. Ular kayfiyat, uyqu va motivatsiyani boshqaradi. Depressiyada ushbu kimyoviy moddalar kamayadi yoki samarasiz ishlaydi. Antidepressant dorilar aynan shu tizimlarga ta’sir qilib, ijobiy hissiyotlarni faollashtiradi va salbiylarni susaytiradi.

Genlar insondagi ko‘plab xususiyatlar, jumladan, ruhiy holatlarga moyillikni belgilaydi. Tug‘ma fe’l-atvor farqlari hatto chaqaloqlik davridayoq seziladi. Biror kishining depressiyaga moyilligi uning genetik tuzilmasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar bir xil egizaklarning birida depressiya rivojlansa, ikkinchisida ham bu kasallik paydo bo‘lish ehtimoli umumiy aholiga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Ayniqsa, bipolyar yoki psixotik depressiya holatlarida genetik omil kuchli rol o‘ynaydi. Biroq shuni yodda tutish kerakki, har qanday depressiya faqat genetik sabablarga asoslanadi. Ba’zan depressiya oilaviy nasldan-naslga o‘tadi, lekin bu faqatgina genetik sabab bilan izohlanmaydi. Qashshoqlik, noto‘g‘ri tarbiya, ota-onalarning farzandlariga befarq muunosabati kabi ijtimoiy omillar bir necha avlod davomida ruhiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, sovuq munosabatda bo‘luvchi ota-ona bolada hissiy ifoda qilishda qiyinchilik, o‘zini past baholash, depressiyaga moyillik kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Bu bola ulg‘ayib, o‘z farzandlariga ham shunday munosabatda bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, bu nafaqat genetik, balki ijtimoiy-psixologik “meros”ga aylanadi. Inson miyasi tug‘ilganda hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Miya rivojlanishi hayotning ilk yillarida tashqi ta’sirlar, xususan, ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi. Mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatib tarbiyalangan bolalarning miyasi salbiy tajribalar (zo‘ravonlik, e’tiborsizlik)ni boshdan kechirgan bolalarnikidan farq qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta bolalik davridagi travmatik holatlar, ayniqsa, hissiy zo‘ravonlik, miyadagi stress tizimlarini haddan ziyod faollashtirib, odamni katta hayotda depressiyaga nisbatan sezuvchan qilib qo‘yadi.

Depressiyaning eng keng tarqalgan sabablaridan biri – bu stressdir. Stress hayotdagi og‘irliklarga javob sifatida organizmda turli jarayonlarni faollashtiradi. Qisqa muddatli stress (masalan, xavfli holatdan qochish) foydali bo‘lishi mumkin, lekin uzoq davom etuvchi stress (kasallik, ajrim, ishsizlik) organizmning himoya tizimlarini charchatadi va kayfiyat kimyosini izdan chiqaradi. Richard Lazarusning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, inson boshidan o‘tkazgan hodisalarga qanday ma’no berishi va qanday munosabatda bo‘lishi stress darajasini belgilaydi. Ya’ni, bizning fikrlash tarzimiz ham depressiyaga moyillikda muhim o‘rin tutadi. Ba’zan inson o‘z hayotidagi stress manbalaridan (masalan, toksik munosabat, og‘ir mehnat sharoiti) qochib qutula olmaydi. Bu holatlar organizmda surunkali stress holatini keltirib chiqaradi. Bunday “tiqilib qolgan” vaziyatlar depressiyaning eng xavfli shakllarini yuzaga keltirishi mumkin. Yana bir muammo – stressga noto‘g‘ri yondashuv: spirtli ichimliklar, giyohvandlik, yoki ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy strategiyalar holatni yanada og‘irlashtiradi. Depressiyani to‘liq tushunish uchun biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’sirini hisobga olish lozim. Bu yondashuv – biopsixososial model – hozirgi zamonaviy psixiatriya va psixologiyaning asosiy tushunchasidir. Uni ilk bor qadimgi yunonlar “melanxoliya” – qora o‘t nazariyasi orqali anglashga uringanlar. Bugun esa bu tushuncha chuqurlashtirilgan: depressiyaga genetik moyillik, bolalikdagi travmalar, hozirgi hayotdagi stresslar va ularga yondashuv birgalikda ta’sir qiladi.

Xulosa. Depressiya – bu oddiy tushkunlik holati emas. U miyadagi kimyoviy o‘zgarishlar, hayotdagi stresslar, erta bolalikdagi hissiy tajribalar va genetik moyilliklarning birlashmasidir. Uni yengish uchun esa murakkab yondashuv zarur: dori vositalari, psixoterapiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov birgalikda ishlaganda samarali bo‘ladi. Shuningdek, bolalarga mehrli va xavfsiz muhit yaratish orqali ruhiy kasalliklarning oldini olish ham mumkin.

Kelajakda o‘spirinlardagi depressiyani aniqlash va davolash yondashuvlari yanada ilmiy asoslangan, madaniy jihatdan sezgir va innovatsiyalarga boy bo‘lishida madaniyat va milliy xususiyatlarni hisobga oladigan yondashuvlarni rivojlantirish, tashxislash va korreksiyalash uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, depressiya bilan bog‘liq steriotiplarni o‘zgartirish va ruhiy salomatlik xizmatlariga kirish imkoniyatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan, kombinatsiyalangan terapiya usullarini qo‘llash va ta’lim muassasi, oilalar va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bundan tashari depressiyani tushunish va tashxislash usullarini yaxshilash uchun yangi metodologiyalarni ishlab chiqish talab qilinadi. Masalan, fenomenologik-psixopatologik yondashuv: O‘spirinlarning subyektiv tajribalariga e’tibor berish orqali ularning ichki dunyosini chuqurroq o‘rganish va tarmoq tahlili: Depressiyani alohida simptomlar to‘plami sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq omillar tizimi sifatida tahlil qilishham yaxshi natija beradi. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanib psixodiagnostika uchun mobil ilovalar va algoritmlardan foydalanish orqali aniqlikni oshirish imkoniyatiga egamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Aaron T. Beck and Brad A. Alford. Depression : causes and treatment. Philadelphia, Pennsylvania. 2009. –B: 428

2. Maxamadin Bannayev, O‘spirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari, MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI: Том 3 № 4 (2025)
3. https://president.uz/oz/lists/view/8111

OLIY TA’LIMDA FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN O‘QITUVCHILARNING PEDOGOGIK MUVAFFAQIYATI

Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti psixol.f.f.d. PhD

Anotatsiya: *Mazkur tezisda oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning pedagogik muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar – kasbiy tayyorgarlik darajasi, innovatsion yondashuvlar, psixologik barqarorlik, motivatsiya va emotsional intellekt kabi jihatlar kompleks tahlil qilinadi. Pedagogik muvaffaqiyat faqat bilim berish jarayoni bilan emas, balki talabalarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llash bilan chambarchas bog‘liqligi isbotlanadi. Tezisda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlar va institutsional islohotlar tahlil qilinib, bu yo‘nalishda amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik muvaffaqiyat, oliy ta’lim, kasbiy kompetensiya, innovatsion pedagogika, motivatsiya, emotsional intellekt, ta’lim sifati, o‘qituvchi faoliyati*

Аннотация: *В данной диссертации будет проведен комплексный анализ основных факторов, влияющих на педагогический успех педагогов, работающих в системе высшего образования – уровня профессиональной подготовки, инновационных подходов, психологической устойчивости, мотивации и эмоционального интеллекта. Доказано, что педагогический успех тесно связан не только с процессом обучения, но и с повышением активности учащихся, направленности на самостоятельное мышление, эффективным применением современных образовательных технологий. В дипломной работе анализируются стратегические подходы и институциональные реформы, направленные на повышение эффективности педагогической деятельности учителей, даются практические рекомендации в этом направлении.*

Ключевые слова: *педагогический успех, высшее образование, профессиональная компетентность, инновационная педагогика, мотивация, эмоциональный интеллект, качество образования, педагогическая деятельность*

Anotation: *this thesis provides a comprehensive analysis of such aspects as the level of Professional Training, innovative approaches, psychological stability, motivation and emotional intelligence, the main factors affecting the pedagogical success of teachers operating in the higher education system. Pedagogical success is proved to be closely related not only to the process of giving knowledge, but also to increasing the activity of students, directing them to independent thinking and the effective application of modern educational technologies. The thesis analyzes strategic approaches and institutional reforms aimed at improving the effectiveness of pedagogical activity of teachers and provides practical recommendations in this direction.*

Keywords: *pedagogical success, higher education, professional competence, innovative pedagogy, motivation, emotional intelligence, quality of education, teacher activity*

Kirish: Oliy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning pedagogik muvaffaqiyati nafaqat talabalarning akademik yutuqlari, balki umuman jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Pedagogik muvaffaqiyat — bu o‘qituvchining bilim berish jarayonidagi samaradorligi, talabalarning o‘zlashtirish darajasi, ta’lim sifati va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatining majmuasidir. So‘nggi yillarda olib borilgan tezislar shuni

koʻrsatadiki, oʻqituvchining emotsional intellekti, ya’ni oʻz va boshqalar hissiyotlarini anglash, boshqarish va samarali kommunikatsiya qilish qobiliyati, pedagogik muvaffaqiyatga sezilarli ta’sir koʻrsatadi. Masalan, emotsional intellekt darajasi yuqori boʻlgan oʻqituvchilar oʻz ishlariga koʻproq sodiqlik bilan yondashadi, bu esa talabalarning akademik yutuqlariga ijobiy ta’sir qiladi[1]. Biroq, oliy ta’lim muassasalarida oʻqituvchilarning professional charchoq (burnout) holatlari ham keng tarqalgan. 2022-yilgi Gallup soʻroviga koʻra, AQShdagi universitet va kollej oʻqituvchilarining 35 foizi doimiy ravishda charchoq va zoʻriqish holatini boshdan kechirayotganini bildirgan[2]. Bu holat oʻqituvchilarning pedagogik faoliyatiga salbiy ta’sir koʻrsatib, ta’lim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, John Hattie tomonidan olib borilgan tezislar natijalariga koʻra, oʻqituvchining oʻziga boʻlgan ishonchi (self-efficacy) va talabalarning oʻqituvchiga boʻlgan ishonchi (teacher credibility) talabalarning oʻzlashtirish darajasiga sezilarli ta’sir koʻrsatadi[3].

Oʻzbekiston Respublikasida soʻnggi yillarda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli ta’lim islohotlari, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida pedagog kadrlar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning kasbiy va pedagogik muvaffaqiyatini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Yangi Oʻzbekiston – taraqqiyot va ma’rifat yoʻli” tamoyiliga muvofiq, oliy ta’lim sohasi butunlay yangi bosqichga oʻtdi. Bu jarayonda oʻqituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, ularning mehnatini ragʻbatlantirish va zamonaviy kompetensiyalar bilan ta’minlash strategik ustuvor yoʻnalish sifatida belgilandi[4]. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasining 2030-yilgacha boʻlgan ta’lim sohasidagi rivojlanish strategiyasi” oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va oʻqituvchilar salohiyatini oshirishni bosh maqsad qilib qoʻydi. Strategiyaga koʻra, oʻqituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish uchun xalqaro metodikalarga asoslangan oʻquv kurslari, distant ta’lim platformalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etildi. Bundan tashqari, oliy oʻquv yurtlari reytingini shakllantirishda oʻqituvchilarning ilmiy-tezis faoliyati, talabalar orasidagi mashhurligi va innovatsion loyihalardagi ishtiroki muhim mezonlardan biri sifatida baholanishi belgilandi. Islohotlarning yana bir muhim jihati – oʻqituvchilarning malakasini uzluksiz oshirib borish tizimining takomillashtirilganidir. Mamlakat boʻylab tashkil etilgan Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlarida professor-oʻqituvchilar zamonaviy pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va psixologiya yoʻnalishlarida bilim va koʻnikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega boʻlishmoqda. 2023-yilda ushbu markazlar orqali 27 mingdan ortiq oʻqituvchi malakasini oshirdi (*Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari*)[5]. Bundan tashqari, oʻqituvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilashga ham jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2024-yil yanvar oyidan boshlab oʻqituvchilar maoshi oʻrtacha 20–25 foizga oshirildi, ularning ilmiy darajalarini e’tirof etuvchi qoʻshimcha ustamalar belgilandi, xorijiy tilni bilish boʻyicha xalqaro sertifikatlarga ega boʻlgan oʻqituvchilarga ragʻbatlantiruvchi toʻlovlar joriy qilindi. Xalqaro hamkorlikning kengayishi ham pedagogik muvaffaqiyatni oshirishda muhim omilga aylandi. Hozirgi kunda 40 dan

ortiq xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma dasturlar orqali o‘qituvchilar xalqaro tajriba almashmoqda, akademik mobillik dasturlari doirasida chet ellik ekspertlar jalb qilinmoqda. Shuningdek, oliy ta’limda raqamli ta’lim infratuzilmasining keng joriy etilishi, masofaviy va aralash o‘qitish modellarining shakllanishi o‘qituvchilar oldiga yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llash zaruratini qo‘ymoqda. Bu esa ularning doimiy yangilanishini va moslashuvchanligini taqozo etadi. Yuqoridagi islohotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida pedagogik muvaffaqiyatni ta’minlashga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy va metodik asoslar shakllantirildi. Kelgusida bu islohotlarning samaradorligini ta’minlash uchun pedagog kadrlar salohiyatini chuqurlashtirish, ularni innovatsion fikrlashga yo‘naltirish va kasbiy o‘sishga zamin yaratish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Oliy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning pedagogik muvaffaqiyatini ta’minlash, uni o‘rganish va baholash masalasi xalqaro miqyosda ham, milliy ilmiy-amaliy izlanishlarda ham muhim o‘rin egallab kelmoqda. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tezislar pedagogik faoliyat samaradorligini aniqlash, uni belgilovchi psixologik, ijtimoiy va kasbiy omillarni chuqur tahlil qilishga asoslangan. Xalqaro miqyosda avvalo avstraliyalik olim John Hattie tomonidan olib borilgan keng qamrovli tezislar e’tiborga loyiq. Uning “Visible Learning” konsepsiyasi asosida o‘qituvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi, talabalarga bo‘lgan ishonch darajasi, darsdagi aniq maqsadlilik va o‘quvchining faol ishtiroki pedagogik muvaffaqiyatning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida ko‘riladi[6]. Hattiening yondashuviga ko‘ra, samarali o‘qituvchi – bu o‘z faoliyatini doimiy tahlil qiluvchi, o‘zgarishga ochiq, emotsional jihatdan barqaror va talabalar bilan samarali aloqada bo‘ladigan shaxsdir. Shuningdek, amerikalik pedagogika nazariyotchisi Linda Darling-Hammond ham o‘qituvchining pedagogik muvaffaqiyatini aniqlovchi asosiy indikator sifatida kasbiy tayyorgarlik darajasi, uzluksiz rivojlanish imkoniyatlari va metodik yondashuvlarni takomillashtirish zaruratiga urg‘u beradi[7]. Uning tezislarida yuqori malakali o‘qituvchilar mavjud ta’lim muhitini o‘zgartirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi qayd etiladi. Milliy miqyosda esa mazkur mavzuga oid tezislar so‘nggi yillarda alohida e’tibor kasb etmoqda. Jumladan, pedagogika fanlari doktori Yoqubjon Mamarasulovning oliy ta’limda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga oid tezislari pedagogik muvaffaqiyatni ta’minlovchi zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qilmoqda[8]. Uning fikricha, oliy ta’limda faoliyat yuritayotgan pedagogning muvaffaqiyati – bu faqat dars berishdagi natijalar bilan emas, balki ilmiy izlanish, talaba bilan muloqot sifati va kasbiy barqarorlik bilan o‘lchanadi. Bundan tashqari, professor G'.Yo‘ldoshev o‘z tezislarida oliy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy o‘zgaruvchanlik darajasini aniqlash, ularda reflektiv tafakkurni shakllantirish, metodik innovatsiyalarni tatbiq qilish zarurati haqida fikr yuritadi[9]. U pedagogik muvaffaqiyatga erishishda individual o‘sish, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy motivatsiya kuchli omil ekanini ta’kidlaydi. Psixolog olima N. To‘xtasinova esa o‘qituvchilarning emotsional intellekti, stressga chidamlilik va kommunikativ kompetensiyasining pedagogik faoliyatga bevosita ta’siri borligini empirik dalillar bilan asoslagan[9]. U olib borgan psixodiagnostik tezislar pedagogik

muvaffaqiyatga ta’sir etuvchi subyektiv va kontekstual omillarni chuqur ochib bergan. Mazkur mavzuni o‘rganishda xalqaro va milliy olimlarning fikr-mulohazalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular asosida oliy ta’limda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning pedagogik muvaffaqiyatini chuqurroq tahlil qilish, uni oshirishga xizmat qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqish mumkin. Ushbu yondashuvlar hozirgi islohotlar bilan uyg‘unlashgan holda, O‘zbekistonda raqobatbardosh, kreativ va barqaror pedagogik muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa: Oliy ta’limda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning pedagogik muvaffaqiyati ta’lim sifati, talaba rivoji va jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. Bu muvaffaqiyat o‘qituvchining kasbiy bilimlari, innovatsion metodlardan foydalana olish qobiliyati, shaxsiy motivatsiyasi va doimiy rivojlanish istagi bilan belgilanadi. So‘nggi yillarda oliy ta’limda joriy etilayotgan islohotlar, ayniqsa raqamli texnologiyalar, malaka oshirish dasturlari va rag‘batlantirish mexanizmlari, pedagogik muvaffaqiyatni oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kelgusida bu yo‘nalishda tizimli va ilmiy yondashuv asosida ishlash pedagogik salohiyatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Karimova, M. (2024). OLIY TA'LIMNI ISHLAB CHIQARISH BILAN INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISH. Молодые ученые, 2(28), 108-110.
2. Mominjanovna, H. F., & Shohbozbek, E. (2025). MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANGICH TALIM O'RTASIDA MANAVIY TARBIYANING UZVIYLIGI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(50), 314-318.
3. Shohbozbek, E. (2025). MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY TARBIYA VA UZLUKSIZ TA’LIM UZVIYLIGI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(50), 307-313.
4. Avezimbetovich, S. K. (2024). OLIY TA’LIMDA MASOFAVIY TA’LIM SHAKLINING MARKETING XUSUSIYATLARI. Marketing, 1(1), 4-11.
5. Қаюмов, Б. З. Ў., & Абдураҳмонов, О. А. Ў. (2021). ТАЛАБАЛАРДА ШАХСИЙ ВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 750-754.
6. Qayumov Baxtiyor. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT MOTIVATION. Next Scientists Conferences, 1(01), 24–27. Retrieved from https://nextscientists.com/index.php/science-conf/article/view/261
7. Baxtiyor, Q. (2024). CREATIVITY AS A RESEARCH SUBJECT IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(07), 76-80.
8. Baxtiyor, Q. (2023). O‘SMIR SHAXSIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TIZIMINING O‘RNI. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 178-183.
9. Roziqova, M. (2023). Baynalminal oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Interpretation and researches, 1(1).

TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATLARNI YO‘LGA QO‘YISHNING AHAMIYATI VA UNING HOZIRGI DAVRDAGI USTUVOR YO‘NALISHLARI

Kamilov Rashid Abdunabi o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti
“Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi”assistenti:
Email: rashidbekkamilov93@gmail.com
+998(33) 415-08-78

Annotatsiya: *Ta’lim tizimida psixologik xizmatlarni yo‘lga qo‘yishning ahamiyati har jihatdan katta. O‘quvchilar va o‘qituvchilarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim jarayonida psixologik omillarni inobatga olish, samarali o‘qish muhitini yaratish — bu hammasi ta’lim tizimining sifatini oshiradi. Hozirgi kunda ta’lim tizimida psixologik xizmatlarning ustuvor yo‘nalishlari o‘quvchilarning psixologik rivojlanishini ta'minlash, stress va xavotirni boshqarish, shuningdek, ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. O‘qituvchilarga stressni boshqarish, kasbiy yorqinlik va o‘quvchilarga psixologik yordam ko‘rsatish ham muhim yo‘nalishlardandir. Ta’lim tizimida psixologik xizmatlar, shuningdek, jamiyatda sog‘lom va barqaror psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa umumiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka olib keladi.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim tizimi, Psixologik xizmatlar, Psixologik rivojlanish, Stressni boshqarish, O‘qituvchi va o‘quvchi psixologiyasi, Emotsional intellekt, O‘qituvchi va o‘quvchi psixologiyasi, Ruhiy salomatlik, Ijtimoiy ko‘nikmalar, Kasbiy yorqinlik.*

Аннотация: *значение создания психологических служб в системе образования велико во всех отношениях. Поддержка психического здоровья учащихся и учителей, учет психологических факторов в образовательном процессе, создание эффективной учебной среды-все это повышает качество системы образования. В настоящее время приоритетными направлениями психологических услуг в системе образования являются обеспечение психологического развития учащихся, управление стрессом и тревогой, а также развитие социальных и эмоциональных навыков. Управление стрессом, профессиональная яркость и психологическая поддержка учителей также являются важными областями. Психологические услуги в системе образования также служат для формирования здорового и стабильного психологического климата в обществе, что ведет к общему развитию и социальной стабильности.*

Ключевые слова: *система образования, психологические услуги, психологическое развитие, управление стрессом, психология учителя и ученика, эмоциональный интеллект, психология учителя и ученика, психическое здоровье, социальные навыки, профессиональная яркость.*

Annotation*: the importance of establishing psychological services in the educational system is great in every way. Supporting the mental health of students and teachers, taking into account psychological factors in the educational process, creating an effective learning environment-all this increases the quality of the educational system. Currently, the priority areas of psychological services in the educational system are aimed at ensuring the psychological development of students, managing stress and anxiety, as well as developing social and emotional skills. Stress management, professional brilliance and psychological support for students are also important areas for teachers. In the educational system, psychological services also serve to form a healthy and stable psychological environment in society, which leads to general development and social stability.*

Keywords*: educational system, Psychological Services, psychological development, stress management, teacher and student psychology, emotional intelligence, teacher and student psychology, mental health, social skills, professional brilliance.*

Kirish. Ta’lim tizimining samarali ishlashi, nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasiga, balki ularning ruhiy va emotsional holatiga ham bog‘liqdir. Bugungi kunda ta’limda psixologik xizmatlarni tashkil etish, o‘quvchilarning ijtimoiy, emotsional va ruhiy rivojlanishini ta'minlash uchun muhimdir. [1. B – 11] Psixologik

xizmatlar nafaqat o‘quvchilarning o‘qish jarayonini qo‘llab-quvvatlash, balki ularning umumiy salomatligi, o‘zini o‘zi anglash va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ta’lim tizimida psixologik xizmatlarning o‘rni va ahamiyati hozirgi davrda, shuningdek, ularning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida batafsil tahlil qilish zarurati tug‘ilmoqda. O‘quvchilarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash: Ta’lim tizimi o‘quvchilarning bilim olishlari bilan birga, ularning ruhiy salomatligini ham qo‘llab-quvvatlashi kerak. O‘quvchilarning stress, xavotir, depressiya yoki emotsional muammolarni boshqarish, psixologik xizmatlar orqali amalga oshiriladi. Psixologik yordam, o‘quvchilarni ruhiy bosimlardan, o‘qish va hayotdagi qiyinchiliklardan himoya qiladi. [2. B – 13]

O‘qituvchilarning kasbiy stressini boshqarish: O‘qituvchilar, ta’lim jarayonida doimiy ravishda yuqori darajada stress va bosimga duch keladilar. Psixologik xizmatlar o‘qituvchilarni kasbiy yorqinlikdan saqlash, stressni boshqarishda yordam berish va ularning ruhiy holatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning pedagogik samaradorligini oshiradi.
Ta’lim jarayonida psixologik omillarni inobatga olish: Psixologik xizmatlar ta’lim jarayonida muhim psixologik omillarni inobatga olishni ta'minlaydi. Masalan, o‘quvchilarning o‘zini anglash, o‘zaro munosabatlar, motivatsiya va ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu omillar ta’lim sifatini oshiradi va o‘quvchilarni yanada muvaffaqiyatli qiladi. [3. B – 5]

Hozirgi davrdagi psixologik xizmatlarning ustuvor yo‘nalishlari:

Emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Zamonaviy ta’lim tizimi faqatgina bilim berish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratadi. Psixologik xizmatlar, o‘quvchilarga stressni boshqarish, ijtimoiy moslashuv va emotsional barqarorlikni rivojlantirishda yordam beradi. Bu ko‘nikmalar, o‘quvchilarga nafaqat o‘qish jarayonida, balki hayotda ham muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.
Psixologik yordam orqali xavotir va stressni kamaytirish: O‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatlari ko‘pincha stress va xavotirga bog‘liq. Psixologik xizmatlar o‘quvchilarning stressni boshqarish va bu muammolarni yengish uchun psixologik maslahatlar, terapiya va guruh mashg‘ulotlarini taqdim etadi. [4. B – 7] Bu, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga, shuningdek, ularning umumiy psixologik farovonligini yaxshilashga yordam beradi. Kasbiy yorqinlik va o‘qituvchilarga psixologik yordam: O‘qituvchilar, kasbiy yorqinlik va ruhiy stress tufayli ta’lim jarayonida o‘z samaradorliklarini yo‘qotishlari mumkin. Ta’lim tizimida psixologik xizmatlar, o‘qituvchilarni stressni boshqarish va kasbiy yorqinlikni oldini olishda qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchilarga psixologik maslahatlar, treninglar va guruh terapiyasi orqali yordam ko‘rsatiladi. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning pedagogik samaradorligini oshiradi va ta’lim sifatini yaxshilaydi. Psixologik yordam orqali ijtimoiy va emosional barqarorlikni ta'minlash: Ta’lim tizimi o‘quvchilarning nafaqat bilim olishlarini, balki ularning ijtimoiy va emosional barqarorligini ta'minlashni ham maqsad qilishi kerak. Psixologik xizmatlar o‘quvchilarga o‘zaro munosabatlar, o‘zini anglash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o‘quvchilarning jamiyatda faol va

muvaffaqiyatli yashashlariga yordam beradi. [5. B – 6] So‘nggi vaqtlarda qabul qilingan qarorlar va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan to‘xtatib o‘tadigan bo‘lsak, ta’lim tizimida psixologik xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan so‘nggi qarorlar va ularning amalga oshirilishi, psixologik salomatlikni qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchilar va o‘quvchilarga yordam berish, hamda ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida qabul qilingan. Ushbu qarorlar va amaliyotlar turli davlatlarda ham, shuningdek, o‘zbek ta’lim tizimida ham e'tibor qaratilayotgan muhim yo‘nalishlarga asoslanadi. Psixologik xizmatlarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish jarayoni bu O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida psixologik xizmatlarni yo‘lga qo‘yish uchun bir qancha qarorlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini rivojlantirishga oid kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori doirasida, o‘quvchilarning psixologik farovonligini ta'minlash uchun psixologik xizmatlarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalasi alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, psixologik yordamga ehtiyoj sezadigan o‘quvchilar uchun psixologik maslahat markazlari tashkil etildi. Psixologik yordam markazlari ochilishi esa o‘quvchilarga psixologik yordam ko‘rsatish uchun o‘quv muassasalarida psixologik maslahat markazlari tashkil etildi. Bu markazlarda o‘quvchilarning psixologik muammolarini aniqlash va ularni hal qilish bo‘yicha maslahatlar beriladi. Psixologlar tayyorlash jarayoni ayni damda ta’lim tizimi uchun maxsus psixologiya bo‘yicha kadrlar tayyorlash dasturlari joriy etildi. Psixologik xizmatlarni professional darajada taqdim etish uchun psixologlar o‘z malakalarini oshirishi va ta’lim metodikasiga moslashishi zarur. O‘qituvchilarga stressni boshqarish va kasbiy yorqinlikni oldini olish esa ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy yorqinligi va stressni boshqarish masalasi ham katta ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda o‘qituvchilar uchun kasbiy yorqinlikni oldini olish va stressni boshqarish bo‘yicha bir qancha qarorlar qabul qilindi. Bu esa ta’limni isloh qilish tizimida o‘qituvchilarga psixologik treninglarni yanada ko‘proq o‘tkazishlari lozimdir. Bunda o‘qituvchilarga stressni boshqarish va kasbiy yorqinlikni oldini olish bo‘yicha maxsus treninglar va seminarlar tashkil etilmoqda. Ushbu treninglarda o‘qituvchilarga emotsional barqarorlikni saqlash, o‘quvchilar bilan munosabatlarni yaxshilash va kasbiy yorqinlikni oldini olish usullari o‘rgatiladi. Ijtimoiy himoya tizimii yordamida o‘qituvchilarga psixologik yordam ko‘rsatish uchun ijtimoiy himoya tizimi yaratilmoqda. Bu tizim orqali o‘qituvchilar o‘z stresslarini boshqarishda va ruhiy salomatlikni saqlashda qo‘llab-quvvatlanadi. [6. B – 8]

Psixologik Yordamning Ijtimoiy va Emotsional Ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilish jarayoni: Bugungi kunda ta’lim tizimida psixologik xizmatlar, nafaqat akademik natijalarga, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham katta e'tibor qaratmoqda. So‘nggi yillarda, Emotsional Intellektni rivojlantirish va Ijtimoiy ko‘nikmalarni oshirish uchun psixologik xizmatlarni ta’limga integratsiya qilish bo‘yicha qarorlar qabul qilindi. Yaqin vaqt ichida Emotsional intellektni rivojlantirish dasturlari kengaytirildi. Buning oqibatida ta’limolayotgan o‘quvchilarning emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu dasturlar, o‘quvchilarga stressni boshqarish, ijtimoiy moslashuv va o‘zaro

munosabatlarni yaxshilash bo‘yicha o‘qituvchilar tomonidan olib borilmoqda. Guruplar va seminarlar tashkil etish barobarida, o‘quvchilarni ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan guruh mashg‘ulotlari tashkil etilmoqda. Bu guruhlar orqali o‘quvchilar bir-birlari bilan ijtimoiy moslashuvni o‘rganadilar va emotsional xavf-xatarlardan qanday himoyalanishni bilib oladilar.

Psixologik xizmatlarning o‘qish va hayotdagi muvaffaqiyatga ta’sirisifatida aytish mumkinki, **y**uqoridagi qarorlar psixologik xizmatlarning ta’lim tizimiga integratsiyasining ijobiy natijalarini keltirib chiqarmoqda. O‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun psixologik yordamning mavjudligi, nafaqat o‘quvchilarning o‘qishdagi muvaffaqiyatini, balki ularning hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishini ta'minlaydi. Individual psixologik yordam tizimini joriy etilishi mamlakatdagi barcha ta’lim muassasalarida individual psixologik maslahatlar va yordam ko‘rsatish tizimi joriy etilgan. O‘quvchilarga o‘z muammolarini hal qilishda yordam berish, ularni o‘qishga motivatsiya qilish va ijtimoiy masalalarni hal qilishda qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilmoqda.[7 .B–6] Muvaffaqiyatli o‘quvchilarga maxsus dasturlar bilan birgalikda ta’lim tizimida yuqori darajada muvaffaqiyatli bo‘lgan o‘quvchilarga psixologik maslahatlar orqali ularning o‘qish va hayotdagi yutuqlarini yanada mustahkamlashga yordam beriladi. Bu esa har bir o‘quv jarayonini o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi. Intilishi yuksak bo‘lgan har bir o‘quvchi psixologik jihatdan yetuk inson bo‘lib yetishida muhim o‘rin tutadi.

XULOSA. Ta’lim tizimida psixologik xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarning psixologik salomatligini yaxshilash, o‘qituvchilarga qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish va umumiy ta’lim sifatini oshirish uchun zarurdir. Hozirgi davrda psixologik xizmatlarning ustuvor yo‘nalishlari emotsional intellektni rivojlantirish, stressni boshqarish va ijtimoiy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan. Ta’lim tizimida psixologik xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan so‘nggi qarorlar, psixologik yordamni o‘quvchilarga va o‘qituvchilarga taqdim etish, stressni boshqarish, kasbiy yorqinlikni oldini olish, emotsional intellektni rivojlantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni oshirish kabi muhim yo‘nalishlarga asoslangan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. “Ta’lim tizimini rivojlantirishga oid kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror (2020 yil). 11-b.
2. “Psixologik xizmatlar va yordam markazlarini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror (2022 yil). 13-b; 5-b.
3. Maslow, A. H. (1970). Motivation and Personality. Harper & Row. 7-b.
4. “O‘qituvchilarni kasbiy yorqinlikdan saqlash: Psixologik yordam va treninglar” (2023) 6-b.
5. “Psixologik xizmatlar orqali o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatlari va hayotdagi muvaffaqiyatlariga ta'sir” (2024) 8-b.
6. “Psixologik yordam va stressni boshqarish: Ta’lim tizimida yangi yondashuvlar” (2024) 6-b.

HUQUQ-TARTIBOT TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Turg‘unpo‘latova Musharraf Xusniddin qizi
Namangan davlat universiteti stajor-o‘qituvchi

Annotatsiya: *maqolada huquq targ‘ibot tizimida psixologik xizmatni tashkil etish masalalari uning mohiyati olimlarning fikrlari keltirib o‘tilgan shuningdek maqolada amaliy tavsiyalar ham bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *huquq, tizim, istak, targ‘ibot, advakat, xizmat, hodisa, amaliyot, ta’lim, shakllantirish, faoliyat.*

Аннотация*: В статье рассматриваются вопросы организации психологической службы в системе правовой пропаганды ее сущность приводятся мнения ученых в статье также излагаются практические рекомендации.*

Ключевые слова: *право, система, желание, пропаганда, юрист, услуга, явление, практика, образование, формирование, деятельность.*

Annotation: *in the article issues of the organization of psychological service in the system of legal promotion its essence is cited by scientists, and the article also describes practical recommendations.*

Keywords: *law, system, desire, propaganda, advakat, service, event, Practice, Education, formation, activity.*

Huquqiy psixologiya ma’lum bir vaqtgacha o‘zi ishlab chiqqan amaliy tavsiyalarni ta’lim tizimi orqali amalga oshirdi. Huquqni qo‘llash amaliyoti haqiqatida ularni amalga oshirish samaradorligi to‘liq bilimlarni amaliyotchilar xotirasida va ularning xohish-istaklarida saqlashga bog‘liq edi. Natijada ko‘plab amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlar amalga oshirilmagani, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlardan foydalanilmayotgani ma’lum bo‘ldi. Advokatlarning o‘zlari psixologiyaning konstruktiv imkoniyatlari ancha keng ekanligini anglab yetdilar va huquqni muhofaza qilish va sud-huquq masalalarini bevosita hal qilishda psixologlarni jalb qilishni qayta-qayta taklif qilishdi. Shunday qilib, mashhur rus huquqshunosi L.E. Vladimirov o‘zining "Jinoyat sudida psixologik tadqiqotlar" (1902) asarida ekspert-psixologlarning sud protsessida ishtirok etishining muhimligini asoslaydi. Uning fikricha, bu mutaxassis jinoyat protsessida ikkinchi sudya bo‘lishi kerak. L.E.Vladimirovaning g‘oyalari to‘liq amalga oshirilmadi, ammo psixologlarni ekspert sifatida jalb qilish g‘oyasi yanada rivojlandi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga yuklatilgan aniq vazifalarni hal etishda mutaxassis-psixologlarning davriy ravishda jalb etilishi huquqiy psixologiya va huquqni qo‘llash amaliyoti birlashmasida sifat jihatidan yangi bosqich hisoblanadi. Bugungi kunda huquq-tartibot idoralari psixologik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish borasida bir pog‘onaga ko‘tarildi. Huquqiy xavfsizlik tizimi vazirliklari va idoralarida amaliy psixologlar lavozimlari joriy etilmoqda va hatto kadrlar va tezkor-xizmat masalalarini hal qilishda psixologik yordam ko‘rsatadigan tarkibiy bo‘linmalar tashkil etilmoqda. Huquqni muhofaza qilish organlarida amaliy psixologlarning birinchi lavozimlari 1974-yilda jazoni ijro etish tizimida (voyaga yetmaganlar uchun axloq tuzatish koloniyalarida) joriy etilgan. Bundan tashqari, ushbu mutaxassislar boshqaruv ierarxiyasining barcha darajalarida ishlaydi: Jazolarni ijro etish Bosh boshqarmasi (GUIN) darajasida psixologik bo‘lim mavjud; mintaqaviy darajada bosh psixolog lavozimi va psixologik yordam guruhi ta’minlanadi; Jazoni ijro etish muassasalari darajasida har 300 nafar mahkumga bir nafar psixolog hisobiga psixologik laboratoriyalar tashkil etish bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Jazoni ijro etish tizimida psixologik xizmatning faol tashkil etilishi ushbu bo‘limda

psixologik bilimlardan foydalanishning tarixiy tajribasi hamda jazoni ijro etish muassasalarini xalqaro standartlarga muvofiq isloh qilishning ongli zarurati bilan bog‘liq. Jazoni ijro etish tizimi faoliyatidagi mavjud kamchiliklarga qaramasdan, bugungi kunda ushbu idorada eng rivojlangan psixologik xizmat mavjudligini aytish mumkin. Huquqni muhofaza qilish tizimining boshqa bo‘linmalarida ham psixologik xizmat muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Shu bilan birga N.V.Andreev, M.G.Debolskiy, I.O.Kotenev va boshqalar psixologik xizmat faoliyatining ayrim tomonlarini nazariy jihatdan asoslashga maqsadli urinishlar qilganlar. Belgilangan mualliflarning ishlariga, shuningdek, psixologlarning tajribasini o‘rganishga asoslanib, biz uning muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlaydigan asosiy elementlarni aniqlashimiz mumkin:

- psixologik xizmatning maqsadlari;
- professional qadriyatlar (qiymat yo‘nalishlari);
- asosiy vazifalar va faoliyat sohalari;
- psixologik funksiyalar va ularni amalga oshirish vositalari;
- psixologik xizmatning tashkiliy tuzilmasi;
- psixologik xizmat xodimlarining sifati;
- amaliy psixologlar ishini tashkil etish;
- moddiy-texnik jihozlar.

Psixologik xizmatning maqsadi (vazifasi) psixologiya fanining yutuqlaridan uning samaradorligini oshirish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida foydalanishdan iborat. Aslini olganda, gap huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini intellektuallashtirish va insonparvarlashtirish haqida ketmoqda. Psixologik xizmat xodimlarining kasbiy qadriyatlari ko‘p jihatdan huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining umumiy qabul qilingan qadriyatlariga mos keladi. Shu bilan birga, har bir xizmatning o‘ziga xos professional mentaliteti mavjud. Sudyalarning kasbiy qadriyatlari prokurorlarnikidan farq qiladi; Hushyorlik markazi xodimlari hayot faktlarini tergovchilardan farqli ravishda baholaydilar. Amaliy psixologlar uchun asosiy kasbiy qadriyat - bu shaxsiyat, uning o‘ziga xosligi va o‘zini o‘zi rivojlantirish qobiliyati. Huquqni muhofaza qilish organlarida psixolog nafaqat yuridik, balki axloqiy me’yorlarga ham (kasbiy etikaning kodeksi) amal qiladi. Ushbu kodeksga muvofiq, u o‘z ishida faqat zamonaviy psixologiya fanlari doirasida sinovdan o‘tgan va shaxs salomatligi uchun xavfli bo‘lmagan usullardan foydalanishi mumkin. Bu, ayniqsa, jazoni ijro etish muassasalari uchun to‘g‘ri keladi, chunki mahkumlar odatda xodimlarga (hatto psixologlarga) nisbatan jazo talablarini qo‘yishadi. Psixolog mijozdan “shaxsiy ishonch” asosida olingan psixodiagnostik ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlashi kerak. Psixolog subyektni test natijalaridan kim va qanday maqsadda foydalanishi mumkinligi haqida ogohlantirishi kerak (masalan, xodimni sertifikatlashda). Psixolog tomonidan kasbiy faoliyat davomida to‘plangan ma’lumotlardan uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab foydalanmaslik kerak. Psixolog ba'zida u manipulyatsiya qilinayotganini va uning yordami bilan “istalmagan” xodimni ishdan bo‘shatish yoki boshqa bo‘limga o‘tkazishga harakat qilishini tushunishi kerak. Huquqni muhofaza qilish organlarida

psixologik xizmat oldida ikkita asosiy vazifa turibdi: birinchisi, xodimlarning psixologik ishonchliligini oshirish va ularning psixologik imkoniyatlaridan to‘liqroq foydalanish, ikkinchisi - tezkor va xizmat vazifalarini hal qilishda xodimlarga psixologik yordam ko‘rsatish. Ushbu vazifalarga muvofiq psixologik xizmat ikkita faoliyat yo‘nalishini amalga oshiradi: ichki ishlar organlari xodimlari bilan ishlashni psixologik qo‘llab-quvvatlash va tezkor va xizmat vazifalarini psixologik qo‘llab-quvvatlash. Birinchi yo‘nalish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kadrlarni kasbiy yo‘naltirish va psixologik tanlash; yosh xodimlarni joylashtirish va kasbiy moslashtirishda psixologik yordam ko‘rsatish; xodimlarning psixologik qobiliyatlari va shaxsiy rivojlanishini takomillashtirish; jamoadagi axloqiy-psixologik iqlim diagnostikasi va buzg‘unchi hodisalarning oldini olish; nomzodlarni ko‘rsatish va xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazishda ishtirok etish uchun kadrlar zaxirasi bilan ishlashni psixologik qo‘llab-quvvatlash; boshqaruv maslahati; xodimlar va ularning oila a’zolari uchun psixologik maslahat.

Huquqni muhofaza qilish organlarida psixologik xizmatni yaratishga urinishlar uzoq vaqt davomida amalga oshirildi, ammo ular kerakli rivojlanishni olmadilar va rad etildi. Biroq, yuridik amaliyotda psixologik xizmatni yaratish va rivojlantirish yo‘lidagi qiyinchiliklarga qaramay, u yaratilgan va hozirda mamlakatimizdagi eng nufuzli psixologik xizmatlardan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishida huquqni muhofaza qilish organlarida psixologik ish tarixiy jihatdan uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Hozirgi vaqtda ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyati samaradorligini oshirishda psixologik xizmatning ahamiyati katta. Psixologlarning lavozimlari huquqni muhofaza qilish tizimining har bir tarkibiy bo‘linmasining kadrlar tarkibiga kiritilgan. Ular kadrlar va tezkor-xizmat masalalari bo‘yicha qarorlarni psixologik qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. См.: *Коченев ММ* Судебно-психологическая экспертиза. - М, 1977; *Кудрявцев И.Л.* Судебная психолого-психитрическая экспертиза. - М., 1988; *Ситковская О.Д.* Судебно-психологическая экспертиза аффекта. - М., 1983; и др.
2. В Минимальных стандартных правилах обращения с заключенными, принятых на первом 79; Калифорния - 78; Огайо - 67; Пенсильвания - 66; Нью-Йорк - 43.
3. См.: *Дебольский М.Г.* Становление и развитие психологической службы в уголовно-исполнительной системе. // Человек: преступление и наказание. - 1994. № 3-4; *Ковтун В.П.* Психологическая служба УИС: проблемы становления // Преступление и наказание. — 1996. № 3; *Рабочая* книга пенитенциарного психолога. - М., 1997 и др. [4] *Битянова Н.Р.* Организация психологической работы в школе. - М., 1997. - С. 9.

TA’LIM, TIBBIYOT VA HUQUQ-TARTIBOT TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Maxsudova Mutabarxon Abdusalomovna
Psixologiya kafedrasi dotsenti
Namangan Davlat Universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda ta’lim, tibbiyot va huquq-tartibot tizimlarida psixologik xizmatning ahamiyati, asosiy ustuvor yo‘nalishlari va amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan. Statistik ma’lumotlar asosida har bir sohada psixologik xizmatning rivojlanish holati tahlil qilinib, mavjud muammolar va istiqbollar ko‘rib chiqilgan. Maqola ilmiy manbalar asosida tayyorlangan bo‘lib, psixologik xizmatni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Psixologik xizmat, ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, huquq-tartibot, ruhiy salomatlik, islohotlar, ijtimoiy barqarorlik*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются приоритетные направления развития психологической службы в системах образования, здравоохранения и правоохранительных органах Узбекистана. На основе статистических данных и официальных источников анализируются текущие реформы и проблемы в каждой из сфер. Работа содержит научно обоснованные выводы и практические рекомендации по совершенствованию психологической поддержки в указанных отраслях.*

Ключевые слова: *Психологическая служба, система образования, здравоохранение, правоохранительные органы, психическое здоровье, реформы, социальная стабильность*

Abstract: *This article explores the key development areas of psychological services in the fields of education, healthcare, and law enforcement in Uzbekistan. Based on statistical data and national reform strategies, the study analyzes the current state, existing challenges, and future prospects of psychological assistance in each sector. The article is grounded in academic sources and provides practical recommendations for enhancing psychological support systems.*

Keywords: *Psychological services, education system, healthcare, law enforcement, mental health, reforms, social stability*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirish, aholining ruhiy salomatligini mustahkamlash va psixologik barqarorlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini kengaytirish, ruhiy salomatlik profilaktikasi va psixologik barqarorlikni ta'minlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan [1].

Psixologik xizmatlar ayniqsa ta’lim, sog‘liqni saqlash va huquq-tartibot sohalarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizimlar jamiyatning eng muhim tuzilmalari hisoblanib, ularning barqaror ishlashi bevosita inson ruhiy holatiga bog‘liq. Shuning uchun ham mazkur maqolada aynan ushbu uch sohadagi psixologik xizmatning ustuvor yo‘nalishlari, mavjud muammolar, islohotlar va istiqbollar xolis tahlil qilinadi. Ta’lim tizimi bolalarning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojida asosiy bosqich bo‘lib, psixologik xizmat bu bosqichda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2022-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatdagi 11 mingdan ortiq umumta’lim muassasasida 13 mingdan ortiq maktab psixologlari faoliyat olib bormoqda [2].

- O‘quvchilarda stress, xavotir va depressiyani erta aniqlash va psixokorreksiya ishlari;
- Pedagoglar uchun psixologik treninglar va stressni boshqarish bo‘yicha konsaltinglar;
- Ota-onalar bilan individual va guruhli maslahatlar;
- Inkluziv ta’limga muhtoj bolalar uchun maxsus psixologik dasturlar ishlab chiqish.

2023-yilda “Yoshlar daftari” loyihasi doirasida 250 mingdan ortiq o‘quvchi psixologik yordam dasturlariga jalb etilgan bo‘lib, bu ijtimoiy yordam mexanizmlarining ruhiy salomatlikni mustahkamlashdagi rolini ko‘rsatadi [3].

Tibbiyot sohasi sog‘lom jamiyat asosidir. Biroq jismoniy salomatlik bilan bir qatorda ruhiy salomatlikni ham tiklash va asrash muhim hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har 4 kishidan biri hayotining muayyan bosqichida psixik buzilishlardan aziyat chekadi. O‘zbekistonda esa har 100 ming aholiga 3,2 nafar psixolog to‘g‘ri keladi [4].

Ustuvor yo‘nalishlar:

- Onkologik, yurak-qon tomir va surunkali kasalliklarga chalingan bemorlar bilan psixologik ishlash;
- Perinatal psixologiya: homiladorlar, tug‘ruqdan keyingi ayollar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlar ota-onalari bilan maslahat ishlari;
- Psixosomatik simptomlarni erta aniqlash va davolash strategiyalari;
- Tibbiyot xodimlari orasida professional charchash (burn-out) sindromining oldini olish bo‘yicha treninglar.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan “Ruhiy salomatlikni mustahkamlash” konsepsiyasi qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra 200 dan ortiq psixologik maslahat markazlari tashkil etilgan [1]. Huquq-tartibot tizimida psixologik xizmatning ustuvor yo‘nalishlari. Ichki ishlar, sud va jazoni ijro etish tizimida psixologik xizmatlar inson huquqlarini ta’minlash, zo‘ravonlik va jinoyatlarning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda 14 ta hududiy boshqarmada psixologik xizmat bo‘limlari faoliyat yuritmoqda [5].

Ustuvor yo‘nalishlar:

- Jinoyatchilarning psixologik tahlili va reabilitatsiyasi;
- Ichki ishlar xodimlari va harbiylar orasida ruhiy muvozanatni saqlash bo‘yicha psixologik monitoring;
- Sud-psixologik ekspertizasi orqali adolatli qarorlar qabul qilishga ko‘maklashish;
- Zo‘ravonlik qurbonlari, oilaviy ajrimlar guvohlari bilan individual ishlash.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2021–2024-yillar davomida 7 mingdan ortiq sud-psixologik ekspertiza ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich yillik 12% o‘sish dinamikasini namoyon etmoqda [6].

Ta’lim, sog‘liqni saqlash va huquq-tartibot tizimlarida psixologik xizmatning izchil rivojlanishi O‘zbekistonda inson salohiyatini yuksaltirish, barqaror jamiyatni shakllantirish va fuqarolarning ruhiy farovonligini ta’minlash yo‘lida muhim bosqichlardan biridir. Har uchala soha ham inson hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, psixologik omillar bu sohalarning samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim tizimida psixologik xizmatlar yosh avlodning ruhiy salomatligini asrash, shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiylashuv jarayonlarini sog‘lom o‘tkazishda asosiy rol o‘ynaydi. So‘nggi yillardagi islohotlar natijasida maktab psixologlari soni oshirildi, zamonaviy metodikalar joriy qilindi, lekin hali ham ushbu xizmatlarning sifat darajasi va qamrovi har tomonlama

mukammallashtirilishi zarur. Ayniqsa, psixologlarning malakasini oshirish, zamonaviy diagnostika vositalarini joriy qilish va o‘quvchi, ota-ona, pedagog uchligi asosida ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifadir.

Tibbiyot tizimida psixologik xizmatlarning kuchaytirilishi bemorlarning sog‘ayish sur’ati, davolashga bo‘lgan motivatsiyasi va hayot sifati bilan bevosita bog‘liq. Psixologik qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, surunkali, onkologik yoki psixosomatik kasalliklarda davolash jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimi xodimlarining o‘zlarida uchraydigan ruhiy charchoq, stress va professionallik sindromiga qarshi kurashish masalalari alohida e’tibor talab etadi. Bu borada tibbiy psixologlar tayyorlash va ularning klinikalardagi maqomini yuksaltirish zarurati mavjud. Huquq-tartibot tizimi esa, o‘z mohiyatiga ko‘ra, psixologik xavfli va stressli faoliyat bo‘lib, bu tizimda ishlovchi xodimlar, shuningdek jinoyatchilar, jabrlanuvchilar va boshqa ishtirokchilarning ruhiy holatini nazorat qilish dolzarb masalalardandir. Psixologik xizmatlar bu yerda nafaqat reabilitatsiya, balki jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika vositasi sifatida ham ko‘rilmoqda. Sud-psixologik ekspertizalar va jinoyatchilar reabilitatsiyasi kabi yo‘nalishlar professional psixologlarning chuqur ishtirokini talab etadi. Ushbu maqolada yoritilganidek, har uchala tizimda ham psixologik xizmatlar tizimlashtirilgan, ilmiy asoslangan yondashuv asosida rivojlanmoqda. Ammo mavjud muammolar – kadrlar tanqisligi, metodik jihatdan eskirgan yondashuvlar, xizmatlar qamrovining chegaralanganligi – ularning to‘laqonli ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu esa, tegishli mutasaddi organlar, ilmiy muassasalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yechimini topishi kerak bo‘lgan kompleks vazifadir. Shuningdek, psixologik xizmatlar jamiyatda muhim ijtimoiy institut sifatida tan olinishi, ularning ahamiyatini keng ommaga tushuntirish va ommaviy madaniyatda psixologik madaniyatni shakllantirish ham muhim yo‘nalishdir. Bu borada media, ta’lim, mahalla va diniy tashkilotlar ham hamkorlikda ishlashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda psixologik xizmatlarning har uchala sohada izchil rivojlanishi uchun:

- milliy kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish,
- zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar asosida ish yuritish,
- aholining ruhiy salomatligini ustuvor davlat vazifasi sifatida belgilash,
- psixologik xizmatlarning institutsional maqomini mustahkamlash,
- xizmat ko‘rsatish standartlarini xalqaro darajaga olib chiqish lozim.

Bu boradagi har bir islohot O‘zbekiston jamiyatining ruhiy barqarorligi, huquqiy madaniyati va sog‘lom kelajagini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. Lex.uz. 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalar*. 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi.). *Yoshlar daftari: psixologik yordam statistikasi*. Toshkent. 2023.
4. World Health Organization (WHO). *Mental health profile – Uzbekistan*. Geneva. 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. *Ichki ishlar organlarida psixologik xizmatni takomillashtirish konsepsiyasi*. 2024.

6. Mahmudova, N. “Huquq-tartibot tizimida psixologik ekspertizaning roli”. *Psixologiya va jamiyat*, T. 4(2), 2022. 55–63.

MAIN ASPECTS OF EMPATHY AND KINDNESS MANIFESTATION IN ADOLESCENTS GROWING UP IN MIGRANT FAMILIES

Sherjanova Nodira Alisherovna – Lecturer at the department of Pedagogy and psychology, Urgench state university named after Abu Rayhan Beruni

Annotation: *This article provides information about the peculiarities of the manifestation of empathy in adolescents from migrant families. It analyzes the psychological development and behavioral patterns of these adolescents, as well as the scientific and theoretical aspects related to their upbringing, including the views of various scholars.*

Keywords*: adolescence, migration, family, empathy, psychological traits*

Annotatsiya: *ushbu maqolada muhojir oilalardagi o'smirlarda empatiya namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Unda ushbu o'spirinlarning psixologik rivojlanishi va xulq-atvori, shuningdek ularni tarbiyalash bilan bog'liq ilmiy va nazariy jihatlar, shu jumladan turli olimlarning qarashlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *o'smirlik, migratsiya, oila, empatiya, psixologik xususiyatlar*

Аннотация: *В данной статье представлена информация об особенностях проявления эмпатии у подростков из семей мигрантов. В ней анализируются психологическое развитие и поведенческие модели этих подростков, а также научные и теоретические аспекты, связанные с их воспитанием, включая взгляды различных ученых.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, миграция, семья, эмпатия, психологические особенности*

Adolescence is one of the most crucial stages in personality development, playing a significant role in a person’s future destiny. During this period, stable behavioral patterns, emotional relationships, and ways of expressing feelings are formed. The way this developmental stage unfolds determines what kind of individual the person will become in adulthood. Adolescence is considered a sensitive period for the development of many personal qualities, including empathy. During this time, adolescents begin to experience feelings such as compassion, sympathy, and the willingness to sacrifice their own values and needs for others.

The logic of the study suggests that in order to ensure adolescents successfully adapt to new life conditions, it is necessary to focus on the adolescent's self-perception, self-awareness, and self-esteem — factors to which they are particularly sensitive. Our analysis of scientific literature shows that at a certain age, the search for one's social identity intensifies. This includes growing interest in ethnic and cultural identity (E. Erikson). During adolescence, interest in others—their opinions, values, and behaviors—increases. Determining one’s position in interpersonal relationships becomes a pressing issue, which is conditioned by increasing interest in one's inner world, reflection, and the development of responsibility (L.S. Vygotsky, A.V. Mudrik, D.I. Feldshtein). Moreover, adolescence is highly sensitive to the assimilation of socially significant values (D.I. Feldshtein).

Simultaneously, the issue of integrating adolescent migrants into a new socio-cultural environment is directly related to the development of self-awareness and self-relationship during adolescence. Adolescents from migrant families develop under the same general laws as their local peers. Philosophical perspectives suggest that the development of self-awareness is closely related to the "self" problem. For example, R. Descartes considered self-awareness to be a person's attitude toward themselves. E. Kant emphasized that self-awareness transforms a human into a moral being capable of obeying moral law. In the 20th century, many Western humanistic studies focused on exploring the inner world of personality (R. Burns, A. Maslow, C. Rogers, E. Fromm, E. Erikson, etc.).

R. Burns views the "self-concept" as a dynamic system of self-perceptions that includes awareness of one's physical, intellectual, and other attributes, as well as subjective perception and self-esteem. It consists of cognitive (beliefs and self-image), affective (emotional attitudes, self-respect), and conative (behavioral responses derived from self-esteem) components.

Whereas classical theories view adolescence as a period of "normative crisis" and consider youth inherently pathogenic, J.K. Coleman's "focal theory of adolescence" argues that most adolescents go through this stage without serious psychological disruptions. He suggests that adolescents focus on and resolve one major issue at a time, which helps them avoid overwhelming psychological stress. However, those dealing with multiple challenges simultaneously may develop behavioral deviations.

In cases of forced migration, adolescents encounter several challenges at once. Therefore, parents and educators must assist with patience, helping resolve intercultural adaptation problems and typical adolescent difficulties without indifference or excessive strictness. I.S. Kon's research highlights the importance of social-psychological, ethnographic, and pedagogical aspects of the interaction between the environment and the individual. This process is viewed as socialization. Socialization supports the individual's cultural adaptation and shapes them as a member of society. Thus, the adaptation period of migrant adolescents and their families is closely connected to their social integration and socialization in a new living environment. A theoretical analysis of recent pedagogical research shows that the issue of socialization has been widely addressed by A.V. Mudrik. Through socialization, individuals engage in social relationships and become integrated into the social system. The process of children's socialization and personality development occurs through interaction with the external world and under the influence of various social factors: macro-, meso-, and micro-factors (A.V. Mudrik). In the context of forced migration, socialization processes take on unique characteristics, as migrant individuals are simultaneously influenced by socio-psychological and situational factors. The degree and conditions of forced migration significantly affect these processes. In each case, different factors become more influential in socialization:

1. *External* – factors that force an individual to leave their previous living environment;

2. *Internal* – the individual's readiness to accept changes, adapt to a new culture, lifestyle, and conditions;
3. The unique combination of these factors.

In our study, we adopted the model of socialization proposed by A.V. Mudrik [1] as the main framework for analyzing adolescents. However, based on our own theoretical research, we identified specific impacts of these factors on adolescent migrants. We argue that among adolescents from forced migrant families, the following components play a predominant role in the socialization process:

- *Macrofactors* – environmental pressures causing displacement;
- *Mesofactors* – current living conditions within the adolescent's immediate social circle;
- *Microfactors* – personal attitudes toward these conditions and individual-level self-awareness transformations.

Notably, these adolescents often show disruptions in personality integrity, worldview, self-concept, trust in others, and exhibit signs of anxiety, aggression, and self-isolation [3]. Perceiving differences between past and present environments affects interpersonal relationships, school and family microclimates, lifestyle, leisure, and the process of self-awareness. Self-awareness is tied to recognition of one's individuality, the development of a coherent "self-concept," and self-esteem. Current migration processes in modern Russia have led to a crisis in self-awareness, disrupting normal personality development and forcing adolescents to adopt survival strategies. These may involve adapting to negative social trends, including "ethnocentrism, xenophobia, nationalism, ethnic violence, migrant-phobia," and others (A.G. Asmolov, G.U. Soldatova, L.A. Shaygerova) [2]. O.V. Gukalenko's [4] research identifies key psychological features specific to migrant children:

1. *Cultural distance* – how familiar or foreign a new culture feels, influencing interactions with peers, educators, and locals;
2. *Low social adaptation* – feelings of confusion and fear, stemming from difficulty assimilating into a new cultural and social environment, leading to a perception of lower personal competence;
3. *Attitude towards migration* – understanding the motives and circumstances behind the migration, the nature of the host society, and whether the migration is temporary or permanent;
4. *Personal traits* – maturity, value orientation, character, psychological traits, and individual attitude toward migration.The author links the common difficulties encountered in working with this group to their distinct social, psychological, and pedagogical challenges.

Empathy is the ability to understand why people behave in a certain way and to grasp their emotional reactions. In other words, it is the ability to put oneself in someone else's shoes. The frequent use of this term dates back to the early 20th century. The scientific definition belongs to the German scholar Theodor Lipps, and it was introduced into modern psychology by translator and psychologist Edward Titchener. According to researchers, empathy is divided into several types, including affective, somatic, and cognitive empathy. In particular, a low level of empathy

becomes an obstacle for an individual in expressing emotional responses and interacting with others. Such individuals are unable to show compassion towards others. In many sources, empathy is often associated with a sense of concern or worry. For instance, modern American child psychology focuses mainly on fostering altruistic behavior, with empathy considered the key factor. Some researchers regard empathy as one of the most important sources for a child's personal development. According to them, empathy is a combination of mutual warmth, attention, and influence. These authors base their views on O. Rank's ideas on child development, particularly the process of balancing the needs of parents and children. If empathy shapes the psychological environment in which a child learns how to relate to others, maintaining a balance of needs leads to effective upbringing.

Compassion in the parent-child relationship can only be manifested if parents understand their children's feelings, participate in their activities, and allow them independence. In children, compassion is usually accompanied by altruistic behavior. Those most sensitive to others' emotional states are always ready to help and tend to be less prone to aggressive behavior. Psychological studies conducted since the end of the last century have sought to identify the factors that determine the presence of empathy, such as constant anxiety, aggressive behavior, and difficulties in emotional interpretation due to low levels of empathy. Despite attempts to clearly systematize the components of the empathy concept, there is still no unified rule. Furthermore, critical views suggest that the relationships between its specific components remain inadequately studied. Nevertheless, all scientific studies related to empathy mention anxiety and emotional-affective domains as factors or indicators of empathy. According to psychoanalyst G. Mandler (1975), guilt and anxiety are different names for the same trait. Guilt, he asserts, is anxiety in response to real or imagined failure. This type of anxiety activates specific psychological defense mechanisms, through which a person attempts to compensate for or neutralize harm caused by a wrong action. Hence, the feeling of anxiety activates unique defense mechanisms. If we accept

List of references

1. Ситяева, С.М. Психологические особенности эмпатии подростков // Амурский научный вестник. – 2013. – №3. – 151-158с.
2. Современный психологический словарь/ Под ред.Б.Г.Мещерякова, В.П.Зинченко.- СПб.: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2006. - 857с.
3. Фельдштейн Д.И. Особенности ведущей деятельности детей подросткового возраста/Хрестоматия по детской психологии: от младенца до подростка// Под ред.Г.В.Бурменской. - М.: МПСИ, 2004. – 656с.
4. Фельдштейн Д.И. Психология взросления: структурно-содержательные характеристики процесса развития личности. - М.: МПСИ: Флинта, 1999. –672с.
5. Сопиков, А.П. Механизм эмпатии [Текст] / А.П. Сопиков. – Краснодар: Изд-во Кубанск. ун-та. –2007. – С. 89-86.
6. Гаврилова, Т.П. Понятие эмпатии в зарубежной психологии [Текст] / Т. П. Гаврилова. // Вопросы психологии. – 1975. – №2. – С. 147-156.
7. Практикум по экспериментальной и прикладной психологии [Текст] / Учебное пособие. Л.: ЛГУ, 2010. – 560 с.

YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA KASBGA MOYILLIKNI TARBIYALASH

Otajanov Olimboy Atamuratovich
Abu Ryhon Beruniy nomidagi UrDU Pedagogika
va psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.
Tel. +998 93 922 58 08

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarida kasbga moyillikni tarbiyalash haqida ilmiy nazariy ma'lumotlar berilgan bo'lib, o'quvchilar bilan ishlash, ularni kasbga yo'naltirish, kasbiy tarbiya masalalarining pedagogog o'qituvchilar tamonidan tashkil qilinishining asosiy jixatlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar. *Yurori o'quvchisi, kasb-hunar, kasbiy ta'lim, kasbga yo'naltirish, kasbiy tarbiya, kasbiy maslahat.*

Аннотация: *В данной статье приведены научно-теоретические сведения о воспитании профессиональной склонности у старшеклассников. Рассматриваются основные аспекты работы с учащимися, их профессиональной ориентации и организации профессионального воспитания педагогами.*

Ключевые слова: *ученик Юрори, профессия, профессиональное образование, профессиональная ориентация, профессиональное воспитание, профессиональная консультация.*

Annotation: *This article provides scientific and theoretical information on fostering career inclination among high school students. It highlights the main aspects of working with students, guiding them toward professions, and the organization of vocational education by teachers.*

Keywords: *Yurori student, profession, vocational education, career guidance, vocational training, professional counseling.*

KIRISH. Mamlakatimizni ta'lim tizimini barcha bo'g'inlarida isloxatlarning samaradorligi bevosita tarbiyalanayotgan kadrlaning sifatiga bog'liq. Pedagogning kasbiy maxorati o'quvchilarning sifatli ta'lim olishini, uni muvafaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Kasbiy ta'lim muhitining ijtimoiy madaniy murakkablashuvi, fan va texnologiyalarni faol rivojlanib borishi natijasida oliy ta'lim muassasasi pedagogiga qo'yiladigan talablar ortgan. Har bir pedagog tomonidan ta'lim tizimini barcha bo'g'inlarini innovasion rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni yechishiga extiyoj paydo bo'lgan. Prezidentimiz 2021 yil 30 sentabrdagi o'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan bayram tabrigida «O'qituvchi va ziyolilar – Uchinchi Renessansning tayanch ustunlari» deb ta'rifladilar. Pedagog hodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash tadbirlarining asosiy maqsadi pedagoglarni o'z faoliyatini sifatini oshirish va doimiy kasbiy rivojlanishga xarakat qilishdir.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish pedagogika fanidan hozirgi kunda maktabda ro'y berayotgan murakkab jarayonlarni chuqur o'rganishni talim va tarbiyaning eng maqbul shakllarini usullari hamda vositalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Xususan umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilarini kasbga yo'naltirishni yaxshilash, mustaqil hayotga amaliy va ma'navay-pedagogik jihatdan tayyorlash saviyasini oshirish, ularda mehnatga ongli extiyojini tarkib toptirish uchun maktablarda muntazam, tashkiliy foydali, foydali mehnatni yo'lga qo'yilishi lozim. Pedagogika fanida o'quvchilarning foydali mehnatiga ularning shaxsini,

kasbga moyilligini shakllantirishning vositasi saifatida, maktab ijtimoiy buyurtmasini bajarishning, ya'ni xalq ta'limining mehnat resurslariga ehtiyojini qondirishning omili sifatida qaraladi. Shunday qilib, kasbga intilish shaxsning umuman xayotga intilishi va faol hayotiy pozisiyaning eng muhim qismi bo'lib, o'quvchilarning ayniqsa, maktab bitiruvchilarning kamol topishi va ma'naviy kamol topishida alohida ahamiyatga molikdir, xayotiy rejalari va yo'llarini belgilashda faoliyat soxasini tanlash va xal qiluvchi omil hisoblanadi. Juda ko'p tadqiqotlarda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining kasbga moyilligi ko'pincha tasodifan tarkib topshi va oqibatda jiddiy ijtimoiy - iqtisodiy natijalarga olib borishi uqtirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Y.M.Pavdyutenkov buning sababini umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi pedagoglar jamolari ijtimoiy rivojlanishning rezervi bo'lmish inson omiliga, o'quvchilarning tarbiyasiga jumladan kasb tanlashiga, yetarli e'tibor bermasligi bilan izoxlaydi. Mazkur muammoga doir dissertatsion tadqiqotlarni o'rganish A.Saygashev, N.M.Skorodumov, N.L.Noyos, amalga oshirgan ishlar e'tiborining kasbga moyillik masalalariga bag'ishlanganini, M.A.Dobrinin, N.K.Bleev, A.S.Karman, N.K. Kotilenko, V.V.Kremenets, S.S.Martinova, N.K.Stepanenkov, L.T.Mazmunovlarning ishlarida maktab o'quvchilarining kasbga moyillik masalalari tahlil qilinganini ko'rsatdi. V.R.Lentvinovaning ishida o'quvchilarda kasbga moyillikning shakllanish masalalariga ta'lim nuqtai nazaridan yoritgan. L.T.Mazmunovning o'quvchilarda kasbga moyillikning shakllanishi masalalariga doir tadqiqotida mazkur intilishning strukturasi va xususiyatlaridan foydalangan, uning samarali shakllanishida ta'sir etuvchi omillar bayon qilingan. O'tkazilgan tahlilda mazkur ishlarda kasbga moyillikning mohiyati, tushunchani aniqlab berilganligi, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligida kasbga moyillikni samarali shakllantirish yo'llari, kasbga moyillikda ijtimoiy muhitning ta'siri ta'riflanganini ko'rsatdi. Ammo mana shu tadqiqotlarda asosan yuqori sinfdagi o'quvchilarda kasbga moyillikning shakllanish masalalari yoritilgan. Biz zamonaviy ishlab chiqarish jadal rivojlanayotganini, fan-texnika taraqqiyoti jadallashayotgani va shu munosabat bilan butunlay texnologiyalashgan ishlab chiqarish sharoitida mahalliy ishlar bajarayotgan vaziyatlarda qo'yiladigan talablar ortayotganini hisobga olib, o'quvchilarda kasbga moyillikni shakllantirishni asosan maktabdagi umumiy mehnat jarayonida amalga oshirish zarur, lekin ana shu muammo pedagogik tadqiqotlarda O'zbekistonning hududiy va milliy xususiyatlari nazarda tutilgan holda o'rganilmagan, degan xulosaga keldik. O'quvchilarda kasbga moyillikni tarbiyalashda kasbiy printsipning mohiyati to'g'risida ularga umumiy mehnat bilan chambarchas bog'liq kasbiy ta'lim berish alohida e'tiborga loyiqdir.

Kasbiy ta'lim va o'qitishning umumiy faoliyat bilan bog'liqligi N.P.Anisimov, S.A. Belichev, A.A. Uvarov, A.A. Krivoщekov, O.P. Mitroshkin, V.A. Polyakov, M.N. Skatkin, S.M. Shabolov, S.G.Shapovalenko, A.A. Shiyanov va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. M.G.Davletshin, K.SH.Ahiyarov, A.G'.Ahmatov, A.A.Vasilev, L.Y.Goryakin, N.A. Temin, L.D. Chernishenko va boshqalar texnologik talim, ijtimoiy foydali, umumiy mehnat jarayonida

o’quvchilarni tarbiyalash va hayotga tayyorlash muammosini tadqiq qilganlar. N.N.Antipovich, Y.K. Vasilyev, B.G.Buxalov, A.I.Vorobyov va boshqalarning asarlarida umumiy mehnatni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik masalalari yoritilgan. Biz respublikamizda qator umumiy o’rta ta’lim maktablarining texnologik talim, mehnatga oid ishlar natijalari bilan tanishdik. So’nggi yillarda o’tkazilgan tadqiqotlar natijalari umumiy mehnatga yondashuvning ahamiyatli ekanligini aniqladi.

XULOSA

Yuqorida tilga olingan tadqiqotchilarning ishlaridan ma’lum bo’lishicha, so’nggi paytlarda o’quvchilarga umumiy mehnat jarayonida kasbiy ta’lim berish muammolarini ishlab chiqishga e’tibor kuchaygan: tegishli tushunchalar ishlab chiqilgan, yo’nalishlar belgilangan, kasbiy asosda texnologik talim bilan umumiy mehnatni o’zaro bog’lashning samarali vositalari aniqlangan. Shu bilan birga tahlillar natijasida o’quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishiga, shuningdek, uning kasbiy moyilligida umumiy mehnatning rolini aniqlash bilan bog’liq muammo hozirga qadar mukammal yoritilmagani ma’lum bo’ldi. Shuning uchun ham, umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilarning kasbga moyillikini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratiladi. Biznikcha, bugungi asosiy sabablar: texnologik talim jarayonida va o’zini anglash jarayonida umumiy mehnatni tashkil etishning qiyinligi, ayrim maktab rahbarlari, texnologik talim o’qituvchilari umumiy mehnatga yetarli e’tibor bermasligi; umumiy mehnat jarayonining uzluksizligi ta’minlanmasligidan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni
2. 2024 yil 1 fevraldagi «Pedagogning maqomi» to‘g‘risidagii O‘RQ-901 son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. https://lex.uz/docs/-6786401
3. Актуальные проблемы психологии труда и развития. – СПб. : Балтийская педагогическая академия, 2003. С. 5-10.
4. Алєксєєва С.В. Наукові теорії розвитку професійної кар’єри в сучасних концепціях професійної педагогіки / С.В. Алєксєєва // Сучасні інформаційні технології та інноваційні методики навчання у підготовці фахівців: методологія, теорія, досвід, проблеми. - 2014. - Вип. 38. - С. 100-103.
5. Арендачук И. В. Риски профессионального самоопределения старшеклассников: психолого-педагогический аспект // Известия Ст.У. 2016. №1. С.70-77.
6. Арон, И.С. Личностное развитие и профессиональное самоопределение одарённого ребёнка в этнокультурном образовательном пространстве школы / И.С. Арон. – Йошкар-Ола: Марийский институт образования, 2011. – 136с.

O‘SMIRLAR AGRESSIYASINING IJTIMOIYLASHUVIGA TA’SIRINI XALQARO TADQIQOTLARDA O‘RGANILISHI

Rajabboyev Asror Alisherovich-
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Elektron pochta: asror@urdu.uz

Annotatsiya: *Mazkur tezisda o‘smirlar agressiyasi va o‘smirlar ijtimoiylashuv jarayonlari o‘rtasidagi munosabatni xalqaro tadqiqotlar nuqtai nazaridan keng qamrovli tahlil qiladi. O‘smirlik davrida tajovuzkor xulq-atvorning paydo bo‘lishiga ta’sir etuvchi biologik, psixologik va ijtimoiy omillar, shuningdek, ijtimoiylashuvning ushbu jarayonga ta’siri xalqaro psixologik adabiyotlar asosida o‘rganiladi. Tadqiqotlarda qo‘llanilgan metodlar, empirik natijalar, agressiyani boshqarish strategiyalari va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. G‘arb (AQSh, Yevropa) va Sharq (Xitoy, Janubiy Koreya) mamlakatlaridagi yondashuvlar solishtirilib, madaniy farqlarning roli ta’kidlanadi. Ishning maqsadi – o‘smirlarning ijtimoiy integratsiyasini yaxshilash va agressiv xulq-atvorning oldini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlar, agressiya, ijtimoiylashuv, xalqaro tadqiqotlar, psixologik yondashuvlar, madaniy farqlar, ijtimoiy ko‘nikmalar, agressiyani boshqarish, empirik tahlil, korreksiya dasturlari, maktab muhiti, oila ta’siri*

Аннотация: *Данная тезисная работа представляет собой всесторонний анализ взаимосвязи между агрессией подростков и процессами социализации с точки зрения международных исследований. Изучаются биологические, психологические и социальные факторы, влияющие на проявление агрессивного поведения в подростковом возрасте, а также влияние социализации на данный процесс на основе международной психологической литературы. Рассматриваются методы, использованные в исследованиях, эмпирические результаты, стратегии управления агрессией и способы развития социальных навыков. Сравниваются подходы стран Запада (США, Европа) и Востока (Китай, Южная Корея), подчеркивается роль культурных различий. Цель работы – разработка практических рекомендаций по улучшению социальной интеграции подростков и профилактике агрессивного поведения.*

Ключевые слова*: подростки, агрессия, социализация, международные исследования, психологические подходы, культурные различия, социальные навыки, управление агрессией, эмпирический анализ, коррекционные программы, школьная среда, влияние семьи.*

Abstract: *This thesis provides a comprehensive analysis of the relationship between adolescent aggression and socialization processes from the perspective of international research. It examines the biological, psychological, and social factors influencing the emergence of aggressive behavior during adolescence, as well as the impact of socialization on this process, based on international psychological literature. The study reviews the methods used, empirical findings, aggression management strategies, and ways to develop social skills. Approaches from Western (USA, Europe) and Eastern (China, South Korea) countries are compared, highlighting the role of cultural differences. The aim of the work is to develop practical recommendations for improving adolescent social integration and preventing aggressive behavior.*

Keywords*: adolescents, aggression, socialization, international research, psychological approaches, cultural differences, social skills, aggression management, empirical analysis, correctional programs, school environment, family influence.*

Kirish. O‘smirlik davri inson hayotida shaxsiyatning shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari uchun muhim bosqich hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu davrda agressiv xulq-atvor ko‘pincha jiddiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Agressiya nafaqat o‘smirning o‘ziga, balki uning atrofidagi ijtimoiy muhitga – oila, maktab va tengdoshlar guruhiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro tadqiqotlar ushbu muammoning kelib chiqish sabablarini tushunish va ijtimoiylashuv jarayonlari orqali uni boshqarish yo‘llarini topishga qaratilgan. Ushbu tezisda xalqaro psixologik adabiyotlar asosida o‘smirlar

agressiyasi va ijtimoiylashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi, turli mamlakatlardagi yondashuvlar solishtiriladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Agressiya tushunchasi psixologik adabiyotlarda turli nuqtai nazardan o‘rganilgan. J. Dollard va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan frustratsiya-agressiya nazariyasi agressiyani tashqi omillar, xususan, maqsadlarga erishishdagi to‘siqlar natijasida kelib chiqadigan emotsional reaksiya sifatida talqin qiladi [1]. A. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasida tajovuzkor xatti-harakatlarning atrof-muhit, xususan, oila, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalari orqali o‘rganilishi va taqlid qilinishi jarayonlarini ta’kidlaydi [2]. G‘arb mamlakatlarida, masalan, AQSh va Yevropada kognitiv-xulq-atvor yondashuvlari keng qo‘llaniladi, bunda agressiya o‘smirning o‘ziga xos idrok va xulq-atvor shakllariga bog‘liq deb hisoblanadi. Sharq mamlakatlarida, xususan, Xitoy va Janubiy Koreyada madaniy va kollektivistik qadimiyatlarning ta’siri ustunlik qiladi, bu esa agressiyaning namoyon bo‘lish shakllariga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi.

Agressiyaga ta’sir etuvchi omillar. Xalqaro tadqiqotlar agressiv xulq-atvorning shakllanishida uchta asosiy omillar guruhini aniqlaydi: biologik, psixologik va ijtimoiy. **Biologik omillar**: Genetik omillar va gormonal o‘zgarishlar o‘smirlik davrida agressiyaning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Neyropsixologik tadqiqotlar miya tuzilmalari, xususan, amigdala va prefrontal korteksning rolini ko‘rsatadi. **Psixologik omillar**: Stress, o‘zini past baholash va emotsional beqarorlik agressiyaning psixologik asoslari sifatida xalqaro tadqiqotlarda qayd etilgan. Masalan, o‘smirlarning o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlari va ichki ziddiyatlari tajovuzkor xatti-harakatlarning kuchayishiga olib keladi.

Ijtimoiy omillar: Oila muhiti, qattiq yoki beparvo tarbiya uslublari, tengdoshlarning salbiy ta’siri va ommaviy axborot vositalaridagi zo‘ravonlik mazmuni agressiyani rag‘batlantiradi. AQShda o‘tkazilgan tadqiqotlar media zo‘ravonligining o‘smirlar xatti-harakatlariga ta’sirini isbotladi [3]. Xitoyda esa ota-ona tarbiyasi uslublarining, xususan, qattiq intizomning agressiyaga ta’siri o‘rganilgan [4].

Ijtimoiylashuvning o‘smirlar agressiyasiga ta’siri. Ijtimoiylashuv o‘smirlarning ijtimoiy muhitga moslashuvi, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi va munosabatlarni rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy ijtimoiy muhit agressiyani kamaytirishga yordam beradi.

Yevropa tadqiqotlari: Yevropada, xususan, Buyuk Britaniya va Germaniyada maktab muhitida ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish dasturlari keng tarqalgan. Bu dasturlar o‘smirlarning empatiya, kommunikatsiya va nizolarni hal qilish qobiliyatlarini oshiradi [5]. Meta-tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bunday dasturlar nafaqat agressiyani kamaytiradi, balki ijtimoiy integratsiyani ham yaxshilaydi. **Osiyo tajribasi**: Xitoy va Janubiy Koreyada jamoaviy qadimiyatlar va guruh ichidagi hamkorlik agressiyani boshqarishda samarali ekanligi isbotlangan. Masalan, kollektivistik madaniyatda o‘smirlar guruh ichidagi ijobiy munosabatlarga intiladi, bu esa tajovuzkor xatti-harakatlarning kamayishiga olib keladi.

Agressiyani o‘lchash va diagnostika usullari. Xalqaro tadqiqotlar agressiv xulq-atvorni o‘lchash uchun turli psixodiagnostik usullarni qo‘llaydi. Eng keng

tarqalgan usullardan biri Bass-Darki so‘rovnomasi bo‘lib, u jismoniy agressiya, og‘zaki agressiya, g‘azab va dushmanlik kabi ko‘rsatkichlarni baholaydi. Yevropada va AQShda bu usul keng qo‘llaniladi, ammo madaniy farqlar tufayli Sharq mamlakatlarida moslashtirilgan shakllari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, o‘smirlarning xatti-harakatlarini kuzatish va ota-onalar, o‘qituvchilar bilan suhbatlar orqali ma’lumot to‘plash usullari ham qo‘llaniladi. Empirik tadqiqotlar agressiyaning turlari va ularning ijtimoiylashuvga ta’sirini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. **Agressiyani boshqarish strategiyalari.** Xalqaro tajriba agressiyani boshqarish uchun quyidagi strategiyalarni taklif qiladi:

Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi: AQSh va Yevropada keng qo‘llaniladigan usul bo‘lib, o‘smirlarning salbiy fikrlash shakllarini o‘zgartirish va xatti-harakatlarini boshqarishga yordam beradi. **Emotsional regulyatsiya treninglari**: G‘azab va stressni boshqarish bo‘yicha maxsus dasturlar o‘smirlarning emotsional barqarorligini oshiradi.

Maktab dasturlari: Avstraliya va Kanada tadqiqotlari maktabda “Agressiyani boshqarish” dasturlarining samaradorligini ko‘rsatdi [6]. Bu dasturlar o‘smirlar orasida zo‘ravonlik va nizolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda, mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, Yaponiyada guruh terapiyasi va jamoaviy mashg‘ulotlar agressiyani kamaytirishda samarali ekanligi isbotlangan.

Ijtimoiylashuvni rivojlantirish usullari. Ijtimoiylashuvni yaxshilash uchun xalqaro tadqiqotlar quyidagi usullarni taklif qiladi:

Oila muhitini yaxshilash: Ota-ona va o‘smir o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar tajovuzkor xatti-harakatlarning kamayishiga yordam beradi. Oila terapiyasi AQSh va Yevropada keng qo‘llaniladi. **Maktab dasturlari**: Ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish, masalan, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va empatiya kabi qobiliyatlarni rivojlantirish dasturlari Yevropada muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan [5].

Jamoa asosidagi yondashuvlar: Osiyo mamlakatlarida jamoaviy mashg‘ulotlar, masalan, guruh loyihalari va sport tadbirlari o‘smirlarning ijtimoiy integratsiyasini oshiradi. Ushbu usullar madaniy va ijtimoiy kontekstga qarab moslashtirilishi kerak, chunki turli mamlakatlarda ijtimoiylashuv jarayonlari turlicha kechadi.

Xulosa va tavsiyalar. O‘smirlar agressiyasi va ijtimoiylashuvi bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tajovuzkor xulq-atvorning oldini olish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda, oila, maktab va jamoa muhitida ijobiy munosabatlar va dasturlarni joriy etish agressiyani kamaytirishga yordam beradi. Xalqaro tajribaga asoslanib, quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Oila va maktab muhitida ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish dasturlarini joriy etish.
2. Agressiyani boshqarish uchun kognitiv-xulq-atvor terapiyasi va emotsional regulyatsiya treninglarini qo‘llash.

3. Madaniy farqlarni hisobga olgan holda, mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish. Kelajakdagi tadqiqotlar madaniy xususiyatlar va uzoq muddatli natijalarni o‘rganishga qaratilishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dollard, J., Doob, L.W., Miller, N.E., Mowrer, O.H., Sears, R.R. (1939). Frustration and Aggression. New Haven: Yale University Press.
2. Bandura, A. (1973). Aggression: A Social Learning Analysis. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
3. Anderson, C.A., Berkowitz, L., Donnerstein, E., et al. (2003). The influence of media violence on youth. Psychological Science in the Public Interest, 4(3), 81-110.
4. Xu, Y., Farver, J.A. M., Zhang, Z. (2009). Temperament, harsh and indulgent parenting, and Chinese children’s proactive and reactive aggression. Child Development, 80(1), 244-258.
5. Durlak, J.A., Weissberg, R.P., Dymnicki, A.B., Taylor, R.D., Schellinger, K.B. (2011). The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. Child Development, 82(1), 405-432.
6. Farrington, D.P., Ttofi, M.M. (2009). School-based programs to reduce bullying and victimization. Campbell Systematic Reviews, 5(1), 1-148.

THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL TRAINING IN SPORTS ACTIVITIES

Rahmonov Muzaffar Usmonboyevich

Teacher of the Department of Sports Activities and Physical Culture, Namangan State University

E-mail: *muzaffar_rahmonov@mail.ru Tel: +998939410606*

Ortikboeva Rayhona and Kayumova Sarvinoz

Department of Sports Activities (Athletics) Namangan State University

3rd year students

Abstract: *This article analyzes a number of scientific studies, new information, and literature on the role and importance of psychological preparation in sports activities.*

Keywords: *psychological functions, psychodiagnostics, psychological training, motivation, reflexes, etc.*

Аннотация: *В статье анализируется ряд научных исследований, новой информации и литературы о роли и значении психологической подготовки в спортивной деятельности.*

Ключевые слова: *психологические функции, психодиагностика, психологическое обучение, мотивация, рефлексы и др.*

Annotatsiya: *maqolada sport faoliyatida psixologik tayyorgarlikning roli va ahamiyati to'g'risida bir qator ilmiy tadqiqotlar, yangi ma'lumotlar va adabiyotlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *psixologik funktsiyalar, psixodiagnostika, psixologik o'rganish, motivatsiya, reflekslar va boshqalar.*

Introduction. Sports activities are very specific: they differ significantly from other types of activities, firstly, in goals, and secondly, in ways to achieve them.

The sphere of sports activities includes: preparation for competitions (training) and participation in them, communication within sports teams or groups and their management, which require special knowledge and skills. Therefore, in sports psychology, such sections as training and education in sports; physical, technical and tactical training of athletes; psychological characteristics of the

personality of an athlete, coach, sports team leader, sports team psychology, psychodiagnostics and sports mental hygiene, etc.

The specifics of the coach's work are primarily related to the goal set before him - the achievement of high sportsmanship by his students as a result of many years of training. To understand the psychological characteristics of successful sports activity, one of its most important factors is to understand the essence of the coach's personality. He was shown either as a dogmatic and harsh person who sought to instill the same qualities in his subordinate athletes, or as a loser with a whistle on his neck. In some cases, it was a portrait of a brave knight with a strong will and high moral principles, ready to protect his students from deception, prepare them for life. To form positive character traits in them and instill determination in their activities.

The study of the personality of a coach began in the middle of the 20th century. A number of psychologists have made a significant contribution to the study of this issue. In the late 60s in England, the Englishman Gendry tried to identify the personal qualities necessary for an ideal coach, and for this he interviewed athletes and coaches themselves. Ogilvy and Tatko studied the character traits of a coach. Researchers such as M. Mosston, John Loy, John Wooden, Barry Hussman, Neil and a number of other foreign psychologists made a significant contribution to the study of the personality of a coach.

Main part. Psychological support of sports activities includes a set of psychological functions in the activities of a coach, psychologist, athlete in order to optimize this activity. Psychological functions in a sports team can be performed by:

1. Coach (if he has the appropriate education, knows the methods of diagnosis and influence).

2. Sports psychologist.

3. Coach and psychologist in one person or in close cooperation.

The tasks of psychological support for sports activities include:

1. Diagnosis of mental processes, states and personal characteristics of athletes and sports coaches.

2. General psychological preparation - preparation for various situations associated with playing sports. It includes a wide range of tasks that the daily life of a sports team requires.

3. Special psychological preparation - preparing an athlete (or coach) for a specific training, competition, assisting an athlete in a specific extreme or difficult situation.

Each of the tasks includes a number of more specific tasks.

Psychodiagnostics is a study aimed at solving practical problems, since in order to influence a person, to successfully solve problems related to his psychological preparation, it is necessary to study him.

The tasks of psychodiagnostics:

1. Implementing an individual approach to the athlete in training and competition conditions, taking into account his personal characteristics.

2. Implement a differentiated approach to training athletes, divided into groups where different impact measures are applied for any reason.

3. Provide psychological recommendations to the athlete and coach to optimize the athlete's training in order to increase his performance.

4. The future athlete's orientation to sports, the role of sports and the definition of an athlete completing his sports career.

5. Selection at different stages of athlete training:

- selection in sports (general concept);
- selection in a specific sport;
- selection for specific competitions;
- selection for a specific competitive performance.

General psychological preparation of athletes and sports teams - psychological impact on the athlete, coach and sports team in order to optimize competitive performance and improve sports results.

General psychological preparation tasks:

1. The formation of vital and sporting qualities in athletes should affect the entire psyche:

- at the level of mental processes, especially in childhood, there is a general formation of the mind (improvement of the quality of perception, thinking and memory);
- at the level of mental states, it is necessary to form a general emotional resistance to negative influences, to increase the quality of adaptation to them;
- at the level of personality traits, first of all, volitional qualities (determination, self-control, independence, courage, purposefulness), personal activity, motivation for success, self-confidence, optimal self-esteem, high self-control, etc.

Thus, it is necessary to form a flexible personality that can quickly adapt to changing and increasingly complex conditions with minimal cost, while improving the quality of activity.

2. Formation and maintenance of motivation for sports activities.

3. Improvement of the mechanisms of regulating the athlete's psyche in order to increase performance in difficult competition conditions with minimal losses (training the athlete to regulate his pre-competition state).

4. To form an adequate attitude in athletes to sports life, in particular:

- to training loads;
- to the sports regime;
- to the conditions of the competition;
- to their psychophysiological state;
- to sports successes and failures;
- to the coach, etc.

5. Creating a favorable psychological climate in the sports team (forming optimal interpersonal relationships).

6. Assisting coaches in teaching sports exercise techniques.

7. Assisting athletes and coaches in giving up bad habits.

Special psychological preparation of athletes and coaches - management of the state and behavior of the athlete (and sometimes the coach) during the training process and during competitions. The less general psychological preparation, the more important - special.

The tasks of special psychological training:

1. For training.
2. For a specific competition.
3. For a specific performance during a competition.
4. Secondary (interaction during performance).
5. Help recover after training or competition.
6. Help experience success or failure in competition.

Of course, it is impossible to cover the entire diversity of pedagogical activity in these 18 tasks, summarized in 3 groups. Nevertheless, the proposed list, including most of them, can serve as a starting point for planning psychological activities for both the psychologist himself and the coach who performs his functions. The means of solving these problems should form the basis of the psychological education of teachers, as well as their professional development.

The structure of a trainer's pedagogical activity includes the following elements: motivation - means - result.

Motivation includes needs, motives, orientations, and value orientations.

Successful coaches are characterized by high levels of the following motivational indicators:

- the need for professional activity;
- motivations for achievement (instead of avoiding failure);
- focus on relationships with other people and the activity itself (not on oneself);
- value orientations - "interesting work", "personal growth", "interpersonal relations and communication", "professional qualities", "glory".

Psychological means of activity form two substructures:

- coaching abilities (skills - knowledge, abilities and professionally important qualities - cognitive processes, temperamental traits, character traits);
- methods of activity (its strategies and individual styles). The result of professional activity includes:
- success - according to indicators of assessing the product of the coach's activity - educational, educational, health-improving and competitive, job satisfaction.

Conclusion. An athlete of any level - from a beginner to a high-class master - increases his skills and physical fitness in conditions of overload of the nervous and physiological systems. A high level of physical fitness can be achieved only with full understanding and cooperation between the coach and the athlete.

Some authors and researchers have tried to give approximate answers to the following questions: Is there an ideal coach personality? How do students perceive the personal characteristics of the coach? What important qualities should a coach of a successful athlete have.

LITERATURE
1. Бабушкин Г. Д. Психология – спорту / Г. Д. Бабушкин, В. Н. Смоленцева. – Омск : СибГАФК, 1998.
2. Смоленцева, В. Н. Психическая саморегуляция в процессе подготовки спортсменов : монография / В. Н. Смоленцева. – Омск : СибГУФК, 2003.
3. Психология физического воспитания и спорта : учебник для физкультурных вузов / под ред. А. В. Родионова. – М., 2004.
4. Kremer J & Scully D (1994) Psychology in sport. London, Taylor & Francis.
5. LeUnes A & Nation JR (2002) Sport psychology. Pacific Grove, CA, Wadsworth
6. Masharipov Y. Sport psixologiyasi fanidan o‘quv qo‘llanma. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nash- riyoti, 2010.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Otabek Abduraxmonov
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: *Kommunikativ ko‘nikmalar bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Kommunikativ ko'nikmalar — bu insonlarning bir-birlariga ma'lumot etkazish, axborot almashish, tushunish, xulq-atvorni boshqarish, turli vaziyatlarda moslashish va muvaffaqiyatli ijtimoiy muloqot o'rnatish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar majmuasidir.*

Kalit so’zlar: *Kommunikatsiya, rivojlantirish, shakllantirish, integratsiya, muloqot, jamoa, hamkorlik, emotsional, kognitiv, ijtimoiy, ob'ekt, kompleks, bog‘liqlik, kombinatsiya, sezgilar, empatiya, aloqa, o'yin, faoliyat, axloq, sabr-toqat, ishonch ijodkorlik, qo‘llab-quvvatlash, muvaffaqiyat, raqobatbardoshlilik, muammolar.*

Аннотация: *Коммуникативные навыки открывают ребёнку путь ко всем достижениям человеческой культуры. Самые важные этапы развития коммуникативных навыков приходятся на дошкольный возраст. Коммуникативные навыки — это совокупность способностей, необходимых для передачи информации друг другу, обмена сведениями, взаимопонимания, управления поведением, адаптации к различным ситуациям и успешного социального взаимодействия.*

Ключевые слова: коммуникация, развитие, формирование, интеграция, общение, сообщество, сотрудничество, эмоциональное, когнитивное, социальное, объектное, сложное, зависимость, комбинация, чувства, сочувствие, общение, игра, деятельность, этика, терпение, уверенность, творчество, поддержка, успех, конкурентоспособность, проблемы.

Annotation: *Communicative skills open the way for a child to all the achievements of human culture. The most important stages of developing communicative skills correspond to the preschool age. Communicative skills are a set of abilities necessary for people to convey information to one another, exchange data, understand each other, manage behavior, adapt to various situations, and establish successful social interaction.*

Keywords: *Communication, Development, formation, integration, communication, community, collaboration, emotional, cognitive, social, object, complex, dependency, combination, senses, empathy, communication, play, activity, ethics, patience, trust creativity, support, success, competitiveness, problems.*

KIRISH: Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma’naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan

yoshlarga bog‘liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, har bir jamiyatning, ayniqsa, ta’lim-tarbiya tizimining ustuvor vazifasi bo‘lishi lozim. Zero, bugungi kunda yoshlarga berilayotgan bilim, tarbiya va ma’naviy ko‘mak ertangi kunimizning poydevorini belgilaydi. Shu boisdan, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni milliy g‘urur va yuksak axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalash, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish – davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy jamiyatda har bir insonning shaxs sifatida kamol topishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va muvaffaqiyatli muloqot qila olishi — uning kommunikativ kompetensiyasi darajasiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, bu ko‘nikmalarni erta yoshda, ya’ni maktabgacha davrdayoq shakllantirish katta ahamiyatga ega. Chunki aynan shu davr bolaning psixologik, nutqiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishi uchun eng qulay va sezgir bosqich hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimi sharoitida bolalarda til va nutq rivojiga e’tibor qaratish, ularni boshqalar bilan muloqotga kirishishga o‘rgatish, fikrini erkin ifoda eta olishiga sharoit yaratish orqali ularning kommunikativ ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin. Bu ko‘nikmalar esa bola tomonidan nutqiy vositalar yordamida fikr bildirish, eshitish va tushunish, o‘zaro aloqaga kirishish, shuningdek, ijtimoiy muhitda erkin harakat qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanishi nafaqat bolaning nutqiy salohiyatini, balki uning tafakkur darajasi, shaxslararo munosabatlardagi muvaffaqiyati va kelajakdagi ta’lim jarayonidagi faolligini belgilab beradi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim tizimining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalar (ya'ni, muloqot qilish, fikr almashish, eshitish va tushunish, so‘z bilan ifoda etish) bosqichma-bosqich rivojlanadi. Quyida ularning rivojlanish bosqichlari keltirilgan:

Go‘daklik davri (0–1 yosh) asosiy xususiyatlari:

- ✓ Muloqot ovozlar (qiyqirish, yig‘i, jilmayish) orqali sodir bo‘ladi.
- ✓ Ona yoki parvarish qiluvchining yuz ifodalariga va ohangiga javob qaytaradi.
- ✓ 6 oy atrofida babillash (bir xil bo‘g‘inlarni takrorlash) boshlanadi.
- ✓ Eshitish orqali so‘zlarni eslab qolish, tanish tovushlarga javob berish yuzaga chiqadi.

Bolalik davri (1–3 yosh) asosiy xususiyatlari:

- ✓ So‘z boyligi shakllana boshlaydi, oddiy so‘zlar aytiladi.
- ✓ "Men", "ber", "yo‘q", "bu nima?" kabi iboralar ishlatiladi.
- ✓ Ijtimoiy muloqotga qiziqish ortadi: kattalarning nutqini kuzatish, taqlid qilish.
- ✓ So‘zlar orqali ehtiyojlarini ifoda etishga harakat qiladi.

Maktabgacha yosh davri (3–6 yosh) asosiy xususiyatlari: asosiy xususiyatlar:

- ✓ Gaplar tuzish boshlanadi: "Men bormoqchiman", "Bu mening o‘yinchog‘im".
- ✓ “Nega?”, “Qanday?” kabi savollar ko‘payadi.
- ✓ O‘z fikrini oddiy jumlalar orqali ifoda etish imkoniyati paydo bo‘ladi.
- ✓ O‘yinlar orqali muloqotga kirishish ko‘nikmalari shakllanadi.

- ✓ Gap tuzilmasi murakkablashadi, sabab-oqibat munosabatlarini tushuntirishga harakat qiladi.
- ✓ Dialog shaklidagi muloqotga kirisha oladi.
- ✓ Fantaziya va tasavvur orqali hikoya yoki ertaklar aytib berish boshlanadi.
- ✓ Muloqot jarayonida boshqa bolalar bilan til topisha boshlaydi.
- ✓ Nutq orqali ijtimoiy rollarni bajara oladi (masalan, o‘qituvchi, do‘st, shifokor kabi).
- ✓ Hikoya tuzish, sabab va izoh berish ko‘nikmalari rivojlangan bo‘ladi.
- ✓ Dialog va monolog shaklida so‘zlashish mumkin.
- ✓ Til va nutq vositalarini ijtimoiy kontekstda to‘g‘ri qo‘llay oladi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim yoshdagi bola kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida nafaqat so‘z boyligini oshiradi, balki ijtimoiy munosabatlar, fikrlarni tartibga solish va o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish ko‘nikmalarini ham egallaydi.

Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati:

Bolalar jamiyatdagi o'zgaruvchan sharoitlarga, turli guruhlar va madaniyatlarga moslashish uchun kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak. Misol uchun, turli muloqot uslublari, tilni to'g'ri va samarali ishlatish ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishni ta'minlaydi. Bola o'zining hissiy holatini, ijtimoiy kontekstni va boshqalarning ehtiyojlarini tushunib, ularga mos ravishda javob bera olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Kommunikativ qobiliyatlar bolalarga turli odamlar bilan samarali muloqot qilish, fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalash, boshqalar bilan hamjihatlikda ishlash, balki do'stlik, oilaviy munosabatlar, kelajakdagi ish faoliyatida va muammolarni hal qilishda ham katta rol o'ynaydi. O'z fikrini aniq va tushunarli ifodalash, tinglash va boshqalar bilan to'g'ri muloqot qilish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bu bilan birga, yaxshi kommunikatsiya bolalarga o'zaro hurmatni, sabr-toqatni va boshqalar bilan samarali ishlashni o'rgatadi.

Maktabgacha ta'limda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerak, chunki bu bolalar kelajakda muvaffaqiyatli ta'lim olishlari va ijtimoiy hayotda o'zlarini erkin ifodalashlari uchun muhim poydevor bo’ladi.

Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ota-ona, tarbiyachilar, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishlari, ularga o'z fikrlarini ifodalash va boshqalarni tinglashni rag'batlantirishi kerak. Ular bolalarni suhbatlarga jalb qilish, savollar berish, turli hil o'yinlar va birlamchi boshlang’ich faoliyatlar orqali ijtimoiy aloqalarni yaxshilashga yordam berishidan tashqari, bolalarga o'zaro hurmat, jamoa bilan ishlash qobiliyati, empatiya, va o'zini ifoda etishdagi ishonchni oshirishga yordam beradi. Bu ko'nikmalar, ularning sog'lom ijtimoiy munosabatlar o'rnatishiga va jamiyatda faol ishtirok etish uchun zarurdir. Bola uchun bu jarayon juda muhim, chunki ularning fikrlash, hissiyotlarini ifodalash va o'zaro muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu o'z-o'zini hurmat qilish, boshqalar bilan muloqotda bo'lishda o'zini ishonchli his qilishga yordam beradi. Muloqot orqali bolalar o'zlarining ehtiyojlarini, istaklarini va fikrlarini to'g'ri va aniq ifodalashni o'rganadilar, bu esa ular uchun sog'lom ijtimoiy aloqalar o'rnatishda muhimdir. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, bolalarga boshqa odamlar bilan

samarali va muammosiz aloqa qilish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy, emotsional va intelektual rivojlanishi hamda bolaning keyingi rivojlanish davrlari uchun juda zarur. Bu ijtimoiy jarayonlar bolalarda ko'pincha, kattalarning muloqot qilish tarzini kuzatib, o'zlari ham shu tarzda gapirishni va o'z fikrlarini ifodalashni o'rganadilar.

To'g'ri muloqot namunasi ko'rsatish:

Kattalar bolalarga qanday gapirishni o'rgatishda kattalar o'zlarining muloqot usullarini namoyish etishlari kerak. Agar ota-onalar yoki tarbiyachilar o'z fikrlarini aniq, hurmat bilan, boshqalarni tinglayotgan holda va soda, ravon va chiroyli til bilan ifodalashsa, bolalar ham shunga o'xshash usullarni o'rganadilar.

Sabr-toqatli va qulay muhit yaratish:

Bolalar o'z fikrlarini erkin va noxush vaziyatlarga tushmasdan ifodalashlari uchun ularga qulay muhit yaratish kerak. Sabr bilan tinglash, bolalarning so'zlarini bo'lib qo'ymaslik, ularni tushunishga harakat qilish, ularning ishonchini oshiradi va muloqotga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi.

Savollar berish va tinglash:

Muloqotning samarali bo'lishi uchun kichik savollar berish va bolalarning javoblarini to'liq tinglash juda muhim. Bu bolalarga fikrlarini ifodalash imkonini beradi va ular o'zlarini tinglanayotganini sezadilar, bu esa ishonchni oshiradi. Masalan, "Nima uchun shunday deb o'ylaysan?" yoki "Buning o'rniga nima qilishni xohlagan bo'larding?" kabi savollar bolalarni fikrlashga va muloqotga jalb etadi.

Hissiyotlarni ifodalashni o'rgatish:

Bolalar o'zini hissiyotlarini to’g’ri ifodalashni o'rganishlari kerak. Kattalar ularga qanday qilib "Men xursandman", "Men g'azablandim", "Men qo'rqaman" kabi sodda va aniq iboralar bilan his-tuyg'ularini bildirishi mumkinligini ko'rsatishlari kerak. Bu bolalarga o'z hissiyotlarini boshqalar bilan o'rtoqlashishda yordam beradi.

Tinglash va tushunish:

Samarali muloqot faqat gapirishni emas, balki tinglashni ham talab qiladi. Kattalar bolalarga tinglashning muhimligini o'rgatishlari kerak. Masalan, "Men seni tinglayapman" yoki "Sening gaplaringni eshitish menga juda qiziqarli" kabi muloyim iboralar bolalarga o'z fikrlarini bildirganida hurmat va e'tibor sezdiradi.

Motivatsiya va rag'batlantirish:

Kattalar bolalarining muloqot qilishga bo'lgan ishtiyoqini rag'batlantirishlari lozim. Ularning har bir ijobiy va aniq muloqoti uchun iliq so'zlar yoki kichik rag'batlar (masalan, "Ajoyib!" yoki "Yaxshi fikr bildirding!") bolalar o'zlarini erkin va o'ziga ishonch bilan ifodalashlariga yordam beradi.

Muloqotda o'rganiladigan qoidalarga rioya qilish:

Kattalar bolalariga muloqotda muhim qoidalarni o'rgatishlari kerak, masalan:

a) Gapirishdan oldin boshqalarni tinglash
b) Hurmat ko'rsatish
c) Fikrlarni muloyim va aniq ifodalash
d) Tushunmovchiliklar bo'lsa, savollar berish

Ijtimoiy o'yinlar va guruh faoliyatlari:

Bolalarga ijtimoiy o'yinlar, guruhli faoliyatlar yoki rolli o'yinlar orqali muloqot ko'nikmalarini o'rganish imkoniyatini yaratish kerak. Bunday o'yinlar bolalarga boshqalar bilan muloqot qilishni, fikrlarni almashishni, birgalikda muammolarni hal qilishni o'rgatadi.

Hikoyalar va kitoblar o'qish:

Kitoblar va hikoyalar orqali bolalar yangi so'zlar va iboralarni o'rganishadi, shuningdek, biror mavzuda fikr bildirishni o'rganadilar. Kattalar bolalar bilan hikoyalarni o'qib, mazmuni bo'yicha savollar berishlari va bolalar o'z fikrlarini aytishsa rag'batlantirishlari mumkin. Kattalarning bolalarga muloqot ko'nikmalarini o'rgatishda eng muhim jihat bu: bolalarga qiziqarli va ochiq muhit yaratish, ular erkin fikr bildirishi va boshqalar bilan samarali muloqot qilishga o'rganishlari uchun imkoniyatlar taqdim etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusufov, N. (2016). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish*. Toshkent: O’zbekiston psixologlar uyushmasi.
2. Mirzayeva, N. (2017). *Bolalar psixologiyasida kommunikativ rivojlanish*. Toshkent: Ta'lim va ma'naviyat.
3. Raxmonov, D. (2018). *Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik yondashuv*. Toshkent: Ta'lim va rivojlanish.
4. Jabborov, F. (2012). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish*. Toshkent: Maktab.
5. Toshpulatova, F. (2013). *Maktabgacha ta'limda o'quvchilarni kommunikativ ko'nikmalar bilan ta'minlash*. Toshkent: Fan va ta'lim.
6. Shodiev, S. (2013). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik asoslari*. Toshkent: O’zbek davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
7. Shuxratov, I. (2018). *Maktabgacha ta'limda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik metodlari*. Toshkent: O’zbekiston ta'limi.
8. G'ulomova, S. (2014). *Bolalar psixologiyasida kommunikatsiya va uning ijtimoiy-psixologik tahlili*. Toshkent: Maktab.
9. Saidova, Z. (2015). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik ahamiyati*. Toshkent: Fan va ta'lim.
10. Shamsutdinov, R. (2016). *Bolalarda til va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga oid yangi yondashuvlar*. Toshkent: O'zbekiston ta'limi.
11. Mahmudova, D**.** (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari. *Nordic Studies in Academic Research*, 3(0003).
12. Xasanova, Sh. T., & Zufarova, L. T. (2025). Teatr o’yinlari orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantirish. *Лучшие интеллектуальные исследования*.
13. Abdurahmonov, O**.** (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik zarurati. *Zenodo*. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.

AUTIZM SPEKTRIDA BUZILISH ANIQLANGAN BOLALAR TA’LIM TARBIYASIDA OTA-ONALARNING ROLI

Alijonova Shaxzoda Xusanboy qizi

Namangan davlat universiteti 1 kurs magistranti
Nilufar Abdullayeva Sadikjanovna,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dotsent
Masuda Abdullayeva Abdubannayevna,
Pedagogika fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya: *Ushbu maqola Autizm spektrining buzilishi (ASD) tashxisi qo'yilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ota-onalarning muhim rolini o'rganadi. Bu bolalar uchun samarali ta'lim va ijtimoiy integratsiyani ta'minlashda ota-onalarning ishtiroki muhimligini ta'kidlaydi. Tadqiqot ota-onalarning individual ta'lim rejalarini yaratish uchun o'qituvchilar va terapevtlar bilan yaqindan hamkorlik qilishlari zarurligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, maqolada bolaning rivojlanishiga yordam berish uchun muloqotni rivojlantirish, xatti-harakatlardagi muammolarni boshqarish va qo'llab-quvvatlovchi uy muhitini yaratish strategiyalari muhokama qilinadi. Tadqiqot shuni ta'kidlaydiki, ota-onalarning ongli va faol ishtiroki bolaning ASD bilan bog'liq muammolarni hal qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.*

Kalit so'zlar: *autizm spektrining buzilishi, ota-onalar ishtiroki, maxsus ta'lim, bola rivojlanishi, xulq-atvorni boshqarish, individual ta'lim rejasi, ijtimoiy integratsiya, aloqa strategiyalari, qo'llab-quvvatlovchi muhit.*

Аннотация: *в этой статье исследуется важная роль родителей в обучении и воспитании детей с диагнозом расстройство аутистического спектра (рас). В нем подчеркивается важность участия родителей в обеспечении эффективного обучения и социальной интеграции детей. В исследовании подчеркивается, что родителям необходимо тесно сотрудничать с учителями и терапевтами для создания индивидуальных планов обучения. Кроме того, в статье обсуждаются стратегии развития общения, управления поведенческими проблемами и создания благоприятной домашней среды, способствующей развитию ребенка. В исследовании отмечается, что сознательное и активное участие родителей значительно повышает способность ребенка решать проблемы, связанные с РАС.*

Ключевые слова: *расстройство аутистического спектра, участие родителей, специальное образование, развитие ребенка, управление поведением, индивидуальный план обучения, социальная интеграция, коммуникационные стратегии, поддерживающая среда.*

Annotation: *This article explores the important role of parents in the education and upbringing of children diagnosed with Autism Spectrum Disorder (ASD). This emphasizes the importance of parental involvement in ensuring effective education and social integration for children. Research highlights the need for parents to work closely with teachers and therapists to create individualized education plans. In addition, the article discusses strategies for fostering communication, managing behavior problems, and creating a supportive home environment to help children develop. Research suggests that conscious and active parental involvement significantly increases a child's ability to cope with ASD.*

Key words: *autism spectrum disorder, parental involvement, special education, child development, behavior management, individual education plan, social integration, communication strategies, supportive environment.*

Ota-onalarning ASD bilan og'rigan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ishtirok etishi rivojlanish natijalarini yaxshilash, muloqotni yaxshilash va xatti-harakatlarni boshqarishni rag'batlantirishi ko'rsatilgan. Biroq, ko'plab ota-onalar ASD-ga xos strategiyalar haqida cheklangan bilim, resurslardan foydalanish imkoniyati yo'qligi yoki g'amxo'rlik talablari bilan to'lib-toshganlik hissi kabi to'siqlarga duch kelishadi. Ushbu maqola ota-onalarning OITli bolalarni o'qitish va tarbiyalashdagi ko'p qirrali rolini o'rganish, har bir bolaning salohiyatini rivojlantiradigan qo'llab-quvvatlovchi

va inklyuziv muhitni yaratish strategiyalari, muammolari va imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan.[1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot autizm spektrining buzilishi (ASD) bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ota-onalarning muhim rolini ta'kidlaydi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, ota-onalarning faol ishtiroki ASD bilan og'rigan bolalarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ushbu bo'limda asosiy natijalar va ularning oqibatlari muhokama qilinadi.

1. Ta’lim natijalarining yaxshilanishi

Ota-onalari o'z ta'limlarida faol ishtirok etgan bolalar ta'lim natijalarida sezilarli yaxshilanishlarni ko'rsatdilar. Individuallashtirilgan ta'lim rejalarini (IEP) ishlab chiqish va amalga oshirish uchun o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish orqali ota-onalar o'z farzandlarining noyob ehtiyojlarini samarali hal qilishni ta'minladilar.

2. Kengaytirilgan ijtimoiy integratsiya

Ota-onalarning uyda ham, jamoat joylarida ham ijtimoiy o'zaro munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari ASD bilan og'rigan bolalarning tengdoshlari guruhlariga yaxshiroq integratsiyalashuviga yordam berdi. Boshqariladigan o'yin kunlari, rolli o'yin stsenariylari va darsdan tashqari dasturlarda ishtirok etish kabi tadbirlar muloqotni yaxshilashga va izolyatsiya hissini kamaytirishga yordam berdi.

3. Xulq-atvorni boshqarishdagi muvaffaqiyat

Xulq-atvor muammolari ASDning o'ziga xos belgisidir va bu muammolarni hal qilishda ota-onalarning ishtiroki hal qiluvchi rol o'ynadi. Amaliy xulq-atvor tahlili (ABA) yoki ijobiy xatti-harakatlar va qo'llab-quvvatlashlar (PBIS) kabi strategiyalar bo'yicha o'qitilgan ota-onalar bezovta qiluvchi xatti-harakatlarning kamayganligini xabar qilishdi.

4. Ota-ona ishonchini va farovonligini oshirish

Tadqiqotda, shuningdek, ota-onalar ishtirokining o'zaro foydalari qayd etilgan. Farzandlarining ta'limi va terapiyasida faol ishtirok etgan ota-onalar ASD bilan bog'liq muammolarni hal qilishda yuqori darajadagi ishonchni qayd etdilar.[2]

Autizm spektrining buzilishi (ASD) shifokorlar va psixologlar bilan maslahatlashmoqchi bo'lgan oilalarda turlicha namoyon bo'ladi. Bu farqlar turli xil ijtimoiy va ta'lim darajalaridan, oila a'zolarining shaxsiy xususiyatlaridan va bola tomonidan namoyon bo'ladigan turli xil alomatlardan kelib chiqadi. Onalar ko'pincha ASD bilan kasallangan bolalarni reabilitatsiya qilishda asosiy rol o'ynaydi va ularning tajribalari asosida turli guruhlarga bo'linishi mumkin:

O'z farzandining ASD tashxisini yaqinda bilib olgan onalar.

Onalar bolaning ahvolidan kelib chiqqan dastlabki psixologik tanglikni boshdan kechirmoqda.

Tashxisni noto'g'ri tushunib, vaziyatni to'liq tushuna olmaydigan onalar.

Vaziyatni allaqachon qayta ishlagan va kerakli reabilitatsiya tadbirlarini mustaqil ravishda boshqaradigan onalar.

Oiladagi inqirozning og'irligi har doim ham tashxis qo'yilgandan beri qancha vaqt o'tganiga bog'liq emas. Ota-onalarni psixologik yordam so'rashga undaydigan

holatlar ko'pincha bolaning o'ziga xos xatti-harakatlari bilan bog'liq, masalan, hissiy qiyinchiliklar, negativlik, stereotipik xatti-harakatlar, tartibni talab qilish va muloqotdagi qiyinchiliklar. Bundan tashqari, jamiyatda ASD bilan og'rigan bolalarni noto'g'ri tarbiyalash ota-onalarning o'zini o'zi qadrlashi va aybdorlik, uyat va nochorlik hissiyotlarining keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Rasmiy tashxisni olgandan keyin ham, ota-onalar darhol yengillikka duch kelmasligi mumkin, chunki chalkashlik, zarba va kelajakka nisbatan noaniqlik saqlanib qoladi. Bu his-tuyg'ular zarur yordamni tashkil qilish va tegishli uy muhitini yaratish harakatlariga to'sqinlik qilishi mumkin.

Bunday inqirozlardan tiklanish davri ota-onalarning shaxsiy xususiyatlari kabi omillarga qarab juda katta farq qiladi. Biroq, ASD bilan og'rigan bolalarning ota-onalari uchun umumiy qiyinchiliklar qo'rquvni engish, vaziyatni qabul qilish, bolaning ehtiyojlarini tushunish, ijtimoiy izolyatsiyaga dosh berish va bolaga moslashish uchun oilaviy tartiblarni moslashtirishni o'z ichiga oladi. O‘zbekistonda autizm nisbatan yangi e’tibor sohasi bo‘lib qolmoqda va ASD bilan og‘rigan bolalarning oilalari va ota-onalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan treninglar va ilmiy-uslubiy tavsiyalar hali ham yetarli emas.[3]

Oilalar, ayniqsa onalar, bir maslahat orqali hal qilib bo'lmaydigan chuqur va xilma-xil muammolarga duch kelishadi. Bunday oilalar bilan samarali ishlash ko'plab maslahatlashuvlar orqali doimiy psixologik yordamni talab qiladi. Ota-onalarning mutaxassislar aralashuviga bo'lgan munosabati ASDni noto'g'ri tushunish, mutaxassislarga ishonchsizlik, sharmandalik tuyg'usi yoki hukm qilinishdan qo'rqish tufayli juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu omillar psixologlar uchun ota-onalar bilan maxfiy va bepul maslahatlar o'rnatishni qiyinlashtiradi.

Psixologlar ota-onalarning ishonchini qozonganda ham, ular tez-tez yangi muammoga duch kelishadi: onalar mutaxassisni barcha muammolariga "sehrli yechim" sifatida qarashni boshlashlari mumkin, aralashuv jarayonida passiv bo'ladilar. “Burilish nuqtasi” deb nomlanuvchi bu hodisa onalar “mukammal mutaxassis”ni topganiga ishonib, bolasini rivojlantirish va reabilitatsiya qilishda faol ishtirok etishdan uzoqlashganda yuzaga keladi.

Buni hal qilish uchun mutaxassislar oldida ota-onalarni ASD bilan og'rigan bolani tarbiyalash va o'qitishda ijobiy natijalarga faqat izchil va tizimli hamkorlik orqali erishish mumkinligiga ishontirishdek muhim vazifa turibdi. Ota-onalar, ayniqsa onalar uchun ASD diagnostikasi halokatli bo'lib, yaqin odamni yo'qotishga o'xshash hissiy shokni keltirib chiqarishi mumkin. Farzand tirikligida ota-onalar o‘zlari tasavvur qilgan “ideal” bolani qayg‘uradilar, jumladan, sog‘lom ko‘rinish, intilishlar, yorug‘ kelajak orzulari. Ushbu tashxis onaning turmush tarzini tubdan o'zgartiradi, uning hayotini "tashxisdan oldin", "tashxis vaqtida" va "tashxisdan keyin" bosqichlarga ajratadi.

ASD tashxisi qo'yilgan bolalarning onalari bilan reabilitatsiya ishlari ikkita asosiy yondashuvni o'z ichiga oladi: psixologik-pedagogik va psixokorrektsiya. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu sohalardagi izchil sa'y-harakatlar ASD bilan og'rigan bolalarning ijtimoiylashuvini sezilarli darajada osonlashtirishi va ijobiy psixologik rivojlanishiga yordam beradi, ularning jamiyatga yanada samarali

integratsiyalashuviga yordam beradi. Autizm spektrining buzilishi (ASD) bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash ota-onalarning rivojlanish yo'lida hal qiluvchi rol o'ynashi bilan yaxlit yondashuvni talab qiladi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning faol ishtiroki ta'lim natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi, ijtimoiy integratsiyani rivojlantiradi va ASD bilan og'rigan bolalarning xatti-harakatlarini samarali boshqarishni qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchilar va terapevtlar bilan yaqindan hamkorlik qiladigan ota-onalar uy va maktab muhiti o'rtasidagi tafovutni bartaraf etadigan izchil va moslashtirilgan yordamni taqdim etadilar.[4]

XULOSA

Biroq, topilmalar, shuningdek, ota-onalar duch keladigan qiyinchiliklarni, jumladan, resurslardan foydalanishning cheklanganligini, vaqt cheklovlarini va g'amxo'rlikning hissiy talablarini ta'kidlaydi. Ta'lim, jamoat resurslari va professional yordamga kirishni yaxshilash orqali ushbu to'siqlarni bartaraf etish ota-onalarning advokat va g'amxo'rlik rolini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ota-onalarning faol va xabardor ishtiroki OSB bilan og'rigan bolalarning salohiyatini rivojlantirishda ajralmas hisoblanadi. Oilalar, maktablar va tibbiyot xodimlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali jamiyat har bir bola rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhitni yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Морозов С.А.Детский аутизм и основы его коррекции (материалы к спецкурсу). – Москва : СигналЪ, 2002. – 108 с.

2. Мнухин С.С., Зеленская А.Е., Исаев Д.Н.О синдроме раннего детского аутизма, или о синдроме Каннера у детей // Журнал психиатрии им. С.С. Корсакова. – 1967. – № 10. – С. 56–78.

3. Rogers, S.J., Vismara, L., Wagner, A.L., & McCormick, C., et al. (2014) Autism treatment in the first year of life: a pilot study of infant start, a parent-implemented intervention for symptomatic infants. J AutismDev. Disorder, 44, 2981–2995. doi: 10.1007/s10803-014-2202-y

4. Serious, A. (2013) Game about Emotions for Children with Autism Spectrum Disorders. Psychology Journal, 11(3), 191–211. Retrieved from: http://www.psychnology.org/File/PNJ11(3)/PSYCHNOLOGY_JOURNAL_11_3_QUEIROS.pdf (accessed 22.03.2018).

TA`LIM TIZIMIDA INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI YUZAGAGA CHIQARISH MUAMMOLARI

Dexkonova Marg'uba Erkinovna
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
Sayfullayev Ulug'bek Solijon o'g'li
Psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya; *Mazkur maqolada intellekt tushunchasining psixologik mazmuni, va rivojlanish bosqichlari tahlil etilgan. Maqolada intellektual rivojlanishga oid klassik va zamonaviy yondashuvlarni ko'rib chiqilgan.*

Kalit so`zlar; *Intellekt, intellektual rivojlanish, psixologik metodlar, IQ testi, fikrlash, kuzatuv, flyuidlashgan intellect, kristallashgan intellekt*

Аннотация: *В данной статье анализируется психологическое содержание понятия интеллекта и этапы его развития. В статье рассматриваются классические и современные подходы к интеллектуальному развитию.*

Ключевые слова; *интеллект, интеллектуальное развитие, психологические методы, тестирование IQ, мышление, наблюдение, флюидный интеллект, кристаллизованный интеллект*

Annotation: *this article analyzes the psychological content of the concept of intelligence, and the stages of development. The article examines classical and contemporary approaches to intellectual development.*

Keywords*; intelligence, intellectual development, psychological techniques, IQ test, thinking, observation, fluidized intellect, crystallized intelligence*

1921 yilda o‘n yetti nafar amerikalik psixologga quyidagi uch savol bilan murojaat qilingan:

• Intellekt o‘zi nima?

• Intellektni guruh sinovlari orqali qay darajada o‘rganish mumkin?

• Intellektni o‘rganishdagi keyingi qadam qanday bo‘lmog‘i lozim?

Natijada ikkita bir-biriga o‘xshash bo‘lgan javob olingan. Bu hol bugungi kunda ham takrorlanadi, deyish qiyin-u, ammo hozirgi psixologlarga ham shu savollar berilsa, bir-biriga o‘xshash javoblar olish qiyin.

Intellekt(lot. intellects — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati, hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish,fikrlash, o‘qish-o‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so‘zlash va boshqa psixik jarayonlar kiradi.

•Intellektning rivojlanishi tug‘ma iste‘dod, miya imkoniyatlari, jo‘shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog‘liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi.

Bunday bilimlar odatda, subyektiv xususiyatga ega bo‘lib, unga muvofiq inson dunyoning markazi sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun ham kundalik empirik bilimlar ilmiy bilimlarga qadar to‘plangan dastlabki ma‘lumotlar hisoblanadi. Fan taraqqiyoti natijasida qo‘lga kiritilgan bilimlar olam haqida ilmiy asoslangan falsafiy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi.

Kishilarning olam haqidagi bilimlari kundalik hayotiy tajriba asosida to‘plangan yoki ilm fan yordamida ongli ravishda qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlardan tarkib topadi. Kundalik hayotiy tajriba asosida to‘plangan empirik bilimlar asosida kishilarda olam haqida yo‘zaki va sodda dunyoqarash hosil bo‘ladi. Bunday bilimlar odatda, subyektiv xususiyatga ega bo‘lib, unga muvofiq inson dunyoning markazi sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun ham kundalik empirik bilimlar ilmiy bilimlarga qadar to‘plangan dastlabki ma‘lumotlar hisoblanadi. Fan taraqqiyoti natijasida qo‘lga kiritilgan bilimlar olam haqida ilmiy asoslangan falsafiy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi

Aqliy mehnat jarayonida o‘quvchi bor ilmlarini idrok etib, o‘zlashtirib, o‘ziniki qilib oladi, ya‘ni bilim oladi. Tizimli yondashuvda intellekt muayyan

qobiliyatlaming to‘plami sifatida tavsiflanadi. Insonning kognitiv jarayonlarining yig‘indisi uning intellektini belgilab beradi. “Intellekt - bu ongli harakat qilish, oqilona fikrlash va hayotiy sharoitlami to‘g‘ri uddalashning global qobiliyatdir” (Veksler), ya’ni intellekt insonning atrof-muhitga moslashish qobiliyati sifatida baholanadi.

Terstoun statistik usullardan foydalangan holda, umumiy intellektning turli tomonlarini o‘rganib chiqdi, va ulami birlamchi aqliy kuchlar-potensiyalar deb ataydi. U ettita shunday potensiyani aniqladi:

1) hisoblash qobiliyati, ya’ni raqamlar bilan ishlash va arifmetik amallarni bajarish qobiliyati;
2) verbal (og‘zaki) moslashuvchanlik, ya’ni insonning eng mos so‘zlardan foydalangan holda muloqot qilish qobiliyati;
3) verbal idrok, ya’ni og‘zaki va yozma tilni tushunish qobiliyati;
4) fazoviy orientatsiya yoki fazoda turli jism va shakllami tasavur qilish qobiliyati;
5) xotira;
6) fikr yuritish qobiliyati;
7) obyektlar va tasvirlar o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki farqlami idrok etish tezligi.

Kettell (1967) fikriga ko‘ra, har birimiz tug‘ilishdanoq potensial intellektga egamiz, bu bizning tafakkurimiz, mavhumlashtirishimiz va mulohaza yuritish qobiliyatimizni asosidir. Taxminan 20 yoshda, bu intellekt o‘z rivojlanishining yuksak darajasiga yetadi.

R.Kettel va J.Xormlar intellektni ikki (2) ta tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta’kidlaydilar hamda ulaming mohiyatini tushuntirib berishga harakat qiladilar:

1. Flyuidlashgan intellekt.
2. Kristallashgan intellekt.

“Flyuidlashgan” intellekt inson faoliyatining deyarli har bir jabhalarida ko‘zga tashlanib, dastavval u ilk bolalik davrida yorqinroq namoyon bo‘ladi, keyinchalik esa asta-sekin inson ruhiyatiga singib boradi. Flyuidlashgan intellekt tarkibi go‘yoki nasldan-naslga meros tariqasida o‘tadi.

“Kristallashgan” intellekt tarkibi esa hayot davomida ontogenezda orttirilgan ko‘nikmalardan tashkil topadi.

Bugungi kunda intellekt mazmuni o`z ichiga ko`plab tushunchalarni qamrab oladi. Intellektning asosiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Analitik qobiliyat – ma'lumotlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish.

Ijodiy fikrlash – yangi g‘oyalar yaratish, noodatiy yechimlar topish.

Amaliy intellekt – hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish.

Ijtimoiy intellekt – odamlar bilan muloqotda bo‘lish, ularning hissiyotlarini tushunish va boshqarish.

Psixologik tadqiqotlar nuqtai nazaridan quyidagi olimlar intellektni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan:

- Alfred Binet – intellektni o‘lchash uchun birinchi testni ishlab chiqqan.
- Charles Spearman – “g-omil” (umumiy intellekt) nazariyasini ilgari surgan.

• Howard Gardner – ko‘p intellekt nazariyasi, ya’ni insonlarda turli intellekt turlari mavjudligini aytgan: til, musiqiy, fazoviy, tanaviy, ijtimoiy, shaxsiy, tabiiy, mantiqiy.

• Robert Sternberg – uch komponentli nazariya: analitik, ijodiy va amaliy intellekt.

Psixologiyada intellektni o`lchash murakkab jarayon va uni o`lchashda maxsus testlardan foydalaniladi:

- IQ testlari (Intelligence Quotient) yordamida. Bu testlar fikrlash tezligi, mantiqiy muammolarni hal qilish, eslab qolish qobiliyati kabi jihatlarni baholaydi.
- Ammo IQ – intellektning faqat bir qismini ifodalaydi, inson qobiliyatlari undan kengroqdir.

Intellektni yuzaga chiqarish muammolari – bu insonning ichki aqliy salohiyatini to‘liq ochib bera olmasligi yoki mavjud intellektual qobiliyatlarini hayotda samarali qo‘llay olmasligi bilan bog‘liq psixologik, pedagogik va ijtimoiy to‘siqlardir. Bu muammolarni quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Individual omillar (shaxsga oid sabablari)

- Psixologik to‘siqlar: qo‘rquv, o‘ziga ishonmaslik, stress, o‘zini past baholash.
- Motivatsiyaning yetishmasligi: odamda salohiyat bo‘lsa-da, uni amalga oshirishga intilish bo‘lmasligi.
- Qiziqish yo‘qligi: intellektual faoliyatga nisbatan befarqlik yoki zerikish hissi.
- Sog‘liq bilan bog‘liq muammolar: xotira, diqqat, konsentratsiyaning pasayishi (masalan, nevrologik buzilishlar).

2. Ta’lim tizimi bilan bog‘liq muammolar

- Bir xil o‘qitish usullari: har bir o‘quvchining o‘ziga xos intellekt turi (vizual, verbal, kinestetik va h.k.) bo‘lishiga qaramay, standart uslubdan foydalanilishi.
- Ijodiy fikrlashga imkon bermaslik: faqat test asosidagi o‘qitish, mustaqil fikr yuritishni cheklash.
- Baholash tizimining adolatsizligi**:** IQ yoki baholar orqali intellektni to‘liq baholab bo‘lmasligi.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar

- Resurslarning yetishmasligi: sifatli ta’lim, kitoblar, internet, muhit va shart-sharoitlarning cheklanganligi.
- Oilaviy va atrof-muhit ta’siri: bolalikdagi beparvolik, e’tiborsizlik yoki rag‘bat yetishmasligi.
- Kambag‘allik va stressli hayot tarzi**:** doimiy tashvish va omadsizlik hissi aqliy salohiyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

4. Madaniy va gender stereotiplari

• Ayrim jamiyatlarda ayollar, etnik guruhlar yoki nogironligi bo‘lgan shaxslar haqida salohiyatsiz degan noto‘g‘ri qarashlar mavjud bo‘lishi mumkin.

- Bu esa insonlarning o‘z intellektini erkin namoyon qilishiga to‘sqinlik qiladi.

5. Intellektning noto‘g‘ri talqin qilinishi

- Intellekt faqat matematik yoki mantiqiy bilimlar bilan bog‘liq degan qarashlar mavjud.

- Bu esa ko‘p intellekt nazariyasiga zid: musiqiy, fazoviy, ijtimoiy va emotsional intellektlar ham shunchalik muhim.

Ilm fandagi an’analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog‘liq sifatlar juda ko‘plab tadqiqotlar ob’ekti bo‘lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aql sifatiga aloqador bo‘lgan ko‘rsatkichni o‘lchashga uringanlar. Ko‘pchilik olimlar odam intellektida uning verbal, miqdoriy, fazoviy ko‘rsatkichlarini aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bog‘laydilar. Qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, unga va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta’sir ko‘rsatadi. Oila muhitining aql o‘sishiga ta’sirini hech kim inkor etmaydi. G‘.B.Shoumarov mamlakat fuqarolarining aqliy saviyasiga alohida urg‘u berib, har bir davlat, jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli o‘z fuqarolarining saviyasi bilan belgilanishini e’tirof etadi. Jamiyat va fan-texnikaning rivojlanishida aql muhim omil va mezonlardan biridir. SHuningdek, SHoumarov har qanday insonparvarlik jamiyatida aqli zaiflarga e’tibor muhimligini uqtirib, aqli zaiflik omillarini markaziy asab tizimining organik buzilishi, shuning oqibatida bola bilish faoliyatining turg‘un pasayishidir deydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1.Akimova M. Intellektual testlar. Toshkent. 1990.
2.Bogoyavlenskaya D. Intellektualnaya aktivnost kak problema tvorchestva. Rastov. 1993.
3.G‘oziyev E.F. O‘quvchilarni umumlashtirish usullariga o‘rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. Toshkent - O`qituvchi. 1993.
4. Goleman, D. (1995). Hissiy intellekt: nega u IQ dan ko'proq ahamiyatga ega . Nyu-York: Bantam kitoblari.
5. Mayer, J. D. va Salovey, P. (1997). Hissiy intellekt nima? P. Salovey va D. Sluyter (Eds.), Hissiy rivojlanish va hissiy intellekt: ta'limga ta'siri (3-31-betlar). Nyu-York: asosiy kitoblar.
6. Bar-On, R. (2006). Emotsional-ijtimoiy intellektning Bar-On modeli (ESI). Psikotema , 18, 13-25.
7. Petrides, K. V. va Furnham, A. (2001). Xususiyat hissiy intellekt: Belgilangan belgilar taksonomiyalariga havola bilan psixometrik tekshiruv. Yevropa shaxsiyat jurnali , 15(6), 425-448.

O‘ZBEK OILALARIDA XOTIN QIZLARGA TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIK HOLATLARINI OLDINI OLISH PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ishankulova Gulzoda Baxromovna –
Qarshi davlat universiteti psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek oilalarida xotin-qizlarga tazyiq va zo‘*ravonlik holatlarini oldini olishning psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada jahon va o‘zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *oila, gender munosabat, gender tenglik, xotin-qizlar, tazyiq, zo‘ravonlik, ijtimoiy himoya, psixologik yordam.*

Абстрактный. *В статье изучаются психологические особенности разрешения конфликтных ситуаций в узбекских семьях. В книге дана подробная информация о теоретических и практических аспектах данной проблемы, а также о научных исследованиях, проводимых психологами нашей страны по данному вопросу. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение этой проблемы остается весьма актуальным и сегодня.*

Ключевые слова: *общество, независимость, семья, гендерное равенство, женщины, угнетение, насилие, конфликтные ситуации.*

Annotation. *The article examines the psychological features of resolving conflict situations in Uzbek families. The book presents information on the theoretical and practical aspects of these problems, as well as on scientific research conducted by psychologists in our country to consider the issue. Research conducted by the author shows that the study of this problem remains very relevant today.*

Key words: *society, independence, family, ethnic equality, women, oppression, receiving, conflict situations.*

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, xotin-qizlarning chinakam farovon va baxtli yashashlarini ta’minlash ustuvor masalalardan biriga aylandi. Mamlakatimiz ayollari taqdirining bugungi mazmunini belgilab beruvchi omillardan biri sifatida ikki muhim qonunning qabul qilinishi bo‘ldi. Ular – O‘zbekiston Resrublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlardir. Ularda gender tenglik tamoyillariga jamiyatimizning barcha bo‘g‘inlarida ustuvorlik berish, tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi davlat va nodavlat tizimlari faoliyatini tashkil qilish, xotin-qizlarning rang-barang muammolarini hal etish, jamiyatda ayollar ijtimoiy holatiga e’tiborli bo‘lish, mazkur maqsadda mutasaddi tizimlar mehnatini muvofiqlashtirish, xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilishda innovatsion g‘oyalar va yangi yo‘nalishlarni joriy etish kabi masalalar belgilangan. Shuningdek, so‘nggi vaqtlarda “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta’minlash va monitoring olib borish to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar xotin-qizlarni muhofaza qilish, ular manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, ularning qadr-qimmati, shon-shavkati, jumladan ular mavqei, hayoti va jonini asrab-avaylashga yo‘naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy munosabatlarda gender tenglik masalalarini o‘rganish jahon psixologiyasi fanida alohida o‘rin tutadi va juda ko‘plab ilmiy izlanishlarning olib borilishiga sababchi bo‘lgan. Jumladan, g‘arb mamlakatlari olimlari tomonidan gender munosabatlarda xulq-atvorning tipologik ko‘rinishlari, oilalarida shaxslararo munosabatlar ta’siridagi gender tenglikning ochiq va yopiq turdagi agressiv xatti-harakatlarda namoyon bo‘lishi borasida K.Bartol, O.Kernberg, N.Devid, F.Marshall M.Frank, A.Baron, D.Richardson kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar juda mashhurdir. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan esa S.T.Axmedxanova, Y.A.Brayseva, A.A.Isakov, A.V.Lisova, U.U.Musatova, A.A.Nikitina, T.A.Sidorenkova, R.B.Sabirov, V.I.Suleymanova, T.G.Tugelbayeva, I.M.Timofeyeva, K.D.Zarubina va boshqalar tomonidan olib borgan ilmiy izlanishlar ancha mashhur bo‘lib, ularda er-xotin munosabatlarida nizolar va

ularning oila muhiti, psixik rivojlanishiga ta’siri, ota-ona va bola munosabatlarining yoshga oid xususiyatlarining ijtimoiy-psixologik muammolari ilmiy tadqiq etilgan.

Jonajon Vatanimizda ham oiladagi shaxslararo munosabatlarda gender tenglikning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq masalalar mamlakatimizning yetakchi psixolog olimlari F.A.Akramova, Z.Abduraxmonova, Sh.X.Abdullayeva, Sh.R.Barotov, M.X.Fayziyeva, V.M.Karimova, X.K.Karimov, U.D.Qodirov, F.R.Ro‘ziqulov, A.T.Ro‘ziqulova, Z.A.Rasulova, U.S.Saribayeva, M.S.Salayeva, N.A.Sog‘inov, B.M.Umarov, S.SH.Ummatova, E.SH.Usmanov, O‘.B.Shamsiyev, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ularda asosan oila-nikoh munosabatlari, er-xotinning o‘zaro kelishmovchilik muammolari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilasining o‘ziga xos etnorsixologik xususiyatlari, oiladagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning oqibatlari muammosi bo‘yicha juda muhim tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekistonda oila psixologiyasi bo‘yicha o‘ziga xos maktab yaratgan olima V.M.Karimova tadqiqotlarida o‘zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruh vakillarida namoyon bo‘lishi empirik jihatdan tadqiq etilgan va oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarning nazariy konsersiyasi O‘zbekiston sharoitida ilk marotaba ishlab chiqilgan. Nazariy model asosida esa turli yosh va jins guruhlaridagi shaxslar ijtimoiy tasavvurlarining o‘ziga xosligi, ularning yashash, turmush tarzi, ma’lumot darajasiga, kasb-kor va hayotiy tajribaga bog‘liqligi empirik tarzda isbotlangan. Muallif o‘zbek ayollari va erkaklarining oiladagi mavqei, er-xotin munosabatlari, bolalar tarbiyasi va oiladagi rollar taqsimotiga ta’siri, yoshlarda to‘g‘ri, adekvat oilaviy ijtimoiy tasavvurlarning shakllanish shart-sharoitlari va sotsial psixologik omillarini yoritgan [1].

N.N.Shomurotova esa o‘z ilmiy izlanishlarida oilaviy zo‘ravonlik masalalarini o‘rganib, uning oila va jamiyat hayotidagi salbiy oqibatlarini ko‘rsatib bergan. Muallifning fikricha, oilaviy zo‘ravonlikning ijtimoiy - psixologik xatarlaridan biri oilaviy zo‘ravonlik guvohi bo‘lib ulg‘aygan bolalar kelajakda, bu amaliyotni qo‘llab takrorlovchi bo‘lib qoladilar. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va oiladagi zo‘ravonlik to‘g‘risidagi adabiyotlarda keltirilishicha, ba’zi insonlar bolaligidan oilaviy zo‘ravonlik guvohi bo‘lganligi sababli zo‘ravonlikka moyil bo‘lishlari, har qanday zo‘ravonlikni oddiy holat sifatida qabul qilishlari mumkin (masalan, bolaligida yomon munosabatda bo‘lgan odamlar, o‘z navbatida, o‘z farzandlariga yomon munosabatda bo‘lishgan; ota-onalar bilan bo‘lgan munosabatlar bu xatti-harakatni kattalardagi yaqin munosabatlarida takrorlashgan). Zo‘ravonlik holatining avlodlararo uzatilishini ijtimoiy tajriba va kuzatuvlarda o‘z tasdig‘ini topgan [4].

X.K.Karimovning “O‘zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” nomli ilmiy tadqiqotida esa o‘zbek oilalarida er-xotin o‘rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, er-xotin nizolari qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi kabi masalalar ochib berilgan. Muallif kelinlarning uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarishga tayyor emasliklari, ba’zi qaynonalar kelinlarini bu sohadagi bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘zlariniki bilan taqqoslashlari, ba’zan yosh kelinga ma’lum narsalarni o‘rgatish o‘rniga ularni qattiq tanqid ostiga olishlari, kelinni o‘zga sabablarga ko‘ra yoqtirmay qolgan bo‘lsa-da, uy-ro‘zg‘or ishlarini

doimo bahona qilishlari nafaqat qaynona-kelin munosabatlari, balki er-xotin munosabatlarining ham darz ketishiga olib kelishini alohida ta’kidlaydi [2].

Ma’lumki, oilaviy zo‘ravonlik insonning asosiy huquqlariga, jumladan uning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni, qadr-qimmati, erkinligi va boshqalarga daxl qiladi. Zo‘ravonlik faqat jismoniy kuch ishlatish bilan emas, balki ruhiy, axloqiy, iqtisodiy va maishiy bosim ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi va oilaning har qanday a’zosiga nisbatan qo‘llanishi mumkinligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy hayotda odamlar munosabatlarida uchraydigan haqoratlash, majburlash, zo‘rlash, iqtisodiy cheklovlar qo‘yish, muntazam ruhiy qiynoqqa solish kabi holatlar ham zo‘ravonlik sifatida baholanadi. Zo‘rlik va zo‘ravonlik tushunchalarini ilmiy jihatdan tahlil qilganimizda, ular aynan bir tushuncha emasligi, zurlikka qaraganda zo‘ravonlik tushunchasining salmog‘i og‘irroq ekanligi aniqlandi. Zo‘ravonlik harakati odatda ko‘rshilikka nisbatan sodir etiladi va subektlarning ko‘pligi bilan farqlanadi. Qonunchilikda zo‘ravonlik atamasi shavqatsizlik, qurol ishlatish va qirg‘in solish kabi tushunchalar bilan birga ishlatiladi. Zo‘rlik bu majburlash, qo‘rqitish bilan jabrlanuvchining sog‘lig‘i, hayotiga qarshi qaratilgan g‘ayriijtimoiy harakatdir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “zo‘ravon, zo‘ravonlik” so‘zlarning umumiy tushunchasi berilgan bo‘lib, u qonunga bo‘ysunmaydigan, birovlarga zo‘rlik qiluvchi, zulm o‘tkazuvchi zolimlarga xos xatti-harakat, deb tavsiflangan.

Biz tajriba-sinov ishlarimizda o‘zbek oilalarida uchraydigan zo‘ravonliklar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashga harakat qildik. Buning uchun maxsus IRS tuzib, sinaluvchilarga “Siz yaqin insoningizning qanday xatti-harakatlarini oilaviy zo‘ravonlik sifatida baholagan bo‘lar yedingiz? savoli savoli bilan murojaat qildik. Mazkur savolimizga tajriba-sinov ishlarimizda ishtirok etgan sinaluvshilarning javoblari quyidagisha bo‘ldi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.


IPS ning 1-savoli yuzasidan respondentlar javobi (n=289)

Shkalalar	**Soni**	**Foizi**
Bilmayman	21	7,27
Xarakter xususiyatigi qarab	142	49,13
Injiq, arzimagan sabablar bilan baqirishi, qo‘pol so‘zlashi, ya’ni “zo‘ravonligi” sabab	126	43,60
Jami	**289**	**100,0**

Tadqiqotimiz natijalarining ko‘rsatishicha, resrondentlarning oilada sodir etilishi mumkin bo‘lgan gender tengsizlikning yuzaga kelish sabablarini, aynan yaqin insonidagi qaysi abyuzer shaxs xususiyatlarida namoyon bo‘lishini aniq tasavvur eta olmasligini ta’kidlab, 21 nafar (7,27 foiz) sinaluvchi “bilmayman” deya e’tirof etishgan. 142 nafar (49,13 foiz) resrondent “xarakter xususiyatiga qarab” aniqlay bilishsa, yana 126 nafar (43,60 foiz) ishtirokchi “injiq, arzimagan sabablar bilan baqirishi, qo‘pol so‘zlashi, “zo‘ravonligi”, ya’ni turmush o‘rtog‘i (er yoki chxotin)ning xohish-istaklarini hurmat qilmasligi va jabrlanuvi (er, xotin, bolalar, keksalar)ni o‘ziga to‘liq qaramligini oshirishga harakat qilishini, muntazam ravishda ularga o‘zlari harakatlanishlariga va qaror qabul qilishlariga imkon bermasligini

qayd etishgan. Va bunda doimiy ravishda xulq-atvoridagi bu kamchilik, ya’ni “zo‘ravonlik” uchun javobgarlikni shaxslararo munosabatlardagi sherigiga o‘tkazishlari alohida ta’kidlangan (1-jadvalga qarang).

IRS ning savollari izchilligi mohiyatidan kelib chiqqan holda oilada zo‘ravonlikni ko‘rroq aynan qanday ko‘rinishlari uchrashini aniqlash maqsadida “Sizningcha oilada zo‘ravonlikning ko‘proq qaysi ko‘rinishi uchraydi?” savoli bilan sinaluvchilarga murojaat etishni lozim topdik (1-rasmga qarang).



1-rasm. IPS ning 2-savoli yuzasidan respondentlar javobi (n=289)

Tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilarning 98 nafari (33,9 foizi) “jismoniy zo‘ravonlik”, ya’ni do‘pposlash, kuch ishlatish orqali kamsitish va boshqalar ekanligini, 112 nafari (38,8 foizi) “iqtisodiy gender tengsizlik”, ya’ni pul vositalari bilan manipulyatsiya qilishlarini, oilaning bir a’zosini boshqa bir a’zosiga iqtisodiy qaramligini, 79 nafari (27,3 foizi) esa “jinsiy gender tengsizlik”, ya’ni zo‘rlash, jinsiy aloqaga majburlash va boshqalar deya javob berishdi (1-rasmga qarang).

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarda ba’zi respondentlar “oilada gender tengsizlikka umuman yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”, deb hisoblashsa, boshqa birovlari esa “zo‘ravonlikni ayrim ko‘rinishlarini oilani biror a’zosini tarbiyalash, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish sababidan oqlash mumkin”, deb bilishadi. Achinarlisi shundaki, har ikkala tadqiqotda ham “tengsizlikka sabr qilish, ko‘z yumish va umuman, ayollar tomonidan oilasini saqlab qolish uchun unga chidash” holatlari kabi fikrlar tasdig‘ining, ya’ni stereotiplarning mavjudligi oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashishga xalaqit beruvchi ulkan to‘siq sanaladi.

2-jadval.

IPS ning 3-savoli yuzasidan respondentlar javobi (n=289)

Shkalalar	Soni	Foizi
Gender tengsizlikning har qanday ko‘rinishi “zo‘ravonlik hisoblanadi”	128	44,29
Gender tengsizlikning ayrim ko‘rinishlarini “yoqlasa bo‘ladi”	122	42,21

Javob berishga qiynalaman	39	13,50
Jami	**289**	**100,0**

IRS ning tugallanmagan jumla ko‘rinishidagi “Sizga qaysi fikr yaqinroq ...” savoliga sinaluvchilarning 128 nafari (44,29 foizi) “zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishi zo‘ravonlik hisoblanadi” deb tasdiqlashgan, 122 nafari (42,21 foizi) “Gender tengsizlikning ayrim ko‘rinishlarini yoqlasa bo‘ladi” deya baholashgan, 39 nafar (13,50 foizi) esa “javob berishga qiynalaman” deya o‘z javob variantini berishib, jamiyatimizda, yanayam aniqrog‘i yashash hududimizda uchraydigan oilaviy zo‘ravonlikka doir turlicha ijtimoiy tasavvurga ega ekanliklarini namoyon qilishgan (2-jadvalga qarang).

IRS ning “Sizningcha, oilada uy zo‘ravonligini oldini olish uchun qanday choralar samara beradi?” degan 4-savoliga sinaluvchilar javob berishar ekan, quyidagi manzarani guvohi bo‘lish mumkin. Ya’ni, 61 nafar (21,11 foiz) respondent bunday vaziyatlarda nima qilishlarini va (yoki) qanday harakat qo‘llashlarini umuman “bilishmaydi” (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

IPS ning 4-savoli yuzasidan respondentlar javobi (n=289)

Shkalalar	**Soni**	**Foizi**
Bilmayman	61	21,11
Qonuniy chora ko‘rish	15	5,19
O‘z huquqini himoyalash	115	39,79
Psixolog maslahati	98	33,91
Jami	**289**	**100,0**

Oilaviy gender tengsizlik sodir etgan, pattern xulq-atvorli oila vakiliga nisbatan “qonuniy chora ko‘rish” tarafdori sifatida – 15 nafar (5,19 foiz) respondent qat’iy pozitssini namoyon qilishdi. Jabrlanuvchilarning “o‘z huquqini himoyalash”ga da’vat qiluvchi tavsiyaviy xarakterdagi munosabat egalari 115 nafarni (39,79 foizni) tashkil qilsa, yana 98 nafar (33,91 foiz) sinaluvchi bunday vaziyat qurbonlari bo‘lgan shaxslarga zudlik bilan “psixologik xizmat ko‘rsatish” zarur deb hisoblashadi (3-jadvalga qarang). Fikrimizcha, aynan shu baholash, zo‘ravonlikka uchragan shaxslar psixikasida dominanta bo‘lib turgan “psixologik travma” bartaraf etilishiga hamda anormal shakldagi “destruktiv xulq-atvor motiv”larini so‘ndirilishiga sabab bo‘ladi, deya baholaymiz.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi nosog‘lom psixologik muhit oilaviy zo‘ravonlikning yuzaga keltiruvchi omil bo‘lib ta’sir qiladi hamda zo‘ravonlikning eng faol agressiyali xulq shakli sifatida namoyon bo‘lishi bilan asoslanadi. Oilada shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq turli xil muammolarning paydo bo‘lishi ushbu jarayondagi ziddiyatli holatlarga individual munosabat motivatsiyasining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ziddiyatli holatdan chiqish motivatsiyasi ko‘rsatkichlari o‘rganilganda aksariyat holatlarda «bahs munozara» va «o‘zini

chetga olish» mezonlari xarakterli ekani ma’lum bo‘ldi. Chunki oilaviy muhitda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni yechimi ko‘p hollarda «bahs munozaraga kirishish» yoki «o‘zini chetga olish» motivatsiyasiga asoslanadi. Oilada shaxslararo munosabatlar ta’siridagi gender tenglikning bolaga nisbatan yuzaga kelishi sabablari oilada ota-ona munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasligi, tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarning yetishmasligi, bolalarga nisbatan jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikning oldini olish ularning har tomonlama huquqiy himoyasini ta’minlash uchun zo‘ravonlik qanday shakllarda bo‘lishi mumkinligini bilishi, zo‘ravonlik xavfi yuqori bo‘lgan vaziyatlarni aniqlay olishi, bolalar va kattalar bilan maqsadli suhbatlar o‘tkazish malakasiga ega bo‘lishi kerakligi tadqiqotimizda aniqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi: Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 1994. – 312 b.
2. Karimov X.K. O‘zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TGPI 1994. – 142 b.
3. Fayziyeva M.X. Ommaviy axborot vositalari ta’sirida talabalarda ijtimoiy tasavvurlar shakllanishining o‘ziga xosligi (televidenie misolida): Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: O‘zMU, 2005. –140 b.
4. Shomurotova N.N. Oilaviy zo‘ravonlikning ijtimoiy psixologik xatarlari // Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba // “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti. – –T.: 2021. – 224-227-b.

BOSHLANG‘ICH SINF O`QUVCHILARI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHGA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Yo’ldosheva Kamolaxon Erkinjon qizi
Namangan Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda psixologiyaning ahamiyati va uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish yondashuvlari yoritilgan. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolalarning intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim davr bo‘lib, psixologiya fanining bu bosqichga qo‘shilishi bolalarning shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘yinlar, kreativ faoliyatlar, rol o‘ynash texnikasi va savol-javob mashg‘ulotlari orqali bolalarga psixologik yondashuvlarni amalda qo‘llash metodlari taklif qilingan.*

Kalit so’zlar:*boshlang‘ich ta’lim, hissiy rivojlanish, ijtimoiy ko‘nikmalar, o‘yin texnikasi, shaxs, integratsiya, hissiyot, kreativ faoliyat, rolli o‘yinlar texnikasi.*

Аннотация*. В данной статье освещена значимость психологии в начальных классах и подходы к её интеграции в учебный процесс. Начальный этап обучения является важным периодом интеллектуального, эмоционального и социального развития детей, и психологический подход на этом этапе способствует всестороннему развитию личности учащихся. Также предлагаются методы практического применения психологических подходов через игры, творческую деятельность, ролевые игры и вопросы-ответы.*

Ключевые слова: *начальное образование, эмоциональное развитие, социальные навыки, игровые техники, личность, интеграция, эмоция, творческая деятельность, ролевые игры.*

Abstract: *This article highlights the significance of psychology in primary school education and approaches to its integration into the learning process. The early stage of education is a*

crucial period for children's intellectual, emotional, and social development, and a psychological approach at this stage promotes the comprehensive development of students' personalities. The article also suggests practical methods for implementing psychological approaches through games, creative activities, role-playing, and question-and-answer sessions.

Keywords:

primary education, emotional development, social skills, game techniques, personality, integration, emotion, creative activities, role-playing.

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim har bir bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy ahamiyatga ega davrdir. Ushbu davrda bolaning nafaqat intellektual, balki hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalari ham shakllanadi. Shu sababli, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga psixologiyani integratsiya qilish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Psixologiya fani bolaning ichki dunyosini, hissiyotlarini va xulq-atvorini tushunish, shuningdek, uning shaxs sifatida rivojlanishiga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi ta’lim tizimida bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga e’tibor qaratish, ular uchun qulay psixologik muhit yaratish, shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich sinflarda psixologiyaning o‘rnini aniqlash, uning amaliy usullarini ishlab chiqish va ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.

Mazkur maqolada bolalar shaxsini rivojlantirishda psixologiyaning o‘rni, hissiy barqarorlik, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘zini anglash jarayonlariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, psixologik yondashuvlarning o‘yinlar, ijodiy mashg‘ulotlar va roli o‘yinlar orqali amalda qo‘llanilishi yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili

Boshlang‘ich sinflarda psixologiyani tadqiq qilish va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu mavzuning dolzarbligini va keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilayotganini ko‘rsatadi. Quyida ushbu yo‘nalishda e’tiborga molik asarlar va yondashuvlar tahlil qilinadi:

Bolalar psixologiyasi rivojlanish psixologiyasining muhim qismi bo‘lib, ushbu sohada Lev Vigotskiy, Jan Piaje va Erik Eriksonning ishlari asosiy o‘rin tutadi. L.S.Vigotskiy bolaning rivojlanishini ijtimoiy muhit va muloqot bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlagan. Piaje esa bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, ta’lim jarayonlarini bolaning aqliy rivojlanish darajasiga moslashtirishni taklif qilgan. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha V.V.Davidov, L.S.Slavina kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega. V.V.Davidov ta’lim jarayonida bolaning faol ishtirokini ta’minlash va o‘quv motivatsiyasini shakllantirishga urg‘u bergan. Slavina esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hissiy aloqaning ta’lim samaradorligiga ta’sirini o‘rganib chiqqan.

O‘yin va kreativ faoliyatlar bolaning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Bu borada E.Fromm, B.D.Elkonin va K.Grossning tadqiqotlari muhimdir.Bolalar shaxsini rivojlantirishga ta’sirni aniqlash metodikalarini ishlab chiqqan tadqiqotchilar orasida L. S. Vygotskiy, D. B. Elkonin va A. N. Leontev kabi olimlar mashhur. Ular psixologik rivojlanish

jarayonlarini o‘rganishga asos bo‘lgan nazariy va amaliy metodlarni taklif etgan.Bolalar shaxsini rivojlantirishga ta’sirni o‘rganish uchun Vygotskiy (madaniy-tarixiy nazariya) va Elkonin (o‘yin faoliyati rivoji metodikasi) usullaridan foydalaniladi. B.D.El’konin bolalarning rolli o‘yinlari orqali ijtimoiy muloqot va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish mumkinligini ta’kidlagan. Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda psixologiyaning o‘rni bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar innovatsion yondashuvlarni taklif etmoqda. Masalan, A.K. Markova bolalar o‘quv faoliyatini psixologik qo‘llab-quvvatlashning zarurligini ko‘rsatgan bo‘lsa, J.Bruner ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirishni asosiy omil sifatida qayd etgan.

TADQIQOTMETODOLOGIYASI

D.B. Elkoninning mashhur metodikasi – "O‘yin faoliyati rivojlanishi" metodikasi hisoblanadi. U bolalarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini o‘yin orqali o‘rganishga yo‘naltirilgan. Ushbu metodika bolalarning o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy rollarni bajarish qobiliyatlari va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladi.

Ushbu tadqiqotd yordamida boshlang‘ich sinflarda psixologiyaning ta’lim jarayoniga integratsiyasi va bolalar shaxsini rivojlantirishga bo‘lgan ta’siri o‘rganildi. Kvalifikatsion so‘rovlar va intervyular – o‘qituvchilar, psixologlar va ta’lim sohasidagi mutaxassislar bilan intervyular o‘tkazildi. Bu usul amaliyotga oid ma’lumotlarni yig‘ishga yordam berdi. Eksperimental tadqiqotlar – o‘quvchilar bilan psixologik yondashuvlar bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazilib, o‘yinlar, kreativ faoliyatlar va roli o‘yinlar orqali psixologik metodlarning samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Tahliliy metod – olingan natijalar tahlil qilinib, psixologik yondashuvlarning ta’lim jarayoniga qo‘llanishi va bolalar shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

D.B. Elkoninning "O‘yin faoliyati rivojlanishi" metodikasi yordamida Norin tumanidagi 41-sonli umum ta’lim maktabi boshlang’ich siniflarida tadqiqot olib borildi.Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan eksperimentlar va tahlillar boshlang‘ich sinflarda psixologiyaning o‘quv jarayoniga integratsiyasi bolalar shaxsini rivojlantirishda sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning hissiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishidagi o‘zgarishlar quyidagi natijalarda aks etdi:

Eksperimentlar natijasida o‘quvchilarning hissiy barqarorligi sezilarli darajada oshdi. Psixologik yondashuvlar, jumladan, o‘yinlar, roli o‘yinlari va hissiy boshqaruv mashg‘ulotlari orqali bolalar o‘z hissiyotlarini aniqlash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Bu, o‘z navbatida, bolalarning o‘quv jarayonida ko‘proq ishtirok etishlariga va stressni kamaytirishga yordam berdi. Shuningdek, bolalar o‘z hissiy holatlarini boshqarish va sinfdagi ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini oshirdilar. Tadqiqot davomida o‘quvchilar stressni boshqarishning samarali usullari haqida bilim olishdi va bu ularning o‘quv samaradorligini oshirdi. Psixologik mashg‘ulotlar va interaktiv o‘yinlar orqali bolalar o‘zaro muloqot qilishda faolroq bo‘lishdi. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar (masalan, guruhli ishlar va jamoaviy o‘yinlar) o‘quvchilarning o‘zaro yordam berish, muloqotda bo‘lish va qarorlar qabul qilishda yaxshilanishlarga olib

keldi. O‘quvchilar o‘zaro ijtimoiy muammolarni hal qilishda yaxshiroq ishladilar va jamoaviy ishlarda muvaffaqiyat ko‘rsatdilar. Tadqiqot jarayonida guruhli faoliyatlar va ijtimoiy o‘yinlar yordamida bolalar o‘zaro hurmat, empatiya va muomala qoidalarini yaxshilashdi. O‘quvchilar bir-biriga yordam berish va muloqot qilishda ancha ishonchli bo‘lib qoldilar, bu esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamladi.

Bolalar o‘zlarini boshqalardan ajratib ko‘rish va o‘z qobiliyatlarini anglash jarayonida yutuqlarga erishdilar. O‘ziga bo‘lgan ishonch va motivatsiya oshdi, bu esa ta’lim samaradorligini yanada yaxshiladi. Shuningdek, bolalar o‘zlarini boshqarish va o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Tadqiqotda o‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini anglash va shaxsiy rivojlanishga e’tibor qaratdilar. O‘ziga bo‘lgan ishonchning oshishi bolalarda muvaffaqiyatga erishish istagini kuchaytirdi va ularni yangi maqsadlarga intilishlariga rag‘batlantirdi. Ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi nafaqat o‘quv jarayonida, balki kundalik hayotda ham o‘zgarishlarga olib keldi.

Psixologik yondashuvlar orqali o‘quvchilarni rag‘batlantirish, o‘zlarini ifoda etish va sinfdagi psixologik muhitni yaxshilash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirdi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirdi va o‘quv natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning ta’limga nisbatan qiziqishini oshirish va darsda faollikni oshirishga yordam berdi. Bu natijalar o‘quvchilarning intellektual va akademik muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam berdi. Psixologik yondashuvlar yordamida bolalar o‘zlarini ta’lim jarayonida yanada ishonchli his qilishdi va bu darslarda samarali ishtirok etishlariga sabab bo‘ldi. O‘quvchilarning stress darajasi pasayishi va emotsional jihatdan yanada barqaror bo‘lishi o‘zgarishlar orasida eng sezilarli natijadir. Psixologik mashg‘ulotlar va hissiy boshqaruv texnikalari o‘quvchilarning stressni boshqarish qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshiladi. Tadqiqot davomida o‘quvchilar o‘z hissiy holatlarini tanib, boshqarishning samarali usullari bilan tanishdilar, bu esa ularning o‘quv jarayonida yanada ishtirok etishlariga yordam berdi. Shuningdek, o‘quvchilarning hissiy barqarorligi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

O‘quvchilarda ijodiy tafakkur va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlari kuchayganligini ko‘rish mumkin. Psixologik yondashuvlar yordamida ular o‘zlarining ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishdi, shuningdek, darslarga bo‘lgan qiziqishlari ham oshdi. Ijodiy faoliyatlar, jumladan, san’at, drama va boshqa kreativ mashg‘ulotlar orqali bolalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga va yangi g‘oyalar ishlab chiqishga qodir bo‘ldilar. Bu ijodiy jarayonlar o‘quvchilarning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishini ham yaxshiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda psixologiyaning integratsiyasi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularning hissiy, ijtimoiy va intellektual ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Psixologik yondashuvlar, o‘yinlar, kreativ faoliyatlar va roli o‘yinlari o‘quvchilarning ta’lim samaradorligini oshiradi hamda ularning shaxs sifatida

rivojlanishiga yordam beradi. Natijalar, shuningdek, o‘quvchilarning stressni boshqarish, hissiy barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va ijodiy salohiyatni oshirishda psixologiyaning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djalilov, A.. Ta’lim jarayonida psixologiyaning roli. Toshkent: Ma’rifat -2007. 128 bet
2. Raxmonov, ATa’limda innovatsion psixologik yondashuvlar. Toshkent: Sharq -2015. 128 bet
3. Sadullayev B. Bolalar psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston universiteti -2006. 120 bet
4. Teshaboyev Sh. Psixologiya va ta’lim metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti -2010. 150 bet
5. G‘ulomovM. Bolalar psixologiyasi va uning ta’limdagi ahamiyati. Toshkent: Ma’rifat -2011. 160 bet

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ СПОСОБНОСТИ ПЕДАГОГА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ.

Сулейманова Альбина Наильевна
Преподаватель кафедры «Общая психология»
Жузбаев Нурлан Урал угли
Студент факультета «Языки»
Национальный педагогический университет Узбекистана им. Низами

Аннотация: *В статье рассматривается влияние профессиональных способностей педагога на формирование и реализацию методической компетентности. Анализируются ключевые компоненты педагогических способностей (по Н.В. Кузьминой) и современные научные подходы к их изучению. Раскрывается содержание методической компетентности как интегративной характеристики, включающей когнитивные деятельностные и личностные компоненты. Представлены позиции отечественых ученых по ее структуре, ценностному содержанию и специфике проявления у учителей.*

Ключевые слова: *методическая компетентность, педагогические способности, профессиональная компетентность, дидактические способности, гностические способности.*

Annotatsiya: *maqolada o'qituvchining kasbiy qobiliyatining uslubiy kompetentsiyani shakllantirish va amalga oshirishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Pedagogik qobiliyatlarning asosiy tarkibiy qismlari (N. V. Kuzminaning so'zlariga ko'ra) va ularni o'rganishga zamonaviy ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Uslubiy kompetentsiyaning mazmuni kognitiv faoliyat va shaxsiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan integral xususiyat sifatida ochib beriladi. Mahalliy olimlarning uning tuzilishi, qiymati va o'qituvchilarda namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha pozitsiyalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *uslubiy kompetentsiya, pedagogik qobiliyat, kasbiy kompetentsiya, didaktik qobiliyat, gnostik qobiliyat.*

Annotation: *This article examines the influence of teachers’ professional abilities on the development and implementation of methodological competence. Key components of pedagogical abilities, based on N/V/ Kuzmina’s framework, are analyzed. The article outlines methodological competence as an integrative quality that includes cognitive, practical, and personal components. It presents views of Russian scholarson the structure, value-based content, and specific features of methodological competence in teachers.*

Key words: *methodological competence, pedagogical abilities, professional competence, didactic teaching abilities, cognitive abilities*

Введение

В современных условиях, когда содержание образования обновляется, акцент делается на профессиональном развитии учителей. Возрастает интерес к психологическим основам формирования педагогической компетентности. Одним из центральных образований педагогической компетентности является методическая компетентность. Она представляет собой интегративное качество, включающее в себя как знание методических основ и технологий преподавания, так и способность эффективно и гибко применять их в условиях реального педагогического взаимодействия. [Бубнова, 2018]. Сложная структура методической компетентности предполагает наличие развитого комплекса как общих, так и специальных педагогических способностей. Общие способности (в первую очередь, интеллектуальные), создают когнитивный фундамент. Они обеспечивают уровень осознанности, аналитичности и гибкости в освоении и применении новых методических подходов, а также адаптивность к изменениям образовательной среды [Кузьмина, 1990]. Педагогические способности, включая дидактические, перцептивные, коммуникативные и конструктивные, формируют психологический инструментарий педагога, необходимый для реализации методических задач в практике [Кузьмина, 1990; Масюкова, 2021]. Таким образом, методическая компетентность не может рассматриваться изолированно от способностей субъекта педагогической деятельности, а ее уровень во многом обусловлен степенью сформированности этих способностей [Щербаков, 2017].

В настоящее время в исследованиях способностей преподавателей используются системные, комплексные и индивидуально-типологические подходы. Это позволяет рассматривать профессиональные способности как многомерное и иерархически организованное образование. В теории системогенеза В.Д. Шадрикова способности понимаются как функциональные системы формирующиеся в процессе профессиональной деятельности и определяющие ее успешность [Шадриков, 1996].

Системно-целевой подход Б.Б. Косова акцентирует внимание на целенаправленном развитии способностей в соответствии с профессиональными задачами преподавателя. Комплексный подход Э.А. Голубевой подчеркивает необходимость учета взаимодействия различных компонентов способностей, включая когнитивные, эмоциональные и мотивационные аспекты [Голубева, 1989]. Теория интегральной индивидуальности В.С. Мерлина, согласно которой индивидуальность преподавателя представляет собой целостную систему, включающую биохимические, соматические, нейродинамические, психодинамические, личностные и социально-психологические уровни. Эта теория позволяет изучить взаимодействие и влияние различных уровней индивидуальности на формировании методической компетентности преподавателя [Вяткин, 2017] .

Литературный обзор

Согласно позиции Н.В. Кузьминой, изложенной в монографии «Способности, одаренность, таланта учителя» [1990], формирование профессиональной компетентности педагога напрямую связано с уровнем развития его педагогических способностей. Ученая подчеркивае, что именно дидактические, перцептивные и конструктивные способности составляют психологическую основу педагогической деятельности, определяя ее эффективность и целостность. В этом контексте методическая компетентность, являющаяся важнейшей компонентойтпрофессиональной компетентности учителя, развивается на базе указанных способностей и реализуется через умение проектировать, адаптировать и применять методические средства в образовательной практике. Таким образом, степень выраженности базовых педагогических способнстей учителя определяет не только его теоретическую подготовленность, но и методическую гибкость, продуктивность в реализации образовательных задач, а также индивидуальный стиль методической деятельности. Н.В. Кузьмина [1990], анализируя структуру педагогических способностей, выделяет пять ключевых компонентов: гностические, проектировочные, конструктивные, коммуникативные и организаторские. Каждая из этих способностей играет критически важную роль в формировании методической компетентности. Так, гностические способности обеспечивают умение осознавать, анализировать и интерпретировать содержание учебного материала, что необходимо для его адекватного отбора и структурирования в соответствии с цеплями урока. Проектировочные и конструктивные способности проявляются в способности педагога разрабатывать дидактически обоснованные планы, выбирать эффективные методы и приемы преподавания. Коммуникативные способности обеспечивают успешную реализацию методических решений в процессе взаимодействия с учащимися, способствуют созданию продукивной образовательной среды. Таким образом, методическая компетентность формируется не изолированно, а как интегративное качество, базирующееся на развитии ключевых педагогических способностей. Н.В. Кузьмина трактует профессиональную компетентность как свойство личности, необходимое для успешного осуществления педагогической деятельности. В рамках своей концепции она выделяет пять взаимосвязанных компонентов компетентности:

1. Специальные
2. Методические
3. Социально-педагогические
4. Дифференциально-психологические
5. Аутопсихологические

Согласно Н.В. Кузьминой, методическая компетентность представляет собой один из базовых элементов профессиональной компетентности и охватывает умения и знания, связанные с формированием у обучающихся знаний, умений и навыков [Еремина, 2010]

В.А. Адольф [1998] рассматривает методическую компетентность как «развернутую систему знаний по вопросам конкретного построения преподавания той или иной дисциплины». Он подчеркивает, что, помимо познавательного компонента, в ее структуре необходимо учитывать:

- деятельностный компонент – владение эффективными методиками преподавания;
- личностный компонент – наличие сформированного отношения к различным методическим системам и наличие собственного индивидуального стиля работы.

В.А. Адольф считает компетентным того педагога, который не только хорошо владеет методикой, но и осознанно выстраивает свою педагогическую позицию и стиль в преподавании. Т.Н. Сокольницкая [2012] определяет методическую компетентность как специальную компетентность, реализующую базовые и ключевые компетентности применительно к специфике профессиональной деятельности учителя конкретного учебного предмета. В рамках исследований, посвященных методической подготовке учителя русского языка, понятие «методическая компетентность» как ценностный компонент профессиональной деятельности учителя-филолога, подчеркивая, что ключевыми ценностями в этой сфере выступают профессионализм, педагогическое мастерство и накопленный опыт. В то же времяв контексте профессиональной подготовки будущих учителей русского языка, как отмечает Т.С. Табаченко [2016], используется схожее, но отличающееся по смыслу понятие – «методическая компетенция», которое рассматривается как результат овладения методикой преподавания в процессе профессионального обучения. Таким образом, в научной литературе проводится различие между методической компетентностью как интегративной характеристикой профессиональной деятельности действующего педагога. Согласно позициям Ю.Г. Татура и А.В. Хуторского, компетентность рассматривается как уже сформировшееся профессионально-личностное качество, которое включает в себя как индивидуальный опыт, так и ценностное отношение к предметной сфере деятельности.

Выводы

Таким образом, проведенный анализ педагогических, психологических и методических источников позволяет выделть основные характеристики понятия «методическая компетенотность учителя русского языка»:

1. Она представляет собой важнейшую составляющую профессиональной педагогической компетентности, выступающую основой профессиональной деятельности учителя. Методическая компетентность интерпретируется как специальная компетентность, обеспечивающая реализацию базовых и ключевых компетенций с учетом специфики преподавания русского языка.
2. Это характертистика действующего педагога, проявляющаяся на этапе постдипломного профессионального развития.

3. Методическая компетентность находит выражение в непосредственной профессионально-методической деятельности учителя.

4. Она является результатом целенаправленной методической подготовки и накоплению педагогического опыта.

5. Методическая компетентность имеет аксиологическое измерениеи выступает в качестве ценностной составляющей профессиональной компетентности, отражающей личностно-профессиональноые особенности педагога.

6. На сонование проведенного анализа можно утверждать, сто понятие «методическая компетентность» является базовой категорией, характеризующей специфику профессиональной деятельности учителя русского языка на этапе непрерывного педагогического образования. Выявленные ключевые признаки данного понятия могут служить теоретическим основанием

Список использованной литературы

1. Кузьмина Н.В. Способности, одаренность, талант учителя. – М.: Педагогика, 1990.
2. Бубнова И.С. Методическая компетентность педагога: сущность и диагностика // Современные научные исследования и инновации, 2018, №5 https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskaya-kompetentnost-pedagoga-suschnost-i-diagnostika
3. Масюкова Н.Г. Развитие методической компетентности учителя в процессе повышения квалификации. – 2021
4. Щербаков А.И. Психология труда и личность учителя. – М.: Изд-во МПГУ, 2017 https://www.libex.ru/detail/book381914.html
5. Шадриков В.Д. Психология деятельности и способности человека. Учебное пособие. 2-изд-е, 1996.
6. Голубева Э.А. Способности и склонности: комплексные исследования. М.: Педагогика, 1989
7. Вяткин Б. А., Дорфман Л. Я. Теория интегральной индивидуальности ВС Мерлина: история и современность //Образование и наука. – 2017. – Т. 19. – №. 2. – С. 145-160. https://doi.org/10.17853/1994-5639-2017-2-145-160
8. Ерёмина Н. С. Компетентностный подход в построении модели специалиста в области педагогического образования //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2010. – №. 12-2. – С. 154-157.
9. Адольф В. А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя : дис. – Московский педагогический государственный университет, 1998.
10. Сокольницкая Т. Н. К вопросу о методической компетентности учителя русского языка //Человек и образование. – 2012. – №. 2. – С. 162-165
11. Табаченко Т. С. ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА УЧИТЕЛЕЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В СВЕТЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕНДЕНЦИЙ МЕТОДИЧЕСКОЙ НАУКИ //Акмеология профессионального образования. – 2016. – С. 148-154.

JAMIYAT YASAGAN QOIDALAR: GENDER STEREOTIPLARI HAYOTIMIZNI QANDAY SHAKLLANTIRADI?

Arabboyeva Zahroxon Tohirjonovna

NamDU Psixologiya yo’nalishi 1-kurs
magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada gender stereotiplari tushunchasi, ularning shakllanish jarayoni va jamiyatdagi ijtimoiy rollarga ta’siri tahlil qilinadi. Jamiyat tomonidan ayol va erkaklarga nisbatan belgilangan an’anaviy qoidalar, stereotiplar orqali insonlarning o‘zini tutishi, o‘z rolini anglashi va imkoniyatlarga ega bo‘lishi qanday cheklanishi o‘rganiladi. Ayniqsa, bolalikdan boshlab ta’lim, ommaviy axborot vositalari va madaniyat orqali gender stereotiplarining qanday singdirilishi va mustahkamlanishi yoritiladi. Tadqiqot gender stereotiplarining shaxsiy erkinlik, ijtimoiy tenglik va ruhiy salomatlikka ta’siri hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘z ichiga oladi. Maqola gender tengligi va ijtimoiy adolatga erishish uchun stereotiplarni tan olish va ularga qarshi kurashish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar:*gender stereotiplari, ijtimoiy rollar, jamiyat, ta’lim, ommaviy axborot vositalari, gender tengligi, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy adolat, stereotiplarga qarshi kurash.*

Аннотация: *В статье анализируются гендерные стереотипы, их процесс формирования и влияние на социальные роли в обществе. Рассматриваются традиционные нормы и ожидания, навязываемые мужчинам и женщинам, а также то, как они ограничивают поведение, самоощущение и возможности личности. Особое внимание уделяется тому, каким образом гендерные стереотипы закрепляются с детства через образование, средства массовой информации и культуру. Исследование охватывает влияние стереотипов на личную свободу, социальное равенство и психическое здоровье, а также пути их преодоления. Работа подчеркивает необходимость признания и борьбы с гендерными стереотипами для достижения равенства и социальной справедливости.*

Ключевые слова: *гендерные стереотипы, социальные роли, общество, образование, средства массовой информации, гендерное равенство, личная свобода, социальная справедливость, борьба со стереотипами.*

Annotation: *This article examines gender stereotypes, their formation process, and impact on social roles within society. It explores the traditional norms and expectations imposed on men and women and how these limit individuals’ behavior, self-perception, and opportunities. Special attention is given to the ways gender stereotypes are reinforced from childhood through education, mass media, and culture. The study addresses the effects of stereotypes on personal freedom, social equality, and mental health, as well as strategies to overcome them. The article emphasizes the necessity of recognizing and challenging gender stereotypes to achieve equality and social justice.*

Keywords: *gender stereotypes, social roles, society, education, mass media, gender equality, personal freedom, social justice, challenging stereotypes.*

Kirish**.** Bugungi kunda gender stereotiplari – insonning ijtimoiy, psixologik va madaniy hayotida muhim o‘rin tutuvchi murakkab va ko‘p qirrali fenomen hisoblanadi. Gender stereotiplari deganda, erkaklar va ayollar uchun jamiyat tomonidan belgilangan qat’iy, ko‘pincha biologik jinsga asoslangan xulq-atvor va rollar tushuniladi. Bu stereotiplar insonning shaxsiy o‘zligini shakllantirish jarayoniga, ijtimoiy roli va munosabatlariga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli gender stereotiplarning shakllanishi, ularning ta’siri hamda bartaraf etish yo‘llarini chuqur o‘rganish ijtimoiy va psixologik tadqiqotlar uchun dolzarbdir. Gender stereotiplarning shakllanishi murakkab jarayon bo‘lib, u biologik, psixologik va ijtimoiy-madaniy omillarning o‘zaro ta’siridan kelib chiqadi. Ushbu maqolada gender stereotiplari tushunchasi, ularning shakllanish mexanizmi, ijtimoiy

oqibatlari, shuningdek, mashhur olimlar nazariyalari asosida stereotiplarni yengish strategiyalari tahlil qilinadi.

1. Gender stereotiplari tushunchasi va ularning shakllanishi

Gender stereotiplari – bu jamiyat tomonidan jinsiy guruhlar uchun ishlab chiqilgan, ularning qobiliyatlari, xulq-atvori va rollariga oid qat'iy va ko'pincha cheklovchi tushunchalar majmuasi. Ushbu tushunchalar ko'pincha biologik jinsga asoslangan bo'lib, ular shaxsning o'ziga xosligini cheklaydi. Eagly (1987) o'zining "Social Role Theory" nazariyasida gender stereotiplarni jamiyatda shakllanadigan ijtimoiy rollar va vazifalar bilan bog'laydi[1]. Unga ko'ra, erkaklar ko'proq tashqi dunyoda faol, rahbarlik vazifalarini bajaruvchi, ayollar esa uy-ro'zg'or va oilaviy hayotga mo'ljallangan sifatlarda tasvirlanadi. Bandura (2001)ning ijtimoiy o'rganish nazariyasida esa, gender stereotiplar bolalar va yoshlar tomonidan o'z atrofidagi kattalar va tengdoshlar xulq-atvorini kuzatish, taqlid qilish orqali o'zlashtiriladi[2]. Ushbu jarayonda oilaviy muhit, maktab, do'stlar va ommaviy axborot vositalari asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, media orqali tarqaladigan gender stereotiplari bolalar ongida uzoq muddatli tasvirlar va tushunchalar shakllantiradi.

2. Gender stereotiplarning ijtimoiy ta'siri va jamiyatdagi o'rni

Gender stereotiplar ijtimoiy tizimlarda jinslar o'rtasidagi tengsizliklarni mustahkamlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ridgeway va Correll (2004) gender stereotiplarni ijtimoiy munosabatlar va hokimiyat taqsimotida muhim omil deb hisoblaydilar[3]. Ularning fikricha, stereotiplar jinslar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy farqlarni tabiiy hol sifatida qabul qilishga olib keladi va ularni o'zgartirishga qarshi psixologik to'siq yaratadi. Ommaviy axborot vositalari gender stereotiplarni kuchaytiradigan asosiy vositalardan biri bo'lib, Wood (1994) ommaviy axborot vositalari orqali ayollar va erkaklar haqidagi stereotipli obrazlarning qayta-qayta takrorlanishi ijtimoiy ongda qattiq me'yorlarni shakllantirishini ta'kidlaydi[4]. Misol uchun, kino va televideniyada erkaklar ko'pincha kuchli va qat'iyatli bosh qahramon sifatida ko'rsatiladi, ayollar esa nozik va himoyaga muhtoj obrazda tasvirlanadi. Bunday tasvirlar yoshlarning jamiyatdagi o'z o'rnini tushunishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Psixologik jihatlari va shaxsiy o'sishga ta'siri

Gender stereotiplari yoshlarning o'zini anglash va shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir qiladi. Hyde (2005)ning tadqiqotlari ko'rsatadiki, ko'pgina jinslar o'rtasidagi farqlar stereotiplar tufayli ortiqcha oshiriladi va haqiqatdan uzoqlashadi[5]. Masalan, ayollarning matematika va ilm-fanga qobiliyatlari erkaklarga qaraganda pastroq degan stereotiplar yosh qizlarning o'z qobiliyatlariga ishonchini pasaytiradi, bu esa ularning o'qish va kasb tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, psixolog Erik Erikson (1968) shaxsiy identifikatsiya jarayonida jinsiy o'zlikni anglash muhim bosqich ekanligini ta'kidlaydi[6]. Gender stereotiplari esa ushbu jarayonda shaxsning ichki kechinmalarini cheklab, o'zini erkin ifoda etish imkonini kamaytiradi. Natijada, gender stereotiplarga mos kelmaydigan shaxslar o'zligini anglashda qiyinchiliklarga duch kelishi, psixologik stress va ijtimoiy izolyatsiyaga uchrashi mumkin.

4. Gender stereotiplari va jamiyatdagi ijtimoiy nohaqlik

Gender stereotiplari nafaqat shaxsiy xulq-atvor va qarorlarimizga ta’sir qiluvchi psixologik omil bo‘libgina qolmay, balki kengroq ijtimoiy nohaqliklar, ayniqsa ish joyidagi gender tengsizliklarning asosiy sabablaridan biridir. Ridgeway va Correll (2004)ning tadqiqotlariga ko‘ra, ayollarning rahbarlik lavozimlariga kamroq chiqishi, ularning iqtisodiy imkoniyatlari cheklanishi, kamroq maosh olishlari va jamiyatda pastroq ijtimoiy e’tiborga ega bo‘lishlarining ildizida aynan gender stereotiplar yotadi[3]. Ushbu stereotiplar ayollarni yetarlicha malakali, qat’iyatli yoki kuchli rahbar sifatida ko‘rmaslikka olib keladi, bu esa ularning karyeralarida yuqori lavozimlarga ko‘tarilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari, gender stereotiplar nafaqat ish joyidagi kamsitishlarga, balki jamiyatdagi umumiy ijtimoiy-siyosiy faollikka ham to‘siq bo‘ladi. Masalan, ayollar siyosatda kamroq ishtirok etadi, ularning ovozlari kamroq tinglanadi, natijada qaror qabul qilish jarayonlarida ayollar manfaatlari yetarlicha aks etmaydi. Bu holat o‘z navbatida, jamiyatda gender tengsizligining uzluksizligiga olib keladi va ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga sabab bo‘ladi. Judith Butler (1990) genderni faqat biologik jins bilan cheklanmagan, balki ijtimoiy konstruktsiya sifatida ko‘rib, uning qat’iy chegaralari va stereotiplarini buzish uchun yangi, moslashuvchan gender tushunchalarini yaratish zarurligini ta’kidlaydi[7]. Unga ko‘ra, gender - bu qat’iy belgilangan va o‘zgarmas bo‘laklardan iborat bo‘lgan kategoriya emas, balki doimiy ravishda ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qayta quriladigan jarayondir. Genderning bunday tushunchasi jamiyatdagi stereotipik yondashuvlarni va ularning yaratadigan nohaqliklarni qayta ko‘rib chiqishga imkon beradi. Masalan, erkak va ayol rollarining an’anaviy chegaralaridan chiqib, jinsga oid yangi, kengroq va inklyuziv rollarni shakllantirish jamiyatda tenglikni oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, gender stereotiplari inson huquqlari sohasida ham o‘z aksini topadi. Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan BMT ning Gender tengligi bo‘yicha konventsiyalari, gender asosidagi kamsitishlarni to‘xtatish va yo‘qotishni talab qiladi. Ammo ko‘plab mamlakatlarda stereotiplar va ular asosida yuzaga keladigan madaniy qoidalar hali ham amalda gender tengsizligining asosiy omili hisoblanadi.

5. Gender stereotiplarni yengish va tenglikni ta’minlash strategiyalari

Gender stereotiplarni bartaraf etish va haqiqiy gender tengligini ta’minlash uchun kompleks, ko‘p qirrali yondashuvlar zarur. Bu jarayonda eng asosiy rol ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, oilaviy muhit va siyosiy ijtimoiy dasturlarga tegishli bo‘ladi. Avvalo, ta’lim tizimi gender stereotiplarni yengishdagi eng kuchli vositalardan biridir. Eagly va Wood (2012)ning ta’kidlashicha, ijtimoiy rollar va stereotiplar o‘zgarishi uchun ta’lim muassasalarida yoshlarni gender tengligi haqidagi bilim va tushunchalar bilan tanishtirish, yangi normativlarni shakllantirish zarur[8]. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga gender stereotiplarning qanday paydo bo‘lishi, ularning ijtimoiy hayotga qanday ta’sir qilishi haqida chuqur ma’lumot berilishi lozim. Shu bilan birga, maktab dasturlarida gender tenglikka oid modullar, interaktiv mashg‘ulotlar va bahs-munozaralar tashkil qilish yoshlarning ongini kengaytiradi, ularni stereotiplar bilan kurashishga undaydi.

Ommaviy axborot vositalarining rolini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Televidenie, kino, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar va kattalar ongiga ta’sir qiluvchi kuchli platformalardir. Bu platformalarda gender stereotiplarga zid, xilma-xil va ijobiy gender obrazlarini targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega. Masalan, ayollarning faqat oilaviy rol bilan emas, balki rahbarlik, ilm-fan, sport va boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlarini ko‘rsatish, erkaklarning esa faqat qattiq va mustahkam emas, balki mehribon va hissiyotli tomonlarini ochish stereotiplarni buzishga yordam beradi. Media orqali gender stereotiplarning salbiy oqibatlari haqida xabardorlik oshirilsa, jamiyatda gender haqidagi an’anaviy qarashlar asta-sekin o‘zgaradi. Siyosiy va ijtimoiy dasturlar ham gender tenglikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Hukumat va nodavlat tashkilotlar gender tenglikni qo‘llab-quvvatlovchi qonunlar, siyosat va loyihalarni amalga oshirish orqali jamiyatdagi stereotiplar va kamsitishlarni kamaytirishi mumkin. Masalan, ish joylarida ayollarning teng huquqli imkoniyatlarini ta’minlash, gender asosidagi maosh tafovutini bartaraf etish, erkaklar va ayollar uchun teng ish sharoitlarini yaratish bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhimdir.

Oilaviy muhit ham gender stereotiplarni yengishda katta ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalarni tarbiyalashda jinsiy rollar haqida qat’iy va cheklovchi stereotiplardan voz kechib, farzandlarini o‘z qobiliyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlari asosida rivojlantirishlari lozim. Teng huquqli tarbiya berish orqali bola o‘zligini erkin ifoda eta oladi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi oshadi va jamiyatdagi gender stereotiplariga qarshi turishga qodir bo‘ladi. Shu bilan birga, oilada gender tenglik haqidagi suhbatlar, hamkorlik va hurmat muhitini yaratish bolalarda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Gender stereotiplari — jamiyatda insonlarning jinsiy guruhlariga oid shakllangan qattiq va ko‘pincha cheklovchi tushunchalar majmuasi bo‘lib, ular shaxsning o‘zligini shakllantirish jarayoni hamda ijtimoiy imkoniyatlarini cheklashda muhim rol o‘ynaydi. Biologik jins — insonning genetik va fiziologik xususiyatlariga asoslangan tabiiy holat bo‘lsa, gender stereotiplari ijtimoiy va madaniy konstruktsiyalar hisoblanadi, ya’ni ular jamiyatning tarixi, madaniyati, qadriyatlari va ta’lim tizimi orqali shakllanadi hamda doimiy ravishda yangilanib boradi. Shu bois, gender stereotiplarni o‘zgartirish va ularni bartaraf etish mumkin, bu esa insonlarning o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini erkin namoyon etishlariga, o‘z-o‘zini to‘liq anglashiga imkon yaratadi. Maqolada keltirilgan buyuk olimlar — Shvarts, Erikson, Bandura, Money, Bem, Butler va boshqalar — gender identifikatsiyasi va stereotiplar jarayonining biologik, psixologik hamda ijtimoiy-madaniy omillarning o‘zaro murakkab ta’sirida shakllanishini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, gender stereotiplarni yengish uchun jamiyatning turli sohalarida — ta’lim tizimi, madaniyat, ommaviy axborot vositalari va siyosiy maydonda — kompleks va uzluksiz yondashuv zarurdir. Ta’limda yoshlarni gender haqidagi stereotiplardan xoli, haqiqiy tenglik tushunchasi bilan tanishtirish, media orqali xilma-xil va ijobiy gender obrazlarini targ‘ib qilish, siyosiy va ijtimoiy dasturlar orqali teng huquqlarni ta’minlash bu jarayonni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, gender stereotiplarni yengish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki

jamiyatda adolat va tenglikni ta’minlash uchun ham muhimdir. Kompleks yondashuv yordamida insonlarning o‘zligini erkin ifoda etishiga zamin yaratiladi, gender asosidagi diskriminatsiya kamayadi va zamonaviy jamiyatlarda sog‘lom, hamkorlikka asoslangan ijtimoiy munosabatlar barpo etiladi. Bu esa, o‘z navbatida, yanada barqaror, demokratik va taraqqiy etgan jamiyat qurishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Eagly, A. H. (1987). *Sex Differences in Social Behavior: A Social-role Interpretation*. Lawrence Erlbaum Associates.
2. Bandura, A. (2001). Social cognitive theory: An agentic perspective. *Annual Review of Psychology*, 52, 1–26.
3. Ridgeway, C. L., & Correll, S. J. (2004). Unpacking the Gender System: A Theoretical Perspective on Gender Beliefs and Social Relations. *Gender & Society*, 18(4), 510-531.
4. Wood, J. T. (1994). Gendered Media: The Influence of Media on Views of Gender. *The Communication Review*.
5. Hyde, J. S. (2005). The gender similarities hypothesis. *American Psychologist*, 60(6), 581–592.
6. Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and Crisis*. W. W. Norton & Company.
7. Butler, J. (1990). *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity*. Routledge.
8. Eagly, A. H., & Wood, W. (2012). Social role theory. In P. A. M. Van Lange, A. W. Krugl

KOORDINATSION QOBILIYATLAR: PSIXOFIZIOLOGIK MEXANIZMLAR VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

DILFUZA ABIDOVNA SOLIYEVA

Pedagogıka fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

Email: dilfuza.salieva.hatamova-82@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tezisda inson harakat koordinatsiyasi qobiliyatining psixofiziologik mexanizmlari va uni samarali shakllantirishdagi pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Koordinatsion qobiliyat- turli harakat elementlarini tartibli va muvofiqlashgan holda bajarish, motor reaksiyalarni boshqarish va harakatni maqsadga yo‘naltirish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Bu qobiliyatning shakllanishi va rivojlanishi tug‘ma reflekslardan tortib ongli harakat ko‘nikmalarigacha bo‘lgan jarayonda, markaziy asab tizimi, xususan miyachalar, motor korteks va sensomotor integratsiya ishtirokida amalga oshadi. Chaqqonlikning biologik va harakat faoliyati nuqtai nazaridan izohlangan talqini keltiriladi.*

Kalit so‘zlar. *koordinatsion qobiliyatlar, онтогенз, психофизиология, чаққонлик, рефлекслар harakatlarni boshqarish, педагогик ёндашувлар , jismoniy rivojlanish, qobiliyatlarni baholash, markaziy asab tizimi*

Аннотация. *В данной научной тезисной работе проанализированы психофизиологические механизмы способности человека к координации движений и педагогические подходы к её эффективному формированию. Координационная способность трактуется как умение выполнять различные элементы движений упорядоченно и согласованно, управлять моторными реакциями и направлять движение к цели. Формирование и развитие этой способности происходит в процессе от врождённых рефлексов до осознанных двигательных навыков с участием центральной нервной системы, в частности мозжечка, моторной коры и сенсомоторной интеграции. Представлено биологическое и двигательное понимание понятия ловкости.*

Ключевые слова: *координационные способности, онтогенез, психофизиология, ловкость, рефлексы, управление движениями, педагогические подходы, физическое развитие, оценка способностей, sentralnaya nervnaya sistema.*

Abstract. *This scientific thesis analyzes the psychophysiological mechanisms underlying human motor coordination ability and the pedagogical approaches for its effective development. Coordination ability is understood as the capacity to perform various movement elements in an orderly and harmonious manner, control motor reactions, and direct movements toward a goal. The formation and development of this ability occur through processes ranging from innate reflexes to conscious motor skills, involving the central nervous system, particularly the cerebellum, motor cortex, and sensorimotor integration. A biological and motor activity perspective on agility is also presented.*

Keywords: *coordination abilities, ontogenesis, psychophysiology, agility, reflexes, movement control, pedagogical approaches, physical development, ability assessment, central nervous system.*

Tadqiqotning maqsadi. Koordinatsiyasi qobiliyatning shakllanishida psixofiziologik mexanizmlarni tahlil qilish va bu qobiliyatni samarali tarzda rivojlantirishda qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlarni ilmiy asosda aniqlashdir.

Tadqiqotning vazifalari.“Koordinatsiya” va “koordinatsion qobiliyat” tushunchalarining lingvistik, biomexanik va psixofiziologik asoslarini tahlil qilish.

Dolzarbligi. Koordinatsion qobiliyat- tartibli joylashtirish yoki jismoniy tarbiya va sport misolida “turli harakatlar elementlarini birlashtirish asosida tartibli joylashtirish” ma’nosini bildiruvchi integral tushuncha bo‘lib, bugungi kunda “chaqqonlik yoki epchillik” atamalarining sinonimi sifatida koordinatsion qobiliyat-deb qabul qilingan. Chaqqonlik yoki epchillik (eplab ketish ma’nosida) atamalari ham o‘z tarkibiga tezkorlik, kuch turlari, anaerob chidamkorlik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni birlashtiruvchi integral qobiliyat, ya’ni koordinatsion qobiliyatni ifodalaydi. Chaqqonlik yoki epchillik ruschada “lovkost”-deb yuritiladi. A.G. Bernshteyn (1991)ning izohlashicha, aslida “lovkost” so‘zi “lovit yoki poymat” so‘zlaridan olingan ekan. Shuning uchun u mazkur integral jismoniy sifatni bunday nom bilan atalish sababini asoslash maqsadida quyidagi rus maqomini e’tirof etgan: “Na lovsa zver bejit”, ya’ni epchil ovchiga hayvonning o‘zi yugurib keladi. Agar yuqorida qayd etilgan izohli ma’lumotlar fiziologik jihatdan ta’riflanadigan bo‘lsa, unda inson tug‘ilishidan boshlab, dastlab ongsiz (instinktiv) yoki shartsiz refleks asosida qidirish va topish (onasini emish uchun), keyinchalik ongli yoki shartli refleksga asoslangan qidirish (izlash)- topish va ehtiyojni qondirish bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirilishi ifodalanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda inson tug‘ilishidan boshlab “ovchi” bo‘lishi va “ovchiga” o‘hshab chaqqon bo‘lishga intilishi tabiiydir. Albatta, bunday qobiliyat nasliy omillarga bog‘liqdir, lekin chaqqonlikni yoki koordinatsion qobiliyatni erta bolalikdan-oila, bog‘cha va maktabdan boshlab, butun hayot davomida shakllantirib borish nafaqat turmush, uy-ro‘zg‘or, mehnat va sport faoliyatlari bilan bog‘liq harakatlar samaradorligini belgilaydi, balki sog‘lom turmush tarzini mustahkamlashga poydevor yasab, sog‘liqni barqarorlashtiradi. Demak, o‘rta umumta’lim maktablarida koordinatsion qobiliyatni yoki harakatlar koordinatsiyasini maqsadli va samarali shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil qilishda nafaqat barga shart-sharoit, barcha imkoniyatlarni yaratish lozim, balki shu koordinatsion qobiliyatning mohiyati, amaliy ahamiyati, uni takomillashtirish uchun qo‘llaniladigan chora-tadbirlar va tartib-qoidalari haqida nazariy tushunchalar berib borish o‘ta dolzarbdir.

Tadqiot muhokamasi. "Koordinatsiya" tushunchasi lotin tilidagi "co" — birgalikda va "ordinatio" — tartibga solish so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, inson organizmida turli harakat elementlarini muvofiqlashtirish asosida samarali va maqsadga yo‘naltirilgan harakatni ta’minlash qobiliyatini anglatadi. Psixofiziologiya nuqtai nazaridan qaralganda, bu qobiliyat markaziy asab tizimi (MAT), mushaklar va hissiy organlar o‘rtasidagi murakkab aloqalar hamda integrativ faoliyat natijasida shakllanadi.

Koordinatsiya- bu faqat jismoniy emas, balki sensomotor tizimlar, kognitiv jarayonlar va motor boshqaruv tizimlarining uzviy muvofiqlashgan faoliyatidir. Masalan, A.G. Bernshteyn ta’kidlaganidek, "lovkost" (epchillik) atamasi nafaqat harakatni bajarishdagi tezlik yoki aniqlikni, balki harakatga doir vazifalarni tanlash, qayta ishlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu esa miyaning motor korteksi, miyachalar (serebellum) va boshqa qo‘shimcha sensor-motor markazlari faoliyatiga bevosita bog‘liqdir.

Insondagi harakat koordinatsiyasining boshlang‘ich manbai tug‘ilishi bilanyoq paydo bo‘ladi. Bu bosqichda harakatlar asosan shartsiz reflekslar (masalan, emish, qarash, qo‘l uzatish) bilan boshlanadi. Keyinchalik, shartli reflekslar shakllanadi va bu jarayon kognitiv faoliyatning (xotira, diqqat, idrok) o‘sishi bilan birga yuz beradi. Buning fiziologik asosini I.P. Pavlovning shartli reflekslar haqidagi nazariyasida ko‘rish mumkin. Shu ma’noda, harakat koordinatsiyasi-instinktiv harakatlardan boshlab, murakkab, ongli harakatlargacha bo‘lgan ontogenetik rivojlanish jarayonining ifodasidir.

Harakat koordinatsiyasida miyaning turli tuzilmalari: motor korteks, bazal gangliyalar, miyachalar (serebellum) va tolamus o‘rtasidagi integratsiya juda muhim. Masalan, miyachalar harakatning aniqligi, ritmi va muvofiqlashuvini ta’minlaydi, bazal gangliyalar esa harakatni boshlash va to‘xtatishda faol ishtirok etadi. Bundan tashqari, proprioretsepsiya (mushak-bog‘lamlardan keladigan signallar) va vestibulyar tizim (muvozanatni saqlash) orqali inson jismi makon va vaqtda o‘z o‘rnini sezadi. Bu tuyg‘ular markaziy asab tizimi tomonidan qayta ishlanib, maqsadli harakatning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Koordinatsion qobiliyatlarni tarbiyalashda psixofiziologiyaga asoslangan metodik yondashuv talab qilinadi. Jumladan:

-Harakatni qismlarga ajratib o‘rgatish- bu miyada harakatni modellashtirish va mustahkamlashga yordam beradi.

-Hatolarni tuzatish- neyroplastiklik jarayonini faollashtiradi, to‘g‘ri motor yo‘llarni mustahkamlaydi.

-Qayta-qayta bajarish va ko‘rgazmali ko‘rsatish- sensor integratsiyani kuchaytiradi va avtomatlashgan harakat modeli yaratiladi.

Yuqorida qayd etilgan manbalar ma’lumotlaridan shunday to‘xtamga kelish mumkinki, ularning deyarli barchasida harakat koordinatsiyasi va koordinatsion qobiliyatlarni bolalarning yoshidan qat’iy nazar “rivojlantirish”, “shakllantirish” yoki “takomillashtirish”- deb e’tirof etiladi. To‘g‘ri, agar harakat koordinatsiyasi va koordinatsion qobiliyat, shu jumladan boshqa jismoniy sifatlar ham (kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamkorlik, hatto qaddi-qomat, muvozanat saqlash ham) genetik

omillarga asoslanishi e’tiborga olinadigan bo‘lsa, unda ehtimol “shakllantirish”, ya’ni ajdod naslidan avlod nasliga sekin-asta o‘tadigan va geteroxron tartibda rivojlanadigan harakat koordinatsiyasi “shakllantirish”- deb yuritish mumkin bo‘ladi. Lekin, yetakchi mutaxassis-olim, jismoniy sifatlar va ularni tarbiyalash muammolariga bag‘ishlangan ko‘plab fundamental ilmiy-nazariy monografiyalar muallifi, professor V.M. Zatsiorskiy (2019) ning ta’kidlashicha, bolaning ona qornida genetik qonuniyatlarga asosan shakllanadigan harakat koordinatsiyalari u tug‘ilgandan keyingi ontogenetik davrlarining dastlabki bosqichlarida turmush tarzi, bog‘cha, maktab va boshqa ta’lim-tarbiya muasassalarida o‘z-o‘zidan yoki tarbiyachi, mutaxassis-trener boshchiligida ma’lum yo‘nalishda va harakat koordinatsiyasining oddiy yoki murakkabligiga qarab ma’lum yoshgacha rivojlanib boradi. Ana shu rivojlanishning sensitiv davrlar yakuniga kelib rivojlanish to‘xtaydi. Endi tarbiyachi yoki mutaxassis-trener bolaning motivatsion qiziqishi va tanloviga qarab shu harakat koordinatsiyasi yoki boshqa bir jismoniy sifatni ma’lum yo‘nalish, ehtimol biror sport turiga mos ixtisoslik doirasida susaygan yoki to‘xtagan rivojlanishni tarbiya asosida zarur tomon bo‘ylab shakllantiradi, keyin takomillashtirish mashqlari va metodlari yordamida zarur bo‘lgan harakat mahoratini saqlaydi. Shunday ekan, mazkur qonuniyatlarga asoslangan holda har bir qobiliyat, har bir harakat, hatto harakatli o‘yin elementlariga ham sport pedagogikasida joriy etilgan o‘rgatish vositalari va metodlaridan tabaqalashtirilgan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tahlil qilingan manbalarda harakat koordinatsiyasi va koordinatsion qobiliyatni shakllantirishda, ularning texnik yoki kinematik tuzilishi, biomexanik va aerodinamik xususiyatlari bo‘yicha tushuntirish-ko‘rsatish metodlari yodamida tasavvur hosil qilish, shundan so‘ng ushbu qobiliyatlarni qismlar, elementlar va fazalarga bo‘lib, keyingina to‘liq holda o‘rgatish, takrorlosh, hatolarni tuzatish, o‘yin va musobaqa metodlaridan foydalanish masalalari to‘la-to‘kis ochib berilmagan. Ta’kidlash joizki, koordinatsion qobiliyatni oddiy yoki murakkab mazmunga ega bo‘lishdan qat’iy nazar ularni yuqorida qayd etilgan tartibda o‘rgatish va shakllantirish foydali natija berishi muqarrar. Shuni e’tirof etish mumkinki, harakat koordinatsiyasi va koordinatsion qobiliyatlar erta yoshlikdan boshlab turli harakatli o‘yinlar yoki vaziyatli o‘yin mashqlar yordamida yanada jadal va yanada samaraliroq sayqal topishi ko‘plab mutaxassis-olimlar tomonidan joriy hamda eksperimental tadqiqotlar asosida isbotlab berilgan.

Xulosa. Koordinatsion qobiliyat va chaqqonlik nafaqat jismoniy sifat, balki neyrofiziologik qobiliyat sifatida ham qaralishi kerak. Ushbu qobiliyatlarning shakllanishi, turli harakatli-sport o‘yinlar, murakkab mashqlar va sport faoliyati orqali qo‘llab-quvvatlansa, nafaqat harakat samaradorligi oshadi, balki asab tizimi, muvozanat, idrok, diqqat va motor xotira ham taraqqiy etadi. Bu esa shaxsning jismoniy, aqliy va psixologik salomatligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Бернштейн Н.А. Физиология движений и активность / Под ред. О.Г.Газенко. - М.: Наука, 1990.-с. 37-45.

2. Лях В.И., Теория управления двигательными действиями по Н.А. Бернштейну.// Теория и практика физической культуры, 2006, №7, С.15–19, 290 с.

3. Soliyeva D.A. The advantage of evaluating the speed and strength coordination abilities of qualified volleyball and basketball players-students using modified tests and exercises specific to the “DAS-Sports game” // Eurasian Journal of Sport Science. –Uzbekistan research online, -vol. 1(2). Tashkent, 2023. - P. 184-88. [13.00.00. Buyruq № 01-10/404].
4. Soliyeva D.A. Harakat koordinatsiyasi va uni innovatsion o‘yin yordamida shakllantirish afzalliklari / O‘quv qo‘llanma. “Yangi Chirchiq prints” // 17/07/2023 №314-170, 2023. – 210 b.
5. Soliyeva D.A. Malakali voleybolchi-talabalar misolida vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni ixtiro qilingan "DAS-sport o‘yini” yordamida rivojlantirish samaradorligi // Fan-sportga Ilmi-nazariy jurnal. Chirchiq, 2023. №5 – B. 30-32. [13.00.00 №16].

DIQQAT XUSUSIYATLARINI TA’LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISHDAGI AHAMIYATI

Dexkonova Marg’uba Erkinovna
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi
o’qituvchisi
Jumaboyeva Munira
Ulig`bek qizi
Psixologiya yo’nalishi talabasi

Anontatsiya: *Ushbu maqola diqqat va uning kichik maktab yoshi hamda o’smirlik davridagi ta’lim sifatiga bog‘liqligini o’rganishga qaratilgan. Diqqatning bilim olishda kasb-hunar egallashdagi o’rni va uning ta’lim samaradorligiga ta’siri haqida psixologik mulohazalar talqini keltirib o`tilgan.*

Аннотация: *Целью данной статьи является изучение внимания и его связи с качеством обучения в раннем детстве и подростково. Дается интерпретация психологических соображений о роли внимания в приобретении знаний при освоении профессии и его влиянии на эффективность образования.*

Abstract: *This article examines attention and its relationship to early school age and quality of education during adolescence. The interpretation of psychological considerations about the role of attention in acquiring knowledge in acquiring a profession and its effect on the effectiveness of education is given.*

Kalit so’zlar: *diqqat, barqarorlik, kuchlilik, ko‘chuvchanlik, taqsimlanish, o’smirlik idrok*

Ключевые слова: *внимание, устойчивость, сила, подвижность, распределение, познание подростка.*

Key words: *attention, stability, strength, mobility, distribution, adolescent cognition*

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning diqqat qobiliyati ta’lim samaradorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Diqqatning xususiyatlari va uning ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganilishi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega**. Diqqat** inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ularni samaradorligini ta'minlovchi mushim shartlardan biridir. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzashmat, davomiylik jishatdan uzoq muddatli, mas'uliyat shissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo’yadi. Inson ziyrakligi, farosatliligi, tez payqashi, sinchkovligi, dilkashligi uning turmush sharoitida, shaxslararo munosabatida mushim omil sifatida xizmat qiladi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xatti-sharakatlari sham uning ishtirokida sodir bo’ladi. Diqqatning asosiy xususiyatlari -

barqarorlik, kuchlilik, taqsimlanish va ko‘chuvchanlikdir. Barqarorlik-diqqatni uzoq vaqt davomida bir faoliyatga qaratib turish qobiliyati bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘quvchining darsga qiziqishini va bilim olish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Kuchlilik - diqqatning intensivligi va faoliyatga qaratilish darajasini bildiradi. Taqsimlanish - diqqatni bir vaqtning o‘zida bir nechta faoliyatga yo‘naltirish qobiliyatidir, bu ayniqsa zamonaviy hayotda ko‘p ishlarni bir vaqtda bajarishda muhimdir. Ko‘chuvchanlik esa diqqatni tez va samarali tarzda bir faoliyatdan boshqasiga o‘zgartirish imkonini beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda diqqat hali to‘liq rivojlanmagan bo‘lib, ularning diqqat barqarorligi past, tez chalg‘ish holatlari ko‘p uchraydi. Shu sababli, ta’lim jarayonida diqqatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. O‘quvchilarni darsga jalb qilish, o‘yinlar, vizual materiallar va interaktiv metodlardan foydalanish orqali diqqatni mustahkamlash mumkin. O’smirlik davrida esa diqqat barqarorligi ortadi, o‘quvchilar mustaqil fikrlash va o’z-o’zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘la boshlaydi. Shu bilan birga, bu yoshdagi o’quvchilar ko’proq tashqi ta’sirlarga chalinishi mumkinligi sababli, ularning diqqatini boshqarish va yo‘naltirishda ota-ona va o‘qituvchilarning roli katta.

Ta’lim samaradorligiga erishishda diqqatning o‘rni beqiyosdir. Diqqat kuchli bo‘lgan o‘quvchilar darslarni yaxshiroq tushunadi, bilimlarni tezroq egallaydi va mustaqil ishlashda muvaffaqiyatga erishadi. Shu bois ta’lim jarayonida diqqatni rivojlantirish va uni boshqarish metodlarini qo‘llash ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Diqqatni faoliyat ustida to’plash va ushlab turish uchun faoliyatni to’g’ri tashkil qila bilish kerak. Masalan, 10-12 yoshli bolalar 40 minut davomida tanaffuzsiz ishlashlari mumkin. Agar faoliyat qiziqarli tashkil qilinsa, u holda bundan ham ko’proq vaqt mashg’ul bo’lishlari mumkin. Bu borada ko’plab olimlar ish olib borishgan va bu bilan ular diqqatni qanchalik inson hayotidagi o’rnini isbotlashga harakat qilishganlar.

P. Ya. Galperin diqqati sust bo’lgan bolalar ustidan "aqliy xatti-sharakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi" ga asoslanib, bir necha seriyadan iborat tajriba ishlarini olib borgan. "Aqliy xatti-sharakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish" tajribasi 5 seriyadan iborat bo’lib, uning birichi qismida 23 ta sinaluvchi (3-sinf o’quvchilari) qatnashgan. Ularga 14ta xatosi bor tekst (matn) berilib, ularni tuzatish vazifasi qo’yiladi. P. Ya. Galperin nazariyasiga binoan, bu asosda bolalarga orientirlash shakllantirish kerak. Shuning uchun 1-seriya "Orientirlash asosi" deb nomlanadi. Tajribaning 2-seriyasi esa, "Moddiylashtirish" deb atalib, 9 ta sinaluvchidan 20-25 minut davomida o’tkaziladi. Bu tajriba individual tarzda olib boriladi.O’quvchilar tekstdagi xatolarni topib, ularni kartochkalardan tekshirishlari (taqqoslashlari) kerak. Tajribada 5ta o’quvchi ko’proq qiyinchiliklarga duch kelishadi, ovoz chiqarmasdan o’qib, tezgina xatolarni tuzatishadi. 3-seriya ob'ektni ovoz chiqarib mushokama qilish deyiladi. Berilgan topshiriqni bajarish jarayoni birmuncha qiyin ko’chadi. Chunki shali bu yoshda bolalarda o’z-o’zini nazorat qilish shakllanmagan bo’ladi. Shuning uchun tajribada uy topshiriqlarini o’quvchilar mustaqil tarzda yechadimi yoki yo’qmi nazorat qilish ota-onalardan iltimos qilinadi. Va nishoyat, shunga erishildiki, "diqqatsizlik"

yo’qolib, o’qishga munosabat o’zgaradi. Ularda intiluvchanlik va qunt shakllanib, o’z-o’ziga ishonish, o’z xatti sharakatlarini nazorat qilish paydo bo’ladi. 4-seriya shivirlab o’zi uchun muloshaza yuritishdan iboratdir. Bu seriyada "diqqatsizlik" tufayli qilinayotgan xatolar barsham topadi. Bolalar ushbu bosqichda 0, 2 xatoga yo’l qo’yadilar, xolos. 5-seriya-"Dilga jo qilish" ("v ume") dir. Bu seriyada eksperimentatorlar o’z oldilariga nazorat qilish xatti-sharakatlarini umumlashtirish vazifasini qo’yadilar.

1. "Shaxmat doskasiga figura sholati to’qriligini tekshir"

2. "Shular orasidagi o’xshashini top"

3. "Namunaviy kartochkadagi raqam bilan bunisidagi (kartochkadagi) raqam bir xilmi, tekshir"

4. "Betartib joylashgan raqamlar ichidan mana bunaqasini top" va boshqalar. Umuman olganda, 3-seriyaning natijalaridanoq ko’rinadiki, topshiriqlar ko’lamini (shajmini) kengaytirib nazorat qilish xatti-sharakatlarini shakllantirishga asos bo’ladi.

Shuningdek diqqatni pedagaik tomonlarini turli pedagog olimlar turli jihatlarini ta’limdagi o’rnini o’rganganlar. Ulug’ rus pedagogi K. D. Ushinskiy ishlarida diqqat to’g’risida juda iliq fikrlar aytilgan. Uning fikricha, diqqat rushiy shayotimizning shunday yagona eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o’tib kradi. Diqqat ob'ektni to’la va aniq idrok qilish qobiliyatiga ega. Ziyraklikning qator sabablariga oldin idrok qilingan ob'ekt izlarining ashamiyatidan tashqari, Ushinskiy "ta'sirotning kuchi va to’plangan aktlarni boshqara olishni ko’rsatadi. Bolaning rivojlanishi uning diqqatini to’qri yo’naltira bilishdaligini muallif ko’rsatadi. Diqqatning to’laligi, barqarorligini ta'minlovchi to’planishning psixologik mexanizmlarini mushokama qilish sham Ushinskiyning asarlarida uchraydi. U diqqatning asosiy omili irodaviy boshqarish deb hisoblaydi.

Xulosa

Diqqat insonning aqliy faoliyatida va ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar va o‘smirlarning diqqat xususiyatlari, xususan barqarorlik, kuchlilik, taqsimlanish va ko‘chuvchanlik kabi omillar, ularning ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Diqqatning rivojlanishi va uni boshqarish qobiliyati o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni tez va samarali egallashlariga yordam beradi.

P. Ya. Galperinning “aqliy xatti-sharakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish” nazariyasi asosida o’tkazilgan tajribalar diqqatni rivojlantirishning samarali usullarini ko’rsatdi. Ushbu bosqichma-bosqich yondashuv orqali o’quvchilarda diqqatni boshqarish, o’z-o’zini nazorat qilish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Natijada, diqqat sustligi kamayib, o’quvchilarning o’qishga munosabati va intiluvchanligi yaxshilanadi.

Shuningdek, pedagogik olimlar, xususan K. D. Ushinskiyning ta’kidlashicha, diqqat inson ongiga kiradigan barcha ma’lumotlarning “eshigi” hisoblanadi. Diqqatning to’g’ri yo’naltirilishi va irodaviy boshqarilishi bolaning aqliy rivojlanishi va ta’limdagi muvaffaqiyatlari uchun asosiy shartdir.

Shu bois, ta’lim jarayonida diqqatni rivojlantirish va boshqarish metodlarini qo‘llash, o’quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-ona va o‘qituvchilarning hamkorligi, interaktiv va qiziqarli dars usullari, shuningdek, diqqatni mustahkamlovchi mashqlar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.P.I.Ivanov. M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya”darslik Toshkent 2020
2.Z.T.nishonova,N.G.Kamilova,D.U.Abdullayeva,M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagoik psixologiya” darslik Toshkent-2018
3. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2021. – 214 b. (544)
4. Ibragimova Sh.G., Muxammadjonova X.X. // SCIENTIFIC PREGRESS. Volume 2, 2021. Pp, 501-505
5. Dexkonova M.E .Diqqatning barqarorligini o‘rganish metodlari. Ma`mun universiteti. “Zamonaviy fan sohalarida shaxs muammolari”2025-yil 15-mart. Urganch. 942-945b.

TALABALIK DAVRIDA KASBIY INDETIFIKATSIYANI SHAKLLANISHIGA KASBIY TAYYORGARLIKNING TA’SIRI

Ergasheva Diloramxon Xamidullayevna
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada kasbiy identifikatsiyalanishni shakllanishiga kasbiy tayyorgarlikning ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Dastavval talabalik davrida kasbiy tayyorgarlikni namoyon bo‘lishiga doir nazariy qarashlarning tahlili bayon qilingan. Shuning bilan talabalik davrida kasbiy identifikatsiyalanishni shakllanishi kasbiy tayyorgarlik bilan o‘zaro aloqadorligi masalasi empirik nuqtai nazardan tekshirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy identifkatsiyalanish, kasbiy tayyorgarlik, kasbga yo‘naltirish, avtonomlik, axborotga egalik, qarorlar qabul qilish, rejalashtirish, emotsional munosabat, noaniq kasbiy, o‘z ixtiyoriga mos bo‘lmagan, tanlov inqirozi, shakllangan.*

Аннотация. *В статье рассматривается влияние профессиональной подготовки на формирование профессиональной идентичности. Сначала изложен анализ теоретических взглядов на проявление профессиональной подготовки в студенческий период. Таким образом, с эмпирической точки зрения исследован вопрос взаимосвязи формирования профессиональной идентификации в студенческий период с профессиональной подготовкой.*

Ключевые слова: *профессиональная идентификация, профессиональная подготовка, профессиональная ориентация, автономность, владение информацией, принятие решений, планирование, эмоциональное отношение, неопределенный профессиональный, непроизвольный, кризис выбора, сформированный.*

Abstract. *The article is aimed at studying the influence of professional training on the formation of professional identity. First of all, an analysis of theoretical views on the manifestation of professional training in the student period is presented. Thus, from an empirical point of view, the issue of the relationship between the formation of professional identification and professional training in the student period has been investigated.*

Keywords: *professional identification, professional training, career guidance, autonomy, possession of information, decision-making, planning, emotional attitude, uncertain professional, non-consensual, crisis of choice, formed.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda ma’naviy jihatdan yetuk o‘z vatanining tarixi, buguni va kelajak uchun qayg‘uradigan, shuningdek, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talablariga mos keladi. Lekin ushbu tushunchaga tahliliy yondoshsa, uning naqadar serqirra va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin.

Ma’lumki, har qanday shaxs kasb tanlash jarayonida mazkur sohaga taalluqli ma’lumotlar zahirasiga ega bo‘lishi talab qilinadi. Bu jarayon albatta, kasbga yo‘naltirish ishlari negizida tashkil qilinadi va amalga oshiriladi. Ayniqsa, yoshlarni kasbiy bilim, tasavvurarini boyitishda ongli kasb tanlashlarida kasbiy ma’lumotning o‘rni beqiyosdir.

Ma’lumki, kasbiy tayyorgarlik deganda "faoliyatning ma’lum bir sohasidagi ishlarni bajarishga imkon beradigan maxsus bilim, ko‘nikma va malakalar majmui tushuniladi. Kasbiy tayyorgarlik mehnat jarayonida, malaka oshirish tizimida va o‘zini o‘zi tarbiyalash orqali takomillashtiriladi [1]. Shu o‘rinda oliy ta’lim tizimida barcha kasblar bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni ta’lim oluvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalar ham nazariy, ham ishlab chiqarish mashg’ulotlaridan o‘tadilar. Shundan so‘ng ular amaliy mashg’ulotlarga yuboriladi. Kasbiy ta’lim va kasbiy mahoratni rivojlantirish bosqichlarining birligi kuzatiladi. Haqiqatdan ham kasbiy tayyorgarlik jarayoni va natijalari bitiruvchining kelajakdagi kasbini va kelajakdagi kasbiy faoliyatini qabul qilishga tayyorligiga ta’sir qiladi.

Talabalarni kasbiy tayyorlash masalalari bilan quyidagi olimlar P.I.Pidkasisti [4], I.P.Podlasy [5], L.M.Mitina [3] va boshqalar shug’ullanishgan. Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligining uzluksizligi, bosqichlari va darajalari g’oyasini A.K.Markova [2], L.S.Podimova [6], V.P.Sergeyeva [7] va boshqalar kabi tadqiqotchilar tomonidan ko‘rib chiqdilar.

Zamonaviy fanda “kasbiy tayyorgarlik” tushunchasi quyidagi ta’riflar bilan ifodalanadi:

- talabalarning muayyan faoliyatni yoki ish guruhini bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashini jadallashtirishga qaratilgan kasbiy ta’lim tizimi [4];

- faoliyatning muayyan sohasidagi ishlarni bajarishga imkon beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayoni.

Maqsad talabalar tomonidan ma’lum bir ish yoki ish guruhini bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni tezlashtirishdan iborat bo‘lib, bu talabaning bilim darajasini oshirishni nazarda tutmaydi [2].

Shunday qilib, oliy ta’lim talabalarini kasbiy tayyorlash tizimining tuzilishida quyidagi tarkibiy qismlar mavjud: ahloqiy-psixologik, uslubiy, nazariy, uslubiy va amaliy tayyorgarlik. Ushbu tarkibiy qismlar pedagogik faoliyatga tayyorlik fenomenining yaxlit xususiyatini va uning tarkibiy qismlarining dialektik o‘zaro

bog’liqligini aks ettiradi. Bu ularni oliy ta’lim talabalarining kasbiy tayyorgarligi tizimini saqlab qolish va rivojlantirish uchun zarur va etarli deb hisoblashda asos vazifasini o‘taydi.

Talabalik davrida kasbiy identifikatsiyalanish jarayoniga kasbiy tayyorgarligini ta’sirini o‘rganish maqsadida A.A.Azbel, A.G.Gresovlarning “Kasbiy identifikatsiya darajasini o‘rganish” metodikasi va A.P.Chernevskayaning “Kasbiy tayyorgarlik” metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalar miqdor va sifatidan tahlil qilingan. Miqdoriy tahlil natijalari jadvalda aks ettiriladi.

1-jadval

1-kurs talabalarida kasbiy tayyorgarlik va kasbiy indetifikatsiya o‘rtasidagi aloqadorlik

Kasbiy tayyorgarlik turlari	Noaniq kasbiy	O‘z ixtiyoriga mos bo‘lmagan	Tanlov inqirozi	Shakllangan
Avtonomlik	-0,26**	-0,24**	0,002	0,31**
Axborotga egalik	-0,14	-0,09	0,08	0,18*
Qarorlar qabul qilish	-0,20**	-0,29**	0,14	0,29**
Rejalashtirish	-0,22**	-0,15*	0,15	0,25**
Emotsional munosabat	-0,20**	-0,24**	-0,04	0,29**

Jadval natijalariga ko‘ra, avtonomlik noaniq kasbiy indetifikatsiya bilan (r=-0,26; p≤0,01), o‘z ixtiyoriga mos bo‘lmagan (majburiy qabul qildirilgan) kasbiy indetifikatsiya bilan (r=-0,24; p≤0,01) qarama-qarshi yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Unga ko‘ra, talaba shaxsining kasb tanlash jarayonida avtonomlikning kuchli darajada namoyon bo‘lishi ularda kasb bilan bog‘liq hayotiy tasavvurlarni shakllanmaganligi, o‘z oldilariga maqsadni qo‘ymaganligi hamda tanlovni boshqalarning ta’siri natijasida amalga oshirmasliklari ma’lum bo‘ldi. Ayniqsa, 1-kurs talabalarida kasbiy tayyorgarlikda avtonomlikni rivojlanganligi shakllangan kasbiy indetifikatsiya bilan (r=0,31; p≤0,01) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Natijalardan ko‘rinadiki, avtonomlikning ortishi ularda kasb tanlash bo‘yicha anglangan maqsadga ega ekanligi hamda mustaqil qaror qabul qilishning tarkib topganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, talabalik davrida kasbiy tayyorgarlik tanlov inqirozi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lmasdan mustaqil hodisa ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Metodika natijalariga ko‘ra, axborotga egalik shakllangan kasbiy indetifikatsiya bilan (r=0,18; p≤0,05) ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Unga ko‘ra, talaba shaxsida tanlagan kasbiga nisbatan axborotga ega bo‘lishi, ularda kelajakdagi kasbiga nisbatan kasbiy reja va qarorlarni tarkib topganligi bilan tavsiflanadi. O‘z navbatida talabalik davrida axborotga egalik noaniq kasbiy indetifikatsiya, o‘z

ixtiyoriga mos bo‘lmagan (majburiy qabul qildirilgan) kasbiy indetifikatsiya, kasbiy indetifikatsiya tanlov inqirozi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lmasdan alohida komponent ekanligi aniqlandi.

Metodika natijalariga ko‘ra, talabalik davrida tanlagan kasbiga nisbatan qarorlar qabul qilish noaniq kasbiy indetifikatsiya bilan (r=-0,20; p≤0,01) o‘z ixtiyoriga mos bo‘lmagan (majburiy qabul qildirilgan) kasbiy indetifikatsiya bilan (r=-0,29; p≤0,01) qarama-qarshi ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi kuzatiladi. Unga ko‘ra, talaba shaxsida tanlagan kasbiga nisbatan adekvat qarorlarni qabul qilish ularda kasb to‘g‘risidagi tasavvur, tushunchani shakllanganligi hamda unga atrofdagi insonlarning ta’siri kuchli emasligini ko‘rsatadi. Shuningdek, talabalik davrida qarorlar qabul qilish shakllangan kasbiy indetifikatsiya bilan (r=0,29; p≤0,01) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi qayd etiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rejalashtirish noaniq kasbiy indetifikatsiya bilan (r=-0,22; p≤0,01) yuqori darajada o‘z ixtiyoriga mos bo‘lmagan (majburiy qabul qildirilgan) kasbiy indetifikatsiya bilan (r=-0,15; p≤0,05) ahamiyatli qarama-qarshi aloqadorlik mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Ta’kidlash kerakki, talaba shaxsida kasb tanlash jarayonini rejalashtirishning ortishi kasbiy tasavvurlarni noaniqligi, kelajakdagi kasbiy faoliyat haqida bilimlarini yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Shuning bilan birga rejalashtirish shakllangan kasbiy indetifikatsiya bilan (r=0,25; p≤0,01) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi qayd etildi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, talaba shaxsida kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni rejalashtira olishi ularda kasbiy rejalarni aniq va maqsadga muvofiq ravishda rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, emotsional munosabat noaniq kasbiy indetifikatsiya bilan (r=-0,20; p≤0,01), o‘z ixtiyoriga mos bo‘lmagan (majburiy qabul qildirilgan) kasbiy indetifikatsiya bilan (r=-0,24; p≤0,01) yuqori darajada qarama-qarshi aloqadorlikka ega ekanligi qayd etildi. Natijalardan ko‘rinadiki, talabalik davrida tanlagan kasbiga nisbatan emotsional munosabatni tarkib topganligi ularda kasblar haqidagi tasavvur va tushunchalarni passiv darajada rivojlanishiga olib keladi. Ayniqsa, talabalik davrida tanlagan kasbiga nisbatan emotsional munosabat shakllangan kasbiy indetifikatsiya bilan (r=0,25; p≤0,01) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd etildi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, talabalik davrida tanlagan kasbiga nisbatan emotsional munosabatni shakllanishi ularda mustahkam kasbiy qaror va rejalarni tarkib topganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kasbiy tayyorgarlikning avtonomlik, axborotga egalik, qarorlar qabul qilish, rejalashtirish, emotsional munosabat kabi mezonlari kasbiy indetifikatsiya tanlov inqirozi bilan o‘zaro aloqadorlikka ega bo‘lmasdan mustaqil komponent ekanligi aniqlandi.

O‘rganilgan emperik ma’lumotlar tahliliga ko‘ra kasbiy tayyorgarlik turlari va kasbiy identifikatsiyalanish ko‘rinishlari bilan o‘zaro ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Unga ko‘ra kasbiy identifikatsiyalanish jarayoniga kasbiy tayyorgarlik samarali ta’sir ko‘rsatish bo‘lajak mutaxassis shaxsni tanlagan kasbiga

nisbatan oqilona munosabatni qaror topganligi bilan belgilanadi. Shunga muvofiq quyidagi xulosalarni shakillantirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz:

-talaba shaxsida kasbiy identifikatsiyalanish ko‘rinishlari va kasbiy tayyorgarlik turlari o‘rtasidagi aloqadorlik tanlovchan tabiatga ega ekanligi qayd qilindi.

-kasbiy tayyorgarlik turlaridan avtonomlik qarorlar qabul qilish, emotsional munosabat va kasbiy identifikatsiyalanish ko‘rinishlari o‘rtasida o‘zaro ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi aniqlandi;

-talabalik davrida kasbiy tayyorgarlikdan axborotga egalik kasbiy identifikatsiyalanish ko‘rinishlari bilan o‘zaro bog’liqlikka ega bo‘lmasdan mustaqil komponent ekanligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллина О. А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования / О. А. Абдуллина. М.: Просвещение, 1990. 141 с.

2. Маркова А. К. Психология профессионалиста / А. К. Маркова. М., 1996. 308 с.

3. Митина Л. М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы) / Л. М. Митина. М.: Дело, 1994. 216 с.

4.Пидкасистый П. И., Портнов М. Л. Искусство преподавания / П. И. Пидкасистый, М. Л. Портнов. М., 1998. 184 с.

5. Подласый И. П. Педагогика. Новый курс [Текст]: учеб. для студ. пед. вузов: в 2 кн. / И. П. Подласый. М.: ВЛАДОС, 2000. Кн. 1: Общие основы. Процесс обучения. 576 с.

6. Подымова Л. С. Теоретические основы подготовки учителя к инновационной деятельности [Текст]: дис. д. п. н. / Л. С. Подымова. М.: МГЛУ, 1996. С. 290.

7. Сергеева В. П. Управление образовательными системами / В. П. Сергеева. М.: Б. И., 2001. 160 с.

ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ВА ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКЛАРДАН ЖАБР КЎРГАНЛАРГА АМАЛИЙ ЁРДАМ КЎРСАТИШ.

Аппакова Дилафрўз Мусохоновна,
Наманган вилояти Давлатобод тумани
"Инсон" ижтимоий хизматлар маркази
психологлар гурухи бош мутахассиси

Аннотация. *Ушбу мақолада Зўравонлик деганда эса хотин-қизларга нисбатан жисмоний, руҳий, жинсий ёки иқтисодий таъсир ўтказиш ёки бундай таъсир ўтказиш чораларини қўллаш билан таҳдид қилиш орқали уларнинг ҳаёти, соғлиғи, жинсий дахлсизлиги, шаъни, қадр-қиммати ва қонун билан ҳимоя қилинадиган бошқа ҳуқуқлари ҳамда эркинликларига тажовуз қиладиган ғайриҳуқуқий ҳаракат ёки ҳаракатсизликда намоён бўлган.*

Калит сўзлар. *Қадр-қиммат, Зўравонлик, Жинсий дахлсизлиг, Тажовуз, Тазйиқ, ҳуқуқий маслаҳат, иқтисодий, ижтимоий, психологик, тиббий, Профилактика, Гендер стереотиплар.*

Аннотация: *В данной статье под насилием понимается противоправное действие или бездействие, которое посягает на жизнь, здоровье, сексуальную неприкосновенность, честь, достоинство и другие права и свободы, охраняемые законом, путем физического, психического, сексуального или экономического воздействия на женщин или угрозы применения таких мер воздействия.*

Ключевые слова: *Достоинство, Насилие, Сексуальная неприкосновенность, Агрессия, Преследование, юридическое консультирование, экономическое, социальное, психологическое, медицинское, Профилактика, Гендерные стереотипы.*

Abstract: *In this article, violence is understood as an unlawful act or omission that encroaches on the life, health, sexual inviolability, honor, dignity, and other rights and freedoms protected by law by physically, psychologically, sexually, or economically harassing women or by threatening to use such measures of influence.*

Keywords: *Dignity, Violence, Sexual Immunity, Aggression, Harassment, Legal Counseling, Economic, Social, Psychological, Medical, Prevention, Gender Stereotypes.*

“Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонунига мувофиқ хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликнинг барча шаклларидан ҳимоя қилиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солади.

Тазйиқ деганда содир этилганлиги учун маъмурий ёки жиноий жавобгарлик назарда тутилмаган, хотин-қизларнинг шаъни ва қадр-қимматини камситадиган ҳаракат ёки ҳаракатсизлик, шилқимлик тушунилади.

Зўравонлик деганда эса хотин-қизларга нисбатан жисмоний, руҳий, жинсий ёки иқтисодий таъсир ўтказиш ёки бундай таъсир ўтказиш чораларини қўллаш билан таҳдид қилиш орқали уларнинг ҳаёти, соғлиғи, жинсий дахлсизлиги, шаъни, қадр-қиммати ва қонун билан ҳимоя қилинадиган бошқа ҳуқуқлари ҳамда эркинликларига тажовуз қиладиган ғайриҳуқуқий ҳаракат ёки ҳаракатсизликда намоён бўлади.

Шундай ҳолда, тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчилар қуйидаги ҳуқуқларга эга бўлади:

– ўзига нисбатан тазйиқ ва зўравонлик содир этилганлиги ёки уларни содир этиш таҳдиди тўғрисидаги ариза билан тегишли ваколатли органларга ҳамда ташкилотларга ёхуд судга мурожаат этиш;

– махсус марказларда, шунингдек бепул телефон линияси орқали текин ҳуқуқий маслаҳат, иқтисодий, ижтимоий, психологик, тиббий ва бошқа ёрдам олиш;

– ички ишлар органларига ҳимоя ордери бериш тўғрисидаги талаб билан мурожаат қилиш, ҳимоя ордери шартлари бузилган тақдирда эса, уларни бу ҳақда хабардор қилиш;

– содир этилган тазйиқ ва зўравонлик натижасида ўзига етказилган моддий зарарнинг ўрни қопланиши ҳамда маънавий зиён компенсация қилиниши тўғрисидаги талаб билан судга мурожаат этиш.

Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчи етказилган моддий зарарнинг ўрнини қоплаш ҳамда маънавий зиённи компенсация қилиш тўғрисидаги ариза билан судга мурожаат этганда давлат божи тўлашдан озод қилинади.

Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш бўйича ваколатларни қуйидаги давлат органлари ва ташкилотлари амалга оширади.

Жумладан:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси;
2. Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари
3. Ички ишлар органлари:
4. Меҳнат органлари:

5. Таълимни давлат томонидан бошқариш органлари ва таълим муассасалари:
6. Давлат соғлиқни сақлаш тизимини бошқариш органлари ва соғлиқни сақлаш муассасалари:
7. Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси:
8. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари:

Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси ёрдам кўрсатиш, маслаҳат бериш механизми ҳамда чора-тадбирлари, хотин-қизларга нисбатан тазйиқ ва зўравонлик ҳолатларининг олдини олиш тўғрисида ахборот олишни таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида туну кун ишлайдиган, бепул телефон линияси тармоғи (ишонч телефони) ишлаб туришини таъминлайди.

Телефон линияси тармоғи махфийликка риоя этган ҳолда фаолият кўрсатади. Ишонч телефони орқали олинган ахборотни ошкор этишга йўл қўйилмайди, бундан қонунчиликда белгиланган ҳоллар мустасно.

Хотин-қизларга нисбатан тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олишга доир якка тартибдаги чора-тадбирлар ҳам амалга оширилиши мумкин.

Жумладан:
профилактика суҳбатини ўтказиш;
ҳимоя ордерини бериш;
тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчиларга ёрдам кўрсатиш бўйича махсус марказларга жойлаштириш;
зўравонлик хулқ-атворини ўзгартириш бўйича тузатиш дастурларидан ўтиш.

Профилактика суҳбати муайян шахсни жамиятда умум қабул қилинган хулқ-атвор нормалари ва қоидаларига риоя этишга ишонтириш, ғайриижтимоий хулқ-атворнинг ижтимоий ҳамда ҳуқуқий оқибатларини тушунтириш, шунингдек қонунда белгиланган жавобгарлик тўғрисида огоҳлантириш мақсадида профилактика суҳбати ўтказилади.

Шунингдек, ҳимоя ордери тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчига ҳимоя ордери ҳам берилади. Тазйиқ ўтказган ва (ёки) зўравонлик содир этган ёхуд уларни содир этишга мойил бўлган шахсга ҳимоя ордерининг нусхаси берилади.

Ҳимоя ордерини берган ички ишлар органининг мансабдор шахси тазйиқ ўтказган ва зўравонлик содир этган шахсни ҳимоя ордерининг шартлари ҳамда уни бажармаслик оқибатлари ва зўравонлик хулқ-атворини ўзгартириш бўйича тузатиш дастурларидан ўтиш зарурлиги тўғрисида хабардор қилади.

Тегишли ҳудудда тазйиқ ва зўравонликнинг якка тартибдаги профилактикасини амалга ошириш учун масъул бўлган ички ишлар органининг мансабдор шахси тазйиқ ва зўравонлик факти ёки уларни содир этиш хавфи аниқланган пайтдан эътиборан 24 соат ичида ҳимоя ордерини ўттиз кун муддатгача беради ва ушбу ордер расмийлаштирилган пайтдан эътиборан кучга киради.

Ҳимоя ордерининг шакли ва уни бериш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан амалга оширилади.

Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчи — ўзига нисбатан тазйиқ ва зўравонлик содир этилиши таҳдиди остида бўлган ёки тазйиқ ва зўравонлик натижасида жабрланган аёл жинсидаги шахс.

Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчи қуйидаги ҳуқуқларга эга:

ўзига нисбатан тазйиқ ва зўравонлик содир этилганлиги ёки уларни содир этиш таҳдиди тўғрисидаги ариза билан тегишли ваколатли органларга ҳамда ташкилотларга ёхуд судга мурожаат этиш;

махсус марказларда, шунингдек бепул телефон линияси орқали текин ҳуқуқий маслаҳат, иқтисодий, ижтимоий, психологик, тиббий ва бошқа ёрдам олиш;

ички ишлар органларига ҳимоя ордери бериш тўғрисидаги талаб билан мурожаат қилиш, ҳимоя ордери шартлари бузилган тақдирда эса, уларни бу ҳақда хабардор қилиш;

содир этилган тазйиқ ва зўравонлик натижасида ўзига етказилган моддий зарарнинг ўрни қопланиши ҳамда маънавий зиён компенсация қилиниши тўғрисидаги талаб билан судга мурожаат этиш.

Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчи етказилган моддий зарарнинг ўрнини қоплаш ҳамда маънавий зиённи компенсация қилиш тўғрисидаги ариза билан судга мурожаат этганда давлат божи тўлашдан озод қилинади.

Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги ёрдам кўрсатиш, маслаҳат бериш механизми ҳамда чора-тадбирлари, хотин-қизларга нисбатан тазйиқ ва зўравонлик ҳолатларининг олдини олиш тўғрисида ахборот олишни таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида туну кун ишлайдиган, бепул телефон линияси тармоғи: 1146 ишлаб туришини таъминлайди.

Телефон линияси тармоғи махфийликка риоя этган ҳолда фаолият кўрсатади.

Ишонч телефони орқали олинган ахборотни ошкор этишга йўл қўйилмайди, бундан қонун ҳужжатларида белгиланган ҳоллар мустасно.

Тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олишга доир чораларни қўллаш асослари:

тазйиқ ва зўравонлик қурбонининг мурожаати;

жисмоний ёки юридик шахсларнинг хабарлари;

тазйиқ ёки зўравонлик содир этиш ёхуд уларни содир этишга уриниш фактларининг ваколатли органлар ва ташкилотлар ходимлари томонидан бевосита аниқланиши;

давлат органларидан ва бошқа ташкилотлардан келиб тушган материаллар.

Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилишни амалга оширувчи ваколатли органлар ҳамда ташкилотлар тазйиқ ва зўравонлик фактлари аниқланган тақдирда бу ҳақда тегишли ички ишлар органларига дарҳол хабар қилиши шарт.

Тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олишда хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш мақсадида қуйидаги тадбирлар амалга оширилади:

тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчиларни ижтимоий реабилитация қилиш ҳамда мослаштириш тизимини такомиллаштириш ҳамда давлат ҳисобидан молиялаштириш;

тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчиларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг хавфсизлигини, жисмоний ва руҳий реабилитациясини ҳамда мослашувини таъминлашга оид чора-тадбирларни амалга ошириш;

хотин-қизлар ва эркакларга нисбатан тазйиқ ва зўравонлик ҳолатларининг олдини олиш ҳамда улар билан ўзаро муносабатлар маданиятини юксалтириш бўйича мулкчилик шаклларидан қатъи назар барча идора ва ташкилотларда профилактика тадбирларини ўтказиш;

хотин-қизлар ва эркакларга нисбатан тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олишда давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари ўртасида ижтимоий шериклик муносабатларини мустаҳкамлаш;

1. тазйиқ ва зўравонлик ҳолати қайд этилган оилалар, иш жойлари, жазони ижро этиш муассасалари ва бошқа объектларнинг ҳисобини юритиш, шунингдек тазйиқ ва зўравонлик содир этишга мойил бўлган ёки уни содир этган ғайриижтимоий хулқ-атворли шахсларни аниқлаш, уларга профилактик таъсир кўрсатиш ҳамда хулқ-атворини ўзгартириш тизимини ва чораларини такомиллаштириш;

2. мамлакатларда тазйиқ ва зўравонлик ҳолатларини баҳоловчи халқаро рейтинг ва индексларда Ўзбекистоннинг ўрнини яхшилаш чораларини кўриб бориш;

3. жамиятда тазйиқ ва зўравонлик содир этилишига олиб келадиган сабаб ҳамда шарт-шароитларни таҳлил қилиш ва уларни бартараф этиш чораларини кўриш, бу борада жамоатчилик назоратини олиб бориш, шунингдек илмий, амалий ҳамда фундаментал тадқиқотларни қўллаб-қувватлаш;

4. хотин-қизлар ва эркакларга нисбатан тазйиқ ва зўравонликка доир муросасизлик муҳитини яратиш, гендер стереотипларни бартараф этиш бўйича оммавий ахборот воситалари иштирокида тарғибот-ташвиқот ишларини кучайтириш.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон фармони. - https://lex.uz/docs/3107036

2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-561-сон Қонуни. - https://lex.uz/docs/4494709

3. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Т .: 2009. – Б. 199.

4-SHO‘BA: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING PSIXOLOGIK TA’LIM VA PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING PSIXOLOGIK TA’LIM VA PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGIGA TASIRI

Maxsudova Mutabarxon Abdusalomovna
Dotsent, ps. F. n.
No’monjonova Gulshoda Adhamjon qizi
Abduvohidova Malikajon Bahodirjon qizi
NamDU Psixologiya mutaxassisligi magistrantlari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning psixologik ta’lim va psixologik xizmat ko‘rsatish sohalariga ta’siri tahlil qilinadi. Psixologik treninglar, maslahatlar va ta’lim jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi orqali samaradorlik oshayotgani, masofaviy xizmatlarning kengayib borayotgani va interaktiv vositalar yordamida talabalarning motivatsiyasi hamda ishtirokchilarning qiziqishi kuchayayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, texnologiyalarning ayrim salbiy ta’sirlari va ularni kamaytirish yo‘llari ham muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli texnologiyalar, psixologik ta’lim, psixologik xizmat, masofaviy o‘qitish, onlayn maslahat, interaktiv platformalar, samaradorlik.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается влияние цифровых технологий на эффективность психологического образования и предоставления психологических услуг. Подчеркивается рост эффективности благодаря использованию современных технологий в процессе проведения психологических тренингов, консультаций и обучения. Анализируются возможности дистанционных форм обучения и онлайн-консультаций, а также обсуждаются потенциальные риски и пути их минимизации.*

Ключевые слова: *Цифровые технологии, психологическое образование, психологические услуги, дистанционное обучение, онлайн-консультации, интерактивные платформы, эффективность.*

Annotation: *This article explores the impact of digital technologies on the effectiveness of psychological education and service delivery. It highlights the growing efficiency of psychological training, counseling, and teaching processes through the integration of modern technologies. The paper examines the expansion of remote services, the use of interactive tools to enhance motivation and engagement, as well as discusses potential drawbacks of digitalization and strategies to mitigate them.*

Keywords: *Digital technologies, psychological education, psychological services, distance learning, online counseling, interactive platforms, effectiveness.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha sohalarini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, ta’lim va psixologik xizmatlar ham bundan mustasno emas. Zamonaviy psixologiya, ayniqsa, psixologik ta’lim va xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi, ularning samaradorligini oshirish va masofaviy ta’limni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida psixologik treninglar, maslahatlar va ta’lim jarayonlarini yanada interaktiv, samarali va keng qamrovli qilish mumkin.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimida qo‘llanilishi sezilarli darajada oshgan. Xususan, 2020 yildan boshlab COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’lim tizimiga o‘tish, psixologik xizmatlarning onlayn shakllarini rivojlantirishga turtki bo‘ldi. Shu bilan birga, psixologik ta’limni

raqamli platformalar orqali amalga oshirish, talabalar va psixologlarga yangi imkoniyatlar yaratdi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning psixologik ta’lim va xizmatlarga ta’siri tahlil qilinadi, ularning samaradorligi, foydalari va salbiy tomonlari ko‘rib chiqiladi.

Psixologik ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi nafaqat o‘qitish samaradorligini oshirish, balki talabalarni motivatsiya qilish, o‘quvchilarning psixologik holatini kuzatish imkonini ham beradi. Internetning rivojlanishi va turli xil interaktiv platformalar, masalan, videokonferensiyalar, onlayn psixologik treninglar va masofaviy ta’lim tizimlari, ta’lim jarayonini sezilarli darajada o‘zgartirdi.

2020 yilda O‘zbekistonda 1,8 milliondan ortiq talaba masofaviy ta’limga o‘tgan va bu raqamlar yildan-yilga ortib bormoqda. Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni kengaytirish maqsadida 2022 yilda "Raqamli ta’limni rivojlantirish" dasturi ishga tushirildi. Bu dastur, o‘z navbatida, psixologik ta’limni ham o‘z ichiga oladi, chunki psixologlar uchun onlayn treninglar va maslahatlar mavjud bo‘lib, o‘quvchilarga eng zamonaviy metodlar yordamida o‘rgatish imkoniyatini yaratadi.[1]

Psixologik treninglar va masofaviy ta’lim, ayniqsa, psixologik treninglar va kurslar uchun juda foydalidir. Onlayn platformalar, masalan, Zoom, Skype, Google Meet kabi vositalar orqali psixologlar o‘z bilimlarini baham ko‘rishlari mumkin, bu esa o‘quvchilarni ko‘proq ishtirok etishga undaydi. Bunday format, shuningdek, psixologlarning o‘z mijozlariga masofaviy ravishda xizmat ko‘rsatishlariga yordam beradi.

Psixologik maslahatlar va terapiya jarayonida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi juda muhim ahamiyatga ega. Masofaviy psixologik yordam so‘nggi yillarda mashhur bo‘lib bormoqda, chunki bu usulda mijozlar o‘z uylaridan chiqmasdan psixologik yordam olishi mumkin.

O‘zbekistonda 2020 yilning mart oyida COVID-19 pandemiyasi boshlanishi bilan psixologik xizmatlar onlayn platformalar orqali taqdim etila boshlandi. Shuningdek, Psixologiya institutlari va psixologlar kengaytirilgan onlayn xizmatlar orqali aholiga psixologik yordam ko‘rsatishga kirishdi.[2] Shunday qilib, o‘zbek psixologik xizmatlarining onlayn shakllari, pandemiya davomida ko‘proq joriy etildi va bu psixologik xizmatlarning sifatini oshirdi.

Interaktiv vositalar va platformalar: Interaktiv vositalar, masalan, video treninglar, o‘quv videolarini tayyorlash, psixologik maslahatlarni o‘zaro muhokama qilish imkoniyatlari, psixologik yordam jarayonini yanada samarali qiladi. Bu vositalar yordamida o‘quvchilarning fikrlarini tinglash va o‘zaro munosabatlarni yaratish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalarni psixologik ta’limda qo‘llash samaradorlikni oshiradi, chunki ular o‘quvchilarning ishtirokini oshirish, o‘z fikrini ifoda etish va tezkor javob olish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim tizimlari psixologik yordamni ko‘rsatishda shaxsiy erkinlik va maxfiylikni ta’minlaydi.

2022 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra, psixologiya bo‘yicha ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

ishlab chiqildi. [3] Bunda, o‘quvchilarga masofaviy ta’lim jarayonida psixologik yordam berishning yangi shakllari ishlab chiqildi. Bu, albatta, psixologik xizmatlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarning psixologik ta’lim va xizmatlarga ta’siri faqat ijobiy emas. Salbiy tomonlari ham mavjud. Ularning eng muhim salbiy ta’siri shundan iboratki, uzoq vaqt davomida kompyuter yoki boshqa raqamli qurilmalardan foydalanish psixologik holatga zarar yetkazishi mumkin. Masalan, psixologik masofaviy xizmatlar, faqat onlayn muloqotga asoslangan, ba’zi mijozlarga noqulaylik tug‘dirishi, psixologik konsultatsiyalarni samarali o‘tkazishni qiyinlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni noto‘g‘ri qo‘llash, masalan, noxush maqsadlar uchun foydalanish, psixologik xizmatlarning ishonchliligini pasaytirishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar psixologik ta’lim va xizmat ko‘rsatish sohalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli alohida ahamiyatga ega. Masofaviy ta’lim, interaktiv vositalar va onlayn psixologik yordam yangi imkoniyatlar yaratdi, lekin ba’zi salbiy ta’sirlar ham mavjud. Shu bois, texnologiyalarni yanada samarali va xavfsizroq foydalanish yo‘llarini izlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, T. 2022 yil.
2. O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tizimining 2020-2022 yillarda rivojlanishi.T.2020
3. Ismailova, D."Raqamli texnologiyalar va ta’lim: Yangi yondashuvlar". O‘zbekiston Psixologiya jurnali. 2021.

TIBBIYOT TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

G’aybullayev A’zam Axadovich,
p.f.f.d o‘qituvchi,
Psixologiya kafedrasi
Buxoro davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston

Аннотация: *В данной статье анализируются современные подходы и практические стратегии повышения эффективности психологической службы в системе здравоохранения. Представлен опыт развитых стран, текущая ситуация в Узбекистане и научно-практические предложения по улучшению качества услуг. В статье освещаются такие важные вопросы, как организация психологической службы, переподготовка специалистов и использование цифровых технологий.*

Ключевые слова:*Психологическая служба, система здравоохранения, эффективность, охрана здоровья, специалист-психолог, телепсихология, интеграция.*

Abstract:*This article analyzes modern approaches and practical strategies for improving the effectiveness of psychological services in the healthcare system. It presents the experience of developed countries, the current situation in Uzbekistan, and scientific-practical recommendations for enhancing service quality. The article addresses important issues such as the organization of psychological services, retraining of specialists, and the use of digital technologies.*

Keywords:*psychological service, healthcare system, effectiveness, health protection, psychological specialist, telepsychology, integration.*

Annotatsiya:*Ushbu maqolada tibbiyot tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirish bo’yicha zamonaviy yondashuvlar va amaliy strategiyalar tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlar*

tajribasi, O’zbekistondagi mavjud holat va xizmat sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar bayon etilgan. Maqolada psixologik xizmatni tashkil qilish, mutaxassislarni qayta tayyorlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi muhim masalalar qamrab olingan.

Kalit so’zlar:*psixologik xizmat, tibbiyot tizimi, samaradorlik, sog’liqni saqlash, psixolog mutaxassis, telepsixologiya, integratsiya.*

Kirish: Bugungi kunda tibbiyot tizimida faqat jismoniy kasalliklarni emas, balki bemorlarning ruhiy holatini ham hisobga olgan holda yondoshish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki, tibbiyot muassasalarida samarali psixologik xizmat tashkil etilishi umumiy sog’liqni saqlash natijalarini yaxshilaydi. O’zbekistonda ham sog’liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish doirasida psixologik xizmatning ahamiyati ortib bormoqda. Jumladan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12–iyul, 577-sonl “Psixologik xizmatni ta’lim muassasalarida tashkil etish” tartibi, “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi 2024-yil 5 noyabrdagi O‘RQ 989-sonli qonunlari sog’liqni saqlash tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirish hozirgi kunda naqadar dolzarbligi fikrimiz dalilidir. Shu munosabat bilan ushbu maqolada psixologik xizmatni yanada samarali tashkil etish uchun amaliy va strategik takliflar ilgari suriladi.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi – O’zbekiston tibbiyot muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, xorijiy tajribani tahlil qilish va milliy modelni takomillashtirishdir.

Tadqiqotni tashkil qilish usullari: Ushbu tadqiqotda zamonaviy ilmiy-tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy uslublar qo’llanildi:

1. Qiyosiy tahlil usuli – rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya) va O’zbekistondagi tibbiyot tizimidagi psixologik xizmatning tashkiliy va funktsional xususiyatlari taqqoslandi. Bu orqali samarali modellar va muammoli nuqtalar aniqlandi[9].
2. Kontent tahlil – xalqaro tashkilotlar (JSST, APA), milliy normativ hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va amaliy ko’rsatmalar tahlil qilindi. Bu xizmatning huquqiy, metodik va amaliy asoslarini o’rganish imkonini berdi[10].
3. So’rov va interv’yu usuli – O’zbekistondagi bir qator klinika va shifoxonalarda faoliyat yuritayotgan tibbiy psixologlar va tibbiyot xodimlari o’rtasida so’rovnoma va yuzma-yuz interv’yular o’tkazildi. So’rovda 120 nafar mutaxassis qatnashdi. Ular orqali amaliyotdagi real muammolar va yechim takliflari o’rganildi.
4. Keys-stadi tahlili – muvaffaqiyatli amalga oshirilgan psixologik xizmat tajribalari tahlil qilindi. Bunda xorijiy modellarning O’zbekiston sharoitiga mosligi baholandi.
5. Sotsiologik tahlil – aholi va bemorlar o’rtasida psixologik xizmatdan xabardorlik va undan foydalanish darajasi o’rganildi. Bu orqali xizmatning tarqalishi va jamoatchilik fikri aniqlandi.

Ushbu usullar yordamida olingan ma’lumotlar tahlil qilindi va tadqiqot natijalariga asos bo’ldi. Jamlangan ma’lumotlar empirik va nazariy jihatdan asoslangan holda umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Tadqiqot natijalari ko’rsatdiki, tibbiy muassasalarda psixologik xizmatni tashkil etish darajasi mamlakatlar bo’yicha turlicha. AQSh, Germaniya, Kanada[3] kabi rivojlangan mamlakatlarda tibbiy psixologik xizmat sog’liqni saqlash tizimining ajralmas qismi sifatida faol ishlab kelmoqda. Masalan, AQShda [1] har bir katta klinikada tibbiy psixologlar, psixoterapevtlar va psixiatrlardan iborat jamoa faoliyat yuritadi[10]. Ular bemorni qabul qilishdan tortib, reabilitatsiya jarayonigacha individual yordam ko’rsatadi.

O’zbekistondagi vaziyatni tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

Psixolog mutaxassislarning yetarli emasligi va kadrlar tayyorlashdagi tizimli muammolar;

Amaldagi tibbiy muassasalarda psixologik xizmat bo’linmalari kam yoki formal tusda ish yuritadi;

Psixologik xizmat standartlari, metodik qo’llanmalar va ish reglamentlari yetarlicha ishlab chiqilmagan;

Psixologik xizmatga nisbatan tibbiyot xodimlari va aholi orasida ishonch darajasi past;

Bemorlar tomonidan xizmatdan foydalanish ko’rsatkichi past bo’lib, ko’p hollarda mutaxassisga murojaat qilish kechikib amalga oshiriladi.120 nafar tibbiy xodim o’rtasida o’tkazilgan so’rov natijalariga ko’ra:68% respondent psixologik xizmat zarur deb hisoblaydi;52% respondent bunday xizmatdan biror marta ham foydalanmagan;81% respondent psixologik xizmatda kadrlar yetishmasligini e’tirof etgan.

Shuningdek, yuzma-yuz interv’yular orqali aniqlandiki, tibbiyot xodimlari psixologik tayyorgarlik bo’yicha yetarli bilim va ko’nikmalarga ega emas. Bemor bilan muloqot, stressni boshqarish, yondashuvda etik me’yorlarga rioya qilishda ko’plab muammolar mavjud. Xorijiy tajribada, ayniqsa Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida psixologik xizmatni raqamli texnologiyalar orqali tashkil qilish (telepsixologiya, onlayn platformalar, mobilь ilovalar orqali maslahatlar) yaxshi samara berayotgani aniqlandi [2][5].

Bunday natijalar asosida quyidagi muhokamalarni keltirish mumkin:

Tibbiy psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun uni institutsional darajada qayta shakllantirish zarur;

Integrativ yondashuv – tibbiy va psixologik xizmatlar o’rtasida o’zaro hamkorlikni kuchaytirish zarur;

Tibbiy psixologlarning kasbiy tayyorgarligi, qayta o’qitish va malaka oshirish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish lozim;

Psixologik xizmatni baholash va monitoring qilish tizimini joriy etish orqali xizmat sifatini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi[7].

Xulosa: Tadqiqot natijalari asosida aniqlandiki, O’zbekiston tibbiy muassasalarida psixologik xizmatni samarali tashkil etish sog’liqni saqlash

tizimining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylanmog’i lozim. Chunki bemorlarning faqat jismoniy emas, balki ruhiy holati ham sog’lomlik darajasiga ta’sir ko’rsatadi. Xulosa sifatida quyidagi strategik takliflar beriladi:

Huquqiy va institutsional bazani takomillashtirish

Psixologik xizmatga oid qonunchilik bazasi, me’yoriy hujjatlar va klinik protokollar qayta ko’rib chiqilishi va yangilanishi zarur. Bu xizmatni tibbiy muassasa ichida alohida funktsional bo’linma sifatida mustahkamlash imkonini beradi[9].

Kadrlar tayyorlash va qayta o’qitish tizimini kengaytirish

Psixolog mutaxassislarni tayyorlashda tibbiyotga ixtisoslashtirilgan yo’nalishlar tashkil etish, mavjud psixologlarni qayta o’qitish orqali ularni tibbiy tizimga moslashtirish muhimdir.

Integratsiyalashgan xizmat modelini joriy etish

Psixologlar, vrachlar va ijtimoiy xodimlardan iborat jamoaviy yondashuv asosida bemorga kompleks yordam ko’rsatish tizimi joriy etilishi lozim. Bu bemorlarning ruhiy ehtiyojlarini ham hisobga olish imkonini beradi.

Raqamli psixologiya va telepsixologiyani amaliyotga joriy etish

Zamonaviy onlayn platformalar orqali psixokonsul’tatsiya xizmatlarini ko’rsatish orqali xizmat qamrovini kengaytirish mumkin. Bu ayniqsa chekka hududlar uchun dolzarb hisoblanadi. Aholi o’rtasida psixologik savodxonlikni oshirish

Jamoatchilik orasida psixologik madaniyatni shakllantirish, ruhiy sog’lomlikning ahamiyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ’ibot ishlarini kuchaytirish zarur.

Milliy modelni yaratish

Xorijiy tajribalar va mahalliy sharoitni hisobga olgan holda O’zbekiston uchun moslashtirilgan, ilmiy-amaliy asoslangan psixologik xizmat modeli ishlab chiqilishi lozim.

Ushbu choralar amalga oshirilsa, tibbiy tizimdagi psixologik xizmatning samaradorligi sezilarli darajada oshadi, bemorlarning qoniqish darajasi va tez tiklanish ko’rsatkichlari yaxshilanadi. Shu bilan birga, umumiy aholining psixik salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. World Health Organization (2022). Integrating Mental Health into Primary Care. Geneva: WHO Press.
2. American Psychological Association (2021). Guidelines for Psychological Practice in Health Care Delivery Systems.
3. Engel, G.L. (1977). The need for a new medical model: a challenge for biomedicine. Science, 196(4286), 129–136.
4. Barlow, D.H. (2014). Clinical Handbook of Psychological Disorders. 5th ed. New York: Guilford Press.
5. Kazdin, A.E. (2017). Evidence-Based Psychotherapy: Where Practice and Research Meet. New York: Oxford University Press.
6. Thombs, B.D., et al. (2020). Effectiveness of psychological interventions in medical settings: A meta-analysis. Journal of Health Psychology, 25(8), 1103–1118.

7. Raximova, G. (2022). Tibbiy muassasalarda psixologik xizmatni tashkil etishning amaliy masalalari. Toshkent: Ilm-fan.
8. Tojiev, I. (2023). Psixologik xizmat samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar. O‘zbekiston psixologiya jurnali, №2**.**
9. Бек, А. (2020). "Основы когнитивной терапии". Москва: Питер.
10. Norcross, J.C., & Wampold, B.E. (2018). Relationships and responsiveness in the psychological treatment of mental health problems. Journal of Clinical Psychology, 74(11), 1872–1880.

FUNKSIONAL VA RUHIY HOLATLARNI O‘RGANISH METODLARI TAVSIFI

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti
Berdiboyeva Nozima Mirzaahmad qizi
NamDU psixologiya yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixologiya va fiziologiya sohalarida olib borilgan inson ruhiyati va organism funksional holatlarini o‘rganishga qo’llaniladigan metodlar, funksional holatlar darajasi, asosiy indikatorlari va ularning o‘zaro aloqadorligini tadqiq etish bilan bog‘liq usullar tahlili keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologik va fiziologik tizim, subyektiv metodlar, so‘rovnoma, obyektiv metodlar, ekstensiv va intensiv holatlar, funksional holatlar.*

Аннотация: *В статье представлен анализ методов, используемых в области психологии и физиологии для изучения функциональных состояний психики и организма человека, уровня функциональных состояний, их основных показателей и их взаимосвязей.*

Ключевые слова: *психолого-физиологическая система, субъективные методы, анкетирование, объективные методы, экстенсивные и интенсивные состояния, функциональные состояния.*

Abstract: *This article presents an analysis of the methods used in the fields of psychology and physiology to study the functional states of the human psyche and organism, the level of functional states, their main indicators, and their interrelationships.*

Keywords*: psychological and physiological system, subjective methods, questionnaire, objective methods, extensive and intensive states, functional states.*

Funksional va ruhiy holatlarni o‘rganish metodlari psixologiya, fiziologiya va tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Quyida ularning umumiy tasnifini keltirib o‘tamiz:

1. Subyektiv metodlar (so‘rovnoma, intervyu, Intervyu Psixologik testlar **testlar).** Bu metodlar insonning o‘z holati haqida bergan axborotiga asoslanadi.

So‘rovnomalar (anketalar) – hissiy holat, stress darajasi, charchoq, motivatsiya kabi jihatlarni aniqlashda qo‘llaniladi.

Intervyular – ruhiy holatga ta’sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Psixologik testlar – shaxsiy xususiyatlar (masalan, nevrotiklik, depressivlik, tashvishlilik) va holatlarni baholashda ishlatiladi.

2. Obyektiv metodlar (fiziologik o‘lchovlar) -bu metodlar inson organizmida sodir bo‘layotgan fiziologik jarayonlarni o‘lchaydi.

Elektroensefalografiya (EEG) – miya faoliyatini, hushyorlik va charchoq darajasini o‘rganish.

Elektrokardiografiya (EKG) – yurak faoliyati, stressga organizm javobi.

Gormonal tahlillar – kortizol, adrenalin kabi stress gormonlari darajasini aniqlash.

Nafas olish va yurak urish chastotasi monitoringi – funksional holatni real vaqtda baholash.

3. Eksperimental metodlar- muayyan sharoitda insonning funksional yoki ruhiy javobini o‘rganish imkonini beradi. Reaksiyaning tezligi testi – psixomotor holat va hushyorlik darajasini baholash.

Diqqat va xotirani o‘lchovchi mashqlar – kognitiv faoliyat holatini o‘rganadi.

Stress-induksiyalovchi tajribalar – turli stress manbalariga javobni tahlil qilish.

4. Kuzatuv metodlari- oddiy kuzatuv – shaxsning kundalik faoliyatidagi ruhiy holatlari (xulq-atvori, yuz ifodalari).

Videoanaliz – ruhiy holat o‘zgarishlarini aniqlash uchun ishlatiladi (masalan, yuz mimikasi, tana holati).

5. Kompyuter texnologiyalari asosida metodlar:

Psixofiziologik monitoring tizimlari – EMG, GSR, EEG kabi ko‘rsatkichlarni kompleks tarzda o‘lchaydi.

Biofeedback texnologiyalari – funksional holatni baholash va boshqarishni o‘rgatishda qo‘llaniladi.

Funksional holatlar diagnostikasining eng keng tarqalgan amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ish davomida inson faoliyatining ishonchliligini baholash (dolzarb funksional holatlar diagnostikasi).
2. Mutaxassisning aniq vaziyatda faoliyatni bajarishga tayyorligini baholash (funksional holatlar rivojlanishini qisqa muddatli bashorat qilish) .
3. Insonning kasbiy vazifalarni ishonchli va muvaffaqiyatli bajarishdagi imkoniyatlari (kasbiy yaroqlilikni aniqlash maqsadida uzoq muddatli bashorat qilish).
4. Muayyan kasbiy maqomni egallab turuvchi xodimlar salomatligiga xavf soluvchi omillarni baholash (ish qobiliyati va kasbiy faoliyat bilan uzoq muddat shug‘ullanishni saqlash maqsadidagi uzoq muddatli bashorat qilish).
5. “Qiyin vaziyatlar”, avariyalar, baxtsiz hodisalar ekspertizasi (turli nosozliklarda inson omilining rolini baholash).

Funksional holatlarni baholash metodlari

1. Fiziologik metodlar: bioximik metodlar, vegetativ siljishlarni baholash metodlari, elektrofiziologik metodlar;

2.Psixofiziologik metodlar: fiziologik ko‘rinishlarni bevosita baholash metodlari;

3.Psixologik metodlar: obyektiv psixometrik testlar (kognitiv, ijro etuvchi), subyektiv metodikalar (so‘rovnomalar, subyektiv shkalalar, standartlashgan intervyu);

4.Proyektiv testlar;

5.Xulq-atvorni o‘rganish metodlari: miqdoriy metodlar (mehnat samaradorligini baholash, faoliyat samaradorligini baholash, xronometraj va boshqalar)

- Sifat metodlari (standartlashgan kuzatish, videokuzatuv, ekspressiv aktlarni baholash; nutqiy harakatlarni tahlil qilish va boshqalar).

Funksional holatlar diagnostikasi metodik vositalari juda ham rang-barangdir. Odatda ularning uchta -fiziologik, xulq-atvor va subyektiv tiplari farqlanadi. Ko‘p hollarda dixotomik ko‘rinishda, ya’ni fiziologik va psixologik ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi.

Psixofiziologik holatlarni o‘rganishning barcha usullarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- insonning xatti-harakati va ifodasini kuzatish;
- odamdan hozirgi paytda boshidan kechirganlari haqida so‘rash;
- fiziologik parametrlarni o‘lchash: puls va nafas olish tezligi, gaz almashinuvi, EEG va boshqalar
- psixologik ko‘rsatkichlarni o‘lchash (reaksiya vaqti, konsentratsiya va diqqatni almashtirish va boshqalar);
- ishlash samaradorligini uzoq vaqt davomida qayd etish.

Psixofiziologiya bo‘yicha umumiy tashxis usullarining tahlili

Tashxis usuli	Tavsifi	Afzalliklari	Cheklovlari
Elektroensefalo-grafiya (EEG)	Miya faoliyatini o‘lchash, hushyorlik, charchoq, stress holatini aniqlash.	Noinvaziv, real vaqt rejimida monitoring, sezgirlik yuqori.	Jihozlar qimmat, malakali mutaxassis zarur, tashqi shovqin ta’sir ko‘rsatadi.
Elektrokardiografiya (EKG)	Yurak urish ritmini, stressga organizm javobini o‘lchash.	Oddiy, tezkor, ko‘pchilikka qo‘llash mumkin.	Tahlil yurak faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarda cheklangan.
Gormonal tahlillar	Qon yoki so‘lakdagi kortizol, adrenalin darajasini aniqlash.	Stress va emotsional holatni biologik darajada baholaydi.	Biologik namunalar zarur, laboratoriya sharoiti kerak.
Galvanik teri reaksiyasi (GTR)	Teri qarshiligidagi o‘zgarishlar orqali emotsional reaksiya baholanishi.	Tezkor, sezgir, turli psixologik holatlarni aniqlaydi.	Teri holatiga, haroratga bog‘liq, shaxsiy farqlarga sezgir.
Psixologik testlar	Subyektiv his-tuyg‘ular, ruhiy holatlarni baholovchi savollar.	Tez va oson o‘tkaziladi, ko‘plab testlar mavjud.	Subyektiv javoblarga bog‘liq, noto‘g‘ri axborot ehtimoli bor.
Psixomotor testlar	Reaksiya va harakat tezligi orqali funksional holatni baholash.	Oddiy, turli holatlarda qo‘llash mumkin.	Motivatsiya, charchoq natijalarga ta’sir qilishi mumkin.

Tajriba ishimizda T.A.Nemchinning “Psixik zo‘riqishlarni baholash” so‘rovnomasi o‘tkazildi. Sinaluvchilarga metodikaning savolnomasi va javoblar

varag‘i tavsiya etildi. Metodka yo‘riqnomasiga ko‘ra sinaluvchilar ularga tavsiya etilgan 30 ta savolning mumkin bo‘lgan 3 ta a, b, v javoblar variantidan o‘zlarida oxirgi 1 hafta davomida kuzatilgan holatlardan mosini tanlashi kerak bo‘ladi. Imkon qadar sinaluvchilardan “yaxshi” yoki “yomon” javoblar yo‘qligini e’tiborga olgan holda rostgo‘y bo‘lishlari so‘raldi.

T.A.Nemchinning “Psixik zo‘riqishlarni baholash” so‘rovnomasi klinik-psixologik kuzatuvlar natijasida aniqlangan hissiy-psixik zo‘riqishlarning 30 ta belgilari ro‘yxati va ularning uch xil darajasini aks ettiruvchi fikr-mulohazalardan tashkil topgan.

Tekshiruv har bir tadqiqotga jalb qilinganlar bilan yakka tartibda, turli shovqin va ta’sirlardan xoli, yaxshi yoritilgan xonada olib boriladi.

Javoblar varag‘i to‘ldirib bo‘lingach, har bir tekshiriluvchining to‘plagan ballari hisoblab chiqiladi, “a” javobga qo‘yilgan “+” ishorasi 1 ball, “b” javobga qo‘yilgan “+” ishorasi 2 ball, “v” javobga qo‘yilgan “+” ishorasi 3 ball bilan baholanadi. Bunda tekshiriluvchi to‘plashi mumkin bo‘lgan maksimal ball 90 ni, minimal ball esa 30 ni tashkil etadi. 30 dan 50 ballgacha ko‘rsatkich tekshiriluvchida kuchsiz ya’ni “detenziv”, 51 dan 70 ballgacha o‘rtacha darajadagi - “intensiv”, 71 dan 90 ballgacha yuqori darajadagi ya’ni “ekstensiv” psixik zo‘riqishning mavjudligidan dalolat beradi. Mazkur metodika 20 nafar sinaluvchilarda o‘tkazilib uning muallif tomonidan taklif etilan kaliti yordamida qayta ishlandi va psixik zo‘riqishlarnig darajasi aniqlandi.

T.A.Nemchinning “Psixik zo‘riqishlarni baholash” so‘rovnomasi natijalari tahlili

Ko’rsatkich	Psixik zo‘riqish darajalari		
	detenziv	intensiv	ekstensiv
absolyut	8	6	6
foiz	40	30	30

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, sinaluvchilarning 40% da psixik zo‘riqishlarning detenziv darajasi, ya’ni juda past darajasi aniqlandi. Detensiv psixik zo‘riqish- bu psixologiya va psixofiziologiyada ma'lum his-tuyg'ularni, impulslarni yoki fikrlarni ochiq namoyon qilmaslik uchun ushlab turish yoki ularni ushlab turish zarurati tufayli yuzaga keladigan ichki taranglik holatini ifodalaydi. Bu ichki tartibga solish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, inson ijtimoiy me'yorlarga yoki shaxsiy standartlarga javob berish uchun o'z reaksiyalari yoki his-tuyg'ularini boshqarishga majbur bo'ladi. Bu ichki tajribali impulslar, his-tuyg'ular yoki fikrlarning namoyon bo'lishini bostirish yoki cheklash zarurati tufayli yuzaga keladigan psixologik yoki fiziologik qarshilik holati. Asosiy xususiyatlar: uzoq muddatli ichki qarshilik - inson o'z his-tuyg'ularini yoki impulslarini doimo ushlab turishga yoki bostirishga majbur bo'ladi; diskoordinatsiyaning kuchayishi - xohish va ularni bostirish zarurati o'rtasidagi ichki qarama-qarshiliklar; jismoniy ko'rinishlar - mushaklarning tonusini oshirish, yurak urish tezligini oshirish, kuchlanish va noqulaylik hissi bilan birga bo'lishi mumkin, hissiy holat - odatda charchoq, hissiy noqulaylik, tashvish.

30 % sinaluvchilarda psixik zo‘riqishlarning intensiv darajasi mavjud bo’lib, - bu murakkab, mas'uliyatli yoki yuqori tezlikda, aniq vazifalarni bajarishga e'tiborni qaratish natijasida yuzaga keladigan kuchli, konsentratsiyalangan aqliy yoki hissiy

stress holatidir. Kuchli stress vaqtida ma'lum bir muammo yoki vazifani hal qilish uchun aqliy resurslar maksimal darajada safarbar qilinadi. Uning asosiy belgilari: diqqat va konsentratsiyaning yuqori darajasi, inson diqqatini ma'lum bir vazifaga qaratadi, o'zini begona stimullardan chalg'itadi, qisqa muddatga kuchli stress cheklangan faoliyat davri bilan bog'liq (masalan, imtihondan o'tish, muhim vazifani bajarish), kuchli hissiy va irodali zo'riqish, haddan tashqari charchash xavfi ichki resurslarni safarbar qilish mavjud bo'lib, bu samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Agar kuchli stress juda uzoq yoki juda yuqori bo'lsa, aqliy resurslar tezda tugaydi.

Sinaluvchilarning 30 % da psixik zo‘riqishlarning ekstensiv darajasi darajasi xosligi ma’lum bo‘ldi. Ekstensiv zo'riqish - bu odatda yuqori psixologik yuk yoki kuchli ruhiy zo'riqish holatini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama bo'lib, unda odam bir vazifa yoki sohaga alohida e'tibor qaratmasdan kuchli hissiy, aqliy yoki asabiy zo'riqishlarni boshdan kechiradi. "Ruhiy zo'riqish" psixologik stress yoki ichki ortiqcha yuk holatidir. Bu odamning haddan tashqari yuklanishi, yuqori talablar yoki aniq bir vazifa yoki soha bilan cheklanmagan kuchli hissiy tajribalar bilan bog'liq uzoq yoki kuchli ruhiy stressga duchor bo'lgan holatb hisoblanadi. Asosiy belgilari: ichki charchoq va charchoq hissi, asabiylashish, xavotirning kuchayishi, diqqatni jamlashda qiyinchilik, umumiy haddan tashqari kuchlanish va beqarorlik hissi, emotsional charchash belgilari paydo bo'lishi mumkin.

Funksional buzilishlarning oldini olish va ba’zi kasblar uchun yuqori ko‘rsatkichlarni saqlashning eng qulay va samarali vositasi bu ma’lum bir subyektning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnatni tartibga solishdir. Mehnat va dam olish rejimini tashkil etishga bunday yondashuv bilan ish yuki (uning hajmi, og‘irlik darajasi) shaxsning hozirgi funksional holatini, uning kasbiy tajribasi va tayyorgarligini, motivatsiya va irodaviy fazilatlar darajasini, tananing zaxira imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Ish yukining kattaligi funksional haddan tashqari yuklanishga olib kelmasligi kerak, ammo shuni esda tutish kerakki, qulay darajadagi ma'lum darajada oshib ketishi mashg‘ulot, rivojlanish effektini keltirib chiqaradi va ishlashning yanada o‘sishini ta'minlaydi. Dam olishning shakli va mazmunini tanlash funksional buzilishning sabablari va belgilarining tabiati bilan belgilanadi. Qattiq charchoq bo‘lsa, passiv dam olish tavsiya etiladi (uzoq uyqu, adabiyot o‘qish, televizor tomosha qilish). Faol dam olishning asosiy printsipi - aqliy va jismoniy mehnatni almashinadigan faoliyatning davriy o‘zgarishi.

Funksional holatni psixogen boshqarish usullaridan biri bu avtogen mashg‘ulotlar bo‘lib, uning turli versiyalari klinik amaliyotda, sport psixologiyasi va mehnat fiziologiyasida keng qo‘llaniladi. Avtogen trening asosida psixosomatik o‘zini o‘zi boshqarish usuli yaratildi, unda mushaklarning bo‘shashishi, qon tomirlarining ixtiyoriy kengayishi (issiqlik tuyg‘usini tasavvur qilish), nafas olish va yurak tezligini ixtiyoriy nazorat qilish va boshqalar.

Treningning asosiy maqsadi o‘zini tinchlantirish va haddan tashqari asabiy va ruhiy stressni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan autogenik mashqlar, charchoqni yo‘qotish yoki ish faoliyatini tezda oshirishga qaratilgan autogen stimulyatsiya,

mehnat vazifalarini bajarishda o‘zlashtirishning ish holatining obrazli tasvirini shakllantirish uchun mashqlar-motor mashg‘ulotlari uslubiy texnikani o‘zlashtirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Kurbanova Z.B., Oribboyeva D.D. Mehnat va muhandislik psixologiyasi.O‘quv qo‘llanma. Namangam-“Usmon Nosir mediya” -2022.220b.161-176b.
2.Леонова А. Б. Психодиагностика функциональных состояний человека. — М.МГУ.2004. — 200 с.
3.Немчин Т.А. Состояния нервно-психического напряжения. – Л.: Изд-во ЛГУ-1983.

YOSHLAR TARBIYASIDA PSIXOLOGIK XIZMAT VA PSIXOLOGIK PROFILAKTIKA

Yo.Djumanazarov
Namangan davlat universiteti,
Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi.
G.Jumanazarova
Toshkent kimyo xalqaro
universiteti Namangan filiali Pedagogika va
psixologiya kafedrasi v.b.dotsenti. O‘zbekiston

Annotatsiya: *Hozirgi kunda yosh avlodni zararli g'oyalardan asrash, oldini olish borasidagi ishlarning samarasini belgilaydigan psixoprofilaktik ishlar xaqida ota-onalarni, o'qituvchilarni, tarbiyachilarni,trenerlarni psixologik bilimlarini oshirish davr talabiga aylanib qolmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Passiv rol, individual xususiyatlar, inspektorlar, real, profilaktika, submadaniyat, emolar,gotlar,*

Аннотация: *В настоящее время становится требованием времени повышение психологических знаний родителей, учителей, воспитателей, тренеров о психопрофилактической работе, что определяет эффективность работы по защите и профилактике подрастающего поколения от вредных идей.*

Ключевые слова: *Пассивная роль, индивидуальные особенности, инспекторы, реальный, профилактика, субкультура, эмо, готы*

Abstract: *Nowadays, it is becoming a requirement of the times to increase the psychological knowledge of parents, teachers, educators, trainers about psychoprophylactic work, which determines the effectiveness of work on protecting and preventing the younger generation from harmful ideas.*

Keywords: *Passive role, individual characteristics, inspectors, real, prevention, subculture, emos, goths*

Asosiy insoniy xususiyatlar va fazilatlar bola 6-7 yoshlarga to'lganda, ya'ni u maktabga borishi arafasida tahminan 70 foizga shakllanib bo'ladi. Bola maktabni bitirguncha unda yana 20-25 foiz shaxsiy hislatlar vujudga keladi. Odamning qolgan umri mobaynida shaxsiyatining 5-10 foizi bunyod etiladi xolos. Bunda bola tarbiyasida oila birlamchi, maktab ikkilamchi ahamiyatga ega, qolgan omillarning roli esa katta emas degan noto'g'ri xulosa chiqarish yaramaydi. SHunchaki, bola tarbiyasida oila va maktab (bog'cha) faol ishtirokchilardir. SHu faollik natijasida ular boshqa omillarni ijtimoiy maqsadga muvofiq (yoki aksincha) tarzda talqin etish orqali, ularning bolaga ta'siri natijasini o'zgartirishlari mumkin. Bola tarbiyasida

nisbatan passiv rol o'ynovchi boshqa tashqi omillar ham uning shaxsiyatini shakllanishida katta, ba'zan hattoki hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayni bir xil oila yoki maktabda tashqi muxitning o'zgarishi munosabati bilan individual xususiyatlari, fazilatlari va qobiliyatlari boshqacha bo'lgan shaxslar yetishib chiqishi mumkin.

Bolalardagi tarbiyalanish darajasini muayyan darajada aniq aks ettiradigan yagona idora va shaxs - bu mahalliy ichki ishlar bo'limlaridagi voyaga yetmaganlar bilan shug'ullanuvchi bo'limlar va ularning inspektorlaridir, shunda ham ular faqat bu boradagi salbiy ko'rsatkichlarni (lekin shularni ham to'liq va batafsil emas) qayd etishadi. Xozirgi kunda bolalarni tarbiyalash borasidagi ishlarning samarasini belgilaydigan real, hayotda amal qilinayotgan mezon quyidagicha: agar o'quvchi (bola, tarbiyalanuvchi) tarbiyalovchining (ota-ona, o'qituvchi, tarbiyachi, otaliqqa olgan kishi, trener, ustoz va hokazo) yoki tarbiya mussasasining qaramog'ida bo'lib turgan davri mobaynida ko'zga tashlanadigan ayb ish, tartibbuzarlik yoki jinoyat sodir etmasa, hamma ish joyida deb hisoblanadi. Bu o'rinda holis bo'lishimiz uchun shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, bolani tarbiyalash sohasidagi ishlar odatda sekin amalga oshadigan faoliyat turi bo'lib, uning samarasi va natijasi hamma vaqt ham darrov ko'zga tashlanavermaydi. Bola shaxsining shakllanish jarayoni sekinlik bilan uzoq davom etadigan jarayon bo'lishidan tashqari, istalgan vaqtda uning sifati va samarasini ishonchli darajada aniqlash mexanizmi yaratilmagan. Shunga ko'ra, ko'pincha olingan tarbiyaning natijasi, bolaning haqiqiy mafkuraviy, ahloqiy va ma'naviy qiyofasi yaqin yoki uzoq kelajakda uning muayyan vaziyatlarda o'zini qanday tutishi natijasidagina ma'lum bo'ladi.

Yoshlarning ijtimoiy yot va zararli g'oyalarga berilish sabablarini psixologik jihatdan aniqlash, buning oldini olish xozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Shaxs yangi g'oyadan moddiy va ma'naviy xayotida foyda ko'rishiga ishonch hosil qilsa yoki tashviqotchilar uni shunga ishontira olishsa, uni o'z hayotida tadbiq etishga intiladi. Bu intilish ma'lum vaqt oralig'ida shu yo'nalishda qilinadigan amaliy ishlar yuzasidan muayyan reja, qaror ko'rinishida dastlab uning ongida yuzaga chiqadi. Bu bosqichning psixologik mazmuni shundan iboratki, shaxsda shu g'oyaga nisbatan e'tiqod shakllana boshlaydi.

Yoshlarda mustaqil va muammoli fikrlash qobiliyatini shakllantirishni g'oyaviy profilaktika ishlarining asosi deb hisoblash mumkin. Biror narsa haqida chuqur, har tomonlama fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan kishini dastlabki e'tiqodidan qaytarish qiyin, bunda y kishi yengiltaklik qilmaydi va har narsaga ishonavermaydi.

Begona g'oyalarga birinchi navbatda aqliy va ruhiy mustaqil bo'lmagan va ongsiz kishilar beriladilar. Biz o'z imkoniyatlarimiz va sharoitlarimizdan kelib chiqqan holda, bu borada olib borilayotgan ishlarning samarasini salgina bo'lsa ham oshirish maqsadida ushbu tavsiyalarni berishni lozim topdik.

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillar mobaynida yurtimizda istiqlol tamoyillariga mos kelmaydigan bir qancha mafkuralar paydo bo'ldi va asosan yoshlarda ularga berilish holatlari sodir bo'lyapti.Jumladan g'arb submadaniyati(emolar,gotlar va xokozo) Bunday vaziyatning sabablaridan biri

g'oyaviy-mafkuraviy yo'nalishda samarali ish olib borayotganimiz yo'q. Chunki bu borada olib borilayotgan ishlarimizda;

1) rasmiyatchilik, qog'ozbozlik, sun'iylik va bir tomonlamalik ko'p.Olib borilayotgan ishlar shaklan to'g'ri, lekin ko'pincha mazmunan qashshoq;

2) malakali tashviqotchilar yetishmaydi. Yuqoridan berilgan buyruq asosida ish olib boradigan g'oyaviy yo'nalish hodimlari va mutahassislaridan deyarli foyda yo'q. Fidoiylik bilan, ta'sirchan va ishonchli gapiraoladigan tashviqotchilarni tayyorlash yo'lga qo'yilmagan;

3) begona mafkuraga qarshi tashviqot olib borilishi lozim bo'lgan yo'nalish-ning g'oyalari va faoliyati yuzasidan yetarlicha ma'lumotlar yo'q. Natijada kimlarga qarshi kurashilayotgani haqida to'liq tasavvurning o'zi yo'q;

4) bunday mafkuralarning shaxsga ham moddiy,ham ijtimoiy tomondan foydali hamda o'ta zarur ekanligi, oilasining rivojlanishi va istiqbolidagi roli chu-qur asoslab berilmayapti;

5) xanuzgacha g'oyaviy-mafkuraviy ishlarni hammaning ishi deb emas, balki oldindan shunga javobgar qilib belgilab qo'yilgan tashkilotlar, hodimlar va mutahassislarning ishi deb qarab kelinishi fikrimizning dalilidir.

Yoshlarning bunday g'oyalarga berilishi sabablari,nazarimizda:

1) yoshlarimizning doimo jismoniy, aqliy va ruhiy mukammallikka intilishi. Agar yangi g'oya unga u bilgan boshqa g'oyalarga nisbatan yaxshiroq ko'rinsa, unda albatta yangi g'oyaga qiziqish tug'iladi;

2) yangi g'oya targ'ibotchilari malakali va tajribali bo'lishadi;

3) shaxsda g'oyaviy immunitetning yo'qligi.

4) Aksariyat ota-onalarning nafaqat milliy mafkura bo'yichagina emas, balki umuman ijtimoiy ongning har qanday shakli bo'yicha umumiy bilimlar saviyasi-ning juda pastligidir.Demak shunday xulosa qilish mumkinki barcha rahbarlar, har bir oilaning boshlig'I milliy mafkuraning faol tashviqotchisi bo'lmaguncha bu ishlar samara bermaydi.

Yoshlarning har qanday yangiliklarga (u hoh moddiy bo'lsin, hoh ilmiy-ma'naviy bo'lsin) munosabatida bir qator umumiyliklar bor. Bu holat yoshlarning begona g'oyalarga munosabatida ham namoyon bo'ladi. Yangi mafkurani, shu jumladan begona mafkurani hamma qatori yoshlar ham bosqichma-bosqich egallaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib biz profilaktika ishlari uchun zararli g'oyalarni oldini olishning ushbu vazifalarini psixoprofilaktikada inobatga olishi zarur deb hisoblaymiz:

1 – har bir o'quvchining begona g'oyalarga beriluvchanlik ehtimolini aniqlash. Bu ishni maxsus test yordamida, yakka tartibdagi suxbat asosida va o'quvchi mansub oilaning ijtimoiy holatini o'rganish asosida amalga oshiriladi;

2 - tushuntirish-tashviqot ishlari. Bunda barcha o'quvchilar bilan umumiy guruh tartibida ish olib borishdan tashqari, dinga, turli submadaniyatlarga va boshqa g'oyalarga moyilligi ko'proq o'quvchilar bilan yakka tartibda ham ish olib borish. Bu ishlarni asosan sinf rahbari amalga oshiradi. Lekin ayrim hollarda sinfga shu

mavzuda suxbat o'tkazish uchun boshqa o'qituvchilar, psixologlar, vrachlar,profilaktika inspektorlari ham taklif etilishi mumkin;

3 – olib borilgan ishlarning ta'sirchanligi va samarasi testlar, bahslar yoki savol-javoblar yordamida tekshirib ko'riladi.

Tarbiyaning samarasi - reja va maqsad asosida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy tadbirlar natijasida yaxshi hislatlar, xususiyatlar bolaga nechog'lik chuqur va mustahkam payvand bo'lishini anglatadi. Bolaga yaxshi gaplarni, yaxshi ishlarni o'rgatish yoki o'rgatishga intilish hali bu bolaning yaxshi tarbiya oldi degani emas. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, xozirgacha zamonaviy pedagogika va psixologiyada buni aniq va ishonchli darajada aniqlash mexanizmi ishlab chiqilmagan. Buni odatdagi an'anaviy usullar: testlar, savol-javoblar yordamida barcha bolalarda ishonchli darajada aniq bilish juda mushkul ish. Buning asosiy sababi - bola ijtimoiy moslashishga, atrofidagilarning nazarida maqsadga muvofiq bo'lgan gaplarni gapirishga, namoyishkorlik bilan shunday ishlarni qilishga juda erta o'rganishi mumkin.

Tarbiya samarasi odatda vujudga kelgan muayyan real sharoit va vaziyatda bola o'zini qanday tutishi - biror narsani qilishi yoki qilmasligi, biror gapni aytishi yoki aytmasligi, biror hissiyotga berilib ketishi yoki o'zini tuta olishi bilan aniq va ishonchli darajada aniqlanadi. Shuning uchun tarbiyachining malakasi, u kim bo'lishidan qat'iy nazar (o'qituvchimi, ota-onami, rahbarmi, qarindosh yoki shunchaki tanishmi), u bolaga singdirishga intilayotgan xususiyat, hislat, qobiliyatning bola ongida va dilida haqiqatda qanchalik o'rnashib qolganini aniqlay olishiga qarab belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi //Xalq so’zi gazetasi 2017 yil 16 yanvar №11.

2.Nishonova .Z.T. "Psixologik xizmat" T., 2005

3. Sog’ino.N.«Ta`lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostik vositalardan foydalanish», T., 2001.y

4. Рогов. Е.А. «Настолная книга практического психолога. М., 1999.г.

TALABA QIZLARNING OILAGA PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING SAMARALI TA’SIRI

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna,
Psixologiya kafedrasi o’qituvchisi
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning talaba qizlarning shaxsiy rivojlanishi, psixologik holati va ularning oilaviy hayotga tayyorlash jarayoniga ta’siri tahlil qilingan. Maqola raqamli texnologiyalar, jumladan internet, mobil qurilmalar, kompyuter o‘yinlari va sun’iy intellektning ijobiy va salbiy jihatlarini o‘rganadi. Ularning oilaviy hayotga tayyorlash jarayonidagi o‘zgarishlar, kognitiv va motivatsion ta’sirlar, shuningdek, texnologiyalarning pedagogik jihatlari, masalan, shaxsiylashtirilgan o‘qitish, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi interaktiv aloqa va axloqiy tarbiya haqidagi tushunchalar keng muhokama*

qilinadi. Shuningdek, maqola raqamli texnologiyalarning talaba qizlarda oilaviy hayotga tayyorlash jarayoniga bo‘lgan ta’sirini tushunish, ularni oqilona va mas'uliyat bilan qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *intellekt, internet, kompyuter, raqamli texnologiya, Adaptiv o‘quv tizimlari, SI texnologiyalari kognitiv, rivojlanish, kreativlik, individual, ma’naviy, psixologik, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni.*

Аннотация: *В данной статье проанализировано влияние цифровых технологий на личностное развитие, психологическое состояние студенток и процесс их подготовки к семейной жизни. В статье рассматриваются как положительные, так и отрицательные стороны цифровых технологий, включая интернет, мобильные устройства, компьютерные игры и искусственный интеллект. Особое внимание уделяется изменениям в процессе подготовки к семейной жизни, когнитивным и мотивационным воздействиям, а также педагогическим аспектам технологий, таким как персонализированное обучение, интерактивное общение между преподавателями и студентами и вопросы нравственного воспитания. Также подчёркивается необходимость разумного и ответственного использования цифровых технологий с целью лучшего понимания их влияния на процесс подготовки студенток к семейной жизни.*

Ключевые слова: *Интеллект, интернет, компьютер, цифровые технологии, Адаптивные образовательные системы, Технологии искусственного интеллекта (ИИ), Когнитивные процессы, развитие, креативность, индивидуальность, духовность, психологические особенности, процесс подготовки студенток к семейной жизни.*

Annotation: *This article analyzes the impact of digital technologies on personal development, the psychological state of female students, and the process of their preparation for family life. Both the positive and negative aspects of digital technologies are considered, including the internet, mobile devices, computer games, and artificial intelligence. Special attention is given to changes in the process of preparing for family life, cognitive and motivational influences, as well as the pedagogical aspects of these technologies, such as personalized learning, interactive communication between teachers and students, and issues of moral education. The article also emphasizes the need for the reasonable and responsible use of digital technologies in order to better understand their influence on the process of preparing female students for family life.*

Keywords: *intelligence, internet, computer, digital technologies, cognitive, development, creativity, individuality, spirituality, psychological, process of preparing female students for family life. Intelligence, internet, computer, digital technologies, Adaptive learning systems, Artificial intelligence (AI) technologies, cognitive processes, development, creativity, individuality, spirituality, psychological characteristics, the process of preparing female students for family life.*

“Meni kishilarning ongida paydo bo‘lgan streotip ko‘p oylantiradi. Odatda biz ayolni avvalombor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuchi emas,balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak” (Sh.Mirziyoyev)(1)

Ma’lumki, hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O‘zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan, shuningdek, jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga alohida ahamiyat berilayotgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari yoki yosh yigit va qizlarga to‘g‘ri tarbiya bera olmayotganimiz, samarali ta’sir qila olmayotganimiz ayni haqiqatdir.

O‘zbek oilalarida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida bir qator muammolar mavjud. Ba’zi ota-onalarning oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni mohiyati xususida to‘la ma’lumotga ega emasliklari, ular tomonidan qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o‘rganish imkonini beruvchi manbalarning yetarli darajada mavjud emasligi, ota-onalarga ijtimoiy tashkilotlar, ta’lim muassasalari hamda muayyan mutaxassislik yo‘nalishlarida faoliyat yurituvchi idoralar tomonidan ko‘rsatilayotgan uslubiy va amaliy yordamning ijtimoiy ehtiyojlarga mos emasligi, ommaviy axborot vositalari orqali oila mohiyati, oilaviy hayotni tashkil etish, farzandlar tarbiyasini muvaffaqiyatli olib borish, oilaviy munosabatlar mazmuni, shuningdek, oilaviy nizo va ajrimlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari xususida namoyish etilayotgan ko‘rsatuv, eshittirish yoki chiqishlarning muntazam kuzatib, undan tegishli xulosalar chiqarish ko‘nikmasining yaxshi rivojlanmaganligi bu borada olib borilayotgan ishlarda muayyan muammolarni vujudga keltiradi. Mustaqil hayotga qadam qo‘yishning dastlabki bosqichida har qanday o‘spirin qiz ijtimoiy yordamga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj odatda oila muhitida qondiriladi. Biroq, ota-onasiz yoki ularning qarovidan mahrum bo‘lgan yoinki ota onasi bo‘la turib e’tiborga muhtoj qizlarni mustaqil hayotga to‘laqonli shaxs sifatida tayyorlash davlat va jamiyat tomonidan katta kuch sarflanishini talab qiladi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham oila masalasida o‘zlarining quyidagi fikrlarini zarurligini uqtirib o‘tganlar: “Birinchi vazifa – biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-marifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim…”2. Bu ishlar zamirida nima yotadi? Albatta, xalq farovonligi, yurt istiqbolidir. Yurtimiz istiqboli yuksak bo‘lishi uchun xalqimiz tinch bo‘lishi lozim, xalqimiz tinch bo‘lishi uchun esa eng avvalo oilalarimiz tinch bo‘lishi lozim. Oila tinchligi shu oila a’zolarining qay darajada hayotga tayyorligiga bog‘liq. Oila bilan bog‘liq bir qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda, loyihalar o‘tkazilmoqda, lekin nima uchun oilalarda ajrimlar soni kamaymayapti? Axir bitta oilaning buzilishi butun bir jamiyatga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu bilan ko‘rishimiz mumkinki, muammolarimizning yechimini topmabmiz, qaysidir bo‘g‘inlarda kamchilikka yo‘l qo‘ymoqdamiz. OTM o‘qituvchisi sifatida aytadigan bo‘lsam, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda birinchi navbatda ularning ongi ruhiyati bilan ishlash kerak. Ularga ota-onasi, ustozlari, o‘zidan katta barcha yaqinlari hayot haqida ma’ruzalar o‘qiydi, ta’kidlar keltiradi. Yuqorida aytganimizdek, oila markazlarida oila oldi darslarini olishyapti, lekin nima uchun to‘liq amal qilinmaydi, nima uchun hali ham aksariyat yoshlarimiz hayotga tayyor emas? Chunki uning ruhi tayyor emas, ongi tayyor emas, mafkurasida to‘yinish yo‘q! Pedagog olima M.Mahmudova ta’kidlaganidek, talaba moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va ma’lum mutaxassisilikka tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh bo‘lib, ularni oilaviy hayotga tayyorlash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu davr o‘ziga xos xususiyatlar va ziddiyatlarga boy davr hisoblanadi. Chunki,

talabalik davrida yuqori malakali mutaxassis, jamiyatning yetuk fuqarosi shakllanadi, fiziologik va ijtimoiy jihatdan balog‘atga yetgan shaxs rivojlanadi.

Shunga ko‘ra, ularni oilaviy hayotga tayyorlash o‘ziga xos xususiyat va mas’uliyat kasb etib, yoshlar hayot tarzini, o‘z shaxsiy uslubini tarkib toptiradi.

Bunda ularning o‘ziga xos hayot tarzi, kun tartibi, qiziqishlari, shaxsiy muloqot shakllari paydo bo‘ladi. Bular esa talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy-amaliy holatini chuqur tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. (1)

Demak, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash takomillashtirilib borilmog‘i, uning yangi qirralari kashf etilishi, to‘plangan tajribalar umumlashtirilishi, bugungi kun nuqtai nazaridan yagona tizimga solinmog‘i va hayotga tatbiq etilishi lozim.

Oliy ta’lim tizimida mustaqil hayot ostonasida turgan yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri. Chunki, hayot tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlarimizning aksariyat qismi oliy o‘quv yurtida tahsil olayotgan yoki o‘qishni bitirgandan keyin oila qurishyapti. Ularning oila qurishiga nechog‘liq tayyorligi yoki tayyor emasligi turmush jarayonida o‘z aksini ko‘rsatmoqda. To‘g‘ri, talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolari pedagogik-psixologik jihatdan muayyan darajada ishlangan. Ammo, davr shtobi tez, hayot oqimi o‘zgaruvchan, insonning qalbi va ongi, sog‘lom tafakkuri uchun kurash kuchaygan bir paytda yoshlarni oilaviy hayotga, sog‘lom oila qurishga tayyorlash, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish kabi masalalarga yanada kuchliroq e’tibor qaratishi zarur. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bizning hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Internet, mobil telefonlar, kompyuterlar, sun'iy intellekt va boshqa raqamli vositalar nafaqat ish jarayonlarini o‘zgartiradi, balki ta’lim va shaxsiy rivojlanishimizga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Texnologiyalar shaxsiy hayotimizda, psixologik holatimizda, va talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida qanday o‘zgarishlarni keltirib chiqarayotgani haqida gapirganda, bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rish juda muhim. Maqolada raqamli texnologiyalarning talaba qizlarning oilaviy hayotga tayyorlashdagi, psixologik va pedagogik jihatlariga ta’sirini o‘rganishga harakat qilamiz.

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda shaxsiy rivojlanishning ko‘plab sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu ta’sirning ba’zilari juda ijobiy, ba’zilari esa salbiy bo‘lishi mumkin. Keling, ularni yanada chuqurroq tahlil qilaylik. – Ta’limdagi o‘zgarishlar: Bugungi kunda onlayn kurslar, interaktiv dasturlar, va virtual sinflar o‘quvchilarga bilim olish jarayonini yanada osonlashtiradi. Raqamli texnologiyalar orqali har bir inson o‘z vaqtini samarali boshqarish imkoniyatiga ega. O‘qish jarayonini individual tarzda boshqarish, o‘ziga mos o‘quv materiallarini tanlash, va o‘z ritmida rivojlanish imkoniyati mavjud. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali talaba qizlarning oilaga tayyorlash jarayonida unumli foydalanish maqsadga muvofiq buning uchun mustaqil hayot ostonasida turgan talaba qizlar uchun maxsus onlayn kurs tashkil qilinib, ularga “Nikoh oldi omillari” bo‘yicha ya’ni “Yoshlarni oilaviy hayotga yetukligi”, “Nikoh motivlari”,

“Nikohgacha tanishish sharti va muddati” hamda “Yoshlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari” mavzularida mini ma’ruzalar, bahs-munozaralar, pazzandachilik hamda qo‘l mehnati bo‘yicha maslahatlar hamda pedogogik-psixologik treninglar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Psixologik ta’sirlar va aynan raqamli texnologiyalarning psixologik ta’siri haqida gapirganda, ularning ikki tomonlama ta’sirini ko‘rishimiz mumkin: ijobiy va salbiy.

1. Ijobiy ta’sirlar – Kreativlikni oshiri: Raqamli vositalar orqali o‘z fikrini ifoda etish osonlashadi. Videolarni tahrirlash, grafik dizayn yaratish, va boshqa interaktiv platformalar orqali talaba qizlar o‘z ijodkorligini rivojlantirishi mumkin. – Ijtimoiy aloqalar: Internet va ijtimoiy tarmoqlar o‘rtasida bog‘lanishning yangi usullarini yaratadi. Bu, ayniqsa, uzoq masofalarda yashovchi yoki yolg‘iz bo‘lganlar uchun foydali bo‘lishi mumkin, chunki ular yangi do‘stlar orttirishlari, o‘z fikrlarini bo‘lishishlari va oilaviy munosobatlarni birbiridan o‘rganishlari mumkin.

2. Salbiy ta’sirlar – Giyohvandlik: Texnologiyalarga haddan tashqari qaramlik ba’zida psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Internet, ijtimoiy tarmoqlar yoki video o‘yinlarga haddan tashqari qiziqish, qizlarning real hayotdan ajralib, ruhiy holatini pasaytirishi mumkin. – Jismoniy sog‘lik muammolari: Uzoq vaqt davomida ekranlarga qarash ko‘z og‘rig‘iga, bosh og‘rig‘iga, va boshqa jismoniy sog‘liq muammolariga, internetda soatlab o‘tirish oilaviy parokandalikka olib kelishi mumkin. Alter texnologiyalarni ishlab chiqayotgan kompaniyalar odamlarni qaram qilish uchun qaysi strategiyalarni qo‘llashlari haqida yozadi. Ularning maqsadi foydalanuvchini platformaga ko‘proq vaqt sarflashga undashdir. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda "like" tugmasi va push xabarnomalarining barchasi yoshlarni bir necha daqiqa davomida ekranlarida qolishga undaydi va bu ularning psixologik holatiga ta’sir qiladi. Bu, ayniqsa, o‘spirin qizlarda ko‘proq uchraydi.

Oilaning to‘laqonli mustahkam bo‘lishi ko‘p jihatdan talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq. Olib borilgan mashg‘ulotlarimiz davomida talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq muammolarning yechimini o‘rganib, tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

Oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonini juda ko‘p jihatdan o‘zgartiradi. O‘qitish usullari, o‘qish tizimlari va o‘qituvchi- tarbiyachilar bilan o‘zaro aloqa rivojlanadi (telegram guruhlarning mavjudligi) individuallashtirilgan o‘qitish: Raqamli texnologiyalar bu jarayonda talaba-qizlarga o‘zlariga mos o‘qish usulini tanlash imkonini beradi. Adaptiv o‘quv tizimlari(Adaptiv o‘quv tizimlari (AOT) an’anaviy ta’lim uslublaridan farqli ravishda, har bir o‘quvchining individual qobiliyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv materiallarini moslashtiradi. Bu tizimlar o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularga individual yordam ko‘rsatish va ta’lim jarayonini doimiy ravishda tahlil qilish imkoniyatiga ega. Buning natijasida har bir o‘quvchiga moslashtirilgan ta’lim yo‘lini yaratish mumkin bo‘ladi.) har bir talaba-qizning ehtiyojlariga mos tarzda o‘qish materiallarini taqdim etadi. Bu orqali talabalar o‘zlari uchun qulay va samarali o‘qish jarayonini yaratishlari mumkin. Shuningdek, SI texnologiyalari

yordamida ishlovchi AOTlar talaba qizlarning o‘zlashtirish darajasini kuzatib boradi va ularga individual tavsiyalar beradi. Masalan, oila qurishda, yoki oilaga tayyorgarlik jarayonida muayyan mavzuni tushunishda qiyinchilikka duch kelsa, SI tizimi bu muammoga ko‘proq e’tibor qaratadi va qo‘shimcha resurslar taqdim etadi. Shu bilan birga, astoydil yaxshi oila bekasi bo’lish ishtiyoqi bor talaba qizlarga yanada murakkabroq vazifalar va kengaytirilgan materiallar taklif etiladi. Ta’lim jarayonini personalizatsiya qilish orqali SI texnologiyalari larning motivatsiyasini oshirish va ularning bilim olish jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradi. Har bir talaba qizning oilaga har tomonlama tayyorgarlik jarayoniga nisbatan qiziqishlari va motivatsiyasi oshishi natijasida, oilalar hayoti sifati ham sezilarli darajada yaxshilanadi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizda oilalar ajrimlarining kamayishiga, mustahkam oilalarning ko’payishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga O‘qituvchi va talaba-qizlar o‘rtasidagi interaktiv aloqa: Onlayn ta’lim platformalari o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqani yanada yaqinlashtiradi. Masofaviy ta’lim, videokonferensiyalar va forumlar orqali o‘qituvchilar o‘z talabalarini yaxshiroq tushunish va individual yordam ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lishadi. Tarbiyaviy jihatlar: Raqamli texnologiyalar yordamida oilaga tayyorlash jarayoninini axloqiy va ma’naviy tarbiya bilan birlashtirish imkoni kuchayadi. Onlayn ta’lim jarayonida, ayniqsa, talaba qizlar internetdagi salbiy axborotlardan himoya qilinishi, va to‘g‘ri axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam berish zarur, buning uchun mafkuralarni tuyintirish imkoniyati mavjud. Chunki, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologiyalar (masalan, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar) yoshlarni o‘ziga qaram qiladi va ular bu texnologiyalarni davomiy ravishda ishlatishga moyil bo‘lishadi.Shuning uchun ularni raqamli texnologiyalardan foydalanishga to‘g‘ri, maqsadga muvofiq tarzda yo‘naltirish lozim.

Xulosa

Raqamli texnologiyalar talaba qizlarning shaxsiy rivojlanishning ko‘plab jihatlariga ta’sir qiladi. Ular ijtimoiy va kognitiv rivojlanishda yordam berishi mumkin, lekin ortiqcha foydalanishning salbiy ta’sirlari ham mavjud. Talaba qizlarni oilaga tayyorlash jarayonida, raqamli texnologiyalar yangi imkoniyatlar yaratadi, shaxsiy yondashuvni amalga oshirishda o‘qituvchilarga yordam beradi, va bu jarayonni yanada samarali qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni oqilona va mas'uliyatli ravishda qo‘llash ham zarur. Agar to‘g‘ri va ehtiyotkorlik bilan ishlatilsa, ular oilaga tayyor holda mustahkam oila qurishlari va jamiyatimizni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.-T.: “O‘zbekiston”-2017
2. Hidirova F.F Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash –Toshkent, O‘zbekiston, 2006 yil.
3. Z. Qodirova,N. Vaxabova,D Raximova “Oila pedagogikasi” (O‘quv qo‘llanma). Toshkent “SHarq” -2008 yil
4. M.Mahmudova.Xalq pedagogika va oila tarbiyasi.
5. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rustamova Turdixon Ne'matjonovna
NamDU, Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur tezisda raqamli ta'lim ko'nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish jarayonining pedagogik va psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu jarayonda o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, raqamli ta'lim texnologiyalarining tatbiq etilishi va ularning samaradorligi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning psixologik ta'siri va individuallashtirilgan yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Raqamli ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or amaliyotlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida tavsiyalar taqdim etilgan.*

Kalit so'zlar. *Raqamli ta'lim, Zamonaviy yondashuvlar, Pedagogik psixologiya, Individual yondashuv, Texnologiyalarni integratsiya qilish, O'quv jarayonida innovatsiya, Raqamli ko'nikmalar.*

Аннотация: *В данной диссертации анализируются педагогические и психологические особенности процесса формирования навыков цифрового обучения на основе современных подходов. Рассматривается взаимодействие преподавателей и студентов в этом процессе, внедрение технологий цифрового обучения и их эффективность. Также освещается психологическое воздействие использования современных технологий в образовательном процессе и важность индивидуализированного подхода. Представлены рекомендации по лучшим практикам формирования навыков цифрового обучения и их социально-экономическому значению.*

Ключевые слова. *Цифровое образование, современные подходы, Педагогическая психология, индивидуальный подход, интеграция технологий, инновации в образовательном процессе, цифровые навыки.*

Annotation: *This thesis analyzes the pedagogical and psychological characteristics of the process of forming digital learning skills based on modern approaches. The interaction between teachers and students in this process, the implementation of digital learning technologies and their effectiveness are considered. The psychological impact of using modern technologies in the educational process and the importance of an individualized approach are also highlighted. Recommendations are presented on best practices for developing digital learning skills and their socio-economic significance.*

Keywords. *Digital education, modern approaches, pedagogical psychology, Individual approach, technology integration, innovation in the educational process, digital skills.*

Hozirgi zamonda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonining barcha jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy dunyoda raqamli vositalarsiz ta'lim samaradorligini ta'minlash qiyin bo'lib qoldi. Raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat texnik salohiyatni oshirishni, balki innovatsion o'qitish usullarini joriy etishni ham nazarda tutadi. Ushbu o'zgarishlar o'qituvchilardan zamonaviy texnologiyalarni chuqur o'rganishni, ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilishni va talabalarning raqamli savodxonligini oshirishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat ma'lumotlarni yetkazish vositasi sifatida, balki o'quv jarayonini tashkil qilish va o'quvchilar bilan samarali aloqani ta'minlash vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, masofaviy ta'lim platformalari, sun'iy intellekt yordamida moslashtirilgan ta'lim dasturlari va interaktiv o'yinlar orqali ta'limni qiziqarli va tushunarli qilish mumkin. Bu jarayon

pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg’unligini talab qiladi, chunki texnologiyalardan foydalanishda nafaqat bilim olish, balki o’quvchining shaxsiy rivojlanishi, motivatsiyasi va qiziqishini qo’llab-quvvatlash ham muhimdir. Raqamli ta'lim ko’nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali yangi imkoniyatlar yaratiladi. Masalan, o’qituvchilar va talabalar o’rtasidagi o’zaro interaktiv aloqani kuchaytirish, ta'lim jarayonini vizualizatsiya qilish va har bir o’quvchining individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida o’quv materiallarini diversifikatsiya qilish, ularni interaktiv va qiziqarli formatda taqdim etish imkoniyati paydo bo’ladi. Bu esa nafaqat o’quvchilarning bilim olish jarayonini samarali qilishga, balki ularda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Ushbu tezisda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali qo’llashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri va zamonaviy texnologiyalar orqali o’quvchilarda raqamli ko’nikmalarni shakllantirish bo’yicha amaliy tavsiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli ta'lim vositalarining psixologik ta'siri, motivatsiyani oshirishdagi roli va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan muammolar ham ko’rib chiqiladi. 57 Mazkur mavzu dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimini global rivojlanish jarayonlariga moslashtirish zarurati bilan bog’liqdir. Shu bois, raqamli ta'lim ko’nikmalarini shakllantirishda pedagogik va psixologik yondashuvlarni birlashtirish, ularning samarali tatbiq etilishi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda katta ahamiyatga ega. Raqamli ta'lim zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilganda, o’quv jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bu jarayon o’qituvchilar va o’quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan bo’lib, interaktiv o’qitish metodlarini keng qo’llashni talab qiladi. Raqamli ta'limda asosiy urg’u individuallashtirilgan yondashuvga qaratilgan. Har bir o’quvchining ehtiyojlari, bilim darajasi va o’rganish uslublariga mos ravishda ta'lim materiallarini taqdim etish ta'lim samaradorligini oshiradi. Masalan, onlayn platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari va video darslar orqali talabalar o’zlari uchun qulay bo’lgan vaqtda, o’zlari uchun mos tezlikda bilim olish imkoniga ega bo’ladi. Shu bilan birga, talabalarni mustaqil o’rganishga undovchi elektron resurslar, masalan, interaktiv qo’llanmalar, trening simulyatorlari va test tizimlari, ta'lim jarayonini qiziqarli qiladi. Shuningdek, o’qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish uchun muntazam malaka oshirish kurslari va treninglarni tashkil etish zarur. Bu kurslar o’qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o’rgatib, ularni ta'lim jarayonida qo’llash uchun zarur bo’lgan ko’nikmalar bilan ta'minlaydi. O’qituvchilar interaktiv taqdimotlar, masofaviy ta'lim platformalari, hamkorlikka asoslangan loyihalar va boshqa raqamli vositalardan samarali foydalanishni o’rganishi kerak. Raqamli ta'limning keng qo’llanilishi o’quvchilarning ruhiy va psixologik holatiga katta ta'sir ko’rsatadi. Raqamli vositalar o’quvchilarda ta'limga nisbatan qiziqish uyg’otishi, o’z-o’ziga ishonchni oshirishi va motivatsiyani kuchaytirishi mumkin. Biroq, masofaviy o’qitishda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri bu diqqatni jamlash qiyinligi va o’quvchilar o’zlarini yolg’iz his qilishidir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun geymifikatsiya (o’yin texnologiyalari) va interaktiv kontentdan foydalanish samarali

natijalar beradi. Masalan, o’quvchilar bilim olish jarayonini o’yin shaklida tashkil qilingan dasturlarda amalga oshirsa, ularning faolligi va ishtiyoqi ortadi. Psixologik jihatdan qulay o’quv muhitini yaratish uchun o’qituvchilar o’quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularga emosional qo’llab-quvvatlash ko’rsatishni ham unutmasliklari kerak. O’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi doimiy aloqani ta'minlash, onlayn darslarda ijobiy muhit yaratish va talabalarni rag’batlantirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun’iy intellekt (AI), virtual va qo’shimcha reallik (VR/AR), ta'lim jarayonini sezilarli darajada takomillashtirish imkonini beradi. Sun’iy intellekt orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish osonlashadi. Masalan, sun’iy intellekt yordamida o’quvchilarning bilim darajasi va rivojlanish sur'atiga mos topshiriqlarni avtomatik ravishda ishlab chiqish mumkin. Bu esa har bir o’quvchiga o’z qobiliyatlariga mos ta'lim olish imkonini beradi. Virtual va qo’shimcha reallik texnologiyalari o’quvchilarni o’quv materialiga chuqurroq sho’ng’itadi. Masalan, VR texnologiyalari orqali o’quvchilar tarixiy voqealarni "ko’rishlari" yoki murakkab biologik jarayonlarni vizual tarzda o’rganishlari mumkin. AR esa haqiqiy muhitga raqamli ma'lumotlarni qo’shib, darslarni qiziqarli va samarali qiladi. Shuningdek, mobil texnologiyalar va ilovalardan foydalanish o’quvchilarga o’rganish jarayonini o’zlari uchun qulay bo’lgan muhitda tashkil qilish imkonini beradi. Bu esa masofaviy 58 va an'anaviy ta'lim o’rtasidagi farqni bartaraf qilishga yordam beradi. Raqamli ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi individual yondashuvning qanchalik samarali tashkil etilishiga bog’liq. Har bir o’quvchining shaxsiy ehtiyojlarini inobatga oluvchi tizimlar nafaqat o’quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o’quvchilarda mustaqil ravishda bilim olishga bo’lgan qiziqishni ham kuchaytiradi. Individual yondashuvni amalga oshirishda maxsus raqamli platformalar va vositalardan foydalanish muhimdir. Masalan, moslashtirilgan o’quv rejalarini yaratish uchun sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish o’quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Mobil ilovalar va video darslar esa o’quvchilarga o’z bilimlarini mustaqil ravishda oshirish imkonini beradi. Shuningdek, individual yondashuv orqali o’quvchilarni faollashtirish va ular bilan muntazam muloqot o’rnatish o’qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda onlayn platformalar orqali real vaqt rejimida fikr almashish va o’zaro baholash mexanizmlarini tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar zamonaviy ta'lim tizimining uzluksiz rivojlanishiga hissa qo’shib, o’quvchilarning raqamli ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish orqali har bir o’quvchi uchun teng imkoniyatlar yaratish mumkin bo’ladi. Raqamli ta'lim ko’nikmalarini shakllantirishning pedagogik va psixologik jihatlari, ularning zamonaviy yondashuvlar orqali rivojlantirilishi ta'lim sifatini yaxshilashda muhim o’rin tutadi. O’qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo’yicha rejali qadamlar ko’rish kerak. Shuningdek, individual yondashuvni joriy etish va geymifikatsiya kabi texnologiyalarni qo’llash o’quvchilarning rag’batlantirilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO (2021). Digital Learning: Policy and Practice. Retrieved from https://unesco.org
2. World Economic Forum (2020). The Future of Jobs Report.
3. Selwyn, N. (2016). Education and Technology: Key Issues and Debates. Routledge.
4. Hwang, G. J., & Fu, Q. K. (2019). Advances in Educational Technology: AI and AR in Education. Computers & Education, 135, 1–3.
5. European Commission (2020). Digital Education Action Plan 2021-2027. Retrieved from https://ec.europa.eu
6. Microsoft Education (2021). Transforming Education with AI and Technology. Retrieved from https://education.microsoft.com
7. Qurbonov U. (2020). "Pedagogik texnologiyalar va ta'limda innovatsiyalar". Toshkent.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЕК ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Мансурова Гульмира Рафаэловна
преподаватель кафедры Психология
Наманганский государственный университет, Узбекистан.

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности и эффективность психологического образования в условиях стремительного развития цифровых технологий и искусственного интеллекта. Анализируются как положительные, так и отрицательные последствия цифровизации образовательного процесса в вузах. Особое внимание уделяется влиянию информационно-коммуникационных технологий на качество подготовки будущих специалистов в области психологии.*

Ключевые слова*: цифровые технологии, искусственный интеллект, цифровизация, эффективность обучения, информационная перегрузка, индивидуализация образования, цифровая грамотность, онлайн-коммуникация.*

Annotatsiya: *Maqolada raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi sharoitida psixologik ta'limning xususiyatlari va samaradorligi ko'rib chiqiladi. Universitetlarda o'quv jarayonini raqamlashtirishning ijobiy va salbiy oqibatlari tahlil qilingan. Psixologiya sohasida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'siriga alohida e'tibor qaratilmoqda.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, raqamlashtirish, ta'lim samaradorligi, axborotni haddan tashqari yuklash, ta'limni individuallashtirish, raqamli savodxonlik, onlayn muloqot.*

Annotation: *The article examines the features and effectiveness of psychological education in the context of the rapid development of digital technologies and artificial intelligence. The article analyzes both the positive and negative consequences of the digitalization of the educational process in universities. Special attention is paid to the impact of information and communication technologies on the quality of training of future specialists in the field of psychology.*

Key words: *digital technologies, artificial intelligence, digitalization, learning efficiency, information overload, individualization of education, digital literacy, online communication.*

Современное психологическое образование переживает значительные изменения под воздействием цифровых технологий и искусственного интеллекта (ИИ). Цифровизация образовательного процесса открывает новые возможности для обучения и развития студентов, однако также влечет за собой определенные вызовы и риски. В данной статье рассматриваются как

положительные, так и отрицательные аспекты влияния цифровых технологий на психологическое образование в вузах.

Если рассматривать аспект влияния развития современных цифровых технологий и ИИ, то первую очередь нужно рассмотреть с ракурса положительного изменения в обучающий процесс. Цифровые технологии кардинально изменили образовательный процесс, открывая новые возможности для преподавателей и студентов. В последние десятилетия внедрение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образование способствовало повышению качества обучения, развитию новых форм взаимодействия и индивидуализации учебного процесса.

Цифровые технологии сделали образование более доступным, особенно для студентов из удаленных регионов или с ограниченными возможностями. Онлайн-курсы, видеолекции и образовательные платформы позволяют получать знания в удобное время и темпе. Как отмечают исследователи, внедрение ИКТ расширяет возможности обучения, повышая его качество и охват аудитории [1., с. 367].

Цифровые инструменты дали возможность адаптировать учебный материал под индивидуальные потребности и способности каждого студента. Исследования в этой области показали, что использование цифровых технологий повышает мотивацию студентов и способствует более эффективному освоению материала [2., с. 311]. Персонализированные образовательные программы помогают учитывать уровень знаний, темп обучения и интересы учащихся.

В условиях цифровой экономики владение современными технологиями становится необходимым навыком. Использование цифровых технологий в образовательном процессе способствует формированию у студентов ключевых компетенций: информационной грамотности, критического мышления, коммуникации и сотрудничества. Баширов Э.Э. и соавторы подчеркивают важность интеграции ИКТ для подготовки студентов к профессиональной деятельности в цифровом мире [4., с. 170].

Цифровые платформы обеспечивают удобные средства для коммуникации между преподавателями и студентами. Системы электронного обучения позволяют оперативно получать обратную связь, контролировать прогресс и организовывать совместную работу в режиме реального времени. Это повышает эффективность обучения и способствует вовлеченности студентов.

Современные цифровые технологии, такие как виртуальная и дополненная реальность, искусственный интеллект и адаптивные обучающие системы, открывают новые перспективы для интерактивного и практико-ориентированного обучения. Исследования показывают, что такие технологии способствуют лучшему усвоению материала и развитию практических навыков [3., с. 53].

Однако, несмотря на эти положительные аспекты, существует ряд отрицательных последствий, связанных с внедрением цифровых технологий в образовательный процесс.

Современные студенты сталкиваются с огромным потоком информации, что может привести к информационной перегрузке. Это явление негативно сказывается на способности к глубокому анализу и критическому восприятию материала. Согласно исследованию, студенты отметили, что цифровые отвлечения, такие как уведомления и социальные сети, значительно снижают их производительность, особенно в лабораторных занятиях.

Цифровизация образования может ограничить возможности для практического обучения и взаимодействия с реальными ситуациями. Это особенно актуально для таких дисциплин, как психология, где важен опыт общения и наблюдения.

Образование с уклоном на цифровизацию может привести к снижению уровня личного общения между преподавателями и студентами. Это может негативно сказаться на развитии социальных и эмоциональных навыков студентов. Виртуальное обучение ограничивает возможности для формирования межличностных отношений и командной работы, что важно для профессионального роста и личностного развития.

Чрезмерное использование цифровых технологий может привести к зависимости от них, что отрицательно сказывается на когнитивном и эмоциональном развитии студентов. Это явление также связано с синдромом информационной усталости, когда учащиеся испытывают трудности в восприятии и обработке информации из-за ее избытка.

Не все студенты имеют равный доступ к цифровым технологиям и интернет-ресурсам. Это создает цифровой разрыв, при котором студенты из разных социальных и экономических слоев имеют неравные возможности для получения образования. Отсутствие доступа к современным технологиям ограничивает образовательные возможности и способствует углублению социального неравенства.

В целях преодоления негативных последствий влияния современных технологий в образовательный процесс необходимы определённые меры и стратегии, которые смягчают негативное влияние.

Для начала, необходимо создать сбалансированную образовательную среду. Внедрение смешанных форм обучения (blended learning), сочетающих онлайн и офлайн форматы, позволяет сохранить преимущества цифровых технологий и при этом обеспечить живое взаимодействие между участниками образовательного процесса [6., с.167].

Также нужно развивать цифровую грамотность и этику в этой сфере. Нужно обучать студентов навыкам критического мышления, медиаграмотности и этическому использованию цифровых ресурсов способствующие снижению рисков информационной перегрузки и плагиата [7., с. 41].

Необходимо использовать ИИ для поддержки, а не замены преподавателей. ИИ следует применять как инструмент для индивидуализации обучения, автоматизации рутинных задач и предоставления обратной связи, а не как замену преподавательскому труду. Это сохранит важность живого взаимодействия и поможет мотивировать студентов [8., с. 127].

Обеспечение равного доступа к технологиям в вузах необходимо для создания условий равного доступа всех студентов к необходимому оборудованию и интернету, включая предоставление технической поддержки и инфраструктуры.

Все меры в этой области необходимы для контроля и поддержки ментального здоровья. Значимо внедрять программы поддержки психического здоровья, чтобы бороться с синдромом информационной усталости и эмоциональным выгоранием, связанными с интенсивным использованием цифровых технологий.

Подводя итоги изучения тематики эффективности внедрения современных цифровых технологий в процесс обучения психологических наук показал нам, что преодоление негативных последствий цифрового образования и искусственного интеллекта требует комплексного подхода, включающего баланс технологий и живого общения, развитие цифровой грамотности, поддержку равного доступа и внимание к психологическому благополучию студентов. Только при таких условиях цифровая трансформация образовательного процесса в вузах станет действительно эффективной и устойчивой.

Литература:

11. Мансурова, Г. Р. "ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛИЗАЦИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ." (2022): 366-368.
12. Мансурова Г. Р. Подросток и Интернет: как Интернет влияет на поведение подрастающего поколения //Экономика и социум. – 2023. – №. 1-1 (104). – С. 310-313.
13. Мансурова Г. Р. ОСОБЕННОСТИ Я–КОНЦЕПЦИИ ЛИЧНОСТИ, ПРОЯВЛЯЮЩИЕСЯ В ИНТЕРНЕТ–КОММУНИКАЦИИ //Ученый XXI века. – 2022. – №. 5-1 (86). – С. 52-54.
14. Мансурова Г. Р. ВЛИЯНИЕ «Я-КОНЦЕПЦИИ» НА КОММУНИКАТИВНЫЙ ПРОЦЕСС ЛИЧНОСТИ //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 169-173.
15. Мансурова Г. Р. ВЛИЯНИЕ ПРОКРАСТИНАЦИИ И ЛЕНИ НА СФЕРУ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ //JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY. – 2024. – Т. 7. – №. 5. – С. 77-82.
16. Мухамади К.Т., Сансызбаева Г.С. Роль современных информационных технологий в повышении качества образования. Язык и текст. 2019. Т. 6, № 1. С. 80–84.
17. Тарасова Н.А. Психологические аспекты онлайн-обучения. Вестник Уральского федерального университета, 2021. С 163-169.
18. Шайденко Н.А. Сергеев А.Н., Сергеева А. В. Риски и вызовы цифровизации образования//Вестник ГОУ ДПО ТО “ИПК и ППРО ТО”. Тульское образовательное пространство. – 2020.- №4. –С. 39-42.

19. Chan C.K.Y., Hu W. Students' Voices on Generative AI: Perceptions, Benefits, and Challenges in Higher Education. arXiv, 2023. B. 123-131.
20. Mansurova G. R. FEATURES OF THE FORMATION OF VALUE ORIENTATIONS OF ADOLESCENTS.

TA’LIM TIZIMIDA O’SMIRLIK DAVRIDA DESTRUKTIV XULQ-ATVORNI TUZATISH CHORALARI

Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi
Psixologiya mutaxassisligi magistranti
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'smirlik davrida uchraydigan destruktiv xulq-atvor turlarining psixologik-pedagogik asoslari, ularning shakllanish omillari va namoyon bo‘lish shakllari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Destruktiv xulq-atvorning oldini olish, uni korreksiya qilishda individual va ijtimoiy yondashuvlarning roli, shuningdek, ta’lim muassasalari, oilaviy tarbiya va jamiyat institutlarining hamkorligi asosida amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan. Olib borilgan tadqiqotlar davomida zamonaviy psixologik konsepsiyalar va amaliy tajribalar asosida samarali profilaktik va reabilitatsion yondashuvlar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, destruktiv xulq-atvor, psixologik korreksiya, ijtimoiy reabilitatsiya, tarbiya strategiyalari, psixoprofilaktika, shaxsiy rivojlanish, xavfli xatti-harakatlar.*

Аннотация: *В данной статье научно проанализированы психологические и педагогические основы деструктивных форм поведения, встречающихся в подростковом возрасте, причины их формирования и формы проявления. Рассматриваются комплексные меры по предотвращению и коррекции деструктивного поведения с применением индивидуального и социального подходов, а также взаимодействие образовательных учреждений, семейного воспитания и общественных институтов. В процессе проведённых исследований предложены эффективные профилактические и реабилитационные подходы, основанные на современных психологических концепциях и практическом опыте.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, деструктивное поведение, психологическая коррекция, социальная реабилитация, стратегии воспитания, психопрофилактика, личностное развитие, опасные формы поведения.*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of the psychological and pedagogical foundations of destructive behavior observed during adolescence, its underlying causes, and forms of manifestation. The study examines comprehensive measures for the prevention and correction of such behavior through both individual and social approaches, as well as the collaborative role of educational institutions, family upbringing, and social institutions. Based on modern psychological concepts and practical experiences, effective preventive and rehabilitative approaches are proposed within the framework of the conducted research.*

Keywords: *adolescence, destructive behavior, psychological correction, social rehabilitation, educational strategies, psychoprophylaxis, personal development, risky behaviors.*

KIRISH. Hozirgi kunda yurtimizda olib borilayotgan yoshlarga oid siyosat, yaratib berilayotgan sharoitlar va imkoniyatlar yildan-yilga keng quloch yozib kengaymoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 30-iyun 2024-yil O’zbekiston yoshlariga bayram tabrigida “Farzandlari bilimli, iste’dodli, o‘zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli albatta yorug‘ bo‘ladi. Biz O‘zbekiston yoshlarini ana shunday ezgu fazilatlar sohiblari etib tarbiyalash uchun bundan buyon ham bor kuch va

imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”[11] deya O’zbekiston yoshlariga baralla ta’kidladilar. Bundan ko’rinib turibdiki, yoshlarga yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda, yurtimizning ertangi kelajagi uchun xarakat qilishimiz o’sib kelayotgan yosh avlodga to’g’ri ta’lim-tarbiya berish, ularda uchraydigan turli xil o’zgarishlarda psixoprofilaktik ishlarni olib borishimiz lozim.

Albatta, ayniqsa, o‘smirlik davrida uchraydigan destruktiv xulq-atvor holatlarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish, yoshlar ongida sog‘lom hayot tarzini shakllantirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu borada psixologik-pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy reabilitatsiya choralarini kuchaytirish, ta’lim muassasalari va oilaning hamkorligini ta’minlash orqali har bir o‘smirni ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirish istiqbol sari tashlangan muhim qadam bo‘ladi. O’smirlik davri, destruktiv xulq-atvor haqida so’z yuritar ekanmiz, avvallo, keling shu haqida qisqacha ma’lumot berib o’tsak: Destruktiv xulq-atvor nima? Destruktiv xulq-atvor — bu shaxs yoki jamiyatga nisbatan zararli, salbiy oqibatlarga olib keluvchi xatti-harakatlar majmui bo‘lib, o‘smirlik davrida turli shakllarda namoyon bo‘ladi:

- ✓ tajovuzkorlik (og‘zaki, jismoniy)holatlari;
- ✓ o‘z joniga qasd qilishga moyillik;
- ✓ zararli odatlar (alkogol, sigaret, giyohvandlik)ga ruju qo’yish;
- ✓ huquqbuzarlik, qoidabuzarlik holatlari;
- ✓ maktabdan qochish, o‘qishdan voz kechish;
- ✓ yolg‘on so‘zlash, manipulyatsiya ko’rinishlari;

O‘smirlik davri xususiyatlari: O‘smirlik — shaxsiy “men” ni anglash, mustaqillikka intilish, tengdoshlarga taqlid qilish kuchayadigan davr hisoblanib, Bu bosqichda quyidagi omillar xulq-atvorga ta’sir ko‘rsatadi:

- ✓ psixologik o‘zgarishlar (garmonal fon, emotsional beqarorlik)
- ✓ ijtimoiy ta’sir (do‘stlar, internet, ommaviy madaniyat)
- ✓ oiladagi muhit (zo‘ravonlik, e’tiborsizlik)
- ✓ maktabdagi muammolar (o‘qituvchilar bilan ziddiyat, o‘quv qiyinchiliklari)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ushbu maqola ilmiy tahliliy metodologiyaga asoslangan bo’lib, o’smirlik davridagi destruktiv xulq-atvor bo‘yicha ko‘plab mahalliy va xorijiy mualliflar tadqiqot olib borgan. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu masala ko‘p jihatdan psixologik, pedagogik, ijtimoiy va biogenetik omillar bilan bog‘liq.

O’zbekistonlik psixolog olim G’oziyev E.G’. o‘smirlaming tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruhga ajratib ko’rsatganini ko’rishimiz mumkin[12]. Xorijiy olimlardan: Erik Erikson ,Z. Freyd , A. Adler va boshqa olimlar o’smirlik davri bilan bog’liq ilmiy ishlar olib borishganligi o’smirlik davridagi o’zgarishlarni o’rganish naqadar muhim ekanligini ko’rsatadi.

O‘smirlikdagi destruktiv xulq-atvorni o‘rganish va tuzatish quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

M.Mirziyoyev 30-iyun 2024-yil O’zbekiston yoshlariga bayram tabrigi

4. G‘oziev E.G’. Ontogenez psixologiyasi O'quv qo'llanma Toshkent 2020, 157 b:

- ✓ Ilmiy asos (nazariy yondashuv):
- ✓ Sistemali yondashuv: shaxsning xulq-atvori turli omillar (biologik, psixologik, ijtimoiy) ta’sirida shakllanishini ko‘zda tutadi.
- ✓ Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: har bir o‘smirning psixologik xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish.
- ✓ Psixodinamik yondashuv: ichki konfliktlar, emotsional ziddiyatlar va orqaga surilgan istaklarning xulqga ta’siri.

Tadqiqot metodlaridan esa:

- ✓ Empirik metodlar: so‘rovnoma, intervyu, testlar (agressivlik testi, ijtimoiy moslashuv darajasi va boshqalar).
- ✓ Kuzatuv: destruktiv holatlarni real muhitda tahlil qilish.
- ✓ Eksperiment: psixologik korreksiya usullarining samaradorligini baholash.
- ✓ Kontent tahlil: ijtimoiy tarmoqlar, OAV orqali yoshlarning ruhiy holati va xulqini o‘rganish.

NATIJALAR. Tahlillar natijasi shuni ko’rsatadiki, Tuzatish choralari va yondashuvlar o’smirlikda destruktiv xulq-atvorni tuzatish yuzasidan quyidagilarni ko’rib chiqishimiz mumkin:

1. Psixologik chora-tadbirlar:

Individual psixodiagnostika va suhbatlar

Emotsional-intellektual rivojlantirish mashg‘ulotlari

Stressga qarshi kurashish ko‘nikmalarini shakllantirish

Kognitiv–xulq-atvor terapiyasi elementlari

2. Pedagogik chora-tadbirlar:

Ijobiy muhit yaratish (inklyuziv, ishonchli atmosfera)

Differensial yondashuv (har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos metod)

Mustahkam intizom va tushunishga asoslangan nazorat

3. Ijtimoiy va oilaviy yordam:

Ota-onalarni psixologik-pedagogik maslahat bilan ta’minlash

Mahalla, maktab va psixologlar hamkorligi

Ijtimoiy xizmatlar (psixolog, defektolog, logoped, ijtimoiy pedagog)

4. Oldini olish (profilaktika):

Maktabgacha va maktab yoshidanoq ijobiy qadriyatlarni shakllantirish

Rivojlantiruvchi treninglar va seminarlar

Mediasavodxonlik, internet xavfsizligi haqida ma’lumot berish

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish (sport, ijod, fan). Ushbu ko’rsatkichlar orqali kerakli natijalarga erishilayotganligini ko’rishimiz mumkin.

MUHOKAMA. O‘smirlik davrida destruktiv xulq-atvorning vujudga kelishi ko‘plab ichki va tashqi omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri shaxsiy va ijtimoiy darajada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu davrda yoshlar emotsional beqarorlik, ijtimoiy ta’sirga berilish, mustaqillikka intilish va identitet izlash kabi murakkab psixologik holatlarni boshdan kechiradilar. Agar bu jarayonlarda yetarlicha psixologik qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom ijtimoiy muhit mavjud bo‘lmasa, destruktiv xulq-atvor shakllanishi

ehtimoli ortadi. Muhim jihatlardan biri shuki, bu kabi xulq-atvorning ildizlari ko‘pincha oilaviy muhit, maktabdagi ziddiyatlar, shaxsiy o‘ziga baho yetishmovchiligi va travmatik tajribalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham korrektsion yondashuvlar faqat simptomlarni emas, balki xatti-harakatlarning sabablari va manbalarini aniqlashga qaratilishi zarur. Psixologik korreksiya va profilaktik chora-tadbirlar samarali bo‘lishi uchun ular tizimli, bosqichma-bosqich, shaxsga yo‘naltirilgan va multidisiplinar yondashuvga asoslangan bo‘lishi kerak. Xususan, psixoterapevtik metodlar (kognitiv-xulqiy terapiya, art-terapiya, emotsional intellektni rivojlantirish mashg‘ulotlari), psixoprofilaktika, ijtimoiy reabilitatsiya va oila bilan ishlash metodikasi asosiy yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi. Yana bir muhim jihat – bu maktab, oila va ijtimoiy muhitning integratsiyalashgan yondashuvini shakllantirish. Ota-onalar va pedagoglar tomonidan konstruktiv muloqot, ijobiy baholash, qo‘llab-quvvatlash orqali o‘smirning shaxsiy ijobiy xususiyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu esa destruktiv xulq-atvorga olib keluvchi xavf omillarini kamaytiradi.

Xulosa. O‘smirlik davri — bu shaxs rivojlanishida keskin o‘zgarishlar, ichki ziddiyatlar va ijtimoiy ta’sirlarga yuqori darajada beriluvchanlik bilan tavsiflanadigan muhim bosqichdir. Ushbu davrda yuzaga keladigan destruktiv xulq-atvor turlari nafaqat o‘smirning psixologik salomatligiga, balki uning ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi hayot yo‘liga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, destruktiv xatti-harakatlar ko‘pincha psixologik beqarorlik, oilaviy muammolar, maktab muhitidagi stresslar hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovning yetishmasligi natijasida yuzaga keladi. Bunday holatlarda faqat jazolash yoki qat’iy nazorat usullaridan foydalanish emas, balki chuqur psixologik korreksiya, ijtimoiy reabilitatsiya va sog‘lom tarbiya strategiyalarini qo‘llash muhim hisoblanadi. Destruktiv xulq-atvorni tuzatishda samarali natijalarga erishish uchun ta’lim muassasalari, oila, psixologlar hamda jamiyat institutlari o‘rtasida yaqin hamkorlik zarur. Shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli va kompleks yondashuvlar asosida tuzilgan psixoprofilaktik va reabilitatsion chora-tadbirlar o‘smirlarning sog‘lom, ijtimoiy faol va ma’suliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, destruktiv xulq-atvorni korreksiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ilmiy asoslangan, barqaror va uzviy yondashuvlarga tayanishi lozim. Bu esa yoshlar orasida salbiy holatlarning oldini olish va ularning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlashning muhim omilidir. Qo’shimcha qilib aytish mumkinki, destruktiv xulq-atvorni tuzatish bo‘yicha amalga oshiriladigan choralar kompleks, ilmiy asoslangan va barqaror bo‘lishi lozim. Har bir o‘smir individual yondashuvga muhtoj bo‘lib, bu jarayonda psixolog, pedagog, oila va jamiyatning uzviy hamkorligi hal qiluvchi o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmadov N.R. Yosh davrlari psixologiyasi. O`quv qo`llanma. Buxoro – 2022
2. Менделеевич В.Д. Психология девиантного поведения. М. 2004.
3. Olimov L.YA., Nazarov A. Xulqi og’ishgan bolalar psixologiyasi. Toshkent. 2020.
4. Mansurova G. R. FEATURES OF THE FORMATION OF VALUE ORIENTATIONS OF ADOLESCENTS.
5. G’oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. T.: O‘qituvchi, 2010.

6. G‘oziyev E.G’. Ontogenez psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2020

GENDER IDENTIFIKATSIYASINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Arabboyeva Zahroxon Tohirjonovna
NamDU Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada gender identifikatsiyasining shakllanish jarayoni va unga ta’sir qiluvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Biologik, psixologik hamda ijtimoiy-madaniy omillar orqali insonning o‘z jinsiga nisbatan o‘zini qanday his qilishiga, o‘zini qanday tutishiga va jamiyatdagi o‘z rolini qanday anglashiga e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, gender stereotiplari, ommaviy axborot vositalarining hamda zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri alohida yoritilgan. Tadqiqotda gender identifikatsiyasining shakllanishi shaxsiy rivojlanish jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi, shuningdek, stereotiplarning bartaraf etilishi yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi. Maqola biologik, psixologik va ijtimoiy faktorlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlarni ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *gender, identifikatsiya, biologik omillar, psixologik omillar, ijtimoiy stereotiplar, shaxsiy rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье анализируется процесс формирования гендерной идентификации и основные факторы, влияющие на него. Рассматривается, каким образом биологические, психологические и социокультурные факторы влияют на восприятие человеком своей гендерной принадлежности, поведение и осознание своей роли в обществе. Особое внимание уделено гендерным стереотипам, влиянию средств массовой информации, а также современным технологиям и социальным сетям. Исследование раскрывает, как формирование гендерной идентификации влияет на личностное развитие, а также рассматриваются пути преодоления стереотипов. Статья раскрывает сложное взаимодействие биологических, психологических и социальных факторов.*

Ключевые слова: *гендер, идентификация, биологические факторы, психологические факторы, социальные стереотипы, личностное развитие.*

Annotation:*This article analyzes the process of gender identification formation and the main factors influencing it. It examines how biological, psychological, and socio-cultural factors affect a person's perception of their gender, behavior, and understanding of their role in society. Special attention is given to gender stereotypes, the influence of mass media, as well as modern technologies and social networks. The study reveals how the formation of gender identification impacts personal development and explores ways to overcome stereotypes. The article elucidates the complex interaction between biological, psychological, and social factors.*

Keywords: *gender, identification, biological factors, psychological factors, social stereotypes, personal development.*

Kirish. Bugungi kunda gender identifikatsiyasi – inson psixologiyasi va sotsiologiyasining eng muhim va murakkab mavzularidan biri hisoblanadi. Gender tushunchasi odatda insonning biologik jinsidan farq qiladigan, jamiyat tomonidan shakllantiriladigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, rollar va munosabatlar majmuasi sifatida qaraladi. Gender identifikatsiyasi esa insonning o‘z jinsini anglab yetishi, o‘zini o‘sha jins bilan bog‘lash jarayoni bo‘lib, u shaxsning o‘zligini shakllantirishda, ijtimoiy va shaxsiy hayotda muvaffaqiyat qozonishda muhim ahamiyatga ega.

Gender identifikatsiyasi shakllanishi murakkab jarayon bo‘lib, u biologik, psixologik va ijtimoiy-madaniy omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga

keladi. Biologik omillar insonning genetik va fiziologik xususiyatlari, gormonlarning ta’siri orqali jinsiy xulq va o‘zlikni belgilashda asosiy rol o‘ynasa, psixologik omillar shaxsning o‘z-o‘zini qabul qilishi, ichki ruhiy holati va psixologik xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy omillar — jamiyatning qadriyatlari, urf-odatlari, ta’lim tizimi, oila va ommaviy axborot vositalari kabi tashqi ta’sirlar shaxsning gender identifikatsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyatlarda gender stereotiplari va genderga oid qat’iy ijtimoiy qoidalar insonga o‘zligini to‘liq ifoda etish imkonini cheklashi mumkin. Shu sababli gender identifikatsiyasining shakllanishi jarayonini chuqur o‘rganish, uning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, shuningdek, gender stereotiplarini bartaraf etish yo‘llarini izlash shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim vazifa sanaladi.

Ushbu maqola gender identifikatsiyasining shakllanishiga ta’sir qiluvchi biologik, psixologik va ijtimoiy-madaniy omillarni tahlil qiladi, shuningdek, gender stereotiplari va ommaviy axborot vositalarining ta’siri haqida so‘z yuritadi. Maqola gender identifikatsiyasining shaxsiy rivojlanishdagi o‘rnini ochib beradi hamda stereotiplarni yengish yo‘llarini ko‘rsatadi.

1. Biologik omillar va gender identifikatsiyasi

Gender identifikatsiyasining shakllanishidagi asosiy va dastlabki omil – biologik jinsdir. Biologik jins genetik kod va fiziologik xususiyatlar orqali aniqlanadi. Qizil qon hujayralaridagi X va Y xromosomalar jinsiy farqni belgilaydi: XX – ayol, XY – erkak jinsini. Shu bilan birga, gormonlar, xususan, testesteron va estrogenning miqdori va ta’siri jinsiy xulq va jinsga oid xatti-harakatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, biologik omillar faqat boshlang‘ich rol o‘ynaydi, lekin ular jinsiy identifikatsiyaning yagona belgilovchisi emas. Masalan, Shvarts (2014) biologik omillarning psixologik va ijtimoiy kontekstda qanday namoyon bo‘lishi haqida ta’kidlaydi: gormonlar va genetika shaxsning jinsga oid xulq-atvorini shakllantirishda asos bo‘lsa-da, ijtimoiy muhit va individual tajriba bunga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, biologik omillar ayrim holatlarda gender identifikatsiyasida murakkabliklar yoki noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, interseksual holatlar, ya’ni tug‘ilish paytida jinsiy organlarning aniq erkak yoki ayol jinsiga mos kelmasligi, shaxsning jinsiy o‘zligini aniqlash jarayonini qiyinlashtiradi va qo‘shimcha psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi.

2. Psixologik omillar

Psixologik omillar shaxsning o‘z jinsiga munosabati, o‘zini anglash darajasi va o‘z-o‘zini qabul qilish qobiliyati bilan bog‘liq. Erik Eriksonning rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, shaxsiy identifikatsiya bosqichlarida, ayniqsa o‘smirlik davrida, jinsiy identifikatsiya shakllanadi va mustahkamlanadi [3].

Bu jarayonda ota-ona, tengdoshlar va maktab muhiti muhim rol o‘ynaydi. Psixologik omillar qatoriga shuningdek, shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, o‘ziga xosligini anglash, shuningdek, ichki emotsional barqarorligi kiradi. Agar shaxs o‘z

jinsiga mos keladigan rollarni qabul qilsa va o‘zligini ijtimoiy jihatdan tasdiqlasa, gender identifikatsiyasi muvaffaqiyatli shakllanadi.

Shu bilan birga, psixologik omillar shaxsning o‘zini qabul qilmasligi, gender identifikatsiyasi bilan bog‘liq qarama-qarshiliklar, yoki jinsiy orientatsiya bilan bog‘liq ichki muammolar paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Bu holatlar professional psixologik yordamni talab etadi.

3. Ijtimoiy-madaniy omillar

Ijtimoiy-madaniy omillar – bu shaxsning atrofidagi jamiyat, uning qadriyatlari, urf-odatlari, ta’lim tizimi, me’yorlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va yangi texnologiyalar ta’sirida yuzaga keladigan omillardir. Gender stereotiplari, ya’ni erkaklar va ayollarga tegishli deb qabul qilingan qat’iy ijtimoiy qoidalar, yoshlarning jinsiy identifikatsiyasini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi.

Bandura (2001)ning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, shaxs atrofdagi modellarga qarab o‘z xulq-atvorini shakllantiradi. Shu sababli, oilada ota-onaning, maktabda o‘qituvchilar va tengdoshlarning, ommaviy axborot vositalarida esa televidenie, kino, internet va ijtimoiy tarmoqlarning gender stereotiplari yoshlarning jinsiy o‘zligini anglashiga katta ta’sir ko‘rsatadi [3].

Zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar esa gender stereotiplarini kuchaytirishi yoki aksincha, buzishi mumkin. Masalan, internetda gender tenglikka oid kontentlar yoshlarni ongli qilishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim holatlarda noto‘g‘ri axborot tarqalishi stereotiplarning mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi.

Biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir

Gender identifikatsiyasining shakllanishi biologik, psixologik va ijtimoiy-madaniy omillarning o‘zaro murakkab ta’siri asosida yuzaga keladi. Biologik omillar (xromosomalar, gormonlar, jinsiy organlar) insonning jinsiy kimligini belgilovchi tabiiy asos bo‘lsa-da, bu asosning qanday qabul qilinishi va rivojlanishi psixologik hamda ijtimoiy shart-sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq.

Masalan, J. Money gender identifikatsiyasini “biopsixososial holat” sifatida izohlab, unda biologik asoslar bilan birga ruhiy va ijtimoiy ta’sirlarning muhim rolini ta’kidlaydi [4]. S. Bem esa bolalar atrof-muhitdan o‘zlashtirgan gender sxemalari orqali o‘z jinsiy rolini anglashini ta’kidlab o‘tgan [5]. Bu esa shuni anglatadiki, gender o‘zini anglash jarayoni ijtimoiy stereotiplar, madaniy qadriyatlar va kommunikatsiya vositalari orqali shakllanadi.

Demak, gender identifikatsiyasi — bu inson biologiyasi va psixologiyasi jamiyat ta’siri bilan shakllanadigan dinamik jarayondir. Har bir omil boshqasining ta’sirini kuchaytirishi yoki o‘zgartirishi mumkin.

4. Gender stereotiplari va ularni bartaraf etish yo‘llari

Gender stereotiplari – bu jamiyat tomonidan jinsga oid qabul qilingan, ko‘pincha qat’iy va cheklovchi me’yorlar majmuasi bo‘lib, ularning mavjudligi shaxsning o‘zligini erkin ifoda etishiga to‘siq bo‘lishi mumkin. Ushbu stereotiplar ta’lim, ish faoliyati, oilaviy hayot kabi sohalarda gender tengsizligiga olib keladi.

Butler (1990) o‘zining "Gender Trouble" asarida genderning ijtimoiy konstruktsiya ekanligini ta’kidlaydi va stereotiplarni buzish uchun jamiyatda gender

haqida yangi, moslashuvchan tushunchalarni shakllantirish zarurligini bildiradi [6]. Shu sababli, gender stereotiplarni bartaraf etish va gender tenglikni ta’minlash uchun ta’lim tizimida, ommaviy axborot vositalarida va siyosiy sohada ongli ishlar olib borilishi lozim.

Xulosa. Gender identifikatsiyasi inson shaxsiyatining muhim va murakkab jihatlaridan biri bo‘lib, u biologik, psixologik va ijtimoiy-madaniy omillar o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Biologik asoslar — xromosomalar, gormonlar va jismoniy tuzilma — gender identifikatsiyasining tabiiy poydevorini tashkil etadi. Biroq bu poydevorning ustiga qanday “shaxsiylik” qurilishi, asosan, ijtimoiy sharoit, tarbiya, madaniyat, stereotiplar va ommaviy axborot vositalarining ta’siriga bog‘liq bo‘ladi.

Psixologik omillar esa insonning o‘zini anglash, qabul qilish va o‘z rolini ijtimoiy kontekstda belgilab olishiga xizmat qiladi. Masalan, John Money’ning "biopsixososial yondashuvi" va Sandra Bem’ning "gender sxemalari" haqidagi qarashlari gender identifikatsiyasi bir yoqlama biologik jarayon emasligini isbotlaydi. Aksincha, bu jarayon inson ongining ichki kechinmalari va tashqi ijtimoiy bosimlar bilan chambarchas bog‘langan.

Shunday ekan, gender identifikatsiyasini tushunish va unga to‘g‘ri yondashish uchun har uchala — biologik, psixologik va ijtimoiy — komponentning o‘zaro bog‘liqligini inkor etmaslik lozim. Bu masalaga kompleks yondashuv shaxsiy rivojlanishni chuqurroq anglashga, ijtimoiy tenglik va gender adolatini ta’minlashga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Shvarts, J. (2014). *Biological and social influences on gender identity development*. Journal of Psychology and Gender Studies, 12(3), 45-62.
2. Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and crisis*. W. W. Norton & Company.
3. Bandura, A. (2001). *Social cognitive theory: An agentic perspective*. Annual Review of Psychology, 52, 1–26.
4. Money, J. (1955). *Hermaphroditism, gender and precocity in identity formation. The Journal of Pediatrics*, 47(4), 402–408.
5. Bem, S. L. (1974). *The measurement of psychological androgyny*. *Journal of Consulting and Clinical Psychology*, 42(2), 155–162.
6. Butler, J. (1990). *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity*. Routledge.

SUN’IY INTELLEKTNING TALABALAR KOGNITIV JARAYONLARIGA TA’SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Abduhakimova Muslima Baxodir qizi
NamDU 1-bosqich tayanch doktorantura izlanuvchisi
Namangan davlat universiteti, O’zbekiston
muslimaabduhakimova698@gmail.uz

Annotatsiya*: Sun’iy intellektning misli ko’rilmagan o’sish sur’ati insonlarni hayajonga solishi bilan birga psixolog olimlarimizning ham biroz xavotiriga sabab bo’lmoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellektning talabalar kognitiv jarayonlariga ta’sirining asosiy shakllari keltirilgan, aynan qaysi xususiyatlariga salbiy ta’sir qilishi va salbiy ta’sirga uchramaslik yo’llari yoritilgan. Maqoladan talabalar, o’qituvchilar, izlanuvchilar foydalanishlari mumkin.*

Kalit so'zlar: *kognitiv, sun'iy intellekt, talaba, tanqidiy fikrlash, kognitiv yuk, xotira*

Аннотация*: Небывалый рост искусственного интеллекта не только волнует людей, но и вызывает опасения у наших психологов. В статье представлены основные формы воздействия искусственного интеллекта на познавательные процессы учащихся, выделены особенности, на которые он оказывает негативное влияние и как избежать негативного воздействия. Статья может быть использована учащимися, преподавателями и исследователями.*

Ключевые слова*: когнитивный, искусственный интеллект, студент, критическое мышление, познавательная нагрузка, память*

Abstract*: The unprecedented growth of artificial intelligence not only excites people, but also causes some concern among our psychologists. This article presents the main forms of impact of artificial intelligence on students' cognitive processes, highlights which features it negatively affects and how to avoid negative impacts. The article can be used by students, teachers, and researchers.*

Keywords*: cognitive, artificial intelligence, student, critical thinking, cognitive load, memory*

Jadal rivojlanayotgan sun'iy intellekt (SI) hayotimizning har jabhasiga ijobiymi yoki salbiymi albatta o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Keyingi 10 yil ichida sun'iy intellektning kuchli modellarini paydo bo'lishi inson tafakkurining tabiatini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin va bu aql kuchaytiruvchisi, rivojlanishni tezlashtiradi degan ijobiy kutilmalar ham, aqliy mehnatni haddan tashqari avtomatlashtirish bir qator ko'nikmalarning pasayishiga olib keladi deydigan salbiy kutilmalar ham mavjud.

Bugun e'tibor qaratadigan bo'lsak, oliy ta'lim muassasalari talabalari sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha ancha ilg'orlab bormoqda. Sun'iy intellekt vositalari rivojlangani sari ular nafaqat inson imkoniyatlarini kengaytiribgina qolmay, balki aql haqidagi an'anaviy tushunchalarni qayta ko'rib chiqishga, tafakkur, ijod va inson idrokining kelajagi haqida qator muzokarali jumboqlar keltirib chiqarmoqda.

Sun'iy intellektning inson aql-zakovati uchun muhim oqibatlaridan biri uning kognitiv qobiliyatlarni kengaytirish va inson bilimlari hajmini oshirishdagi rolidir. Sun'iy intellektga bog'langan barcha texnologiyalar va algoritmlar katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qiladi, yashirin naqshlarni atroflicha topadi va insonning qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradigan tushunchalarni yaratadi. Misol uchun, sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan qidiruv tizimlari foydalanuvchilarga ma'lumotlarni bir zumda toppish imkonini beradi, bu esa turli sohalarda o'rganish, tadqiqot va innovatsiyalarni osonlashtiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellektga asoslangan tavsiya beruvchi tizimlar shaxsiy imtiyozlarga moslashish va umrbod ta'limni rag'batlantirish orqali tarkib va o'rganish tajribasini shaxsiylashtiradi.[1]

Sun'iy intellekt orqali ta'limda turli onlayn darslar, platformalar yaratilmoqda, bu ta'lim jarayonini ancha soddalashtirishi, qulaylashtirishi va natijaga tez erishishimizni ta'minlab beradi. Qulaylik va samaradorlikka erishish uchun talabalar SI.ga nafaqat odatiy vazifalarni, balki o'zlaridagi murakkab kognitiv jarayonlarni ham topshirib bormoqda. Ushbu tendensiyaga psixologik nuqtai nazardan qarasak, talabalarda "dangasa miya" shakllanishiga olib kelishi mumkin.[1] Ya'ni talabalarda

kognitiv jarayonlarni (muammolarni mustaqil ravishda hal qilish, tanqidiy fikrlash va muammolarni ijodiy tushunish qobiliyati) asta-sekin yo'qotadigan holat yuzaga kelishi mumkin. Keling, talabalarda sun'iy intellekt ta'sirida kognitiv jarayonlarga ta'siri mexanizimini ko'rib chiqaylik.

Kognitiv yukni kamayishi - kognitiv yuk insonning qisqa muddatli xotirasi va aqliy jarayonlari tomonidan bir vaqtda qayta ishlanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar miqdoridir. Ta'lim jarayonida kognitiv yuk haddan tashqari oshib ketsa, o'quvchining axborotni o'zlashtirishi qiyinlashadi. Sun'iy intellekt (SI) vositalari bu yukni kamaytirishda sezilarli rol o'ynaydi, ammo noto'g'ri yondashuvlar salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Talabalar darslarda asta sekinlik bilan o'z miyyalari bajaradigan vazifalarni sun'iy intellektga berishmoqda. Uy vazifalari, muammoli savollar barchasini SI yordamida bajarishmoqda. Miyyamiz tejamkor funksiyada ishlashi hisobiga o'z yukini yengillatib o'rganib bormoqda. Qisqa muddatda bu foydali ko'rinadi - bu boshqa vazifalar uchun aqliy resurslarni bo'shatadi. Biroq, kelajakda bu murakkab intellektual muammolarni yengish uchun miyaning kognitiv qobiliyatini pasayishiga olib keladi.[1]

Xotiraning buzilishi – talabalar "internetda borku" tushunchasi borligi sababli ko'plab ma'lumotlarni eslab qolishmaydi. Doim ma'lumot kerak bo'lganda sun'iy intellekt va internet saytlaridan foydalanish oqibatida esda saqlash va qayta esga tushurish passivlashib ketadi. Xotira ma'lumotni saqlash, ijodiy fikrlash uchun juda muhim bo'lgan g'oyalar o'rtasidagi aloqalarni shakllantirish uchun poydevor hisoblanadi. Shu bilan birga xotira qotib qolgan kognitiv tarkib emas, dinamik jarayon.[2] Ya'ni mashq qilish, o'zini ustida ishlash orqali o'sib rivojlanib boradigan jarayon hisoblanadi. Sun'iy intellektdan doim foydalanish xotirani ishini kamaytitradi va ishlatilmaslik oqibatida xotira qotib qoladi, o'tmaslashadi. Juda og'ir shakllarida oddiy ismlar bir so'zli ma'lumotlarni ham eslab qola olmaydi.

Tanqidiy fikrlashning yo'qolishi- Murakkab algoritm katta ma'lumotlar to'plamlarini avtomatik ravishda birlashtirishi va tahlil qilishi, muammolarni hal qilish va vazifalarni bajarishni optimallashtirishi mumkin. Uning tezligi va aniqligi ko'pincha odamlarnikidan oshib ketganligi sababli, foydalanuvchilar bu vazifalarni ularga qaraganda yaxshiroq deb baholashadi. Bu ularga javoblar va g'oyalar bilan ta'minlanganda, ular ushbu natijani a'lo darajada deb qabul qilishadi. Talabalar SI dan ma'lumot olganda uning qay darajada to'g'ri yoki ishonchliligiga ahamiyat qaratmasliklari sababli ularda mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish, tahlil qilish, muammoni yechish yo'llarini izlash umumiy qilib aytganda jarayonga munosabat bildirish yo'qolib bormoqda. Qanchalik foydalanuvchilar algoritm javobini haqiqat sifatida qabul qilsalar, ularning baholashi va mulohazalari shunchalik buziladi

Talabalarning surunkali SI dan foydalanishi oqibatida miya topshiriqlar va so'rovlarni shablon qilishga odatlanib qoladi. Borgan sari sayoz fikrlaydigan bo'lib, hatto murakkab topshiriq olganda SI dan ham to'g'ri foydalana olmay qoladi. Chunki SI ham inson berayotgan savollar saviyasiga ko'ra javob qaytaradi. Siz unga muammoni aniq yetkazib berolmasangiz u ham sayoz javob beradi. Sun'iy intellektga qaram avlod kelajakda ishchi kuchida avtomatlashtirish texnologiyalari bilan raqobatlashishi kutiladi. Muammoni hal qilish, mulohaza yuritish va muloqot

kabi ko’plab ko'nikmalar ish faoliyati zarurdir. Ushbu ko'nikmalarga ega bo'lmaslik yoki yaxshi baho olish uchun generativ vositalarga tayanish ish topishni qiyinlashtirishi mumkin.

Sun’iy intellekt talabalar kognitiv rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishi bilan birga ta’limni rivojlantiruvchi ko’plab ustuvor jihatlarini hisobga olgan holda undan samarali foydalanish choralarini ko’rishimiz kerak. Ya’ni sun’iy intellektli davrda undan qochib emas, u bilan birga talabalarning kognitiv sohasini rivojlantirishimiz lozim.

SI savodxonligini yoshlikdan boshlash. Bolalar SI nima ekanligini va uning asosiy darajada qanday ishlashini, vazifasini tushunishi kerak. Erta yoshdan sun’iy intellektni tushunish va qiziqishni rivojlantirish uchun o‘yin (tajriba)ga yo‘naltirilgan dasturlar va sun’iy intellekt o‘quv dasturlarini ishlab chiqish lozim.[3] Informatika darslarida kerak bo’lsa alohida sun’iy intellekt darslari tashkil qilib, sun’iy intellektni tanqidiy tahlil qilishni, har doim ham to’g’ri javob bermasligini aynan noto’g’ri javoblarini ko’rsatib tushintirib borilishi, shu bilan birga sun’iy intellektdan faqat va faqat rivojlanish yo’lida foydalanishimiz, uning imkoniyatlarini to’liq tushuntirib borishimiz lozim. Aynan sun’iy intellektning cheklovlari va potensiali haqidagi shunday bilimlar bilan bolalarimizni bilimini oshirishimiz, Sun’iy intellekt avlodini tayyorlashimizning muhim jihati hisoblanadi.

Talabalarni o’z ustida ishlashga o’rgatish. Ta’lim muassasalarida talabalarga berilgan topshiriqlar ustida avvalo o’zlari ishlashlari o’zlarida mavjud bilimlar bilan muammoni dastlabki qismini hal qilib undan so’ng to’ldirish uchun yoki kengaytirish uchun SI dan foydalanishi lozim. Masalan, bir inshoni dastlab rejalarini o’zi qo’yishi va mavjud bilimlarini boricha yoritib olishi lozim. Bu talabalarning intellektual mas’uliyati va fikrlash mashg'ulotlariga ega bo'lishini ta'minlaydi. SI yordamchi rolda ekanini doim unutmaslik lozim. Sun’iy intellekt talabalar uchun javoblar banki bo’lib emas, ta’lim sifatini yaxshilash, zamonaviy ta’lim yangiliklaridan foydalanish vositasi bo’lib xizmat qilishi kerak.

Talabalar mustaqil izlanishni rag'batlantirish va inson omilini qadrlash. Ustozlar va hatto ota-onalar sun’iy intellekt muammoni tezroq hal qila olsa ham, inson sa'y-harakatlarini qadrlashlari va mukofotlashlari kerak. Turli inson omili bilan yaratiladigan ijodiy topshiriqlar berishga va shug’ullanishga harakat qilishimiz lozim. Sun’iy intellekt yordamida bajarilgan ishlar ko’payib borayotgan bir paytda inson tomonidan yaratilgan ijodiy ishlarni alohida rag’batlantirishimiz, ta’lim muassasalarida talablar mustaqil fikrlashi, qo’rqmasadan fikr bildira olishi uchun qulay usulda darslar tashkillashimiz kerak. Qolaversa, talabalarda insoniy sifatlarini unutmasliklari, ishlab chiqarish va ish bozorida bilim va ko’nikmalari bilan birga shaxsiy xususiyatlari ham alohida o’rin tutishini doim uqtirib borilishi SI va inson o’rtasidagi aloqani barbarorlashtiradi.

Asosiy xulosa shundaki, SI va inson o’rtasidagi muvozanatni saqlash. SI juda aqlli ko’rinishga ega bo’sada, u shunchaki bir vosita inson o’rnini bosolmaydi. Bizning vazifamiz ta’lim va kasbiy jarayonlarga inson omiliga halaqit bermasdan integratsiya qilishimizdir. **S**un’iy intellektdan foydalanishni to‘liq taqiqlash emas, balki ongli, nazorat ostidagi, metodik jihatdan asoslangan integratsiya yo‘lini tanlash

dolzarb vazifadir. SI o‘qituvchilar uchun – o‘qitish vositasi, talabalar uchun esa – o‘rganish vositasi bo‘lib xizmat qilishi lozim. Talabalar SI orqali bilimni egallashi, tahlil qilishi, lekin yakuniy qaror va xulosani o‘zi shakllantirishi talab etiladi. Bunga erishishimiz uchun yoshlikdan tanqidiy fikrlashni, har qanday sharoitga adaptatsiya hosil qilish, inson ijod mahsulini qadirlashimiz muhim. Biz hozirdan kerakli chora-tadbirni ko’ra olsak, kelajak yillarda sun’iy intellect bilan birga katta bo’layotgan avlodlarni o’zlarida tanqidiy fikrlash, idodkorlik, keng dunyoqarash, insoniylik kabi fazilat va xususiyatlarini saqlab qolgan holda ko’ramiz. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan rivojlanish yo’lida foydalana olamizmi yoki miyyamizni topshirib qo’yamizmi? Qanday natija olish o’zimizga bog’liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.Фирсов. “Ленивый мозг” – как ИИ влияет на когнитивные способности человека. Академия социальных технологий 2024-y. https://ast-academy.ru/blog/lenivyj-mozg-razbiraemsa-vo-vlianii-iskusstvennogo-intellekta-na-kognitivnye-sposobnosti-celoveka/
2. E.G’oziyev. Psixologiya. Toshkent. O’qituvchi- 2008. 224-b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori PQ-358-son

HOZIRGI ZAMONAVIY JAMIYATDA ASOTSIAL XULQNING RIVOJLANISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TA’SIRI

Raximjanova Dilshoda Alisher qizi
Psixologiya mutaxassisligi magistranti
Maxsudova Mutabarxon Abdusalomovna
NamDU Psixologiya kafedrasi dotsenti ps.f.n.

Annotatsiya: *Ushbu maqola hozirgi vaqtda dolzarb muammolardan biri bo’lgan asotsial xulqning o’smirlarda rivojlanib borishini shakillanishiga ommaviy axborot vositalarining o’zaro ta’siri haqida bo’lib, ushbu maqolada televideniya, internet tarmoqlarida keng tarqalayotgan turli xildagi zo’ravonlikka targ’ib qiluvchi, agressiyaga sabab bo’luvchi, turli axloqiy no’rmalarga tamoman to’g’ri kelmaydigan ishlarni aks ettiruvchi kontentlarning ko’payib borishi natijasida bolalarda asotsial xulq-atvorlarning kelib chiqishi to’g’risida bayon qilinadi.*

Kalit so’zlar: *Bandura, kuzatish, vinar o’rganish, ramziy model, brain rot, miya chirishi, ,,brain rot’’, diqqat, stress, xavotir.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается взаимное влияние средств массовой информации на формирование и развитие асоциального поведения у подростков — одной из актуальных проблем современности. Также в статье приводится анализ того, как распространение в телевидении и интернет-сетях различных видов контента, пропагандирующего насилие, вызывающего агрессию и полностью противоречащего моральным нормам, способствует возникновению асоциального поведения у детей.*

Ключевые слова: *Бандура, наблюдение, обучение, символическая модель, разложение мозга, ,,brain rot’’, внимание, стресс, тревога.*

Annotation: *This article discusses the mutual influence of mass media on the development and formation of antisocial behavior in adolescents, which is one of the pressing issues of today. The article also analyzes how the growing spread of various types of content on television and the internet—content that promotes violence, incites aggression, and completely contradicts moral norms—leads to the emergence of antisocial behavior in children.*

Keywords: *Bandura, observation, observational learnig, symbolic model, brain rot, mental deterioration, ,,brain rot’’, attention, stress, anxiety.*

Zamonaviy texnologiyalarning rivoji hozirgi vaqtda odamlarning yashash tarziga va ularning xulq-atvoriga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatmoqda. Jumladan, ommaviy axborot vositalaridan televideniya, internet platformalari, turli xildagi tarmoqlardagi zo’ravonlikka, buzg’unchilikka turli no’maqbul axloq no’rmalariga to’g’ri kelmaydigan video roliklar odamlarning, jumladan, hali rivojlanish arafasida bo’lgan oq qorani yaxshi ajrata olmaydigan eng asosiysi tanqidiy tahlil va fikrlashi hali unchalik darajada rivojlanmagan maktab o’quvchilari uchun katta ta’sir ko’rsatadi. Ya’ni, ular nimani ko’rsa to’g’ri deb qabul qilishadi va ularni o’zlari anglab anglamasdan takrorlashadi. Buning natijasida ularda turli xildagi axloq qoildalariga to’g’ri kelmaydigan xulq-atvor buzilishlari yuzaga keladi. Bu turdagi axloq og’ishishlarini turli olimlar turlicha tahlil qilishgan, hozir biz ulardan bir nechalarini keltirib o’tamiz.

Asotsial xulqning rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining o’zaro ta’siri, shaxsning xulq atvoriga tashqi muhit ta’siri shu orqali ularda turli xildagi xulq-atvor vositalarining rivojlanishi haqida turlicha nazariyalar mavjud. Ulardan eng birinchisi hozirgacha mashhur bo’lgan va o’z ahamiyatini yo’qotmagan A.Banduraning, “Ijtimoiy o’rganish nazariyasi’’dir. Ijtimoiy o’rganish nazariyasi A.Bandura tomonidan 1925- yilda ishlab chiqilgan bo’lib, u nazariyani ijtimoiy kognitiv deb nomlagan. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga muvofiq, faqatgina elementar reflekslar va inson imkoniyatlarining chegaralari tug‘ma hisoblanadi. Insonning har qanday xulq-atvori ijtimoiy shartlangan bo‘lib, uning ortida maxsus o‘rgatish talab qiladigan juda murakkab ko‘nikmalar turadi.[1]

Banduraning o’rganish nazariyasiga muvofiq quyidagi xulq-atvor mexanizmlarini ta’kidlash mumkin.

- **Kuzatish orqali o’rganish- (vinar o’rganish)** bu yetakchi usul hisoblanib, insonlardagi xulq-atvor va ularning ko’nikmalari modellarni (boshqa odamlarni kuzatish orqali o’rganadilar. Bundan ko’rinib turubdiki o’quvchilar xulq-atvor va ko’nikmalarni atrofdagi odamlarni kuzatib ularga taqliq qilish o’rqali o’zlashtiradi.
- **Harakatda o’rganish yoki keng tarqalgani turi tajriba orqali o’rganish turi.** Ko‘nikmalar (harakatlar) maqsadli tuzilmalar bilan bog‘liq. Harakat sodir etib, insonlar ularning oqibatlari ta’sirini sezadilar (operant shartlanish). Shuning uchun oqibatlarni inson qanday qabul qilishi xulq-atvoriga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, agar reaksiya oqibatlari yuqori baholansa, bunday xulq-atvor sodir etish ehtimolini ko‘taradi yoxud uni kuchaytiradi.[1]

Bandura fikriga ko’ra, shaxslar o’zlaridagi mavjud xulq - atvorlarning boshqa shaxslarda ya’ni modellarda ko’rib, kuzatib va o’zlarida kognitiv jarayonlar asosida tahlil qilish orqali o’zlashtiradilar, deb aytgan. Shunga ko’ra, shaxs sezgi o’rganlari orqali sezadi, ya’ni ko’radi. Keyinchalik unda bu jarayonni analiz, sintez qilish boshlanadi. Keyinchalik o’sha xulq-atvor hosilasini o’zida takrorlashni boshlaydi.

Banduraning ijtimoiy o’rganish nazariyasi (Social Learning Theory) ga muvofiq u modellar o’rganish, kuzatish orqali o’rganishga katta etiborini qaratgan. Uning nazariyasiga muvofiq u model bo’lishning uch xil turi ajratib ko’rsatilgan.

- **Jonli modellar-** bu yerda xaqiqiy inson kerakli xatti-xarakatni namoyish etadi va boshqalar undan o'rnak oladi. Bu turi hozirda keng tarqalganlaridan bo'lib, ota-onalarning ko'pchiligi o'z bolalariga bo'lgan talablarida ularni boshqalarga solishtirish va ularga o'zlariga ideal deb topgan modellarini ko'rsatish va o'rnak qilib ko'rsatish orqali ular o'z farzandlarida yaxshi manfaat olib keluvchi xulq- atvorga ega bo'lishlarini istaydilar.
- **Og'zaki ko'rsatmalar -** bu turida asosan shaxslar biror bir harakatni batafsil tushintirib beradi va u qanday bajarilishini ko'rsatib beradi. Bu turida asosan o'quvchilarda asotsial xulq - atvorlari rivojlanishiga turli axborot vositalaridagi kontentlar misol bo'la oladi.
- **Ramziy (simbolik) modellar -** bu turdagi model olish ommaviy axborot vositalari orqali ro'y beradi: filmlar, televizor, internet, adabiyot va radio. Bu modellar haqiqiy shaxslar yoki xayoliy qahramonlar bo'lishi mumkin. Bunda bolalar kimni ko'p kuzatsalar o'sha influenser odamga o'xshab harakat qila boshlaydilar, ular nima yesa, kiysa shu ishlarni takrorlashni boshlaydilar va bu holatni butunlay normal deb qabul qiladilar. Ya'ni ularning fikriga ko'ra, hamma qilyaptimi, demak to'g'ri'', degan fikr shakllangan bo'ladi.[2]

Hozirgi vaqtda shaxslarning xulq-atvoriga eng katta ta'sir korsatadigan ham bu - internet provayderlaridir. Oxford unversiteti tomonidan 2024-yilda eng ko'p qo'llanilgan so'zlari ro'yhatida birinchi o'rnida ,,brain rot'' nomli atama bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilganda ,,miya chirishi'' deb ataladi. Bu atamani asl ma'nosini ko'rib chiqadigan bo'lsak, brain rot (miyya chirishi)- internetda eng ko' uchraydigan sifati past bo'lgan va addektiv odatlarni uyg'otuchi kontentlarga nisbatan ishlatiladigan atama hisoblanadi. Bunday materiallar odamning diqqatini shunchalik egallab oladiki, u ruhiy faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu haddan tashqari berilish holati, uning natijasida yuzaga keladigan aqliy pasayish "brain rot" deb ataladi. [3]

Bu so'z asosan Gan Z hamda Gen Alfa orasida juda mashhurlikka erishgan hisoiblanadi.

Oxford Languages prezidenti **Kasper Grathwohl** shunday deydi: "So'nggi yigirma yillikdagi *Oxford Yil so'zi* tanlovlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, jamiyatning virtual hayoti qanday rivojlanayotgani, internet madaniyati bizning kimligimizga va nima haqida gaplashayotganimizga qanday ta'sir ko'rsatayotganiga tobora ko'proq e'tibor qaratayotganini ko'rish mumkin."[3]

Ijtimioy tarmoqlarda, jumladan, instagramm, tik tok, shu kabi qisqa videolarga boy bo'lgan tarmoqlarda ko'p vaqtni o'tkazish bizning organizimimizda dofamin gormonini ishlab chiqarishi ko'paytiradi va natijada biz o'zimizni to'xtata olamy qolamiz va tarmoqlarda soatlab vaqt o'tib ketganini sezmay qolamiz. Ayrim olimlarni tadqiqotlariga qaraganda, doimiy ravishda dofaminning ko'p ishlab chiqarilishi bizni diqqatimizning doimiyligi va bir joyda ushlab turishimizda qiyinchiliklar kelib chiqishini isbotlashgan.

Past sifatli raqamli (digital) kontentga uzoq vaqt ta'sir qilish nafaqat o'sha paytda charchoq hissini uyg'otadi, balki uzoq muddatli salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin, bular:

- **Diqqatning kamayishi**: Internetdagi kontentning tez, qisqa va sodda shaklda bo‘lishi odamning uzoq va murakkab vazifalarga e’tiborini jamlashini qiyinlashtiradi.
- **Aqliy charchoq (mental charchoq)**: Miyani hatto yuzaki bo‘lsa ham, ma’lumotlar bilan haddan tashqari to‘ldirish uni holdan toydiradi va unumdorlikni pasaytiradi.
- **Xotirani yodda saqlash qobiliyatining pasayishi**: Raqamli chalg‘ituvchilar (masalan, notifikatsiyalar, uzluksiz kontent almashinuvi) o‘rtasida doimiy ravishda e’tibor almashib turish, muhim ma’lumotlarni eslab qolish va qayta chaqirish qobiliyatiga salbiy ta’sir qiladi.
- **Xavotir va stressning oshishi**: Internetda salbiy yangiliklarni uzluksiz o‘qish (bunga “doomscrolling” deyiladi) stress darajasini oshiradi va bezovtalik hissini kuchaytiradi. [4]

Sifati past bo’lgan, vaqtni behuda ketkazadigan va addektiv odatni keltirib chiqaruvchi bunday turdagi kontentlarning ko’p bolishi yosh avlodning diqqat ko’lamini torayishiga va tez- tez chalg’ishlar, diqqat yetishmovchiligining kelib chiqishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bandura nazariyasining asosiy sharti modellarni kuzatish va ulardagi xulq-atvoriga taqlish qilish orqali bolalarda turli xildagi agressiya va xulqiy buzilishlarning paydo bo’lishiga taqlid qilinayotgan odelning o’rni katta ekanligini ta’kidlab o’tgan. „Brain rot’’ deb nomlanuvchi zamonaviy tushuncha esa hozirda keng qo’llanilib, bunda internetdagi sifati past bo’lgan addiktiv bo’lgan kontentlarga nisbatan qaramlikning paydo bo’lishini ifoda etadi. Bu qaramlik esa keyinchalik kognitiv funksiyalarning rivojlanishi va ishlashiga o’z ta’sirini o’tkazadi va shaxslardadi ishga nisbatan unumdorlikning pasayishiga olib keladi. Bu esa ularni jamiyatga nisbatan foydasiga ta’sir ko’rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. ‚Shaxs psixologiyasi. Maxsus psixologiya. Iqtidorli bolalar psixologiyasi. O’quv-uslubiy majmua. Buxoro. 2019. 38- 39- betlar.
2. Article „Social learning theory.’’ https://en.wikipedia.org/
3. Article „Brain Rot’’ named Oxford of name year 2024 Oxford University Press https://corp.oup.com/
4. Article „ Brain rot explained: How digital overload affects your mind.’’ Inspira Health https://www.inspirahealthnetwork.org/
5. https://uz.wikipedia.org/

TIKTOK MESSENJERINING O‘SMIR SHAXSIGA SALBIY TA’SIRLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

G’iyosiddinov Muhriddin Qobuljon o’g’li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali o’qituvchisi

Annotatsiya: *taqdim etilgan maqolada TikTok messenjerining o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan salbiy ta’sirlari va ularni bartaraf etish yo‘llari hamda choralari kompleks yondashuv asosida yoritib beriladi. Maqolada nazariy manbalar, amaliy usullar — so‘rovnomalar va psixologik testlar natijalari asosida tahlil qilinadi hamda asos sifatida beriladi. O’smirlarda uchrashi mumkin bo’lgan kiberbulling, raqamli qaramlik, FOMO sindromi va*

ijtimoiy solishtirish holatlarining ruhiyatga ta’siri ko‘rsatilib, ularga qarshi samarali strategiyalar, tavsiyalar ko’rsatib o’tiladi.

Kalit so‘zlar: *TikTok, o‘smirlar psixologiyasi, raqamli qaramlik, kiberbulling, FOMO, o‘zini qadrlash, test, so‘rovnoma.*

Аннотация: *В представленной статье будет освещено негативное влияние мессенджера TikTok на личностное развитие подростков, а также способы и меры по их преодолению, основанные на комплексном подходе. Статья анализируется на основе теоретических источников, практических методов — результатов опросов и психологических тестов, а также дается в качестве основы. Показано влияние на психику ситуаций киберзапугивания, цифровой зависимости, синдрома FOMO и социального сравнения, с которыми могут столкнуться подростки, с указанием эффективных стратегий и рекомендаций против них.*

Ключевые слова: *TikTok, подростковая психология, цифровая зависимость, киберзапугивание, FOMO, самооценка, тестирование, опрос.*

Annotation: *The presented article explores the negative impacts of the TikTok messenger on adolescents' personal development and proposes ways and measures to mitigate them through a comprehensive approach. The analysis is based not only on theoretical sources but also on practical methods, including survey results and psychological tests, which serve as supporting evidence. The article highlights the psychological effects of cyberbullying, digital addiction, FOMO syndrome, and social comparison frequently encountered among adolescents. It also outlines effective strategies and recommendations to counter these challenges.*

Keywords: *TikTok, adolescent psychology, digital addiction, cyberbullying, FOMO, self-esteem, test, survey.*

1.Nazariy ma’lumot

Raqamli dunyo barcha rivojlanish davrlarida, jumladan, o‘smirlar hayotida tobora muhim o‘rin egallamoqda. Ayniqsa, TikTok messenjeri ularga ko‘p vaqt sarflanadigan, shaxsiy ifoda va tanqidiy baholashga asoslangan muhit taqdim etmoqda. TikTok oyiga 1 milliarddan ortiq faol foydalanuvchisi bilan, albatta, eng keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlardan biridir. Bu video-almashish ilovasi foydalanuvchilarga qisqa videolar yaratish, ulashish va tomosha qilish imkonini beradi — musiqa, raqs, retseptlar, uy bezaklari va boshqalar. Bunday vaziyatlar o’smirning psixologik barqarorligiga, o‘z-o‘zini baholashiga va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatyapti. TikTokning qisqa va oson o‘zaro aloqalar orqali o‘zini namoyon qilish imkoniyati o‘smirlarni bir-biri bilan raqobat qilishga undaydi. Shuningdek, ularning psixologik holati va ijtimoiy idrokini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida yuzaga kelmoqda.

TikTokning ijtimoiy tarmoqlardan farqi shundaki, u juda yuqori darajada interaktiv bo‘lib, foydalanuvchilarni o‘z ishlarini va hissiyotlarini tezkor tarzda baholashga undaydi. Bu esa o‘smirlarni o‘zlarini boshqalar bilan solishtirishga, tasvirlar yoki videolar orqali o‘zining ideal obrazini yaratishga majbur qiladi. COVID-19 karantin yillarida TikTok o‘smirlarga ijtimoiy izolatsiya vaqtida ham jamoatchilik va ko‘ngilochar muhit yaratib berdi. Lekin bu ijtimoiy aloqa o‘rnini to‘liq bosa olmagani uchun, ruhiy va ijtimoiy salomatlik uchun xavf tug‘dirdi. Ayniqsa, 11–17 yoshdagi o‘smirlar ijtimoiy ta’sirlarga juda moyil va TikTokdagi kontent ularni noxush yo‘llarga yetaklashi mumkin. Shu sababli, tengdoshlar bosimi, kattalardan ishonch kamayishi yoki uning yo‘qligi va nazoratsiz kontentga mehri ortishi, yoshlarning ruhiy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli

mavjud. Ushbu maqolada TikTok foydalanuvchilariga oid nazoratsiz va o‘ta ko‘p kontentning mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlarini ko‘rib chiqamiz.

2. Metodologiya

Tadqiqotda so‘rovnoma va psixologik testlar asosida ma’lumotlar to‘plandi. So‘rovnomada 20 ta ochiq va variantli savollar mavjud bo‘lib, TikTokdan foydalanish chastotasi, ruhiy holat, kiberbulling, raqamli qaramlik va o‘zini solishtirish holatlari o‘rganildi. Respondentlarning tanlanishi tasodifiy ravishda amalga oshirildi, lekin ularning geografik joylashuvi va iqtisodiy holati ham tadqiqotda e’tiborga olingan.

Psixologik testlar:

a)Rosenberg o‘z-o‘zini baholash shkalasi

b)Kiberbullingga duch kelish testi

c)Raqamli qaramlik (Digital Addiction) testi

D)Ijtimoiy solishtirish tendensiyasi testi

Respondentlar soni – 200 nafar (13–17 yosh).

Tadqiqotda qamrab olingan o‘smirlar shahar va qishloq joylashuvi, yosh guruhlari, oila iqtisodiy holati va ijtimoiy tarmoqlarga bo‘lgan qiziqish darajasi asosida tasodifiy tarzda tanlandi. Bu tasodifiylik natijalarning umumlashtirishga imkon beradi.

3. Natijalar

72% o‘smir TikTokdan kuniga 2–4 soat foydalanadi.

64% ishtirokchi boshqalar bilan o‘zini taqqoslashini tan olgan.

41% respondent kiberbulling holatiga duch kelgan.

59% o‘zini past baholaydi.

37% raqamli qaramlik belgilarini bildirgan**.**

Birinchi natija TikTokning intensiv foydalanishga olib kelishi, o‘smirlarning kunlik vaqtlari ko‘p qismini virtual muhitda o‘tkazishini ko‘rsatadi.

Ikkinchi natija o‘smirlar orasida o‘zini boshqalar bilan solishtirish holatining keng tarqalganligini isbotlaydi.

Uchinchi natija kiberbullingning jiddiy masala ekanligini va uning o‘smirlarning ruhiy holatiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi natija o‘smirlarning o‘zini qadrlash darajasi pastligi haqida, ularning shaxsiy qadrini baholashda ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlar va sharhlarning ta’siri mavjudligini tasdiqlaydi.

Beshinchi natija qaramlik o‘smirlarning psixologik faolliklariga salbiy ta’sir qilishini ko‘rsatib beradi.

Nazariy jihatdan, bu holatlar Eriksonning identifikatsiya bosqichlari, Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi va Sherry Turkle (2011)ning “Alone Together”, yani "Yolg‘izlikda birga" kontseptsiyasi bilan uyg‘un.

TikTokda doimiy baholovchi tizimlar o‘smirlarning o‘zini qadrlashiga bevosita ta’sir qiladi. FOMO (Fear of Missing Out) sindromi, kiberbulling va ideal obrazlar bosimi o‘smirlarning emotsional barqarorligini zaiflashtiradi, ularning ijtimoiy moslashuviga to‘sqinlik qiladi. Ijtimoiy solishtirish o‘smirlarning o‘zini past

baholashlariga olib keladi va ularni o‘zlariga nisbatan qoniqish hissidan mahrum qiladi.

TikTokning ijtimoiy tarmoq sifatida ishlashi, ularning o‘zini identifikatsiya qilish va ijtimoiy idroklarini shakllantiruvchi mexanizmlari yoshlar ruhiyatini shakllantiradi, lekin bu mexanizmlar kuchli o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Raqamli qaramlik va raqamli o‘zgarishlar o‘smirlarning shaxsiy muammolarini kuchaytirishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar bilan to‘g‘ri ishlash madaniyatining shakllanishi juda muhimdir.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Ma’lumot kelganda faktmi yoki fikrmi, farqlashni o‘rganish zarur. Shu yo‘l bilan foydalanuvchilarning ongli tarzda foydalanishi rivojlanadi. TikTok o‘smirlarning hayotida ijodiylik va muloqot manbai sifatida foydali bo‘lishi mumkin, ammo u bilan to‘g‘ri ishlash madaniyati shakllantirilmasa, salbiy oqibatlarga olib keladi.Yoshlarni himoya qilish uchun ijtimoiy media ishlab chiquvchilari, pedagoglar, ota-onalar, tibbiyot ekspertlari, siyosatchilar, va jamiyat birgalikda faol va doimiy muzokaralar olib borishlari zarur. Social media ilovalarini tartibga solish, ishonchli muhit yaratish, kattalarning ishonchini mustahkamlash va noto‘g‘ri yoki zararli kontentning ijtimoiy ta’sirini aniqlash ham muhimdir.

Tavsiyalar: O‘smirlar uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ongli va mas’uliyatli yondashuvni rivojlantirish zarur. Ota-onalar va pedagoglar uchun media nazorat yo‘riqnomalari: o‘smirlar bilan ijtimoiy tarmoqlarda o‘zaro muloqot qilish va xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqish ham muhim hisoblanadi.

Psixologik yordam xizmatlari va maslahat liniyalari: o‘smirlar uchun o‘zini qadrlash va ijtimoiy tarmoqlar bilan sog‘lom munosabatlarni o‘rgatish.

Sog‘lom kontent targ‘ibotini kuchaytirish: o‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlarda salbiy ta’sirlaridan himoya qilish uchun ijobiy, ma’naviy jihatdan boy kontentlar ishlab chiqish.

Yoshlar uchun maxsus psixologik yordam liniyalari, ishonch telefonlari va onlayn konsultatsiyalar tashkil etilishi o‘smirlar orasida ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi.

TikTok kabi global platformalardagi zararli kontent o‘rniga milliy qadriyatlar va tarbiyaviy mazmunlarni aks ettiruvchi, yoshlar uchun qiziqarli va foydali bo‘lgan kontent ishlab chiqilishi kerak. Bunda blogerlar, san’atkorlar va pedagoglarning hamkorligi muhim.

Raqamli xavfsizlik, yoshlarni himoya qilish va zararli kontentni cheklashga oid qonunlarni yangilash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erikson E. (1968). Identifikatsiya: Yoshlik va inqiroz.
2. Bandura A. (1986). Fikr va harakatning ijtimoiy asoslari.
3. Turkle S. (2011). Yolg‘izlikda birga: Nega texnologiyadan ko‘proq, insonlardan esa kamroq kutamiz.
4. Rosenberg, M. (1965). Self-Esteem Scale.
5. Shakirov T. (2020). Kiberbulling va uning psixologik oqibatlari. O‘zbekiston psixologiyasi jurnali, 4(18), 41–47.

6. G‘ulomova S. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning o‘smir ruhiyatiga ta’siri. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2(45), 34–39.
7. Raximova M. (2022). Raqamli izolyatsiya va shaxsiy o‘zgarishlar. Rivojlanish psixologiyasi axborotnomasi, 1(12), 15–21.
8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. (2023). Raqamli xavfsizlik bo‘yicha qo‘llanma.
9. Abdullayeva N. (2021). O‘smirlarning media muhitdagi moslashuvi. Yoshlar psixologiyasi tadqiqotlari, 3(9), 22–28.
10. Boyd D. (2014). Bu murakkab: Tarmoqlashgan o‘smirlar hayoti. Yale University Press.

O’SPIRINLIK DAVRIDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Aralova Chamanoy Habibullayevna
Namangan Davlat Universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o’spirinlik davrining psixologik xususiyatlari, aqliy, emotsional rivojlanishi, shaxs xususiyatlarining taraqqiyoti masalalari yoritilgan. O’spirinlik yoshda ong va dunyoqarashining shakllanishi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan ishlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish ko’nikma va malakalarini rivojlantirish usullari keltirib o`tilgan.*

Kalit so'zlar. *Psixologiya, ilk o’spirinlik, o’spirinlik, muloqot, emotsional va intellektual rivojlanish .*

Annotation: *This article describes the mental characteristics of adolescence, mental and emotional development, and personality traits during adolescence.The formation of their consciousness and worldview,taking into account the age and psychological characteristics of adolescents, working with them, finding solutions to problematic situations, and developing their skills and competencies are discussed.*

Keyword*. Psychology, early adolescence, emotional, and intellectual development.*

Аннотация*: В данной статье описаны психическое и эмоциональное развитие, а также особенности личности в юношеском возрасте. Обсуждается вопрос связанный с формированием их сознания и мировоззрения, развитие навыков и компетенций поиска решений проблемных ситуаций, учет возрастных и психологических особенностей юношей в учебно-воспитательном процессе.*

Ключевые слова. *Психология, ранняя юность, подростковый возраст, общение, эмоциональное и интеллектуальное развитие.*

KIRISH

O’spirinlik davri inson hayotidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biridir. Ilk o’spirinlik davri “kamolot bo’sag’asida” deb ta’riflab kelingan. Bu bosqich fizioloik, psixofiziologik va ijtimoiy chegaralarni o’z ichiga olgan. Psixologiya fani o’spirinlik muammosini kompleks o’rganishga da’vat etadi, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur’ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy yetishish muddati bilan hamma vaqt ham to’g’ri kelevermaydi. Ilk o’spirinlik 15-18 yosh, o’spirinlik 18-23 yoshdagi yigit va qizlarni o’z ichiga oladi. Bu davrda inson jijmoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan jadal rivojlanadi. Garmonal o’zgarishlar sababli tana shakllanadi, jinsiy yetilish boshlanadi, va emotsional barqarorlik o’zgarishlarga uchraydi. Shuningdek, o’spirinlik shaxsiylikni anglash, mustaqillikka intilish va jamiyatda o’z o’rnini topishga bo’lgan ehtiyoj bilan tavsiflanadi. Do’stlar ta’siri

kuchayadi, o’ziga bo’lgan ishonch va hayotiy qarashlar shakllanadi. Bu davrda qo’llab-quvvatlash va to’g’ri yo’naltirish insonning kelgusi hayoti uchun muhimdir.

O’spirinlik - bu odamning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy jihatdan yetilishi, rivojlanishi, o’z hayotini o’zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi davri sifatlari tarkib topadigon davrdir.

Ilk o’spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta’lim jarayoni qo’yadigon talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o’rtasidagi ziddiyatlardir. Turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar o’spirinning axloqiy, aqliy, estetik jihatdan tez o’sishi orqali bartaraf qilinadi.

O’spirinlarda birinchi o’zini anglashdagi siljish yaqqol ko’zga tashlanib turadi. Bu hol chunchaki o’sishni bildirmaydi. O’spirinlikda o’zining ruhiy dunyosi, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobilyat va imkonyatini aniqlashga intilish kuchayadi. O’spirin yoshidagi o’quvchilarning o’zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular o’zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqlash imkoniga ega bo’ladilar. O’spirinlik o’smirlikka qaraganda o’z ma’naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to’laroq tasavvur eta olsa ham, ularni baholashda kamchiliklarga yo’l qo’yadilar. Natijada ular o’z xoxishlarini baholab, manmanlik, takabburlik, kibrlanish illatlariga duchor bo’ladilar.

O’spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik takomillashib boradi, mantiiqiy xotira eslab qolishning yo’l va vositalari ta’lim jarayonida yetakchi rol o’ynay boshlaydi. O’spirinlar topshiriqlarni bajarishda, ularning ma’nosi hamda mohiyatini to’la anglab ish tutadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADLARI

Mazkur maqolani yozish jarayonida O’zbekiston Respublikasi Prizdenti Sh.M.Mirziyoyevning tarixi va ma’naviy merosini o’rganishga oid bergan uslubiy ko’rsatmalari hamda, R.Z.Asomovaning “Kasb tanlash mativatsiyasi va uning dinamikasi” nomli kitobi tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini tashkil qiladi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bo’lishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik tamoyillariga qat’iy rioya qilindi. Shu bilan birga, ta’lim psixologiyasi sohasidagi ilg’or nazariy qarashlar, kasb tanlash motivlari va shaxsiy rivojlanish jarayonlari bilan bog’liq fundamental asarlar ham chuqur o’rganildi. Ta’lim psixologiyasi va uning xususiyatlari haqida tahlil olib borildi . Maqola yozish davomida nazariy-dediktuv xulosa chiqarish ,analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo’llanilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O’spirin o’quvchida o’zini anglash zamirida o’z-o’zini tarbiyalash istagi tug’iladi va bu ishning yo’llarini topish, ularni kundalik turmushga tatbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. O’zlariga maqul ma’naviy-psixologik qiyofaga ega bo’lishlari uchun oqilona o’lcham, mezon, vazifalarini, bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna yuksak orzu tasavvurlarinini qidiradilar.

O’spirinda ideallar bir necha ko’rinishda namoyon bo’lishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari

timsolida o’zlarida yuksak fazilatlarni gavdalantirishni orzu qiladilar. Bu orzular mazmun jihatidan o’spirin yigit va qizlar farq qilishi mumkin. Masalan, qizlar ko’pincha mehnatkash ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qahramonining hususiyatlari mujassamlashgan qiyofalarini ideal darajaga ko’taradilar. Ammo ayrim o’quvchilar tarixiy shaxslarning, masalan, baquvvat yo’lto’sar, quv, josus va boshqalarning salbiy sifatlariga taqlid qilishga ham moyil bo’ladilar.

Ilk o’spirinlik yoshidagi o’quvchilarda nazariy tafakkurni shakllantirishda to’garak va fakultativ mashg’ulotlar muhum ahamyatga ega. O’spirin o’quvchining mustaqil fiklashini ruivojlantish uchun o’quvchilar, sinf rahbarlarining simolari muhim ro’l o’ynaydi. Buning uchun birinchidan, o’qituvchilar o’spirinlarda o’rganilayotgan narsa va hodisalarning obektivligi, haqqoniyligi, to’g’riliga ishonch hosil qilishlari, ulardan qanoatlanishlari va ularni isbotlashga o’rgatib borishlari zarur.

Ilk o’spirinlik tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samarodorligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkur mazmundorligi deganda, o’spirin ongida tevarak atrofdagi voqelik bo’yicha mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlar, o’zaro bog’lanishi va munosabatlari o’spirinning fikrlashida to’liq aks ettirish tushuniladi. Tafakkurning kengligi esa o’zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog’liq bo’ladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda, o’spirin tashabuskorlik bilan o’z oldiga vazifalar qo’ya boshlaydi va ularni hech kimning yordamisiz oqilona usullari bilan bajara olishi tushuniladi. Aqlning tashabbuskorligi deganda o’spirinning o’z oldiga yangi g’oya, muammo va vazifalar qo’yishini, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni topishga intilishni anglaymiz. Aqlning pishshiqligi vazifalarni bajarishda yangi usullarni tez izlab topish va qo’llay olishda eskirgan vositalardan qutilishda namoyon bo’ladi. Agar o’quvchi muayyan vaqt ichida ma’lum soha uchun qimmatli, yangi fikrlarni aytgan bo’lsa, nazariy va amaliy vazifalarni hal qilishda yordam bersa, buni samarador tafakkur deyiladi. O’smirlik davrida kuchli emotsional reaksiyalar garmonal va fizolagik jarayonlarga bog’liq . O’smir va o’spirindagi emotsional reaksiyalar faqat garmonal o’zgarishlarga bog’liq bo’lib qolmay, balki ijtimoiy omillar va tarbiya sharoitlari, individual-tipologik farqlarga ham bog’liq bo’ladi. Katta bo’lishdagi psixolagik qiyinchiliklar , “Men” obrazi va intilish darajasi orasidagi qarama-qarshilik kabi o’smirga xos biogen emotsional zo’riqish, ilk o’spirinlik davrida ham saqlanib qoladi. Shunday qilib , ilk o’spirinlarning emotsiyalari, intellekt singari aniq qo’zg’atuvchi bu sinaluvchi uchun qanday axamyatga egaligini hisobga olmasdan o’lchash mumkin emas.Ilk o’spirinlik davridagi emotsional qiyinchilik va muammolarni aniq qarab chiqish lozim, chunki ularning kelib chiqish sabablari har xil. O’smirlik davrida dismorfofobiya - o’z tanasi va tashqi ko’rinishidan tashvishlanish ilk o’spirinlik davrida o’tib ketadi. Ilk o’spirinlarga namayon bo’ladigon xavotirlanish belgilari bu yoshdagi maxsus qiyinchiliklarga reaksiya emas, balki ilgari olingan ruhiy jarohatlanishning keng namayon bo’lishidir.

Ko’pchilikda o’spirinlikdan ilk o’smirlikka o’tishda muloqotchanlik va umumiy emotsional kayfiyat yaxshilanadi deb takidlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O’spirinlik davri inson hayotidagi psixologik shakllanish va rivojlanishning eng muhim bosqichidir. Ushbu davrda shaxs o’zini anglash, mustaqillikka intilish va jamoatdagi o’z o’rnini aniqlashga harakat qiladilar. Garmonal o’zgarishlar, emotsional berqarorlik va ijtimoiy ta’sirlar bu davrni yanada murakkablashtiradi. O’spirinlik psixologik o’zgarishlarni chuqur tushunish va ularni to’g’ri boshqarish orqali shaxsning sog’lom rivojlanishini taminlash mumkin. Shunday qilib, hulosa o’rnida ta’kidlash joizki, ilk o’spirinlik yoshi emotsional holatlarni ifodalash usullari va emotsional reaksiyalarning diffirensiallashishini hamda o’z-o’zini nazorat qilish va o’z-o’zini boshqarishning ortishini kuzatish mumkin. Ilk o’spirinlarning kayfiyati o’smirlarga nisbatan barqaror va anglangan hamda ijtimoiy sharoitning keng doirasiga mos bo’ladi. Doimo hissiyot vujudga keltiradigon shaxsiy muhum munosabatlar doirasining kengayishi oliy hislarning rivojlanishida namayon bo’ladi. Axloqiy norma va tamoyillarning ma’lum tizimini o’zlashtirish jamiyat va boshqa odamlar oldida mas’uliyat hissi, hamdardlik qobilyati, do’stlik va axloqiy – siyosiy, o’rtoqlik hislari hislar kabi yuksak axloqiy hislarga aylanadi. O’spirinlarning dunyoqarashi ularning ilmiy, falsafiy, siyosiy, va diniy qarashlari tizimidan iboratdir. Ma’lum bir kasbda faoliyat ko’rsatishni boshlayotgan o’spirinunga intellectual, ijtimoiy-psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo’lishi kerak. O’spirinlik davrining oxirlari va o’spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat ko’nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko’nikma va malakalariularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to’g’ridan-to’g’ri bog’liqdir. Har qanday kasbiy ko’nikma va malakalarning o’sishi, avvalo, o’spirin intelektining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. O’zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o’spirinlik o’z moyilligi va qobilyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari

ADABIYOTLAR

1. А.Х.Югай , Н.А.Мираширова. ”Общая психология”-Ташкент 2014.
2. Мансурова Г. Р. ОСОБЕННОСТИ Я–КОНЦЕПЦИИ ЛИЧНОСТИ, ПРОЯВЛЯЮЩИЕСЯ В ИНТЕРНЕТ–КОММУНИКАЦИИ //Ученый XXI века. – 2022. – №. 5-1 (86). – С. 52-54.
3.Maklakov A.G.Umumiy psixologiya: Universitetlar uchun o’quv qo’llanma.-SPb:Piter,2008.-583p
4.I.S.Vigotiskiy San’at psixologiyasi 1989 yil.Toshkent
5.E.G’oziyev .Umumiy psixologiya.O’zbekiston Faylasuflar Milliy jamiyati Nashiryoti.Toshkent 2010.
6.E.G’oziyev. Ontogeniz psixologiyasi.Nazariy-eksperemental tahlili “ NASHIR” Toshkent 2010.
7.V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, R.N.Tojiboyeva Mustaqil fikrlash-T:Sharq 2009.
8.E.G.G’oziyev. Umumiy psixologiya. Toshkent.2002.1-2 kitob.

TALABALAR INTELLEKTINI PSIXOLOGIK XIZMAT VOSITASIDA FAOLLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USLUBLARI

Kadirova Muhayyo Mavlonovna
Psixologiya kafedrasi katta o`qituvchisi
Navoiy davlat universiteti,O`zbekiston

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalar intellektini rivojlantirishga qaratilgan psixologik xizmat faoliyatining zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Unda yaqin rivojlanish zonasi, reflektiv metodlar, kognitiv treninglar va emotsional intellektni shakllantirishga qaratilgan kompleks usullar asosida talabalarning intellektual faolligini kuchaytirishga oid nazariy va amaliy asoslar yoritilgan. Psixologik xizmatning shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli va innovatsion modeli taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologik xizmat, intellektual salohiyat, refleksiya, kognitiv metod, emotsional intellekt.*

Annotation: *This article analyzes modern approaches in the psychological service aimed at developing students' intellectual capacity. It explores theoretical and practical foundations for enhancing intellectual activity using methods grounded in the zone of proximal development, reflective techniques, cognitive training, and emotional intelligence development. The study presents a person-centered, systematic, and innovative model of psychological service designed to stimulate and support intellectual activation in students.*

Keywords: *psychological service, intellectual potential, reflection, cognitive method, emotional intelligence.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы современные подходы в деятельности психологической службы, направленные на развитие интеллектуального потенциала студентов. Раскрыты теоретические и практические основы повышения интеллектуальной активности на основе зоны ближайшего развития, рефлексивных методов, когнитивных тренингов и комплексных методик формирования эмоционального интеллекта. Представлена личностно-ориентированная, системная и инновационная модель психологической службы.*

Ключевые слова: *психологическая служба, интеллектуальный потенциал, рефлексия, когнитивный метод, эмоциональный интеллект.*

XXI asrning boshlarida global raqobatning asosiy omili sifatida inson kapitali, xususan, intellektual salohiyatning rivojlanganligi tan olinmoqda. Bunday sharoitda oliy ta’lim muassasalari oldida turgan ustuvor vazifalardan biri – talabalarda chuqur bilim, analitik tafakkur, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan intellektual faollikni shakllantirishdan iboratdir. Bu esa, o‘z navbatida, psixologik xizmat faoliyatining sifat jihatdan yangi bosqichda tashkil etilishini talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida intellektual salohiyatni yuksaltirishga oid siyosiy va huquqiy asoslar mustahkam yaratilgan. Xususan, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi doirasida ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inida sifat, samaradorlik va raqobatbardoshlik mezonlarini joriy etish talabi qo‘yilgan. 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim va tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha davlat siyosatini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli Farmon bu boradagi asosiy strategik hujjat sifatida e’tirof etiladi. Ushbu Farmonda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish, psixologik

xizmatlar tizimini mustahkamlash va har bir talabaning individual intellektual rivojini qo‘llab-quvvatlash zarurligi qayd etilgan [1].

Shuningdek, “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil, 23-sentabr)da ham talabaning ijodiy va intellektual salohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi ilmiy-psixologik muhitni shakllantirish zarurati ta’kidlangan. Bu esa, psixologik xizmatning nafaqat diagnostik, balki rivojlantiruvchi va korektiv faoliyatga asoslangan integrativ modelini amaliyotga tatbiq etishni taqozo etmoqda [2].

Bugungi kunda zamonaviy psixologik xizmat oliy ta’lim muassasalarida faqat muammoga javob topish vositasi emas, balki intellektual salohiyatni faollashtiruvchi innovatsion platforma sifatida ko‘rilmoqda. Chunki talabaning intellekti faqatgina bilimlar bazasi bilan cheklanmaydi, balki tafakkur, xotira, diqqat, muammoni hal qilish, kognitiv moslashuvchanlik kabi ko‘plab psixik funksiyalar bilan bog‘liqdir [3]. Ana shunday murakkab ko‘p qatlamli psixik jarayonlarni izchil rivojlantirishda, ayniqsa, psixologik xizmatning tizimli va metodik yondashuvlariga zarurat tug‘iladi.

Intellektual faollik – bu shunchaki yuqori IQ yoki bilim emas, balki mustaqil fikrlash, mantiqiy asoslash, ilg‘or g‘oyalarni ilgari surish va ularni hayotga tatbiq etish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyatni shakllantirish esa, faqat an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari orqali emas, balki shaxsga yo‘naltirilgan, psixologik xizmat ko‘magida amalga oshiriladigan texnologiyalar orqali ham yuzaga chiqadi. Jumladan, kognitiv-behavioral treninglar, muammoli holatlarda qaror qabul qilish mashg‘ulotlari, o‘z-o‘zini anglashga qaratilgan reflektiv metodikalar intellektual salohiyatni rag‘batlantiradi [4].

Psixologik xizmat tizimida ilgari surilayotgan zamonaviy uslublar — masalan, “mental xaritalash”, “ko‘p bosqichli tahliliy diagnostika”, “shaxsiy intellektual profil tuzish” kabi yondashuvlar orqali talabalar o‘z imkoniyatlarini real baholashni, rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashni, individual yo‘nalishlarini shakllantirishni o‘rganadilar. Ushbu jarayonlar o‘z navbatida, nafaqat individual intellektni, balki guruhdagi ijtimoiy-intellektual o‘zaro ta’sirni ham kuchaytiradi [5].

O‘zbekistonda intellektual iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularga shart-sharoit yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar (xususan, “Barkamol avlod”, “Ilm-fan – taraqqiyot omili” kabi dasturlar) psixologik xizmatni kengaytirishni va metodik jihatdan boyitishni talab qilmoqda. Bu boradagi muhim tashabbuslardan biri — Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda tasdiqlangan 490-sonli buyruq bilan e’lon qilingan ilmiy-amaliy konferensiyalar ro‘yxatidir. Bu orqali zamonaviy psixologik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilish bo‘yicha izchil ilmiy platforma yaratildi [6].

ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning intellektual rivojini faollashtirishda psixologik xizmatning o‘rni ko‘plab zamonaviy tadqiqotlarda markaziy mavzulardan biri sifatida o‘rganilgan. Jumladan, O‘zbekiston psixologiya maktabining yetuk namoyandalaridan biri, psixologiya fanlari doktori, professor Karimova B.M. o‘zining “Oila psixologiyasi” asarida psixik rivojlanishning ijtimoiy sharoitlar bilan bevosita bog‘liqligini, ayniqsa yosh davriga xos intellektual muvofiqlashuv omillarini asoslab bergan.

Unga ko‘ra, yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lgan yoshlar bilan ishlashda psixologik xizmat faqat yordamchi emas, balki rivojlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi [6].

Mazkur sohada e’tiborga molik tadqiqotlardan yana biri – Xoliqova G.X. tomonidan yozilgan “Talabalarda ijtimoiy moslashuvni psixologik xizmat asosida rivojlantirish” mavzusidagi 2021-yilda himoya qilingan PhD dissertatsiyasidir (Farg‘ona davlat universiteti). Unda psixologik xizmatning diagnostika, maslahat, hamda tuzatish (korreksiya) bosqichlarining aynan talabalarda kognitiv faollikni qanday oshirishi ilmiy eksperimentlar asosida tahlil qilingan [7].

Shuningdek, To‘xtaeva Z.M.ning “Talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish psixologiyasi” nomli monografiyasi bevosita intellektual faollikni rag‘batlantirish mexanizmlarini ochib beradi. Muallifga ko‘ra, zamonaviy psixologik xizmatda kognitiv–emotsional treninglar, intellektual ssenariy modullari va divergent fikrlash mashqlari talaba shaxsini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi [8].

Mahalliy olima Ergasheva G.I.ning 2023-yilda “Ilmiy izlanishlar” jurnalida chop etilgan maqolasida, psixologik xizmatni oliy ta’lim muassasalarida individual yondashuv asosida tashkil etish orqali talabalar intellektini oshirish usullari empirik tahlil bilan asoslab berilgan. U o‘z tadqiqotida "intellektual refleksiya", "ichki kognitiv holatlarni kuzatish" va "o‘z-o‘zini baholash" metodikalarini qo‘llagan holda ijobiy natijalarga erishgan [10].

Rossiya va G‘arb psixologiya ilmida ham ushbu yo‘nalishda sezilarli ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, R. S. Nemovning “Psixologiya” nomli 3 jildlik fundamental o‘quv qo‘llanmasi (Moskva: VLADOS, 2003)da intellekt nazariyalarining (J. Guilford, R. Sternberg, G. Gardner modellari) ta’sir mexanizmlari, ularni amaliy psixologik xizmatga integratsiya qilish usullari tafsilotli yoritilgan. Nemovga ko‘ra, intellektual salohiyatni faollashtirishda muhitning rag‘batlantiruvchi omillari bilan bir qatorda, psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim rol o‘ynaydi [9].

Jahon tajribasidan misol keltirsak, AQSh olimi Robert J. Sternbergning “Successful Intelligence” asarida intellektning akademik, amaliy va ijodiy turlari haqida batafsil so‘z boradi. U ta’kidlaydiki, intellektual muvaffaqiyat – bu testdan yuqori ball olish emas, balki real hayotda muammolarni samarali hal qilishdir. Bu tamoyil psixologik xizmat faoliyatida “life-skills based” treninglar va kognitiv konsalting metodlarini joriy qilishda asosiy nazariy tayanchga aylanadi [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Nazariy asoslarni o‘rganishda tizimli yondashuv, psixologik-pedagogik tahlil va komparativ metodlar qo‘llanildi. Intellektual salohiyatni faollashtirishga doir qarashlar, psixologik xizmatning zamonaviy shakllari va rivojlantiruvchi texnologiyalar qiyosiy tahlil asosida ko‘rib chiqildi.

Metodik asos sifatida yaqin rivojlanish zonasi, dinamik baholash, emotsional intellekt nazariyasi, kognitiv va reflektiv yondashuvlar asos qilib olindi. Bularning asosida intellektual faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar — psixologik treninglar, kognitiv mashg‘ulotlar, shaxsiy profillar tuzish va psixologik konsultatsiyalar o‘zaro bog‘liq tizimda baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixologik xizmat faoliyatini talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirish zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas bo‘g‘ini sifatida shakllanmoqda. Psixologik xizmat tarkibiga kiruvchi metodik elementlar — masalan, individual diagnostika, reflektiv suhbatlar, kognitiv mashg‘ulotlar, emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan treninglar — talabaning faqat psixik holatini emas, balki muammoli vaziyatlarda fikrlash, murosaga kelish, tahliliy qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) tamoyiliga asoslangan yondashuvda psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali intellektual jarayonlarni faollashtirish mumkinligi aniqlangan. Bu tamoyil psixolog va pedagog hamkorligida, individual rivojlanish trayektoriyalarini belgilash imkoniyatini beradi. Dinamik baholash konsepsiyasi esa o‘z-o‘zini anglash, tafakkurdagi moslashuvchanlik va tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashda samarali yondashuv sifatida qaralmoqda.

Psixologik xizmat doirasida reflektiv yondashuvning joriy etilishi talabalarni o‘z intellektual faoliyatini baholashga, ichki motivatsiyani kuchaytirishga xizmat qilishi aniqlangan. Bunday yondashuvlar, ayniqsa, o‘z-o‘zini rivojlantirish va metakognitiv nazorat mexanizmlarini faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Emotsional intellekt va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar talabaning umumiy intellektual salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi isbotlangan.

1-jadval.

Psixologik xizmat komponentlari va intellektual faollikni rivojlantiruvchi funksiyalar o‘rtasidagi metodik muvofiqlik

Psixologik xizmat komponenti	**Amaliy usul / shakl**	**Rivojlanayotgan intellektual komponent**	**Kutilyotgan psixologik natija**
Diagnostika	Psixometrik testlar (Raven, Wechsler, Torrance)	Kognitiv salohiyat, mantiqiy tafakkur	Real intellekt darajasini aniqlash
Koreksion mashg‘ulotlar	Kognitiv-behavioral treninglar, reflektiv suhbatlar	Tanqidiy fikrlash, muammo hal etish qobiliyati	Fikrlar aniqligi, tafakkurdagi silliqlik
Konsultativ xizmat	Shaxsiy psixologik maslahat, emotsional muvozanat	O‘z-o‘zini anglash, motivatsion stabillik	Ichki intellektual faollikning faollashuvi
Emotsional-intellektual treninglar	Roli o‘yinlari, situatsion mashqlar	Emotsional idrok, ijtimoiy tafakkur	Ijtimoiy-analitik moslashuv
Individual profil yaratish	Intellektual xarita, kognitiv matritsa	Metakognitiv nazorat, ixtiyoriy nazorat	Shaxsiy intellektual yo‘nalishni belgilash
Monitoring va baholash	Rivojlanish portfeli, ilg‘or platformalar	Tafakkur davomiyligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish	Intellektual holatni doimiy tahlil qilish

Yuqoridagi murakkab jadval psixologik xizmatning har bir komponenti qanday konkret usullar orqali talabalarda intellektual faollikni rag‘batlantirishi mumkinligini tizimli tarzda ko‘rsatadi. Har bir qatorda xizmatning shakli, usul

ko‘rinishi, u orqali ta’sir etiladigan intellektual komponent va yakuniy psixologik natija alohida ko‘rsatilgan.

Masalan, diagnostika bosqichida an’anaviy testlar orqali intellektual salohiyat aniqlansa, koreksion bosqichda aynan tanqidiy fikrlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar qo‘llaniladi. Konsultativ xizmat esa talaba ichki dunyosini chuqur anglashga va ixtiyoriy intellektual motivatsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Emotsional-intellektual treninglar orqali esa nafaqat kognitiv, balki affektiv-kommunikativ kompetensiyalar shakllanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tahlil natijalariga ko‘ra, psixologik xizmatni talabalarda intellektual salohiyatni faollashtirishga qaratilgan maqsadli va tizimli yondashuv asosida tashkil qilish zarur. Bunda individual diagnostika, reflektiv mashg‘ulotlar, emotsional-intellektual treninglar va kognitiv yondashuv asosida tuzilgan metodlar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Psixologik xizmat orqali shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika tamoyillarini amalga oshirish, intellektual mustaqillik, tanqidiy tafakkur va shaxsiy o‘sish dinamikasini ta’minlash mumkin. Mazkur

– oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini kognitiv va emotsional yondashuvlarni birlashtirgan holda takomillashtirish;

– talabalarning intellektual salohiyatini aniqlash va rivojlantirish uchun reflektiv treninglar va diagnostik metodikalarni muntazam joriy etish;

– shaxsiy intellektual profillar asosida psixologik yordamning individual yo‘nalishini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni. Lex.uz
2. Qodirov, A.X. Intellekt psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. – 235 b.
3. Bahronova, M. “Kognitiv rivojlanishning psixologik asoslari”. // Psixologiya va hayot. – 2022, №3. – B. 46–51.
4. Ergasheva, G. “Intellektual faollikni rivojlantirishda psixologik xizmatning o‘rni”. // Ilmiy izlanishlar jurnali. – 2023, №2. – B. 85–89.
5. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘i. www.edu.uz
6. Karimova B.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 316 b.
7. Xoliqova G.X. Talabalarda ijtimoiy moslashuvni psixologik xizmat asosida rivojlantirish. PhD dissertatsiyasi. – Farg‘ona: FDU, 2021.
8. To‘xtaeva Z.M. Talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 184 b.
9. Немов Р.С. Психология. В 3-х томах. – М.: ВЛАДОС, 2003.
10. Ergasheva G.I. “Intellektual faollikni rivojlantirishda psixologik xizmatning o‘rni”. // Ilmiy izlanishlar, 2023, №2. – B. 85–89.
11. Sternberg R.J. Successful Intelligence. – New York: Simon & Schuster, 1996.

BOSHLANG‘ICH SINF O`QUVCHILARI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHGA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Yo’ldosheva Kamolaxon Erkinjon qizi
Namangan Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda psixologiyaning ahamiyati va uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish yondashuvlari yoritilgan. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolalarning intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim davr bo‘lib, psixologiya fanining bu bosqichga qo‘shilishi bolalarning shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘yinlar, kreativ faoliyatlar, rol o‘ynash texnikasi va savol-javob mashg‘ulotlari orqali bolalarga psixologik yondashuvlarni amalda qo‘llash metodlari taklif qilingan.*

Kalit so’zlar:*boshlang‘ich ta’lim, hissiy rivojlanish, ijtimoiy ko‘nikmalar, o‘yin texnikasi, shaxs, integratsiya, hissiyot, kreativ faoliyat, rolli o‘yinlar texnikasi.*

Аннотация*. В данной статье освещена значимость психологии в начальных классах и подходы к её интеграции в учебный процесс. Начальный этап обучения является важным периодом интеллектуального, эмоционального и социального развития детей, и психологический подход на этом этапе способствует всестороннему развитию личности учащихся. Также предлагаются методы практического применения психологических подходов через игры, творческую деятельность, ролевые игры и вопросы-ответы.*

Ключевые слова: *начальное образование, эмоциональное развитие, социальные навыки, игровые техники, личность, интеграция, эмоция, творческая деятельность, ролевые игры.*

Annotation: *This article highlights the significance of psychology in primary school education and approaches to its integration into the learning process. The early stage of education is a crucial period for children’s intellectual, emotional, and social development, and a psychological approach at this stage promotes the comprehensive development of students’ personalities. The article also suggests practical methods for implementing psychological approaches through games, creative activities, role-playing, and question-and-answer sessions.*

Keywords*:primary education, emotional development, social skills, game techniques, personality, integration, emotion, creative activities, role-playing.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim har bir bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy ahamiyatga ega davrdir. Ushbu davrda bolaning nafaqat intellektual, balki hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalari ham shakllanadi. Shu sababli, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga psixologiyani integratsiya qilish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Psixologiya fani bolaning ichki dunyosini, hissiyotlarini va xulq-atvorini tushunish, shuningdek, uning shaxs sifatida rivojlanishiga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi ta’lim tizimida bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga e’tibor qaratish, ular uchun qulay psixologik muhit yaratish, shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich sinflarda psixologiyaning o‘rnini aniqlash, uning amaliy usullarini ishlab chiqish va ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.

Mazkur maqolada bolalar shaxsini rivojlantirishda psixologiyaning o‘rni, hissiy barqarorlik, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘zini anglash

jarayonlariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, psixologik yondashuvlarning o‘yinlar, ijodiy mashg‘ulotlar va roli o‘yinlar orqali amalda qo‘llanilishi yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili

Boshlang‘ich sinflarda psixologiyani tadqiq qilish va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu mavzuning dolzarbligini va keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilayotganini ko‘rsatadi. Quyida ushbu yo‘nalishda e’tiborga molik asarlar va yondashuvlar tahlil qilinadi:

Bolalar psixologiyasi rivojlanish psixologiyasining muhim qismi bo‘lib, ushbu sohada Lev Vigotskiy, Jan Piaje va Erik Eriksonning ishlari asosiy o‘rin tutadi. L.S.Vigotskiy bolaning rivojlanishini ijtimoiy muhit va muloqot bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlagan. Piaje esa bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, ta’lim jarayonlarini bolaning aqliy rivojlanish darajasiga moslashtirishni taklif qilgan.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha V.V.Davidov, L.S.Slavina kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega. V.V.Davidov ta’lim jarayonida bolaning faol ishtirokini ta’minlash va o‘quv motivatsiyasini shakllantirishga urg‘u bergan. Slavina esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hissiy aloqaning ta’lim samaradorligiga ta’sirini o‘rganib chiqqan.

O‘yin va kreativ faoliyatlar bolaning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Bu borada E.Fromm, B.D.Elkonin va K.Grossning tadqiqotlari muhimdir.Bolalar shaxsini rivojlantirishga ta’sirni aniqlash metodikalarini ishlab chiqqan tadqiqotchilar orasida L. S. Vygotskiy, D. B. Elkonin va A.N.Leontyev kabi olimlar mashhur. Ular psixologik rivojlanish jarayonlarini o‘rganishga asos bo‘lgan nazariy va amaliy metodlarni taklif etgan.Bolalar shaxsini rivojlantirishga ta’sirni o‘rganish uchun Vygotskiy (madaniy-tarixiy nazariya) va Elkonin (o‘yin faoliyati rivoji metodikasi) usullaridan foydalaniladi. B.D.El’konin bolalarning rolli o‘yinlari orqali ijtimoiy muloqot va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish mumkinligini ta’kidlagan. Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda psixologiyaning o‘rni bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar innovatsion yondashuvlarni taklif etmoqda. Masalan, A.K. Markova bolalar o‘quv faoliyatini psixologik qo‘llab-quvvatlashning zarurligini ko‘rsatgan bo‘lsa, J.Bruner ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirishni asosiy omil sifatida qayd etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

D.B.Elkoninning mashhur metodikasi – "O‘yin faoliyati rivojlanishi" metodikasi hisoblanadi. U bolalarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini o‘yin orqali o‘rganishga yo‘naltirilgan. Ushbu metodika bolalarning o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy rollarni bajarish qobiliyatlari va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladi.

Ushbu tadqiqotd yordamida boshlang‘ich sinflarda psixologiyaning ta’lim jarayoniga integratsiyasi va bolalar shaxsini rivojlantirishga bo‘lgan ta’siri o‘rganildi. Kvalifikatsion so‘rovlar va intervyular – o‘qituvchilar, psixologlar va ta’lim sohasidagi mutaxassislar bilan intervyular o‘tkazildi. Bu usul amaliyotga oid ma’lumotlarni yig‘ishga yordam berdi.

Eksperimental tadqiqotlar – o‘quvchilar bilan psixologik yondashuvlar bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazilib, o‘yinlar, kreativ faoliyatlar va roli o‘yinlar orqali psixologik metodlarning samaradorligi sinovdan o‘tkazildi.

Tahliliy metod – olingan natijalar tahlil qilinib, psixologik yondashuvlarning ta’lim jarayoniga qo‘llanishi va bolalar shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

D.B.Elkoninning "O‘yin faoliyati rivojlanishi" metodikasi yordamida Norin tumanidagi 41-sonli umum ta’lim maktabi boshlang’ich siniflarida tadqiqot olib borildi.Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan eksperimentlar va tahlillar boshlang‘ich sinflarda psixologiyaning o‘quv jarayoniga integratsiyasi bolalar shaxsini rivojlantirishda sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning hissiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishidagi o‘zgarishlar quyidagi natijalarda aks etdi:

Eksperimentlar natijasida o‘quvchilarning hissiy barqarorligi sezilarli darajada oshdi. Psixologik yondashuvlar, jumladan, o‘yinlar, roli o‘yinlari va hissiy boshqaruv mashg‘ulotlari orqali bolalar o‘z hissiyotlarini aniqlash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Bu, o‘z navbatida, bolalarning o‘quv jarayonida ko‘proq ishtirok etishlariga va stressni kamaytirishga yordam berdi. Shuningdek, bolalar o‘z hissiy holatlarini boshqarish va sinfdagi ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini oshirdilar. Tadqiqot davomida o‘quvchilar stressni boshqarishning samarali usullari haqida bilim olishdi va bu ularning o‘quv samaradorligini oshirdi.

Psixologik mashg‘ulotlar va interaktiv o‘yinlar orqali bolalar o‘zaro muloqot qilishda faolroq bo‘lishdi. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar (masalan, guruhli ishlar va jamoaviy o‘yinlar) o‘quvchilarning o‘zaro yordam berish, muloqotda bo‘lish va qarorlar qabul qilishda yaxshilanishlarga olib keldi. O‘quvchilar o‘zaro ijtimoiy muammolarni hal qilishda yaxshiroq ishladilar va jamoaviy ishlarda muvaffaqiyat ko‘rsatdilar. Tadqiqot jarayonida guruhli faoliyatlar va ijtimoiy o‘yinlar yordamida bolalar o‘zaro hurmat, empatiya va muomala qoidalarini yaxshilashdi. O‘quvchilar bir-biriga yordam berish va muloqot qilishda ancha ishonchli bo‘lib qoldilar, bu esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamladi.

Bolalar o‘zlarini boshqalardan ajratib ko‘rish va o‘z qobiliyatlarini anglash jarayonida yutuqlarga erishdilar. O‘ziga bo‘lgan ishonch va motivatsiya oshdi, bu esa ta’lim samaradorligini yanada yaxshiladi. Shuningdek, bolalar o‘zlarini boshqarish va o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Tadqiqotda o‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini anglash va shaxsiy rivojlanishga e’tibor qaratdilar. O‘ziga bo‘lgan ishonchning oshishi bolalarda muvaffaqiyatga erishish istagini kuchaytirdi va ularni yangi maqsadlarga intilishlariga rag‘batlantirdi. Ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi nafaqat o‘quv jarayonida, balki kundalik hayotda ham o‘zgarishlarga olib keldi.

Psixologik yondashuvlar orqali o‘quvchilarni rag‘batlantirish, o‘zlarini ifoda etish va sinfdagi psixologik muhitni yaxshilash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirdi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirdi va o‘quv natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash

o‘quvchilarning ta’limga nisbatan qiziqishini oshirish va darsda faollikni oshirishga yordam berdi. Bu natijalar o‘quvchilarning intellektual va akademik muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam berdi. Psixologik yondashuvlar yordamida bolalar o‘zlarini ta’lim jarayonida yanada ishonchli his qilishdi va bu darslarda samarali ishtirok etishlariga sabab bo‘ldi.

O‘quvchilarning stress darajasi pasayishi va emotsional jihatdan yanada barqaror bo‘lishi o‘zgarishlar orasida eng sezilarli natijadir. Psixologik mashg‘ulotlar va hissiy boshqaruv texnikalari o‘quvchilarning stressni boshqarish qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshiladi. Tadqiqot davomida o‘quvchilar o‘z hissiy holatlarini tanib, boshqarishning samarali usullari bilan tanishdilar, bu esa ularning o‘quv jarayonida yanada ishtirok etishlariga yordam berdi. Shuningdek, o‘quvchilarning hissiy barqarorligi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

O‘quvchilarda ijodiy tafakkur va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlari kuchayganligini ko‘rish mumkin. Psixologik yondashuvlar yordamida ular o‘zlarining ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishdi, shuningdek, darslarga bo‘lgan qiziqishlari ham oshdi. Ijodiy faoliyatlar, jumladan, san’at, drama va boshqa kreativ mashg‘ulotlar orqali bolalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga va yangi g‘oyalar ishlab chiqishga qodir bo‘ldilar. Bu ijodiy jarayonlar o‘quvchilarning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishini ham yaxshiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda psixologiyaning integratsiyasi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularning hissiy, ijtimoiy va intellektual ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Psixologik yondashuvlar, o‘yinlar, kreativ faoliyatlar va roli o‘yinlari o‘quvchilarning ta’lim samaradorligini oshiradi hamda ularning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Natijalar, shuningdek, o‘quvchilarning stressni boshqarish, hissiy barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va ijodiy salohiyatni oshirishda psixologiyaning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djalilov, A.. Ta’lim jarayonida psixologiyaning roli. Toshkent: Ma’rifat -2007. 128 bet
2. Raxmonov, ATa’limda innovatsion psixologik yondashuvlar. Toshkent: Sharq -2015. 128 bet
3. Sadullayev B. Bolalar psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston universiteti -2006. 120 bet
4. Teshaboyev Sh. Psixologiya va ta’lim metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti -2010. 150 bet
5. G‘ulomovM. Bolalar psixologiyasi va uning ta’limdagi ahamiyati. Toshkent: Ma’rifat -2011. 160 bet

OG`IR AHVOLGA TUSHGAN VA OG`IR AHVOLGA TUSHISH XAVFI YUQORI BO`LGAN AHOLIGA DEPRESSIYADA PSIXOTERAPIYA USULLARI

Bazarova Shaxnoza Xusanboyevna,
Namangan viloyati Kosonsoy tumani
"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi
psixologlar guruxi bosh mutaxassisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada depressiya jiddiy kasallik bo‘lib, bemorni davolash faqatgina psixoterapiya va antidepressiv terapiyadan iborat bo‘lmasligi kerak. Afsuski, aksariyat holatlarda vrachlar mana shu usullar bilan chegaralanib qoladi va kutilgan natijaga erishmaydi. Davolash jarayonida psixoterapiya, farmakoterapiya, musiqaterapiya, fizioterapiya, refleksoterapiya, logoterapiya, gelioterapiya, talassoterapiya, sosial terapiya, sport yoki jismoniy terapiya kabi davolash-reabilitatsiya usullari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *depressiya, psixoterapiya, farmakoterapiya, musiqaterapiya, fizioterapiya, refleksoterapiya, logoterapiya, gelioterapiya, talassoterapiya, sosial terapiya, gipodinamik, psixodinamik, psixoemosional, kognitiv, bixevioral.*

Аннотация: *В этой статье говорится, что депрессия - это серьезное заболевание, и лечение пациента не должно сводиться только к психотерапии и антидепрессивной терапии. К сожалению, в большинстве случаев врачи ограничиваются этими методами и не достигают ожидаемого результата. В процессе лечения представлены такие лечебно-реабилитационные методы, как психотерапия, фармакотерапия, музыкальная терапия, физиотерапия, рефлексотерапия, логотерапия, гелиотерапия, талассотерапия, социальная терапия, спортивная или физиотерапия.*

Ключевые слова: *депрессия, психотерапия, фармакотерапия, музыкальная терапия, физиотерапия, рефлексотерапия, логотерапия, гелиотерапия, талассотерапия, социальная терапия, гиподинамическая, психодинамическая, психоэмоциональная, когнитивная, бихевиоральная.*

Abstract: *In this article, depression is a serious illness, and patient treatment should not consist solely of psychotherapy and antidepressant therapy. Unfortunately, in most cases, doctors are limited to these methods and do not achieve the expected results. In the treatment process, such treatment and rehabilitation methods as psychotherapy, pharmacotherapy, music therapy, physiotherapy, reflexotherapy, logotherapy, heliotherapy, thalassotherapy, social therapy, sports or physical therapy are presented.*

Keywords: *depression, psychotherapy, pharmacotherapy, music therapy, physiotherapy, reflexotherapy, logotherapy, heliotherapy, thalassotherapy, social therapy, hypodynamic, psychodynamic, psychoemotional, cognitive, behavioral.*

Depressiya jiddiy kasallik bo‘lib, bemorni davolash faqatgina psixoterapiya va antidepressiv terapiyadan iborat bo‘lmasligi kerak. Afsuski, aksariyat holatlarda vrachlar mana shu usullar bilan chegaralanib qoladi va kutilgan natijaga erishmaydi.

Davolashni boshlashdan oldin bemorni depressiyaga olib kelgan sababni aniqlash zarur. Aks holda davolash samarasiz bo‘ladi. Bitta psixologik suhbat yordamida bunga erishib bo‘lmaydi. Shuningdek, bemor uchun standart bo‘lib qolgan gipodinamik turmush tarzini faol hayot tarziga o‘zgartirish ham muhim. Bu qanchalik qiyin bo‘lmasin, uni amalga oshirish tibbiy psixologning bevosita vazifasidir.

Davolash jarayonida psixoterapiya, farmakoterapiya, musiqaterapiya, fizioterapiya, refleksoterapiya, logoterapiya, gelioterapiya, talassoterapiya, sosial terapiya, sport yoki jismoniy terapiya kabi davolash-reabilitatsiya usullaridan unumli foydalanish zarur bo‘ladi. Hech bo‘lmaganda quyidagi 4 xil davolash usulini albatta qo‘llash zarur: 1) psixoterapiya; 2) farmakoterapiya; 3) musiqaterapiya; 4) sport yoki jismoniy terapiya.

Endi depressiyada bemorni davolashga oid klinik standartda ko‘rsatilgan talab va qoidalar haqida to‘xtalib o‘tamiz. Depressiyaning yengil va o‘rta darajadagi turlarida bemorni davolash ambulator sharoitda olib boriladi. Og‘ir darajali

depressiya, suisid va psixotik buzilishlar bilan namoyon bo‘layotgan holatlarda bemor, albatta, stasionarga yotqizilishi lozim. Bunday bemorlar psixiatr nazoratida davolanadi. Biroq depressiya turi qanday bo‘lishidan va bemor qayerda davolanishidan qat’i nazar ushbu jarayonda tibbiy va sosial psixolog ishtiroki talab etiladi. Sosial psixolog bemorning sosial adaptatsiyasi bilan shug‘ullanadi va uning ishga layoqatlilik darajasini aniqlaydi. Suisid yaqqol namoyon bo‘lgan holatlarda suisidolog yordami zarur bo‘ladi.

Psixoterapiya. Har qanday depressiyada davolash jarayoni psixoterapiya bilan boshlanishi va psixoterapiya bilan tugallanishi kerak. Farmakoterapiyadan oldin o‘tkazilgan psixoterapiya davolanish jarayonini yengillashtirsa, undan keyin o‘tkazilgan psixoterapiya depressiya qaytalanishining oldini oladi. Psixoterapiya, ayniqsa, depressiyaning yengil va o‘rta darajadagi turlarida juda samaralidir. To‘g‘ri tanlangan psixoterapiya yordamida aksariyat hollarda bemorga antidepressant tavsiya etmasdan turib, uni depressiyadan chiqarish mumkin. Bugungi kunda bemorlarni davolash jarayonida qo‘llaniladigan psixoterapevtik usullar juda ko‘p bo‘lib, ularning ba’zilari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Psixoanaliz (psixodinamik terapiya). Psixodinamik nazariyaga muvofiq psixoemosional buzilishlar negizida bolalik davrida olingan kuchli psixologik zarbalar yotadi. Ular ong ostida yillar mobaynida to‘planib yashirinib yotadi va kuchli ziddiyatlar o‘chog‘ini yaratadi. Buning oqibatida nevrotik shaxs shakllanadi va bunday odamlar isteriya, depressiya va psixosomatik buzilishlarga moyil bo‘lishadi. Shaxs bir tomondan, birovlarga qaram bo‘lishni xohlamaydi, ikkinchi tomondan, boshqalar uni e’tirof etishi va qo‘llab-quvvatlashini istaydi. Albatta, buning har doim ham iloji bo‘lavermaydi. Natijada bir-biriga zid bo‘lgan ushbu holatlar doimiy qoniqmaslik hissini yuzaga keltiradi, ya’ni boshqalarga nisbatan qahr-g‘azab va nafrat shaxsning ichki dunyosini qamrab oladi. Shu asnoda u boshqalar nazdida mehribon, odamovi va ajoyib inson sifatida tan olinishni xohlaydi. Psixoanalitiklar fikricha, mana shu istaklarning ro‘yobga chiqmasligi nevrotik shaxs va keyinchalik depressiya shakllanishiga turtki bo‘ladi. Yillar mobaynida ong ostida qo‘nim topib e’tirof etilmagan har bir xohish va istak bora-bora ichki ziddiyatlarni kuchaytirib, odamlarga nisbatan ishonchsizlikka, yomon ko‘rishga olib keladi. Shu sababli ular o‘zini ham kechirmaydi va suisidga qo‘l uradi. Bunday shaxslarda depressiya rivojlanishi uchun kuchli stress yoki yoqimsiz munosabatlarning o‘zi kifoya. Albatta, bu yerda doimiy psixoemosional zo‘riqishlarning ahamiyati katta.

Psixodinamik terapiyaning asosiy maqsadi – bemorda katarsis, ya’ni ruhiy poklanishga erishishni yuzaga keltirish. Buning uchun bolalik davrida boshidan kechirgan ruhiy jarohatlar va kechinmalar mukammal o‘rganiladi, ularning hozirgi davrda ro‘y berayotgan nevrotik buzilishlar, shu jumladan, depressiya bilan bog‘liqlik tomonlari yoritiladi. Psixoanalitik oldida bemor albatta barcha sir-asror va azobli kechinmalarni yashirmasdan ochib tashlashi kerak. Bu uslub to‘la katarsis ro‘y berguncha olib boriladi. Ijobiy natijaga bir necha seans ichida erishiladi.

Kognitiv psixoterapiya yoki kognitiv terapiya (ingl. . cognitive therapy), Bu yo‘nalish asoschisi – amerikalik mashhur psixoterapevt Aaron Bek (1921 tug‘ilgan).

A.Bek psixoanalitik terapiya maktablarida taxsil oladi va psixoanalizga asoslanib, kognitiv psixoterapiya yo‘nalishini ishlab chiqadi. Bu usulni Bek depressiyani davolashda keng qo‘llaydi va yuqori samaraga erishadi.

Kognitiv psixoterapevt bemor bilan ishlash jarayonida uni ayni paytda qiynayotgan azobli fikrlari, his-tuyg‘ulari, fantaziyalari, istaklari va amalga oshmayotgan orzu-umidlarini bilib, noto‘g‘ri qarashlarini shu kundan boshlab yengish va o‘ziga ishonch tuyg‘usini bemorning miyasiga singdirib boradi. Psixoterapevtik suhbatlar orasida erishilgan yutuqlar muhokama qilinadi va hali miyani tark etmayotgan azobli fikrlardan tozalab, ularning o‘rni yanada yangi niyat va g‘oyalar bilan to‘ldirib boriladi.

Psixoanalizda davolash uslubi bemorga o‘tmishni, ayniqsa, bolalik davrini eslatishdan boshlansa, kognitiv psixoterapevt bugungi kun, ya’ni hozirgi payt bilan ishlaydi. A. Bek psixoanalizni tanqid qila turib shunday degan edi: “Kasal odamga o‘tmishdagi dardlarini eslatishga ne hojat, axir bugungi kun bilan ishlab yuqori natijaga erishsa bo‘ladi-ku!”. Shunday bo‘ldi ham. O‘z natijalaridan zavqlangan A. Bek 1965 yili shunday qoidani o‘rtaga tashlaydi: “Shu yerda va hozir”. Bu iboralar keyinchalik kognitiv psixoterapiya shioriga aylanadi.

Bixevioral terapiya (ingl. behaviour – “xulq-atvor”). 1913 yili amerikalik psixolog Djon Uotson (1878–1958) bixeviorizm haqida o‘zining dastlabki maqolasini chop ettiradi. U shunday deb yozgan edi: “Odamning fikrini va ruhiyatini o‘zgartirmoqchi bo‘lsangiz, avvalambor uning xulq-atvorini o‘zgartiring”. Ushbu g‘oya asosida bixevioral psixoterapiya shakllandi va XX asrning 50–60-yillari o‘smirlardagi xulq-atvor buzilishlarini korreksiya qilishda keng qo‘llana boshlandi va e’tirof etildi. Ushbu terapiya xulq-atvori o‘zgargan o‘smirlarda yuqori natija beradi, biroq katta yoshdagilarda ta’siri kam. Bixevioral terapiya nevroz, isteriya va depressiya tufayli o‘zgargan xulq-atvorni korreksiya qilish hamda bunga muvofiq uquv va ko‘nikmalarni shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bixevioral terapiya o‘tkazilayotganda o‘smirdagi xulq-atvorning har bir ko‘rinishi tahlil etilib, korreksiya qilib boriladi.

Hozirda kognitiv-bixevioral terapiya dunyoning yirik psixoterapevtik maktablarida o‘qitiladi va deyarli barcha psixoemosional buzilishlarni korreksiya qilishda keng qo‘llaniladi.

Rasional-emotiv terapiya. 1955 yili Albert Ellis rasional-emotiv terapiya nazariyasini ilgari surdi. Bu nazariyaning asosiy mohiyati ham kishining o‘zi, o‘zgalar va jamiyat haqidagi fikrlarini o‘zgartirishga qaratilgan. Bu nazariyaga binoan depressiya, xavotir, aybdorlik hissi va shu kabi boshqa psixologik muammolar ruhiy jarohat yetkazuvchi omillar va vaziyatlar sababli emas, balki kishining ushbu omillar va vaziyatlarga nisbatan shaxsiy munosabati va qarashlari sababli yuzaga keladi. Masalan, sizni kimdir qattiq hafa qildi va bundan kayfiyatingiz tushib ketdi. Bu vaziyatda siz u odamni emas, balki o‘zingizni aybdor deb hisoblaysiz. Demak, siz tanqidga loyiqsizki, u sizni shu ko‘yga soldi. Aslida ayb sizda emas, balki sizni tanqid qilgan odamda yoki tanqid muhiti yaratilgan o‘sha vaziyatda. A.Ellis shunday deb yozadi: “Insonda o‘zi haqidagi bunday noto‘g‘ri tasavvurlar uzoq davom etaversa, unda turli xil ruhiy-hissiy buzilishlar, shu

jumladan, depressiya rivojlanadi". Ellis shunday qoidani o‘rtaga tashlaydi: "Aybdor sen emas, balki boshqalar".

Ellis ishlaridan ba'zi parchalarni keltirib o‘tamiz. "Atrof-muhitda ro‘y berayotgan asabingni buzadigan va hissiy zo‘riqishga majbur qiladigan voqea-hodisalar senga qaratilmagan, ular doimo ro‘y beraveradi. Kim tomonidan ko‘rsatilishidan qat'i nazar senga nisbatan bildirilayotgan ayblov va kamsitishlar aslida sening haqiqiy shaxsingni ifodalamaydi. Bu o‘sha odamning shaxsiy fikri. U o‘z dunyoqarishi va senga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib shu fikrda. Aslida esa unday emas!

Ellisning fikricha, quyidagi 3 qoidaga qat'iyan amal qilishga urinish kishini har doim xavotirda ushlaydi: 1) o‘ziga hadeb talab qo‘yaverish ("men unday bo‘lishim kerak, bunday bo‘lishim kerak"); 2) boshqalarning unga hadeb talab qo‘yaverishi ("sen unday bo‘lishing kerak, bunday bo‘lishing kerak"); 3) uning boshqalarga hadeb talab qo‘yaverishi ("odamlar unday bo‘lishi kerak, bunday bo‘lishi kerak"). Mana shu uch "kerak" tamoyili – xavotir va depressiya manbaidir.

Uchta "kerak" qoidasiga amal qilaverish odamda quyidagi fikrlarni shakllantiradi va xavotirga mezon yaratadi:

Men shunday harakatlar qilishim kerakki, meni boshqalar tan olsin! Aks holda men hech kimman!

Men qanday xohlasam, atrofdagilar meni shundayligimcha qabul qilishi kerak! Aks holda ular yomon odam va har qanday jazoga mahkum!

Men nimani, qachon va qayerda xohlasam, shunga ega bo‘lishim kerak! Menga kerak bo‘lmagan narsalarga toqatim yo‘q!

Rasional-emotiv terapiya o‘zi haqida insonning miyasiga o‘rnashib qolgan stereotip fikrlardan uni ozod etish va shu sababli o‘zgargan xatti-harakatlarni korreksiya qilishga qaratilgan. Rasional-emotiv terapiya uslubida ham kognitiv-bixevioral terapiyadagi kabi fikr va xulq-atvor parallel tarzda korreksiya qilib boriladi. Biroq uslub boshqacha. Bu uslubda ham uyga vazifalar beriladi, uni bajarishga qiynalgan paytlarda yordam qilinadi, vazifalar to‘la bajarilsa, rag‘batlantiriladi. Biroq psixoterapevtik muolajalar paytida psixoterapevtning o‘zi ham "Kerak" iborasini mijozning miyasiga quyaverishdan ehtiyot bo‘lishi lozim.

Shaxslararo (interpersonal) psixoterapiya insonning kayfiyati bilan uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit orasida bog‘liqlik izlaydi. Shaxslar orasidagi kelishmovchiliklar, shaxsning ijtimoiy muhitga ko‘nikib ketishiga to‘sqinlik qilayotgan, uni xavotirga solayotgan, kayfiyatini buzayotgan va salbiy hissiy kechinmalar keltirib chiqarayotgan vaziyatlar birgalikda o‘rganib tahlil qilinadi. Psixoterapevtik muolajalar paytida shaxs o‘zini jamiyatda qanday tutishi, kimlar bilan qanday munosabatda bo‘lishi, qanday vaziyatlar va odamlardan yiroq yurishi yo‘llari tushuntiriladi, o‘rgatiladi. Ayniqsa, bu uslub nevrotik tipdagi shaxslar bilan ishlaganda va distimiyada keng qo‘llaniladi.

Har qanday psixoterapevtik muolajada mijozga hadeb yonbosaverish ham, uning xulq-atvorini tanqid qilaverish ham mumkin emas. Undagi yomon fikrlar depressiya belgisi, bu belgilar vaqt kelib albatta o‘tib ketadi, kabi so‘zlar bilan taskin beriladi. Suisidal fikrlar va urinishlar aniqlangan holatda uni yolg‘iz qoldirmaslik

kerak. Oila a’zolari tomonidan nazorat shunday tashkil etilishi kerakki, bemorning o‘zi buni bilmasin. Chunki hadeb bemorni qo‘riqlayverish uning joniga tegadi. Bemorning ishonchini qozongan oila a’zolari bilan ko‘chaga chiqib aylanib kelish va sayr paytida, asosan, uni so‘zlatish va his-tuyg‘ulariga hamdard bo‘lish o‘ta muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. Toshkent., TDPU, 2002 y.
2. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. O‘z.FMJ., 2008 y.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. Toshkent.: 2012 y.
4. Maxsudova M.A. Emosiya psixologiyasi. Toshkent., 2006 y.
5. Nemov R.S. Psixologiya. M.: Vlados, 2003 g. 1-2-t.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.: Nasaf , 2000 y.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING PSIXOLOGIK TA’LIMDA QO’LLANILISHI

Sharipova Umidaxon Qochqarboy qizi
Namangan davlat universiteti
psixologiya kafedrasi stajor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: *maqolada kompuyuter texnologiyasidan psixologik xizmat jarayonida qo‘llash uning afzalliklari, axborotlarni qabul qilish psixologik jarayonlarni aniqlash va diagnostika qilishdagi qulayliklari borasida atroflicha ma’lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so’zlar*: axborot, texnologiya, qulaylik, samaradorlik, vaqt, globallashuv, qism, kompyuter, jamiyat, fanlar, nazariya, amaliyot.*

Аннотация: *В статье подробно изложена информация о применении компьютерных технологий в процессе психологической службы, ее преимуществах, удобстве получения информации при выявлении и диагностике психологических процессов.*

Ключевые слова: *информация, технология, удобство, эффективность, время, глобализация, часть, компьютер, общество, науки, теория, практика.*

Annotation: *the article describes detailed information on the benefits of the application of computer technology in the process of psychological service, the convenience of information reception in the identification and diagnosis of psychological processes.*

Keywords: *information, technology, accessibility, efficiency, time, globalization, part, Computer, Society, Sciences, theory, practice.*

Hozirgi kunda deyarli barcha tashkilotlar axborot xizmatlarini va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashni talab qiladi. Axborotni uzatish, idrok etish va qayta ishlashning asosiy texnik vositalaridan biri bu kompuyuterdir. Kompyuterning roli inson va butun jamiyatning intellektual imkoniyatlarini oshirishdan iborat bo‘lib, aloqa va axborot uzatish uchun xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari (IT) - bu ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalari, shu jumladan hisoblash texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar va faoliyat sohalarining keng sinfidir. Axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Kompyuterlardan foydalanish odatiy holga aylandi, garchi yaqin vaqtgacha kompyuter bilan jihozlangan ish joyi juda kam uchraydigan narsa edi. Axborot texnologiyalari mehnat va dam olish uchun yangi imkoniyatlar ochdi va inson mehnatini ancha yengillashtirdi.

Zamonaviy jamiyatni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalarining rivojlanish istiqbollarini hatto mutaxassislar uchun ham tasavvur qilish qiyin. Biroq, kelajakda bizni ajoyib narsa kutayotgani aniq. Agar axborot texnologiyalarining rivojlanish sur'ati pasaymasa (va bunga hech qanday shubha yo'q), bu juda tez orada sodir bo'ladi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan dunyoning shaffofligi, jahon tizimining elementlari o‘rtasida axborot uzatish tezligi va hajmi oshib, yana bir integratsiyalashgan jahon omilli yuzaga kelmoqda. Demak, alohida elementlarning o‘z-o‘zidan inertial rivojlanishiga yordam beradigan mahalliy an’analarning roli zaiflashmoqda. Shu bilan birga, elementlarning ijobiy teskari aloqa bilan signallarga munosabati kuchayadi. Integratsiya faqat mintaqaviy va madaniy-tarixiy rivojlanish xususiyatlarining xiralashishiga olib kelmasa, mamnuniyat bilan qabul qilinishi mumkin edi.

Zamonaviy jamiyat qayta ishlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlar oqimlari bilan to'ldirilgan. Binobarin, axborot texnologiyalarisiz, shuningdek, energetika, transport va kimyoviy texnologiyalarsiz u normal faoliyat yurita olmaydi. Shu o’rinda psixologiya sohasida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish ishning qulayligini oshirishni taminlaydi bugungi kunga kelin psixologiyaning zamonaviy fan texnologiya yutuqlaridan foydalanishi oshgan deb aytishimiz mumkin.

Psixolog ishida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish axborot asriga to’g’ri keldi deb ataladi. Zamonaviy axborot-kompyuter texnologiyalari (AKT) hayotning turli sohalariga tobora ko'proq joriy etilib, zamonaviy madaniyatning, jumladan, ta'lim sohasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bolalarni o'qitish va rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari har bir bolaning shaxsiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon beradi. AKTdan foydalanish pedagogik psixologning amaliy faoliyatida keng imkoniyatlar ochadi, maktab psixologining an'anaviy ish shakllarini organik ravishda to‘ldiradi, psixolog va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar imkoniyatlarini kengaytiradi. Talabalar bilan ishlashda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalligi nimada?

birinchidan va eng muhimi - bolalar va o‘smirlarning kompyuterlar bilan bog‘liq barcha narsalarga bo‘lgan katta qiziqishi;

ikkinchidan - keng multimedia imkoniyatlari (yaxshi grafika, yuqori sifatli ovoz, uch o’lchamli tasvirlar, dinamika - jonli haqiqat yaxshiroq modellashtirilgan, bu esa axborotni to‘liqroq idrok etishga olib keladi);

uchinchidan, har birining individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish qobiliyati.

Kompyuter psixodiagnostikasini o‘tkazish (albatta, professional vositalar to’p lami mavjudligi bilan) sizga ma'lumotlarni qayta ishlashga sarflangan katta vaqtni bo‘shatishga va, masalan, talabalarni real yoki simulyatsiya (o‘yin) faoliyatida kuzatishga ko'proq e'tibor berishga imkon beradi. Qiyosiy ma'lumotlar tahlilini o‘tkazish, turli statistik hisobotlarni yaratish va hokazo. Turli test yaratuvchilardan foydalanish sizga tayyor professional testlarni to‘plash va muayyan vaziyat uchun zarur bo‘lgan so‘rovnomalarni mustaqil ravishda yaratish imkonini beradi. Talabalarning psixologik tadqiqotlarga qiziqishini rag‘batlantiradi, o‘rta maktab

o‘quvchilarining shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi ya’ni ularning akademik, shaxsiy va kasbiy motivatsiyasini shakllantirish, aks ettirishni rivojlantirish. Turli xil kompuyuter o'yinlari va simulyatorlar ham bilvosita psixodiagnostika vositalari sifatida xizmat qilishi mumkin. Kompuyuter texnologiyalari maktab psixologlarining o‘quvchilar bilan tuzatuv va rivojlantirish ishlarida keng qo'llaniladi. Bunday texnologiyalarga o‘quv va rivojlantiruvchi xarakterdagi kompyuter dasturlari kiradi. Kompyuter dasturlari texnologiya, ko‘ngilochar, psixologiya va pedagogikaning o’ziga xos birikmasidir. Ushbu dasturlardan foydalanish sensorimotor, pertseptiv va yuqori kognitiv funktsiyalarning rivojlanishiga yordam beradi. Talabalarning bilim olish samaradorligini oshirish, ularning o’quv motivatsiyasi, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va boshqalar.

Tuzatish va rivojlantirish ishlarida AKTdan foydalanishning ikkita yo‘nalishi mavjud:

1) bolaning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish - bu sohada hozirgi vaqtda sensorimotor ko‘nikmalarni, e'tiborni, xotirani va fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab kompyuter simulyatorlari va o‘yin komplekslari taklif etiladi; Agar xohlasangiz, oddiy taqdimot o'yinchoqlarini o'zingiz yaratishingiz mumkin;

2) o‘quvchilarning shaxsiy, xulq-atvori va hissiy fazilatlari bilan tuzatish va rivojlantirish ishlarini tashkil etishda.

Asosiy hissiy va xulq-atvor buzilishlarini (tajovuzkorlik, izolyatsiya, qo‘rquv va boshqalar) tuzatishda kompyuter o‘yinlari qo‘g‘irchoqlar va rasmlar bilan bir xil vosita sifatida ishlatiladi; ular muloqotning tirik ishtirokchilari o‘rnini bosadigan o‘ziga xos vositachidir. Kompyuter o‘yinlari psixolog bola bilan o‘ynashi kerak bo‘lgan muloqot holatini taqlid qilish uchun tuzatish ishlarida qo‘llaniladi. Bunda ular kitob doskasi materiallariga o‘xshaydi, lekin yaxshiroq grafikalar, interaktivlik va xarakterlarning harakatchanligi bo‘yicha ulardan ustunlikka ega. Bu vazifalarni o‘z multfilmlaringizni yaratish imkonini beruvchi studiya dasturlari yordamida yanada samaraliroq hal qilish mumkin. Bolalar tomonidan yaratilgan multfilmlar nafaqat tuzatuvchi ahamiyatga ega, balki psixologni boy diagnostika materiali bilan ta'minlaydi. Masalan, tashvishli maktab o‘quvchisi bilan ishlashda multfilmlar studiyasidan foydalanish yordam beradi:

a) bolaning o‘zini o‘zi qadrlashini oshirish. Shu maqsadda bolaga bolaning eng yaxshi fazilatlari bilan ta'minlangan qahramon haqida multfilm sayohatini yaratish so'raladi. (Psixolog bilan suhbat chog‘ida fazilatlar aniqlanadi: "Unga nimani o‘rgatdingiz? U bilan qanday fazilatlarni baham ko‘rishingiz mumkin?")

b) bolaga uni eng ko‘p tashvishlantiradigan muayyan vaziyatlarda o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatini o‘rgatish. Bunday holda, psixolog bola bilan birgalikda haqiqiy vaziyatni taqlid qilib, multfilmning syujet chizig‘ini ishlab chiqadi (masalan, doskada javob berish). Hikoya qahramoni barcha to‘siqlarga qaramay muvaffaqiyat qozonishi kerak. Multfilm yaratish va dublyaj qilish jarayonida shunchaki asabiylashuvchi vaziyatni o‘ynash ham bolalar animatorining tashvish darajasini kamaytirishi mumkin. Ushbu ish uslubida asosiy narsa bolani o‘yin holati bilan tanishtiradigan va bolaning o‘yinda qilgan harakatlarini muhokama qiladigan

psixologning hamrohlik qiluvchi roli. Psixologik tuzatish psixolog bilan muloqotda amalga oshiriladi. Psixolog o‘quvchilarga bolalar davom ettirishi kerak bo'lgan tugallanmagan multfilmlarini va multfilm hikoyalarini yaratish mavzularini taklif qilishi mumkin. Guruhda (3-5 kishi) psixolog tomonidan berilgan yoki birgalikdagi muhokamada tanlangan mavzu bo'yicha multfilm-ertak yaratishda ishtirokchilarning kommunikativ va shaxsiy sohalari rivojlanadi. Ertak rolini o‘ynash va ma'lum ertak qahramonlari bilan muloqot qilish orqali o‘quvchilar muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashish uchun zarur bo‘lgan muloqot va xatti-harakatlar modellarini rivojlantiradilar. Animatsion studiyalardan o‘rta maktab o‘quvchilari bilan ishlashda ham foydalanish mumkin - ularning hayot yo‘li bo‘yicha istiqbollarni shakllantirish (masalan, talabalar "Professional hayotda bir kun" mavzusida animatsiya hikoyasini yaratadilar). Katta psixologik o‘yinlar va treninglardan so‘ng maxsus tahrirlangan videolarning kiritilishi "To‘pdan keyin" an'anaviy nomi ostida refleksiv mashg‘ulotlar o‘tkazish imkonini beradi. Kompyuter texnologiyalari asosida o‘rta maktab o‘quvchilarining nashriyot faoliyatini tashkil etish yoki rag‘batlantirish o‘quvchilarning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashiga, ularning maxsus ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'rta maktab o'quvchilari uchun kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi belgilash masalalari bo'yicha psixologik ta'lim va guruhli maslahatlarni tashkil qilishda AKT tomonidan taqdim etilgan keng imkoniyatlardan foydalaniladi: Kompyuter dasturlari, elektron kitoblar, Runet resurslari va psixologning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan taqdimot o'yinchoqlari. Masalan, "Kasblar olamidagi diqqatga sazovor joy" o'yini sizga sinfda olingan kasblar dunyosi haqidagi ma'lumotlarni o'ynoqi tarzda tizimlashtirishga imkon beradi. O'rta maktab o'quvchilari bilan "Rangli kayfiyat" taqdimot dasturini yaratish, unda biz birgalikda gullar, sharsharalar, landshaftlarning fotosuratlarini tanladik, ranglar diapazonining o'tishini va ma'lum bir musiqiy hamrohlikni kuzatdik, bolalardan birinchi navbatda rang va musiqaning insonning kayfiyati va jismoniy holatiga ta'siri haqidagi ma'lumotlar bilan tanishishlarini talab qildi.

Ayni paytda ko'plab o'qituvchilar ushbu "mo"jizaviy texnologiya" ni endigina o'zlashtirmoqdalar, ba'zida ular kompyuterdan qo'rqishadi va ko'pincha kompyuterni bilishda o'z talabalaridan ortda qolishadi. Maktab psixologining o‘qituvchilar bilan olib boradigan ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish sof psixologik muammolarni hal qilish bilan bir qatorda o‘qituvchilarning axborot madaniyatini oshirishga, ularning o‘quv amaliyotida kompyuterdan foydalanishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu g‘oyalarni amalga oshirish uchun men mahalliy maktab tarmog‘i uchun, ayniqsa o‘qituvchilar uchun "O‘qituvchi uchun psixologiya" veb-saytini ishlab chiqdim va yaratdim. Ushbu sayt o‘qituvchilarga psixologik-pedagogik o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini bilish va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun keng imkoniyatlardan foydalanishga yordam berish uchun yaratilgan virtual psixologik xizmat turidir. "Bolalar bilan birga" va "Ota-onalar bilan birga" bolimlari kundalik maktab amaliyoti muammolarini hal qilishga yordam beradi, ba‘zi materiallar sizning kasbiy va hayotiy pozitsiyangizni tushunishga yordam beradi. Har bir o'qituvchi o‘zining qiziqishi va ehtiyojlariga qarab materialni tanlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Лебедева М.Б., Шилова О.Н. Что такое ИКТ-компетентность студентов педагогического университета и как ее формировать//Информатика и образование. – 2004. – № 3.
2.Мокрушина Е.И. Развитие модели информационного поля образовательного учреждения: автоматизация психологической поддержки учебно-воспитательного процесса // Информационно-коммуникационные технологии в обновлении содержания образования. Сборник тезисов конференции южного куста Пермской области. 11 февраля 2005 г.
3. Мансурова Г. Р. Подросток и Интернет: как Интернет влияет на поведение подрастающего поколения //Экономика и социум. – 2023. – №. 1-1 (104). – С. 310-313.
4.Никитенко С.Г. Интернет для психологов: ресурсы и технологии // Школьные технологии. – 2002. – № 2.
5.Сонисус О.Ф. Информационно-коммуникационные технологии как одно из средств психологического сопровождения школьников // Информационно-коммуникационные технологии в обновлении содержания образования. Сборник тезисов конференции южного куста Пермской области. 11 февраля 2005 г.
6.Чепкасова Е.М. Использование новых информационных технологий в работе школьного психолога // Информационно-коммуникационные технологии в обновлении содержания образования. Сборник тезисов конференции южного куста Пермской области. 11 февраля 2005 г.
7.Олейникова Елена Викторовна педагог-психолог, победитель дистанционной олимпиады психологов образования в номинации «Информационные технологии в деятельности школьного психолога» (г. Лесосибирск, Красноярский край)
8.Материалы сайтов Адалин, Детский психолог, 7-я.ру, Казанское образование

PROFESSIONAL TA'LIMDA DUAL TA'LIM OLUVCHILARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING NAZARIY ASOSLARI, YO'NALISHLARI VA XORIJIY TAJRIBALAR

Toshmirzayeva Muhayyo Maxkambayevna
NamDU 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada professional ta'lim tizimida dual ta'lim oluvchilarga psixologik xizmat ko'rsatishning ustuvor yo'nalishlari, nazariy asoslari va xorijiy tajribalar asosida ilmiy-tahliliy yondashuvlar bayon etiladi. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga tayangan holda, psixologik xizmat ko'rsatish tizimi va uning dual ta'limdagi o'rni, xizmat ko'rsatish usullari va samaradorligi o'rganildi. Shu bilan birga, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasi o'rganilib, ularning tatbiqiy jihatlari tahlil qilindi. Maqola professional psixologlar, ta'lim muassasalari rahbarlari va ilmiy tadqiqotchilar uchun foydalidir.*

Kalit so'zlar: *dual ta'lim, psixologik xizmat, kasbiy ta'lim, psixologik qo'llab-quvvatlash, diagnostika, konsultatsiya, monitoring, Germaniya tajribasi, integratsiya, ta'lim tizimi, o'quvchi psixologiyasi, kasbiy yo'naltirish, pedagogik xizmat, ta'lim islohoti, nazariy asos, praktik yondashuv, psixoprofilaktika, xulq-atvor diagnostikasi, motivatsiya, emosional rivojlanish, psixologik maslahat, rivojlanish psixologiyasi, kasbiy shaxs, ijtimoiy moslashuv, psixologik monitoring, psixologik xavfsizlik, talabaning shaxsiy rivoji, konfliktologiya, kasbiy psixodiagnostika, xorijiy tajriba.*

Аннотация: *В данной статье будут изложены приоритетные направления, теоретические основы и научно-аналитические подходы к оказанию психологической помощи получателям двойного образования в системе профессионального образования на основе зарубежного опыта. Опираясь на нормативные правовые акты Республики Узбекистан, была изучена система психологического обслуживания и ее роль в двойном*

обучении, методы и эффективность оказания услуг. При этом изучался опыт таких стран, как Германия, Южная Корея, анализировались их прикладные аспекты. Статья полезна профессиональным психологам, руководителям образовательных учреждений и научным исследователям.

***Ключевые слова**: двойное образование, психологическая служба, профессиональное образование, психологическая поддержка, диагностика, консультирование, мониторинг, немецкий опыт, интеграция, система образования, психология учащихся, профессиональная ориентация, педагогическая служба, реформа образования, теоретическая основа, практический подход, психопрофилактика, поведенческая диагностика, мотивация, эмоциональное развитие, психологическое консультирование, Психология развития, профессиональная личность, социальная адаптация, психологический мониторинг, психологическая безопасность, личностное развитие студента, конфликтология, профессиональная психодиагностика, зарубежный опыт.*

***Annotation:** this article describes the priorities, theoretical foundations and scientific-analytical approaches to providing psychological services to dual learners in the professional education system, based on foreign experiences. Relying on regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan, the psychological service system and its role in dual education, methods and effectiveness of Service were studied. At the same time, the experience of such countries as Germany, South Korea was studied and their applied aspects were analyzed. The article is useful for professional psychologists, heads of educational institutions and scientific researchers.*

***Keywords:** dual education, psychological service, professional education, psychological support, diagnostics, consultation, monitoring, German experience, integration, educational system, student psychology, professional guidance, pedagogical service, educational reform, theoretical framework, practical approach, psychoprophylaxis, behavioral diagnostics, motivation, emotional development, psychological counseling, developmental psychology, professional personality, social adaptation, psychological monitoring, psychological security, student's personal development, Conflict Medicine, professional psychodiagnostics, foreign experience.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy talablar asosida mutaxassislar tayyorlash va bu jarayonda o‘quvchilarni har tomonlama psixologik qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir [1]. Dual ta’lim tizimi orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallash imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Bu esa o‘z navbatida psixologik xizmat ko‘rsatishning mazmuni, shakllari va metodlariga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda.

Dual ta’lim tizimida psixologik xizmat ko‘rsatishning nazariy asoslari.

Dual ta’lim — bu o‘quv jarayonini ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtirgan tizim bo‘lib, unda o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ta’lim muassasasida va ish joyida tahsil oladi. Ushbu tizimda o‘quvchilar yangi muhitga moslashish, o‘zini namoyon qilish, kasbiy qaror qabul qilishda psixologik yordamga ehtiyoj sezadilar [2]. Shuning uchun ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishdagi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Psixologik xizmat ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. O‘quvchilarning psixologik farovonligini ta’minlash ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi, kasbiy identifikatsiyasi va mehnatga bo‘lgan munosabatiga bevosita ta’sir qiladi [4]. Psixologik xizmatning nazariy asoslari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

✓ Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi – o‘quvchining o‘zini namoyon qilishga intilishi uchun avval xavfsizlik, ijtimoiylik, hurmat kabi psixologik ehtiyojlari qondirilishi zarur [5];

✓ E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi – o‘smirlik va ilk yoshlik davrida shaxsda “kasbiy identiklik” shakllanadi [6];

✓ A.V. Petrovskiy va D.I. Feldshteynning ta’limdagi shaxsiy yondashuv nazariyasi – ta’lim jarayoni shaxsning rivojiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak [7].

Dual ta’lim modelida bu nazariyalar o‘quvchi shaxsining psixologik barqarorligi, stressga chidamliligi, kommunikativ salohiyati va kasbiy moslashuviga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.

Dual ta’lim tizimida psixologik xizmatning shakllari va mazmuni. Dual ta’lim tizimida psixologik xizmat quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: diagnostika, maslahat berish, korreksiya, profilaktika va rivojlantirish. Har bir bosqichda o‘quvchi shaxsini chuqur tahlil qilish va individual yondashuv zarur bo‘ladi. Diagnostika bosqichida psixologik testlar, so‘rovnomalar, suhbatlar orqali o‘quvchining ijtimoiy-psixologik holati aniqlanadi [4]. Maslahat berishda esa psixolog o‘quvchiga o‘z kuchiga ishonch uyg‘otadi, muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Quyidagi jadvalda psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlari va ularning maqsadlari ko‘rsatilgan:

Yo‘nalishlar	Mazmuni va maqsadi
Diagnostika	Shaxs psixologik holatini aniqlash (testlar, so‘rovnomalar)
Maslahat	Muammolarni hal qilishga ko‘maklashish
Korreksiya	Xulq-atvor va shaxsiy sifatlarni o‘zgartirish
Profilaktika	Stress, depressiya va boshqa salbiy holatlarning oldini olish
Rivojlantirish	Kasbiy motivatsiyani oshirish va o‘z-o‘zini anglash

Xorijiy tajriba: Germaniya va Janubiy Koreya tajribalari. Germaniyada dual ta’lim tizimi anchadan beri muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarning psixologik tayyorgarligi davlat tomonidan nazorat qilinadi. O‘quvchilarning kasbiy moslashuvi, ish joyiga integratsiyasi psixolog va trenerlar tomonidan muvofiqlashtiriladi [8]. Janubiy Koreyada esa “Shaxsiy rivojlanish murabbiylari” orqali har bir talabaning ruhiy-psixologik holati monitoring qilinadi.

O‘zbekistonda psixologik xizmat ko‘rsatishdagi muammolar va istiqbollar. Mavjud holatda O‘zbekiston professional ta’lim tizimida psixologik xizmat ko‘rsatish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Psixologlar soni yetarli emas, ularning malakasi turlicha, metodik vositalar yetarli emasligi ko‘rinadi. Shuningdek, ta’lim muassasalari bilan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida psixologik monitoring bo‘yicha integratsiya yo‘lga qo‘yilmagan.


Dual ta’lim tizimida psixologik xizmat ko‘rsatishning ustuvor yo‘nalishlari talabaning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy jihatdan moslashuvini ta’minlashda muhim

o‘rin tutadi. Psixologik xizmat samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi:

1. Kasbiy yo‘nalishni tanlashda yordam berish (kasbiy motivatsiya va qiziqishni shakllantirish).
2. Ishlab chiqarish muhitiga psixologik moslashuvni yengillashtirish (stressga bardoshlik va moslashuvchanlik).
3. Emosional-intellektual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash (o‘zini anglash, empatiya, kommunikativlik).
4. Shaxsiy rivojlanish monitoringi (doimiy diagnostika va rivojlanish xaritalari).
5. Psixologik xizmat samaradorligini baholovchi indikatorlarni ishlab chiqish.

Quyidagi diagrammada professional ta’limdagi o‘quvchilar orasida psixologik ehtiyojlarning foizdagi taqsimoti keltirilgan (so‘rovnoma natijalari asosida):

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, dual ta’lim tizimida psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yishda individual rivojlanish xaritalari, psixologik monitoring va shaxsiy murabbiylik tizimi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Germaniyada har bir o‘quvchi uchun Davlat Kasbiy Ta’lim Agentligi (BIBB) tomonidan individual reja tuziladi [9]. Janubiy Koreyada esa har bir talaba shaxsiy murabbiyga biriktiriladi va muntazam ruhiy salomatlik monitoringi olib boriladi. Bunday yondashuvlar o‘quvchining ish joyidagi stressga bardoshliligini oshirishga, moslashuvchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.



Quyidagi jadvalda O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda psixologik xizmat tashkiloti taqqoslangan:

Davlat	Tashkil etilgan xizmat	Yondashuv xususiyati
O‘zbekiston	Psixologlar soni cheklangan, xizmatlar umumiy	Davlat tomonidan umumiy yondashuv
Germaniya	Kasbiy psixologik monitoring, individual reja	Nazorat va individual rivojlanish xaritasi
Janubiy Koreya	Shaxsiy murabbiylar tizimi	Shaxsga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi monitoring

Misol tariqasida, Namangan shahridagi 2-sonli kasb-hunar maktabida va Norin tumanidagi Norin maishiy xizmat korsatish va servis texnikumida 2024-yilda o‘tkazilgan psixologik monitoring natijalari shuni ko‘rsatdiki, dual ta’lim oluvchilarning 62% i kasbiy tanlovga nisbatan ishonchsizlik, 48% i esa ishlab chiqarish sharoitiga moslashish muammosini boshdan kechirgan. Psixologik xizmat ko‘rsatish doirasida tashkil etilgan 10 haftalik guruhli trening mashg‘ulotlaridan so‘ng, bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 28% va 21% gacha kamaydi. Bu esa, psixologik xizmatga doimiy yondashuv zarurligini statistik jihatdan ham asoslab beradi.

Xulosa va tavsiyalar

Dual ta’lim tizimi sharoitida psixologik xizmat ko‘rsatish o‘quvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida ularning psixologik holatini, moslashuvchanligini, kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Yagona tizimli yondashuv, malakali psixologlar va xorijiy tajribani inobatga olgan holda, professional ta’limdagi sifatni yanada oshirish mumkin. Quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Ta’lim muassasalarida psixologlar sonini ko‘paytirish va ularning malakasini oshirish.
2. Dual ta’lim tizimiga psixologik monitoring mexanizmlarini joriy etish.
3. Ish beruvchilar bilan hamkorlikda o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish xaritalarini ishlab chiqish.
4. Xorijiy tajribani (Germaniya, Janubiy Koreya) lokal sharoitga moslashtirib joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. VM Qarori, 2021 yil 29 mart, 163-son, “Dual ta’lim to‘g‘risida Nizom”.
2. PF-5847 Farmoni, 2019 yil 8 oktabr, “Oliy ta’limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
3. O‘RQ-637-sonli Qonun, 2020 yil 23 sentabr, “Ta’lim to‘g‘risida”.
4. 577-sonli Qaror, 2019 yil 12 iyul, “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”.
5. Maslou A. “Motivatsiya va shaxsiyat”. – N.Y., 1954.
6. Erikson E. “Identity: Youth and Crisis”. – N.Y., 1968.
7. Feldshteyn D.I. “Razvitiye psixologicheskoy sluzhby v sisteme obrazovaniya”. – M., 2004.
8. Mayer H. “Dual Training System in Germany: Facts and Insights”. – Berlin: BMBF, 2022.
9. Federal Institute for Vocational Education and Training (BIBB), Germany. Official reports 2023.

HARBIY SOHALARDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O`ZIGA XOS JIHATLARI VA USTIVOR YO`NALISHLARI

Diyarov Navro`z Azamatovich
71908 harbiy qism ofitseri

Annotatsiya: *Mazkur maqolada harbiy sohalarda psixologik xizmatning ahamiyati, o`ziga xos jihatlari va muammolari haqida so`z yuritilad. Maqolada harbiy sohada psixologik tayyorlashning mexanizmlari borasidagi mulohazalar rivojlanishga oid klassik va zamonaviy yondashuvlarni ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so`zlar: *professiogrammalar, kasbiy kompetentlik, psixologik barqarorlik, individual-psixologik xususiyatlari, psixodiagnostika, psixologik prognoz, psixokorreksiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение, специфика и проблемы психологической службы в военной сфере. В статье рассмотрены классические и современные подходы к развитию рассуждений о механизмах психологической подготовки в военной сфере.*

Ключевые слова: *профессиограммы, профессиональная компетентность, психологическая устойчивость, индивидуально-психологические особенности, психодиагностика, психологический прогноз, психокоррекция.*

Annotation: *this article will talk about the importance, specific aspects and problems of psychological service in the military sphere. The article examines the classical and modern approaches to development of considerations on the mechanisms of psychological training in the military sphere.*

Keywords: *professiograms, professional competence, psychological stability, individual-psychological characteristics, psychodiagnostics, psychological prognosis, psychocorrection.*

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo‘lib kelgan.

So’nggi yillarda mamlakatimizda aholiga psixologiya xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o’z navbatida jamyatimizda psixologlarga bo’lgan talabni yuqori ekanligini ko’rsatmoqda.

Hozirgi bosqichda psixologik xizmat faoliyatining 2 yo‘nalishi: dolzarb va kelajak yo‘nalishlari mavjud. Dolzarb yo‘nalish kursantlar ta'lim tarbiyasidagi qiyinchiliklar, ular xulq-atvoridagi, muloqotdagi va shaxsi shakllanishidagi buzilishlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga qaratilgan. Kelajak yo‘nalishi har bir shaxs individualligini rivojlantirishga, jamiyatda yaratuvchanlik hayotiga psixologik tayyorlikni shakllantirishga qaratilgan. Psixolog pedagogik jamoa faoliyatiga har bir o‘quvchi shaxsi garmonik rivojlanish imkoniyatlari haqida asosiy psixologik g‘oyani olib kiradi. Ikki yo‘nalish ham bir-biri bilan bog‘liq.

Psixolog o‘zining inson xulq-atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari haqidagi kasbiy bilimlariga, ularning kursantlar va harbiy xizmatchilar, tengdosh-hamkasblari bilan o‘zaro munosabat xususiyatlariga, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog‘liqligiga tayanib, shaxsga individual yondashuv imkoniyatlarini ta'minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlarning bo‘lishi mumkin bo‘lgan sabablarini psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo‘llarini aniqlaydi. Bu bilan psixologik xizmat ta'lim muassasasida o‘quv tarbiya ishining mahsuldorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

Psixologik xizmatning asosiy vazifasi - tadqiqot ishlari, amaliy ishlar va tashviqot ishlaridan iborat 3 ta vazifadan tashkil topadi. Psixologik xizmatning uchala vazifasi o‘zaro chambarchas bog‘liq, ularning birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Bugungi kunda ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan harbiy tizimida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi psixologlar doimiy ravishda mutaxassislik va pedagogik bilimlarini oshirib borishlari, yangi pedagogik va

psixologik bilimlar bilan izchil tanishib borishlari, shuningdek kasbiy tajribani o‘zlashtirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil eta olishlari lozim

Psixologik xizmat ko’rsatish, bu – harbiy qism, harbiy ta'lim muassasalari kabi muassasalarning harbiy xizmatchilari, jamoa a'zolari, turli toifadagi komandirlariga harbiy xizmatni o`tash jarayonida, ularning individual psixologik salomatligini, ijtimoiy-psixologik holatini, “komandir-bo`ysunuvchi”, “bo`ysunuvchi-bo`ysunuvchi”, “bo`ysunuvchi-harbiy xizmat (kasbiy burch)”, “komandir-komandir”, “komandir-harbiy jamoa” kabi xizmat munosabatlarini me'yorida saqlash maqsadida tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtiruvchi, amalga oshiruvchi, ta'minlovchi, ya'ni institusional darajada tashkil etilgan faoliyat turidir. Bu faoliyat turi, komandirlik hamda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo`yicha komandir o`rinbosarining funksional majburiyatlari doirasida bajariladigan vazifalarning mazmunini individual-shaxsiy xususiyatlar va harbiy xizmat davomida vazifalarni bajarish uchun amalga oshiriladigan harakatlar muvozanatini ta'minlovchi hisoblanadi.

Harbiy faoliyat tizimini takomillashtirishda amaliy psixologik xizmat quyidagilarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi:

- harbiy kasb ixtisosliklari bo`yicha professiogrammalar tayyorlash, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentlik darajasini aniqlash;

- harbiy xizmat (me.nat) jarayonida barcha toifadagi harbiy xizmatchilarni o`z vazifalarini bajarish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni individual, yoshi va jinsiy o`ziga xosligini inobatga olib, ularning xizmati davomidagi psixologik barqarorligini ta'minlash;

- harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlari va harbiy mehnat talablarini inobatga olib, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun amaliy psixologik tadbirlar majmuasini ishlab chi.ish va uni harbiy amaliyotga tadbir etish;

- harbiy jamoalarda ijtimoiy-psixologik jarayonlarning rivojlanishini ta'minlash,

psixodiagnostikasini, psixologik prognozini amalga oshirib, psixokorreksiya o`tkazish uchun dasturlar tayyorlash;

- komandirlarga harbiy jamoa va alo.ida harbiy xizmatchining kundalik faoliyatidagi psixologik jarayonlarni bosh.arishda amaliy yordam (psixologik maslahat, psixologik ma'rifat va b.) ko’rsatish;

- harbiy xizmatchilarning kasbiy vazifalarini bajarish davomida teli. intellektual

qobiliyatlari va iqtidorini shakllantirishga, namoyon etishiga yordam berish;

- harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga amaliy psixologik yordam (psixokonsultasiya, psixodiagnostika, psixokorreksiya va psixokorreksiya) ko’rsatish;

- “harbiy xizmatchi - harbiy jamoa”, “harbiy xizmatchi - harbiy kasb majburiyatlari”, “komandir – bo`ysunuvchi - kasbiy texnika va qurol” kabi munosabatlar tizimini barqarorligini saqlash va boshqalar.

Harbiy faoliyat tizimini takomillashtirishda amaliy psixologik xizmat ko’rsatishning asosiy yo’nalishlari:

- harbiy xizmatni (darajaviy tarzda) psixologik rejalashtirish va prognozini amalga

oshirish;

- harbiy xizmatchilarga psixologik ta'lim berish;

- harbiy xizmatchilar ijtimoiy-psixologik kompetensiyasini oshirish;

- harbiy xizmatchilar bilan psixologik profilaktika o`tkazish;

- harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar bilan psixologik diagnostika o`tkazish;

- harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar bilan psixologik korreksiya o`tkazish;

- harbiy xizmatchilar va harbiy jamoa a'zolariga psixologik maslahat berish;

- harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar bilan notibbiy psixologik terapiya o`tkazish;

- harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar faoliyatini harbiy-psixologik tahlilini amalga oshirib, komandirlar uchun taklif va tavsiyalar tayyorlash.

Umuman olganda, harbiy faoliyat tizimida psixologik xizmatni joriy etish mamlakat mudofaasini amalga oshirish nuqtai nazaridan ham bir qancha qulayliklarga ega belib, bunda uning psixologik, harbiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy jihatlari mavjudligini e'tiborga olish lozim.

Psixologik xizmat ko’rsatishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda unga qo’yiladigan talablarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin.

Ya'ni, amaliy psixologik yordam ko’rsatish amaliyotida harbiy psixolog harbiy kasb talablariga;

- harbiy psixologik talablarga;

- fiziologik talablarga;

- texnika xavfsizligi tabalariga;

- harbiy kasbning gigienik talablariga;

-harbiy kasbning estetik talablariga qat'iy rioya etgan holda, amaliy harbiy-psixologik yordam ko’rsatishi lozim.

Demak, quyida harbiy psixologga quyiladigan bu talablarning mazmun-mohiyati xususida ayrim mulohazalarni bildirishni joiz deb topdik.

Harbiy kasb talablari: harbiy qism, psixologik xizmat ko’rsatish amaliyotida (xonasida) korreksion-rivojlantiruvchi mashg’ulotlar, psixologik diagnostika, psixologik treninglar, individual (diagnostik) suhbat, psixologik maslahatlar bilan bir qatorda harbiy xizmatchilarning umumiy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash maqsadida turli psixologik o’quvlar (shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi treninglar) etkaziladi va psixologik tayyorgarligini ta'minlash uchun maxsus psixologik bilimlar beriladi. Shu sababli harbiy psixolog umumiy psixologiya, harbiy psixologiya, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat asoslarini chuqur bilishi, ularning asosiy holatlariga amal qilishi lozim beladi.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, harbiy qism psixologik xizmat ko’rsatish xonasining jihozlanishida, harbiy pedagogik muhit yaratish, shaxsning psixologik holatiga xonaning ijobiy ta'sir o`tkazishi inobatga olinib, u barcha harbiy pedagogika va kasb mezonlari va me'yorlarga mos kelishi maqsadga muvofiqdir. Shu asnoda konsilium masalasiga ham alohida e'tibor qaratish shart, chunki ayrim salbiy

xususiyat va holatlar latent tarzda amal qilishi mumkin yoki boshqa bir sabab asosida ko’rsatilishi mumkin.

Harbiy psixologik talablar: harbiy faoliyatni tinchlik va favqulodda holatda bajarilishini hamda sohaviyligini (tog’li hududda, sahroda, cho’lda va b.) inobatga olib, xizmatni o`tash shart-sharoiti hamda mudofaa va xavfsizligini ta'minlashga qo’yiladigan talablarga rioya etgan holda harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta'minlash uchun immitatorlar, tovushli ta'sir ko’rsatish, rangli va yoruglik ta'siriga belgan munosabatlarni aniqlab, axborot zerikishlari, vaqt tig’izligida faoliyat samaradorligini saqlash, ya'ni funksional holatning regulyasiyasini amalga oshirish ergatiladi.

Fiziologik talablar: harbiy qism psixologik xizmat ko’rsatish xonasini jihozlashda xonaning ta'mirlanishi, jihozlari va materiallarining barchasi fiziologik qonuniyatlarga (tashqi ovozlardan himoyalanganligi, qora oyna, yoruglik va badbuy hidlardan himoyalanganligi ta'minlanishi lozim) amal qilingan, qo’llashda qulay bo’lishi, ulardan foydalanganda harbiy xizmatchi (agarda individual yordam ko’rsatilsa) va jamoa (guruhiy yordam ko’rsatish davomida) qanoatlanish, qoniqish hissiyotlarini uygotishi nazarda tutiladi.

Texnika xavfsizligi talablari: harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko’rsatish amaliyotida barcha elektrotexnika jihozlari, yongin xavfsizligi, signalizasiya, istish va sovutish tarmo.larining sozligi, shu jumladan, shaxsiy kompyuterning elektr tarmoqlariga ulanishi texnika xavfsizligi .oidalariga javob berishi va boshqa shart-sharoitlarni e'tiborga olish talab etiladi. Xizmat xonasini yoritgichlar bilan ta'minlashda ularning zamonaviyligiga, butun xonani me'yorida yoritishiga va xavfsizligiga e'tibor qaratiladi.

Harbiy kasbning gigienik talablari: Psixologik yordam ko’rsatish maqsadida psixologik trening mashgulotlari, psixologik diagnostika va individual suhbat o’tkazish jarayonlarida gigiena talablariga to’liq rioya qilinishi lozim.

Harbiy kasbning estetik talablari: harbiy qism psixologik xizmat ko’rsatish xonasidagi jihozlar, axborot beruvchi vosita va materiallarning umumiy ko`rinishi mudofaa tizimida joriy etilgan talablarga mos kelishi, did bilan jihozlanishiga hamda ularning zamonaviy (sengi rusum va modeldagi) bo`lishiga e'tibor qaratilishi lozim. Demak, harbiy psixolog yuqorida zikr etilgan barcha talablarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi lozim. Agarda bu talablardan birortasiga amal qilinmasa, ko`zlangan natijaga yoxud samaraga erisha olmaydi.

Shuningdek, harbiy psixologlar amaliy psixologik xizmat ko’rsatishda yettita yo`nalishda faoliyat yuritishlari lozim beladi. Bular: harbiy psixologik ma'rifat; psixologik diagnostika; psixologik profilaktika; psixologik korreksiya; psixologik kamolot; psixologik maslahat; maxsus psixologik tayyorgarlikni amalga oshirish kabi yo`nalishlar bo`yicha faoliyat olib borishlari lozim. Bu o’z navbatida ulardan mazkur yo`nalishlar doirasida kompetensiyalarga ega belish bilan birga, ish hujjatlarini puxta yuritish ham talab etiladi. Negaki, mijozlar bilan ishlash jarayonida erishilgan natijalar va ulardagi ezgarishlar qayd etilib borilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Arifxodjaeva I.X. Ichiki ishlar idoralari hodimlari faoliyati psixologiyasi. Toshkent 2008- 432 b.
2. Васильев В.Л. Юридическая психология. ЮНИТИ Санкт -Петербург, 2014
3. Нагаев Н.Н. Основы судебно - психологической экспертизы. ЮНИТИ М.2010. 302 б.
4. В.В.Раманов Юридическая психология: Учебник-588-2 изд., перераб.и доп. - Москва.: ≪Юристъ≫, 2014
5. Ратинов А.Р. Судебная психология для следователей: Учебник – 2 изд., перераб.и доп. - Москва.: ≪Юристъ≫, 2018. 226 стр.
6. Рухиева Х.А. Суд - психологик экспертизаси. Т.2012. 386 б.
7. Столяренко А.М. Прикладная юридическая психология. ЮНИТИ М.2021.

OLIY TA'LIMGA MOSLASHUV JARAYONIDA TALABALAR DUCH KELADIGAN IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Urayimova Muqaddam Komiljon qizi
Namangan davlat universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti
Tel:+998 99 408 06 36 E-mail:studenturayimova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalar oliy ta'lim muhitiga kirish jarayonida duch keladigan asosiy ijtimoiy va psixologik muammolar, emotsional muammolar, oliy ta'limga moslashishga hamda shaxsiy rivojlanishga turtki bo'luvchi omillar keng qamrovli tahlil qilinadi. Moslashuv jarayoni talaba uchun ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, shu jumladan, akademik stress, ijtimoiy aloqalar o'rnatish, yangi muhitdagi komunikativ munosabatlar, o'z-o'zini anglash va psixologik barqarorlikni saqlash. Maqolada yangi ilmiy tadqiqotlar asosida talabalarning moslashuviga ta'sir etuvchi omillar va ularning bartaraf etish yo'llari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *talabalar, oliy ta'lim muhitiga moslashuv, ijtimoiy va psixologik moslashuv, stress va stressga chidamlilik, emotsional muammolar, o'zaro munosabatlar, motivatsiya, psixologik stress, shaxsiy rivojlanish, adaptatsiya strategiyalari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, akademik bosim, stressni boshqarish.*

Аннотация: *В данной статье анализируются основные социальные и психологические проблемы, с которыми сталкиваются студенты в процессе адаптации к среде высшего образования, а также эмоциональные трудности и факторы, способствующие адаптации к высшему образованию и личностному развитию. Процесс адаптации вызывает у студентов множество трудностей, включая академический стресс, установление социальных связей, коммуникативные отношения в новой среде, самопознание и сохранение психологической устойчивости. В статье на основе новейших научных исследований освещаются факторы, влияющие на адаптацию студентов, и пути их преодоления.*

Ключевые слова: *студенты, адаптация к среде высшего образования, социальная и психологическая адаптация, стресс и стрессоустойчивость, эмоциональные проблемы, межличностные отношения, мотивация, психологический стресс, личностное развитие, стратегии адаптации, социальная поддержка, академическое давление, управление стрессом.*

Annotation: *This article analyzes the main social and psychological problems faced by students in the process of adapting to the higher education environment, as well as emotional difficulties and the factors that contribute to adaptation to higher education and personal development. The adaptation process presents students with numerous challenges, including academic stress, the establishment of social connections, communication relationships in a new environment, self-awareness, and the maintenance of psychological resilience. Based on the latest*

scientific research, the article highlights the factors influencing student adaptation and the ways to overcome them.

Keywords: *students, adaptation to the higher education environment, social and psychological adaptation, stress and stress resilience, emotional problems, interpersonal relationships, motivation, psychological stress, personal development, adaptation strategies, social support, academic pressure, stress management.*

KIRISH. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati yangi bosqichga ko‘tarilgan. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: "Yoshlarimizga zamonaviy bilim va kasb-hunar berish, ularning mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy raqobatbardosh insonlar sifatida shakllanishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda."[1]

Darhaqiqat, talabalik davri yoshlarning hayotidagi eng mas'uliyatli va murakkab bosqichlardan biridir. Bu davrda ular mustaqil hayotga qadam qo‘yadilar, jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga harakat qiladilar. Shuningdek, yangi muhit va sharoitga moslashish jarayonida talabalar ko‘plab ijtimoiy va psixologik muammolarga duch keladilar. Ularni o‘z vaqtida aniqlash va yechimini topish esa talabaning nafaqat shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muhitiga o‘tish talabalarga nafaqat akademik, balki psixologik va ijtimoiy moslashuvni talab qiladi. Talabalarning o‘quv muhitiga kirish jarayoni o‘ziga xos stressni keltirib chiqaradi va bu holat talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, o‘z-o‘zini anglashiga va umumiy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Moslashuv jarayonidagi muammolarni tushunish, ularni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish talabalarning umumiy akademik va psixologik muvaffaqiyatini ta'minlash uchun zarur. Oliy ta'lim muhitiga moslashish — bu faqat yangi bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki ijtimoiy va psixologik jihatlarni ham o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir.

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 30-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasidan.

Bu jarayonni to‘liq tushunish uchun talabalar bilan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida ijtimoiy, psixologik va akademik omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Psixologik omillar: talabaning stressga chidamliligi, o‘z-o‘zini anglash, motivatsiya darajasi. Ijtimoiy omillar: talabaning yangi ijtimoiy muhitga kirishi, oila va do‘stlarning qo‘llab-quvvatlashi. Akademik omillar: yangi ta'lim tizimiga moslashish, akademik stressni boshqarish. Talabalar oliy ta'lim muhitiga kirish jarayonida ko‘plab ijtimoiy va psixologik muammolarni boshdan kechirishadi. Ijtimoiy muammolar: yangi do‘stlar orttirish, tengdoshlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar, oila bilan aloqalar. Psixologik muammolar: stress, xavotir, o‘z-o‘zini anglashdagi qiyinchiliklar, o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi. Ijtimoiy va psixologik muammolarning kombinatsiyasi talabalarning umumiy farovonligiga va akademik muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ushbu maqola ilmiy-analitik tahlil metodologiyasiga asoslangan. So‘nggi yillardagi (2023–2025) ilmiy maqolalar, xalqaro konferensiya materiallari va amaliy tadqiqotlar asosida o‘rganilmoqda. Maqolada asosiy e’tibor moslashuv jarayonida talabalarning duch

keladigan turli xil ijtimoiy va psixologik muammolarini aniqlash va ularni yengish strategiyalarini tahlil qilishga qaratildi. Moslashuv (adaptatsiya) nazariyasi: Psixologiyada adaptatsiya — bu insonning yangi sharoitlarga moslashuvi, psixik muvozanatni saqlash jarayoni deb qaraladi. Frederickson (1998) va Lazarus (2000) kabi olimlar shuni ta'kidlaydiki, yangi vaziyatlar, ayniqsa stressni oshiruvchi sharoitlarda, odamlar yangi psixologik resurslarni safarbar qilishi kerak bo‘ladi. Talabalarda bu holat: Stressga nisbatan sezuvchanlik, Motivatsiyaning pasayishi, Yolg‘izlik hissi bilan kechadi. Stress va moslashuv o‘zaro bog‘liqligi: Richard Lazarus va Susan Folkman (1984) tomonidan ishlab chiqilgan Stress va murosa qilish (Koping) nazariyasi shuni ko‘rsatadiki: "Talabaning moslashuvi stress darajasi va uning stressga qarshi kurashish usullari bilan bevosita bog‘liq."[2]

2. Richard Lazarus va Susan Folkman (1984) Stress va murosa qilish (Coping) nazariyasi.

Talabalar odatda: Muammoga yo‘naltirilgan koping (masalan, o‘qish rejasi tuzish, yordam so‘rash) yoki Emotsiyaga yo‘naltirilgan koping (masalan, o‘zini tinchlantirish, muammodan qochish) usullarini qo‘llaydi. O‘z-o‘zini qadrlash va moslashuv: O‘zini qadrlash past bo‘lgan talabalar: O‘zlariga nisbatan ishonchsizlik, Ijtimoiy izolyatsiya, Depressiv simptomlar ko‘rsatishadi. Shu sabab, psixologik adabiyotlarda ko‘plab mualliflar o‘z-o‘zini qadrlashni oshiruvchi dasturlar va treninglar talabalarni oliy ta’limga moslashuvida ijobiy rol o‘ynashini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, Xorijlik yoki boshqa mintaqadan ta’lim olish uchun kelgan talabalar uchun madaniy moslashuv ham asosiy muammo hisoblanadi, bular:

- Til to‘siqlari,
- Madaniyatlararo noaniqlik,
- Diskriminatsiya qo‘rquvi,
- O‘zligini yo‘qotish hissi va h.z

NATIJALAR. Tahlillar natijasi shuni ko’rsatadiki, talabalar moslashuv jarayonida quyidagi asosiy muammolarga duch kelishi aniqlanmoqda:

- Ijtimoiy muammolar: Yangi guruhga moslashish ketish, do‘stlar orttirishdagi qiyinchiliklar, madaniy tafovutlarga moslashish, ijtimoiy muhitdagi qo‘llab-quvvatlashning yetishmovchiligi;
- Psixologik muammolar: Stress, depressiya, yolg‘izlik, xavotir va o‘z-o‘zini qadrlashning pasayishi;
- Akademik stress: O‘quv yuklamasi, yuqori natijalarga erishish uchun bo‘lgan bosim, o‘zini o‘qishga moslashtirishdagi qiyinchiliklar.
- Xorijlik talabalar: Madaniy moslashuv, til to‘siqlari va ijtimoiy izolyatsiya muammolari va boshqalar shular jumlasidan.

Bu to’siqlarni bartaraf etish talabalarni oliy ta’lim jarayoniga qiyinchiliklarsiz moslashib ketishi u orqali kelib chiquvchi ijtimoiy va psixologik muammolarning oldini olishini ko’rsatib bermoqda.

MUHOKAMA. So‘ngi yillarda oliy ta’lim muassasalarida, moslashuvdagi ijtimoiy va psixologik qiyinchiliklar talabalarning akademik natijalariga, ruhiy holatiga va umuman, shaxsiy rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir qilayotganini ko’rish mumkin.. Stress va depressiya kabi bir qator omillar talabalarning o‘quv

jarayonida ishtirokni pasaytiradi, ijtimoiy izolyatsiya , shaxslararo komunikatsiyaning sustligi, ortiqcha ehtiyojlarning ko'payishi esa shaxsiy rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda.

Muammolarni kamaytirish uchun quyidagi yondashuvlar samarali bo'lishini ko'rib chiqamiz:

- Universitetlarda doimiy psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish, psixologlarni talabalar bilan doimiy aloqada bo'lishi;
- Ijtimoiy faollikni oshiruvchi turli xil tadbirlar, musobaqalar va treninglar tashkil etish;
- Xorijlik talabalar uchun madaniy integratsiya dasturlarini ishlab chiqish, ularni ijtimoiylashuviga ko'maklashish;
- Stressni boshqarish va moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirib borish bo'yicha treninglar o'tkazish;
- Kelgusida talabalar moslashuvini yuqori darajaga chiqarish uchun oliy ta'lim muassasalari tomonidan moslashtiruvchi dasturlarni yanada tizimli va shaxsiylashtirilgan shaklda tashkil etishlari tavsiya etiladi.Kelgusida talabalarning oliy ta'lim muassasasiga moslashuv jarayonidagi ijtimoiy va psixologik muammolarni oldini olish, ularni bartaraf etish uchun talabalar bilan ko'proq jonli muloqotda bo'lish ulardagi turli stress va depressiya, o'z yechimini topa olmayotgan muammolarni birga hal qilish uchun izchil chora-tadbirlar ishlab chiqilmog'i lozim.

XULOSA qilib shuni aytish mumkinki, Talabalarning oliy ta'lim muhitiga moslashuvi jarayoni ko'plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, lekin ular samarali qo'llab-quvvatlash va strategiyalar ishlab chiqish orqali bu muammolar bartaraf etilishi mumkin. Ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilish, talabalar uchun moslashuv jarayonini yengillashtiradi va ularning akademik salohiyatini muvaffaqiyatli o'sishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Sobirova, D. M. (2022). Oliy ta'limda moslashuv va shaxsiy rivojlanish. Samarqand: Barkamol Avlod.

2. Usmonov, A. X. (2023). Talabalarda stressni boshqarish va ijtimoiy moslashuv. Toshkent: Ilm Ziyo.

3. Nurmatova, G. T. (2020). Talabalarning motivatsiyasi va moslashuvi: psixologik tadqiqot. Buxoro: Oliy Ta'lim Nashriyoti.

4. Xudoyqulova, M. R. (2024). Ijtimoiy-psixologik moslashuv: nazariya va amaliyot. Namangan: Ta'lim Servis.

5. Lazarev, V. (2021). Adaptatsiya studentov v vysshey shkole: sovremennye problemy i resheniya. Moskva: Prosveshchenie.

6. Islomova, S. (2022). Oliy ta'limda ijtimoiy moslashuv mexanizmlari. Nukus: Yoshlar Nuri.

7. Rakhimov, F. (2023). Talabalarning akademik moslashuv ko'rsatkichlari. Andijon: Ziyo-Media.

8. www.psycho.all.ru

TALABALARNI KASBIY TAYYORLASH JARAYONIDA KREATIVLIK XUSUSIYATLARINI TARBIYALASH

Pardaqulov Norbek
Qarshi davlat universiteti
2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida kreativlik xususiyatlarini tarbiyalashga doir psixologik qarashlar va muallifning hozirgi talabalarda kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish borasidagi tadqiqot natijalari o‘z aksini topgan.*

Kalit so‘zlar: *Kasbiy tayyorgarlik, kreativ qobiliyat, ijodiy yo‘nalganlik, qiziqish, aqliy jarayon, anglanganlik, pedagogik mahorat, ijtimoiy tajriba, sog‘lom tarbiyaviy-psixologik muhit, ijodkorlik.*

Аннотация: *В данной статье отражены психологические взгляды на воспитание особенностей креативности в процессе профессиональной подготовки студентов и результаты исследования автора по формированию творческих способностей у современных студентов.*

Ключевые слова: *Профессиональная подготовка, творческие способности, творческая направленность, любознательность, психический процесс, осознанность, педагогическая компетентность, социальный опыт, здоровый учебно-психологический климат, креативность.*

Annotation: *this article reflects the psychological views on the upbringing of the features of creativity in the process of professional training of students and the results of the author's research on the formation of creativity skills in current students.*

Keywords: *Professional Training, creative ability, creative orientation, interest, mental process, awareness, pedagogical skill, social experience, healthy educational-psychological environment, creativity.*

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish Oliy ta’lim muassasalarining eng muhim maqsadi hisoblanadi. Biroq, ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida qayta qurmasdan turib, bu ustuvor vazifani hal qilib bo‘lmaydi, chunki ijodiy faoliyat darajasi va sifati nafaqat ta’lim mazmuniga, balki ta’lim va tarbiya texnologiyasiga ham bog‘liqdir.

Sh.H.Samiyeva va L.R.Djurayevalar o‘z tadqiqot ishlarida ta’kidlaganlaridek, innovatsion ta’lim muhiti bo‘lajak mutaxassisning o‘z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U bo‘lajak mutaxassis tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to‘siq yoki muammolarqa duch kelishi, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi. Kreativ yondashuv asosida innovatsion ta’lim muhiti yangi g‘oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta’lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo‘nalitirilganligi sababli bo‘lajak mutaxassisdan yangicha yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqotlarimizning nazariy-metodologik tahlillaridan ma’lum bo‘ldiki, hozirgi zamon pedagoglarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar: kreativlik nima, uning mazmun-mohiyati va pedagogik faoliyat uchun ahamiyati qanday; kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish; kreativ faollikni shakllantirish; o‘quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo‘nalishlari bilan kuchaytirish; bo‘lajak педагоglarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatini tashkil etish; bo‘lajak

pedagoglarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida anglashga erishish; bo‘lajak pedagoglarning kasbiy ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga erishish; ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo‘naltirib borish; mustaqil bilim olish; o‘z-o‘zini tarbiyalash; o‘z-o‘zini ijodkor pedagog sifatida anglash; o‘z mavqeiga ega bo‘lish; ularda mustaqil ishlash qobiliyati va mahoratlarini faollashtirish; bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish; bo‘lajak педагогlarning kreativ qobiliyatlari va mahoratlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy-hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilardan iboratligi aniqlandi.

L.Z.Qorayeva kreativlikni psixologik va pedagogik jihatdan tahlil qilib, «kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligiga emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi», degan xulosa chiqaradi [8].

Psixologiyada har qanday psixokorreksion texnologiyalarni qo‘llashda o‘ziga xos prinsiplar mavjudligini bilamiz. Biz talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda bir qancha metodologik tamoyillarga asoslandik. Jumladan, kognitiv-bexiverial terapiya g‘oyalariga asoslandik. Chunki, har qanday g‘oyaning kreativligi va uning qobiliyatlar darajasida namoyon bo‘lishi kognitiv va xulq-atvor sohasining uyg‘unlashuvida yuzaga chiqadi. Bundan tashqari, har bir inson nafaqat vaziyatni idrok etamdi va baholaydi, balki u nima haqida o‘ylayotgani, nimani his qilayotgani haqida doimiy ravishda fikr yuritiladi. Aron Bek bunday izohlarni «avtomatik fikrlar» deb atagan va ular bizning tajribamiz va nomaqbul xatti-harakatlarimiz manbai bo‘lishi mumkinligiga ishongan. Biroq mazkur jarayonni boshqarishda quyidagi uchta bir-biridan ajralmas qismga ta’sir etish orqali insonning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish mumkinligi aytilgan:

1. Kognisiya – ma’lumotni esga olish, fikrida qayta ishlash, argumentasiya qilish va anglab yetish kabi tushunchalardan iborat.

2. Konasiya – maqsadga yo‘naltirilgan harakat, motivasiya, instinkt, xohish va irodaviy munosabat kabi tushunchalardan iborat.

3. Affekt – hissiy reaksiyalar va kayfiyatdan iborat [4].

Agar mazkur uchlik inson ichki potensialini faollashtiruvchi markazlarga ta’sir etsa, uning ijodiy imkoniyatlari ro‘yobga chiqa boshlaydi.

Talabalarning ijodiy qobiliyat sifatlarini shakllantirish modeli 1926-yilda ingliz psixologi Grema Uolles tomonidan taklif etilgan edi. Ushbu model ijodiy qobiliyat faoliyatning to‘rt bosqichini shakllantirishda qo‘llaniladi. Unga ko‘ra, talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning quyidagi bosqichlari farqlangan:

1. Tayyorgarlik - ma’lumotlarni yig‘ish, vazifalarni aniqlash va bajarish rejasini tuzish;

2. Inkubatsiya - berilgan topshirirlarni nazorat qilmaslik jarayoni, ushbu ongli ravishda bajarilgan natijalar emas, balki, anglanilmagan harakatlar o‘rganiladi;

3. Ziyraklik - turli ko‘rinishdagi vaziyatlarni yaratish orqali talabalar reaksiyasini belgilab borish;

4. Tekshirish – trening natijalarini tahlil qilish va baholash [2].

Grem Uollesning fikricha, ijodiy qobiliyatni shakllantirishning asosiy vositasi bu talabalardagi ziyraklik, turli xil vaziyatlarda javob ryeaksiyasini shakllantirishdan iboratdir. Bundan tashqari ushbu model talabalarda ijodiy qobiliyatligi bilan birga ulardagi irodaviy sifatlarni ham shakllantirishda muhim ahamiyat kasb yetadi. Shu bilan birga, ijodiy faoliyat ongli va ongsiz jarayonlarning natijasi sifatida qaraladi.

Talabalarni o‘quv faoliyatga tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri, ularda erkin fikrlay olish, murakkab vazifalarga noan’anaviy yechimlar topish, qo‘yilgan maqsadlarni samarali yechish qobiliyatlari ijodiy qobiliyat deb nomlanadi. Ijodiy qobiliyat darajasini ijodiy jarayonning sur’ati belgilab beradi. Ijodiy qobiliyat har qanday faoliyat turida namoyon bo‘lib, u shaxsni yaxlitligicha yoki uning alohida qobiliyatlarini tavsiflaydi.

R.M.Granovskaya o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, agar bu jarayonda o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi ijodi yo‘nalganligi samarali bo‘ladi:

- talabalarning yorqin, qiziqarli va istiqbolli faoliyatga birgalikdagi ishtiyoqi;

- o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi psixologik tenglik sharoitida optimal yechimlar variantlarini izlash;

-birgalikda ijod qilish jarayonida ilgari surilgan muammoga turlicha yondashuvlarni hurmat qilish;

- fikr, ish uslublarining ijodiy almashinuvini tashkil etish;

-hamkorlik istiqbollarini ko‘rsatish;

-muammoni muhokama qilishning dialogik jarayoni;

-talaba shaxsini ijodda o‘zini namoyon qilish imkoniyatini ta’minlash [1].

Yuqorida aytilganlarning barchasini ijodiy kollegiallik deb atashimiz mumkin.

A.J.Rouning fikriga ko‘ra, kreativ qarashlar jamoa bo‘lib ishlash jarayonida va kreativ hamkorlik natijasida жуда яхши shakllanadi [7].

Ta’lim jarayonida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasini amalga oshirish quyidagi o‘quv faoliyati algoritmini yaratish imkonini beradi: muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi → muammoning qo‘yilishi va motivi → g‘oyani ilgari surish → farazlarni ilgari surish. → haqiqatni isbotlash → ha yoki yo‘q→ baholash va rad etish → ha yoki yo‘q→ yechimning to‘g‘riligini tekshirishva baholash →yangi muammoning paydo bo‘lishi.

Mustaqil faoliyat aspektidagi modelning tarkibiy qismi bo‘lajak pedagoglarning tadqiqot faoliyatidir. Ushbu ish bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish modelining barcha bosqichlarini aks ettiradi va ish samaradorligini kuzatishga yordam beradi. Tadqiqot xarakteri muammoli darsga xosdir. Muammoli darsda ijodiy salohiyatni rivojlantirish modelini amalga oshirish quyidagi o‘quv faoliyati algoritmini yaratishga imkon beradi.

Bo‘lajak pedagoglarning shaxsiy moyilliklari va boshqa qobiliyatlarini, xatti-harakatlarning yangi shakllariga, yangi shaxsiy fazilatlarga aylantirish qobiliyatining rivojlanishida namoyon bo‘ladigan qobiliyatga ijodiy individuallik deb ataymiz. U yangi shartlarga muvofiq xatti-harakatlar, mavjud ko‘nikma va

qobiliyatlarni ilgari notanish bo‘lgan yangi faoliyatga o‘tkazish bilan rivojlanib boradi. Ijodiy individuallik faoliyati bo‘lajak pedagoglarning bir-birlaridan farqli ravishda o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishda, shuningdek, ularning o‘z ustida ishlashida va o‘z-o‘zini nazorat qilishida ijodkorlik qobiliyati paydo bo‘ladi. Shu sifat insonga mustaqil, faol ijodiy harakat qilish, o‘z hayotini va boshqa odamlar hayotini yaxshilashga imkoniyat yaratadi.

L.M.Mitinaning tadqiqotlarida o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarining ellikdan ortiqrog‘i qayd etilgan (o‘rganilgan). Ular quyidagilar: xushmuomalalik, o‘ylovchanlik, talabchanlik, ta’sirlanish, tarbiyalanganlik, e’tiborlilik, o‘zini tuta bilish, muloyim xulqlilik, insonparvarlik, ishchanlik, intizomlilik, vijdonlilik, bag‘ri kenglik, saxiylik, g‘oyaviy e’tiqod, tashabbuskorlik, siyosiy onglilik, kuzatuvchanlik, tanqidiylik, qat’iylik, mantiqiylik, talabalarni sevish, mas’uliyatlilik, hozirjavoblik, tashkilotchilik, muloqotga kirisha olish, tartiblilik, to‘g‘rilik, pedagogik bilimdonlik, oldindan ko‘ra bilish, mustaqillik, o‘ziga tanqidiy yondashish, kamtarlik, adolatlilik, hushyorlik, jur’atlilik, kamolotga intilish, pedagogik odob va o‘z qadr-qimmatini saqlay bilish, yangilikka intilish, emotsional ko‘tarinkilik, vatanparvarlik. Uning fikricha, mazkur xususiyatlar ideal o‘qituvchining psixologik qiyofasini tashkil etadi [6].

Y.A.Klimovning fikriga ko‘ra, pedagoglik kasbi «inson-inson» tipidagi mutaxassisliklar qatoriga kiradi va bunday kasb egasi quyidagi xususiyat va qobiliyatlarni egallagan bo‘lishi kerak: boshqarish, o‘qitish, tarbiyalay olish; boshqa odamni tinglay olish va tushunish; onglilik, keng bilim va saviyaga egalik, nutq madaniyatini egallaganlik; kishilarga nisbatan hushyor, ularning ruhiy olamini ko‘z oldiga keltira oladigan; talabani kelajakda yaxshi odam bo‘lib ulg‘ayishiga ishonuvchi; qayg‘udosh, boshqaning tashvishlariga sherik bo‘la oladigan; kuzatuvchanlik qobiliyatiga ega; xalq, jamiyat ishiga sodiq; o‘zgacha vaziyatlarda ham muammoning yechimini topa oladigan; o‘zini tuta bilish qobiliyati deb hisoblagan [5].

Tadqiqotlar tahlili mutaxassislar tomonidan berilgan va o‘z pedagogik faoliyati davomida ishlab chiqilgan tavsiyalarni hisobga olgan holda ijodiy salohiyat faollashtirilgan o‘quv jarayonining xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlanishida asosiy e’tiborni quyidagicha shakllantirish mumkin:

- ijodiy va intellektual tashabbus mavjudligini nazarda tutuvchi “kreativlik qobiliyat” tushunchasining mohiyatini nazariy asoslanishi; muammoli masalalarni hal qilishda yangi original g‘oyalarni yaratish qobiliyati; ta’lim jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatdan adekvat yo‘l topish; ta’lim jarayonida yuzaga keladigan o‘zgarishlar va nostandart vaziyatlarga moslashish qobiliyati.

- o‘quv jarayonida bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagogik-psixologik shart-sharoitlar, shu jumladan ijodkorlik ruhini rivojlantirish uchun bo‘lajak pedagoglar jamoasida qulay psixologik muhit; o‘quv jarayonida o‘zboshimchalik bilan e’tiborni, xotirani, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradigan muammoli vaziyatlarni loyihalash; bo‘lajak

pedagoglarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha mustaqil ishlar tizimini tashkil etish. .

- maxsus model asosida yaratilgan, mualliflik o‘qitish texnologiyasi bo‘lajak pedagoglarning o‘quv faniga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishga qaratilgan; bo‘lajak pedagoglarning bilim sifatini oshirish; bo‘lajak pedagoglarning tarbiyaviy ishlarini faollashtirishni faoliyatga jalb qilishda namoyon bo‘ladi.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, bo’lajak pedagoglarning kreativlik darajasini oshirish, ularning kasbiy ijodkorligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, rivojlantiruvchi dasturni yaratishda ma’lum bir tamoyillarga (yoshlarning individual xususiyatlari, o‘quv-tarbiyaviy jarayon yo‘nalganligi, etnomadaniy va hududiy xususiyatlarga) amal qilish zaruratini taqozo etadi.

Адабиётлар

1. Грановская, Р. М. - Творчество и конфликт в зеркале психологии – СПб.: Речь, 2006. – 414 с. – (Сер. «Мэтры мировой психологии»).
2. Cropby A. Creativity and intelligence. - Br. j. educ. psy., 1966, p 259 -266.
3. Жабборов А. М. Ўқитувчи этнопсихологияси. Қарши "Насаф". 2015. – 180 б.
4. Когнитивная терапия депрессии / А. Бек, А. Раш, Б. Шо, Г. Эмери. – Санкт-Петербург : Питер, 2003. – 304 с.
5. Климов Е.А. Профессии научных работников: Уч. пос., - М.: Акад-я, 2005. - 256 с.
6. Митина Л.М. Интеллектуальная гибкость учителя: психологическое содержание, диагностика, коррекция. М.: Флинта, 2003. 144 с.
7. Роу А.Дж. Креативное мышление / Пер.с.англ. М.: НТ Пресс, 2007, 176с.
8. Qorayeva L.Z. Kreativlik - o‘quvchi faoliyatining asosi sifatida. -2020. №SI-2. 6 qism. Maxsus son. - 667 b.

1920-1930-YILLARDA SAMARQAND VILOYATIDA XOTIN-QIZLAR UCHUN YARATILGAN HUQUQIY ASOSLAR VA IJTIMOIY SHAROITLAR

Abdujabborova Saodat Bozorboyevna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktorant

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 1920–30-yillar davrida Samarqand viloyatida xotin-qizlar uchun yaratilgan huquqiy asoslar va ijtimoiy sharoitlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Sovet hokimiyati tomonidan ayollarni ijtimoiy hayotga faol jalb etish maqsadida ishlab chiqilgan qonunlar, farmonlar va qarorlarning mazmuni ochib beriladi. Shuningdek, bu huquqiy-huquqiy hujjatlarning viloyatdagi amaliy ijrosi, ayollar uchun ta’lim, mehnat va siyosiy faollik yo‘nalishlarida yaratilgan imkoniyatlar yoritiladi. Tadqiqot davomida gender tengligi, ijtimoiy islohotlar va mahalliy an’analar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarga ham e’tibor qaratilgan. Maqola Samarqand viloyatidagi xotin-qizlar hayotida yuz bergan tarixiy o‘zgarishlarni ochib berishga va ularning jamiyatdagi rolini chuqur anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: *Huquqiy islohotlar, ijtimoiy sharoitlar, sovet davri, gender tengligi, mehnatga jalb etish*

Аннотация. *В данной статье на основе исторических источников анализируются правовые основы и социальные условия, созданные для женщин в Самаркандской области в 1920-30-е годы. Раскрывается содержание законов, указов и постановлений, разработанных советской властью с целью активного вовлечения женщин в*

общественную жизнь. Также освещается практическое исполнение этих правовых документов в области, возможности, созданные для женщин в сферах образования, труда и политической активности. В ходе исследования уделено внимание сложным взаимоотношениям между гендерным равенством, социальными реформами и местными традициями. Статья способствует раскрытию исторических изменений в жизни женщин Самаркандской области и глубокому пониманию их роли в обществе.

***Ключевые слова**: Правовые реформы, социальные условия, советский период, гендерное равенство, вовлечение в трудовую деятельность.*

***Abstract.** This article analyzes the legal foundations and social conditions established for women in the Samarkand region during the 1920s and 1930s based on historical sources. It elucidates the content of laws, decrees, and resolutions developed by the Soviet government to actively engage women in social life. The practical implementation of these legal documents in the region and the opportunities created for women in education, employment, and political activism are also highlighted. The study focuses on the complex relationships between gender equality, social reforms, and local traditions. The article serves to reveal the historical changes in the lives of women in the Samarkand region and provides a deeper understanding of their role in society.*

***Keywords**: Legal reforms, social conditions, Soviet era, gender equality, labor participation*

Kirish. Ulug’ Oktabr inqilobi sotsial va milliy zulm iskanjasida yangi, sotsialistik jamiyat qurish, xotin-qizlarni ozod qilish va ularni mamlakatning siyosiy, xo’jalik, madaniy hayotiga faol ravishda tortishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirdi. Lenincha Kommunistik partiya sotsializm qurishga kirishar ekan, madaniy revolyutsiya masalasiga katta e’tibor berdi. Lenincha partiya, insoniyat tarixida xotin-qizlarning jamiyat va oilada teng huquqli ekanligini e’lon qilibgina qolmay, balki mamlakatimizda sotsializm qurilishi davomida buni chinakam amalga oshirgan birinchi partiyadir.

Asosiy qism. XX asr boshlariga kelib, bir tomondan, ijtimoiy hayotda xotin-qizlarga nisbatan yurgizilayotgan barcha adolatsizliklar, xo’rliklar, zo’rliklar, ikkinchi tomondan esa, ma’rifatparvar jadidlarning faoliyatlari ularning ruhan uyg’onishlariga sabab bo’ldi [2, 152-bet]. Sovet hukumati vakillari o’zlarining mustamlakachilik va ulug’millatchilik siyosatining maqsad va manfaatlaridan kelib chiqib, mahalliy millat xotin-qizlarini ijtimoiy-siyosiy faolligiga erishish uchun 1919-yil 12-noyabrda RKP(b) ning Turkiston o’lka qo’mitasida xotin-qizlar bo’limi ochildi [3, 52-bet]. Sovetlar Sharq xotin-qizlari turmushining iqtisodiy, madaniy, maishiy shart-sharoitlaridagi o’ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, xotin-qizlar bo’limlari faoliyatida uchta yo’nalishni rivojlantirishni muhim deb topdi:

1. Xotin-qizlarni tegishli artellar, kasaba soyuzlariga jalb etish orqali ularni iqtisodiy jihatdan ozod qilishni ta’minlash;

2. Maktablar, klublar va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalarni tashkil etish;

3. Xotin-qizlarni targ’ibot-tashviqot orqali “sotsialistik qurilish” amaliyotiga jalb etishning barcha formalari bilan qamrab olish asosida siyosiy jihatdan tarbiyalashdan iborat edi [4, 42-bet].

Paranji tashlab “ozodlikka chiqqan” xotin-qizlarga imkoniyat va sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun ham bu sohaga doir qator qonun va qarorlar qabul qilingan. Ulardan ayrimlari bilan quyida tanishamiz.

926-yil yanvar O’zbekiston SSR Markaziy kommiteti tomonidan o’rnatilgan tartiblar.

O’zbekiston SSR Markaziy Kommiteti tomonidan 1926-yil 3-yanvarda № 1 qaroriga asosan O’zbekistonda mehnatkash xotin-qizlar hayotini yaxshilash O’zbekiston SSR Markaziy Boshqaruv Kommitet tomonidan quyidagi tartiblarni o’rnatadi:

1. O’zbekiston SSR tomonidan viloyat, uyezd, volostlarda mahalliy xotin-qizlar hayotini yaxshilash bo’yicha ijro tartibini shakllantirish;

2. Mehnatkash xotin-qizlarga mahalliy kommissiya tomonidan aholini yaxshilash bo’yicha quyi qismlarga qadar yetib borishini nazorat qilish;

Mazkur qaror bo’yicha O’zbekiston SSR holati:

1. O’zbekiston SSR Markaziy Kommiteti tomonidan doimiy tartiblarni nazorat qilish uchun quyidagi organlar shakllantirilgan:

a) Viloyat va uyezd ijro kommiteti tomonidan viloyat va uyezd kommissiyasi mehnatkash xotin-qizlar ahvolini yaxshilash;

b) Volost ijro kommitetlarda volost kommissiyasi mehnatkash xotin-qizlar ahvolini yanada yaxshilash.

2. Viloyat Ijro Kommiteti Prezidiumi tarkitidan bir a’zo viloyat kommissiyasiga vakil bo’lib, shuningdek, viloyat mehnat bo’limi, sog’liqni saqlash, xalq ta’limidan, viloyat sudi, kasaba uyushma, xotin-qizlar bo’limidan ham bittadan a’zo belgilangan;

3. Uyezd Ijro Kommiteti tarkibidan bir a’zo uyezd kommissiyasiga vakil bo’lib, shuningdek, uyezd mehnat bo’limi, “Qo’shchi” uyushmasi, o’rmon-yer ish uyushmasi, uy bekalardan tarkib topgan ishchilar ham kirgan;

4. Volost Ijro Kommiteti tarkibi volost kommissiyasi vakili bo’lgan. Unda xotin-qizlardan va yer-o’rmon ish uyushmasidan iborat bo’lgan.

5. O’zbekiston SSR mehnatkash xotin-qizlarga bag’ishlangan har qanday tadbirlar, hayotini, atrof-tumush-tarzini yaxshilash ishlari mazkur ijro kommiteti tomonidan uyushtirilgan.

6. Hisobot ishlari Yuqori Ijro Kommiteti tomonidan olib borilgan.

SSSR Markaziy Ijro Kommiteti Soveti tomonidan berilgan barcha qonun-qarorlar O’zbekiston SSR Kommissiyasining quyida berilgan majburiyatlari:

1. Ko’pxotinlik va qalin tizimiga qarshi kurashish;

2. Zo’ravonlik bilan turmushga berish, voyaga yetmaganlarni turmushga chiqarish, Shu va boshqa xollarda xotin-qizlarga qilinadigan munosabatlarni nazorat qilish;

3. Ayollar haq-huquqlarini nazorat qilish;

4. Yuridik yordam tashkil qilish;

5. Xotin-qizlar huquqlarini sud tizimi doirasida himoya qilish;

6. Jamiyatda aybdorlar bilan ishlash kommissiyasi yo’lga qo’yish [5, 4-bet].

Aholi kundalik hayotini yaxshilash bo’yicha kommissiya yig’ilish dalolatnomalari

1927-yil 1-yanvar Samarqand viloyati kommissiyasi tomonidan xotin-qizlar turmush-tarzini yaxshilash bo’yicha reja ishlab chiqarilgan. Keyingi yillar rivojlanishi va hayotini yaxshilash uchun kommissiya tomonidan mehnatkash

ayollarning iqtisodiy ahvolini o'nglash, Samarqand viloyati kompartiyasining navbatdagi yordami bo'ldi.

1. Viloyat sudlari orqali doimiy aniq ko'rsatiladigan jarayonlar o'tkazilgan bo'lib, unda voyaga yetmagan qizlarni turmushga berishni kamaytirish, qishloq joylaridagi hodisalarni, aybdor deb topilganlarni viloyat sudida ko'rib chiqish,

2. Ayblanuvchi ayollarni ishga jalb etish;

3. Viloyat sudlari orqali ularni ishlarini nazoratchi va amaliyotchilar orqali ko'rish;

4. Viloyat sudlari yordamida sudda ayblanuvchi, saqlanuvchilarni ayollarning qiziqishi bilan ish olib borgan;

5. Sud organlari tomonidan ayollar huquqi, xususan alement ishlarida olib borilayotgan nazoratni kuchaytirilgan;

6. Viloyat sudlari orqali yuridik maslahatxonalarda mavjud bo'lgan ishlarni viloyatlarda qanday bo'lsa, uyezdlarda ham shunday tashkil etish;

7. Viloyat-shahar harbiylari tomonidan ishlab chiqarilgan qarorlarni mahalliy harbiylar orqali ayollarning arizalarini yaxshilab ko'rib chiqilishini nazorat qilish [6, 8-bet].

Viloyatda mahalliy aholi orasida ayollar va bolalar uchun maktablarni kengaytirish bo'yicha ma'ruzalar o'tkazish va mahalliy aholi ayollari uchun qayta tayyorlov kurslarini, bolalar maydonchalarini, bog'chalarni ochish bo'yicha ishlar tashkil qilish masalalari yuzasidan so'rovnomalar o'tkazilgan.

Olib borilgan tashviqot, targ'ibot ishlari o'z ta'sirini ko'rsatib, viloyat, hukumat va boshqa tashkilotlar ishchilari tarkibida xotin-qizlar soni ham oshib bordi:

1930-yil ma'lumotlariga ko'ra okrug va rayon tashkilotlarida faoliyat olib borgan xotin-qiz xodimlarning ro'yxati quyidagicha bo'lgan [7, 42-bet]:

1. Surxondaryo okrugi-13 nafar ayol
2. Andijon okrugi-31 nafar ayol
3. Buxoro okrugi-21 nafar ayol
4. Toshkent okrugi-41 nafar ayol
5. Samarqand okrugi-19 nafar ayol

Xulosa qiladigan bo'lsak, 1920-1930-yillarda Samarqand viloyatida xotin-qizlar masalasi Sovet hokimiyatining ijtimoiy siyosatida muhim o'rin egalladi. Bu davrda ayollarni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotga jalb etish maqsadida bir qator qonun qarorlar qabul qilindi. Jumladan nikoh va oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar, majburiy mehnatga jalb etish, savodsizlikka qarshi kurash, ayollarni ishlab chiqarishga jalb etish va ularning siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlar amaliyotga tatbiq etildi. Biroq bu islohotlar mahalliy urf-odatlar, diniy an'analar va ijtimoiy qarshiliklar bilan to'qnash keldi, bu esa ularning samaradorligini ma'lum darajada cheklab qo'ydi. Shunday bo'lsada, 1920-30-yillarda yaratilgan huquqiy asoslar va ijtimoiy sharoitlar Samarqand viloyatidagi xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashda muhim tarixiy bosqich bo'lib xizmat qildi. Bu jarayon o'zining murakkabligi va ziddiyatligiga qaramay, ayollar hayotida tub o'zgarishlarga zamin yaratdi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Тухтахужаева М. Утмиш толиктирган айоллар. Узбекистонда жамиятнинг исломга кайтиши ва хотин-кизлар ахволи, худудий дастур идораси томонидан нашр этилган. Вена. Т.: 2002. Б. 152.

3. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса.-Т Фан 1975. С52.

4. Аминова Р. Х. “Хужум” Узбекистон хотин-кизлари такдирида.-Т.: Билим 1987.

5. Samarqand viloyat arxivi 1735 jamg’arma, 1-ro’yxat, 2-ish, 4-bet

6. Samarqand viloyat arxivi 1735 jamg’arma, 1-ro’yxat, 4-ish, 8-bet

7. Jo’rayeva N.D. O’zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o’rni. Tarix fan. Diss., 2004. 42-bet

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Abduraxmonov Otabek

Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya*: Kommunikativ ko‘nikmalar bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Kommunikativ ko'nikmalar — bu insonlarning bir-birlariga ma'lumot etkazish, axborot almashish, tushunish, xulq-atvorni boshqarish, turli vaziyatlarda moslashish va muvaffaqiyatli ijtimoiy muloqot o'rnatish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar majmuasidir.*

Kalit so’zlar: *Kommunikatsiya, rivojlantirish, shakllantirish, integratsiya, muloqot, jamoa, hamkorlik, emotsional, kognitiv, ijtimoiy, ob'ekt, kompleks, bog‘liqlik, kombinatsiya, sezgilar, empatiya, aloqa, o'yin, faoliyat, axloq, sabr-toqat, ishonch ijodkorlik, qo‘llab-quvvatlash, muvaffaqiyat, raqobatbardoshlilik, muammolar.*

Annotation. *Communicative skills open the way for a child to all the achievements of human culture. The most important stages of developing communicative skills correspond to the preschool age. Communicative skills are a set of abilities necessary for people to convey information to one another, exchange data, understand each other, manage behavior, adapt to various situations, and establish successful social interaction.*

Keywords: *Communication, Development, formation, integration, communication, community, collaboration, emotional, cognitive, social, object, complex, dependency, combination, senses, empathy, communication, play, activity, ethics, patience, trust creativity, support, success, competitiveness, problems.*

Аннотация: *Коммуникативные навыки открывают ребёнку путь ко всем достижениям человеческой культуры. Самые важные этапы развития коммуникативных навыков приходятся на дошкольный возраст. Коммуникативные навыки — это совокупность способностей, необходимых для передачи информации друг другу, обмена сведениями, взаимопонимания, управления поведением, адаптации к различным ситуациям и успешного социального взаимодействия.*

Ключевые слова: *коммуникация, развитие, формирование, интеграция, общение, сообщество, сотрудничество, эмоциональное, когнитивное, социальное, объектное, сложное, зависимость, комбинация, чувства, сочувствие, общение, игра, деятельность, этика, терпение, уверенность, творчество, поддержка, успех, конкурентоспособность, проблемы.*

KIRISH:

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma’naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga

bog‘liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, har bir jamiyatning, ayniqsa, ta’lim-tarbiya tizimining ustuvor vazifasi bo‘lishi lozim. Zero, bugungi kunda yoshlarga berilayotgan bilim, tarbiya va ma’naviy ko‘mak ertangi kunimizning poydevorini belgilaydi. Shu boisdan, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni milliy g‘urur va yuksak axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalash, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish – davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy jamiyatda har bir insonning shaxs sifatida kamol topishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va muvaffaqiyatli muloqot qila olishi — uning kommunikativ kompetensiyasi darajasiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, bu ko‘nikmalarni erta yoshda, ya’ni maktabgacha davrdayoq shakllantirish katta ahamiyatga ega. Chunki aynan shu davr bolaning psixologik, nutqiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishi uchun eng qulay va sezgir bosqich hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimi sharoitida bolalarda til va nutq rivojiga e’tibor qaratish, ularni boshqalar bilan muloqotga kirishishga o‘rgatish, fikrini erkin ifoda eta olishiga sharoit yaratish orqali ularning kommunikativ ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin. Bu ko‘nikmalar esa bola tomonidan nutqiy vositalar yordamida fikr bildirish, eshitish va tushunish, o‘zaro aloqaga kirishish, shuningdek, ijtimoiy muhitda erkin harakat qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanishi nafaqat bolaning nutqiy salohiyatini, balki uning tafakkur darajasi, shaxslararo munosabatlardagi muvaffaqiyati va kelajakdagi ta’lim jarayonidagi faolligini belgilab beradi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim tizimining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalar (ya'ni, muloqot qilish, fikr almashish, eshitish va tushunish, so‘z bilan ifoda etish) bosqichma-bosqich rivojlanadi. Quyida ularning rivojlanish bosqichlari keltirilgan:

Go‘daklik davri (0–1 yosh) asosiy xususiyatlari:

- ✓ Muloqot ovozlar (qiyqirish, yig‘i, jilmayish) orqali sodir bo‘ladi.
- ✓ Ona yoki parvarish qiluvchining yuz ifodalariga va ohangiga javob qaytaradi.
- ✓ 6 oy atrofida babillash (bir xil bo‘g‘inlarni takrorlash) boshlanadi.
- ✓ Eshitish orqali so‘zlarni eslab qolish, tanish tovushlarga javob berish yuzaga chiqadi.

Bolalik davri (1–3 yosh) asosiy xususiyatlari:

- ✓ So‘z boyligi shakllana boshlaydi, oddiy so‘zlar aytiladi.
- ✓ "Men", "ber", "yo‘q", "bu nima?" kabi iboralar ishlatiladi.
- ✓ Ijtimoiy muloqotga qiziqish ortadi: kattalarning nutqini kuzatish, taqlid qilish.
- ✓ So‘zlar orqali ehtiyojlarini ifoda etishga harakat qiladi.

Maktabgacha yosh davri (3–6 yosh) asosiy xususiyatlari: asosiy xususiyatlar:

- ✓ Gaplar tuzish boshlanadi: "Men bormoqchiman", "Bu mening o‘yinchog‘im".
- ✓ “Nega?”, “Qanday?” kabi savollar ko‘payadi.
- ✓ O‘z fikrini oddiy jumlalar orqali ifoda etish imkoniyati paydo bo‘ladi.
- ✓ O‘yinlar orqali muloqotga kirishish ko‘nikmalari shakllanadi.

✓ Gap tuzilmasi murakkablashadi, sabab-oqibat munosabatlarini tushuntirishga harakat qiladi.
✓ Dialog shaklidagi muloqotga kirisha oladi.
✓ Fantaziya va tasavvur orqali hikoya yoki ertaklar aytib berish boshlanadi.
✓ Muloqot jarayonida boshqa bolalar bilan til topisha boshlaydi.
✓ Nutq orqali ijtimoiy rollarni bajara oladi (masalan, o‘qituvchi, do‘st, shifokor kabi).
✓ Hikoya tuzish, sabab va izoh berish ko‘nikmalari rivojlangan bo‘ladi.
✓ Dialog va monolog shaklida so‘zlashish mumkin.
✓ Til va nutq vositalarini ijtimoiy kontekstda to‘g‘ri qo‘llay oladi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim yoshdagi bola kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida nafaqat so‘z boyligini oshiradi, balki ijtimoiy munosabatlar, fikrlarni tartibga solish va o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish ko‘nikmalarini ham egallaydi.

Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati:

Bolalar jamiyatdagi o'zgaruvchan sharoitlarga, turli guruhlar va madaniyatlarga moslashish uchun kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak. Misol uchun, turli muloqot uslublari, tilni to'g'ri va samarali ishlatish ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishni ta'minlaydi. Bola o'zining hissiy holatini, ijtimoiy kontekstni va boshqalarning ehtiyojlarini tushunib, ularga mos ravishda javob bera olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Kommunikativ qobiliyatlar bolalarga turli odamlar bilan samarali muloqot qilish, fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalash, boshqalar bilan hamjihatlikda ishlash, balki do'stlik, oilaviy munosabatlar, kelajakdagi ish faoliyatida va muammolarni hal qilishda ham katta rol o'ynaydi. O'z fikrini aniq va tushunarli ifodalash, tinglash va boshqalar bilan to'g'ri muloqot qilish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bu bilan birga, yaxshi kommunikatsiya bolalarga o'zaro hurmatni, sabr-toqatni va boshqalar bilan samarali ishlashni o'rgatadi.

Maktabgacha ta'limda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerak, chunki bu bolalar kelajakda muvaffaqiyatli ta'lim olishlari va ijtimoiy hayotda o'zlarini erkin ifodalashlari uchun muhim poydevor bo’ladi.

Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ota-ona, tarbiyachilar, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishlari, ularga o'z fikrlarini ifodalash va boshqalarni tinglashni rag'batlantirishi kerak. Ular bolalarni suhbatlarga jalb qilish, savollar berish, turli hil o'yinlar va birlamchi boshlang’ich faoliyatlar orqali ijtimoiy aloqalarni yaxshilashga yordam berishidan tashqari, bolalarga o'zaro hurmat, jamoa bilan ishlash qobiliyati, empatiya, va o'zini ifoda etishdagi ishonchni oshirishga yordam beradi. Bu ko'nikmalar, ularning sog'lom ijtimoiy munosabatlar o'rnatishiga va jamiyatda faol ishtirok etish uchun zarurdir. Bola uchun bu jarayon juda muhim, chunki ularning fikrlash, hissiyotlarini ifodalash va o'zaro muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu o'z-o'zini hurmat qilish, boshqalar bilan muloqotda bo'lishda o'zini ishonchli his qilishga yordam beradi. Muloqot orqali bolalar o'zlarining ehtiyojlarini, istaklarini va fikrlarini to'g'ri va aniq

ifodalashni o'rganadilar, bu esa ular uchun sog'lom ijtimoiy aloqalar o'rnatishda muhimdir.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, bolalarga boshqa odamlar bilan samarali va muammosiz aloqa qilish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy, emotsional va intelektual rivojlanishi hamda bolaning keyingi rivojlanish davrlari uchun juda zarur. Bu ijtimoiy jarayonlar bolalarda ko'pincha, kattalarning muloqot qilish tarzini kuzatib, o'zlari ham shu tarzda gapirishni va o'z fikrlarini ifodalashni o'rganadilar.

To'g'ri muloqot namunasi ko'rsatish:

Kattalar bolalarga qanday gapirishni o'rgatishda kattalar o'zlarining muloqot usullarini namoyish etishlari kerak. Agar ota-onalar yoki tarbiyachilar o'z fikrlarini aniq, hurmat bilan, boshqalarni tinglayotgan holda va soda, ravon va chiroyli til bilan ifodalashsa, bolalar ham shunga o'xshash usullarni o'rganadilar.

Sabr-toqatli va qulay muhit yaratish:

Bolalar o'z fikrlarini erkin va noxush vaziyatlarga tushmasdan ifodalashlari uchun ularga qulay muhit yaratish kerak. Sabr bilan tinglash, bolalarning so'zlarini bo'lib qo'ymaslik, ularni tushunishga harakat qilish, ularning ishonchini oshiradi va muloqotga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi.

Savollar berish va tinglash:

Muloqotning samarali bo'lishi uchun kichik savollar berish va bolalarning javoblarini to'liq tinglash juda muhim. Bu bolalarga fikrlarini ifodalash imkonini beradi va ular o'zlarini tinglanayotganini sezadilar, bu esa ishonchni oshiradi. Masalan, "Nima uchun shunday deb o'ylaysan?" yoki "Buning o'rniga nima qilishni xohlagan bo'larding?" kabi savollar bolalarni fikrlashga va muloqotga jalb etadi.

Hissiyotlarni ifodalashni o'rgatish:

Bolalar o'zini hissiyotlarini to’g’ri ifodalashni o'rganishlari kerak. Kattalar ularga qanday qilib "Men xursandman", "Men g'azablandim", "Men qo'rqaman" kabi sodda va aniq iboralar bilan his-tuyg'ularini bildirishi mumkinligini ko'rsatishlari kerak. Bu bolalarga o'z hissiyotlarini boshqalar bilan o'rtoqlashishda yordam beradi.

Tinglash va tushunish:

Samarali muloqot faqat gapirishni emas, balki tinglashni ham talab qiladi. Kattalar bolalarga tinglashning muhimligini o'rgatishlari kerak. Masalan, "Men seni tinglayapman" yoki "Sening gaplaringni eshitish menga juda qiziqarli" kabi muloyim iboralar bolalarga o'z fikrlarini bildirganida hurmat va e'tibor sezdiradi.

Motivatsiya va rag'batlantirish:

Kattalar bolalarining muloqot qilishga bo'lgan ishtiyoqini rag'batlantirishlari lozim. Ularning har bir ijobiy va aniq muloqoti uchun iliq so'zlar yoki kichik rag'batlar (masalan, "Ajoyib!" yoki "Yaxshi fikr bildirding!") bolalar o'zlarini erkin va o'ziga ishonch bilan ifodalashlariga yordam beradi.

Muloqotda o'rganiladigan qoidalarga rioya qilish:

Kattalar bolalariga muloqotda muhim qoidalarni o'rgatishlari kerak, masalan:

e) Gapirishdan oldin boshqalarni tinglash

f) Hurmat ko'rsatish

g) Fikrlarni muloyim va aniq ifodalash

h) Tushunmovchiliklar bo'lsa, savollar berish

Ijtimoiy o'yinlar va guruh faoliyatlari:

Bolalarga ijtimoiy o'yinlar, guruhli faoliyatlar yoki rolli o'yinlar orqali muloqot ko'nikmalarini o'rganish imkoniyatini yaratish kerak. Bunday o'yinlar bolalarga boshqalar bilan muloqot qilishni, fikrlarni almashishni, birgalikda muammolarni hal qilishni o'rgatadi.

Hikoyalar va kitoblar o'qish:

Kitoblar va hikoyalar orqali bolalar yangi so'zlar va iboralarni o'rganishadi, shuningdek, biror mavzuda fikr bildirishni o'rganadilar. Kattalar bolalar bilan hikoyalarni o'qib, mazmuni bo'yicha savollar berishlari va bolalar o'z fikrlarini aytishsa rag'batlantirishlari mumkin. Kattalarning bolalarga muloqot ko'nikmalarini o'rgatishda eng muhim jihat bu: bolalarga qiziqarli va ochiq muhit yaratish, ular erkin fikr bildirishi va boshqalar bilan samarali muloqot qilishga o'rganishlari uchun imkoniyatlar taqdim etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

14. **Yusufov, N. (2016).** *Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish*. Toshkent: O’zbekiston psixologlar uyushmasi.
15. **Mirzayeva, N. (2017).** *Bolalar psixologiyasida kommunikativ rivojlanish*. Toshkent: Ta'lim va ma'naviyat.
16. **Raxmonov, D. (2018).** *Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik yondashuv*. Toshkent: Ta'lim va rivojlanish.
17. **Jabborov, F. (2012).** *Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish*. Toshkent: Maktab.
18. **Toshpulatova, F. (2013).** *Maktabgacha ta'limda o'quvchilarni kommunikativ ko'nikmalar bilan ta'minlash*. Toshkent: Fan va ta'lim.
19. **Shodiev, S. (2013).** *Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik asoslari*. Toshkent: O’zbek davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
20. **Shuxratov, I. (2018).** *Maktabgacha ta'limda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik metodlari*. Toshkent: O’zbekiston ta'limi.
21. **G'ulomova, S. (2014).** *Bolalar psixologiyasida kommunikatsiya va uning ijtimoiy-psixologik tahlili*. Toshkent: Maktab.
22. **Saidova, Z. (2015).** *Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik ahamiyati*. Toshkent: Fan va ta'lim.
23. **Shamsutdinov, R. (2016).** *Bolalarda til va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga oid yangi yondashuvlar*. Toshkent: O'zbekiston ta'limi.
24. **Mahmudova, D.** (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari. *Nordic Studies in Academic Research*, 3(0003).
25. **Xasanova, Sh. T., & Zufarova, L. T.** (2025). Teatr o’yinlari orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantirish. *Лучшие интеллектуальные исследования*.
26. **Abdurahmonov, O.** (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik zarurati. *Zenodo*. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.

BO‘LAJAK PSIXOLOGLARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti
Murodullayeva Malika Hakimjon qizi
NamDU psixologiya yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasbiy identifikatsiya tushunchasiga oid yondashuvlar tahlili, bo‘lajak psixologlarda kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi, kasbiy identifikatsiyaning namoyon bo‘lishida shaxsiy tajriba-bilim, ko‘nikma va malakalarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy identifikatsiya, psixologik omillar, ijtimoiy omillar, pedagogik omillar, shaxsiy tajriba, kasbiy tayyorgarlik, shaxsiy omillar, psixologik salomatlik.*

Аннотация: *В статье анализируются подходы к понятию профессиональной идентичности, показано значение личного опыта-знаний, умений и квалификации в проявлении профессиональной идентичности, влияющих на развитие профессиональной идентичности у будущих психологов.*

Ключевые слова: *профессиональная идентичность, психологические факторы, социальные факторы, педагогические факторы, личный опыт, профессиональная подготовка, личностные факторы, психологическое здоровье.*

Annotation: *This article analyzes approaches to the concept of professional identity, shows the importance of personal experience-knowledge, skills and qualifications in the manifestation of professional identity, influencing the development of professional identity in future psychologists.*

Keywords: *professional identity, psychological factors, social factors, pedagogical factors, personal experience, professional training, personal factors, psychological health.*

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy munosabatlar tizimi tobora murakkablashib borayotgan bir sharoitda insonning o‘z kasbiy o‘rnini anglash va bu yo‘nalishda ongli ravishda rivojlanishga intilishi dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, kasbiy identifikatsiya jarayoni psixologik, ijtimoiy, madaniy va axloqiy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxsning o‘z kasbiga bo‘lgan munosabati, qiziqishi, motivatsiyasi va o‘zini shu kasb doirasida tasavvur qila olish qobilyatlarini o‘z ichiga oladi. Yoshlarni kasbga yo‘naltirish, kelajakda yetuk mutahasis bo‘lib yetishishlari, bilm olishlari uchun qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlarga ta’lim, ilm-fan, kasbiy o‘sish va ijtimoiy muhitni yaxshilash bo‘yicha yangi konsepsiyani ishlab chiqish zarurligini ta’kidlab ularning psixologik holatini yaxshilash, ruhiy barqarorligini ta’minlash va kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha yordam ko‘rsatish zarurligi haqida gapirib: “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, yangi kasblar bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, psixologik salomatlikni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoqda” deb ko‘rsatib o’tganlar.

Kasbiy identifikatsiya mutaxassis shaxsining shakllanishdagi muhim mezonlaridan biri hisoblanib, kasbiy taraqqiyoti, kasbiy o‘zini o‘zi anglash va aniqlash kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liqdir. Kasbiy identifikatsiya bu kasbiy guruh va faoliyatni obyektiv birligi sifatida hamda bunday tuzilmani buzilishi, ya’ni qaytar jarayon begonalikni keltirib chiqaradi. Kasbiy identifikatsiya bu kasbiy

guruhni obektiv va subektiv birligi bo‘lib, shaxsning kasbiy tavsifini, me’yor, rol, status kabilarni o‘zida jamlanishidir.

Kasbiy identifikatsiya, shaxsning o‘zini ma’lum bir kasbga yoki professionallikka nisbatan qanday qabul qilishi va shu kasbga oid ro‘llarni o‘zida qanday aks ettirishi jarayonidir. Bu jarayonning rivojlanishi va shakllanishi ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarga bog‘liq bo‘lib, har bir fan sohasi o‘zining yondashuvini taklif etadi.

Kasbiy identifikatsiya masalasi bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud. Ularning eng asosiysi quyidagi asosiy yondashuvlarni tashkil etadi:

Bo‘lajak psixologlarda kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishi ko‘plab ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi. Ular quyidagilar:

Psixologik omillar: shaxsiy qiziqishlar, kasbiy motivatsiya, o‘ziga bo‘lgan ishonch, ijtimoiy tajriba, shaxsiy ehtiyoj va ideal obrazlarning mavjudligi.

Kasbiy identifikatsiya-bu shaxsning o‘zini muayyan kasb bilan bog‘lash jarayoni bo‘lib, uning ichki motivatsiyasi, kasbiy qadriyatlari va o‘zini kasb sohasida tasavvur qilish qobilyatini qamrab oladi. Bo‘lajak psixologlarning kasbiy identifikatsiyasi shakllanish jarayoniga ko‘plab psixologik omillar ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsning kasbiy identifikatsiyasini belgilaydigan asosiy psixologik omillardan biri bu ichki qiziqish va kasbiy motivatsiyadir. Psixologiyani tanlagan talabaning inson psixikasi va xulq-atvoriga qiziqishi; boshqalarga yordam berishga intilishi, o‘zini o‘zlashtirish va o‘rganishga tayyorligi, kasbiy maqsad va istaklarning aniq-ravshanligi kasbiy identifikatsiya darajasini oshiradi.

Shaxsning o‘zini kim deb bilishi kasbiy identifikatsiyaning markaziy tarkibiy qismi hisoblanadi. Erikson ta’kidlaganidek, o‘smirlik va erta kattalik davrida o‘zlik identifikatsiyasi shakllanganda shaxs kasbiy rolini o‘zlashtiradi. Shaxs o‘z qobilyatlarini real baholay olishi, o‘z kuchsiz va kuchli jihatlarini anglay olishi, shaxsiy qadriyatlari va kasbiy qiziqishlarini uyg‘unlashtira olishi zarur.

Ijtimoiy omillar: oila va do‘stlarning kasbga bo‘lgan munosabati, ijtimoiy qo‘llab quvvatlashi, ommaviy axborot vositalar va mehnat bozori holati, oila va ota-onaning ta’siri. Oila-shaxs rivojlanishidagi birinchi va eng muhim ijtimoiy muhitdir. Bo‘lajak psixologlarda kasbiy identifikatsiyani rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillardan biri bu-ota-onaning kasbga bo‘lgan munosabati, kasbiy qadriyatlarni singdirish darajasi, kasbiy rol modellari ya’ni ota-ona yoki qarindoshlarning aynan shu kasbni egallaganligi, ota-onaning qo‘llab quvvatlashi va motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liq.

Maktab, kollej va universitet-shaxs kasbiy yo‘nalishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning ta’siri quyidagicha:

O‘qituvchi va murabbiylar-kasbiy rol modeli bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim mazmuni va sifati-kasbiy bilm va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Kasbiy yo‘naltirish xizmatlari-talabani o‘ziga mos kasb tanlashga yordam beradi.

Kasbiy identifikatsiya- talabaning o‘z bilm va ko‘nikmalarini kasbda qanday qo‘llashini tasavvur qilish qobilyatiga bog‘liq.

Bundan tashqari tengdoshlar va do‘stlar guruhining ta’siri ham muhim ahamiyatga ega. Bunda do‘tlarining kasbiy qiziqishlarini kuzatadi, aynan do‘sti shu kasbni tanlagani uchun tanlaydi kasbni, bir-biridan o‘rnak oladi, o‘zaro raqobat va hamkorlik orqali kasbiy motivatsiyasini oshiradilar.

Kasbiy identifikatsiyaga madaniy qadriyatlar, kasblarning ijtimoiy maqomi va jamiyatning kasblarga nisbatan sterotiplari ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan: qaysi kasblar jamiyatda obro‘li sanaladi, qaysi kasblar iqtisodiy jihatdan manfaatli hisoblanadi, jamiyatda psixolog kasbining qanchalik etirof etilgani.

Pedagogik omillar: oliy ta’lim muassalarida ta’lim berish sifati, kasbiy tayyorgarlik darajasi, amaliyotlar samaradorligi, trenerlar va ustozlarning kasbga bo‘lgan shaxsiy yondashuvlari kasbiy identifikatsiyani rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Pedagogik metodlar, o‘quv dasturlari va uslublari bo‘lajak psixologlarning kasbiy identifikatsiyasiga bevosita ta’sir qiladi. O‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan interaktiv metodlar (masalan, guruh ishlari, muammoli vazifalar, rol o‘ynashlar) o‘z-o‘zini anglash va kasbiy roldagi shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bo‘lajak psixologlar o‘z kasbiy roli haqida ko‘proq tasavvurga ega bo‘lishadi, agar o‘qituvchi o‘zlarining kasbiy tajribasini talabalarga etkaza olsa. Talaba-o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar ham kasbiy identifikatsiyaga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining o‘rnak bo‘lishi, uning kasbiy qadr-qimmati, o‘zini tutish tarzini talaba ko‘rib, o‘zini shu yo‘nalishda rivojlantiradi. Shuningdek, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ochiq muloqot va ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar bo‘lajak psixologning kasbiy identifikatsiyasini shakllantiradi.

Psixologiyada kasbiy identifikatsiyaning shakllanishi ko‘p jihatdan shaxsiy tajriba va o‘z-o‘zini anglashga bog‘liq. Talaba o‘zi o‘qiyotgan fanlarni nafaqat ilmiy, balki psixologik nuqtai nazardan ham tahlil qilishi, uning kasbiy rolini qabul qilishda yordam beradi. O‘quv jarayonida olingan bilimlar va psixologik texnikalarni amaliyotda qo‘llash orqali, talaba o‘zining kelajakdagi psixolog sifatida qaysi yo‘nalishda faoliyat yuritishini anglab yetadi. Pedagogik jarayon ijtimoiy va madaniy kontekstga ham aloqador bo‘lishi kerak. Bo‘lajak psixologning kasbiy identifikatsiyasi ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va kasbiy etika qoidalariga mos kelishi kerak. Jamiyatda psixologiyaning roli va uning ijtimoiy ahamiyati haqida o‘quvchilarni ma’lum bir nuqtai nazarga yo‘naltirish, kasbiy ehtiyoj va talablarga javob beradigan pedagogik muhit yaratishga imkon beradi. Amaliy mashg‘ulotlar, o‘quv jarayonida mentorlik qilish, talabalarga o‘z kasbiy yo‘nalishlarini aniqlashda yordam beradi.

Psixologiyada, ayniqsa, amaliy tajriba va shaxsiy o‘zgarishlarni o‘rganish juda muhimdir. Mentorlik orqali talaba o‘zining kasbiy rolini aniqroq tushunadi va shu orqali kasbiy identifikatsiyasi yanada mustahkamlanadi. Motivatsiya kasbiy identifikatsiyaning shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Bo‘lajak psixologlarning o‘z kasbiy yo‘nalishlarini tanlashiga pedagogik muhit, o‘qituvchilar va guruhdagi boshqa talabalar o‘rtasidagi ijtimoiy ta’sirlar katta rol o‘ynaydi. Agar o‘quvchilar bir-birini qo‘llab-quvvatlasa, umumiy motivatsiya oshadi va bu, albatta, kasbiy identifikatsiyaga yordam beradi. Kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishida refleksiya

va o‘z-o‘zini baholash juda muhim. Talaba o‘zini kasbiy nuqtai nazardan baholash, kasbiy yo‘nalishlarini ko‘rish va tan olish orqali o‘zining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi. Pedagogik muhitda o‘z-o‘zini tahlil qilishga undovchi metodlar bo‘lajak psixologlar uchun muhim ahamiyatga ega.Bo‘lajak psixologlarda kasbiy identifikatsiya rivojlanishiga ta’sir etuvchi pedagogik omillar juda ko‘p jihatdan o‘quv jarayonining sifatiga, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarga, ijtimoiy kontekstga va amaliyotga bog‘liqdir. Shuning uchun, psixologiyani o‘rganayotgan talabalar uchun ta’lim jarayonini faol, amaliy, ijtimoiy va reflektiv yondashuvlar asosida qurish zarur. Bu yondashuvlar, shubhasiz, ularning kasbiy identifikatsiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxsning o‘z kasbiy roli haqida olib borgan ichki muloqoti. Psixologiya sohasida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy identifikatsiyaning shakllanishi ularning psixologik yetukligi, o‘z-o‘zini anglash darajasi, empatiya va kommunikativ qobilyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki bu kasb doimo inson ruhiyatini anglash, unga ta’sir ko‘rsatish va ehtimoliy muammolarni hal etishga qaratilgan. Shu sababli bo‘lajak psixologlarda kasbiy identifikatsiya rivojlanishini chuqur tahlil qilish, uni o‘stirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar va metodlarni aniqlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

1. Shaxsiy omillar. Shaxsning psixologiya faniga va inson tabiatiga qiziqishi kasbiy identifikatsiyaning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi (Super, 1990). O‘zining kuchli va zaif jihatlarini anglay olish, shaxsiy maqsad va qadriyatlarning aniqligi kasbiy identifikatsiyaning mustahkamlashiga yordam beradi (Erikson, 1968). Mas’uliyatlilik, mustaqillik, empatiya va kommunikativlik kabi sifatlar psixolog kasbiga moslashishni osonlashtiradi (Savickas, 2005).

2. Ijtimoiy omillar. Oila a’zolarining kasbiy tanlovga munosabati va qo‘llab-quvvatlashi (Holland, 1997), do‘stlar va jamoadoshlarning ta’siri (Bronfenbrenner, 1979) hamda ustozlar va tajribali psixologlarning namunasi (Bandura, 1986) talabalar uchun identifikatsiya obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari kasbiy tanlov va unga sadoqatni mustahkamlaydi.

3. Ta’lim va professional tayyorgarlik omillari. Psixologiya yo‘nalishidagi o‘quv dasturining mazmuni va metodlari talabalar kasbiy qarashlari va o‘zini kasbda ko‘rishini shakllantirishga xizmat qiladi (Schon, 1983). Amaliyot va stajirovka jarayonida real psixologik faoliyatda ishtirok etish kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi (Kolb, 1984). Tajribali ustozlarning maslahat va ko‘rsatmalari kasbiy o‘sish va o‘zini kasbda tasdiqlashga yordam beradi.

4. Madaniy va makro-ijtimoiy omillar. Jamiyatda psixolog kasbining ijtimoiy maqomi va qadriyatlar tizimidagi o‘rni kasbiy identifikatsiyaning shakllanishiga ta’sir etadi (Parsons, 1951). Kasbga bo‘lgan talab va bo‘sh ish o‘rinlari soni kasbiy tanlov va unga sadoqat darajasini belgilaydi (Super, 1990). Milliy madaniyat va kasblarga bo‘lgan an’anaviy qarashlar ham kasbiy identifikatsiyaning yo‘nalishini belgilab beradi (Hofstede, 2001).

5. Psixologik salomatlik va emotsional omillar. Psixologiya sohasida ishlashda yuqori emotsional yuklama bo‘lishi sababli, emotsional intellekt va stressga bardoshlilik kasbiy identifikatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi (Goleman, 1995).

Agar shaxs o‘zining kasbini yetarlicha qabul qilmagan bo‘lsa yoki motivatsiyasi pasaysa, kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishi to‘xtab qolishi mumkin (Maslach va Leiter, 1997).

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak psixologlarda kasbiy identifikatsiyaning shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, shaxsiy, ijtimoiy, ta’limiy, madaniy va psixologik omillar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ushbu omillarni chuqur o‘rganish va hisobga olish professional tayyorgarlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Курбанова З.Б. Касбий аутоидентификация шаклланишининг босқичлари "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020 175-179б
2.Шнейдер Л.Б.. Профессиональная идентичность: Структура, генезис и условия становления. — 2001.
3.Эриксон, Э. Идентичность: юность и кризис / Э. Эриксон. - М., Флинта, 2006. - 342 с.
4.Ҳайдаров Ф.Халилова Н. Касб психологияси Т.2010

ZAMONAVIY OILADA BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

Bekchanov Xusainboy Karimberganovich
UrDU Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti PhD
+998-88-856-83-83 xbekchanov3@gmail.com
Ko’shakova Barno Komilovna
Urganch Ranch Texnologiya Universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistri
+998 94 236 20 05 barnokoshakova4@gmail.com

Annotatsiya:*Ushbu maqolada oilaviy zo‘ravonlik tushunchasining nazariy asoslari, uning turlari va oqibatlari o‘rganiladi. Bolalar zo‘ravonligining psixologik va ijtimoiy jihatlariga, shuningdek, uning shaxs rivojlanishiga ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi. Oilaviy zo‘ravonlikka sabab bo‘luvchi omillar va uni oldini olish yo‘llari tahlil qilinadi. Zo‘ravonlik holatlarini aniqlash usullari hamda bolalarni himoya qilish choralari ko‘rib chiqiladi. Profilaktika va oilaviy qo‘llab-quvvatlash muhimligi ta’kidlanadi. Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish uchun ta’lim va huquqiy chora-tadbirlarni joriy etish zarurati asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *oila, bolalar, zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, psixologik ta’sir, ijtimoiy muammo, shaxs rivojlanishi, huquqiy chora-tadbirlar, profilaktika, bolalarni himoya qilish, zo‘ravonlik turlari, tarbiya, ota-ona mas’uliyati, pedagogik yondashuv, psixologik yordam*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические основы понятия насилия в семье, его виды и последствия. Особое внимание уделяется психологическим и социальным аспектам детского насилия, а также его влиянию на развитие личности. Анализируются факторы, способствующие семейному насилию, и возможные пути его предотвращения. Рассматриваются методы выявления случаев насилия и меры защиты детей. Подчеркивается важность профилактики и поддержки семей. Обосновывается необходимость внедрения образовательных и правовых мер для борьбы с насилием в семье.*

Ключевые слова: *семья, дети, насилие, домашнее насилие, психологическое воздействие, социальная проблема, развитие личности, правовые меры, профилактика, защита детей, виды насилия, воспитание, ответственность родителей, педагогический подход, психологическая помощь*

Annotation: *The modern family plays a crucial role in shaping a child's personality, yet the issue of violence against children remains relevant. This article explores the theoretical*

foundations of domestic violence, its types, and consequences. Special attention is given to the psychological and social aspects of child abuse and its impact on personality development. The factors contributing to family violence and possible prevention measures are analyzed. Methods for identifying cases of violence and child protection measures are examined. The importance of prevention and family support is emphasized. The necessity of implementing educational and legal measures to combat domestic violence is substantiated.

Keywords: *family, children, violence, domestic violence, psychological impact, social problem, personality development, legal measures, prevention, child protection, types of violence, upbringing, parental responsibility, pedagogical approach, psychological support*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda oilaning ahamiyati ortib bormoqda, chunki u bolalarning shaxsiyati va ijtimoiy moslashuvining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Biroq, oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Zo‘ravonlikning turli shakllari – jismoniy, ruhiy, emotsional va iqtisodiy – bolalarning ruhiy holati va kelajakdagi hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy zo‘ravonlikka duch kelgan bolalar stress, depressiya va o‘ziga ishonchsizlik kabi muammolarga moyil bo‘ladilar. Bu esa ularning ta’lim jarayoni, ijtimoiy munosabatlari va kasbiy faoliyatida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va uning oqibatlarini kamaytirish jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Bu borada huquqiy, pedagogik va psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda bolalarga psixologik yordam ko‘rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali bu muammoni hal etish mumkin. Jamiyatda ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislarning bolalar bilan munosabatlarini yaxshilash, ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyatni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasining nazariy asoslarini o‘rganish jarayonida turli ilmiy manbalar, xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilik tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlarda zo‘ravonlik tushunchasi psixologik, sotsiologik va huquqiy nuqtai nazardan o‘rganilgan bo‘lib, ularning har biri mazkur masalaga o‘ziga xos yondashuvni taklif etadi. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy ta’lim nazariyasi zo‘ravonlikning o‘rganilgan xulq-atvor ekanligini ta’kidlaydi, ya’ni bola oilada kuzatgan agressiyani o‘z hayotida takrorlash ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bowlbyning bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan zo‘ravonlik bolaning ishonch tizimiga jiddiy zarar yetkazib, uning kelajakdagi munosabatlarida muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Sotsiologik yondashuvda oiladagi zo‘ravonlik ijtimoiy muhit, iqtisodiy sharoit va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq holda tushuntiriladi. Straus va Gelles tomonidan olib borilgan tadqiqotlar oilaviy zo‘ravonlikning keng tarqalganligini hamda uning ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, oilaviy munosabatlar dinamikasiga doir tadqiqotlar oilaviy stress, nizolar va nazorat mexanizmlarining zo‘ravonlikka qanday ta’sir qilishini ochib beradi. Huquqiy manbalar bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish borasida qabul qilingan xalqaro va milliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahliliga asoslanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha asosiy xalqaro hujjatlardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va UNICEF tomonidan e’lon qilingan hisobotlar bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning global ko‘lamini ochib beradi va profilaktika strategiyalarini tavsiya qiladi. O‘zbekiston Respublikasida bolalarni himoya qilish bo‘yicha milliy qonunchilik doirasida "Bola huquqlari to‘g‘risida"gi Qonun va Oila kodeksi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu huquqiy hujjatlar bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish, jabrlangan bolalarni reabilitatsiya qilish va ularni himoya qilish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Amaliy tadqiqotlarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning real hayotdagi ko‘rinishlari va uning oqibatlari batafsil o‘rganilgan. Finkelhor bolalar jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikka uchraganda yuzaga keladigan psixologik va ijtimoiy oqibatlarni tahlil qilib, bunday tajribalar bolaning butun hayotiga ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Garbarino esa bolalar va oilalar ijtimoiy muhitining ularning rivojlanishiga ta’sirini o‘rganib, bolalar himoyasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar bergan. Kempe tomonidan olib borilgan izlanishlar esa "Bola kaltaklash sindromi" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, tibbiyot va huquq-tartibot organlarining oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashishdagi rolini ta’kidlagan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik masalasiga turli ilmiy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri muammoning turli jihatlarini ochib beradi.

Psixologik tadqiqotlar zo‘ravonlikning shaxs rivojlanishiga ta’sirini tushuntiradi, sotsiologik yondashuv ijtimoiy va iqtisodiy omillarni tahlil qiladi, huquqiy tadqiqotlar esa bolalarni himoya qilish bo‘yicha qonuniy mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Shu bois, mazkur mavzuni kompleks o‘rganish uchun turli fanlar doirasidagi adabiyotlardan foydalanish muhim sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan ilmiy usullar, yondashuvlar va tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasining nazariy asoslarini o‘rganish, uning turli shakllari va ta’sir omillarini aniqlash, shuningdek, profilaktika va himoya choralari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. va normativ hujjatlari tahlil qilindi. Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda kompleks yondashuv qo‘llanilib, sifat va miqdoriy tadqiqot usullari uyg‘unlashtirildi. Tadqiqotning nazariy usullari doirasida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik fenomeni turli ilmiy nuqtai nazarlardan o‘rganildi. Ilmiy adabiyotlar va ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish orqali mavjud yondashuvlar hamda tushunchalarning ta’rifi ishlab chiqildi. Zo‘ravonlikning psixologik, pedagogik va huquqiy jihatlari bo‘yicha ilgari nashr etilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o‘rganildi.

Miqdoriy tadqiqot usullari doirasida statistik tahlil va so‘rovnomalar orqali bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning tarqalishi, uning asosiy sabablari va oqibatlari o‘rganildi. Jamiyatdagi turli qatlamlar vakillari – ota-onalar, o‘qituvchilar, psixologlar va huquq-tartibot organlari xodimlari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Olingan natijalar asosida muammo miqyosi va uning mintaqaviy xususiyatlari aniqlab berildi. Sifat tadqiqot usullari doirasida bolalar bilan individual suhbatlar,

psixologik testlar va tajribalar o‘tkazildi. Tadqiqot davomida oilaviy zo‘ravonlikning ta’siri individual va ijtimoiy darajada qanday namoyon bo‘lishi, uni bartaraf etishning samarali yo‘llari aniqlab berildi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy oilalarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jismoniy, psixologik, emotsional va iqtisodiy zo‘ravonlikning bolalar ruhiyati va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’siri aniqlangan. Tadqiqot davomida respondentlarning aksariyati oilaviy zo‘ravonlik holatlarini kuzatgan yoki shaxsiy tajribasida boshidan kechirganligi qayd etildi. Oilaviy muhitdagi ziddiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar va ota-onalarning tarbiya uslublaridagi kamchiliklar ushbu muammoga sabab bo‘luvchi asosiy omillar sifatida belgilandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va bolalarning huquqlarini himoya qilish uchun huquqiy, psixologik va ijtimoiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alekseeva I.A. Travlya v shkole: prichiny, posledstviya, pomoщь / I.A. Alekseeva. - [Elektronnыy resurs]. - URL: http://psy.su/feed/2510/ (data obraщeniya 05.05.2019).
2. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o’rganishning o ‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.
3. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O’smirlar o’rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o’ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.
4. Nishonova M.Ya., & Kamolova A.O. (2021). O’SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.
5. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. Экономика и социум, (8), 42-45
6. Bannayev, M. S. (2022). O’zbeksitonda psixologik diagnostika va psixologik korreksion faoliyatni amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar. Science and Education, 3(6), 701–703
7. Bannayev, M. S. (2021). O‘zbeksitonda maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etish imkoniyati va muammolari. Science and Education, 2(7), 293–297.
8. Saviya.uz

YOShLARDA YOLG’IZLIK SINDROMI: UNING SABABLARI VA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK PROFILAKTIKA USULLARI

G’aybullayev A’zam Axadovich,
p.f.f.d o‘qituvchi,
Psixologiya kafedrasi
Buxoro davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston

Аннотация: *В данной статье анализируется содержание синдрома одиночества, наблюдаемого у молодых людей, причины его возникновения, педагогические и психологические подходы к профилактике подобных ситуаций. Изучены негативные последствия одиночества, профилактические методы, направленные на его снижение, и их эффективность.*

Ключевые слова: *одиночество, молодежь, психологическое здоровье, профилактика, социальная адаптация, педагогическое воздействие.*

Abstract: *This article analyzes the content of the loneliness syndrome observed in young people, the reasons for its occurrence, pedagogical and psychological approaches to the prevention of such situations. The negative consequences of loneliness, preventive methods aimed at reducing it, and their effectiveness are studied.*

Key words: *loneliness, youth, psychological health, prevention, social adaptation, pedagogical influence.*

Annotatsiya:*Mazkur maqolada yoshlarda kuzatiladigan yolg'izlik sindromining mazmuni, uning paydo bo'lish sabablari va bunday holatlarning oldini olishdagi pedagogik va psixologik yondashuvlar tahlil qilingan. Yolg'izlikning salbiy ta'sirlari, uni kamaytirishga qaratilgan profilaktika usullari va ularning samaradorligi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar:*yolg'izlik, yoshlar, psixologik salomatlik, profilaktika, ijtimoiy adaptatsiya, pedagogik ta'sir.*

Kirish: Bugungi kunda yoshlar o'rtasidagi yolg'izlik muammosi dunyo miqyosida dolzarb masala sifatida baholanmoqda. Zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning ommaviylashuvi va shaxsiy munosabatlarning susayishi kabi omillar yoshlarning emotsional va ijtimoiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yolg'izlik sindromi – bu faqatgina yakkalik emas, balki shaxsning psixologik muhiti bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab holatdir.


Tadqiqot maqsadi: Maqola yoshlar o'rtasidagi yolg'izlik sindromining sabablarini aniqlash, uni kamaytirishga qaratilgan pedagogik va psixologik profilaktika usullarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotni tashkil qilish va uslublari: Tadqiqotda kontent tahlil, so'rovnoma usuli va psixologik testlardan foydalanildi. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan anonim so'rovlar orqali yolg'izlik darajalari o'lchandi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy manbalar asosida yolg'izlikning psixo-sotsiologik sabablari tahlil qilindi. Tadqiqotda miqdoriy va sifat jihatlarini qamrab olgan aralash tadqiqot usulidan foydalanildi. Birinchidan, yoshlar o'rtasidagi yolg'izlik darajasini aniqlash maqsadida anonim so'rovnoma shaklida empirik ma'lumotlar to'plandi. Ikkinchidan, olingan natijalar asosida psixologik tahlil va tavsiyalar ishlab chiqildi.

So'rovnoma 18-25 yosh oralig'idagi 100 nafar Buxoro davlat pedagogika instituti talabalar o'rtasida oflayn formatda o'tkazildi. Ishtirokchilar o'z xohishiga binoan so'rovda qatnashishdi va ularning shaxsiy ma'lumotlari yozib olinmadi. So'rovnoma 10 ta savoldan iborat bo'lib, ular "Likert shkalasi" asosida baholandi (masalan: "butunlay roziman", "qisman roziman", "noroziman" va h.k.).

Bundan tashqari, "UCLA Loneliness Scale" (3-versiyasi) asosida lokallashtirilgan adaptatsiya qilingan test ham qo'llanildi (Russell, 1996). Sifat jihatidan esa, ishtirokchilar bilan yarim tuzilgan intervьyular o'tkazilib, yolg'izlikka olib kelayotgan shaxsiy va ijtimoiy omillar haqida fikrlar yig'ildi.

1-жадвал



Tadqiqot natijalari va muhokamasi: So’rovnoma natijalariga ko’ra, ishtirok etgan yoshlarning 62% i o’zini vaqt-vaqti bilan yolg’iz his qilishini bildirgan. Asosiy sabablar sifatida do’stlar bilan munosabatlardagi muammolar, ijtimoiy tarmoqlarga bog’liqlik, ota-ona bilan emotsional uzilish, akademik bosim va kelajakka bo’lgan ishonchsizlik qayd etildi. Yolg’izlikni kamaytirish uchun guruhli psixoterapiya, ijtimoiy-faol treninglar va emotsional qo’llab-quvvatlash dasturlari taklif qilindi. Tadqiqot davomida 100 nafar 18–25 yoshdagi talabalar o’rtasida anonim so’rovnoma o’tkazildi. Ularning 54 nafari ayol, 46 nafari esa erkak bo’lib, talabalar turli fakul’tet va kurslardan tanlab olindi. Tadqiqot natijalari yoshlar o’rtasida yolg’izlik darajasi juda muhim ijtimoiy-ruhiy muammo ekanligini ko’rsatdi.

Tadqiqot natijalarida quyidagi asosiy tendentsiyalar kuzatildi:

•Ishtirokchilarning 62% yolg’izlikni tez-tez his qilishlarini ma’lum qilgan.

•70% yoshlar faqat birta yoki ikki nafar yaqin do’stga egaligini bildirgan.

•55% ishtirokchi kuniga 3 soatdan ortiq ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o’tkazishini bildirgan.

•Ota-ona bilan munosabatlarda 60% normal yoki sovuq munosabatlar mavjudligini ta’kidlagan.

•Yolg’iz qolganda 45% yoshlar ijtimoiy tarmoqqa murojaat qilishini aytgan.

•Talabalarning 75% psixologik guruhli faoliyatlarni yolg’izlikni kamaytirish vositasi sifatida ko’rsatgan.

•80% talabalar yolg’izlikni yoshlar o’rtasidagi asosiy muammolardan biri deb hisoblagan.

Olingan natijalardan ko’rinishicha, yoshlar o’rtasida yolg’izlik muammosi juda keng tarqalgan. Bu muammo ko’p hollarda ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqalarni afzal ko’rish, real hayotdagi munosabatlarning sustligi va oilaviy empatiya yetishmasligi bilan bog’liq.Bundan tashqari, yolg’izlikning sabablaridan biri sifatida ta’lim jarayonidagi individuallashgan yondashuvning kamligi, shaxsiy ehtiyojlarga yetarlicha e’tibor berilmasligi ham qayd etildi. Yoshlar o’rtasida guruhli faoliyatlarga qiziqish yuqori, bu esa profilaktik tadbirlarni tashkil qilishda muhim omil hisoblanadi.

Natijalarni "UCLA Loneliness Scale" (Russell, 1996) bilan taqqoslaganda ham, emotsional aloqalarning yetishmasligi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Jahon olimlarining tadqiqotlari (Perlman & Peplau, 1981; Hawkley & Cacioppo, 2010) ham bu xulosalarni o'z ilmiy qarashlarida keltirib o'tgan.

Xulosa: Yoshlarda yolg'izlik sindromi keng tarqalgan va uning ijtimoiy hamda shaxsiy rivojlanishga ta'siri jiddiy hisoblanadi. Profilaktika choralari sifatida ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlarni kuchaytirish, talabalarni ijtimoiy faol faoliyatlarga jalb etish va ota-onalar bilan muloqot madaniyatini oshirish lozim.

Yoshlar o'rtasida yolg'izlik sindromining keng tarqalishi bugungi kunning muhim psixologik va ijtimoiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning ko'pchiligi o'zini yolg'iz his qiladi, bu holat ularning shaxsiy munosabatlarida, ta'lim jarayonida va ichki ruhiy holatida aks etadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy omillardan biri — shaxsiy va ijtimoiy aloqalarning yetishmasligi, oilaviy munosabatlardagi xunuklik va ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazish oqibatida real hayotdagi muloqot imkoniyatlarining kamayib ketishidir. Bu esa yoshlarning ijtimoiy izolyatsiyasiga, ruhiy bo'shliq va ma'naviy tushkunlik holatlariga olib kelmoqda.

Shuningdek, yolg'izlik faqatgina ruhiy muammo emas, balki shaxsning shaxsiy rivojlanishi, motivatsiyasi va ijtimoiy faolligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Yolg'izlik holatida bo'lgan yoshlarda o'zini kam baholash, xavotir, stress va hatto depressiya kabi holatlar kuzatilishi mumkin.

Mavjud muammoni bartaraf etishda kompleks yondashuv talab etiladi. Jumladan:

•Oilada emotsional aloqalarni mustahkamlash;

•Ta'lim muassasalarida guruhli ish usullari, treninglar va psixokorrektsion dasturlar joriy etish;

•Psixologik xizmatlarni yanada faollashtirish va individual yordam ko'rsatishni ta'minlash;

•Yoshlarni ijtimoiy faol faoliyatlarga jalb etish muhim omil bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, yolg'izlikka qarshi profilaktik chora-tadbirlar tizimli va uzluksiz bo'lishi lozim. Bu borada ta'lim, oila va jamiyatning hamkorlikdagi faolligi katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy asoslangan yondashuv va amaliy choralar yoshlarning psixologik salomatligini saqlashda muhim omil bo'ladi.

Yolg'izlikni kamaytirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarda ta'lim muassasalari, psixologik xizmatlar va oila institutlarining o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonida talabalarni guruhli ish usullari orqali faol ijtimoiylashtirish, interpersonal salohiyatni rivojlantirish va emotsional intellektini oshirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, yolg'izlikka moyillikni erta aniqlash va korrektsion psixoprofilaktika tadbirlarini amaliyotga joriy etish orqali kelgusidagi ruhiy salomatlik muammolarining oldini olish mumkin. Tadqiqotdan chiqarilgan xulosalarni hisobga olgan holda, yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar, jumladan,

pedagoglar, psixologlar va ijtimoiy xodimlar uchun maxsus treninglar, dialog maydonlari va seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Cacioppo, J. T., & Patrick, W. (2008). *Loneliness: Human nature and the need for social connection*. W. W. Norton & Company.
2. Perlman, D., & Peplau, L. A. (1981). Toward a social psychology of loneliness. *Personal Relationships*, 3, 31-56.
3. Weiss, R. S. (1973). *Loneliness: The experience of emotional and social isolation*. MIT Press.
4. Heinrich, L. M., & Gullone, E. (2006). The clinical significance of loneliness: A literature review. *Clinical Psychology Review*, 26(6), 695–718.
5. Hawkley, L. C., & Cacioppo, J. T. (2010). Loneliness matters: A theoretical and empirical review. *Current Directions in Psychological Science*, 19(2), 77–82.
6. Russell, D. W. (1996). UCLA Loneliness Scale (Version 3): Reliability, validity, and factor structure. *Journal of Personality Assessment*, 66(1), 20–40.
7. Mo'minova, M. (2021). Yoshlarda psixologik salomatlik va uni shakllantirish omillari. *O'zPU Ilmiy axboroti*, №2.
8. Karimova, D. (2022). Yoshlarda yolg'izlik muammosining ijtimoiy psixologiyasi. *Psixologiya va hayot*, №3.
9. World Health Organization (2021). Mental health and youth. https://www.who.int/
10. Twenge, J. M. (2017). *iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy*. Atria Books.

ZAMONAVIY MEHNAT MUHITIDA MOTIVATSIYANING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Rustamova Turdixon Ne'matjonovna
Namangan davlat universiteti
psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi**,**
Jumaboyeva Munira Ulug'bek qizi
Psixologya yo'nalishi talabasi

Anontatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy mehnat muhitida motivatsiyaning psixologik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Motivatsiya-insonning ma'lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to'xtatishiga sabab bo'luvchi ichki va tashqi omillar yig'indisidir Maqolada motivatsiyaning psixologik asoslari, jumladan, Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi asosida insonning fiziologik, xavfsizlik, ijtimoiy va o'zini anglash ehtiyojlari mehnat motivatsiyasini shakllantirishda qanday rol o'ynashi tahlil qilinadi*

Kalit so'zlar: *Ehtiyoj, motiv, motivatsiya, iroda, muloqot*

Аннотация: *Статья посвящена изучению психологических основ мотивации в современной трудовой среде. Мотивация — это совокупность внутренних и внешних факторов, которые заставляют человека инициировать, продолжать или прекращать поведение в определенное время. В статье анализируются психологические основы мотивации, в том числе роль физиологических, потребностей в безопасности, социальных и потребностей в самореализации человека в формировании трудовой мотивации, на основе теории иерархии потребностей Маслоу.*

Ключевые слова: *Потребность, мотив, мотивация, воля, коммуникация*

Annotation: *This article is devoted to the study of the psychological foundations of motivation in the modern work environment. Motivation is a set of internal and external factors that cause a person to initiate, continue or stop behavior at a certain time. The article analyzes the psychological foundations of motivation, including the role of human physiological, safety,*

social and self-realization needs in the formation of work motivation, based on Maslow's theory of the hierarchy of needs.

Keywords: *Need, motive, motivation, will, communication*

Bugungi globalizatsiya jarayonida mehnat muhitida talab va taklif yuzasidan turli jabhalarda keskin raqobat yuzaga kelmoqda. Ushbu raqobatga bardoshli bo'lish uchun shaxsdan kuchli iroda, yuqori malaka, samarali muloqot qobiliyati hamda muhitga tez moslashish qobiliyati talab etiladi. Zamonaviy mehnat sharoitida motivatsiya xodimlarning nafaqat ish samaradorligini oshirish, balki ularning ruhiy barqarorligini ta'minlashda ham asosiy omil hisoblanadi. Mehnat muhitining doimiy o'zgarishi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi xodimlarning ishga bo'lgan munosabatini va motivatsiyasini tubdan o'zgartirmoqda. Shu sababli, tashkilotlar samarali ishlash uchun xodimlarning ichki va tashqi motivatsiya omillarini chuqur tushunish va ularga moslashish zaruratini his qilmoqda. Motivatsiya faqatgina moddiy rag'batlardan iborat emas, balki shaxsiy o'sish, hurmat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi psixologik ehtiyojlarni ham qondirishni talab qiladi. Zamonaviy mehnat muhitida motivatsiyani shakllantirish va qo'llab-quvvatlashda samarali muloqotning o'rni katta. Muloqot orqali rahbarlar va xodimlar o'rtasida ishonchli munosabatlar yaratiladi, bu esa ish jarayonida yuzaga keladigan stress va nizolarni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, samarali muloqot xodimlarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga, yangi g'oyalar va takliflarni bildirishiga imkon yaratadi. Bu esa ularning ishga bo'lgan qiziqishini va mas'uliyatini oshiradi, motivatsiyani yanada mustahkamlaydi.

Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi asosida, insonning asosiy ehtiyojlari qondirilgach, u yuqori darajadagi o'zini anglash va ijodiy faoliyatga intiladi. Shu bois, tashkilotlar xodimlarning nafaqat moddiy, balki ma'naviy ehtiyojlarini ham qondirishga e'tibor qaratishi lozim. Bu esa ish joyida ijobiy muhit yaratish, xodimlarni rag'batlantirish va ularning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. O'z nazariyasida A.Maslou ehtiyojlarning quyidagi ierarxik qatorini ajratadi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj, muhabbat va boshqalar bilan bog'liq bo'lish ehtiyoji, hurmatga bo'lgan ehtiyoj, insonning o'z yashirin imkoniyatlarini to'laro namoyon etish va ro'yobga chiqarish ehtiyoji va boshqalarni kiritadi. A.Maslou fikricha, muayyan ehtiyojning qondirilishi uchun avval ierarxik qatorda undan oldingi ehtiyoj qondirilgan bo'lishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, A.Maslou konsepsiyasida ierarxiyada yuqori o'rinni egallovchi ehtiyojlar quyi o'rindagi ehtiyojlarga tobedir. A.Maslou konsepsiyasida motivasion jarayonlar boshqaruvida odam ongining ishtiroki, boshqaruvdagi roli e'tiborsiz qoldirilgan. Olim ehtiyojlar ierarxiyasidagi vertikal munosabatlarni tahlil qilib, bir darajada joylashgan ehtiyojlar orasidagi gorizantal munosabatlar esa o'rganilmagan. A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida ehtiyojlarning vertikal-ya'ni yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga qarab tartiblangan-munosabatlari asosiy o'rin tutadi. Biroq, zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ehtiyojlar o'rtasida faqat vertikal emas, balki gorizontal, ya'ni bir darajadagi ehtiyojlar orasida ham murakkab o'zaro ta'sirlar mavjud. Masalan, ijtimoiy ehtiyojlar va hurmatga bo'lgan ehtiyojlar bir-birini

to’ldirishi yoki bir-biriga ta’sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, ba’zan yuqori darajadagi ehtiyojlar (masalan, o‘zini anglash) pastroq darajadagi ehtiyojlar to’liq qondirilmagan bo’lsa ham, insonni harakatga keltirishi mumkin. Chet el olimlarining motivatsiya sohasidagi tadqiqotlari orasida **G.Olportning** motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi alohida o’rin egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformasiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida talqin etiladi. G.Olport o’z konsepsiyasida tizimlarning umumiy nazariyasi g’oyalaridan, ayniqsa, ochiq tizimlar haqidagi g’oyadan keng foydalangan. Olimning fikricha, shunday motivlar borki, ular yarim yopiq tizimlarning tabiatiga monand faoliyat ko’rsatadi va rivojlanadi, ya'ni funksional avtonomiyaga ega. Bir tizimga kiruvchi motivlarni G.Olport reaktiv, tashqi undovga muhtojlik qonunlariga bo’ysunuvchi motivlar, deb ataydi. Ammo G.Olportning ta'kidlashicha, shaxs ochiq tizimlar kabi o’zgaruvchi va rivojlanuvchi motivlar bilan tavsiflanadi, degan fikr haqiqatga yaqinroqdir. Agaravvalgi tizim motivlarning perseverativ funksional avtonomiyasi, deb atalgan bo’lsa, keyingi tizimni G.Olport propriativ funksional avtonomiya, deb ataydi. Ochiq, yopiq va yarim ochiq tizimlar haqida to’xtalar ekan u yopiq tizim modelini shaxs va uning motivatsiyasiga qo’llab bo’lmasligini ta'kidlagandi. Ochiq funksional tizim taraqqiyot uchun zamin hozirlaydi, uni esa undovchi muhtojlik doirasida tushuntirib bo’lmaydi. G.Olport motivlarni ikki turga ajratadi:

Reaktiv motivlar -tashqi undovga muhtoj bo’lib, tashqi omillarga bog’liq motivlar;

Propriativ motivlar -shaxsning ichki dunyosi va o‘zini anglash jarayoniga bog’liq, o‘z-o‘zini boshqaruvchi, rivojlanuvchi motivlar.

Olim ta’kidlaganidek, shaxs ochiq tizimga o‘xshab o’zgaruvchi va rivojlanuvchi motivlarga ega bo’lib, bu tizim yopiq tizim modelidan farq qiladi. Yopiq tizim modeli shaxs va uning motivatsiyasini to‘liq tushuntirishga qodir emas. Ochiq tizimlar esa taraqqiyot uchun zamin yaratadi va undovchi muhtojlik doirasida tushuntirib bo‘lmaydigan murakkab jarayonlarni ifodalaydi.Shunday qilib, G.Olportning nazariyasi zamonaviy mehnat muhitida motivatsiya jarayonlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Motivlar nafaqat tashqi rag‘batlantirishga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki shaxsning ichki dunyosi, o‘zini anglash va shaxsiy rivojlanish jarayonlari bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligi ko’rsatiladi.

Xulosa:

Zamonaviy mehnat muhitida motivatsiyaning psixologik asoslarini chuqur o‘rganish tashkilotlarga xodimlarning ichki va tashqi ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi motivatsiya jarayonlarini tizimli tarzda tushunishga yordam berar ekan, G.Olportning funksional avtonomiya nazariyasi esa motivlarning dinamik va rivojlanuvchi tabiatini ochib beradi. Shu bilan birga, samarali muloqot, shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari yaratish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zamonaviy mehnat muhitida motivatsiyani oshirish uchun muhim omillardir. Tashkilotlar ushbu psixologik asoslarni hisobga olib, xodimlarning nafaqat moddiy, balki ma’naviy ehtiyojlarini

qondirishga intilishi ish samaradorligi va ruhiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Boymurodov. Amaliy psixologiya. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2008.
2. P. I. Ivanov, M. E. Zufarova. Umumiy psixologiya. – Toshkent: “O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2008.
3. Umumiy-psixologiya. Darslik P.I.Ivanov-M.E.Zufarova-T-2008.
4. Z.T.Nishonova.Rivojlanish psixologiyasi. TOSHKENT: «PRINT 25» 2019.

IJTIMOIY ISH MUTAXASSISLARINING KASBIY RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY VA SHAXSIY MUAMMOLAR

(ijtimoiy pedagog misolida)

Axrorov Zohidjon Zokirjonovich
Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti,
Pedagogika kafedrasi o’qituvchisi
e-mail:zohidjonaxrorov@1gmail.com

Annotatsiya. *Usbu maqolada Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarining rivojlanish tarixi juda yakin. Eng avvalo, ularni odamlarga aloxida g’amxo’rlik va e’tibor talab etadigan madaniy – tarixiy an’ana birlashtirib turadi. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarda rahm – shavqat, «xayriya», «yordam» kabi tushunchalar juda ko’p ishlatiladi. Ammo ularning aniq ifodalangan o’ziga xos jixatlari ham bor, mamlakatimizning dastlabki rivojlanish bosqichida ular rasman tan olingan institut sifatida namayon bo’ldi, masalan, ijtimoiy ishlar aholini ijtimoiy himoyalash soxasida rivoj topdi, ijtimoiy pedagogika esa, yukorida ta’kidlanganidek, ta’lim tizimida va yoshlar ishlari bo’yicha qo’mita muassasalarida rivojlandi. Ijtimoiy pedagogik va ijtimoiy xodimlar faoliyati asta-sekin kengayib, biri ikkinchisini tuldira borish jarayonlari yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar: *ijtimoiy, pedagogika, ijtimoiylashuv, ob’ekt, predmet, ijtimoiy ishchi, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiylashuv kategoriya, ijtimoiy ta’lim, ijtimoiy pedagogik faoliyat, metod.*

Аннотация. *История развития социальной педагогики и социальной работы в данной статье достаточно близка. Прежде всего, их объединяет культурно – историческая традиция, требующая особой заботы и внимания к людям. В социальной педагогике и социальной работе очень часто используются такие понятия, как сострадание, «благотворительность», «помощь». Но у них есть и своя особенность, четко выраженная, на начальном этапе развития нашей страны они стали намаяны как официально признанный институт, например, социальная работа получила развитие в сфере социальной защиты населения, а социальная педагогика, как отмечает юкори, получила развитие в в системе образования и в учреждениях комитета по делам молодежи. Постепенно расширялась деятельность социально-педагогических и социальных работников, освещались процессы перехода от одного к другому.*

Ключевые слова: *социальная, педагогика, социализация, объект, предмет, социальный работник, социальное воспитание, социализация категория, социальное воспитание, социально-педагогическая деятельность, метод.*

Abstract: *In this article, the history of the development of Social Pedagogy and social work is very close. First of all, they are united by a cultural – historical tradition that requires care and attention to people in isolation. In social pedagogy and social work, such concepts as compassion, "charity", "Help" are used a lot. But they also have their own characteristic, clearly expressed, at the initial stage of development of our country, they became namayan as an officially recognized Institution, for example, social work has developed in the sphere of social protection of the population, and social pedagogy, as noted in yukori, has developed in the educational system and*

in the institutions of the committee on Youth Affairs. The activities of social Pedagogics and social workers gradually expanded, and the processes of carrying one to the other were highlighted.

***Keywords**: social, pedagogy, socialization, object, subject, social worker, social education, socialization Category, social education, social pedagogical activity, method.*

Kirish Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy-kasbiy ta'lim tizimi bugungi kunda jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ikkinchisi ushbu ta'lim tarmoqlarining mamlakat ta'lim tizimidagi holati va rolini qayta ko'rib chiqishga urinishlar bilan bog'liq bo'lib, shu munosabat bilan tarixiy tajribani o'rganish va qayta ko'rib chiqish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular nafaqat ilg'or topilmalar va o'tmishdagi yutuqlarni birlashtirishga, balki ilgari yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash va engishga imkon beradi, eng muhimi, allaqachon sodir bo'lgan asossiz va noto'g'ri qarorlar. Mamlakatimizda ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy-kasbiy ta'lim tizimining tajribasi, tendentsiyalari va rivojlanish istiqbollarini har tomonlama tahlil qilish va baholashda nazariya va amaliyotning ob'ektiv ehtiyoji bilan belgilanadi. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy xodimlarni tayyorlash tizimini rivojlantirishning tarixiy tajribasini kontseptual va yaxlit umumlashtirish va tizimlashtirish, ularning rivojlanishidagi etakchi tendentsiyalarni aniqlash ularning hozirgi holatini ob'ektiv baholash va istiqbollarni aniqlash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Butun dunyo bo'ylab ijtimoiy soha mutaxassislarining kasbiy ta'limi postindustrial jamiyatda mehnat faoliyatining sifatli o'zgarishi sharoitida mutaxassislarning doimiy kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi amaliyot ehtiyojlari tufayli doimiy jarayon sifatida qaraladi. Uzluksiz ijtimoiy-kasbiy ta'lim tizimi ijtimoiy tuzilishning asosiy asoslari, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tashkiloti, ijtimoiy hayotning tabiati va ustun yo'nalishi bilan uzviy bog'liqdir.

METODOLOGIYA Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash tizimini rivojlantirish 100 yildan ortiq vaqt davomida amalga oshirilib kelinmoqda. Shu vaqt ichida tizim jadal rivojlanish, tanazzul va turg'unlik davrlarini boshdan kechirdi, ijtimoiy va professional kadrlar tayyorlashni tashkil etishda ham ijobiy, ham salbiy tajriba to'pladi, shu jumladan maqsadlarni belgilashda, mazmunini, shakllarini, usullarini, ularni o'qitish shartlarini tanlashda. Ijtimoiy-kasbiy ta'limni rivojlantirishning ayrim bosqichlarida turli darajadagi muvaffaqiyatlar bilan tizimning tuzilishi va boshqaruvini optimallashtirish bo'yicha ishlar olib borildi, mutaxassislarni tayyorlash muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi va uni takomillashtirish choralari taklif qilindi.

ASOSIY QISM Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash uzluksnz ta’lim tizimda amalga oshiriladi. Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash ikki turdagi o`quv yurtlarida olib boriladi: o`rta kasbiy ta’lim muassasalari (litsey va kollejlar) va oliy kasbiy ta’lim maktablari (Institut va universitetlar). O`rta kasbiy ta’lim muassasalarida kichik sinflar va maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalar bilan ishlovchi pedagoglar tayyorlanadi. O`rta ma’lumotli pedagoglarning asosiy vazifasi bolalarga qiyin vaziyatlarni yengib o`tishga yordam beradi, bolalarning ishonishiga ko`maklashuvchi faoliyat turlarini tashkillashtiradi. Bolalarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning ota—onalari bilan xamkorlik qilish, o`z malakasini oshirish maqsadida mustaqil ravishda o`kib

borishdan iboratdir. Ijtimoiy pedagog - faqat o`qituvchigina emas, u bola qanday o'qiyotganini va rivojlanayotganini tushunadigan va his etadigan shaxsdir. U bola hayotini, kechinmalarini xuddi o`zinikidek tushunadigan va uning ma'naviy, madaniy, axloqiy rivojlanishiga yo'llanmalar bera oladigan mutaxassis bo'lmog'i kerak. Shuning uchun xaqiqiy pedagog faqat o`z fanini bilibgina qolmay, ayni vaqtda bolalar va kattalar bilan ijodiy muloqot qila oladigan, o`z ustida ishlaydigan inson bo'lishi muhim axamiyatga ega. Ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish natijasida o`quvchi inson mohiyatini anglaydi. O`z hayoti dovomida inson to`grisida xosil qilingan tushunchalar asosida mukammal shaxs va xaqiqiy fuqaro bo`lib yetishadi. Insonparvarlikka asoslangan ta'lim – ijtimoiy fanlar va yondosh fanlarning funktsiyalarini kengaytiradi, ta'lim jarayonini, mutaxassis shaxsi va uning dunyoqarashi yaxlitligini ta'minlaydi. Ta'limni insonparvarlashtirishdan ko`zlangan asosiy maqsad yoshlarga tegishli bilim, ko'nikma va malaka, ularning insoniy dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. U bo'lajak fuqarolar tomonidan insonlar faoliyatining turli soxalarida insonparvarlik g`oyasi va qadriyatlarini amalga oshirishning asosi bo`lib xizmat qilsin. Ta'limda xayot tajribasiga ega bo'lish ziddiyatli xolatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chiqishni taqozo etadi:

- ijtimoiy – shaxsiy xayot tajribasiga asoslangan muntazam davom etadigan jarayon hisoblanadi;
- real vaziyatdan kelib chiqib, ziddiyatli xolatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chiqishni taqozo etadi;
- mavjud amaldagi xolatga doim moslashish jarayoni xisoblanadi;
- shaxslararo aloqalarni qamrab oladi;
- shaxsning shakllanish jarayonini yo'naltiradi.

Ijtimoiy ishchilarning vazifasi ularning shaxsiy va kasbiy shakllanish darajasi bilan belgilanadi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ijtimoiy xodim nafaqat oliy o'quv yurtida olingan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanishni, balki kasbiy va shaxsiy jihatdan ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirishga tayyorlikni ham talab qiladi. Oliy kasb-hunar maktabida bo'lajak ijtimoiy ishchilarning samarali shaxsiy va kasbiy shakllanishi muammosining ilmiy va amaliy ahamiyati ushbu jarayonni kelajakdagi ijtimoiy xodimning shaxsini va kelajakdagi ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining butun tizimini optimallashtirish yo'nalishiga konstruktiv ravishda yo'naltirish zarurati bilan bog'liqligi aniqlandi. Shu bilan "professional o'zini" shakllantirishga hissa qo'shadi kelajakdagi ijtimoiy ishchilar, kasbiy faoliyatda keyingi o'zini-o'zi anglash uchun zarur bo'lgan narsa. Kelajakdagi ijtimoiy ishchilarni shaxsiy va kasbiy shakllantirish jarayonining mahsuldorligiga, shakllanish uchun zarur ijtimoiy-psixologik sharoitlarni ta'kidlab, kelajakdagi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga maxsus maqsadli tayyorlash natijasida erishish mumkin. Kelajakdagi ijtimoiy xodimning shaxsiy va kasbiy shakllanishini kompleks nazariy-uslubiy yondashuv doirasida o'rganish mumkin degan xulosaga kelishimizga imkon berdi, bu "inson-inson" tizimi mutaxassislarini o'rganish bilan shug'ullanib, ijtimoiy xodimning shaxsiy va kasbiy shakllanishida professionallik cho'qqilariga erishishning eng muhim omillarini aniqlashga yordam beradi. Ijtimoiy

pedagogikaning uslubiy printsiplari va yondashuvlari kelajakdagi ijtimoiy ishchining shaxsiy va kasbiy shakllanishini ikkita natija toifasi: shaxsiyat va faoliyat bilan mustaqil ravishda o'qitish, rivojlantirish, boshqarish, optimallashtirishning kompleks tizimi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Ushbu tizimda ijtimoiy ishchi nafaqat ta'lim doirasida, balki to'g'ridan-to'g'ri kasbiy faoliyat doirasida ham bilish va o'zini o'zi bilish, rivojlanish va o'zini rivojlantirish ob'ekti va sub'ekti sifatida ishlaydi.

Mutaxassis sifatida ijtimoiy xodimning zarur shaxsiy va kasbiy fazilatlarini psixologik tahlil qilish kelajakdagi ijtimoiy xodimning shaxsiy va kasbiy shakllanishiga ba'zi ishlab chiqilgan yondashuvlar va variantlarni ko'rsatdi. Ularning hisobi oliy kasb-hunar maktabida ijtimoiy xodimning shaxsiy va kasbiy shakllanishi uchun zarur ijtimoiy-psixologik sharoitlarni aniqlashga va ularning asosida ushbu shakllanishning samarali modelini yaratishga imkon berdi. Ushbu model quyidagi parametrlarni o'z ichiga oladi:

- kasbiy o'zini takomillashtirish motivatsiyasini shakllantirish, ijtimoiy faoliyatga qiymat munosabati; shaxsiy va kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish (kasbiy kompetentsiya, empatiya, yetarli darajada o'zini o'zi qadrlash va boshqalar);
- ijtimoiy xodimning shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni hisobga olish;
- kasbiy o'zini o'zi anglashni rivojlantirish va boshqalar.

Biz sub'ekt-faoliyat yondashuvi asosida harakat qildik va ijtimoiy xodim uchun aniq ijtimoiy buyurtma yo'qligidan kelib chiqib, ijtimoiy xodimning davlat tomonidan qabul qilingan modeli O’zbekiston jamiyatining umumiy manfaatlariga mos kelmasligi sababli, kelajakdagi ijtimoiy xodimning shaxsiy va kasbiy shakllanishi algoritmini o'z ichiga olgan ijtimoiy-pedagogik modelni ishlab chiqishga harakat qilindi. Psixologik tamoyillar tizimi mazmuni va ketma-ketligi quyidagilarni o'z ichiga olgan harakatlarni amalga oshirish:

- bo'lajak ijtimoiy ishchilarni shaxsiy va kasbiy shakllantirish tizimining parametrlarini va ijtimoiy xodimning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini
- o'rganish va o'quv jarayonida optimallashtirish usullarini aniqlash;
- shuningdek, universitetda ijtimoiy xodimning shaxsiy va kasbiy shakllanishining kuchlari, vositalari va usullaridan foydalanish texnologiyasi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatga juda yaqin bo'lib, undan ajralib turadigan va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy-pedagogik faoliyat - bu ma'lum tajribani o'qitish orqali o'tkazish va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun muayyan shart-sharoitlarni ytaraishga qaratilgan kasbiy faoliyat turi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat - keksa fuqarolarga ijtimoiy-pedagogik xizmatlar ko'rsatishda namoyon bo'ladigan, ijtimoiy xizmatlar oluvchilarning xatti-harakatlari va shaxsiyatini rivojlantirishda og'ishlarning oldini olishga, ularning ijobiy manfaatlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat. dam olish sohasi), ularning bo'sh vaqtini to`gri tashkil etish[13].

Zununnunov A. Pedagogika tarixi. T. 2004 yil.

XULOSA

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko’p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me’yorlar o’zlashtiriladi. Ijtimoiy pedagog asosan xalq ommasi Bilan ishlaydigan shaxsdir. U o`z faoliyati jarayonida turli xarakterdagi insonlar bilan muloqatga kirishishiga to`qri keladi. Bu vaziyatda ular bilan turli xil ziddiyatlarga bormaslik, ularning har birining ko`ngliga, yuragiga kirib borish uchun sifat va fazilatlarga ega bo`lishi talab etiladi: empatiya (dunyoni boshqalarning ko`zi bilan ko`rish, tushuna bilish), xayrihoqlik, ezgulik, to`qrilik, ochiq ko`ngillik, aniq mo`ljal olish, samimiylik, kommunikabellik(boshqalar bilan chiqisha bilish)Ijtimoiy pedagogning ahloqiy majburiyatlari ijtimoiy pedagog o`z mijozlarining qalbiga kirib borishida uning ahloqiy majburiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy pedagogning ahloqiy majburiyatlari o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bular:

- o`z mijozlariga nisbatan axloqiy muloqatda bo`lish, ya'ni ularning haq huquqlari va imtiyozlarini birinchi darajali deb bilish;
- ular bilan muloqatga kirishishda ahloq me'yorlarga amal qilish (hurmat, haqqoniyat. hushmuomilalik, alohida etibor va h.k.)
- rahbarlar yoki etakchi tashkilotlarga nisbatan etuk majburiyatlar
- o`z kasbi oldidagi axloq majburiyatlar, ya'ni o`z kasbining mazmuni va mohiyatini anglash, mas'uliyatni his etish, faollik ko`rsatish va h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’xati

1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalkimiz bilan birga quramiz. - Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.

2.Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika: darslik/ N.Egamberdieva. — T.: Alisher 2006 y

3.Vasilkova, T.A.Vasilkova. Ijtiмoiy pedagogika.-M.:Prosvehenie, 2003 yil

4.Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. – T.: O‘qituvchi. 2000 yil.

5.Zununnunov A. Pedagogika tarixi. T. 2004 yil.

ZAMONAVIY OILALARDA O‘ZARO VIRTUAL MUHITNI PSIXODIAGNOSTIK TAHLILI

Yaqubova Shirin Odilbek qizi

Urganch Ranch Texnologiya Universiteti

Psixologiya mutaxassisligi magistri

+99899-073-13-05

Karimberganova Shaxrizoda *Xusainboyevna*

Urganch davlat universiteti

Psixologiya yo’nalishi talabasi. **+998 94 852 28 29**

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviya oilalarda o'zaro virtual muhitni psikhodiagnostik tahlil qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga, oilalar o'rtasidagi muloqot va o'zaro aloqalar yangi virtual platformalarda amalga oshirilmoqda. Maqolada oilaviy a'zolar o'rtasida virtual muloqot va uning psixologik tahlili, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning oilaviy tuzilmalarga ta'siri haqida ilmiy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *virtual muhit, psixodiagnostika, oilaviy munosabatlar, zamonaviy oilalar, psixologik tahlil, internet texnologiyalari, oilaviy psixologiya, raqamli texnologiyalar, psixologik salomatlik*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы психодиагностического анализа взаимного виртуального окружения в современных семьях. С развитием интернета и цифровых технологий общение и взаимодействие между членами семьи все чаще происходит в виртуальной среде. В статье приведены научные и практические данные о виртуальном общении между членами семьи и его психологическом анализе, а также влияние современных технологий на семейную структуру.*

Ключевые слова: *виртуальная среда, психодиагностика, семейные отношения, современные семьи, психологический анализ, интернет-технологии, семейная психология, цифровые технологии, психологическое благополучие*

Annotation: *This article discusses the psychodiagnostic analysis of mutual virtual environments in modern families. With the development of the internet and digital technologies, communication and interaction within families increasingly occur in virtual spaces. The article provides scientific and practical information about virtual communication between family members and its psychological analysis, as well as the influence of modern technologies on family structures.*

Keywords: *virtual environment, psychodiagnostics, family relationships, modern families, psychological analysis, internet technologies, family psychology, digital technologies, psychological well-being*

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar va internetning tezkor rivojlanishi oilaviy munosabatlarga yangi o‘lchovlar qo‘shdi. Bugungi kunda oilalar faqatgina shaxsan emas, balki virtual muhitda ham o‘zaro aloqada bo‘lishadi. Bu holat oilaviy muloqotning tabiati va psixologiyasini yangilab, o‘zgacha psixologik jarayonlarni yuzaga keltiradi. Virtual aloqalar, oilaviy a’zolarning bir-biriga bo‘lgan ta’sirini, ularning ruhiy holatini va o‘zaro munosabatlarini yangi nuqtai nazardan tahlil qilishni taqozo etadi. Ushbu maqola zamonaviy oilalarda o‘zaro virtual muhitni psixodiagnostik tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Maqsad – oilaviy munosabatlarning virtual muhiti orqali qanday o‘zgarishini va bu jarayonlarning psixologik aspektlarini o‘rganishdir. Virtual muhitda amalga oshiriladigan muloqotning psixologik aspektlari nafaqat oilaviy aloqalarga, balki individual psixologik holatga ham ta’sir qiladi.**[1]** Oila a’zolarining onlayn muloqotda o‘zaro fikr almashish tarzlari, hissiy munosabatlari va muloqot usullari, real hayotdagi aloqalardan farq qiladi. Bu holat, ayniqsa, oiladagi o‘smirlar va yoshlar uchun muhim bo‘lishi mumkin, chunki ular o‘zining identifikatsiya qilish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini onlayn muloqot orqali shakllantirishadi. Bunday o‘zaro aloqalar ba’zan oilaning bir-biriga nisbatan hissiy yaqinlikni kamaytirishi va yolg‘izlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, virtual aloqalar orqali o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi oilaviy a’zolar, ba’zida haqiqiy muammolarni yashirish yoki muhokama qilishni kechiktirishadi. Bu esa, oilaviy psixologik salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Oilaviy muloqotning virtual shakllari ba’zan oilaning ichki nizolarini hal qilishda to‘siq bo‘lishi, o‘zaro ishonchsizlikni kuchaytirishi yoki muloqotdagi emotsional uzilishlarni yanada oshirishi mumkin.**[2]**

Oilaviy aloqalarda virtual muhitning psixologik tahlili oilaviy ruhiy holatni baholashda, muammolarni aniqlashda va ijobiy o‘zgarishlar kiritishda yordam beradi. Oilaviy tuzilmalarda virtual muloqotning psixologik ta’sirini o‘rganish, oila a’zolarining psixologik ehtiyojlarini qondirishga, muloqotni yaxshilashga va oilaviy farovonlikni oshirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, bu jarayon oilaning har bir a’zosi uchun sog‘lom psixologik muhitni yaratish uchun zarur psixologik strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Virtual muhitda oilaviy aloqalar va psixologik holatni tahlil qilish masalasi bugungi kunda ilmiy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu borada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Virtual muloqotning oilaviy psixologiya va ruhiy salomatlikka ta’sirini o‘rganish maqsadida turli olimlar tomonidan bir qator ilmiy ishlar yozilgan. M. Sh. Xusanova tomonidan olib borilgan tadqiqotda virtual muloqotning oila a’zolariga ta’siri va ularning psixologik holatini o‘rganish muhimligi ta’kidlangan. Ushbu ishda muallif, oila a’zolari o‘rtasidagi yuzma-yuz muloqotning ahamiyati, lekin virtual aloqaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirgan. Virtual muhitda muloqot qilishning salbiy tomonlari, ayniqsa, yoshlar va o‘smirlar orasida o‘zgarishlarga olib kelishi mumkinligi aniqlangan.**[3]**

Bundan tashqari, S. S. Azizov tomonidan yozilgan maqolada virtual muhitda oila a’zolarining emotsional salomatligi va o‘zaro aloqalariga psixologik tahlil kiritilgan. Muallif, onlayn muloqotning ijobiy va salbiy tomonlarini taqqoslaydi hamda oilaviy muhitda yuzaga keladigan stress va tushunmovchiliklarning psixologik natijalarini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotlar oiladagi ruhiy muvozanatni saqlash uchun virtual aloqalar samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. A. D. Raxmatullayev tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda, internetning oilaviy munosabatlarga ta’siri va oilaning ruhiy salomatligiga bo‘lgan alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda, virtual aloqalarning oila tuzilmasi va individning psixologik holatiga bo‘lgan salbiy va ijobiy ta’sirlari tahlil qilingan. Muallif virtual aloqaning oilaviy tuzilmalarga ta’sirini o‘rganishda psixodiagnostik metodlarning ahamiyatini ta’kidlagan va bu metodlarning oilaning ruhiy holatini aniqlashda samarali vosita sifatida foydalanilishini ko‘rsatgan. Shuningdek, X. T. Vohidov tomonidan olib borilgan izlanishlar virtual muloqotning o‘zaro ishonch va intim aloqalarga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda, oiladagi a’zolar o‘rtasida yuzaga keladigan ishonch muammolari, va virtual aloqaning bu masalalarga ta’siri tahlil etilgan. Natijalar, oilaviy ishonchning zaiflashishi va virtual muhitda yuzaga keladigan hissiy uzilishlarning oilaviy muammolarni kuchaytirishini ko‘rsatdi.

Shu nuqtada, oilaviy psixologiyaning zamonaviy talablari asosida virtual muloqotning psixologik ta’sirini o‘rganish yangi yo‘nalish sifatida tan olinmoqda. Virtual aloqalar oila a’zolari o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni kamaytirish, emotsional yordamini oshirish va o‘zaro ishonchni mustahkamlash uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Biroq, bu jarayonni yanada chuqurroq tushunish uchun oila a’zolarining psixologik ehtiyojlarini va ular orasidagi aloqalarni yanada yaxshiroq o‘rganish talab etiladi.

Psixodiagnostik metodlar yordamida virtual muloqotning oilaviy tuzilma va psixologik salomatlikka ta’sirini aniqlash, o‘rganish va shu asosda samarali

psixologik strategiyalarni ishlab chiqish mumkin. Bu, o‘z navbatida, oilaviy muloqotni yaxshilash, oila a’zolarining ruhiy salomatligini mustahkamlash va oilaviy muammolarni hal etishda yordam beradi. Virtual aloqaning psixologik tahlili oilaviy muhitni yaxshilash va oilaviy tuzilmalarni mustahkamlashda zarur bo‘lgan psixologik yo‘llarni ko‘rsatish imkoniyatini yaratadi. Bu tadqiqotlar oilaviy aloqalarni virtual muhitda ham muvaffaqiyatli va sog‘lom ravishda boshqarish uchun ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqotning metodologiyasi virtual muhitda oilaviy aloqalarni va psixologik holatni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda ikkita asosiy metod ishlatiladi: psixodiagnostik metodlar va anketalash usuli. Bunda oilaviy muloqotning virtual muhitda qanday shakllanishi va bu jarayonlarning psixologik ta’sirini o‘rganish maqsadida turli yoshdagi oilaviy a’zolardan ma’lumot to‘plash uchun anketalar va psixodiagnostik testlar ishlatiladi. Birinchi bosqichda, oilaviy aloqalarning virtual muhitda qanday amalga oshirilishi haqida oila a’zolaridan anketalar orqali ma’lumotlar yig‘iladi.

Anketalar, oilaviy munosabatlarni va oila a’zolarining psixologik holatini baholashga yordam beradigan savollarni o‘z ichiga oladi. Bunda oilaning ruhiy holati, bir-biriga bo‘lgan ishonch, muloqotdagi tushunmovchiliklar va emotsional aloqalar o‘rganiladi. Ikkinchi bosqichda, psixodiagnostik metodlar yordamida oilaviy aloqalarning psixologik tahlili amalga oshiriladi. Bu metodlar oila a’zolarining ruhiy holatini, stress darajasini va psixologik muammolarni aniqlashga imkon beradi. Psixodiagnostik testlar oilaviy muloqotda yuzaga keladigan stress, tashvish, tushunmovchilik va hissiy uzilishlar haqida aniq ma’lumotlar beradi. Bu usul orqali, oilaviy aloqalarning virtual maydonda qanday o‘zgarishini va uning psixologik ta’sirlarini yaxshiroq tushunishga erishish mumkin.Olingan ma’lumotlar statistik tahlil qilish usuli bilan qayta ishlanadi, bu esa oilaviy aloqalardagi o‘zgarishlarni aniqroq va ishonchli tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Oilaviy aloqalarning virtual muhitdagi o‘zgarishini o‘rganish uchun tizimli kuzatish usuli ham qo‘llaniladi. Bu usul orqali, tadqiqotchi oilaning kundalik hayotidagi virtual muloqotlar va uning psixologik ta’sirlarini kuzatadi. Kuzatishlar oila a’zolarining o‘zaro munosabatlaridagi o‘zgarishlar, virtual aloqalar orqali yuzaga kelgan hissiy holatlar va ularning bir-biriga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganishga yordam beradi. Shuningdek, bunda o‘tkaziladigan psixologik testlar orqali oila a’zolarining psixologik holatini, stress darajasini, emotsional tushkunlikni va boshqa ruhiy muammolarni aniqlash maqsad qilinadi. Bu testlar, oilaviy muloqotda yuzaga keladigan salbiy psixologik ta’sirlar, ayniqsa, virtual aloqalar orqali yuzaga keladigan hissiy uzilishlar va tushunmovchiliklarni o‘rganish imkonini beradi. Psixologik testlar natijalari, oilaning o‘zaro aloqalarini va uning salbiy yoki ijobiy psixologik ta’sirlarini chuqur tahlil qilishda yordam beradi.

XULOSA

Zamonaviy oilalarda virtual muhitning o‘zaro munosabatlarga ta’siri ortib bormoqda va bu ko‘pincha hissiy aloqalarning zaiflashishiga olib kelmoqda. Oila a’zolarining virtual dunyodagi faol ishtiroki real muloqot vaqtini kamaytirib, psixologik yakkalanishga sabab bo‘lishi mumkin. Psixodiagnostik tahlillar

ko‘rsatishicha, yoshlar va bolalar orasida virtual aloqalarga qaramlik darajasi yuqori. Ota-onalarning raqamli texnologiyalarni nazoratsiz qo‘llashi oiladagi tarbiya va muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zaro muloqotda virtual vositalar asosiy aloqa shakliga aylangan oilalarda hissiy tushunmovchilik va begonalashuv holatlari tez-tez kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. D. T. Shek and L. Yu,”Internet addiction phenomenon in early adolescents in Hong Kong,” The Scientific World Journal, vol. 2012, Article ID 104304, 9 pages, 2012.
2. S. C. Milford, L. Vernon, J. J. Scott, and N. F. Johnson, “An initial investigation into parental perceptions surrounding the impact of mobile media use on child behavior and executive functioning,” Human Behavior and Emerging Technologies, vol. 2022, pp. 1–11, 2022.
3. P. Salovey and J. D. Mayer, “Emotional intelligence,” Imagination, Cognition and Personality, vol. 9, no. 3, pp. 185–211.
4. R. Bar-On, “BarOn Emotional Quotient Inventory,” Multihealth systems, 1997. Nosov N.A. Virtualistika / N.A. Nosov // Falsafa fanlari.- 2000.- No 4.- B. 145.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA ART TERAPIYA VA MUSIQA TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH

Dexkonova Marg’uba Erkinovna
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada psixokorreksiya tushunchasining psixologik mazmuni va inson ruhiyatiga ta`siri tahlil etilgan. Maqolada Art terapiya va musiqa terapiyani psixologiya sohasidagi olimlarni insonlarni ruhiy xotirjamligiga erishishga oid klassik va zamonaviy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so`zlar: *Art terapiya, musiqa terapiya, samootsenka, agressivlik, liderlik, Ijodiy men, psixoanalitik yo’nalish*

Аннотация: *В данной статье анализируется психологическое содержание понятия психокоррекция и ее влияние на психику человека. В статье рассмотрены классические и современные подходы арт-терапии и музыкотерапии для достижения душевного спокойствия людей в области психологии.*

Ключевые слова: *Арт-терапия, музыкотерапия, самопомощь, агрессивность, лидерство, Творческое Я, психоаналитическое направление.*

Abstract: *This article analyzes the psychological content of the concept of psychocorrection and its impact on the human psyche. In the article, the classic and modern approaches of art therapy and music therapy to achieve peace of mind of people in the field of psychology are considered.*

Key words: *Art therapy, music therapy, self-help, aggressiveness, leadership, Creative self, psychoanalytic direction,*

Art terapiya - psixokorreksiya usuli. Bu allaqachon bir necha marta yaxshi natijalar ko‘rsatgan metod. Muomala jarayomda san'atning deyarli barcha turlari insonning ruhiy-emotsional holatini yaxshilaydi, bemorning ichki muammolariga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, qo'rquvlarini, xohish istaklarini va maqsadlarini anglashni hamda uiarni mavjud bo'lgati ijodiy yo'llar orqali ifodalashni o'rgatadi. Art terapiya va rassomlik ko‘pincha bir-biri bilan toMdiradi. Bemor o‘z asarlarida «ochiladi».

Bu shifo jarayonining boshianishi. Ustoz ko‘pincha tegishli tayyorgarlikdan o‘tgan rassom, psixolog yoki psixoterapevt bo'I adi. Art terapiya - kattalar va bolalar qog‘ozda har qanday: g‘azab, quvonch va sevgi his-tuyg‘uiarini ifoda qilish imkonini beradi Insonning badiiy qobiliyati bor yoki yo‘qligi muhim emas.

Art terapiya turlari qanday ishlaydi?

San'atning har qanday turi davolash uchun ishlatilishi mumkin. Rasm chizish, loydan narsa yasash, origami yoki applikatsiya. Shuningdek, raqs musiqa va kino ham. Nima tanlash yaxshiroq - psixolog sizga aytadi. Inson o‘z ichki o‘zligini aks ettiruvchi asarlar yaratganda mashg4iiotlarda faol bo`lishi mumkin yoki passiv holda art terapevt bilan birgalikda bemor boshqa odamlarning rasmlarini, musiqiy kompozitsiyalarni va raqslarini tahlil qiladi. Mashg‘ulotlarning individual yoki guruhli turlari ham mavjud. Guruhlar yopiq va ochiqlar turlarga bolinadi.

Odatda yopiq guruhlarda ishtirokchilar umumiy muammo bilan bo‘lishadi, masalan fobiyalarni yengib o'tish va hokazo. Ochiq guruhlarda turli yoshdagi odamlar yig‘iladi, ishtirokchilar istalgan vaqtda kelib yoki jamoadan ketishi mumkin. San'at orqali siz hissiyotlarga berilib, psixodiagnostika o'tkazishingiz, ijodkorlikni rivojlantirishingiz va o‘z-o‘zini hurmat qilishingiz, fikrlaringiz, kayfiyatingiz va xatti-harakatingizni nazorat qdishni o‘rganishingiz mumkin. Bemorlar ham ularning haqiqiy istaklaridan xabardor bo`ladilar. Ular hayot haqida optimistik dunyoqarashni rivojlantirish, boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishni o‘rganishadi.

Art terapiya kimlarga zarur?

Ushbu turdagi davolanish uchun hech qanday kontrendikatsiyalar yoki cheklovlar yo‘q. Bundan tashqari u har qanday boshqa yo`l bilan o`zlarini ifoda qilish uchun qodir bo‘lganlarga ham mumkin. Masalan, autizmli bolalar, mute yoki kar bemorlar ham badiiy terapiya mashqlarini bajarishlari mumkin. «Art terapiya» kimga tavsiya etilishi mumkin. Masalan, sizda quyidagi hislatlar bo‘lsa foydali bo‘ladi:

1. Past samootsenka (o‘ziga bo‘lgan past baho, hurmat).
2. Depressiya yoki stress holati.
3. Yashirin qo‘rquvlar.
4. O zini yolg‘iz his qilish.
5. Asabiylashish, kayfiyatning tez o‘zgarishi.
6. Hayotdagi ma'lum davrlar- o‘smirlik, homiladorlik, qarilik.
7. Rivojlanishning kechikishi.
8. Boshqalar bilan munosabatlar o‘rnatishda ishonchsizlik.

ART TERAPIYA USULLARI

Art terapiyani biror usulini tanlaganda, patsient izoterapiya, musiqa, qum va ertak bilan davolash va har qanday boshqa turdagi ijod usulini tanlashi mumkin. Mashg‘ulotlar odatda 1-2 soat davom etadi va haftada bir necha marta o‘tkaziladi. Psixolog bemor yoki guruh bilan uchrashib, qulay materiallarm tanlab, ish boshlashni taklif etadi. Tinch, do‘stona muhitda mutaxassis ishtirokchilarga o‘z hissiyotlari yoki taktil histuyg'ulariga e'tibor qaratishga yordam beradi. Ijodiy

jarayon tugagach, bemorlar natijalarni psixolog bilan muhokama qiladilar Quyida art terapiya mashqlaridan namunalar mavjud:

1. Syujetni chizish. Psixolog ma'lum bir mavzu bo‘yicha rasm chizishni taklif qiladi va u ishtirokchining his-tuyg‘ularini aks ettirishi kerak. Ishni muhokama qilish pavtida mutaxassis sizning hissiy liolatingizni tushunishga yordam beradi.

2. Kollaj qilish. Guruh a'zolari bir mavzuda kollaj qilishadi. Bu orzu va hayot maqsadlarini aks ettirishi mumkin. Shu tariqa psixolog yordamida si/. o‘zingiznibaxtli qiladigan yo‘lni rejalashtira olasiz. Kollaj ilhom manbai bo‘ladi.

3. Musiqa yordamida chizish. Sizdan musiqiy kompozitsiyani unglash va hissiyotlaringizni qog‘ozga tushirish talab etiladi. Bezovtalik tarк etadi, kayfiyat ko‘tariladi, kuch-quvvat sezasiz.

Art terapiya» (art - san'at, theoraphy - davolash), so‘zma-so`z tarima qilganda san'at bilan davolash degan ma’noni anglatadi. Bu ijodkorlik bilan birlashtirilgan muloqotning terapevtik ta'siriga asoslangan usul hisoblanadi. Art terapiya psixoterapiyaning nisbatan yangi usulidir. San'at bilan davolash usullari dastlab natsistlar lagerlarida stress olgan bolalar bilan ishlash uchun ishlatilgan.

«Art terapiya» atamasi ilk bor 1938-yilda Adrian Xill tomonidan sil kasalligi bilan og'rigan bemorlar bilan olib borgan ishlarda qo`llanilgan va tez orada keng tarqalgan. Ayni paytda u shifoxonalarda va ruhiy salomatlik markazlarida o`tkaziladi.

Art terapiya - san'atning insonning hissiy va shaxsiy-semantik sohalariga, uning munosabatlari tizimiga, birinchi navbatda, tasviriy san'atga, shuningdek, tasviriysan’atga oid ijodiy faoliyatga kuchli ta'sir ko‘rsatishga asoslangan psixoterapiyaning ixtisoslashgan shaklidir.

Art terapiyaning strategik maqsadi - mijozning o`z-o‘zini ifoda etish hamda o‘z-o‘zini bilishni san'at orqali shaxsiy rivojlanish bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, atrofdagi dunyoning haqiqatini hisobga olgan holda konstruktiv harakatlar qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu art terapiyaning eng muhim tamoyili - mazmuni, shakli va sifatidan qat’i nazar, ijodiy tasviriy faoliyatning barcha mahsulotlarint tasdiqlash va qabul qilishni nazarda tutadi.

Art terapiya - muayyan san'at shakliga mansub janr bo‘yicha ham, psixokorrcktiv terapevtik qo‘llanilish yo‘nalishi va texnologiyasi bo‘yicha ham aniqlanadigan farq va xususiyatlarga ega bo‘lgan psixokorrektiv metodlar majmuidir.

Art terapiya san'at vositasida ta'minlanganligi sababli, uning tizimliligi, avvalo, san'at shakllarining o‘ziga xosligi bilan asoslanadi (musiqa - musiqa terapiyasi; tasviriy san'at - izoterapiya; teatr, tasvir - obrazoterapiya; adabiyot, kitob - biblioterapiya, raqs, harakat - kineziterapiya). O‘z navbatida, badiiy terapiyaning har bir turi subspektlarga bo`linadi.

Musiqa terapiyasi - musiqa terapevtik yoki tuzatuvchi maqsadlar uchun ishlatiladigan san'at terapiyasining bir turi. Hozirgi kunda musiqa terapiyasi psixo yo‘nalish (tibbiyot va psixologiyada) bo`lib, u ta'sir etishning ikki jihatiga asoslanadi: psixosomatik (tana funksiyalariga terapevtik ta'sir etuvchi) va psixoterapiya (musiqa bilan shaxs rivojlanishidagi ogishlarni tuzatish, psixo-

emotsional holat). Bu musiqaning katartik (tozalash) ta'siri boiib, uni rivojlanish muammolari bo`lgan boialar bilan korreksion ishlarda ishlatish imkonim beradi.

Ko‘p tadqiqotiar bo‘yicha musiqa terapiya (V. M. Bekxterev, S. S. Korsakov, B. V. Asafev, L. A. Madel, L. S. Brusilovskiy, 1. R. Tarkxanov, I A. Baturina, I. V. Temkin, V. I. Petrushin) davolash va tuzatishga ta'siri quyidagicha etib belgilandi:

- psixovegetativ jarayonlami, organizmning fiziologik funksiyalarini tartibga solish,
- katarsis, psixoemotsional holatni tartibga solish;ijtimoiy faollikni oshirish,
- yangi hissiy ifoda vositalarini egallash;
- yangi ijobiy munosabat va xatti-harakatlarni o‘zlashtinshga ko‘maklashish, kommunikativ funktsiyani tuzatish; ijodiy ko‘rgazmalarni faollashtirish.

Musiqa ko‘pincha inson kayfiyatini o‘zida aks ettiradi. Shu asnoda misol uchun ruldagi, mashina haydayotgan kishiga eng yaxshi musiqa bu elektron musiqa hisoblanadi, xomilador ayollarga esa olimlar klassik musiqani eshitishni tavsiya qilishadi, axir aynan shunday musiqa dunyoga keladigan bolakayning kelajakdagi musiqiy didini tarbivalashga xizmat qiladi.

Go‘dak tug‘ilishidan ancha oldinroq homiladorhkning taxminan 16 haftasidan boshlab tovushlarni eshita boshlaydi. Aytishlaricha, go'daklar ona qomidaligidavoq doimiy tinglangan musiqalarini tanib qolish xususiyatiga ega boiar ekan.

Tadqiqotiar musiqa tinglash ma'lumotlami yaxshiroq o‘rganish va eslab qolishga yordam berishni ko‘rsatadi. Musiqa yoki cholg‘u asboblarini chalish miyaning har ikki yarim sharini ham ishlashiga yordam beradi.

Yorug‘ joyda jo ‘shqin musiqalar tinglayotgan insonlaming ko‘proq ovqat iste'mol qilishlari kuzatilgan. Agar ozish niyatingiz bo`lsa ishtahangiz ochilib ketmasligi uchun biroz qorong‘i joyda bo‘shashtiruvchi musiqa ostida ovqatlaning. Yer yuzida 350 milliondan ortiq insonlar depressiyada yurishadi. Depressiya bilan yashaydigan insonlarni 90% uyqusizlikdan azoblanadi. (Germaniya o'tkazilgan bir tarjiba orqali musiqa depressiyaning yaxshigina kushandasi ekani ma'lum bo‘ldi.) Musiqa tinglash stress gormonlari ishlab chiqaruvchi kortizol faoliyatini pasaytirish orqali surunkali stress xavfini kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki inson salomatligiga ta'sir qiladigan kasaliklarining 60% stress bilan bog‘liq.

Musiqa terapiyasi aqliy va hissiy salomatlikni mustahkamlash uchun bo'lsa, jismoniy, sog‘liq muammolari bilan shug‘ullanadigan odamiar uchun hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Terapiya seansi musiqa, qo'shiq yozish yoki musiqa tinglash turli xil elementlarini o‘z ichiga oladi.

Musiqa terapevtining maqsadi: bemorning his-tuyg‘ularini ifodalashga, bemorning stressini yoki havotirini bartaraf etishga yordam berish, bemorning kayfiyatini yaxshilashga yordam berish, bemorning kasallik bilan shug'ullanishi, hayot sifatini yaxshilash uchun bo‘lishi mumkin. Musiqa terapiyasi orqali quyidagilardan voz kechishingiz mumkin. depressiya, stress, otizm, saraton.

Musiqa odatda psixologik davolash doirasida ishlatiladigan vositadir. Qadimgi Misr musiqaning organizmga qanday ta'sir ko‘rsatishini tahlil qila boshladi.

Tibbiyotda ko‘plab kasalliklarni davolash uchun antik davrdan boshlab musiqa ishlatilgan. Musiqa terapiyasi Ikkinchi jahon urushidan buyon kuchli o‘sishni boshdan kechirmoqda. Musiqa - birinchi navbatda bemorga hissiyot bilan murojaat qilish va bu bilan taranglikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Musiqa bolalarning aqliy va psixiatrik davolanishida asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Eshitish tuyg‘usi eng uzoq vaqt davomida funksional bo'lib qoladi, hatto eng jiddiy kasallarni musiqa orqali hal qilish mumkin. Bu bemorlami eshitish, ovoz, nutq bilan ta'minlash mumkin.

Musiqa terapiyasi uch qismga bo`linadi: vokal terapiya, Nordoff Robbins metodi va analitik musiqa terapiyasi. Nordoff - Robbins usuli yordamida musiqa terapiyasi 40 yildan beri faol ravishda qo‘llanilmoqda. Emotsional beqarorlik va psixosomatik kasalliklar uchun tavsiya etiladi. Analitik musiqa terapiyasi - birinchi navbatda funksional nosimmetrik va nerv bilan og‘ngan mijozlar bilan ishlashda faol qo`llaniladi.

Musiqiv terapiya musiqani terapevtik vosita sifatida ishlatadigan psixoterapiya usuli hisoblanadi. Musiqa terapiyasi atamasi yunon tilidan olingan bolib «musiqa bilan davolayman» degan ma'noni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Никитин Н. Арт терапия: учебное пособие. - Москва: Когито-центр, 2014.
2. Abdullaev N. San'at tarixi. -T.: San'at 2006. T. 2. - 192 b.
3. Egamberdiev A. Tasviriy san'at va me'morchilik tarixi. O`quv qo‘llanma. - T.: O`qituvchi, 2007. - 160 b
4. Dexkonova M.E. (2025) Motiv. Motivatsiya. Ehtiyoj va kutishlar. Motivlarning inson hayotidagi o’rni. O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti. Zamonaviy yoshlarning ilmiy va innovatsion tashabbuslari: yangicha yondashuvlar va transformatsiyalar. 2025-yil 27-mart II QISM.174-178b.
5. Dexkonova M.E .Diqqatning barqarorligini o‘rganish metodlari. Ma`mun universiteti. “Zamonaviy fan sohalarida shaxs muammolari”2025-yil 15-mart. Urganch. 942-945b.

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI LOYIHAVIY FAOLIYATGA YO’NALTIRISH.

Nam DU, PhD. M.X.Tashibekova

Annotatsiya: *usshbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarini STEAM loyihalari orqali ijodiy izlanishli faoliyatga yo’naltirishning o’ziga xos xususiyyatlari, afzalliklari yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur loyihalarning 4K kompetensiyalari (tanqidiy fikrlash)ni boshlang’ich ta’lim o’quv muhitida shakllantirish imkoniyatlari tahlil etilgan.*

Kalit so’zlar: STEAM yondashuvi, loyihaviy faoliyat, ijodiy-izlanishli faoliyat, *mustaqillik, o'ziga ishonish, ijodkorlik, tadqiqotchilik layotaqi, metakognitsiya, refleksiya, analitik fikrlash*

Аннотация*: В данной статье освещаются особенности, преимущества ориентации учащихся начальных классов на творческую исследовательскую деятельность через проекты STEAM. Также проанализированы возможности этих проектов по формированию компетенций 4K (критического мышления)в образовательной среде начального образования.*

Ключевые слова: *подход Steam, проектная деятельность, творческо-исследовательская деятельность, независимость, уверенность в себе, креативность, исследовательский макет, метапознание, рефлексия, аналитическое мышление*

Annotation: *usshthis article highlights the peculiarities, advantages of directing elementary students to creative sought-after activities through STEAM projects. Also, the possibilities of forming 4K competencies (critical thinking)of these projects in the educational environment of primary education are analyzed.*

Keywords: *STEAM approach, project activity, creative-research activity, independence, self-reliance, Creativity, Research Guide, metacognition, reflection, analytical thinking*

So’nggi yillarda STEAM yondashuvi asosida ta’lim jarayonini tashkil etish masalasiga keng miqyosda e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablarda “STEM — ta’lim”, “Cambridge o’quv dasturi”, “Mahalliy o’quv dasturi” kabi bir qator xorijiy dasturlar asosida chuqur ixtisoslashtirilgan ta’lim berilmoqda. Boshlang'ich ta'lim o’quv jarayonini STEAM yondashuvi asosida tashkil etish o’quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqillik, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va ma'lumotni baholash, asosli qarorlar qabul qila olish kabi xususiyatlarni rivojlantiradi..

STEAM yondashuvi asosida ta’lim beruvchi mamlakatlar tajribasini tahlili shuni ko’rsatadiki, ushbu texnologiya bugungi kunda o’quvchilarga zarur bo’lgan 4K (muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, kreativlik(ijodkorlik) ko’nikmalarini rivojlantirish samarali hisoblanadi. Bugunki kun yoshlarini jahon talablaridagi darajasidagi 4K kompetensiyalari asosida bilim olishlalrini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratilayotganligi mazkur yondashuvni ta’limning barcha bo’g’inlariga tadbiq etish ehtiyojini tug’dirmoqda. Shu bilan birga STEAM yondashuvi o’quvchilarda tabbiy-ilmiy, texnologik, konstruktiv va metematik kompetensiyalarni aynan 4K ko’nikmalarilari bilan uyg’un holda rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, muhandislik (konstruktiv) ko’nikmalarini shaklllantirishda STEAM loyihalarining o’rni beqiyos bo’lib, mazkur yondashuv o’quvchilarda ijodkorlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash, kutilmagan tasodifiy vaziyatlarga tezda yechim topa olishga yordam beradi. Shuningdek, amaliy tadqiqotchilikka yo’naltirilgan kichik tajribalar orqali o’quvchilarda 4K kompetensiyalari mazmunidagi kuzatuvchanlik, analiz, sintez, baholash, analitik fikrlash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmar qiladi.

STEAM yondashuviga asoslangan loyihaviy faoliyat jarayonida o’quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yordam beruvchi quyidagi bir qator ko’nikmalarni tasniflaymiz:

- mustaqillik va o'ziga ishonish: tanqidiy fikrlash orqali ta’lim oluvchilar manbalarni yod olish, o’z tengdoshlariga yetkazib bera olish, mavjud muammoga yechim topish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga undaydi;
- muammoni hal qilish va qaror qabul qilish: o’quvchilar muammolarni aniqlashni, taxminlarni asoslashni va potentsial yechimlarni baholashni o'rganadilar;
- ijodkorlik va innovatsiya: tanqidiy fikrlash o’quvchilarga turli fanlarning g'oyalari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish hamda yangi ijod namunalarini yaratishga imkon beradi;

- tadqiqotchilik layotaqlarini rivojlantirish: turli manbalardan ma'lumotlarni to'plash, baholash va sintez qilish, ishonchli manbalarni aniqlash va ularning ishonchliligini baholash qobiliyatini rivojlantiradi;
- analitik fikrlash: tanqidiy fikrlash orqali murakkab muammolarni kichikroq tarkibiy qismlarga ajratish va ularni mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- mantiqiy fikrlash va argumentatsiya: o'quvchilar o'z pozitsiyalarini mantiqiy asoslashni, o'z g'oyalarini dalillar bilan himoya qilishni va bir nechta istiqbollarni ko'rib chiqishni o'rganadilar;
- baholash: tanqidiy fikrlash jarayonida mavjud ma'lumot va dalillarni baholash, asosli hukmlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.
- metakognitsiya: tanqidiy fikrlash bolalarga o'zlarining fikrlash jarayonlari to'g'risida xabardorlikni rivojlantirishga yordam beradi, bu ularga o'rganishni kuzatish va tartibga solish imkonini beradi.
- refleksiya; o'quvchilar o'zlari tomonidan olib borilayotgan mazkur amaliy tajriba haqida mulohaza yuritishga, tahlil qilishga, mazkur hodisaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga , o'z xulosalarini asoslashga yordam beradi.

STEAM loyihalari fanning turli sohalariga oid bilimlarni amalda qo'llash asosida zamonaviy ilmiy-texnika sanoati mahsulotini yoki uning prototipini yaratishga qaratilgan bo'lib, muayyan pedagogik reja asosida ishlab chiqiladi. Mazkur loyihalar ma'lum texnik bosqichlarga muvofiq qurilgan va muayyan harakatlar algoritmini o'z ichiga oladi. Ushbu loyihani ishlab chiqish, asosan, turli fanlarga oid o'quv loyihalar uchun zarur bo'lgan yangiliklarni qidirib topish, o'zlashtirish va yangilik kiritishdan boshlanadi. O'quvchilar zamonaviy sanoatning haqiqiy mahsulotlari prototiplarini ishlab chiqishga harakat qiladilar.

Loyiga asoslangan o'quv mashg'ulotlarida o'qituvchi rejalashtirilgan natijaga erishishni avvaldan kafolatlaydi, real ishlab chiqilgan yoki simulyatsiya qilingan mahsulotni yaratish va uni sinovdan o'tkazish orqali o'quvchilar muhandislik ko'nikmalarini barvaqt egallashga erishadilar.

STEAM loyihalarini ishlab chiqish standart loyihalarni ishlab chiqish ketma-ketligiga o'xshash bir necha bosqichda amalga oshiriladi, ammo shunga qaramay, o'ziga xos quyidagi xususiyatlarga ham egadir:

1. O'qituvchi tomonidan STEAM loyihasi uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilash.

2. STEAM loyihasini barcha bosqichlarini to'liq holda ishlab chiqish.

3. Mazkur loyiha asosida o'quvchilar zamonaviy sanoat mahsuloti va uning prototipini loyihalash yoki modellashtirishga erishish.

4. Yaratilgan yoki yangilangan mahsulotni sinovdan o'tkazish.

5. Tugallangan STEAM loyihasini barcha ishtirokchilar bilan birga muhokama qilish.

STEAM loyihalarining asosiy maqsadi – o'quvchilarda barcha fanlarga oid yuqori darajada o'zlashtirishni ta'minlash hamda Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha yuqori natijalarga erishishlarini kafolatlashdan iboratdir. Ushbu innovatsion yondashuv asosida zamonaviy maktab ta'limining rivojlanishini

ta’minlash uchun ishlab chiqilganligini tasdiqlovchi STEAM – ta’limi quyidagi afzalliklarga ega:

- matematika va tabiiy fanlarni integratsiyalash, o’quvchilarga ushbu fanlarning o’zaro bog’liqligini ham nazariy, ham amaliyotda ko’rsatish imkonini beradi;
- ilmiy-texnik bilimlarni amaliyotda qo’llash imkoniyatining mavjudligi, ya’ni, o’quvchilar sinfda loyiha maqsadida aks etgan mavzuga oid predmetlarning haqiqiy prototiplarini loyihalash hamda ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo’ladilar;
- o’quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon berishi: STEAM loyihalari asosida o’quvchilar hayotiy vaziyatlarga tayyorlanish bilan bir qatorda mavjud muammolarni mustaqil hal etish, kelib chiqish sabablarini aniqlash, bir necha yechimlarni taklif qilish, shaxsiy farazlarini dalillar orqali isbotlay olish ko’nikmalarini shakllantiradi;
- o’zaro hamkorlikdagi faoliyatni vujudga keltiradi, loyihani amalga oshitish uchun guruhiy va jamoaviy ish topshiriqlarini bajarish orqali topsh yuzaga keladigan qiyinchiliklarni barvaqt bartaraf etishga yordam beradi;
- o’quvchilarning o’z qobiliyati va bilimlariga ishonchini orttirish. O’quvchilar tomonidan predmetlarning prototiplarini modellashtirish va qurishga taklif qilinadigan mashg’ulotlarni tashkil etish orqali ularda qat’iyatlilik, o’z kuchiga ishonish hissini shakllantiradi, shuningdek, sinfda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llab ko’rishga bo’lgan ehtiyojga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

P.L.Sitnikov STEM – ta’lim texnologiyasining muhim xususiyatlarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Konseptual tushuncha: o’quvchilarning tushunchalar, munosabatlar va hodisalar to’g’risida xabardor qiladi.

2. Faoliyatdagi erkinlik: o’quvchilarning turli vazifalarni tez va moslashuvchan bajarish ko’nikmalariga ega bo’lishlarini ta’minlaydi.

3. Tashxislash: o’quvchilarga vujudga kelayotgan muammolarni aniqlash, tashxis etish, hal qilishga imkon beruvchi yechimlarni shakllantiradi.

4. Adaptiv fikrlash: o’quvchilarning mantiqiy fikrlashi, mulohaza yuritish, mavjud vaziyatni tushuntira olish, munozalar jarayonida bahslashish qobiliyatini rivojlantiradi.

5. Mahsuldor ong: mavzuni foydali, qimmatli va samarali deb hisoblashga qaratilgan tanqidiy, mustaqil va ijodiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantiradi[14].

STEAM loyihalarida o’quvchilar ko’pincha juftlik yoki guruhlarda ishlashlari talab etiladi, bu esa ularda kommunikativ ko’nikmalarini rivojlantirish bilan ilmiy, texnologik, konstruktiv va matematik kompetentsiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang’ich sinflarda STEAM loyihalaridan foydalanib, o’quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda muayyan pedagogik vazifalar amalga oshiriladi:

[14] Ситников П. Л. Современное образование в России и за рубежом: сборник статей междунар.науч.-практ. конф., Чебоксары, 25 марта 2014 г. / гл. ред. О. Н. Широков. Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 202

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarida bir nechta kompetensiyalarini shakllantiruvchi STEAM loyihalari uchun didaktik ta'minot va qulay shart-sharoit yaratish;

b) STEAM loyihalari orqali bir nechta fanlarga oid bilimlarni egallash va olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga nisbatan qiziqishni uyg'otish;

c) mazkur loyihalar asosida o'quvchilarni fanlarga oid materialni to'g'ri idrok qilish, mantiqiy esda qoldirish, ijodiy va kreativ fikrlash orqali ilmiy bilimlarni egallashga bo'lgan ijobiy munosabatini tarkib toptirish;

d) o'quvchilar o'zlashtirish samaradorligiga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iboratdir.

STEAM loyihalari o'quvchilarni mustaqil faoliyatning turli shakllariga yo'naltirish bilan birga ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik hamda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantiruvchi faoliyatga aylanadi. O'quvchilar loyihali faoliyatga kirishish orqali izlanishli-ijodiy faoliyat tajribasini egallaydilar. Kichik maktab yoshi o'quvchilarni ijodiy izlanishli faoliyatga kirishning dastlabki bosqichidir, ta'limning keyingi bosqichlarida bunday izlanishli faoliyatning yanada rivojlanishi ijodiy qobiliyatlarning taraqqiyotini jadallashtiradi.

Darsdan tashqari tashkil etilgan to'garaklardagi ijodiy-izlanishli faoliyat sinfda o'zlashtirilgan predmet va hodisalar mohiyatini izlab topishga bo'lgan qiziqishni oshirish, o'z qobiliyatiga ishonch hissining yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Atrof-muhitni tadqiq etish, ularning tarkibini aniqlash va asoslashga qaratilgan izlanishli tadqiqotlar o'quvchilarda ixtirochilik, yangiliklarni izlash, tabiiy fanlar o'rtasidagi bog'lanishli munosabatlarni erta tashxis qilish imkonini beradi. Tabiiy fanlarga yo'naltirilgan to'garaklar uchun "Tabiatning kichik himoyachilari", "Boshlang'ich ekolog va biologlar markazi", "Yosh ekoturistlar", "Ovqat hazm qilish organlari", "Tabiatda suvning aylanishi", "Yovvoyi tabiat dunyosi", "Foydali qazilmalar", "Urug' qayerda yaxshiroq yashaydi", "Ranglar dunyosi", "Vulqon maketini tayyorlash", "Yog'in turlari", "Issiqlik ta'sirini o'rganish", "Magnit", "Chiqindilar dunyosi" kabi mavzulardagi STEM loyihalari o'quvchilarni aynan bir maqsad yo'lida birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari. 2022 yil 11 maydagi PF-134-son.
2. Sangirova.Z. STEAM – o'quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda vosita sifatida. // Uzluksiz ta'lim. 2020 yil. 6-son
3. Ситников П. Л. Современное образование в России и за рубежом: сборник статей междунар.науч.-практ. конф., Чебоксары, 25 марта 2014 г. / гл. ред. О. Н. Широков. Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 202
4. Yakman G. STEAM – An Educational Framework to Relate Things To Each Other And Reality. K12Digest February 02.2020. https://steamedu.com /k12digest/

O'QUVCHILARDA O'ZGARISHLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK JIHATLAR.

Qurbanova Dilobar Yoqubjonovna
Namangan shaxar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologlar guruxi bosh mutaxassisi

Anotatsiya: *Yoshlar orasida kechadigan jarayonlardan eng ko'p uchraydigan xolat xulqiy og'ishdir va aynan mana shu jarayon natijasida xozirgi kunda juda ko'p jinoyatlar va suitsidlar kelib chiqmoqda. Bularga barham topib bunday holatlarni bartaraf etish pedagok va psixologlar uchun mas'uliyatli vazilardan bo'lishi va barcha xarakat qilish kerak*

Kalit so'zlar: *Jamiyat, faol, mustaqil, erkin o'smirlik, xulq-atvor, shaxs,ehtiyoj, profilaktika, axloq, estetik, huquq.*

Аннотация: *Среди процессов, происходящих среди молодежи, наиболее распространенным является поведенческое отклонение, и именно в результате этого процесса в настоящее время происходит множество преступлений и самоубийств. Устранение этих проблем и предотвращение подобных ситуаций должно стать одной из ответственных задач для педагогов и психологов, и все усилия должны быть приняты.*

Ключевые слова: *Общество, активный, независимый, свободный подростковый возраст, поведение, личность, потребность, профилактика, мораль, эстетика, право.*

Abstract: *Among the processes occurring among young people, the most common is behavioral deviation, and it is precisely as a result of this process that many crimes and suicides are currently occurring. Eliminating these problems and preventing such situations should become one of the responsible tasks for teachers and psychologists, and all efforts should be accepted.*

Keywords: *Society, active, independent, free adolescence, behavior, personality, need, prevention, morality, aesthetics, law.*

O'quvchilarning xulq-atvori muammosi doimo o'qituvchilar va ota-onalarni tashvishga solib kelgan. Zamonaviy yoshlar ,o'z fikrlarini bildirishda, o'z nuqtai nazarini himoya qilishda faol, mustaqil va erkin bo'lib, o'z maqsadlariga faol erishmoqdalar. Ushbu fazilatlarning ijobiy daqiqalariga qaramay, xatti-harakatlardagi og'ishlar bilan bog'liq holatlar ta'lim jarayonida sezilarli qiyinchiliklarga olib kelishi, uning samaradorligini pasaytirishi va maktab o'quvchilarining ta'lim darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda maktab xulq-atvori muammosini o'rganish va qayta ko'rib chiqish katta ahamiyatga ega bo'lib, bu zamonaviy ta'limning dolzarb muammolarini hal qilishning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishning hal qilinishi kerak bo'lgan muammolari orasida voyaga etmaganlarning deviant xulq-atvorining ijtimoiy profilaktikasi davlat tizimining tubdan yangi modelini yaratish muhim o'rin tutadi. Bu muammolarga davlat tomonidan e'tibor qaratib, qator qonunlar qabul qilinmoqda. Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiya imzolandi, umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga javob beradigan yangi Oila kodeksi qabul qilindi. Quyidagi qonunlar qabul qilindi: "Rossiya Federatsiyasida bola huquqlarining asosiy kafolatlari to'g'risida", "Voyaga yetmaganlar o'rtasida qarovsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining asoslari to'g'risida", "Asoslar to'g'risida" Federal qonuniga o'zgartirishlar kiritildi. Rossiya Federatsiyasi aholisi uchun ijtimoiy xizmatlar. Voyaga etmaganlarning deviant xulq-atvori muammosi juda dolzarb bo'lib qolmoqda va shuning uchun har bir o'qituvchi uchun xatti-harakat nima, qanday xattiharakatni to'g'ri deb hisoblash mumkinligi va qaysi deviant haqida tasavvurga ega bo'lishi juda muhimdir. Bu tushunchalar va umuman inson xulq-atvori haqidagi ilmiy g'oyalar 20 asr boshlarida paydo bo'lgan. Dastlab, olimlar xatti-harakatni insonning har qanday tashqi ko'rinishi deb tushunishgan. Bularga vosita, vegetativ, nutq reaksiyalari kiradi. Bu reaktsiyalar tashqi muhitning har qanday tirnash xususiyati uchun javob sifatida qabul qilindi. Xulq-atvorning

zamonaviy tushunchasi tashqi muhitga reaktsiyalar yig'indisidan ancha uzoqda. Deyarli barcha olimlar xulq-atvor ham shaxsiyatning ichki ko'rinishi ekanligiga rozi bo'lishdi. Bularga asab tizimining turi, motivatsiya, hissiy reaktsiyalar, o'zini o'zi boshqarish jarayonlari kiradi. Shunday qilib, xulq-atvorni shaxsning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri jarayoni sifatida tushunish kerak. Inson xatti-harakatikeng ma’noda bu uning hayot tarzi va xatti-harakatlari, jamiyatga, g‘oyalarga, boshqa odamlarga, tashqi va ichki dunyoga, o‘ziga nisbatan o‘zini tutishi. Bu axloq, estetik va huquqning ijtimoiy me'yorlariga asoslangan xulq-atvordir. normal xulq-atvor- bu faoliyat sohasini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarni buzmaydigan har qanday xatti-harakatlar. Lotin tilidan tarjima qilingan "norma" - bu qoida, namuna, retsept. Norm jamiyat tomonidan nazorat funktsiyasini bajaradi, xabardor qiladi, xatti-harakatni baholashga, uni bashorat qilishga imkon beradi. Odamlar ularga qanday munosabatda bo'lishidan qat'i nazar, normalar mavjud va doimo amal qiladi. O'quvchining normal xulq-atvori uning o'quv jarayoniga va jamiyatga bo'lgan ehtiyoj va imkoniyatlarga mos keladigan adekvat munosabatini nazarda tutadi. Agar o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa kattalar bolaning muayyan harakatlariga o'z vaqtida va etarli darajada javob bera olsalar, unda uning xatti-harakati deyarli har doim normal bo'ladi. Deviant xulq-atvor- bu umume'tirof etilgan me'yorlarga zid bo'lgan, ijtimoiy normalarni buzadigan va insoniyat jamiyati qoidalariga, faoliyati, urf-odatlari va an'analariga zid bo'lgan xatti-harakatlar. O'quvchilarning deviant xatti-harakati hozir juda keng tarqalgan va deyarli har bir maktabda kuzatiladi. Bu holat deviant xulq-atvor hodisasini sotsiologlar, o‘qituvchilar, psixologlar, shifokorlar, huquq-tartibot idoralari xodimlarining diqqat markaziga qo‘ydi. Ushbu og'ishning sababi talabalarning tashqi dunyo, ijtimoiy muhit va o'zlari bilan munosabatlari va o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarida yotadi. Shuning uchun deviant xulq-atvorning asosiy tushunchalari va nazariyalarini, asosiy yondashuvlarini ko'rib chiqish, uning mohiyatini va katalizatorlar kabi dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni tushunish muhimdir. Deviant xulq-atvorning ta'rifiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular turli fanlar nuqtai nazaridan izohlanadi. Falsafa inson hayoti va dunyoga taalluqli eng umumiy masalalar - inson yashaydigan va harakat qiladigan dunyo bilan shug'ullanadi. Bu o'smirlar uchun ham maqbuldir. Xulq-atvorning xususiyatlarini dunyo mavjudligining sabablari va maqsadlari, inson hayotining mazmuni, erkinlik toifasi va insonning ushbu erkinlikdan foydalanish imkoniyati kabi masalalar bilan bog'lash mumkin. Psixologiya deviant xulq-atvorning sabablarini shaxs shaxsi tuzilishida, uning ichki dunyosi, ong darajasida, asosiy ehtiyojlarni qondirish qobiliyatiga bo'lgan psixologik reaktsiyalarning xususiyatlarida, shuningdek, har xil xarakter, idrok va hissiyotlarda ko'radi. Psixologiyaning asosiy qiziqishlaridan biri bu inson harakatlarining zamirida nima yotganini tushunish istagi. Har bir insonning o'ziga xos g'oyalari, tajribalari, ma'lum bir tarzda harakat qilish moyilligi bor va psixologlar insonning ichki dunyosi qanday qonunlar asosida faoliyat yuritishini bilishdan manfaatdor. Ijtimoiy psixologiya inson va jamiyat haqidagi bilimlarning eng yosh sohalaridan biridir. Sotsiologiya fanlari doktori T.A. Xagurov “ijtimoiy psixologiya odamlarning ijtimoiy xulq-atvori, ularning bir-biriga munosabati va

xarakterli fikrlash tarzi asosida yotgan doimiy, takrorlanuvchi psixologik hodisalarni o‘rganadi”, deb hisoblaydi. Ijtimoiy-psixologik yondashuv deviant xulq-atvorning paydo bo'lishiga ta'sir qiluvchi sabablarni tushuntiradi: deviant xulq-atvor jamiyat va inson ongida sodir bo'ladigan jarayonlarning murakkab o'zaro ta'siri natijasidir. Pedagogika deviant xulqatvorni jamiyatda an'anaviy tarzda o'rnatilgan ijtimoiy, axloqiy, huquqiy normalar va xulqatvor standartlarini buzish deb tushunadi. Pedagogika nuqtai nazaridan xulq-atvor normasi - bu ma'lum bir yosh, jins va mavqega ega bo'lgan shaxsning ma'lum bir madaniy muhitda shakllangan muayyan vaziyatga ijtimoiy kutilgan reaktsiyalari va harakatlaridir. Xulq-atvor o'quvchilarga shaxs sifatida xos bo'lgan kategoriyadir. Shaxs - bu o'ziga xos shaxs, muayyan individuallik tashuvchisi va oilada, maktabda, jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy mavqe egasi. Oquvchining harakatlarida, uning xatti-harakati va xatti-harakatlarida shaxsning ichki yetukligi namoyon boladi. O’smirlik davri yosh davrlari orasida eng ahamiyatli davrlardan biridir. Chunki shaxs shakllanishidagi asosiy davr hisoblanadi. O’smirlik davri psixologik adabiyotlarda “o’tish davri”, “og’ir davr”, “inqiroz davri” kabi nomlar bilan ataladi.O’smir xali juda yosh,unda turmush,ijtimoiy tajriba kam,u kishilarni farq qila bilmaydi,ularning xulq-atvori hamda hatti-xarakatlarini har tomonlama baholay bilmaydi. O’smirlik davrining og’ir, murakkab davr ekanligi ko’plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog’liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o’zgaradi. Bu davrda o’smir hayotida uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o’zgarishlar sodir bo’ladi. Bu davr taxminan bolaning 5-11 sinflarda o’qish paytiga to’g’ri keladi. O’smirlik davri bolalikdan kattalikka o’tish davri sifatida har doim qiyin davr hisoblanadi va shu sababli ham doimo psixolog va sotsiologlarning diqqat markazida bo’lib kelgan. O’smirlik davrida bola endi “bola” emas, shu bilan birga u hali “katta” ham emas. O’bektiv yosh davriga qaramasdan o’smirning ijtimoiy holati o’zgarmaydi, u o’quvchiligicha otaonasining qaramog’ida qoladi. Ammo u o’zini “katta odam” deb hisoblaydi, o’zining muammolarini o’zi hal qilishga harakat qiladi. Shu sababli uning ko’pgina da’vo va talablari hal qilib bo’lmaydigan qiyinchiliklarga olib boradi, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. O’smirlik yoshida deviatsiya ya’ni nosotsiollikning paydo bo’lishining tinimsiz oshib borishi ijtimoiy pedagog oldida bu o’smirlar bilan ishlashning yangi usullari, texnologiyalarini izlash va ularga tadbiq etish vazifasini qo’yadi. Hozirgi kunda o’smirlardagi deviant xulq-atvor belgilarini tuzatish bilan bog’liqikki usul keng tarqalgan, bular: realibitatsiya va profilaktikadir. Deviant xulq-atvorli bola bilan shug’ullanayotganda pedagog quyidagi yondashuvlarga ega bo’ladi; information yondashuv – voyaga yetmagan shaxslarularga davlat va jamiyat tomonidan axloqiy normalarni bajarishga taqdim etilgan huquq va majburiyatlardan xabardor qilinadilar. Ijtimoiy profilaktik yondashuv – bunda asosiy maqsad negative hodisalarni aniqlash, bartaraf etish va neytrallashdir. Bu yondashuvning mohiyati davlat, jamiyat muayyan ijtimoiy pedagogik muassasa, pedagog tomonidan deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy xarakterdagi choralar vositasida oldini olish hisoblanadi.

Adaptatsiyajarayonidaesa u mavjudnuqsongako'nikishmaqsadidaqo'llaniladi. Demak, realibitatsiya-bu bolani jamiyatdagi faol hayotga va ijtimoiy foydali mehnatga qaytarish maqsadidagi choratadbirlar tizimidir Har bir o'smir bilan muloqotda uning shaxsidagi eng yaxshi tomonlarini topa olish, nimaga qobiliyatli ekanini aniqlab olish hamda mana shularga tayangan holda bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini qo'llab-quvvatlash g'oyat muhimdir. Aks holda tarbiya sohasida katta qiyinchiliklar chiqishi muqarrardir. O'smir o'ziga yaqin bo'lgan kishilarning ko'z o'ngida o'z shaxsining mustaqilligini tasdiqlash, o'zligini bildirib, o'z "men"ni anglatish maqsadida u yoki bu darajada o'z imkoniyatlaridan tashqari ishlarga qo'l urishga va shu orqali o'z shaxsining ta'sirini atrofdagi kishilarga o'tkazishga harakat qilib ko'rishga majbur bo'ladi. Basharti, bola o'zini ijobiy tomondan ko'rsatishning ilojini topa olmasa, u holda psixologik zarurat tufayli salbiy ishlarda o'zini ko'rsatmoqchi bo'ladi – o'z kamchiliklarini oshirib ko'rsatadi, o'jarlik va qaysarlik qiladi, har xil "hunar"lar ko'rsatadi. O'qituvchi mazkur yoshda bolaning o'z-o'zini hurmat qilishga o'rgatish tuyg'usini shakllantirish muhim ekanligini hisobga olib, o'quvchining sinf va umumjamoa oldidagi obro'sini ko'tarish yo'llarini izlashi kerak. Buning uchun o'qituvchi bolaning u yoki bu sohadagi yutuqlarini ko'pchilikka ma'lum qiladi, uning ayrim kamchilik va xatolarini yo'qotishda donolik bilan ish tutib, ularni darrov ko'pchilikka oshkor qilmay, o'smir bilan suhbatlashib, uning kuchi va imkoniyatlariga ishonishini amalda ko'rsatadi, bu bilan o'smirda shakllanib kelayotgan "katta kishi" bo'lib qolganlik tuyg'usini hurmat qilishini bildiradi. Bunday qo'llab-quvvatlashning kerakligini yaxshi his qilgan o'smir beixtiyor o'qituvchining ta'siriga beriladi, chunki pedagog o'smirning munosabatlarini yo'lga qo'yishda uning uchun zarur kishisiga aylanib qoladi. Xulosa Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, antisotsial xulqli o'quvchi-yoshlar bilan ishlashda maktab tizimidai jtimoiy-pedagogik reabilitatsiya "ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo'lgan" bolalar va o'smirlarga nisbatan oilaviy va maktab repressiyalarini oldini olishga, nizoli vaziyatlarni hal qilishga, shuningdek, esa ularni o'quv faoliyatining sub'ekti sifatida tiklashga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Xulqi og'isjgan bolalar psixologiyasi"
2.M.Atadjanov,D.A.Saliyeva "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" Qo'qon 2020y
3.www.ziyouz.com.kutubxonasi
4.www.ziyonet.com

SHAXSDAGI EMPATIK QOBILIYATLARNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Pirjonov Sarvarbek Davlatovich
Abu Rayhon beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya kafedrasi" stajor o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxsning empatik qobiliyatlari uning ijtimoiy munosabatlaridagi ahamiyati, psixologik jihatdan sog'lom muloqot qilishdagi roli va jamiyatda*

uyg‘un yashashga ta’siri tahlil qilinadi. Empatiya — boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularga qarab munosabatda bo‘lish qobiliyati sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada empatiyaning turli darajalari, uning rivojlanish omillari hamda ijtimoiy psixologik jarayonlarga ta’siri empirik misollar bilan keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *empatiya, ijtimoiy psixologiya, shaxslararo munosabatlar, hissiy intellekt, jamiyat.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение эмпатических способностей личности в её социальных отношениях, роль эмпатии в психологически здоровом общении и её влияние на гармоничную жизнь в обществе. Эмпатия рассматривается как способность понимать чувства других людей и соответствующим образом реагировать на них. В статье приведены различные уровни эмпатии, факторы её развития, а также влияние на социально-психологические процессы с эмпирическими примерами.*

Ключевые слова: *эмпатия, социальная психология, межличностные отношения, эмоциональный интеллект, общество.*

Annotation

This article analyzes the importance of a person's empathic abilities in social relationships, their role in psychologically healthy communication, and their impact on harmonious living in society. Empathy is viewed as the ability to understand the emotions of others and respond accordingly. The article presents different levels of empathy, factors influencing its development, and its effects on socio-psychological processes with empirical examples.

Keywords: *empathy, social psychology, interpersonal relationships, emotional intelligence, society.*

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolardan biri yoshlarning ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligini keskin oshirishdan iboratdir. Bunda shaxsning empatik qobiliyatlarni rivojlantirish alohida axamiyat kasb etadi. Respublikamizning ravnaqi va istiqboli ko’proq shaxsni har tamonlama yetuk barkamol qilib tarbiyalash ta’lim – tarbiya bilan shug‘ullanuvchi har bir mutaxassislarning mahoratiga bog’liqdir.

Empatiya – bu insonlar nima uchun aynan shunaqa qilayotganini, ularning hissiy harakatlarini tushunish qobiliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, o'zini boshqasining o'rniga qo'ya olish qobiliyati. Ushbu atamaning tez-tez qo’llanilishi 20-asr boshlariga to’g’ri keladi. Ilmiy ta’rif nemis olimi Teodor Lippsga tegishli bo’lib, uni bugungi zamonaviy psixologiya olamiga tarjimon va psixolog Edvard Titchener olib kirgan. Tadqiqotchilar fikriga ko’ra empatiya bir qancha turlarga bo’linadi. Affektiv, somatik, kognitiv empatiya shular jumlasidan. Xususan, empatiya darajasining past bo’lishi, shaxsda hissiy-emotsional sohadagi tasvirlash va o’zgalar bilan muloqotga kirishishga to’siq bo’ladi. O’zgalarga nisbatan xayrixohlik hissini namoyon qila olmaydi.

Empatiya insonning ijtimoiy-intellektual rivojlanishining muhim komponenti bo‘lib, u nafaqat shaxslararo muloqotni yaxshilaydi, balki jamiyatdagi nizolarni kamaytirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zamonaviy psixologiyada empatik qobiliyatlar kognitiv (tushunish), hissiy (hissiyotga hamrohlik qilish) va faoliyat (yordam ko‘rsatish) jihatlari bilan o‘rganiladi.

Amerikalik ruhshunos olim Martin L. Hoffman tomonidan empatiyaning rivojlanishi va uning ijtimoiy ahamiyatini yoritib beruvchi empatiya nazariyasi ishlab chiqilgan, ushbu nazariyada ruhshunos olim empatiyani insonning

axloqiy va ijtimoiy xatti-harakatlarida muhim rol o‘ynovchi psixologik jarayon sifatida tahlil qilgan.

Martin L. Hoffman tomonidan empatiyaning uchta asosiy komponenti keltirib o‘tilgan:

Kognitiv empatiya – bu boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularning nuqtai nazarini idrok etish qobiliyatidir. Bu hissiyotga asoslangan emas, balki aqliy darajada boshqalarning holatini tahlil qilishdir.

- Boshqaning holatini aqliy darajada tushunish qobiliyati
- "Perspektivani qabul qilish" (perspective-taking) jarayoni
- Boshqaning his-tuyg‘ularini sabablar kontekstida tahlil qilish

Emotsional empatiya – Boshqalarning his-tuyg‘ularini o‘zida his qilish, ya’ni ularning quvonchi, qayg‘usi, g‘azabi kabi hislarni o‘zida yaqtirib bilish. Bu komponent insonlarni yaqinroq bog‘lashda muhim rol o‘ynaydi.

- Boshqa odamning his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi avtomatik hissiy javob
- "His qilish" darajasi (masalan, boshqaning qayg‘usini o‘zining qayg‘usi sifatida idrok etish)
- Miya neyronlarining aks ettiruvchi faoliyati (mirror neurons) asosida shakllanadi

Mehribonlik– Faol yordam berish istagi. Bu nafaqat boshqalarning azob-uqubatlarini his qilish, balki ularga yordam qilish uchun harakat qilishni ham o‘z ichiga oladi.

- Boshqaning ahvoliga yordam berishga intilish
- Samarali yordam ko‘rsatish uchun zarur amaliy harakatlar
- Ijtimoiy mas'uliyat hissi va axloqiy motivatsiya

Hoffmanning nazariyasiga ko‘ra, empatiya nafaqat boshqalarni tushunish, balki ularga haqiqiy yordam ko‘rsatish uchun ham zarurdir. Bu uchala komponent muvozanatda bo‘lishi "samarali empatiya" dir, bu esa nafaqat boshqaning holatini tushunish, balki unga tegishli yordam ko‘rsatishga olib keladi. Shu bilan birga insonlar o‘zaro munosabatlarda samaraliroq va mehrli bo‘lishadi.

Empatiya nafaqat individual, balki ijtimoiy sog'lomlikning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. U jamiyatdagi hamjihatlikni ta'minlovchi, ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlovchi va insoniy munosabatlarning sifatini oshiruvchi kuchli psixologik mexanizmdir. Empatiyaning jamiyat hayotidagi amaliy ahamiyati juda yuqori bo‘lib, shaxsning **o**ilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashda, ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirda, kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o'ynaydi

Shu o‘rinda shaxsda empatiyani rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik usullariga sifatida quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo‘ladi:

*Bolalikdan boshlab maishiy sharoitda tarbiyalash

*Ta'lim tizimida maxsus dasturlarni joriy etish

*Ommaviy axborot vositalarining ijobiy ta'siri

*Ijtimoiy loyihalar va ko'ngillilik faoliyati

Empatiyani rivojlantirish - bu uzoq muddatli va tizimli ish bo'lib, oila, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini

talab qiladi. Yuqorida keltirilgan usullarni muvofiqlashtirib qo'llash orqali jamiyatda empatiya darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Ko’plab adabiyotlarda empatiya empatiya va xavotir hissi bilan bog’liq holda ifodalanadi. Masalan, zamonaviy Amerika bolalar psixologiyasida asosiy e'tibor altruistik xatti-harakatlarni shakllantirishga qaratilgan va bunda asosiy omil sifatida empatiya ko’riladi. Ba'zi tadqiqotchilar empatiyani bola shaxsini rivojlantirishning eng muhim manbalaridan biri deb hisoblashadi.[27,29] Ularning fikricha, empatiya - bu o’zaro iliqlik, e'tibor va ta'sirning kombinatsiyasi. Mualliflar ota-onalar va bolaning ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni o'rnatish jarayoni sifatida O.Rankning bola rivojlanishi haqidagi g'oyasiga tayanadilar. Ehtiyojlar muvozanatini saqlash, agar empatiya bolaning odamlar bilan munosabatda bo'lishni o'rganishidagi psixologik muhitni belgilasa, tarbiyani samarali qiladi. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda xayrixohlik faqat ota-onalar o'z farzandlarining his-tuyg'ularini tushunib, ularning ishlarida ishtirok etishlari va ularga mustaqillikka ruxsat berishlarida namoyon bo’lishi mumkin.[15]

Bolalardagi xayrixohlik odatda altruizm harakati bilan birga keladi va boshqa birovning hissiy holatiga eng sezgir bo'lganlar hamisha yordam berishga tayyor va tajovuzkorona xatti-harakatlarga moyilligi ham kam bo'ladi.

O'tgan asrning oxiridan boshlab olib borilgan psixologik tadqiqotlar empatiyaning borligini belgilovchi omillarni, doimiy xavotir, tajovuzkor xulq, empatiya darjasining pastligi hissiy-emotsional tasvirlashdagi qiyinchiliklarni aniqlashga harakat qildi. Empatiya konsepsiyasining tarkibiy qismlarini aniq tizimlashtirishga urinishlar, takliflarga qaramasdan yagona qoida mavjud emas. Qolaversa, uning alohida komponentlari o'rtasidagi munosabatlar to’laqonli o'rganilmagan, degan tanqidiy fikrlarga qaramasdan empatiya, xavotir hissi va hissiy-emotsional sohalar empatiyaga oid ilmiy ishlarning barchasida omil yoki belgi sifatida keltirib o’tilgan.

Psixoanalitik G.Mandlerning (1975) fikricha, aybdorlik va xavotir bir xossaning boshqa nomlaridir. Aybdorlik, muallifning ta’kidlashicha, bu real va hayoliy omadsizlikka nisbatan xavotir. Bu xavotir turini «boshdan kechirish» o‘ziga xos psixologik himoya mexanizmlarini faollashtiradi, u orqali odam xatoli harakat bilan yetkazilgan zararni bartaraf etishga yoki neytrallashga intiladi.[94] Demak, xavotir hissi o’ziga xos himoya mexanizmlarini faollashtiradi. Yuqorida adaptiv empatiya aynan himoya mexanizmi sifatida ham shakllanadi, degan fikrdan kelib chiqadigan bo’lsak, xavotir hissi empatiyaga sabab bo’luvchi omil yoki empatiya natijasi ham bo’lishi mumkin.

Odamlarga hamdardlik bildirish –inson psixikasidagi ijobiy xususiyatdir, biroq uning ijtimoiylashishini qiyinlashtiradigan, ichki bosim natijasida stressga oboruvchi insonlarga nisbatan muhtojlik, tezda xafa bo‘lish va hatto turli psixosomatik kasalliklarga ham olib kelishi mumkin. Empatiya rivojlanganligining o‘rta darajasidagi shaxslar odamlar bilan muloqotda tajribaga nisbatan, shaxslarning

[15] https://mastersoul.ru/psypedia/otto-rank-1884-1939/]

xatti-harakatiga qarab ularga baho beradilar. O‘z emotsiyalarni nazorat qiladilar, biroq odamlar bilan muloqotni bashorat qilishga qiynaladilar. Empatiya rivojlanishining past darajadagi shaxslar shaxslararo munosabatda boshqalar bilan aloqa o‘rnatishga qiynaladilar, katta jamoalarda o‘zlarini noqulay his qiladilar, hissiyotlarni namoyo nqilmaydilar va tushunmaydilar, ko‘pincha atrfodagilar bilan tushunmovchiliklarga boradilar. Ularning individual ishlashlari samaraliroq, rasional qaror qabul qilishga moyillar, boshqalarni hozirjavoblik va xayrixoxlikka nisbatan, aql-idroklariga qarab qadrlaydilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki empatiya nafaqat shaxsning psixologik farovonligi, balki butun jamiyatning uyg‘unligi uchun zaruriy qobiliyatdir. Uni rivojlantirishda bolalikdan boshlab tizimli tarbiya, psixologik treninglar va ijtimoiy loyihalarning ahamiyati katta. Kelajakda empatiyaning neyropsixologik asoslarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar kengaytirilishi kerak.

Adabiyotlar

1. Davis, M. H. (2018). Empathy: A Social Psychological Approach.
2. Hoffman M.L. Empathy and Moral Development. - Cambridge University Press, 2000.
3. Decety J., Ickes W. (Eds.) The Social Neuroscience of Empathy. - MIT Press, 2009.

МАКТАБ ЁШИДАГИ БОЛАЛАР ПСИХОЛОГИЯСИ: РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ПСИХОДИАГНОСТИКА УСУЛЛАРИ

Каримова Гулмира Насимовна
Тошкент кимё халқаро университети
Наманган филиали 3-босқич талабаси

Аннотация: *Мазкур мақолада мактаб ёшидаги болаларнинг психологик ривожланиши - эмоционал, социал, интеллектуал ва маънавий жиҳатлари ёритилган. Шунингдек, болаларнинг шахсий хусусиятларини аниқлашда психодиагностика усулларининг ўрни ва аҳамияти таҳлил қилинади. Ушбу билимлар педагогик ва психологик хизмат кўрсатишда амалий қийматга эгадир.*

Калит сўзлар: *эмоция, социалогия, интеллект, шахс, қобилият, эҳтиёж, таълим.*

Annotation: *This article describes the psychological development of school-age children - emotional, social, intellectual and spiritual aspects. Also, the role and importance of psychodiagnostic methods in determining children's personal characteristics is analyzed. This knowledge has practical value in providing pedagogical and psychological services.*

Key words: *emotion, sociology, intelligence, personality, ability, need, education.*

Аннотация: *В статье описывается психологическое развитие детей школьного возраста - эмоциональные, социальные, интеллектуальные и духовные аспекты. Также анализируется роль и значение психодиагностических методов в определении личностных особенностей детей. Эти знания имеют практическую ценность при оказании педагогических и психологических услуг.*

Ключевые слова: *эмоция, социология, интеллект, личность, способность, потребность, образование.*

Мактаб ёши инсон тараққиётидаги муҳим босқичлардан бири ҳисобланади. Бу даврда болаларда шахсийлик, мустақил фикрлаш, ижтимоий муносабатларга киришиш, эмоция ва хулқ-атворни бошқариш қобилиятлари шаклланади. Психологияда ушбу босқич боланинг тўлақонли ривожланишини

таъминловчи муҳим давр сифатида баҳоланади. Шу сабабли, болаларнинг ривожланиш жараёнини ҳар томонлама ўрганиш ва уларни қўллаб-қувватлаш педагог ва психологлар олдидаги долзарб вазифалардан биридир.

Мактаб ёшидаги болаларнинг ривожланиш йўналишларидан бири бу эмоционал ривожланишдир. Мактаб ёшида болалар ўз эҳтиросларини таний бошлайди, уларни ифода этиш ва назорат қилиш кўникмалари шаклланади ва ижтимоийлашиб боради. Яъни, ҳис-туйғуларни тушуниш ва англаш,
эмпатия кўрсатиш, дўстона муносабатларни ўрнатиш, эмоционал барқарорликка эришиш каби жараёнлар асосий ўрин тутади.

Социал ривожланишда эса, болалар мактабдаги фаолиятлари орқали жамиятдаги ўз ўрнини англай бошлайдилар. Жумладан, гуруҳда ишлаш, жамият қоидаларига мослашиш, жавобгарлик ҳиссини қабул қилишни ўрганадилар. Бу босқичда болаларнинг ижтимоий роль ва статусга муносабати шаклланади.

Интеллектуал ривожланишда, мактаб даври боланинг ақлий салоҳияти фаол ривожланадиган вақт бўлиб, маъноли ва танқидий фикрлаш, муаммоларни таҳлил қилиш, мантиқий хулосалар чиқариш, ижодкорлик салоҳияти намоён бўла бошлайди. Бу жараён таълимнинг мазмуни ва сифати билан чамбарчас боғлиқдир.

Маънавий ривожланиш жараёнида, болалар ахлоқий қадриятлар, яхши ва ёмон тушунчаси, инсоний муносабатлар ва жамиятда ўзини тутиш қоидаларини ўрганадилар. Бу босқичда оила ва мактабнинг тарбиявий таъсири катта аҳамиятга эга хисобланади.

Психодиагностикада, мақсад ва методлар, психодиагностика - бу болаларнинг шахсий хусусиятлари, қобилиятлари ва эҳтиёжларини аниқлашга қаратилган илмий асосланган усуллар мажмуасидир. У мактаб ёшидаги болаларнинг ривожланиш даражасини баҳолашда муҳим ўрин тутади.

Мактаб ёшидаги болалар психологиясининг ривожланиш йўналишлари ва психодиагностик усуллари қуйидагилардан иборат.

Тестлар - ақлий салоҳият, қобилиятлар, шахсий сифатларни ўлчаш.

Анкеталар - боланинг қизиқишлари, муносабатлари ва ўз-ўзини баҳолашини аниқлаш.

Кузатув (наблюдение) — боланинг реал вазиятлардаги хулқ-атворини таҳлил қилиш.

Мазкур методлар индивидуал таълим ва тарбия стратегияларини ишлаб чиқишда, эмоционал ва ижтимоий муаммоларни эрта аниқлашда, болаларнинг ички эҳтиёжларини тўғри тушуниш имконини беради.

Мактаб ёшидаги болаларнинг психологик ривожланишини ҳар томонлама тушуниш ва уларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш муваффақиятли таълим ва тарбиянинг асосидир. Психодиагностика эса бу жараёнда ишончли восита бўлиб, болаларнинг шахсий салоҳиятини аниқлаш, ривожлантириш ва қўллаб-қувватлашда муҳим аҳамият касб этади. Таълим-тарбия тизимида психологик хизмат ва педагогик ёндашувлар уйғунлиги болаларнинг соғлом ва барқарор ривожланишига хизмат қилади.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Aaron T. Beck and Brad A. Alford. Depression : causes and treatment. Philadelphia, Pennsylvania. 2009. –B: 428
2. Maxamadin Bannayev, O‘spirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari, MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI: Том 3 № 4 (2025)

YOSHLARNING MA’NAVIY TA’LIM-TARBIYASIDA O’ZBEK MILLIY HARAKATLI O’YINLARINING AHAMIYATI

Abdulxayeva Maftuna

Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya:*Ushbu maqolada yoshlarning ma’naviy ta’lim-tarbiyasida o’zbek milliy harakatli o’yinlarining ahamiyati va afzalliklari haqida so’z boradi.Hamda, jismoniy tarbiya va sport –sog’lom turmush tarzi ekanligi,u bilan shug’ullanish kundalik turmushning ajralmas qismiga aylanishi,foydalari haqida yozilgan bo’lib, bunday turmush tarzi jarayonida inson tanasidagi barcha a’zolar va tizimlarning harakatiga nisbatan bo’lgan tabiiy talabi qo’shimcha ravishda yuzaga keltiradigan serharakatlik bilan yoki jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanishva o’zbek milliy harakatli o’yinlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so’zlar:*Harakatli o’yilar,milliy o’yinlar, qilichbozlik, kurash, ko’pkari,urf-odat,an’ana.*

Annotation: *this article will talk about the importance and benefits of Uzbek national action games in the spiritual education of young people.Well,it is written that physical education and sports are healthy lifestyles,practicing it becomes an integral part of everyday life, benefits, in the process of such a lifestyle, information is provided about the activities of the Uzbek national action games, with or without physical education and sports, which additionally arise the natural requirement of all members and systems in the human body for movement.*

Keywords: *Action Games, National Games, fencing, wrestling,multiplayer,custom, tradition.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение и преимущества узбекских национальных подвижных игр в духовном воспитании молодежи.Физическая культура и спорт –это здоровый образ жизни, занятия им становятся неотъемлемой частью повседневной жизни,пишут о пользе, в процессе такого образа жизни естественная потребность всех органов и систем человеческого тела в движении дополнительно порождается плодородием или занятиями физической культурой и спортом, и приводятся сведения об узбекских национальных подвижных играх.*

Ключевые слова: *подвижные игры,национальные игры, фехтование, борьба, многоборье,традиция,традиция.*

O’zbekistonda o’sib kelayotgan yosh avlod salomatligini saqlash, jismonan baquvvat, chaqqon, ishbilarmon qilib tarbiyalash hamda ularni hayotga, mehnatga, Vatanni himoya qilishga tayyorlash masalalariga tegishli direktiv hujjatlarni amalga oshirish uchun jismoniy tarbiya ishlarida yangicha yondashish, izlanishda bo’lish tizimning amaliy asoslarini ilmiy –nazariy va qayta ishlab chiqishni taqozo etadi.

Inson organizmining rivojlanishida harakat, muskul faoliyati, jismoniy ish muhim o’rin tutadi, chunki uning hayot kechirishi, turmush tarzi bevosita faol harakatni taqozo qiladi. Bunday bog’lanish inson paydo bo’lganidan beri hayot kechirishning ajralmas qismi bo’lib, evolyutsion yo’l bilan mustahkamlangan.

Shu sababli harakat faqat yashash uchun kerak bo’lib qolmasdan, barcha

tashqi va ichki a’zolarning me’yoriy ishlashi uchun zaruratga aylangan. Hozirgi sharoitda esa texnikaning tezlik bilan rivojlanishi, turmushda avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishning tobora keng ko’lamda qo’llanilishi insonning bevosita harakat qilishini ancha-muncha cheklab qo’ydi.

Faol harakatning cheklanishi bilan organizmdagi barcha a’zolarning me’yoriy ishlashi buziladi, chunki ular asosan serharakat sharoitda o’z funktsiyalarini to’liq bajaradilar. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanish kundalik turmushning ajralmas qismiga aylanishni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, bunday turmush tarzi jarayonida inson tanasidagi barcha a’zolar va tizimlarning harakatiga nisbatan bo’lgan tabiiy talabi qo’shimcha ravishda yuzaga keltiradigan serharakatlik bilan yoki jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanish orqali qoplanishi kerak.

Qoidali harakatli o‘yinlar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yalpi ta’lim-tarbiya jarayonidir.

Bu jarayonning asosini tashkil etuvchi bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishga, harakat ko‘nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg‘ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijobiy ta’sir etadi. Harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari va metodlaridan biri sifatida yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni samarali hal etishga yordam beradi.

Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda erishiladigan sog‘lomlashtirish samarasi bolalarning o‘yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola ruhiyatiga yaxshi ta’sir etadigan ijobiy emotsional holat bilan uzviy bog‘liqdir. Emotsional ko‘tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo‘lgan maqsadga erishishiga intilish uyg‘otadi va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o‘zaro mosligiga, fazoda va o‘yin sharoitlarida aniq mo‘ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur’atda bajarilishida ifodalanadi. Bolalarning maqsadga erishishga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi asnosida turli to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi. Harakatli o‘yinlar bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin jarayonida bola o‘z e’tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. Bu o‘yin shartlariga muvofiq harakat qiladi. Bunda chaqqonlik ko‘rsatadi va shu asnoda harakatlarni takomillashtiradi. Shuning uchun, masalan, “Bo‘ri jarlikda” o‘yini bolalar yugurib kelib uzunlikka sakrashni bilib olganlaridan keyin beriladi.

Harakatli o’yinlarning kelib chiqishi qadim xalq pedagogikasiga borib taqaladi.O’yinlarning kelib chiqishi va tarixi haqidagi ma`lumotlar bizgacha XI asrning buyuk lingvisti, tarixchisi, etnografi Maxmud Qoshg’ariyning «Devonu lug’otit turk» kitobi orqali yetib kelgandir. Asarda o’zbek harakatli o’yinlarini boshlashdan oldin amalga oshiriladigan chaqirish, to’planish, o’yin boshi, chek tashlash kabi o’yin shakllaridan namunalar keltirilgan.[1]

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida ham sport o’yinlaridan qilichbozlik, kurash, ko’pkari… ga alohida e`tibor berilib, ularni yoshlarni jismonan baqquvat bo’lishlariga katta ta`sir ko’rsatishi ko’rsatib o’tilgan.

Ilk yoshli bolalar oilalarda bolaning dastlabki harakati bilan bog'liq ovunmachoqlar, ermak o'yinlar yordamida tarbiyalanganlar. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang-barang harakat mazmuniga ega bo'lgan (o'z ichiga bolalarni rom qiluvchi o'yin boshlanmalari, xirgoyilari, sanashmachoqlarni oluvchi) xalq o'yinlari katta o'rin olgan.Bolalarni ilk yoshidan boshlab, o'z xalqining urf-odatlari, an`analari, tarixini bilishga bo'lgan qiziqishni tarbiyalashda tayanch dasturlarda ham har bir yosh guruhi uchun o'rgatiladigan milliy va harakatli o'yinlar belgilab ko'rsatib berilgan. [2]

Atoqli rus pedagogi P.F.Lesgaft «o'yinni bolani hayotga tayyorlashga yordam beruvchi mashq deb hisoblaydi».[3] Bu mashq mustaqil faoliyat bo'lib, unda bolaning shaxsiy tashabbusi rivojlanadi va ahloqiy sifatlari tarbiyalanadi. U har bir o'yin maqsadga ega bo'lishi kerak deydi.

Buning uchun o'yindagi harakatlar bolaning o'zini boshqara olish malakasiga mos bo'lishiga; bu harakatlar tizimli mashqlarda oldindan o'zlashtirilgan bo'lishi lozim.

Harakatli o'yinlarni muntazam o'tkazish bolalarda o'z harakatlarini boshqarishni rivojlantirishga yordam beradi, ular gavdasini tartibga soladi, ya`ni turli zo'riqishda harakat qilishga o'rgatadi.O'yinlar bolani juda chaqqonlik, muayyan maqsad va tezkorlik bilan harakat qilishga; qoidalarni bajarish, o'zini tutish, o'rtoqlikni qadrlay olishga o'rgatadi.

Ma'lumki, aniq manzilga qaratilgan har qanday faoliyat o'z samarasini beradi, shuning uchun oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish va bolalarga to'g'ri tarbiya berishda jismoniy mashqlarni to'g'ri tanlash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Maxmud Qoshg'ariy, «Devonu lug'otit turk».Qayta ishlangan, to'ldirilgan nashr:"Yangi asr avlodi",Toshkent.2018-yil
2. Zahiriddin Muhammad Bobur, «Boburnoma». "Yangi asr avlodi",Toshkent.2018-yil
3.Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna, "Xalq pedagogikasi vositasida O'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari" Dis.Namangan-2023.
4. P.F.Lesgaft,"Predvidenii i realnost".-M.:AST,1992.
5.WWW.Pedagog.uz.

O'QITUVCHI FAOLIYATIDA KASBIY STRESS VA UNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR.

Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi
Namangan davlat universiteti
Psixologiya yo'nalishi 1-kurs tayanch doktoranti
Telegram: @nafisaxonim093

Annotatsiya: *Maqolada faoliyatdagi kasbiy stress, va uning xodim faoliyatiga ta'siri yoritib berilgan. Kasbiy faoliyatda kasbiy stressni belgilaydigan va xodimlarning kasbiy faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ko'plab stress omillari bilan birga kelishi ko'rsatilgan. Ta'kidlanishicha, adaptiv mexanizmlarning buzilishi, stressga past qarshilik, stress omillarining uzoq davom etadigan surunkali ta'siri bir qator psixosomatik kasalliklarga olib keladi. Maqolada kasbiy stress muammosi bo'yicha tadqiqotlar va yondashuvlar tahlil qilinadi,*

“hissiy charchash”, “kasbiy stress” tushunchalarini tahlil qilinadi, kasbiy faoliyat davomida stressni keltirib chiqaradigan xususiyatlarini ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy stress, kasbiy faoliyat, pedagoglar, stressni boshqarish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kasbiy rivojlanish.*

Annotation: *the article covers professional stress in activities, and its impact on employee activities. It has been shown to be accompanied by many stressors that determine occupational stress in professional activities and negatively affect the effectiveness of professional activities of employees. It is noted that a violation of adaptive mechanisms, low resistance to stress, prolonged chronic influence of stress factors lead to a number of psychosomatic diseases. The article analyzes research and approaches to the problem of occupational stress, analyzes the concepts of “emotional exhaustion”, “occupational stress”, considers the characteristics that cause stress during professional activities.*

Keywords: *professional stress, professional activity, educators, stress management, social support, professional development.*

Аннотация: *В статье освещается профессиональный стресс в деятельности, и его влияние на деятельность сотрудника. Показано, что профессиональная деятельность сопровождается множеством стрессоров, которые определяют профессиональный стресс и негативно влияют на эффективность профессиональной деятельности сотрудников. Отмечается, что нарушение адаптивных механизмов, низкая стрессоустойчивость, длительное хроническое воздействие стрессоров приводят к ряду психосоматических заболеваний. В статье анализируются исследования и подходы к проблеме профессионального стресса, анализируются понятия “эмоциональное выгорание”, “профессиональный стресс”, рассматриваются особенности, вызывающие стресс в процессе профессиональной деятельности.*

Ключевые слова*: профессиональный стресс, профессиональная деятельность, педагоги, управление стрессом, социальная поддержка, профессиональное развитие.*

Pedagog kasbi bugungi kunda eng og‘ir muammolardan biri hisoblanadi. Pedagoglar o‘rtasida stressing paydo bo‘lishi yuqori emotsional stress, ijtimoiy stress (o‘quvchi va hamkasblari bilan muloqotning individual modelini yaratish, jamoada muloqotni muvofiqlashtirish), shuningdek, kasbiy faoliyat jarayonida axborotning haddan tashqari yuklanishi bilan bog‘liq. Biz pedagoglar faoliyatida kasbiy stressing paydo bo‘lishi – kasbiy faoliyatning noqulay omillari natijasida yuzaga kelgan va amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligini pasayishiga, shuningdek shaxsning deformatsiyasiga olib keladigan keskinlik holati va shaxsning xarakterologik fazilatlari haqida gapirishimiz mumkin.

Shunday qilib, pedagogning stressga chidamliligi kasbiy faoliyat samaradorligi va ishonchliligini ta’minlashning eng muhim omilidir. Stress holatlari jismoniy va ruhiy salomatlikka haddan tashqari, ish samaradorligi va sifatini sezilarli darajada pasaytiradi, faoliyatning psixofiziologik xarajatlari darajasini oshiradi, shuningdek, bir qator qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkin: kasbiy faoliyatidan qoniqishning pasayishi, pedagogning shaxsiy va xarakteristik xususiyatlarining deformatsiyasi kabi.

Kasbiy stress - bu kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan hissiy-salbiy va ekstremal omillarning uzoq muddatli intensiv ta’siri natijasida xodimda yuzaga keladigan stress holati. Kasbiy stress ish samaradorligining pasayishi, ichki noqulaylikning kuchayishi, pedagogik faoliyat bilan bog‘liq ijtimoiy motivlarning

yo‘qolishi, o‘z-o‘zidan va faoliyatdan norozilik, psixosomatik kasalliklar va depressiv holatlarda namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda pedagoglar faoliyati psixogen, intellektual, hissiy tarangliklarga boy. Chunki, kundalik hisobotlar, murabbiylik faoliyati bilan bog‘liq masalalar, pedagogik jamoadagi rahbar-xodim munosabatlaridagi muammolar pedagoglarning pedagogik ijod bilan shug‘ullanishiga vaqt qoldirmaydi, bu ham ruhiy, ham jismoniy charchoq, zo‘riqishlarga olib keladi. Pedagogik faoliyatda namoyon bo‘ladigan kasbiy stress omillarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

mehnat faoliyati bilan bog‘liq omillar: ortiqcha ish yuki, yomon mehnat sharoitlari, vaqt yetishmasligi;

pedagogning pedagogik jamoadagi o‘rni bilan bog‘liq stress omillari: kasbiy mas’uliyatni bajara olmaslik, jamoada e’tirof etmaslik, barcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, ish yukini adolatsiz taqsimlash natijasida yuzaga keladigan noaniqlik, jamoa oldidagi mas’uliyatning o‘ta pastligi, ishtirokining pastligi;

pedagogik jamoada shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq omillar: rahbar, hamkasblar, o‘quvchilar, ota-onalar bilan buzg‘unchi munosabatlar, muloqot muammolari;

pedagogik martaba bilan bog‘liq omillar: kasbiy "muvaffaqiyatsizlik", pensiyaga chiqish qo‘rquvi, kasbiy bilimning yetishmasligi;

kasbiy faoliyatdan tashqari omillar: oilaviy muammolar, surunkali kasalliklar va boshqalar [1].

Pedagogik xodimlarning salomatligi va ularning pedagogik faoliyatining samaradorligi ko‘plab kasbiy sohalarda bo‘lgani kabi, mehnat sharoitlari, jamoadagi muhit kasbiy funktsional majburiyatlarga bog‘liq. Biroq, ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi o‘n yillikda pedagogik faoliyat bilan bog‘liq stress omillari soni ortib bormoqda. Bugungi kunda o‘qituvchilarning ishi psixogen, intellektual, hissiy tarangliklarga to‘la [2]. Darhaqiqat, kundalik hisobotlar, murabbiylik faoliyati bilan bog‘liq masalalar, jamoat ishlariga jalb etish, pedagogik jamoadagi rahbar-xodim munosabatlaridagi muammolar pedagoglarning pedagogik ijod bilan shug‘ullanishiga vaqt qoldirmaydi, ularning ham ruhiy, ham jismoniy charchashiga sabab bo‘ladi.

Pedagog-psixologlarning ish faoliyatida stressni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• Ish yuklamasining haddan ziyodligi: Ko‘p sonli mijozlar bilan ishlash, hujjatlarni to‘ldirish, ma‘muriy vazifalarni bajarish psixologlarning vaqtini va energiyasini sezilarli darajada talab qiladi. Doimiy ravishda yuqori ish yuklamasi ostida bo‘lish emotsional charchashga va stressning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

• Mijozlar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar: Psixologlar turli xil psixologik muammolarga duch kelgan, og‘ir emotsional holatdagi mijozlar bilan ishlashga majbur bo‘lishadi. Bu jarayon psixologlarning o‘zida ham emotsional zo‘riqish, ikkilamchi travmatik stress kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

• Emotsional zo‘riqish (Burnout): Doimiy ravishda insonlarga yordam berishga urinish, ularning qayg‘u va azoblariga sherik bo‘lish psixologlarda

emotsional resurslarning kamayishiga olib keladi. Natijada, charchoq, befarqlik, ishga nisbatan qiziqishning yo‘qolishi kabi burnout sindromi belgilari kuzatilishi mumkin.

• Tashkiliy muhit: Ish joyidagi noqulay sharoitlar, qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, hamkasblar va rahbarlar bilan bo‘ladigan muammolar, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun yetarli resurslarning yo‘qligi psixologlarda stressni kuchaytirishi mumkin.

• Shaxsiy hayot va ish o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi: pedagog-psixologlarning ish vaqti ko‘pincha tartibsiz bo‘lishi, ishdan tashqari vaqtda ham mijozlar bilan bog‘lanish zarurati ularning shaxsiy hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi stressning kuchayishiga va umumiy farovonlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

• Kasbiy mas’uliyat va etik dilemmalar: Psixologlar o‘z ish faoliyatida yuqori darajadagi kasbiy mas’uliyatni his qiladilar va ko‘plab etik dilemmalar bilan to‘qnash kelishlari mumkin. Bunday vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish zarurati pedagog-psixologlarda qo‘shimcha stressni keltirib chiqaradi.

G. Kuper “kasbiy faoliyatdagi stress omillari” so‘rovnomasini o‘tkazdi. Ushbu tadqiqot Melitopol shahridagi turli ish tajribasi va mutaxasisligiga ega bo‘lgan 90 ta maktab o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘qituvchilarning 9 foizi normal holatda, 91 foizi esa sezilarli darajada kasbiy stress holatida ekanligi aniqlandi. Ularning 89,2 foizida stressning bu darajasi normadan oshib ketgan. 1,8 foizida eng yuqori darajaga yetgan. Bu ma’lumotlar o‘qituvchilarning o‘rganish vaqtidagi psixologik holati qoniqarsiz bo‘lgan degan xulosaga kelishga imkon berdi. Bu ma’lumotlar o‘qituvchilarning kasbiy stressini tushunish uchun nazariy asos yaratadi [3].

Olib borilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar xulosasiga ko‘ra quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Pedagogik faoliyat hamisha stressogen omillar bilan o‘ralgan, chunki u ham intellektual, ham ijtimoiy, ham jismoniy faollikni talab qiluvchi “har tomonlama faol” kasb hisoblanadi. Pedagoglarning kasbiy stressga moyillik darajasi ish tajribasiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Unga ko‘ra, kasbiy stress darajasi yuqori bo‘lganlar 15 yilgacha va 15 yildan ortiq ish stajiga ega o‘qituvchilar, kasbiy stress darajasi past bo‘lganlar esa 5 va 10 yillik ish stajiga ega o‘qituvchilar bo‘lgan.

2. Shaxsda stressga chidamlilikni shakllantirishda sanogenik tafakkur, gestalt terapiya, relaksatsiya, kognitiv terapiyadan foydalanish samaralidir.

3. Psixokorreksiya dasturidan foydalanilgandan so‘ng o‘qituvchilarda kasbiy stress darajasi pasayganligi, ularning o‘zini o‘zi qadrlashi, stressli vaziyatlarni adekvat baholashi, o‘z his-tuyg‘ularini refleksli boshqarish qobiliyati, konfliktlarda konstruktiv munosabatlarga intilish tendentsiyasi pasayganligi aniqlandi.

Tavsiyalar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, kasbiy stressni oldini olish maqsadida o‘qituvchilarimiz kun davomida quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari kerak:

¬ kun tartibiga rioya qilish va axborot oqimini nazorat qilish;

¬ kuniga bir marta dam olish mashqlaridan foydalanish;

¬ Bir kunlik aqliy mehnatdan so‘ng, jismoniy mashqlar bilan tanadagi charchoqdan xalos bo‘lish;

¬ Ular oilaning dam olish va felitsitologik funktsiyalaridan foydalanishlari va kun oxirida kulgi terapiyasini olishlari kerak.

Xulosa. Pedagogik xodimlarning salomatligi va ularning pedagogik faoliyatining samaradorligi ko‘plab kasbiy sohalarda bo‘lgani kabi, mehnat sharoitlari, jamoadagi muhit kasbiy funktsional majburiyatlarga bog‘liq. Biroq, ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi o‘n yillikda pedagogik faoliyat bilan bog‘liq stress omillari soni ortib bormoqda. Bugungi kunda o‘qituvchilarning ishi psixogen, intellektual, hissiy tarangliklarga to‘la. Darhaqiqat, kundalik hisobotlar, murabbiylik faoliyati bilan bog‘liq masalalar, jamoat ishlariga jalb etish, pedagogik jamoadagi rahbar-xodim munosabatlaridagi muammolar pedagoglarning pedagogik ijod bilan shug‘ullanishiga vaqt qoldirmaydi, ularning ham ruhiy, ham jismoniy charchashiga sabab bo‘ladi.

Quyidagi vaziyatda stressdan halos bo‘lish va dam olish mashqlariga misollar keltirilgan:

1. Ko‘zlaringizni yumib, taxminan 2 daqiqa harakatsiz yoting. Siz turgan xonani tasavvur qilishga harakat qiling. Birinchidan, butun xonani (devorlar bo‘ylab) aqliy yurishga harakat qiling, so‘ngra tananing butun perimetri bo‘ylab - boshdan to tovongacha va orqada harakat qilish.

2. Nafasingizni diqqat bilan kuzatib turing, burun orqali nafas olayotganingizni passiv ravishda anglab oling. Siz nafas olayotgan havo siz chiqarayotgan havodan bir oz sovuqroq ekanligiga e’tibor berishlik. Nafas olishingizga 1-2 daqiqa e’tiboringizni qarating. Boshqa hech narsa haqida o‘ylamaslikka harakat qilish.

3. Sayoz nafas oling va nafasingizni bir zum ushlab turing. Shu bilan birga, butun mushaklarni bir necha soniya davomida keskin tarang qilib, butun tanadagi kuchlanishni sezishga harakat qilish. Nafas olayotganda dam olish va 3 marta takrorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barabanshchikova V.V. Professionalnye deformatsii v professiyax innovatsionnoy sfery / avtor. Dis dock. Psixol n., M., 2016.- 36 p.

2. Е.Л. Марковец. Специфика профессилнального стресса школьного учителя. Научная статья.

3. Bagnetova E.A Obraz jizni i prfessionalnve faktori riska zdorove pedagoga.RIO Sur GPU, 2017. - 6 p.

4. Логинова А. В. Профессиональный стресс и синдром профессионального выгорания в педагогической деятельности // Молодой ученый. 2015. No11.

5. Bodrov V. A. Psychological stress: development of learning and modern problems. M .: Izdvo «Institute of Psychology RAN». 1995.

6. Leonova, A.B. Psychoprophylaxis of stress / A.B. Leonova, A.S. Kuznetsova. - M .: MGU, 2003

YANGI O’ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK TA’LIM BERISHDA GENDER TENGLIKNING O‘RNI VA TA’SIRI

Maxsudova Mutabarxon
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Kamoliddinov Anvarjon
Psixologiya kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gender tenglikning shaxsiy rivojlanishdagi ahamiyatini tahlil qilinadi. Gender tenglikning asosiy tushunchalari, shuningdek, uning shaxsning ijtimoiy va psixologik moslashuviga ta’siri haqida so‘z boradi. Maqolada gender stereotiplari va ulardan xalos bo‘lish usullari, shuningdek, ta’lim va tarbiyaning bu jarayondagi o‘rni o‘rganilgan. Gender tenglik, nafaqat jamiyatda teng imkoniyatlar yaratishda, balki har bir shaxsning o‘zini erkin rivojlantirishiga xizmat qiladigan muhim tamoyil sifatida ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, shaxsiy rivojlanish, stereotiplar, ijtimoiy moslashuv, ta’lim*

Аннотация: *Статья посвящена анализу роли гендерного равенства в личностном развитии. Рассматриваются основные концепции гендерного равенства и его влияние на социальную и психологическую адаптацию личности. В статье также анализируются гендерные стереотипы, способы их преодоления, а также роль образования и воспитания в этом процессе. Гендерное равенство рассматривается как важный принцип, который способствует не только созданию равных возможностей в обществе, но и свободному развитию каждого человека.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, личностное развитие, стереотипы, социальная адаптация, образование*

Abstract:*This article examines the importance of gender equality in personal development. It explores the main concepts of gender equality and its impact on an individual’s social and psychological adaptation. The paper also analyzes gender stereotypes, ways to overcome them, and the role of education and upbringing in this process. Gender equality is presented as a crucial principle that not only creates equal opportunities in society but also enables each person to freely develop their potential.*

Keywords: *gender equality, personal development, stereotypes, social adaptation, education*

Bugungi kunda jamiyatda gender tenglikning ta’minlanishi har qachongidan muhimroq masala bo‘lib qolmoqda. Gender tenglik, o‘zgalar bilan teng muomala qilish va hamma uchun bir xil imkoniyatlar yaratish, nafaqat jamiyatni barqarorlashtiradi, balki har bir shaxsning o‘zini o‘zi anglash va o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishiga yordam beradi. Jamiyatda gender tenglikning yo‘lga qo‘yilishi insonning shaxsiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Aynan shaxsiy rivojlanish jarayonida gender tenglikning o‘rni va ta’siri nafaqat shaxsning ruhiy holati va barqarorligini ta’minlash, balki jamiyatda umumiy ijtimoiy barqarorlikni yaratishning asosiy omili hisoblanadi. Gender tenglik inson shaxsining har tomonlama rivojlanishida muhim omillardan biri sanaladi. Psixologlar, sotsiologlar va pedagoglar fikriga ko‘ra, gender tenglik shaxsiy imkoniyatlar, ta’lim olish huquqi, kasbiy tanlov, ijtimoiy faoliyat va psixologik barqarorlik uchun teng sharoitlar yaratadi. Masalan, amerikalik sotsiolog Judith Butler gender ierarxiyasining buzilishi orqali jamiyatda individning o‘zini to‘laqonli anglash va namoyon qilish imkoniyati kengayishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, "gender tenglik inson erkinligini kengaytiradi va shaxsning ichki potensialini yuzaga chiqaradi" [1].

Ushbu maqolada gender tenglikning shaxsiy rivojlanishdagi ahamiyati va uning ijtimoiy-psixologik ta’siri keng ko‘lamda yoritiladi. Gender tenglikning asosiy prinsiplarini tushunib, shaxsiy rivojlanishga ta’sirini tahlil qilib, ijtimoiy stereotiplarga qarshi kurashish usullari hamda ta’lim va tarbiya tizimining bu jarayondagi roli ko‘rsatiladi.

Gender tenglik – bu erkaklar va ayollarning huquq, imkoniyat va mas’uliyatlarda teng bo‘lishini anglatadi. Bu tenglik shunchaki formal tenglik emas, balki hayotning barcha jabhalarida — ta’lim olish, ishga joylashish, rahbarlik lavozimlarida ishlash, qaror qabul qilish, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish va oilaviy hayotda teng huquqlilikni nazarda tutadi.Gender tushunchasi biologik jinsdan farqli ravishda, insonning jamiyatda belgilangan ijtimoiy roli sifatida qaraladi. Shu bois, gender tenglik faqat erkak va ayollar o‘rtasidagi farqni emas, balki ushbu farq asosida yuzaga keladigan imkoniyatlar va huquqlardagi nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

Bu borada ingliz olimasi Anne Phillips quyidagicha ta’kidlaydi: *"Gender tenglik faqatgina ayollar manfaatini ko‘zlamaydi, balki barcha insonlarning ijtimoiy va siyosiy ishtirokini to‘liq ta’minlash orqali jamiyatni yanada adolatli qiladi. Tenglik – bu nafaqat imkoniyatlar, balki tanlov erkinligini ta’minlashdir"* [2].

Phillipsning fikriga ko‘ra, gender tenglikni chuqur anglash uchun insonlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstdagi pozitsiyalarini tahlil qilish zarur. Shuningdek, u gender tenglikni demokratiyaning muhim sharti deb biladi.

Gender tenglik tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy tamoyillar quyidagilardir:

- **Imkoniyatlar tengligi**: Har bir shaxs o‘z qobiliyati, bilim va tajribasiga qarab rivojlanishi kerak, nafaqat jinsiga qarab.
- **Adolat:** Erkaklar va ayollar o‘rtasida iqtisodiy va ijtimoiy adolatni ta’minlash.
- **Erkinlik:** Shaxsning o‘z jinsiga qarab emas, balki o‘z qobiliyati va xohishlariga asoslanib harakat qilish huquqi.

Gender tenglik tushunchasi nafaqat huquqiy jihatni, balki ijtimoiy va psixologik aspektlarni ham o‘z ichiga oladi. Shaxsning o‘zligini anglash, o‘z maqsadlariga erishish va o‘zini jamiyatda erkin namoyon qilish jarayonida gender tenglikning roli katta.

Shaxsiy rivojlanish — bu shaxsning jismoniy, intellektual, emotsional va ijtimoiy o‘sishi jarayonidir. Gender tenglik bu jarayonni yanada yaxshilaydi, chunki u har bir shaxsga o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish imkonini beradi. Agar jamiyatda gender tengligi bo‘lmasa, bu erkaklar va ayollarning o‘z potensialini to‘liq amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladi.

Psixologik nuqtai nazardan, gender tenglik shaxsning o‘z-o‘zini anglashiga, o‘z o‘rnini jamiyatda topishiga va maqsadlariga erishishiga yordam beradi. Ayniqsa, ayollar uchun gender tengligi shaxsiy rivojlanishning to‘liq amalga oshishi uchun zarur bo‘lib, bu ularning o‘zlarini erkin his qilishlari va o‘ziga ishonchni oshirishlariga xizmat qiladi. Gender tenglikning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u

nafaqat jinslar o‘rtasidagi farqlarni bartaraf etishga, balki insonning o‘zini anglash va o‘z hayotini boshqarishga imkon yaratadi.

Yevropa psixologlari ichida Carol Gilligan shaxsiy rivojlanishda gender asosidagi yondashuv farqlari muhim ekanligini bildiradi. U ayollar va erkaklarning axloqiy qarorlar qabul qilishda turli yondashuvlarga ega ekanligini, bu esa ularning o‘sish yo‘lini shakllantirishini ta’kidlaydi. Shunga ko‘ra, gender tenglik insonning o‘z imkoniyatlarini aniqlash, qaror qabul qilish va shaxsiy mas’uliyatni anglashiga yordam beradi [3].

Jamiyatdagi ijtimoiy rol esa o‘ziga xos tarzda shakllanadi. Gender tenglik bu rollarni aniqlashda ijtimoiy stereotiplardan holi bo‘lishni ta’minlaydi. Odamlar o‘zlarining gender rolini faqat jamiyat tomonidan belgilangan stereotiplarga asoslanib ko‘rmasdan, balki o‘zlari tanlagan va qabul qilgan yo‘lga qarab rivojlanishlari kerak.

Jamiyatda mavjud bo‘lgan gender stereotiplari ko‘p hollarda shaxsning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. "Erkaklar faqat ish bilan shug‘ullanishi kerak, ayollar esa uyda qolishi kerak" degan stereotiplar, "ayollar hissiyotlari bilan boshqaradi, erkaklar esa mantiqan fikrlaydi" kabi qarashlar shaxslar o‘rtasida o‘zgartirishlarga yo‘l qo‘ymaydi. Bu stereotiplar jamiyatni cheklab qo‘yadi va har bir shaxsning o‘zini erkin rivojlantirishiga to‘sqinlik qiladi. Simone de Beauvoir esa ayollarning erkinligini cheklovchi gender stereotiplarining shaxsiy o‘sishga to‘sqinlik qilayotganini ta’kidlab, “inson ayol tug‘ilganidan emas, ayolga aylantirilganidan” degan mashhur gapi orqali jamiyatdagi ijtimoiy rol va shaxsiy identifikatsiya o‘rtasidagi ziddiyatga e’tibor qaratgan [4].

Gender stereotiplari ijtimoiy rollarni belgilab qo‘yadi va ularga qarshi kurashish jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ularning yo‘q qilinishi uchun jamiyatda ijtimoiy, ta’lim va madaniyat tizimlari o‘zgarishi kerak. Ta’lim muassasalarida genderga asoslangan stereotiplardan xoli ta’lim dasturlarini joriy etish, yoshlar o‘rtasida gender tenglikni targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega.

Gender tenglikning shaxsiy rivojlanishdagi o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Amartya Sen – Nobel mukofoti sohibi va iqtisodchi olim, o‘zining “Capability Approach” nazariyasida gender tenglikni insoniy rivojlanish uchun shart deb hisoblaydi. U ayollar va erkaklar teng imkoniyatga ega bo‘lmas ekan, jamiyatda na ijtimoiy taraqqiyot, na shaxsiy yuksalish bo‘ladi degan fikrni ilgari suradi [5].

Jamiyatda gender tengligini ta’minlash nafaqat jinslar o‘rtasidagi adolatni tiklash, balki har bir shaxsning imkoniyatlarini kengaytirish va o‘zini to‘liq rivojlantirishga yordam beradi. Shaxslar o‘rtasidagi gender tenglik nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy farqlarni bartaraf etishga, balki har bir shaxsning psixologik barqarorligini va o‘zligini anglashga imkon yaratadi. Yaqin yillarda gender psixologiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan rus olimasi T.V. Alekseeva o‘z ishlarida gender tenglikning yoshlarda ijtimoiy faollik, o‘ziga ishonch va kasbiy o‘sishga ta’siri borligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, "gender jihatidan teng sharoitda tarbiyalangan shaxslar ijtimoiy rolni samarali bajarishadi va o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida qat’iy bo‘lishadi" [6]

Shaxsiy rivojlanish jarayonida gender tenglik, ta’lim va tarbiya tizimi hamda jamiyatdagi stereotiplarga qarshi kurashish mexanizmlari hamkorlikda ishlashi zarur. Faqatgina gender tenglik tamoyilini kengroq joriy etish orqali biz jamiyatni yanada barqaror va rivojlangan qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Батлер Дж. Гендерный сбой. Феминизм и подрыв идентичности. — М.: Новое литературное обозрение, 2005. — 320 с.
2. Phillips A. *Which Equalities Matter?* — Cambridge: Polity Press, 1999. — 200 p.
3. Gilligan C. In a Different Voice: Psychological Theory and Women’s Development. — Cambridge: Harvard University Press, 1982. — 184 p.
4. Бовуар С. де. Второй пол. — М.: АСТ, 2020. — 768 с.
5. Sen A. Development as Freedom. — Oxford: Oxford University Press, 1999. — 384 p.
6. Алексеева Т.В. Гендерная психология: Учебное пособие. — М.: Академический проект, 2014. — 240 с.

MAMLAKATIMIZDA PSIXOLOGIYA FANINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY BOSQICHI

Otamuratov Rustam Uskanovich,
assistent o‘qituvchi, Oila psixologiya kafedrasi
O‘zMU Jizzax filiali, O‘zbekiston.
Jurayeva Muxlisa Saydaxmad qizi,
talaba, Oila psixologiya kafedrasi
O‘zMU Jizzax filiali, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Psixologiya fanini o‘qitishning yangi bosqichi, asosan, yangi texnologiyalar, pedagogik usullar va o‘qitishni ko‘maklashuvchi usullar yordamida talabalarga psixologik bilimlar va ko‘nikmalarni berishga qaratilgan. Bu bosqichda, o‘quv dasturlarida yangi o‘quv usullari, interfaol darslar, yangi texnologiyalardan foydalanish (masalan, video darslar, onlayn o‘quv materiallari) va o‘qitishni ko‘maklashuvchi dasturiy mahsulotlardan foydalanish keng qo‘llaniladi. Bu, psixologiya fanini o‘qitishning samaradorligini oshiradi va talabalarga bilimlar va ko‘nikmalarni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *texnologiya, pedagogika, texnika,ko‘nikma, interfaola dars, video dars, onlayn o‘quvlar, innovatsiya.*

Аннотация. *Новый этап преподавания психологии направлен на формирование у студентов психологических знаний и навыков, прежде всего, за счет использования новых технологий, педагогических методов и средств обучения. На этом этапе в учебных программах широко используются новые методы обучения, интерактивные уроки, использование новых технологий (например, видеоуроки, онлайн-материалы для обучения), использование программных продуктов для поддержки обучения. Это повышает эффективность преподавания психологии и помогает студентам лучше усваивать знания и умения.*

Ключевые слова: *технология, педагогика, методика, навыки, интерактивный урок, видеоурок, онлайн-обучение, инновации*

Annotation. *The new stage of teaching psychology is aimed primarily at providing students with psychological knowledge and skills using new technologies, pedagogical methods and teaching aids. At this stage, new teaching methods, interactive lessons, the use of new technologies (for example, video lessons, online learning materials) and software products that support teaching are widely used in curricula. This increases the effectiveness of teaching psychology and helps students better master knowledge and skills.*

Keywords: *technology, pedagogy, technique, skills, interactive lessons, video lessons, online learning, innovation*

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi [1]. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda [2, 4-b].

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Bu borada har bir ta’lim oliygohida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan nafaqat maxsus bilimlarni uzatish, balki talaba shaxsini rivojlantirish va kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun ham foydalanish kerak [3, 3-b].. Psixologik sikl fanlarida bu texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak mutaxassislarga ruhiy hayotning asosiy qonuniyatlarini o‘rganish, ularning zaif va kuchli tomonlarini, individual psixologik xususiyatlarini (xarakter, qobiliyat, motivlar) o‘rganish, boshqa odamlar va ularni o‘rab turgan dunyo haqida bilish imkonini beradi.

“Innovatsiya” tushunchasini har qanday tizimdagi sifat o‘zgarishlariga, asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat shakllarini ishlab chiqishga qaratilgan faoliyat sifatida tavsiflash mumkin va shuning uchun belgilangan tizimdan tashqariga chiqadi va kasbiy faoliyatni yuqori sifat ko‘rsatkichiga aylantiradi [4, 7-b].

Innovatsiyalar mazmunini tavsiflab, V.P. Kvasha ta’kidlaydi: “Innovatsion jarayon - bu pedagogik innovatsiyalarning dinamik birligi, ularni pedagogik hamjamiyat tomonidan ishlab chiqish va ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanish” [5, 4-b].

Hozirgi vaqtda universitetlarda psixodidaktika, umumiy va amaliy psixologiyaning nazariy jihatlariga asoslanib, har bir talabaning individualligi va o‘quv jarayonining o‘zgaruvchanligiga qaratilgan turli innovatsion texnologiyalar qo‘llanilmoqda [6, 4-6-betlar]. Mamlakatlar o‘rasidagi mobillik dasturi ham nafaqat yangi innovatsiya balki, bu davlatlar o‘rtasidagi mehr oqibat va qadriyatlar sislsilasida vujudga keladigan yangi dars mashg‘ulotlaridagi an’anaviylikni, zamonaviy sifatlarni ochib bersa ajab emas.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, oliy ta’lim muassasalarida ma’ruzalar ijodiy yondashish, ilmiy bilimlar olamiga jalb qilish, zamonaviy ilmiy muammolar mavzusi bo‘yicha turli xil tadqiqotlarning butun majmuasini ochib berish, shu jumladan didaktik ekskursiyalardan foydalangan holda tashkil etilishi kerak. Hozirda eng ommalashayotgan dars mashg‘ulotlaridan biri bu ZOOM platformalari, online chatlar orqali amalga oshirilayotgan darslar sanaladi. Ushbu draslarni tashkil etishda bir qator qulayliklar va kamchiliklar mavjud. Qulayliklar vaqtni tashkil etish bir vaqtning o‘zida ko‘plab tinglovchilarga bir xil mavzuda ma’ruzalar, nutqlar yetkazish imkoniyati paydo bo‘ladi, diqqat jamlashi ko‘rsatkichlari oshadi, har xil videolar va vizula effektlar orqali darslar yaxshi tashkil etiladi. Kamchiliklar aloqaning sifatsizligi, turli toifadagi qiziquvchilar auditoriyasi, yuzma-yuz muloqot yo‘qligi va shu kabi qator kamchiliklar mavjud.

Ammo zamonaviy pedagogikada qator yangi innovatsion texnologiyalar mavjudki, ular bilan har qanday dars mashg‘ulotlarini qiziqarli, samarali va eng muhimi natijaviyligini yuqori etib tashkil etish mumkin. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning bilimlarini baholash hamda ularga nisbatan real haqqoniy, ochiq va shaffof tarzda adolatli baholash uchun ularning bilimlarini baholash tizimlarini pedagoglar juda yaxshi bilishlari lozim. Har bir talabaning bilimini baholash jarayonida talabaning tafakkurini, shu muammo yuzasidan chiqara oladigan mustaqil qarorlarini har bir pedagog diqqat bilan tinglashi anglashi va eng muhimi adolatli baholay olishi kerak. Ayni zamonamizda ta’lim tizimimizga qaratilayotgan ulkan imkoniyatlarni hisobga olgan holda talabalarning o‘qitish tizimiga alohida urg‘u berilib kelinmoqda. Shu yuzasidan oliy ta’lim tizimimizda yuzaga kelayotgan yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, ularning har bir auditoriyada foydalanishi bu bizning ta’limimizning kata muvafaqqiyati sanaladi. Ayniqsa, davlatimiz tomonidan oliygoh talabalarining zamonaviy innovatsion texnologiyalarning amaliy tarzda ishlatilishi bu ushbu yo‘nalish doirasida bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Psixologiya fanlarini o‘qitish davomida auditoriya soatlaridan tashqari talabalarga mustaqil izlanishlari, o‘z ustida ishlashlari uchun davlatimiz va hukumatimiz tomonidan juda ko‘plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Talabalarning psixologiya fanini o‘qishi ular uchun turli xildagi zamonaviy innovatsion texnologiyalar joriy etib kelinmoqda. Ularning ayrimlari talabalarni bilimlarini real baholay olishi uchun asos bo‘la oladi. Dars davomida pedagoglar tomonidan qo‘llaniladigan har qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarga bilim berishning samarali usullarini o‘ylab topishga va pedagogning o‘z ustida tinmasdan ishlashiga zamin yaratadi hamda dars mashg‘ulotlarini qiziqarli tarzda amalga oshirishga yordam beradi.

Ma’lumki pedagogikada «Didaktik tizim» tushunchasi ancha qadimdan shakllangan. Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda, o‘rganilayotgan material mazmuni, uni etkazish shakli va metodlari, hamda shu kabilarni belgilash orqali o‘qitish jarayonida foydalaniladi. Yana bir tarafdan tarbiyaning ikkinchi tushunchasi mantiqida didaktik tizim –o‘zi tarbiyaviy tizimining – didaktik tizimida ishtirok etadi, ya’ni uning tizimi hisoblanadi. Pedagogning kasbiy pedagogik madaniyat –

uning pedagogik kasbga ega bo‘lgan, uning umumiy madaniyatini loyihalashtiradigan o‘qituvchi shaxsining ajralmas sifati hisoblanadi. Pedagogik madaniyatga egalik deganda, pedagogik tafakkur va ongi yaxshi rivojlangan, ijodiy salohiyatga ega bo‘lish tushuniladi Tarbiyadan boshqa yondashish insonparvarlik tarbiyaviy tizimini yaratish bilan bog‘liq. Bu yondashish birinchi navbatda, individuallashtirish jarayoni bilan mos keladi. Yana bir bor eslatib o‘tamiz, individuallashtirish - bizning tushunishimizcha,- bu o‘quvchi yoshlarda mavjud yoki o‘zining individual tajribasida egallagan yagona, alohida va o‘ziga hosligini ta’minlab turish va rivojlantirish bo‘yicha kattalarning hamda bolaning o‘ziga tegishli bo‘lgan faoliyatlari. Shaxsni individuallashtirish uning “o‘zligini” rivojlantirish, shunday qilib, keng ma’noda insonparvarlik tarbiyaviy tizimini tashkil etadi.

1. Portfolio o‘quvchilarning individual yutuqlarini qayd etish, jamlash, baholash va o‘z-o‘zini baholashning haqiqiy shaklidir. Bu texnologiyaning maqsadi talabani adekvat o‘zini o‘zi baholashga, shakllantirishga o‘rgatishdir, ijodiyligini aks ettirish qobiliyati, shuningdek, ularning ta’lim va kasbiy faoliyatini baholash. Yaratish maqsadi va vazifasiga qarab bir necha turdagi portfoliolarni ajratish mumkin:

- yutuqlar portfoliosi - talabaning turli xil faoliyat turlarida (seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar, o‘quv amaliyoti, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash) individual yutuqlarini aks ettirish;
- aks ettiruvchi portfolio - shaxsiy rivojlanish jarayonining namoyishi;
- muammoli tadqiqot portfoliosi - tezislar, ma’ruzalar, insholar yozish va omma oldida nutq so‘zlashga tayyorgarlik ko‘rish (universitet va universitetlararo ilmiy konferentsiyalar);
- tematik portfolio - muayyan psixologik fanni o‘rganish jarayonida yaratilgan.

Portfolio dars jarayonida darsdan bo‘sh vaqtlarda ham talabalarning bilimini nazorat qilish, ularga adekvat baho berish imkoniyatiga ega sanaladi. Portfolio to‘ldirish jarayonida talabalar o‘zining olgan baholarini bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, bu esa ularda o‘qishga, faoliyatga nisbatan motivatsiya tug‘ilishiga olib keladi.

2. Psixologik eksperimentlar - kognitiv jarayonlar va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Ba’zi universitetlarda psixologik hodisalar, motivatsiyalar va individual-shaxsiy xususiyatlarni o‘rganish uchun “Multipsychometer-05” deb nomlangan diagnostika uskunalari majmuasi mavjud [9,10]. Ushbu apparat yordamida mijozning yoki bemorning umumiy salomatlik, jismoniy faoliyat, jismoniy holatning rol faoliyatiga ta'siri, hissiy holatning rol ishlashiga ta’siri, og‘riqning intensivligi, hayotiyligi va ruhiy salomatlik holatini o‘z-o‘zini baholashda sezilarli farqlar aniqlanadi.

Ammo yana bir muhm jihat shuki, nomutaxassislik yo‘nalishi talabalariga ham psixologiya fanidan darslar tashkil etiladi, bunda o‘zlarining “asosiy bo‘lmagan mutaxassisliklar talabalariga psixologiyani o‘qitishning innovatsion texnologiyalari” maqolasida V.O. Korotkova va O.V. Lobza ta’kidlashicha, “ushbu

noyob qurilma talabaga testlarning vizual va amaliy qo‘llanilishini va ularning ob’ektivligini, ularning kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini ko‘rish imkoniyatini beradi" [7, 1-b].

3. Treninglar. Trening mashg‘ulotlarining maqsadi og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini, fazoviy xatti-harakatlar usullarini (yurish, pozitsiyalar, imo-ishoralar) shakllantirish va kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan bashorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Har bir kishi trening vaqtida turli pozitsiyalarda ishtirok etishi ularda bu vaziyatlarda qaror qabul qilishi, fikrlashi va psixik tomondan o‘zini anglashini rivojlantiriadi.

E.V. Bobylev, E.A. Gorshkov, E.G. Patrikeeva, I.Yu. Troitskaya “o‘quvchilarni nafaqat qiyin vaziyatdan konstruktiv chiqishga o‘rgatadigan, balki katartik ta’sir ko‘rsatadigan, ya’ni o‘quvchilarga muammoni boshdan kechirishdan konstruktiv hal qilishga o‘tishga imkon beradigan hissiy taranglikni yengillashtiradigan” pedagogik vaziyatlarni o‘ynashni o‘qitishning muhim tarkibiy qismi deb hisoblaydi. [8, 5-b].

4. Biografik usul - psixik hodisalarni o‘rganish maqsadida sub’ektni kuzatish va uning biografik ma’lumotlari o‘rtasida sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish.

5. Faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish - psixologiya bilimlarini o‘z-o‘zini bilish va boshqalarni bilish usuli sifatida qo‘llash uchunfoydalaniladi.

Xulosa. Bugungi kunda psixologiya fani butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va o‘rganilayotgan sohalardan biridir. Shu bilan birga, mamlakatimizda psixologiya o‘qitishining samarali rivojlanishi uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, fan bo‘yicha yangi kurslar va dasturlarni yaratish, psixologik xizmatlar tizimini takomillashtirish zarur. Psixologiyaning o‘qitilishidagi zamonaviy yondashuvlar, nafaqat talabalarga, balki jamiyatning psixologik salomatligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, mamlakatimizda psixologiya fanining o‘qitish jarayoni zamonaviy uslublar va texnologiyalarni o‘z ichiga olgan holda rivojlanmoqda, bu esa uning ahamiyatini va o‘quv jarayonidagi samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam bermoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637 sonli Qonuni, 23.09.2020.
2. Otamuratov R., Husenova M. MALAKATIMIZDA INKLYUZIV TA’LIM TARAQQIYOTI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 271-274.
3. Otamuratov R., Muhammadiyev A. PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 266-269.
4. Отамуратов Р., Юлдошев Н. Ijtimoiy fanlar tizimida yuridik psixologiyaning umumiy vazifalari //Новый Узбекистан: наука, образование и инновации. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 650-652.
5. Otamuratov R. U. Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarning aloqasi //MedUnion. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 177-182.
6. Отамуратов Р., Отамуратова С., Розикулова Д. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 423-428.

7. Otamuratov R. U. O‘SMIRLARDAGI KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special Issue 1. – С. 49-54.
8. Отамуратова С., Отамуратов Р. Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarining psixologik tahlili //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 323-328.
9. N.X.Avliyakulov, N.N.Musaeva., Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Toshkent: Cho‘lpon NMIU, 2012. 208 b.
10. Отамуратов, Р. У. Психологические особенности эмоционального интеллекта человека в интернет-среде (на примере молодёжь) / Р. У. Отамуратов, П. Н. Устин // Мир науки. Педагогика и психология. — 2023. — Т. 11. — No 5. — URL: https://mir-nauki.com/PDF/15PSMN523.pdf

TEXNOLOGIK IMKONIYATLAR ICHIDA ChatGPT HAMDA SUN’IY INTELEKTNING TA’LIM VA HIZMAT SAMARADORLIGIGA IJOBIY TA’SIRI

Andijon davlat texnika instituti
“Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi”assistenti:
Kamilov Rashid Abdunabi o‘g‘li
Email: rashidbekkamilov93@gmail.com
+998(33) 415-08-78
+998(90) 542-08-78

Annotatsiya: *Ushbu maqola ChatGPT sun’iy intellekt modelining ilmiy sohalarda qo‘llanilishini o‘rganadi. Maqolada ChatGPT ning ilmiy matnlarni tahrirlash, tarjima qilish va ilmiy izlanishlarda yordam berishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida ChatGPT ning o‘zbek tilidagi imkoniyatlari va cheklovlari muhokama qilinadi. Maqola ilmiy tadqiqotlarda sun’iy intellektning samarali qo‘llanilishi uchun tavsiyalarni taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar: *ChatGPT, sun’iy intellekt, ilmiy matn, o‘zbek tili, tahrirlash, tarjima, ilmiy izlanish, texnologik imkoniyatlar, tilni qayta ishlash, O‘zbekiston.*

Kirish: *Zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti insoniyatning bilim olish, tahlil qilish va axborotni qayta ishlash uslublarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Xususan, sun’iy intellekt (SI) sohasidagi yutuqlar turli fan yo‘nalishlarida innovatsion yechimlar yaratish imkonini bermoqda[1.B – 22]. 2022-yilda OpenAI kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan ChatGPT modeli sun’iy intellektning amaliy qo‘llanilishiga yangi bosqich olib keldi. Ushbu model tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) texnologiyalariga asoslangan bo‘lib, turli sohalarda, xususan, ilmiy izlanishlarda muhim vositaga aylanishi mumkin.*

Eng birinchi galda sun’iy intellekt va ChatGPT modelining qisqacha tavsifi to‘g’risida to‘xtalib o‘tsak:

I. Sun’iy intellekt va ChatGPT modelining qisqacha tavsifi - Sun’iy intellekt (SI) – bu inson aqliga xos funksiyalarni, ya’ni o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish va til bilan ishlash imkoniyatlarini kompyuterlar orqali amalga oshirishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. Sun’iy intellekt dastlab 1950-yillarda ilmiy doiralarda muhokama qilingan bo‘lsa-da, aynan so‘nggi o‘n yillikda u jadal rivojlanib, kundalik hayotimizga kirib keldi. ChatGPT (Generative Pre-trained Transformer) modeli OpenAI tomonidan yaratilgan bo‘lib, u katta hajmdagi matnlar ustida oldindan o‘rgatilgan va foydalanuvchi so‘rovlariga tabiiy tilda javob bera oladigan tizimdir[2.B – 15]. ChatGPT GPT-3 va GPT-4 modellariga asoslangan

bo‘lib, ular milliardlab parametrlarni o‘z ichiga olgan sun’iy neyron tarmoqlardan tashkil topgan.

“ChatGPT”ning asosiy imkoniyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Matnli ma’lumotlarni tahlil qilish;
- Ma’lumotlarni qisqacha bayon qilish;
- Matnlarni tarjima qilish;
- Fikrlarni tizimli bayon etish;
- Ilmiy matnlar yozishda yordam berish.

Bu xususiyatlar ChatGPT”ni ilmiy sohalarda foydalanish uchun qulay vositaga aylantiradi.

I. ChatGPT”ning ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanilishi - ChatGPT sun’iy intellekt modelining ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanilishi turli jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda bu model ilmiy izlanishlarni soddalashtirish va tezlashtirishda katta yordam berishi mumkin. Quyida ChatGPT”ning ilmiy sohalarda qo‘llanilishining ba’zi asosiy yo‘nalishlari keltirilgan:

1.1. Ilmiy matnlarni tahrirlash va yozish - Ilmiy tadqiqotlar uchun maqola, dissertatsiya yoki ilmiy monografiya yozish murakkab jarayon bo‘lib, ayniqsa, matnni aniq va lo‘nda ifodalash talab qilinadi.

1.2. Ilmiy izlanishlarni tezlashtirish - ChatGPT, shuningdek, ilmiy izlanishlarda yordam beruvchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Misol uchun, u ma’lum bir ilmiy sohada mavjud bo‘lgan adabiyotlarni tezda tahlil qilish va muhim ma’lumotlarni ajratib olishda yordam beradi.

1.3. Tarjima va tilni qayta ishlash - Bir nechta tilni bilish, ilmiy izlanishlarning global miqyosda tarqalishini ta’minlaydi. ChatGPT nafaqat ingliz tilidan, balki boshqa tillardan ham yuqori sifatli tarjima qilish imkoniyatiga ega[3.B – 24].

II. ChatGPT”ning O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlarida qo‘llanilishi - O‘zbekiston ilmiy doiralarida ChatGPT sun’iy intellekti hali to‘liq o‘zlashtirilmagan bo‘lsa-da, uning imkoniyatlari to‘g‘risida faol suhbatlar davom etmoqda.

2.1. Mahalliy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish - ChatGPT”ni O‘zbekiston ilmiy adabiyotlarini tahlil qilish va ularni tarjima qilishda foydalanish mumkin.

2.2. Ilmiy ta’limda yordam berish - ChatGPT nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki ilmiy ta’lim jarayonida ham foydali bo‘lishi mumkin. Talabalar va o‘qituvchilar uchun ChatGPT bilimlarni tez o‘rganish, savollar va javoblar orqali mavzularni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy ta’lim sifatini oshiradi.

III.ChatGPT”ning ilmiy sohalardagi cheklovlari - ChatGPT modellari ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etishiga qaramay, ularning ilmiy sohalarda qo‘llanilishi ba’zi cheklovlarga ham ega. Quyidagi masalalar sun’iy intellektni ilmiy ishlarda qo‘llashda jiddiy muammolar yaratishi mumkin:

3.1. Mavjud ilmiy ma’lumotlarning cheklanganligi - ChatGPT faqat mavjud bo‘lgan ma’lumotlarga tayanadi. Agar yangi yoki kam ma’lumotga ega bo‘lgan sohalarda so‘rovlar berilsa, model aniq va to‘liq javob berishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu cheklov sun’iy intellektning ilmiy tadqiqotlarda samaradorligini pasaytiradi.

3.2. Etik va axloqiy masalalar - ChatGPT sun’iy intellektining imkoniyatlari ortib borgan sari, uning etik va axloqiy masalalariga ham e’tibor qaratilishi kerak[4.B – 11]. Foydalanuvchilar tomonidan berilgan savollarga sun’iy intellekt asosida javoblar ishlab chiqilishi, ba’zi hollarda axloqiy nuqtai nazardan noxush natijalarga olib kelishi mumkin.

Ilmiy tarjima qilishdagi imkoniyatlari - ChatGPT tabiiy tilni qayta ishlashda ilg‘or model bo‘lib, u turli tillar o‘rtasida tarjima qilish imkoniyatiga ega. Bu quyidagi jihatlarda foydali bo‘lishi mumkin:

- O‘zbek tilidan ingliz tiliga va aksincha tarjima qilish: Ilmiy maqolalarni xalqaro nashrlarda chop etish uchun sifatli tarjima zarur. ChatGPT matn kontekstini tushunib, terminologiyalarga mos tarjima taklif etadi.
- Terminologik aniqlik: Model ko‘plab ilmiy atamalarga ega bo‘lgani sababli, tarjimalarda ilmiy terminlarga mos variantlarni taklif etadi.
- Teskari tarjima (back-translation) orqali tarjima sifatini tekshirish imkoniyati mavjud.

Ilmiy izlanishlarda yordam berishdagi imkoniyatlari - ChatGPT ilmiy izlanish jarayonida quyidagilarga ko‘maklashadi:

- Adabiyotlar sharhi (literature review): Foydalanuvchi tomonidan berilgan mavzu bo‘yicha muhim tadqiqotlar, nazariyalar va mualliflar haqida qisqa va mazmunli sharhlar taqdim eta oladi.
- Gipoteza ishlab chiqish: Ma’lum bir mavzu doirasida tadqiqot savollari yoki gipotezalarni shakllantirishda yordam beradi.
- Metodologik tavsiyalar: Tadqiqot metodlari, tahlil uslublari bo‘yicha umumiy tushuncha va misollar bilan yordam ko‘rsatadi.
- Ma’lumotlarni umumlashtirish: Katta hajmdagi ilmiy matnlar asosida qisqacha xulosa chiqaradi yoki taqqoslovchi tahlil beradi.

Imkoniyatlari:

-O‘zbek tilida muloqot qilish qobiliyati: ChatGPT o‘zbek tilida berilgan so‘rovlarni qabul qilib, mantiqiy, grammatik jihatdan to‘g‘ri va mazmunli javob bera oladi. Bu imkoniyat foydalanuvchilarga sun’iy intellektdan ona tilida foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa, ta’lim va ilmiy izlanishlar sohalarida bu katta qulaylikdir.

-Ilmiy va axborot matnlarini qayta ishlash: Model o‘zbek tilidagi ilmiy matnlarni o‘qib, tahlil qilish, xulosalar chiqarish va qisqacha mazmun tayyorlash kabi funksiyalarni bajarishga qodir. Bu esa ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar, talabalar va o‘qituvchilar uchun samarali vosita hisoblanadi.

-O‘zbek tilida tarjima qilish: Ta’lim tizimida yordamchi vosita - O‘zbek tilidagi bilimlar asosida ChatGPT o‘quvchilarga fanlarni o‘rganishda, savol-javoblar orqali mashq qilishda, murakkab tushunchalarni soddalashtirib tushuntirishda yordam beradi. Bu vosita interaktiv ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi[5.B – 8].

Tanlangan modelning imkoniyat va cheklovlarini tushunish - ChatGPT kabi modellar ma’lumotlarga asoslangan statistik tizim bo‘lib, ular yangi bilim

yaratmaydi, balki mavjud axborot asosida javoblarni taklif etadi. Shuning uchun quyidagilarga e’tibor qaratish muhim:

- Modelning so‘nggi bilim darajasi va yangilanish sanasini bilish;
- Undagi imkoniyatlar (til, soha, mantiqiy tahlil chuqurligi) va cheklovlarni hisobga olish;
- Ilmiy faktlar bo‘yicha ma’lumotlarni har doim ishonchli manbalar bilan tekshirish.

Ilmiy etika va mualliflik masalasiga rioya qilish - Sun’iy intellektdan foydalanishda ilmiy halollik va mualliflik huquqlari e’tibordan chetda qolmasligi kerak:

- AI yordamida yozilgan matnni butunlay o‘z ishingiz sifatida ko‘rsatish mumkin emas;
- Foydalanilgan AI xizmatlari maqola yoki dissertatsiyada alohida qayd etilishi zarur (masalan: “Ushbu ishda ChatGPT modelidan yordam sifatida foydalanildi”);
- Manba ko‘rsatish va tekshirish tartibi saqlanishi kerak.

O‘zbek tilidagi AI resurslarini rivojlantirish zarurati - O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellektdan samarali foydalanish uchun mahalliy til resurslarini boyitish va rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi:

- O‘zbek tilida ko‘proq ilmiy matnlar, audio-video ma’lumotlar bilan modellarni o‘qitish;
- Rasmiy terminlar bazasini yaratish;
- O‘zbek tili uchun maxsus sun’iy intellekt modellarini ishlab chiqish (lokal LLM’lar).

Ilmiy hamjamiyatda sun’iy intellekt bo‘yicha savodxonlikni oshirish - Sun’iy intellektdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, tadqiqotchilar va talabalarning texnologiyaga oid bilimlarini rivojlantirish muhim:

- Universitetlar va ilmiy markazlarda AI bo‘yicha treninglar, seminarlar o‘tkazish;
- Ilmiy ishlarni tayyorlashda AI vositalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish;
- Akademik yozuv va axborot texnologiyalari integratsiyasini kuchaytirish[6..B – 17].

Xulosa: ChatGPT modeli ilmiy faoliyatda, ayniqsa, matn bilan ishlash, tarjima qilish va ilmiy fikrlarni shakllantirish bosqichida kuchli ko‘makchi sifatida foydalanilishi mumkin. Albatta, bu model inson aqlini to‘liq almashtira olmaydi, ammo ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. ChatGPT modeli O‘zbekiston sharoitida o‘zbek tilida foydalanish uchun katta salohiyatga ega. U ilmiy tadqiqotlar, tarjimalar, ta’lim va axborot texnologiyalari sohalarida samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vasilyeva, T., & Ivanov, D. (2023). *The Role of AI in Scientific Research: An Overview of Recent Developments*. Journal of Artificial Intelligence Research, 32(1), 45-58. [1.B – 22]
2. OpenAI. (2022). *ChatGPT: A Language Model for Conversational AI*. OpenAI Technical Report. [2.B – 15]: [3.B – 24]

3. Chen, X., & Zhang, L. (2021). *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities*. Educational Technology Review, 20(3), 112-130. [4.B – 11].
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi qarori. [5.B – 8]. [6.B – 17].
5. www.google.com
6. https://chatgpt.com

MUNDARIJA

1 SHO'BA: YANGI O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK TA'LIMNI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI			
1.	Turaxanov Ummatali	Directly connection of modern psychology with pedagogy	**3**
2.	Акрамова Феруза	Основные факторы насилия в семье и необходимость проведения профилактических мер	**5**
3.	Maxsudova Mutabarxon	Psixologik ta'lim va xizmatning psixolog olimlar tomonidan talqin etilishii	**10**
4.	Kurbanova Zarifa	Psixologiya fani rivojlanish tendensiyalari va psixologik ta'lim	**14**
5.	Raxmatova Xayrixon	O'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash va tarbiyalash	**18**
6.	Asqarova O'g'ulxon	Oilada farzandlarni ma'naviy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda xalq pedagogikasidan foydalanish	**22**
7.	Alijonova Shaxzoda, Nilufar Abdullayeva, Masuda Abdullayeva	Yangi o'zbekistonda psixologik ta'limni tashkil etish tendensiyalari	**26**
8.	Turg'unboeva Azizaxon	Namangan viloyatida etnomilliy qadriyatlarning ijtimoiy- etnopsixologik taxlili.	**29**
9.	Kulaxmetov Abdusattor	Psixologik ta'limda ilk o'spirinlik davri o'quvchilarining sahxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar	**33**
10.	Ganiev Akhrorjon	The system of training and licensing professional psychologists in south korea: implications for uzbekistan	**37**
11.	No'monjonova Gulshoda, Abduvohidova Malikajon	Yangi o'zbekistonda psixologik talimni tashkil etish tendensiyalari	**43**
12.	Rustamova Turdixon	Ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etish tendensiyalari	**46**
13.	Amirova Nazokat, Abdullayeva Farida	Psixologik xizmat xodimlari kasbiy motivlarining psixologik-pedagogik shart-sharoitlari.	**50**
14.	Mirvaliyeva Maxliyo	Zamonaviy sohalarda psixologik xizmat va uning amaliy ahamiyati	**54**
15.	Turg'unpo'latova Musharraf	Psixologik ta'limni tashkil etish tendensiyalarining xorij tajribasi	**58**
16.	Turaxanov Ummatali, Urayimova Muqaddam	Oliy ta'limga moslashuvchanlikning ijtimoiy va psixologik mexanizmlari: zamonaviy yondashuvlar	**62**
17.	Mullaboyeva Nargiza	Texnik yo'nalishlarda verbal kommunikatsiyani rivojlantirish psixologik xizmatning asosi sifatida	**67**
18.	Jalilova Saboxat	Tibbiyot psixologi faoliyatining asosiy yo'nalishlari	**71**
19.	Inamov Dilmirza	O'qituvchining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	**75**
2- SHO'BA. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TA'LIM VA PSIXOLOGIYANI O`QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI			
20	Turaxanov Ummatali	Shaxs shakllanishida diniy identifikatsiyaning ijtimoiy psixologik roli.	**78**

21	Kurbanova Zarifa	Gumanitar fan sifatida psixologiyani o‘qitish maqsadi	**80**
22	Toshpulatov Ibrohim, Muxammadjanova Muhlisa	Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarining ijtimoiy muhitga ta’siri va uning amaliy ahamiyati	**84**
23	Boltayeva Muxayyo Lutfullayevna.	Tizimli yondashuv asosida o‘qituvchining pedagogik faoliyatini loyihalashtirishning pedagogik asoslari	**90**
24	Мансурова Гульмира	Особенности интерактивных методов обучения в преподавании психологических дисциплин в вузе.	**92**
25	Sharipova Umidaxon	Zamonaviy psixologik ta’lim va psixologiyani o'qitishning innovatsion texnologiyalari	**96**
26	Najmidinova Guzal	Yangi o‘zbekistonda psixologiya ta’limida stressni boshqarish va ijtimoiy muvozanatni ta’minlash	**100**
27	Kamoldinov Anvarjon	O‘smirlarda emotsional-irodaviy jarayonlarning rivojlanishida dinning ahamiyati	**103**
28	Агзамова Малика, Нарчаев Артур	Психологическое исследование: связь личностной креативности с выбором профессиональной деятельности у студентов-психологов.	**107**
29	Omonova S.M., Xamrayeva Sh. Sh.	Zamonaviy psixologiyada virtual olam ta’sirini o’rganish masalalari	**111**
30	Ro‘ziyeva Nafosat	Talabalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy ta’limning psixologik xususiyatlari	**116**
31	Avazjon Aminjonov, Ganiev Akhrorjon.	Language anxiety and speaking fluency: a psycholinguistic analysis of uzbek learners of English	**119**
32	Bannayev Maxamadin	O‘spirinlik davridagi depressiv holatlar yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari	**124**
33	Turg‘unboyev Sirojiddin	Zamonaviy psixologiyada oila psixologiyasining o‘rni va tarixiy asoslari	**127**
34	K.A. Xo`shboqov, Xudoyberdiyeva Iroda	Psixik jarayonlar va miyaning o‘zaro aloqadorligi	**131**
35	Omonova Sevara Toshova Sharofat	Bugungi kunda shaxsda hissiy jarayonlar buzilishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri	**135**
36	Ataboyev Navro’zbek	Milliy va diniy qadriyatlar shaxslararo munosabatlarning shakillanishidagi axamiyati. Shaxslararo munosabatlarning ta’lim jarayonidagi ro’li	**139**
37	Рахмонова Гузал	Гендерные различия профессиональной идентичности среди студентов	**142**
38	Абдурахманова Нафосат	Ёшларда диний тасаввур ва диний психология шаклланишининг муҳим омиллари ҳақида шарқ мутафаккирларининг қарашлари.	**146**
39	Vaxabova Nasiba	Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bell-lankestr tizimidan foydalanish va talaba qizlar o‘rtasida hamkorlik modelini ishlab chiqish	**149**
40	Жахонгирова Тожихон	Маҳаллалар билан ишлашда оғир тоифадаги оилаларга психологик хизмат кўрсатиш	**153**
41	Otamuratov Rustam, Sherqulova Gulshan	Zamonaviy ta’lim tizimida psixologiya fanini o‘qitishda innovatsion metodlarning ahamiyati	**157**

42	Sobitova Madinabonu	Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda yangi o‘zbekiston universitetlarining roli	**161**
43	Dexkonova Marg’uba Abdurahimov Adashali	Zamonaviy psixologik ta`limda liderlik ko`nikmalarini rivojlantirishda alfred adlerning G’oyalaridan foydalanish	**164**
44	Ismatova Maftuna, Maxsudova Mutabar	Zamonaviy psixologik ta’lim va psixologiyani o'qitishning innovatsion texnologiyalari	**168**
45	Vaxabova Nasiba, Umirova Zamira	Ilm-fan va ta’limning innovatsion rivojlanishi muhitida talaba qizlarning oilaviy hayotga tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarning, xususan blended learning (aralash ta’lim modeli) o‘rni va ahamiyati	**172**
46	Masharipova Saida	Yosh oilalarning adaptatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar	**177**
3-SHO’BA: TA’LIM, TIBBIYOT VA HUQUQ-TARTIBOT TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING USTUVOR YO`NALISHLARI			
47	Maxsudova Mutabarxon, Tursunova Bibirajab	Yangi O’zbekiston ta’lim tizimidagi o’zgarishlarning psixologiya fanlari rivojiga ijobiy ta’siri	**185**
48	Akbarov Soxodilla	Psixologik xizmat tizimida o‘quvchilarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini shakllantirish	**188**
49	Lutfullo Tursunov	Kognitiv jarayonlar ta’sirida psixologik ta’limda o’quvchi zehnini namoyon bo’lishining o’ziga xos qirralari	**192**
50	Kurbanova Zarifa, Berdiboyeva Nozima	Inson ruhiyati va organizm funksional holatining o‘zaro bog‘liqligi	**196**
51	Toshpulatov Ibrohim. Abduqahharova Nigora	Shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning ta’siri	**201**
52	Djumanazarov Yokubjon, Atamirzayev B.	Huquq - tartibot tizimida psixologik xizmatning ustuvor yo`nalishlari	**205**
53	Ergasheva Dilorom	“Kasbiy indentifikatsiya” tushunchasining psixologik tahlili	**209**
54	Kulatova Svetlana	Axborot -psixologik xavfsizlik va o‘smirlarning psixik himoya mexanizmlari	**212**
55	Kurbanova Zarifa. Murodullayeva Malika	Bo‘lajak psixologlarda kasbiy identifikatsiya rivojlanganlik darajasini aniqlash	**215**
56	Vaxabova Nasiba. Jo'raboyeva Mavluda	Talaba qizlarda oilaviy hayotga nisbatan psixologik qo‘rquvni bartaraf etish mexanizmlari	**220**
57	Toshpo‘latova Durdona	Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishning dolzarb masalalari	**224**
58	G‘aniyeva Nargiza	O‘smirlarda shaxsiy salohiyatni anglash va uni namoyon etishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	**229**
59	Bannayev Maxamadin	O‘spirinlik davridagi depressiv holatlar yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari	**232**
60	Qayumov Baxtiyor	Oliy ta’limda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning pedogogik muvaffaqiyati	**235**

61	Kamilov Rashid	Ta’lim tizimida psixologik xizmatlarni yo‘lga qo‘yishning ahamiyati va uning hozirgi davrdagi ustuvor yo‘nalishlari	**239**
62	Turg‘unpo‘latova Musharraf	Huquq-tartibot tizimida psixologik xizmatning ustuvor yo‘nalishlari	**243**
63	Maxsudova Mutabarxon	Ta’lim, tibbiyot va huquq-tartibot tizimida psixologik xizmatning ustuvor yo‘nalishlari	**246**
64	Sherjanova Nodira	Main aspects of empathy and kindness manifestation in adolescents growing up in migrant families	**249**
65	Otajanov Olimboy	Yuqori sinf o’quvchilarida kasbga moyillikni tarbiyalash	**253**
66	Rajabboyev Asror	O‘smirlar agressiyasining ijtimoiylashuviga ta’sirini xalqaro tadqiqotlarda o‘rganilishi	**256**
67	Рахмонов Музаффар. Ортикбоева Райхона. Каюмова Сарвиноз	The importance of psychological training in sports activities	**259**
68	Otabek Abduraxmonov	Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlanish bosqichlari	**263**
69	Alijonova Shaxzoda. Nilufar Abdullayeva. Masuda Abdullayeva	Autism spektrida buzilish aniqlangan bolalar ta’lim tarbiyasida ota-onalarning roli	**268**
70	Dexkonova Marg’uba. Sayfullayev Ulug’bek.	Ta`lim tizimida intellektual qobiliyatlarni yuzagaga chiqarish muammolari	**271**
71	Ishankulova Gulzoda	O‘zbek oilalarida xotin qizlarga tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini oldini olish psixologik muammo sifatida	**275**
72	Yo’ldosheva Kamolaxon	Boshlang‘ich sinf o`quvchilari shaxsini rivojlantirishga psixologik yondashuvlar	**281**
73	Сулейманова Альбина. Жузбаев Нурлан	Профессиональные способности педагога и их влияние на эффективность методической компетентности	**285**
74	Arabboyeva Zahroxon	Jamiyat yasagan qoidalar: gender stereotiplari hayotimizni qanday shakllantiradi	**290**
75	Soliyeva Dilfuza	koordinatsion qobiliyatlar: psixofiziologik mexanizmlar va pedagogik yondashuvlar	**294**
76	Dexkonova Marg’uba Jumaboyeva Munira	Diqqat xususiyatlarini ta’lim samaradorligiga erishishdagi ahamiyati	**298**
77	Ergasheva Diloramxon	Talabalik davrida kasbiy indetifikatsiyani shakllanishiga kasbiy tayyorgarlikning ta’siri	**301**
78	Аппакова Дилафрўз	Оилавий зўравонликни олдини олиш ва оилавий зўравонликлардан жабр кўрганларга амалий ёрдам кўрсатиш.	**305**
4 SHO‘BA: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING PSIXOLOGIK TA’LIM VA PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI			
80	Maxsudova Mutabarxon, No’monjonova Gulshoda, Abduvohidova Malikajon	Raqamli texnologiyalarning psixologik ta’lim va psixologik xizmat samaradorligiga tasiri	**310**
81	G’aybullayev A’zam	Tibbiyot tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirish strategiyalari	**312**

82	Kurbanova Zarifa, Berdiboyeva Nozima	Funksional va ruhiy holatlarni o‘rganish metodlari tavsifi	**316**
83	Yo.Djumanazarov, G.Jumanazarov	Yoshlar tarbiyasida psixologik xizmat va psixologik profilaktika	**321**
84	Vaxabova Nasiba	Talaba qizlarning oilaga psixologik jihatdan tayyorlashda raqamli texnologiyalarning samarali ta’siri	**324**
85	Rustamova Turdixon	Raqamli texnologiyalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	**330**
86	Мансурова Гульмира	Эффективность психологического образования в век цифровых технологий	**333**
87	Umirzoqova Shodiya	Ta’lim tizimida o’smirlik davrida destruktiv xulq-atvorni tuzatish choralari	**337**
88	Arabboyeva Zahroxon	Gender identifikatsiyasining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar	**341**
89	Abduhakimova Muslima	Sun’iy intellektning talabalar kognitiv jarayonlariga ta’siri: muammo va yechimlar	**344**
90	Raximjanova Dilshoda, Maxsudova Mutabarxon	Hozirgi zamonaviy jamiyatda asotsial xulqning rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining ta’siri	**348**
91	G’iyosiddinov Muhriddin	Tiktok messenjerining o‘smir shaxsiga salbiy ta’sirlari va ularni bartaraf etish yo‘llari	**351**
92	Aralova Chamanoy	O’spirinlik davridagi psixologik muammolar	**355**
93	Kadirova Muhayyo	Talabalar intellektini psixologik xizmat vositasida faollashtirishning zamonaviy uslublari	**359**
94	Yo’ldosheva Kamolaxon	Boshlang‘ich sinf o`quvchilari shaxsini rivojlantirishga psixologik yondashuvlar	**364**
95	Bazarova Shaxnoza	Og`ir ahvolga tushgan va og`ir ahvolga tushish xavfi yuqori bo`lgan aholiga depressiyada psixoterapiya usullari	**367**
96	Sharipova Umidaxon	Raqamli texnologiyalarning psixologik ta’limda qo’llanilishi	**372**
97	Toshmirzayeva Muhayyo	Professional ta’limda dual ta’lim oluvchilarga psixologik xizmat ko‘rsatishning nazariy asoslari, yo‘nalishlari va xorijiy tajribalar	**376**
98	Diyarov Navro`z	Harbiy sohalarda psixologik xizmatning o`ziga xos jihatlari va ustivor yo`nalishlari	**380**
99	Urayimova Muqaddam	Oliy ta’limga moslashuv jarayonida talabalar duch keladigan ijtimoiy va psixologik muammolar	**385**
100	Pardaqulov Norbek	Talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida kreativlik xususiyatlarini tarbiyalash	**389**
101	Abdujabborova Saodat	1920-1930-yillarda samarqand viloyatida xotin-qizlar uchun yaratilgan huquqiy asoslar va ijtimoiy sharoitlar	**393**
102	Abduraxmonov Otabek	Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlanish bosqichlari	**397**
103	Kurbanova Zarifa Murodullayeva Malika	Bo‘lajak psixologlarda kasbiy identifikatsiya rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar	**402**
104	Bekchanov Xusainboy Ko’shakova Barno	Zamonaviy oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasining nazariy asoslari	**406**

105	G’aybullayev A’zam	Yoshlarda yolg’izlik sindromi: uning sabablari va pedagogik-psixologik profilaktika usullari	**409**
106	Rustamova Turdixon Jumaboyeva Munira	Zamonaviy mehnat muhitida motivatsiyaning psixologik asoslari	**413**
107	Axrorov Zohidjon	Ijtimoiy ish mutaxassislarining kasbiy rivojlanishida ijtimoiy va shaxsiy muammolar (ijtimoiy pedagog misolida)	**416**
108	Yaqubova Shirin Karimberganova Shaxrizoda	Zamonaviy oilalarda o‘zaro virtual muhitni psixodiagnostik tahlili	**420**
109	Dexkonova Marg’uba	Zamonaviy psixologiyada art terapiya va musiqa terapiya usullaridan foydalanish	**424**
110	M.X.Tashibekova	Steam yondashuvi asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini loyihaviy faoliyatga yo’naltirish.	**428**
111	Qurbanova Dilobar	O’quvchilarda o’zgarishlarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy va psixologik jihatlar.	**432**
112	Pirjonov Sarvarbek	Shaxsdagi empatik qobiliyatlarning ijtimoiy psixologik ahamiyati	**436**
113	Каримова Гулмира	Мактаб ёшидаги болалар психологияси: ривожланиш йўналишлари ва психодиагностика усуллари	**440**
114	Abdulxayeva Maftuna	Yoshlarning ma’naviy ta’lim-tarbiyasida o’zbek milliy harakatli o’yinlarining ahamiyati	**442**
115	Boymirzayeva Nafisaxon	O‘qituvchi faoliyatida kasbiy stress va uni keltirib chiqaruvchi omillar	**444**
116	Maxsudova Mutabarxon Kamoliddinov Anvarjon	Yangi o’zbekistonda psixologik ta’lim berishda gender tenglikning o‘rni va ta’siri	**449**
117	Otamuratov Rustam, Jurayeva Muxlisa	Mamlakatimizda psixologiya fanini o‘qitishning zamonaviy bosqichi	**452**
118	Kamilov Rashid	Texnologik imkoniyatlar ichida chatgpt hamda sun’iy intelektning ta’lim va hizmat samaradorligiga ijobiy ta’siri	**457**

“YANGI O‘ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK TA’LIM VA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

20-21 IYUN 2025-YIL

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ “АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ”

2025-ГОД 20-21 ИЮНЯ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON “CURRENT PROBLEMS OF ORGANIZING PSYCHOLOGICAL EDUCATION AND PSYCHOLOGICAL SERVICES IN NEW UZBEKISTAN”

2025 YEAR 20-21 JUNE

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI